MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

"UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIM METODIKALARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR"

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI



16-SENTABR, 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

QORI NIYOZIY NOMIDAGI TARBIYA PEDAGOGIKASI MILLIY INSTITUTI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2025-yil 16-sentabr

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE REPUBLIKAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “INTRODUCTION OF SOCIO-EMOTIONAL EDUCATION METHODS IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS”

September 16, 2025

Toshkent 2025

ISSN: 2181-3337

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami, (2025-yil 16-sentabr) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Zulayxo Xakimova, Iqboloy Sobirova, Mamirova Munisa, Asila Khaydaraliyeva

Tahririyat hay’ati a’zolari

X.I. Ibraimov	*Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi akademik.*
R.X. Djurayev	*Pedagogika fanlari doktori, O‘zFA haqiqiy a’zosi akademik.*
H.M. Tojiboyeva	*Pedagogika fanlari doktori, professor.*
R.G. Safarova	*Pedagogika fanlari doktori, professor.*
L.M. Qaraxonova	*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) k.i.x.*
M.A. Umaraliyeva	*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) k.i.x.*
K.A.Karimov	*Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
A.Gulyamova	*TPMI tayanch doktoranti, katta ilmiy xodim*
Sh.Namazov	*TPMI tayanch doktoranti, katta ilmiy xodim*

© Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum hurmatli anjuman ishtirokchilari, hurmatli ustozlar, maktab psixologlari, ilm-fan va ta’lim sohasidagi mutaxassislar!

Sizlarni 2025-yil 16-sentabr kuni bo‘lib o‘tadigan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanida ishtirok etganingiz uchun chin dildan qutlaymiz. Hurmatli mehmonlar, xush kelibsizlar!

Bugungi kunimizda ijtimoiy-emotsional ta’lim masalalari maktab va ta’lim tizimida eng dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki farzandlarimizning ruhiy, hissiy va ijtimoiy rivojlanishi ularning kelajakdagi muvaffaqiyati va jamiyatda faol fuqarolar sifatida shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu bois, ijtimoiy-emotsional ta’limni joriy etish, uning samarali metodikalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish muhim vazifa sifatida qaraladi.

Taniqli pedagoglar va psixologlar ta’kidlaganidek, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar bolalarning o‘zaro muloqotini, empatiya va muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli, o‘qituvchilar, maktab psixologlari, ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarni qo‘llash ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishi mumkin.

Aziz ishtirokchilar! Umid qilamizki, bugungi anjuman doirasida olib boriladigan ilmiy-ma’rifiy muhokamalar, tajriba almashuvlar va tavsiyalar ijtimoiy-emotsional ta’limning samarali metodikalarini rivojlantirish va ta’lim tizimida keng tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

E’tiboringiz uchun rahmat! Anjumanning ishiga ijodiy muvaffaqiyat tilayman!

Xolboy Ibraimov
Qori Niyoziy nomidagi TPMI direktori
pedagogika fanlari doktori, akademik

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM (SEL): XALQARO TAJRIBA VA O‘ZBEKISTON TA’LIM SIYOSATIGA INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI

Ibraimov Xolboy Ibragimovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, akademik, loyiha rahbari

Ta’limning eng yuqori ko‘rsatkichi -
bu bag‘rikenglikdir
Amerikalik yozuvchi, jamoat arbobi,
filantrop, pedagog Xelen Keller

Zamonaviy dunyoning ko‘plab rivojlangan davlatlarida, jumladan AQSh, Finlyandiya, Avstraliya, Singapur kabi mamlakatlarda, ijtimoiy-hissiy va inklyuziv yondashuvga asoslangan pedagogik tayyorlov zamonaviy ta’lim siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Bu mamlakatlarda o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlari, balki ularning empatiya, o‘zini anglash, stressni boshqarish va ijtimoiy ong kabi hissiy-kompetensiyalarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuv bugungi globallashuv davrida ta’limning insonparvar, barqaror va inklyuziv shakllanishiga xizmat qiladi.

Ta’limda ijtimoiy-emotsional komponentlarning dolzarbligi xalqaro miqyosda ham e’tirof etilgan. Jumladan, 1994-yilda YUNESKO tomonidan qabul qilingan **Salamanka deklaratsiyasi** va 2000-yilda Dakar shahrida o‘tkazilgan **Butunjahon Ta’lim Forumi**da e’lon qilingan **“Ta’lim – barcha uchun” harakat dasturi** (Dakar Framework for Action)[1] inklyuziv va adolatli ta’lim tizimlari orqali ijtimoiy barqarorlikka erishishni global ustuvor yo‘nalish sifatida ilgari surgan. Ushbu xalqaro hujjatlarda ta’kidlanishicha, inklyuziv yo‘naltirilgan ta’lim muassasalari bu — “ta’limda diskriminatsiyalarga qarshi kurashishning eng samarali vositasi, ijtimoiy birlikni mustahkamlash va har bir bola uchun ochiq o‘quv muhitini yaratish kafolati” [2]dir.

Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy-hissiy ta’lim nafaqat inklyuzivlikni qo‘llab-quvvatlovchi, balki undan ham kengroq — har bir bolaning shaxs sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiluvchi universal pedagogik tamoyil sifatida qaralayapti. Bu ayniqsa, zamonaviy boshlang‘ich ta’limda muhim o‘rin tutadi. Chunki aynan boshlang‘ich sinflarda bola o‘zini anglaydi, ijtimoiy muhit bilan munosabat o‘rnatadi, hissiy jihatdan barqarorlashadi va o‘zini ifoda etishni o‘rganadi. Mazkur bosqichda o‘qituvchilarning ijtimoiy-hissiy savodxonligi, empatik yondashuvi va moslashuvchan pedagogik strategiyalarga ega bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu xalqaro yondashuvlar fonida O‘zbekistonda ham ijtimoiy-hissiy ta’lim komponentlarini amaldagi ta’lim tizimiga integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Jumladan, “Ta’lim – inson kapitalining asosiy elementi” sifatida belgilangan davlat siyosati, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – maktabdan boshlanadi” tamoyili, inklyuziv ta’lim bo‘yicha qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar (masalan, 2020-yildagi inklyuziv ta’lim konsepsiyasi [3]) ushbu yo‘nalishdagi islohotlarga zamin bo‘la oladi.

Shu asosda aytish mumkinki, xalqaro tajribada ijtimoiy-hissiy ta’limga berilayotgan e’tibor O‘zbekistonning ta’lim siyosati va pedagogik amaliyotida ham dolzarb bo‘lib, uni tizimli ravishda o‘quv dasturlariga, o‘qituvchi tayyorlash kurslariga hamda maktab muhitiga integratsiya qilish hozirgi islohotlarning mantiqiy davomidir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, zamonaviy ta’lim tizimlarida faqat akademik natijalarga emas, balki o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham e’tibor qaratish muhim hisoblanadi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) – bu o‘zini anglash, boshqarish, empatiya, ijtimoiy ong va hodisalarni mas’uliyat bilan hal qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi muhim pedagogik yondashuvdir. O‘zbekistonda bu yondashuv inklyuzivlik, ta’limning sifatini oshirish va demokratik rivojlanishga asosiy zamin bo‘lmoqda. IET (ijtimoiy-emotsional ta’lim) zamonaviy pedagogik konsepsiya bo‘lib, o‘quvchilarning **his-tuyg‘ulari, ijtimoiy muomala ko‘nikmalari, mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi fazilatlarini rivojlantirishga** qaratilgan. Bu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-emotsional ta’limning nazariy poydevori bir necha muhim ilmiy maktablarga tayanadi:

1. Lev Vygotskiy: ijtimoiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola tafakkuri va hissiyoti ijtimoiy muhitda, til va muloqot orqali shakllanadi. Shuning uchun ham sinfdagi ijtimoiy dinamika – o‘quvchining emotsional va aqliy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. Daniel Goleman: emotsional intellekt nazariyasiga asoslanib, u shaxsning o‘z hissiyotlarini anglab, boshqarishga qodirligi – ijtimoiy muvaffaqiyatga eltuvchi omillardan biri ekanligini isbotlagan [4].

3.Erik Erikson: bolalikda shaxsiy identifikatsiya va ijtimoiy rollarni shakllantirish jarayonida hissiy barqarorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlov muhim ahamiyat kasb etishini urg‘ulaydi [5].

Ijtimoiy-emotsional ta’lim inklyuziv ta’limning mazmuniy asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki inklyuziv muhitda har bir bola – ijtimoiy kelib chiqishi, imkoniyati yoki madaniy farqlaridan qat’i nazar – o‘zini qadrlangan va qabul qilingan his qilishi zarur. Ijtimoiy-emotsional ta’lim aynan shunday muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida ham ijtimoiy-emotsional ta’limga oid siyosiy, huquqiy va metodik asoslar shakllanib bormoqda. Xususan, Prezident farmoni bilan qabul qilingan “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” (2020–2025) [3] yillarda ta’limning ochiqligi, tengligi va adolatliligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan; 2023-yilda "Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili" deb e’lon qilinishi ta’lim jarayonida bolalarning psixologik holatini, hissiy farovonligini inobatga olish zaruratini tasdiqladi; YUNISEF, USAID, SmartED kabi xalqaro hamkorlik loyihalari orqali maktablar, ayniqsa, inklyuziv sinflarda IET elementlarini joriy qilishga doir dasturlar amalga oshirilmoqda. Mazkur maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim va uni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha xalqaro tajribalarni ko‘rib chiqamiz.

1. AQSh tajribasi: SEL konsepsiyasining shakllanishi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim konsepsiyasi ilk bor AQShdagi CASEL (Collaborative for Academic, Social and Emotional Learning) [6] tashkiloti tomonidan 1994-yilda ilmiy asoslab berilgan. Mazkur tashkilot ijtimoiy-emotsional ta’limning besh asosiy kompetensiyasini aniqlagan va ularni maktab dasturlariga integratsiya qilish bo‘yicha milliy standartlar ishlab chiqqan. Bu kompetensiyalar quyidagilar:

1. O‘zini anglash (self-awareness) – shaxsiy hissiyotlar, qadriyatlar va o‘z qobiliyatlarini tushunish;

2. O‘zini boshqarish (self-management) – hissiy holatlarni nazorat qilish, maqsadlarga erishishda qat’iylik ko‘rsatish;

3. Ijtimoiy ong (social awareness) – boshqa insonlarga nisbatan empatiya va hurmatni namoyon etish;

4. Shaxslararo munosabatlarni boshqarish (relationship skills) – sog‘lom va mazmunli munosabatlar o‘rnatish;

5. Mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making) – ijtimoiy va axloqiy tamoyillarga asoslangan qarorlar chiqarish.

Bugungi kunda AQShning ko‘plab shtatlarida (Illinois, California, New York va boshqalar) SEL maktab o‘quv dasturlarining ajralmas qismiga aylangan. Maktablar o‘quvchilarni ruhiy salomatlikni mustahkamlash, sinf ichida hamkorlikni oshirish va stressni boshqarish bo‘yicha faol metodik vositalardan foydalanmoqda. CASEL ma’lumotlariga ko‘ra, SEL dasturlari o‘quvchilarning akademik natijalarini 11% ga oshirgan (Durlak et al., 2011).

2. Finlyandiya tajribasi: farovonlik va barqarorlikka yo‘naltirilgan yondashuv.

Finlyandiya ta’lim tizimi dunyoda eng barqaror, insonparvar va o‘quvchi markazli tizimlardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda SEL alohida fan sifatida emas, balki **ta’limning barcha bosqichlariga chuqur integratsiya qilingan umumiy pedagogik tamoyil** sifatida amalga oshiriladi. Finlyandiyada:

– o‘quvchilar psixologik farovonlik markazida bo‘ladi;

– o‘qituvchilar hissiy barqarorlik va empatiyani rivojlantirish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tadi;

– har bir maktabda professional psixolog va maxsus pedagog faoliyat yuritadi;

– baholash tizimi raqobatdan ko‘ra rivojlanish dinamikasini hisobga oladi.

Finlyandiyaning SELga yondashuvi o‘zining tabiiy integratsion xususiyati bilan ajralib turadi: har bir darsda ijtimoiy muloqot, hamkorlik, muammoni birgalikda hal qilishga e’tibor qaratiladi.

3. Avstraliya tajribasi: Milliy SEL standartlari.

Avstraliyada SEL bo‘yicha yondashuv **Avstraliya Milliy o‘quv dasturi (Australian Curriculum)** doirasida amalga oshiriladi. Maktab ta’limining barcha bosqichlarida “Personal and Social Capability” deb nomlangan ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar bloklari mavjud. Ushbu komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– shaxsiy emotsiyalarni tushunish va boshqarish;

– mustaqillikni shakllantirish;

– empatiya va madaniy sezuvchanlik**;**

– konfliktni konstruktiv hal qilish.

Avstraliyada SEL, ayniqsa, **psixologik sog‘lomlikni mustahkamlash, zo‘ravonlik va maktab ichki agressiyasining oldini olish**da samarali deb topilgan. Maktablarda SEL bo‘yicha “Friendly Schools”, “You Can Do It!” kabi dasturlar faol joriy etilgan.

4. Singapur tajribasi: intizom va emotsional intellekt uyg‘unligi.

Singapurda SEL o‘quvchilarning **shaxsiy fazilatlari, fuqarolik madaniyati va axloqiy me’yorlarni shakllantirish** bilan bevosita bog‘liq. Maktablarda “Character and Citizenship Education (CCE)” dasturi orqali ijtimoiy va emotsional kompetensiyalar rivojlantiriladi. CCE dasturi quyidagi maqsadlarni o‘z ichiga oladi:

– o‘quvchilarning o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini shakllantirish;

– mahalliy va global jamiyatga nisbatan ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish;

– fuqarolik faoliyati va ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarga rag‘batlantirish. Singapurda har bir maktabda maxsus “Student Well-being Department” mavjud bo‘lib, o‘quvchilarning emotsional salomatligini kuzatib boradi, zarur hollarda individual maslahatlar beriladi. Ijtimoiy-hissiy ta’lim dunyo bo‘ylab universal pedagogik tamoyilga aylanmoqda.

Barcha xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-hissiy ta’limning muvaffaqiyati nafaqat ta’lim muassasalarining tashkiliy faoliyatidan, balki davlat siyosati, pedagog kadrlar tayyorlash tizimi, o‘quv dasturlari va jamiyatning ta’limga bo‘lgan yondashuvidan ham bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham SELni samarali integratsiya qilish uchun milliy ta’lim strategiyasini yaratish, o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish, maktab psixologik xizmatlarini kengaytirish va jamoatchilikni xabardor qilish kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Natijada, ijtimoiy-hissiy ta’lim nafaqat o‘quvchilarning emotsional farovonligini ta’minlash, balki ularni jamiyatda mas’uliyatli, bag‘rikeng va ijtimoiy moslashuvchan shaxslar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa milliy ta’lim tizimining sifat va samaradorligini oshirishda, inson kapitalini rivojlantirishda hamda barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishda muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. lbraimovX., Quronov M. Umumiy pedagogika[Matn]. Darslik. T., "Sahhof", 2023, 416-bet.
2. lbraimov X., Quronov M., lbragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., "Sahhof", 2023.392-bet.
3. Ота-она - мураббий [Матн] / Х.Ибраимов, М.Куронов, Ж.Фозилов, Ф.Зарипов; - Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2024. - 220 б.
4. Х.Ибраимов ва бошқалар.Нажот тарбияда. -Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. -2025. – 60 б.
5. Х.Ибраимов ва бошқалар. Гўзал ҳулқ моделлари. – Тошкент.: “Илм зиё заковат” нашриёти. -2025 й. 80-б.
6. Х.Ибраимов ва бошқалар. Маънавий-ахлоқий тарбия методлари. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2025. - 68 б.
7. Х.Ибраимов ва бошқалар. Миллий тарбия хрестоматияси. Умумий ўрта таълим мактаблари учун. – Тошкент.: “Илм зиё заковат” нашриёти. -2025 й. 180-б.
8. https://www.un.org/millenniumgoals/
9. https://lex.uz/docs/5044711 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktyabrdagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 y.
10. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books.
11. Zins, J.E., Weissberg, R.P., Wang, M.C., & Walberg, H.J. (Eds.). (2004). *Building Academic Success on Social and Emotional Learning.* Teachers College Press..
12. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). *(2020). CASEL Framework.* www.casel.org

O‘QUVCHILARINI MILLIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

O.T.Abdug‘aniyev
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Ilmiy kotibi p.f.b.f.f.d.(PhD), dotsent, loyiha a’zosi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Ta’lim jarayonida raqamli vositalar, interaktiv metodlar, kvest va gamifikatsiya elementlari, aqliy xaritalar, multimediya taqdimotlari hamda ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, Vatanga sadoqat, tarixiy merosga hurmat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish yo‘llari tahlil qilingan. Shu bilan birga, “Oila–Maktab–Mahalla” hamkorligi doirasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning afzalliklari ochib berilib, xalqaro tajribalar asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarning pedagogik ta’sir vositalari orqali yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy vatanparvarlik, innovatsion texnologiyalar, pedagogik imkoniyatlar, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, raqamli ta’lim, o‘quvchilar tarbiyasi, Oila–Maktab–Mahalla hamkorligi, milliy qadriyatlar, fuqarolik mas’uliyati*

Globallashuv va axborot asrida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ularning Vatanga sadoqati, tarixiy merosga hurmati va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish bugungi kun ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan davlat dasturlari va konseptual hujjatlarda milliy tarbiya, vatanparvarlik, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanmoqda. Shu jarayonda ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish o‘quvchilarda milliy g‘ururni shakllantirishda samarali vosita sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasi[1]da yoshlar masalasiga to‘xtalar ekan: “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga nafaqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovasiya bilan erishamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” degan ushbu murojaati mazmunida ham o‘quvchilarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yosh-avlodni ma’naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash pedagoglar oldida turgan eng muhim muammodir.

Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, milliy qadriyatlarni yangicha shaklda o‘zlashtirish va ular orqali shaxsiy hayotiy pozitsiyasini shakllantirish imkonini beradi. Ayniqsa, interaktiv metodlar, gamifikatsiya, kvest topshiriqlar,

[1] Халқ сўзи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” 2020 й. 25 январь №-19 сон

aqliy xaritalar, multimediya vositalari va raqamli ta’lim platformalari milliy tarbiyaning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Milliy vatanparvarlik – bu shaxsning Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, davlat ramzlariga ehtirom bilan munosabat va yurt taraqqiyoti uchun mas’uliyat his qilish kabi fazilatlarni mujassamlashtiruvchi kompleks tushunchadir. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ularda nafaqat tarixiy merosga qiziqish, balki uni zamonaviy hayot bilan uyg‘unlashtirish ko‘nikmalari shakllanishi lozim.

Innovatsion texnologiyalar yordamida milliy vatanparvarlik ruhini tarbiyalash quyidagi yo‘nalishlarda samarali bo‘lishi mumkin:

- Interaktiv metodlar: “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Rol o‘ynash” orqali o‘quvchilar mustaqil fikrlashga va milliy qadriyatlarni anglashga undaladi.
- Gamifikatsiya: O‘yin elementlari (ball to‘plash, reyting, musobaqa) asosida o‘quvchilarda raqobatbardoshlik, milliy g‘urur va jamoaviylik ruhini shakllantiradi.
- Kvest va loyihaviy topshiriqlar: Tarixiy shaxslar hayoti, milliy urf-odatlar, buyuk allomalar merosiga bag‘ishlangan topshiriqlar o‘quvchilarda qidiruvchanlik va izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Multimedia vositalari: Video, audio, infografika va 3D taqdimotlar orqali milliy tarix va madaniyatning boyligi keng yoritiladi.
- Aqliy xaritalar (Mind maps): Milliy qahramonlar, tarixiy jarayonlar va qadriyatlarni tizimli o‘rganishga yordam beradi.
- Raqamli ta’lim platformalari: Onlayn kutubxonalar, virtual muzeylar, interaktiv dasturlar orqali o‘quvchilar milliy tarix va madaniyatni zamonaviy yondashuvda o‘rganadilar.

Vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida faqat maktab emas, balki oilaning, mahalla institutining ham o‘rni muhimdir. Innovatsion texnologiyalar orqali ota-onalar va mahalla faollarini jalb qilish, o‘quvchilarni milliy qadriyatlarga asoslangan loyihalarga safarbar etish samaradorlikni oshiradi.

Xorijiy mamlakatlarda (Yaponiya, AQSh, Janubiy Koreya) patriotik tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. O‘zbekistonda ham milliy qahramonlar – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Bobur merosi, shuningdek, xalq ertaklari va dostonlari asosida innovatsion metodlarni qo‘llash keng pedagogik imkoniyatlar yaratadi.

O‘quvchilarni milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirish, milliy qadriyatlarni chuqur anglash va Vatanga sadoqat hissini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Interaktiv metodlar, gamifikatsiya, multimedia vositalari va raqamli ta’lim platformalari yordamida o‘quvchilarning milliy ongini shakllantirish, ularni ijodkor, tashabbuskor va mas’uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazish mumkin. Shuningdek, “Oila–Maktab–Mahalla” hamkorligida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash milliy tarbiyaning uzluksizligini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim-tarbiya muammosiga doir bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

Jumladan, Sh.Shodmonova[2] o‘quv-tarbiyaviy jarayonda talabalarning mustaqillik tafakkurini rivojlantirish, O.Musurmonova[3] yoshlarning ma’naviy madaniyati-ni shakllantirish

[2] Шодмонова Ш. С. Олий ўқув юрти талабаларида мустақиллик тафаккурини шакллантириш ва ривожлантириш (Касб таълими йўналиши мисолида).: дис. ... пед. фан. док. – Т., 2010. – 340 б.

muammolariga doir tadqiqot ishlarini olib bordilar. G.Maxmutov[4] talabalarni o‘qitish hamda tarbiyalash qonuniyat-lari, shuningdek, siyosiy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda talabalar ongiga samarali ta’sir etish yo‘llari, ma’naviy-axloqiy tamoyillar va me’yorlar, buyuk ajdodlarimizning xulq-odob me’yorlari hamda muomala madaniyati haqida o‘z ilmiy qarashlari asosida ifodalab o‘tdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida yuksak intellektual, ijtimoiy faol, tashabbuskor, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan yosh-avlodni yetuk kadrlar etib tayyorlash muammosi to‘g‘risida izlanishlar olib borishgan. Yoshlarda sog‘lom turmush madaniyati va vatanparvarlik, yoshlar faolligini oshirish va ularning ma’naviy-ahloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-pedagogik qobiliyatlarini millat rivoji ruhida tarbiyalash kabi muammolarga to‘xtalib o‘tgan.

Yosh avlod tarbiyasi xususida to‘xtalar ekanmiz, taniqli o‘zbek pedagogi, ma’rifatparvar olim A.Avloniy[5] shunday deydi: “Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot, yo halokat yo saodat, yo falokat masalasidir»‘. Ushbu fikrlardan xulosa chiqarsak, shaxs tarbiyasi xususiy emas, balki ijtimoiy, milliy ilmdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liq.

Respublikamiz olimlari tomonidagn ushbu muammoning asosiy jihatlariga olimlar O.Musurmonova[6] ta’lim –tarbiyada ahloqiy ong, vijdon, burch, mas’ulyat, hayo, g‘urur kabi insonning fe’l – atvorini ichki boshqarish qurilishiga asoslanadi. Ahloqning mag‘zini tashkil qiluvchi bosh qoidalar insonparvarlik, demokratizm, halol mehnat, o‘zaro yordam, do‘stlik, hamkorlik, o‘zaro hurmat, baynalmilalchilik vatanparvarlik, tabiat va atrof muhitga diqqat-e’tibor, burch hissi hamda kamtarlik ko‘zbo‘yamachilik va yolg‘izlikni inkor etish kabi insoniy sifatlarni o‘z tadqiqotlarida ifodalagan.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishga qaratilgan jarayonda quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashish, reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

b) o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ogoh etish, chuqur bilimga, tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash malakalarini tobora boyitish;

d) umuminsoniy axloq me’yorlarini anglashni (odamiylik, kamtarlik, o‘zaro yordam, mehr-muhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, axloqsizlikka qarshi nafrat va hokazolar), muomala odobi, yuksak madaniyatni o‘quvchilarda qaror toptirishga erishish;

e) huquqiy va axloqiy me’yorlarga hurmat ruhida yondashish, o‘quv- chilarda fuqarolik tuyg‘usini, ijtimoiy burchga mas’ullikni qaror toptirish;

f) tarbiyani muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas’uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg‘usini shakllantirish, o‘zga millat va xalqlar qarashlariga hurmatni, huquq va burchlarni kamsitmaslik tuyg‘usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat-O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish;

---

[3] Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: дис.: п.ф.д. – Т., 1993. – 364 б.

[4] Махмутов Г. Олий педагогик таълим тизимида талабаларни маънавий шакллантиришнинг ижтимоий-педагогик хусусиятлар.: Автореф. дис.. п.ф.н. – Т.: 2004. – 22 б.

[5] A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) -Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160 b.

[6] Мусурмонова О. Ўқувчиларнинг маънавий маданиятини шакллантириш. –Т.: Фан, 1993. – 28 б.

o) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning shani, or-nomusi, qadr- qimmati, huquq va burchlarini himoya qilishga o‘rgatish va boshqalar.

Mamlakatimizda yoshlarning har tamonlama yetuk shaxs sifatida voyaga yetishida jamiyat taraqqiyoti muhim o‘rin tutishi bilan birga, uning umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi ham muhim o‘rin tutadi. Milliy vatanparvarlik – bu shaxsning Vatanga muhabbati, milliy qadriyatlar, madaniyat va tarixiy merosga sadoqati, davlat ramzlariga hurmati va yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shishga intilishidir. Ta’lim tizimida bunday fazilatlarni shakllantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ularni quyidagi asoslarda izohlash mumkin:

milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning imkoniyatlarini quydagicha tahlil qilib aytish mumkin:

Didaktik imkoniyatlar – Integrativ yondashuv: Milliy qadriyatlar, tarix, adabiyot va san’atni fanlararo integratsiya asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarda Vatanga bo‘lgan mehr uyg‘otiladi. Masalan, tarix darslarida buyuk sarkardalar faoliyatini o‘rganish adabiyot darslaridagi milliy qahramonlar obrazi bilan bog‘lanadi.

- Innovatsion metodlar: Kvest, gamifikatsiya, aqliy xaritalar, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, milliy merosni chuqur anglashga undaydi.
- Axborot texnologiyalari: Virtual muzeylar, 3D taqdimotlar, videodarslar milliy tarixni ko‘rgazmali va ta’sirchan shaklda o‘rganish imkonini beradi.
- Tarbiyaviy imkoniyatlar – Oila–Maktab–Mahalla hamkorligi: Oila tarbiyasida beriladigan milliy qadriyatlar maktabdagi ta’lim jarayoni va mahalla muhitida qo‘llab-quvvatlansa, vatanparvarlik tarbiyasi uzluksiz davom etadi.
- An’anaviy va zamonaviy uyg‘unlik: Milliy urf-odatlar (Navro‘z, Mustaqillik bayrami, Vatan himoyachilari kuni)ni zamonaviy texnologiyalar yordamida keng targ‘ib qilish o‘quvchilarda faxr tuyg‘usini kuchaytiradi.
- Rol modellari: Milliy qahramonlar – Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahiriddin Bobur kabi tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatini tarbiyaviy tadbirlarda o‘quvchilarga namuna qilib ko‘rsatish ularda mas’uliyat va g‘urur hissini shakllantiradi.

Ijtimoiy imkoniyatlar - Jamoaviy loyihalar: O‘quvchilarni milliy tarix, qadriyatlar va madaniyatga oid ijtimoiy loyihalarga jalb qilish orqali ular Vatanga daxldorlikni chuqur his etadilar.

- Ko‘ngillilik faoliyati: Talabalar va o‘quvchilarni ekologik, ijtimoiy va madaniy tadbirlarga jalb etish orqali ularning fuqarolik pozitsiyasi mustahkamlanadi.
- Raqamli maydon imkoniyatlari: Ijtimoiy tarmoqlar, milliy media kontentlar orqali vatanparvarlik ruhini keng yoyish, yoshlarni milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga da’vat qilish.

Psixologik-pedagogik imkoniyatlar - Shaxsiy motivatsiya: O‘quvchilarni rag‘batlantirish, muvaffaqiyatlarini e’tirof etish orqali ularning milliy g‘urur hissi ortadi.

- Emotsional-ta’sirchan yondashuv: Milliy qo‘shiqlar, dostonlar, teatr sahnalari, videoroliklar orqali o‘quvchilarda Vatanga mehr hissi emotsional darajada shakllanadi.
- O‘zini anglash jarayoni: “Men va Vatanim” mavzusidagi refleksiv mashg‘ulotlar o‘quvchilar shaxsiy hayotiy pozitsiyasini milliy qadriyatlar bilan bog‘lashiga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba va milliy yondashuv uyg‘unligi - Xorijiy tajribalar (Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya)da vatanparvarlik tarbiyasi raqamli ta’lim vositalari va loyiha asosida amalga oshiriladi. Shu tajribalarni milliy qadriyatlarimiz bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston sharoitida yanada samarali natija beradi.

- UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar ta’limda “fuqarolik kompetensiyasi”ni rivojlantirishni asosiy yo‘nalish sifatida belgilagan. Milliy vatanparvarlik tarbiyasini ana shu global tajribalar bilan uyg‘unlashtirish yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi.

Milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari nihoyatda keng va ko‘p qirrali. Ular ta’limning didaktik jarayonida interaktiv va innovatsion metodlar orqali, tarbiyaviy ishlar orqali, ijtimoiy hamkorlik asosida va psixologik yondashuvlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Eng muhimi, o‘quvchilarda milliy g‘urur, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirish uchun uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuv zarur.

ADABIYOTLAR

1. Xalq so‘zi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy Majlisga Murojaatnomasi” 2020 y. 25 yanvar №-19 son
2. Shodmonova Sh. S. Oliy o‘quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta’limi yo‘nalishi misolida).: dis. ... ped. fan. dok. – T., 2010. – 340 b.
3. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: dis.: p.f.d. – T., 1993. – 364 b.
4. Maxmutov G. Oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarni ma’naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlar.: Avtoref. dis.. p.f.n. – T.: 2004. – 22 b.
5. A.Avloniy. «Turkiy Guliston yoxud axloq» (nashrga tayyorlovchi Xoliqov L.) -Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160 b.
6. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993. – 28 b.
7. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. O‘zbekiston faylasuflari jamiyati.: T-2010 y. 188-b.
8. Abdug‘Aniyev O. T. TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH MOHIYATI VA MANTIQIY JIHATDAN TAHLILI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 10. – S. 434-438.
9. Abdug‘Aniyev O. T. YANGI O ‘ZBEKISTON SHAROITIDA TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI PEDAGOGIK HAMKORLIK OMILLARI //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 12. – S. 52-56.
10. Abdug‘aniev O. T. TALABALARDA IJTIMOIY FAOL FUQAROLIK KOMPETENSIYaSINI RIVOJLANTIRIShNING PEDAGOGIK IMKONIYaTLARI //Evraziyskiy jurnal akademicheskix issledovaniy. – 2022. – T. 2. – №. 13. – S. 25-29.
11. Abduganiyev O. T. DEVELOPMENT OF SOCIALLY ACTIVE CITIZENSHIP COMPETENCIES IN STUDENTS–AS A SOCIAL PEDAGOGICAL NEED //prospects of development of science and education. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 78-83.
12. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.

13. Abduganiyev O. Formation of legal training aimed at competitiveness in pupils of secondary schools //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – T. 9. – №. 7.
14. Tursunboyevich O. A. Pedagogical and psychological opportunities for the development of social active civil competences in students //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – S. 1888-1897.

ABDURAUF FITRAT PEDAGOGIK TA'LIMOTIDAN FOYDALANISHDA OTA-ONALARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

Abdujalilova Shoira Abdumajitovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti “Pedagogika, Psixologiya va boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. *Maqolada mutafakkir Abdurauf Fitratning pedagogika ta’limotidan foydalashda ota-onalarnining ijtimoiy-emotsional ta’limni tashkil etishda ilmiy asoslangan ta’limotini ijtimoiy hayotga tadbiq etishdagi pedagogik qarashlari borasida fikr bildiriladi. “Ijtimoiy pedagogik ta’lim” tushunchasi ijtimoiy hayotni o‘rganish, ijtimoiy bilim o‘rganish, ijtimoiy tarbiya olish va ijtimoiy kasb-hunarlarini egallash haqida Fitratning ta’limoti tahil qilinadi.*

Аннотация. *В статье обсуждаются педагогические взгляды мыслителя Абдурауфа Фитрата на применение в общественной жизни научно обоснованного образования родителей при организации социально-эмоционального образования. Понятие «социально-педагогическое образование» предполагает диктрина Фитрата об изучении общественной жизни, изучении социальных знаний, получении социального воспитания и овладении социальными профессиями.*

Abstract. *The article discusses the pedagogical views of the thinker Abdurauf Fitrat on the application of scientifically based education of parents in the organization of social and emotional education in public life. The concept of "socio-pedagogical education" involves Fitrat's dictatorship of studying social life, studying social knowledge, obtaining social education and mastering social professions.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti davrida ilm – fan va ta’lim –tarbiya sohasida yangi sifat ko‘rsatgichlariga erishish vazifalari qo‘yilib, bugungi kunda uning ijrosi keng ta’minlanmoqda. Bu jarayonda pedagog mutafakkirlar tomonidan yaratilgan ta’limotlarni o‘rganish va o‘zlashtirish ham muhim o‘rin tutadi. Ana shunday pedagoglardan biri, jadid mutafakkiri va birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat (1886-1938) o‘ziga xos pedagogik ta’limot yaratgan.

Pedagogik ta’limot- bu shaxsga ta'lim va tarbiya berish, uning layoqatlarini rivojlantirish hamda uni ta’lim-tarbiya ishini amalga oshirishga ilmiy, nazariy, amaliy va metodik tayyorlash asoslaridir. Shu jihatdan pedagogik ta’limot atamasi quyidagilarni qamrab oladi:

- shaxsga bilim berish asoslarini ishlab chiqish;
- shaxsni tarbiyalash nazariyasi va amaliyotini tarkib toptirish;
- shaxsning tabiiy layoqatini rivojlantirish;
- shaxsni faoliyatga tayyorlash.

Ushbu tarkiblar asosida ifodalangan pedagogik qarashlar majmui muayyan mutaffakkirning pedagogik ta’limotini tashkil qiladi. Fitrat ana shunday ta’limotga ega jadid pedagogi bo‘lib, uning bu ta’limotida eng avvalo oila tarbiyasi va ijtimoiy ta’lim masalalari tahlili negiz sifatida namoyon bo‘ladi.

1. Oila tarbiyasi tushunchasi to‘g‘risida. Fitrat 1914 yili yozilgan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” pedagogik risolasida oila tarbiyasi masalasining nazariy asoslarini ilk bor

ilmiy tahlil qilib bergan. Uning fikricha, oila tarbiyasi tushunchasi quyidagi ikki masalani qamrab oladi:

1) oila qurish asoslarini bilish;
2) farzand tarbiyasi zaruriyatini bilish

Bunda oila qurish asoslarini uning fikricha quyidagilar tashkil qiladi:

a) oila qurishga intilish;
b) yakka nikohli oilaga ega bo‘lish;
v) oila quruvchi tomonlarning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi;
g) oila quruvchi tomonlarning yagona maqsadga ega bo‘lishi;
d) shaxs yashayotgan ijtimoiy davr talablariga mos oila qurish;
e) oila hayotini yo‘lga qo‘yish;
j) oila ta'minotini tashkil qilish va uni boshqarish

Bunday yondashuv Fitratning oila tarbiyasi tushunchasi keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi.

Fitratning yondoshuvga ko‘ra, oila tushunchasining ikkinchi tarkibini farzand tarbiyasi zaruriyati tashkil qiladi. Farzand tarbiyasi zaruriyatida quyidagilarni amalga oshirish muhim o‘rin tutadi:

a) farzandni jismoniy tarbiyalash;
b) farzandni aqliy tarbiyalash;
v) farzandni axloqiy tarbiyalash

Uning bu yondashuvi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, unda oiladagi nafaqat farzand, balki shu oilada voyaga etayotgan bolalarni tarbiyalashni ham qamrab oladi.

E’tibor berilsa, Fitratning pedagogik ta’limotida oila tarbiyasi tushunchasi o‘ziga xos mazmunda va uning davriga nisbatan ilmiy shaklda belgilab olingan. Shu sababli uning pedagogik ta’limotidagi oila tarbiyasi tushunchasini idrok etish uchun quyidagi tahlillarga e’tibor qaratamiz.

Shaxsning oila fenomenini anglashidagi birinchi - masala Fitratning pedagogik ta’lim ta’limotida o‘ziga xos yondoshuv bo‘lib, u bugungi “Oila pedagogikasi”ning xususiyatlaridan birini ifodalaydi. Unga ko‘ra, har bir voyaga etgan shaxs oila fenomeni, ya’ni oilaning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni, millatning bardavomligida oilaning muhim o‘rin tutishi to‘g‘risida etarli darajada tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Fitratning fikricha, oila fenomenini anglashdagi ikkinchi masala - oilaning shaxs hayotidagi ijtimoiy vazifasini bilish bilan bog‘liq. Bu borada pedagog uchinchi yirik ilmiy risolasi “Oila yoki oilani boshqarish tartibi” asarida fikr yuritadi va uning fikricha, oila – bu shaxsni madaniy toifaga birlashtiruvchi tuzilmadir. Oilaning shakllanishi yoki oilani boshqarishga asos solish bani Odam madaniyatining asosidir”.

Demak, oila shaxs va jamiyat hayotida birlashtiruvchi, madaniylashtiruvchi va baxtga eltuvchi ijtimoiy vazifalarini bajaradi. Fitratning bunday yondashuvi XX asr I choragi ijtimoiy hayoti uchun sosial va pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega edi. Shu ma'noda u yozadi: “Oila – er, xotin va farzandlardan iborat. Oila – bu bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir va u bir necha odamlardan iborat bo‘lgan jamoa... Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog‘liq. Tinchlik va totuvlik shu millat oilalarining intizomiga tayanadi”. Bu oilaning ijtimoiy vazifasini ilmiy belgilashdir va Fitrat buning uchun “Farang (Evropa) olimlari tomonidan yozilayotgan kitoblarni o‘qish”ni tavsiya etadi. Misol uchun, u fransuz o‘z zamondoshi sosiologi va pedagogi Pol Demarning asarlarini o‘qish kerakligiga ishora qiladi.

Demak, Fitratning oilani ijtimoiy vazifasi masalasiga yondoshuvida o‘zbek-islom va Evropaning oila masalasiga doir yondoshuvlari uyg‘un tarzda o‘z ifodasini topgan.

Ma’rifatparvar pedagogning fikricha, oila fenomenini anglashdagi uchinchi masala bu – shaxsni oila qurishning ahamiyatini tushunib olishidan iborat. Mazkur masalada u “Oila yoki oila boshqarish tartibi” risolasida batafsil fikr yuritadi. Avvalo ta’kidlash lozimki, Fitrat e’tiqodli musulmon pedagog sifatida oila qurishning islom dinidagi asoslarini mukammal omil sifatida qabul qiladi: “Iymonim komilki, oila saodati va ahamiyati uchun qabul qilingan eng maqbul qonun – islomiy qonunlar bo‘ladi”. Ayni paytda pedagog oila a’zolarining ma’rifatli, mehnatsevar va harakatchan bo‘lishi masalasida belgiyaliklar hamda inglizlarni namuna sifatida e’tirof etadi. Bu ikki yondoshuv o‘tgan asr “Jadid pedagogikasi” uchun muhim hodisa edi.

Fitratning fikricha, oila qurish besh muhim tabiiy qonuniyat bilan belgilanadi:

birinchidan, insonning individual va ijtimoiy mavjudligini oila ta’minlaydi. Yeyish, ichish, nafas olish kabi individual ehtiyojlarni, kiyinish, farzandli bo‘lish, jamoa bo‘lib birlashish singari ijtimoiy ehtiyojlarni aynan oila ta’minlaydi. Bu ikki ehtiyojning oiladan tashqarida hosil qilish axloqsizlik, hayvoniylik va buzuqlik illatlarini keltirib chiqaradi. Shu sababli Fitrat oila qurishni Payg‘ambar sunnatidan biri sifatida ko‘rsatadi;

ikkinchidan, oila qurish – shahvat quvvatini tartibga solishdir. Alloma pedagog fohishabozlik, o‘ynashbozlik va noqonuniy oila qurishni eng zalolatli jinoyat deb biladi, insonni bardavomligini saqlashga asos bo‘luvchi shahvatni tartibga solish faqat oila vositasida amalga oshishini ta’kidlaydi;

uchinchidan, millatning bardavomliligini faqat oila ta’minlaydi. Fitrat bu o‘rinda ma’rifatli oila tizimi ingliz millatining aholisini 44 million kishiga va belgiyaliklarning 7,5 million kishiga (albatta, bu ma’lumotlar XX asr boshlariga tegishli - Sh.A.) etishiga asos bo‘lganligini ibrat qilib ko‘rsatadi;

to‘rtinchidan, oila shaxs ta’limi va tarbiyasini ilk bosqichda amalga oshiruvchi asosdir;

beshinchidan, oila – shaxs uchun yuzaga keladigan tabiiy va ijtimoiy qiyinchiliklar hamda muammolarni echuvchi poydevor hisoblanadi.

Shaxsning oila ta’limi vazifalarini bilishi. Bu masala oila ta’limi va tarbiyasining o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarining negizlaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra, katta yoshli har bir oila a’zosi oila ta’limi vazifalarini etarli darajada bilishi kerak. Bunda birinchi masala er va xotinning o‘zaro mos darajada savodxon bo‘lishidir. Ayolni hurmat qilish, uning haq-huquqlariga rioya qilish, er va xotinning bir-birini bilim jihatidan to‘ldirib turishi ana shu savodxonlik **ota-onalarning ijtimoiy-emotsional ta’limni tashkil etishdagi** tarikbiga kiradi. Shu sababli bu o‘rinda Fitrat o‘z davrida ayollarning bilim va faollikdan butunlay chetda qoldirilganligini qattiq tanqid qiladi. “Mamlakatimizdagi ayollar, - deb yozadi u, - har daqiqada qanchadan-qancha tahqir va jafolarga duchor bo‘lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o‘z ayollarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o‘ylaymiz... Ularni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz”. Bu hol XX asr boshlari Turkiston ijtimoiy hayotiga daxldor bo‘lsa-da, lekin unda Fitratning oilada amalga oshiriladigan ta’limda xotin-qizlarning teng ishtirok etishi mazmunidagi yondoshuvi o‘z ifodasini topgan. Chunki olimning fikriga ko‘ra, “Odam birinchi tarbiyani onasining bag‘rida oladi va shunisi muqarrarki, birinchi tarbiya tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi; uning ta’siri odam tabiatida mustahkam o‘rnashadi”. Bu hol xotin- qizlarning ham qolgan oila a’zolari bilan oila ta’limi borasida teng savodxon bo‘lishini taqozo etiladi.

Ma’rifatparvar pedagogning fikricha, oiladagi ta’lim vazifalarini bilishdagi ikkinchi masala ta’lim muhitini yaratishdir. Unga ko‘ra, ota, ona va oilaning katta yoshli a’zolari oilada

ta’lim hamda tarbiyani kutilgan darajada amalga oshirish uchun muhit yarata bilishi kerak. Qachonki oilada o‘ziga xos birlamchi pedagogik muhit, ya’ni o‘qitish maqsadi, muayyan sharoit va maqsadli harakat tashkil etilsa, unda dastlabki bosqichda oilada ta’lim va tarbiyaning pedagogik xususiyati kuchayadi.

Ijtimoiy ta’lim tushunchasi to‘g‘risida. Fitratning pedagogik ta’limotidagi yana bir muhim tushuncha bu – ijtimoiy ta’lim masalasidir.

Fitratning pedagogik ta’limotidagi ijtimoiy ta’lim tushunchasi uning 1914 yili yozilgan “Najot yo‘li” pedagogik risolasida tahlil qilib o‘tilgan. Pedagog olimning fikricha, ijtimoiy ta’lim tushunchasi “Vazifai nafsiya”, ya’ni “Shaxsning o‘zligini anglashi” ma’nosini bildiradi. Bunday ijtimoiy ta’lim tushunchasi asoslarini shaxsga quyidagilar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar berish tashkil qiladi:

1) shaxsni hikmat (ong) bilan qurollantirish;
2) shaxsni iffat (o‘zini tutish) bilan qurollantirish;
3) shaxsni shijoat (harakat asoslari)bilan qurollantirish;
4) shaxsni adolat (faoliyat ko‘nikmalari) bilan qurollantirish

E’tibor berilsa, Fitrat ijtimoiy ta’lim tushunchasini o‘ziga xos ma’no-mazmunda belgilaydi. Shu ma’noda pedagog olim bu tushunchalarga quyidagicha izohlarni berib o‘tadi:

“Hikmat-shaxsning ongida aql tuyg‘usini rivojlantirish va unga zaruriy bo‘lgan bilimlarni berishdir”;

“Iffat- bu shaxsni xarakat va faoliyatda o‘zini tutishi hamda sog‘lom jismoniy vujudga ega bo‘lishidir”;

“Shijoat-shaxsni harakat asoslari bilan qurollantirib, unda millat va o‘zining manfaatlarini himoya qilish ko‘nikmalarining mavjud bo‘lishidir”;

“Adolat-bu shaxsning ongli, sog‘lom va o‘zligini anglagan holda jamiyatda yashash hamda faoliyatda bo‘lish malakasidir”

Diqqat qilinsa, Fitrat ijtimoiy ta’lim tushunchasini o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. Bu masalalarni u ushbu “Najot yo‘li” pedagogik risolasida keng ko‘lamli va aniq misollar bilan tahlil qilib bergan.

Shu tariqa pedagog olim jadid ma’rifatparvari sifatida Pedagogikamizda birinchi bo‘lib ijtimoiy ta’lim masalasiga e’tiborni tortadi. Unga qadar pedagogik merosimizda ijtimoiy masalalar jadid pedagoglarining maqolalarida tilga olingan bo‘lsada, lekin ijtimoiy ta’lim tushunchasi masalasi ilmiy jihatdan maxsus tahlil etilmagan edi. Shu jihatdan Fitratning ijtimoiy ta’lim tushunchasi muhim quyidagi nazariy xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi:

Iijtimoiy ta’lim tushunchasi mazmuni. Pedagog olimning fikricha, ijtimoiy pedagogik ta’lim “najot yo‘lidir”. Shu sababli u o‘z davridagi mamlakatimiz ijtimoiy hayotini va ta’lim vakillarini juda qattiq tanqid qiladi. Din arboblarining e’tiroziga uchramaslik uchun fikrlarini Qu’ondan va Hadislardan olingan ko‘chirmalar bilan isbotlaydi. Uning fikricha, bu ikki manba ijtimoiy hayotni, ijtimoiy ta’limni va ijtimoiy tarbiyani imkor etmaydi, aksincha, dunyoviy hayot kechirishga da’vat qiladi. Shu jihatdan uning fikricha, “ijtimoiy pedagogik ta’lim” tushunchasi ijtimoiy hayotni o‘rganish, ijtimoiy bilim o‘rganish, ijtimoiy tarbiya olish va ijtimoiy kasb-hunarlarini egallashni anglatadi.

Ijtimoiy ta’lim zaruriyati. Pedagog olim ijtimoiy pedagogik ta’lim zaruriyatini hayot taqozosi sifatida tushunadi. Unga ko‘ra, ijtimoiy hayot inson uchun eng zaruriy omillardan biridir. Ijtimoiy hayot haqidagi bilimlarni o‘rganish ijtimoiy pedagogik ta’lim negizini tashkil qiladi. Fitratning fikricha, ijtimoiy pedagogik ta’limni o‘rganishda Aql imkoniyatlariga tayanish lozim. Aynan Aql ijtimoiy pedagogik ta’lim vositasida insonni “u dunyo va bu dunyoda baxtli

qiladi”. Bunda pedagog olimning yondoshuvida ijtimoiy pedagogik ta’lim inson uchun baxt omillaridan biri ekanligiga duch kelamiz.

Iijtimoiy ta’limning ahamiyati. Pedagog olimning fikricha, ijtimoiy pedagogik ta’lim insonni ongli harakatiga, hayotni yangilanishiga va jamiyatda jamoaparvarlikni tarkib topishiga asos bo‘luvchi omillardan biridir. Shu sababli bu yondoshuvda hozirgi zamon Ijtimoiy pedagogikasining amaliy ahamiyatini ko‘ramiz. Umuman Fitrat ijtimoiy pedagogik ta’limni o‘z davriga nisbatan yangicha talqin qiladi.

Shunday qilib Fitratninng pedagogik ta’limotida oila tarbiyasi va ijtimoiy ta’lim tushunchalarining xususiyatlari nazariy jihatlari o‘z davriga (XX boshlariga) nisbatan yangicha tahlil etilgan. Bu tushunchalar pedagog olimning Oila pedagogikasi va Ijtimoiy pedagogika asoslari bo‘yicha qarashlari negizini tashkil qiladi. Shu borada Fitratninng pedagogik ta’limoti hozirgi ta’lim islohatlari negizida ota-onalarning ijtimoiy-emotsional ta’limni tashkil etishda zarur ilmiy pedagogik manba ekanligini etirof etishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Fitrat A. Tanlangan asarlar. 4-jild. 2000-y.
2. Abdujalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning oila va bola tarbiyasiga oid qarashlari. Ilmiy-ommabop risola.-T.: “Yozuvchi”.2002.-70 b.
3. Abdujalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning “Tarbiya” fani talqini. 4. Risola.-T.: “Vneshinvestrom”.2020. -35b.

TA’LIM TIZIMIDA O‘QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR

Abduraxmanov Rustam Maxmudovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Tyutori
(Ta’lim - tarbiya maslahatchisi)

Annotatsiya. Ushbu maqolada kasb-hunarga yo‘naltirish tamoyillari, yoshlarni kasb hunarga yo‘naltirishning nazariy shart-sharoitlari, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” da yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, kasb-hunarga yo‘naltirish tamoyillari, uzluksiz ta’lim tizimi, kadrlar tayyorlash milliy modeli.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O‘zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Turkiyada internetdagi zararli kontentni cheklash uchun kuchli huquqiy mexanizmlar joriy etilgan. 2007 yilda qabul qilingan 5651-sonli “Internetdagi nashrlar va ular orqali jinoyatlar prevention to‘g‘risida”gi qonun avvalo bolalarni zararlovchi va noqonuniy kontentdan himoya qilishni maqsad qilgan. Ushbu qonunga muvofiq, muayyan toifadagi og‘ir mazmunlar – xususan, bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik, narkotik moddalarni targ‘ib qilish, pornography, o‘z joniga qasd qilishga undov qilish kabi materiallar – internetda aniqlansa, sud yoki vakolatli organlar tomonidan ularni to‘sish yoki olib tashlash bo‘yicha darhol qaror chiqarilishi mumkin. Masalan, prokuratura shoshilinch hollarda sud qarorigacha ham zararli saytni vaqtincha yopishga ruxsat olishi mumkin, keyin bu qaror 24 soat ichida sudya tomonidan tasdiqlanmasa, bekor qilinadi. Turkiyaning internet tartibga solish tizimida shuningdek ixtiyoriy “Xavfsiz internet” xizmati ham mavjud: BTK 2011 yildan boshlab xonadonlarga bepul taqdim etadigan bu servis orqali foydalanuvchilar “Oilaviy” yoki “Bola” profilini tanlab, bolalar uchun xatarli veb-saytlarni avtomatik filtrlatib qo‘yishlari mumkin. Masalan, bolalar profili rejimida alkogol, pornografiya, rahyonazlik kabi toifalardagi saytlar umuman ochilmaydi, ijtimoiy tarmoqlar va o‘yin saytlari esa cheklangan tarzda taqdim etiladi. Zararli kontentlarga qarshi yana bir mexanizm – İhbar Web (Ihbarveb) internet xotlaynidir; foydalanuvchilar mazkur portal orqali bolalarga zararli yoki noqonuniy tarmoq materiallari haqida xabar berishlari mumkin, bu xabarlar tegishli ekspertlar

tomonidan ko‘rib chiqilib, qonun doirasida chora ko‘riladi (Ihbarveb xalqaro INHOPE xotlaynlar assotsiatsiyasi a’zosi hisoblanadi)[9].

Xulosa qilib aytganda, oila, maktab va davlatning uzviy hamkorligi bilan bolalarning raqamli xavfsizligini ta’minlash mumkin. Shu tarzda yosh avlod raqamli texnologiyalarning ta’lim va taraqqiyot uchun beradigan barcha imkoniyatlaridan foydalanishi, bir vaqtning o‘zida raqamli tahdidlardan himoyalangan holda voyaga yetishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNICEF, "Protecting children online" // https://www.unicef.org/uzbekistan/en/stories/protecting-children-online
2. To grow up healthy, children need to sit less and play more //https://www.who.int/news/item/24-04-2019
3. "Uzbekistan – strengthening digital skills to build a safe cyberspace for children"// https://uzbekistan.un.org/en/241659
4. UNESCO Uzbekistan, "Building Media and Information Literacy for a Resilient Uzbekistan" (2025)// https://uzbekistan.un.org/en/241659
5. Ўзбекистон Республикасининг 14 ноябр 2024 йилдаги “Болаларни зўравонликнинг барча шаклларидан ҳимоя қилиш тўғрисида”ги ЎРҚ-996-сон Қонун // https://lex.uz/docs/7219502
6. Болаларга нисбатан онлайн зўравонлик ва кибербуллинг бўйича мурожаатлар сони 18%га ошгани қайд этилган// https://ogoh.uz/81848
7. Japan Grapples with Risks of Social Media in Pursuing Options for Protecting Children Online // https://www.nippon.com/en/in-depth/d01099
8. Singapore Government Strengthens Parental Controls for Children’s Internet Safety // https://archive.opengovasia.com/2021/08/13
9. Turkish Ministry expresses concern about children’s digital safety// https://dig.watch/updates

KLAX PEDAGOGIKASINING ZAMONAVIY TA’LIMDAGI AHAMIYATI VA UNING DOLZARBLIGI

Adilova Noila Baxriddin qizi
ADPI, tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada klax pedagogikasining zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni, uning ahamiyati va dolzarbligi tahlil qilinadi. Klax pedagogikasi nazariy asoslari, uning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli va amaliy qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *klax pedagogikasi, zamonaviy ta’lim, ta’lim jarayoni, o‘quv metodlari, ta’lim samaradorligi, faol o‘rganish, hamkorlikda o‘rganish, motivatsiyani oshirish, ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish.*

Аннотация. *В данной статье анализируется роль педагогики клаха в современном образовательном процессе, ее значение и актуальность. Рассмотрены теоретические основы педагогики клаха, ее роль в повышении эффективности обучения и практическое применение.*

Ключевые слова: *педагогика клаха, современное образование, образовательный процесс, методы обучения, эффективность обучения, активное обучение, совместное обучение, повышение мотивации, стимулирование творческого мышления.*

Annotation. *This article analyzes the role of klax pedagogy in the modern educational process, its importance and relevance. The theoretical foundations of Klax pedagogy, its role in improving educational efficiency and its practical application are considered.*

Keywords: *klax pedagogy, modern education, educational process, teaching methods, educational effectiveness, Active Learning, Collaborative Learning, increasing motivation, stimulating creative thinking.*

Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogika sohasida yangi yondashuvlar va metodlarni izlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, ularning faolligini rag‘batlantirishda pedagogikaning turli usullari va yondashuvlari muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda ta’limda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globalizatsiya jarayonlari, yangi iqtisodiy va ijtimoiy talablar ta’lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qilmoqda. Klax pedagogikasi ushbu talablarni qondirishda muhim vosita hisoblanadi. Uning asosiy dolzarbligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

Klax pedagogikasi - ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va bilimlarni amaliy hayotga tatbiq etish imkoniyatini beruvchi pedagogik yondashuvlardan biridir.

Shu o‘rinda klax pedagogikasi — o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro faol, samarali muloqot asosida tashkil etiladigan ta’lim shakli sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada klax pedagogikasining zamonaviy ta’limdagi o‘rni, uning dolzarligi va ta’lim sifatini oshirishdagi ro‘li ko‘rib chiqiladi.

Klax pedagogikasi - ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik tizimdir. U

o‘quvchilarning o‘z bilimlarini mustaqil ravishda egallashga yo‘naltirilgan bo‘lib, didaktik, metodologik va psixologik printsiplarga tayangan. Klax pedagogikasi o‘quvchilarni faollashtirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim vositadir.

Klax pedagogikasi — bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan interaktiv, muloqotga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Bu pedagogika turi o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga, fikr almashishga, hamda o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi. Asosiy tamoyillari — shaxsiy yondashuv, faol muloqot, ijtimoiy hamkorlik va ijodkorlikni rivojlantirish.

Zamonaviy ta’limda klax pedagogikasining ahamiyati

Bugungi kunda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirishga qaratilgan. Klax pedagogikasi aynan shu vazifalarni bajarishda muhim vosita hisoblanadi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. **Faol o‘rganish** — o‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi, bu esa bilimning chuqurroq singdirilishiga yordam beradi.
2. **Hamkorlikda o‘rganish** — guruhda ishlash, muammolarni birgalikda hal qilish orqali ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.
3. **Motivatsiyani oshirish** — interaktiv metodlar o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi, o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi.
4. **Ijodiy fikrlashni rag‘batlantirish** — erkin fikr almashinuvi va muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish imkonini yaratadi.

Klax pedagogikasining dolzarbligi

Zamonaviy jamiyatda o‘zgarishlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta’limning sifatiga yangi talablar qo‘yadi. Klax pedagogikasi ushbu talablarni qondirishda dolzarbdir, chunki:

- O‘quvchilarni faollikka undaydi va ularning mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini oshiradi.
- Innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘un ishlaydi, ularni samarali qo‘llashga zamin yaratadi.
- Pedagoglarning didaktik va metodik saviyasini oshiradi, ta’lim jarayonini yanada interaktiv qiladi.
- Ta’limning individualizatsiyasi va diferensial yondashuvni ta’minlaydi.

Xulosa o‘rnida shunga to‘xtalib o‘tish joizki, Klax pedagogikasi zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasini oshirishda, ularning shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning samarali qo‘llanilishi ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. Shu bois, pedagogik amaliyotda klax yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Akbarov, O. (2018). Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’limdagi o‘rni. Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti.
2. Islomov, B. (2020). Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent: Fan.
3. Jalolov, M. (2019). Pedagogik muloqot nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston.
4. Mirzaahmedov, S. (2021). “Klax pedagogikasi va uning ta’limdagi qo‘llanilishi,” *Ta’lim nazariyasi va amaliyoti*, 3(12), 45-52.
5. Rashidov, D. (2022). Innovatsion pedagogika usullari. Toshkent: “Yangi asr avlodi”.

MAVZU: IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI (INFORMATIKA FANIGA BOG‘LIQ YONDASHUV)

Ahmadova Kamola Ahmad qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

Annotatsiya. *Maqola ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli texnologiyalarning rolini va imkoniyatlarini informatika fani kontekstida tahlil qiladi. Raqamli vositalar yordamida o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni boshqarish va individual yondashuvni ta’minlash usullari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-emotsional ta’lim, raqamli texnologiyalar, informatika, emotsional ko‘nikmalar, sun’iy intellekt, onlayn ta’lim, individual yondashuv.*

Аннотация. *The article analyzes the role and opportunities of digital technologies in social-emotional learning within the context of computer science. Methods of developing, managing, and providing individualized approaches to students' social and emotional skills using digital tools are discussed.*

Keywords: *Social-emotional learning, digital technologies, computer science, emotional skills, artificial intelligence, online education, individualized approach.*

Abstract. *В статье анализируется роль и возможности цифровых технологий в социально-эмоциональном обучении в контексте информатики. Рассматриваются методы развития, управления и индивидуального подхода к социальным и эмоциональным навыкам учащихся с использованием цифровых инструментов.*

Ключевые слова: *Социально-эмоциональное обучение, цифровые технологии, информатика, эмоциональные навыки, искусственный интеллект, онлайн-образование, индивидуальный подход.*

Kirish. Bugungi ta’lim tizimida nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) o‘quvchilarning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Shu bilan birga, zamonaviy raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini boyitib, IETning samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida qaralmoqda.

Asosiy qism.Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) o‘quvchilarning nafaqat bilim, balki o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim jarayonidir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning tez sur’atlarda rivojlanishi ijtimoiy-emotsional ta’lim sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ayniqsa, informatika fanining o‘ziga xos yondashuvlari va innovatsiyalari ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali vositalarni taklif etadi.

Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning emotsional holatini aniqlash va tahlil qilish mumkin. Masalan, sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar yuz ifodalarini va ovoz ohanglarini qayd etib, o‘quvchining ruhiy holatini baholaydi. Bu esa o‘qituvchilarga individual yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi, chunki har bir o‘quvchining ehtiyojlari va holati farq qiladi. Shunday qilib, o‘quv jarayoni shaxsiylashtiriladi, bu esa ta’lim samaradorligini oshiradi.

Bundan tashqari, interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar o‘quvchilarga turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishni o‘rgatadi. Raqamli muhitda amalga oshiriladigan bunday mashqlar, o‘z-o‘zini boshqarish, hamkorlik qilish va konfliktlarni hal etish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, onlayn platformalarda o‘quvchilar turli rollarda o‘ynab, real hayotdagi ijtimoiy vaziyatlarga o‘xshash sharoitlarni boshdan kechiradilar.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar o‘quvchilarni o‘z faoliyatini baholash va o‘z-o‘zini anglashga yo‘naltiradi. Maxsus ilovalar yordamida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini qayd etishi, ularni tahlil qilishi va o‘z ustida ishlashi mumkin. Bu jarayon o‘z-o‘zini boshqarish va motivatsiyani oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Informatika fanining o‘quv dasturlarida ham ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor qaratish zarur. Masalan, dasturlash mashg‘ulotlari davomida jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, fikr almashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun raqamli vositalardan foydalanish mumkin. Bu esa o‘quvchilarni nafaqat texnik jihatdan bilimli, balki ijtimoiy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar ijtimoiy-emotsional ta’limni yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ular yordamida o‘quv jarayoni interaktiv, individual va moslashuvchan bo‘ladi. Shu sababli, informatika fani doirasida raqamli vositalarni ijtimoiy-emotsional ta’limga integratsiyalashga katta e’tibor qaratish lozim.

Informatika fani rivojlanishi bilan birga raqamli texnologiyalar ta’limning turli sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli vositalar quyidagi yo‘nalishlarda imkoniyatlar yaratadi:

1. Emotsiyalarni aniqlash va monitoring qilish: Sun’iy intellekt (SI) va sensor texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning yuz ifodasi, ovoz tonu, tana harakati kabi omillar tahlil qilinib, ularning emotsional holati aniqlanishi mumkin. Bu o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan individual tarzda ishlashga yordam beradi.
2. Individual yondashuv: Raqamli platformalar yordamida har bir o‘quvchining ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtirilgan o‘quv materiallari va mashqlar taqdim etilishi mumkin. Bu esa o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.
3. Interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar: O‘yinlash orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish mumkin. Masalan, virtual holatlarda qaror qabul qilish, muammolarni hal etish va muloqot qilish tajribasini oshirish uchun simulyatsiyalar yaratiladi.
4. Onlayn muloqot va hamkorlik: Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar masofadan turib ham o‘zaro muloqot qilishi, guruhda ishlashi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Bu esa ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Informatika fanida o‘qitiladigan dasturlash, sun’iy intellekt, ma’lumotlar bazasi va kompyuter grafikasi kabi sohalar raqamli vositalarni yaratish va ularni ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayoniga integratsiyalash imkonini beradi. Masalan:

- Sun’iy intellekt algoritmlari o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini aniqlash va tahlil qilishda qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar yordamida emotsional holatga moslashtirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish mumkin.
- Interaktiv dasturlar va mobil ilovalar o‘quvchilarning emotsional ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun maxsus yaratiladi. Bu dasturni yaratishda informatika fanining metod va texnologiyalari asos bo‘ladi.
- Ma’lumotlar tahlili yordamida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional holati va rivojlanish dinamikasi kuzatilib boriladi, natijalarga ko‘ra o‘quv jarayoni optimallashtiriladi.

Xulosa. Ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari keng va samarali. Informatika fani doirasida yaratilgan yangi texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni individual yondashuv orqali qo‘llab-quvvatlash mumkin. Bu ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, shuningdek, kelajak avlodni nafaqat bilimdon, balki ijtimoiy jihatdan ham yetuk shaxslar sifatida tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning). (2020). *What is SEL?* [Online] Available at: https://casel.org/what-is-sel/
2. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. *Child Development*, 82(1), 405–432.
3. Jones, S. M., & Kahn, J. (2017). *The Evidence Base for How We Learn: Supporting Students’ Social, Emotional, and Academic Development*. Consensus Statements of Evidence from the Council of Distinguished Scientists. Aspen Institute.
4. Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (2004). *Building academic success on social and emotional learning: What does the research say?* Teachers College Press.
5. Li, J., & Ranieri, M. (2013). Digital literacy and social-emotional learning: The role of technology in education. *Computers & Education*, 68, 231-241.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING TARBIYAVIY JARAYONIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISHDA OTA-ONALAR HAMDA IJTIMOIY TASHKILOTLAR HAMKORLIGINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Alibayev Doniyorjon Shuxratjonovich[1], Xamroqulova Shahnoza Ixtiyor qizi[2]
[1,2]Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutining tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tarbiyaviy jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etishning ahamiyati hamda ushbu jarayonda ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyati tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, tarbiyaviy jarayon, ijtimoiy-emotsional ta’lim, ota-onalar hamkorligi, ijtimoiy tashkilotlar, o‘zini anglash, hamkorlik, shaxsiy rivojlanish, ma’naviy tarbiya.*

Hozirgi davrda ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri — yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol, ma’naviy yetuk, emotsional jihatdan barqaror shaxs sifatida voyaga yetkazishdir. Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinflarda ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) metodikalarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. IET metodikalari o‘quvchilarda o‘zini anglash, boshqalar bilan hamkorlikda ishlash, emotsiyalarini boshqarish va sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda ota-onalar hamda ijtimoiy tashkilotlarning faol hamkorligi tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir.

Ijtimoiy-emotsional ta’limning mazmuni va ahamiyati. Ijtimoiy-emotsional ta’lim - bu o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ta’limiy yondashuvdir:

- O‘zini anglash - shaxsiy his-tuyg‘ularni, kuchli va zaif tomonlarni tan olish;
- O‘zini boshqarish - emotsiyalarni nazorat qilish, mas’uliyatli qaror qabul qilish;
- Ijtimoiy xabardorlik - boshqalarning hissiyotlarini tushunish, hamdardlik qila olish;
- Muloqot va hamkorlik - jamoada ishlash, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;
- Mas’uliyatli qaror qabul qilish - ijtimoiy va axloqiy normalarga rioya etish.

Ushbu ko‘nikmalar o‘quvchilarning maktabdagi muvaffaqiyatiga, shaxs sifatida shakllanishiga va jamiyatga ijobiy integratsiyasiga zamin yaratadi.

Ota-onalarning hamkorligi. Boshlang‘ich ta’lim davrida bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit - bu oila hisoblanadi. Shu sababli ota-onalarning ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonidagi ishtiroki quyidagi yo‘nalishlarda muhim:

- Uy sharoitida qo‘llab-quvvatlash - ota-onalar farzandlari bilan samimiy suhbat qurishi, his-tuyg‘ularini ifoda etishga imkon berishi zarur.
- Maktab bilan hamkorlik - ota-onalar pedagoglar tomonidan tavsiya etilgan IET metodikalarini uy sharoitida davom ettirishi kerak.
- Namunaviy xulq - ota-onalarning kundalik hayotdagi muloqoti va xulqi bolalar uchun bevosita o‘rnak bo‘ladi.

- Ota-onalar uchun seminar va treninglar - maktablarda tashkil etiladigan ijtimoiy-emotsional ta’lim bo‘yicha mashg‘ulotlarda ishtirok etish orqali ularning tarbiyaviy savodxonligi oshiriladi.

Ijtimoiy tashkilotlarning o‘rni. Maktab va oila bilan bir qatorda ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi tarbiya jarayonini boyitadi va yanada samarali qiladi. Jumladan:

- Mahalla va jamoat tashkilotlari - bolalarning milliy qadriyatlarga hurmatini oshirish, jamoada o‘zini tutish qoidalarini o‘rgatishda yordam beradi.
- Nodavlat notijorat tashkilotlari - bolalar psixologiyasi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish bo‘yicha qo‘shimcha dasturlar ishlab chiqadi.
- Madaniyat va sport muassasalari - turli to‘garaklar, musobaqalar, madaniy tadbirlar orqali bolalarda hamkorlik va jamoaviylik ruhini mustahkamlaydi.
- Ommaviy axborot vositalari - ijtimoiy-emotsional ta’limni targ‘ib qilishda keng imkoniyat yaratadi.

Hamkorlikning samaralari. Ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning faol ishtiroki quyidagi natijalarga olib keladi:

- O‘quvchilarda emotsional barqarorlik va ijtimoiy faollik kuchayadi;
- Oila, maktab va jamiyat o‘rtasida uzviy tarbiyaviy tizim shakllanadi;
- Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy xulq-atvor va ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi;
- Shaxsning sog‘lom psixologik rivojlanishi ta’minlanadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy kamoloti, ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishi bevosita tarbiyaviy ishlarning samaradorligiga bog‘liqdir. Bugungi kunda ta’lim sohasida nafaqat bilim berish, balki bolalarning his-tuyg‘ularini anglash, boshqalar bilan sog‘lom munosabatlar o‘rnatish, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Shu ma’noda, ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarining boshlang‘ich sinflarda joriy etilishi yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Mazkur jarayonning muvaffaqiyati esa, birinchi navbatda, ota-onalar va turli ijtimoiy tashkilotlarning faol hamkorligiga tayanadi.

Oilada bola kundalik hayotiy tajribani o‘zlashtiradi, kattalarning xulq-atvoriga qarab o‘zining munosabatlari va emotsional reaksiyalarini shakllantiradi. Shu sababli ota-onalarning bu jarayonda faol bo‘lishi, farzandlariga o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga sharoit yaratishi, ularni tinglashi va qo‘llab-quvvatlashi bolaning ijtimoiy-emotsional rivojida muhim poydevor hisoblanadi. Maktabdagi pedagoglar tomonidan qo‘llaniladigan metodikalar uyda davom ettirilmasa, bola uchun yetarli natija berishi qiyinlashadi. Demak, ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyaviy jarayonida faqat nazoratchi emas, balki faol ishtirokchi, hamkor sifatida qatnashishi zarur.

Bola shaxsining shakllanishida ijtimoiy tashkilotlarning ham roli beqiyosdir. Mahalla, jamoat tashkilotlari, turli nodavlat notijorat tashkilotlari, sport va madaniyat muassasalari ta’lim muassasasi bilan hamkorlikda bolalarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Jamoaviy tadbirlar, sport musobaqalari, madaniy uchrashuvlar, ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish bolalarda o‘zaro hurmat, jamoaviylik, hamkorlik va mas’uliyat kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, psixologik xizmatlar, bolalar huquqlarini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar, turli ijtimoiy tashabbuslar ham yosh avlodning emotsional barqarorligi va sog‘lom rivojiga hissa qo‘shadi.

Oila, maktab va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bola tarbiyasida yaxlit tizimni shakllantiradi. Har uchala muhit uyg‘unlikda faoliyat yuritgan taqdirda, o‘quvchida bilim olishga qiziqish ortadi, hissiy jihatdan barqaror bo‘ladi, muloqot madaniyati shakllanadi va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bu jarayon ayniqsa muhim, chunki ularning shaxsiy rivoji, emotsional tajribasi va jamiyatga integratsiyasi aynan shu davrda shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish jarayonida ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik orqali tarbiya jarayoni nafaqat maktab doirasida, balki oilaviy va ijtimoiy muhitda ham uyg‘unlikda amalga oshiriladi. Natijada barkamol, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, ijtimoiy faol yosh avlodni tarbiyalash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Quronov, X. Jabborov “Yosh ota-ona kitobi”. “Muharrir” nashriyoti T:.2018 y.
2. Abduraxmonov Q. H. Milliy tarbiya va uning pedagogik asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2021.
3. Qodirov A. Milliy madaniyat va axborot makoni: zamonaviy muammolar va yechimlar. S:. “Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti” 2019.

TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Allambergenova M.X.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani, p.f.d., professor v.v.b.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonlariga ijtimoiy emotsional ta’lim metodlari keng kirib kelmoqda va bu pedagogikada ahamiyatli hodisa hisoblanadi. Ta’lim jarayonida emotsional metodlardan foydalanish yoshlarimizning kelajak hayoti uchun zarur ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) - bu o‘quvchilarda o‘zini anglash, boshqalarni tushunish, ijobiy munosabatlarni rivojlantirish, mas’uliyatli qaror qabul qilish va emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir.

Ta’lim muassasalarida IET metodikalarini samarali joriy etishda zamonaviy dasturiy vositalar keng didaktik imkoniyatlarni ochib beradi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarda interfaol muhitda muloqot qilish, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish hamda emotsional holatlarni boshqarish qobiliyatini shakllantirish imkoniyati yaratiladi.

Yangi texnologiyalar, sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar, raqamli algoritmlar asosida yaratilgan dasturlar va platformalarning o‘quv jarayoniga kirib kelishi ta’limning shakli, uslubi, vositalari va mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj tug‘dirmoqda.

Bu jarayonda pedagogik dasturiy vositalar (PDV) - elektron darsliklar, simulyatorlar, intellektual repetitorlar, mobil ilovalar, AR/VR muhitlari, LMS modullari - o‘quv faoliyatining ajralmas komponentiga aylanib bormoqda. Shunga qaramay, PDVni “texnik yechim” sifatida ko‘rish yetarli emas; uning samaradorligi aniq didaktik maqsadlar, o‘qitish strategiyalari va baholash tizimlari bilan uyg‘unlashganida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayoni uchun PDV yaratishda didaktik imkoniyatlarni tizimli asoslash va amaliy yo‘l-yo‘riqlar berishdir.

Bilimlarni egallash va o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o‘rnatilishi lozim. Binobarin, bilimlar shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun ilmiy asos bo‘lsa, shaxsning rivojlanish darajasi bilimlarni muvaffaqiyatli egallash uchun asos bo‘ladi. Shu bois, pedagogik dasturiy vositalarida bilimlar tizimi o‘quvchilarning rivojlanishini hisobga olgan holda oldinlab borishi, ularni ijodiy faoliyatga undashi lozim bo‘ladi, u rivojlantiruvchi ta’lim tamoyilida o‘z ifodasini topadi.

Bilimlarni mobillashtirish - olingan bilimlarni hayotdagi turli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini bildiradi. Bunda bilimlarning qanchalik darajada moslashuvchan va moslashganligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mobillashgan bilimlar muammolarni yechish, kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish va yangiliklarni tez o‘zlashtirishda yordam beradi.

Ta’lim jarayonining tarbiyaviy yo‘nalganlik tamoyili ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarning emotsional intellektning muhimligi, bilimlarni puxta o‘zlashtirishi hamda o‘zaro munosabatlarda pozitivlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Ta’lim va tarbiya birligi tamoyili o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantiradigan ilg‘or g‘oyalarni tavsiflash, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hodisalarning sababini aniqlash, ziddiyatlarni tahlil qilish, bilimlardagi mutloqlik va insoniylik fazilatlarini emotsional metodlar yordamida rivojlantirishda pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ahamiyatlidur.

Ta’lim jarayoni o‘quv faoliyatining asosiy samarali tashkil etilishi bilan ifodalanadi.

O‘quv faoliyati - ta'lim jarayonining asosiy shakli bo‘lib, nazariy bilimlarni olish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Bu faoliyatda talabaning mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga katta ahamiyat beriladi. O‘quv faoliyatining intensivligini oshirish uchun interaktiv dars usullari, muammoli ta’lim, case-study (vaziyatli tahlil) va amaliy seminarlar kiritiladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, ularning faol va qiziqarli muloqoti muhim o‘rin tutadi.


Bugungi kunda dars jarayonini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta’lim beruvchi pedagogdan juda katta bilim va mas’uliyatni talab etadi. Ta’lim berish jarayonida ta’lim metod va vositalarini tanlash, ularni amalga oshirishda ta’limning didaktik maqsad va vazifalari, zaruriy sharoitlar, ta’lim beruvchining mahoratiga va ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlariga tayangan holda, oquv vositalarini tanlash kutilgan natijani berishi mumkin. Ayniqsa bugungi axborot texnologiyalari deganimizda, nafaqat texnik vositalar, multimedia tizimlari balki smart texnologiyalar va sunniy intellekt texnologiyalarini tushunamiz. Chunki, turmush tarzimizga aqlli texnologiyalar va sunniy intellektdan keng foydalanilmoqda.

Ta’lim jarayonida o‘quv vositalari bilimlarni egallashning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Ayniqsa uzluksiz ta’limning birinchi bug‘unlari maktabgacha va boshlangich ta’lim jarayonida smart texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi texnologiya asri bolalari smart telefon va planshetlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega. Shuningdek, bolalarni o‘yinli texnologiyalar yordamida ta’lim olishga qiziqtirish zarur. Masalan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maktabga tayyorlash uchun o‘rgatuvchi android tizimida “Maktabga qadam” dasturi yoratildi.



Dasturning bosh beti



Rasm chizish oynasi

Dastur oynasi 6 bolimdan iborat:

1. Alifbo
2. Matematika
3. Rasm chizish
4. Musiqa

5. Mevalar, sabzovatlar

Bu bolimlarda bolalar maktabga tayyorgarlikning dastlabki ma’lumotlari bilan tanishadi. Bu tushunchalar ularning yoshiga mos o‘yinli metod tarzida amalga oshiriladi. Yosh bolalar uchun smart telefonlarda bilimlarni etkazish ularning telefon va planshetlardan natiyjali foydalanishga yonaltiradi.



Meva, sabzavotlarni ovozli organish



Sonlarni sanab organish

Yaratilgan o‘quv kontentlari multimediali va ovozli effektlarga ega. O‘quv resurslariga qo‘yiladigan ergonomik talablarga javob beradi. Dastur interfeysi qo‘lay va yo‘naltiruvchi tugmalar bilan jixozlangan. Foydalanishda sodda va qo‘lay.

Pedagogik dasturiy vositalar o‘z-o‘zidan samaradorlik kafolati emas; ularning didaktik qiymati maqsadlar, metodlar, baholash va foydalanuvchi tajribasi bilan uyg‘unlik darajasiga bog‘liq. Konstruktivistik yondashuv, multimedia tamoyillari va aniq baholash strategiyalari bilan boyitilgan PDV - **individualizatsiya, interaktivlik va analitika** orqali o‘quv natijalarini sezilarli yaxshilashi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etishda dasturiy vositalardan foydalanish o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan yondashuv ta’lim sifatini oshirish, shuningdek, o‘quvchilarda sog‘lom ijtimoiy-emotsional muhitni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Алламбергенова М.Х. Таълимда ижтимоий тармоқлар орқали электрон ресурслардан фойдаланиш. // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2024. – №3. – Б. 18-22.
2. Закирова Ф., У.Мухамедханов, Ш.Шарипов, Р.Г.Исянов, Ф.Эсонбобоев, С.Доттоев. Электрон ўқув-методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. – Т.: ОЎМТВ, 2010. – 57 б.
3. Xolmurodov A. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda interfaol metodlar.Qarshi: Nasaf, 2022.134 bet

TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Allambergenova M.X.
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti dekani, p.f.d., professor v.v.b.

Bugungi globallashuv jarayonlari va to‘xtovsiz raqamli rivojlanish zamonaviy jamiyatning barcha jabhalarida, xususan, ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Yangi texnologiyalar, sun’iy intellekt, neyron tarmoqlar, raqamli algoritmlar asosida yaratilgan dasturlar va platformalarning o‘quv jarayoniga kirib kelishi ta’limning shakli, uslubi, vositalari va mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqishga ehtiyoj tug‘dirmoqda.

Bu jarayonda pedagogik dasturiy vositalar (PDV) - elektron darsliklar, simulyatorlar, intellektual repetitorlar, mobil ilovalar, AR/VR muhitlari, LMS modullari - o‘quv faoliyatining ajralmas komponentiga aylanib bormoqda. Shunga qaramay, PDVni “texnik yechim” sifatida ko‘rish yetarli emas; uning samaradorligi aniq didaktik maqsadlar, o‘qitish strategiyalari va baholash tizimlari bilan uyg‘unlashganida namoyon bo‘ladi. Ta’lim jarayoni uchun PDV yaratishda didaktik imkoniyatlarni tizimli asoslash va amaliy yo‘l-yo‘riqlar berishdir.

Bilimlarni egallash va o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirish jarayonlari orasida uzluksiz aloqa o‘rnatilishi lozim. Binobarin, bilimlar shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun ilmiy asos bo‘lsa, shaxsning rivojlanish darajasi bilimlarni muvaffaqiyatli egallash uchun asos bo‘ladi. Shu bois, pedagogik dasturiy vositalarida bilimlar tizimi o‘quvchilarning rivojlanishini hisobga olgan holda oldinlab borishi, ularni ijodiy faoliyatga undashi lozim bo‘ladi, u rivojlantiruvchi ta’lim tamoyilida o‘z ifodasini topadi.

Bilimlarni mobillashtirish - olingan bilimlarni hayotdagi turli vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatini bildiradi. Bunda bilimlarning qanchalik darajada moslashuvchan va moslashganligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mobillashgan bilimlar muammolarni yechish, kreativ yondashuvlarni ishlab chiqish va yangiliklarni tez o‘zlashtirishda yordam beradi.

Ta’lim jarayonining tarbiyaviy yo‘nalganligi tamoyili ta’lim olish jarayonida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda odob-axloq asoslari va komil inson fazilatlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoit yaratish zarurligini ifodalaydi.

Ta’lim va tarbiya birligi tamoyili o‘quvchilar dunyoqarashini shakllantiradigan ilg‘or g‘oyalarni tavsiflash, tabiat va jamiyatda yuz berayotgan hodisalarning sababini aniqlash, ziddiyatlarni tahlil qilish, bilimlardagi mutloqlik va insoniylikni pedagogik dasturiy vositalarida ifodalash jarayonida bilinadi.

Ta’lim jarayoni o‘quv faoliyatining asosiy samarali tashkil etilishi bilan ifodalanadi.

O‘quv faoliyati - ta'lim jarayonining asosiy shakli bo‘lib, nazariy bilimlarni olish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish uchun ishlatiladi. Bu faoliyatda talabaning mustaqil o‘rganish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga katta ahamiyat beriladi. O‘quv faoliyatining intensivligini oshirish uchun interaktiv dars usullari, muammoli ta’lim, case-study (vaziyatli tahlil) va amaliy seminarlar kiritiladi. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligi, ularning faol va qiziqarli muloqoti muhim o‘rin tutadi.

Bugungi kunda dars jarayonini zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta’lim beruvchi pedagogdan juda katta bilim va mas’uliyatni talab


etadi. Ta’lim berish jarayonida ta’lim metod va vositalarini tanlash, ularni amalga oshirishda ta’limning didaktik maqsad va vazifalari, zaruriy sharoitlar, ta’lim beruvchining mahoratiga va ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish imkoniyatlariga tayangan holda, oquv vositalarini tanlash kutilgan natijani berishi mumkin. Ayniqsa bugungi axborot texnologiyalari deganimizda, nafaqat texnik vositalar, multimedia tizimlari balki smart texnologiyalar va sunniy intellekt texnologiyalarini tushunamiz. Chunki, turmush tarzimizga aqlli texnologiyalar va sunniy intellektdan keng foydalanilmoqda.

Ta’lim jarayonida o‘quv vositalari bilimlarni egallashning asosiy omillaridan hisoblanadi.

Ayniqsa uzluksiz ta’limning birinchi bug‘unlari maktabgacha va boshlangich ta’lim jarayonida smart texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bugungi texnologiya asri bolalari smart telefon va planshetlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega. Shuningdek, bolalarni o‘yinli texnologiyalar yordamida ta’lim olishga qiziqtirish zarur. Masalan biz tomonimizdan ishlab chiqilgan maktabga tayyorlash uchun o‘rgatuvchi android tizimida “Maktabga qadam” dasturi yoratildi.



Dasturning bosh beti



Rasm chizish oynasi

Dastur oynasi 6 bolimdan iborat:

6. Alifbo
7. Matematika
8. Rasm chizish
9. Musiqa
10. Mevalar, sabzovatlar

Bu bolimlarda bolalar maktabga tayyorgarlikning dastlabki ma’lumotlari bilan tanishadi. Bu tushunchalar ularning yoshiga mos o‘yinli metod tarzida amalga oshiriladi. Yosh bolalar uchun smart telefonlarda bilimlarni etkazish ularning telefon va planshetlardan natiyjali foydalanishga yonaltiradi.



Meva, sabzavotlarni ovozli organish



Sonlarni sanab organish

Yaratilgan o‘quv kontentlari multimediali va ovozli effektlarga ega. O‘quv resurslariga qo‘yiladigan ergonomik talablarga javob beradi. Dastur interfeysi qo‘lay va yo‘naltiruvchi tugmalar bilan jixozlangan. Foydalanishda sodda va qo‘lay.

Pedagogik dasturiy vositalar o‘z-o‘zidan samaradorlik kafolati emas; ularning didaktik qiymati maqsadlar, metodlar, baholash va foydalanuvchi tajribasi bilan uyg‘unlik darajasiga bog‘liq. Konstruktivistik yondashuv, multimedia tamoyillari va aniq baholash strategiyalari bilan boyitilgan PDV - **individualizatsiya, interaktivlik va analitika** orqali o‘quv natijalarini sezilarli yaxshilashi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak ta’lim jarayoni uchun pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda o‘quvchilarning yosh xususiyatini va ularning texnik qiziqishlarini hisobga olib bilimlarni sodda, o‘yinli texnologiyalarga moslashtirib yaratish o‘quvchilarda motivatsiani uyg‘otadi va samarali natijalarga erishishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR

1. Алламбергенова М.Х. Электрон таълим ресурслари воситасида ахборот технологияларини касбий фаолиятга йўналтириб ўқитиш. // Ilim hám jámiyet. – Nókis, 2023. – №3. – Б. 53-54. (13.00.00. №3).
2. Алламбергенова М.Х. Таълимда ижтимоий тармоқлар орқали электрон ресурслардан фойдаланиш. // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2024. – №3. – Б. 18-22.
3. Закирова Ф., У.Мухамедханов, Ш.Шарипов, Р.Г.Исянов, Ф.Эсонбобоев, С.Доттоев. Электрон ўқув-методик мажмуалар ва таълим ресурсларини яратиш методикаси. Методик қўлланма. – Т.: ОЎМТВ, 2010. – 57 б.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI O‘QUVCHILARDA MILLATLARARO MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Atamurodov Dilshod Olimboy o‘g‘li
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabalarini o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishdagi zamonaviy yondashuvlar, ularning amaliyotda qo‘llanilishi haqida to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishish, madaniyatlar dialogi bilan bog‘liq bilimlar, tajribalarga ega bo‘lishlari, ushbu yo‘nalishda o‘quvchilar bilan ishlash kompetensiyasini o‘zlashtirishlariga e’tibor qaratilgan. Maqoladan ilmiy tadqiqotchilar, pedagoglar, talabalar va pedagogika sohasiga qiziquvchi keng jamoatchilik manba sifatida foydalanishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Millatlararo munosabatlar, muloqot, millat, o‘quvchi, ko‘nikma, kompetensiya, umuminsoniy.*

Ma’lumki, millatlar va madaniyatlararo muloqot masalasi har doim dolzarb bo‘lib, pedagoglar, psixologlar va jamiyatshunoslarning e’tiborini o‘ziga jalb qilib keladi. Millatlararo muloqot masalasi murakkab, ko‘p qirrali hodisa hisoblanadi. Bu inson axloqi bilan bog‘liq masala hisoblanadi. Millatlararo munosabatlarga daxl qilish inson huquqlarini buzish holatlarini keltirib chiqaradi. Natijada, umuminsoniy hamda etnik ziddiyatlar vujudga keladi.

Millatlararo munosabatlarning namoyon bo‘lishida talabalar jamiyatning faol a’zolari sirasiga kiradilar. Aynan oliy ta’lim muassasalarida turli millat vakillari mujassamlashib, birgalikdagi faoliyatga kirishadilar. Ular o‘zaro aloqaga kirishadilar hamda o‘z dunyoqarashlari va madaniyatlilik darajalari bilan bog‘liq holda bir-birlari bilan munosabat o‘rnatadilar. Aynan shunday kommunikatsiya natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda millatlararo munosabat hamda xulq atvor stereotiplari shakllanadi. Bunday ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchilarning istiqboldagi faoliyati uchun muhim hisoblanib, ularda millatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish kompetensiyasining tarkib topishiga xizmat qiladi.

Chunki talabalik davri etnik o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasining rivojlanishi, mustahkamlanishi va takomillashuvida muhim bosqich hisoblanadi.

Oliy pedagogik ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi rivojlanadi. Shu tariqa uning ko‘p madaniyatli jamiyat va undagi o‘z o‘rni haqidagi tasavvurlari kengayadi. Ushbu yoshda talabalarning shaxsiyati va xarakterida ko‘pdan ko‘p murakkab holatlar kuzatiladi. Ular kattalarga xos bo‘lgan sifatlar va atrofdagilarga xos yangi munosabat tajribasini o‘zlashtiradi.

Talabalar etnik masalalarga nisbatan alohida qiziqish bilan yondashadilar. Ba’zi talabalarda esa milliy masalalarga nisbatan negativ munosabatning namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Aksariyat talabalar esa boshqa millat vakillari bo‘lgan tengdoshlari bilan do‘stona munosabatga kirishadilar. Ularning madaniyati, turmush tarzi va qadriyatlariga alohida qiziqish bilan qaray boshlaydilar. Aksariyat talabalar boshqa millat vakillariga nisbatan o‘z munosabatlarini aniq bayon qiladilar.

Talabalar orasida insonlarning milliy mansubligi bilan bog‘liq holdagi haqoratli vaziyatlar tez-tez kuzatiladi. Ba’zi holatlarda boshqa millat vakillariga nisbatan atrofdagilar ham salbiy munosabatda bo‘ladilar. Bu insonlar ongiga chuqur o‘rnashib ularni muayyan harakatlarni bajarishga undaydi. Millatlararo munosabatalarni belgilaydigan holatlardan yana biri muayyan voqealarda ishtirok etish, hamdard bo‘lish, etnik safarbarlikka undovchi qudratli omil hisoblanadi.

Bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatiga tayyorlash mazmunini yanada boyitishni talab qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga ushbu yo‘nalishda ta’lim berishda o‘zbek xalqining ko‘p asrlik merosidan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu bilan bir qatorda o‘quv jarayonini jamiyat hayoti bilan integratsiyalashuvini taminlashga ham alohida e’tibor qaratish zaruriyati kuchaymoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarda boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishish imkonini beradigan bilimlarni taqdim etish alohida ahamiyatga ega. Bo‘lajak o‘qituvchilar birinchi navbatda madaniyatlar dialogi bilan bog‘liq bilimlar, tajribalaga ega bo‘lishlari, ushbu yo‘nalishda o‘quvchilar bilan ishlash kompetensiyasini o‘zlashtirishlariga e’tibor qaratiladi.

Oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri talabalarda millatlararo muloqot madaniyatining me’yorlari, etalomlarini maqsadga muvofiq holda taqdim etish orqali ularni o‘quvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishdan iborat. O‘qituvchilarga taqdim etiladigan bilmlar o‘zida o‘zbek xalqining madaniy-tarixiy tajribasini mujassamlashtirishiga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar birinchi navbatda millatlararo muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishlari kerak. Ularda ziddiyatli vaziyatlarni baratarf etish ko‘nikmasini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. Talabalarda o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy merosiga nisbatan alohida qiziqish uyg‘otish lozim. Shu asosda ularda boshqa millat madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini tushunish va uni qadrlash tajribasi hosil qilinadi. Bu O‘zbekiston jamiyatining muhim talablaridan hisoblanadi. Bugungi kunda millatlararo hamda ijtimoiy munosabatlarda tolerantlik ustuvor o‘rin egallamoqda. Tolerantlik har bir shaxs, shu jumladan, bo‘lajak o‘qituvchi xulq atvorining madaniy me’yoriga aylanishi zarur.

Ushu maqsad va vazifalar oliy pedagogik ta’lim jarayoning turli shakllanrida amalga oshiriladi. Bo‘lajak o‘qituvchilar tolerantlik, millatlararo muloqoqt, madaniyatlar dialogi kabi tushunchalarning bugungi jamiyat hayotida qanday o‘in tutishini yaxshi bilishlari lozim. Umummiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv dasturlarida o‘quvchilarda millatlararo muloqoqt madaniyatini shakllantirishga qaratilgan o‘quv mavzulariga keng o‘rin ajratish alohida ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilar umumiy o‘rta ta’lim o‘quv dasturlarini ushbu yo‘nalishdagi o‘quv mavzularini nazarda tutgan holda tahlil qilishlari, o‘quvchilar bilan millatlararo muloqoqt madaniyati haqida davra suhbatlari, treninglar o‘tkazish tajribasini egallashlari talab etilmoqda.

Ayniqsa, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ijtimoiy psixologiya hamda pedagogik muloqot o‘quv kurslari talabalarda millatlararo muloqot madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda bo‘lajak o‘qituvchilar turli topshiriqlar va mustaqil ishlarni bajarishga muvaffaq bo‘ladilar. Bu jarayonda talabalar etnik stereotiplarni shakllantirishning usullari va metodlarini o‘zlashtiradilar. Milliy o‘zlikni anglash modellarini yangicha vaziyatga ko‘chirish va talqin etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar. Millatlararo toqatsizlik va bosimlarning vujudga kelish sabablarini bilib oladilar. Mazkur ishlarni quyidagi uch yo‘nalishda amalga oshirish nazarda tutiladi: ma’rifiy, diagnostika hamda korreksion rivojlantiruvchi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida:

1) bo‘lajak o‘qituvchilarga tolerantlik hamda toqatsizlik haqida ma’lumotlar taqdim etiladi; millatlararo munosabatlar jarayonida tolerantlik va toqatsizlikning nammoyon bo‘lish shakllaridan talabalar xabardor qilinadilar;

2) jamiyat a’zolari ongida milliy, irqiy mansublik bilan bog‘liq holda vujudga keladigan turli stereotiplarning vujudga kelishi va mustahkamlanishiga oid axborotlar bilan talabalar tizimli ravishda tanishtiriladilar;

3) milliy stereotiplarning vujudga kelishini tan olish ko‘nikmalari shakllantiriladi, jamiyat hayotining turli sohalarida milliy hamda irqiy mansublik bilan bog‘liq holda vujudga keladigan etnosentrizm va diskriminatsiyadan xabardorlik ko‘nikmalari shakllantiriladi;

4) talabalarda turli madaniyatlar haqida o‘zaro muvofiq keladigan tasavvurlar shakllantiriladi. Turli millat vakillarining psixologik xusisiyatlarini bilishga oid bilimlari boyitiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning millatlararo munosabatlarga oid bilimlari diagnsotikasi:

- talabalarning kundalik hayotda uchraydigan etnik stereotiplari va ularning turli sohalarga ko‘rsatadigan ta’sirini anglash darajalari;

- talabalar guruhining tolerantlik darajalarini aniqlash maqsadida diagnostik tekshirishlar amalga oshiriladi.

Talabalarning psixologik yordam ko‘rsatish va rivojlanish darajalarini korreksiyalash:

- salbiy his-tuyg‘ular va bosimlarni pasaytirish, milliy hamda irqiy belgilarga asoslangan holda vujudga keladigan kechinmalarga oid tajribalarni boyitish;

- pozitiv xarakterdagi milliy o‘z-o‘zini anglashning shakllanishi;

- millatchilik va irqchilikning turli shakllariga nisbatan diskriminatsiya va milliy stereotiplarning mustahkamlanishi hamda translatsiyasida o‘zining shaxsiy o‘rnini anglashga oid faoliyatiga tuzatishlar kiritishga oid pedagogik faoliyatlar amalga oshiriladi.

Bunda nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning nazriy tayyorgarligi, balki turli madaniyat vakillari orasidagi amaliy aloqalarga ham alohida e’tibor qaratiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar bilan ishlash jarayonida ularning ongiga mazkur bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish kampetensiyasiga ega bo‘lishlari zarurligi singdiriladi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqot va ustanovkalarni tarkib toptirishda ularning mas’ulliklari haqida aniq tasavvur hosil qilinadi.

Yana shuni alohida ta’kidlash kerakki, bo‘lajak o‘qituvchilarga ta’sir ko‘rsatishning asosiy metodi ularning millatlararo munosabatlar haqidagi shaxsiy qarashlarini turli manbalar, usullar va texnologiyalar vositasida rivojlantirishdan iborat. Buning uchun birinchi navbatda, guruhdagi barcha talabalar o‘zlarining milliy mansubliklari, madaniyatlari bilan faxrlana olishlari va boshqa millat va madaniyat vakillariga nisbatan tolerant munosabatda bo‘lishlari lozim.

Bunday muhim vazifalarni muvaffaqiyatli yechish uchun birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning mazmuni va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun birinchi navbatda bo‘lajak o‘qituvchilarning millatlararo munosabatlar haqidagi bilimlari va tasavvurlarini aniqlash zarurligiga e’tibor qaratdik. Shu bilan bir qatorda talabalarda millatlararo tolerantlik tuyg‘usining mavjud yoki mavjud emasligiga e’tibor qaratdik. Talabalarda millatlararo munosabatlarning qay darajada shakllanganlik parametrlarini aniqlash ham alohida ahamiyat kasb etdi. Buning uchun biz talabalarga turli savollar bilan murojaat qildik, individual suhbatlar tashkil etdik hamda ular bilan millatlararo munosabatlarga oid turli mavzularda yozma ishlar tashkil etdik. Ularning millatlararo munosabatlarga oid mavjud bilimlarini quyidagi yo‘nalishlarda aniqlashga harakat

qildik. Turli millat vakillari bo‘lgan talabalarning o‘zaro muloqot va munosabatga kirishishlarini ta’minlovchi pedagogik vaziyatlarni tashkil etdik. Bugungi kunda O‘zbekiston jamiyatida yuqori darajadagi millatlararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. Chunki ular umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan bilim, tajriba va kompetensiyaga ega bo‘lishlari lozim. Bo‘lajak o‘qituvchilarda millatlararo muloqot madaniyati qay darajada shakllanganligi quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ldi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish kompetensiyalari muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni shakllantirish ijtimoiy-pedagogik jihatdan o‘ta muhim hisoblanadi. Chunki mazkur kompetensiyalar bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik faoliyati yo‘nalishlarini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Қуранов М.О. Культура межнационального общения / М. Куранов//Педагогика, 1992. - №7-8. - С.41-44.
2. Rashidov O. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik [Matn]: O‘quv qo‘llanma / - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2022. - 200 b.
3. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. - 192 b.
4. Murtazayeva R.H. O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag‘rikenglik. Oliy o‘quv yurtlarining magistrlari uchun o‘quv qo‘llanma. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti. - Toshkent, 2007. - 184 b.
5. Musayev O.R. O‘zbekiston Respublikasida millatlararo munosabatlar. Tarix fan.nomz.diss. - Toshkent, 2000. - 163 b.

AKADEMIK QORI NIYOZIY ASARLARIDA MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYA MASALALARI

Axmedova Nargiza Toychibekovna
O‘zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti tyutori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada akademik Qori Niyoziy ma’naviy merosining ahamiyati, yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqida fikrlar keltirilgan. Qori Niyoziy ilmiy ishlari va darsliklari orqali o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning tafakkuri, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan metodlarni ishlab chiqqan olim sifatida shuhrat qozondi.*

Kalit so‘zlar: *Qori Niyoziy, ma’naviyat, ta’lim-tarbiya, pedagogik nazariyalar, shaxs kamoloti*

Аннотация. *В статье представлены размышления о значении духовного наследия академика Кори Ниязи, его роли в воспитании молодёжи. Кори Ниязи прославился как учёный, который своими научными трудами и учебниками разрабатывал методики, направленные не только на предоставление знаний учащимся, но и на формирование их мышления, мировоззрения и нравственных ценностей.*

Ключевые слова: *Кори Ниязи, духовность, образование, педагогические теории, личностное развитие*

Abstract. *This article presents thoughts on the importance of the spiritual heritage of academician Qori Niyazi, its role in the upbringing of youth. Qori Niyazi gained fame as a scientist who, through his scientific works and textbooks, developed methods aimed not only at providing students with knowledge, but also at forming their thinking, worldview and moral values.*

Keywords: *Kori Niyazi, spirituality, education, pedagogical theories, personal development.*

Akademik Qori Niyoziy – O‘zbekistonda milliy ta’lim tizimini rivojlantirishga, pedagogika fani va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalariga katta hissa qo‘shgan yirik olimdir. U o‘z davrining ilg‘or ma’rifatparvar ziyolisi sifatida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni milliy qadriyatlar, sharq mutafakkirlari merosi va zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan uyg‘unlashtirishga alohida e’tibor qaratdi. Qori Niyoziy ilmiy ishlari va darsliklari orqali o‘quvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularning tafakkuri, dunyoqarashi va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishga qaratilgan metodlarni ishlab chiqdi.

Mashhur olim va ijtimoiy fan arbobi, o‘zbek sovet maktabining asoschisi va birinchi darslik yaratuvchisi, birinchi akademik va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining birinchi rahbari Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy 1897 yilda Xo‘jand shahrida kosib oilasida tug‘ilgan. Toshmuhammad Niyozovich Qori-Niyoziy hayotning katta maktabligini bildi, xalqning orasidagi urf-odatlarni, borliqni yaxshi o‘rgandi. U og‘ir va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. T.N.Qori-Niyoziyning mehnat faoliyati juda erta boshlangan. U 1917 yilda 20 yoshida Farg‘onada birinchi o‘zbek maktabini tashkil qildi. 1920 yilning oxirida barpo etilgan maktab va o‘qituvchilik kurslari negizida Qo‘qonda pedagogika texnikumini tashkillashtiradi. Shu vaqtlarda ushbu markaz Farg‘onada pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘yicha muhim sanalgan. 1924-yili

pedagogik texnikumning birinchi bitiruvchilari bitirib chiqdi. “Farg‘ona” gazetasining 26-maydan boshlangan hamma sonida shu masala yoritiladi. Qori Niyoziy gazetada “Bu o‘n uchta bitiruvchi o‘n uch mingta bo‘lsin” deb yozgan edi. Chunki, birinchi bitiruvchilar soni o‘n uch kishi – “o‘n uch qaldirg‘och” edi. Gazetada bu qaldirg‘ochlar o‘zbek ta’limi va ilmini olamga olib chiquvchilar ma’nosida yozilgan edi. Qori-Niyoziyga o‘zbeklardan birinchi bo‘lib 1931-yili professor unvoni berildi, 1939-yilda esa fizika – matematika fanlari doktori ilmiy darajasi berildi. 1939-1943 yillar davomida T.N.Qori-Niyoziy O‘zbekistonning jamoatchilik, madaniyat, maorif va jamoatchilik hayotida muvaffaqiyatli joriy etgan va kirill yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini qayta ishlashga rahbarlik qildi.

Qori Niyoziyning pedagogik merosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash eng muhim maqsad sifatida qaraladi. Uning fikricha, bilim olish jarayoni faqat nazariy darslar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchining ichki dunyosi, e’tiqodi, qadriyatlari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga ham xizmat qilishi kerak. Shu ma’noda u sharq allomalari – Alisher Navoiy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Donish va boshqa mutafakkirlar asarlaridan keng foydalangan, ularni yoshlar tarbiyasiga tatbiq etishni zarur deb bilgan. Qori Niyoziy axloqiy tarbiyada vatanparvarlik, milliy g‘urur, halollik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglikni asosiy qadriyat sifatida ilgari surdi. U pedagog sifatida ta’lim jarayonini nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni tarbiyalovchi, unga ruhiy-ma’naviy quvvat beruvchi, mustaqil fikrlashga o‘rgatuvchi vosita sifatida tasavvur qildi. Olimning nazariy qarashlarida shuningdek gender tengligi, ijtimoiy adolat, jamiyatga foydali bo‘lish tamoyillari ham o‘z ifodasini topgan. Shu jihatdan Qori Niyoziy ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy merosining asosiy g‘oyasi–yoshlarni milliy qadriyatlar va zamonaviy dunyoqarash uyg‘unligida shakllantirishdir.

Olim 1940 yildan deyarli 10 yil davomida buyuk olim astronom Ulug‘bekning qo‘lyozma manbalarini o‘rgandi va uning ilmiy ishlarining davomiga tadqiqot ishlarini olib bordi. Bu ishlarning natijasida u Ulug‘bekning astronomiya maktabi to‘g‘risida yirik ilmiy ish yaratdi. T.N.Qori-Niyoziyning «Ulug‘bekning astronomiya maktabi» nomli kitobi birinchi marta Moskvada 1950 yilda Fanlar Akademiyasida (rus tilida) nashr qilindi. Qori Niyoziy o‘z asarlarida olimlar va mutafakkirlar fikrlari, g‘oyalarini tahlil qilgan.“Ulug‘bekning astronomiya maktabi” va boshqa asarlarida Chag‘miniy haqida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Mahmud al-Chag‘miniy poytaxt Gurganj shahri yaqinidagi Chag‘min deb yuritilgan kentda tug‘ilgan, u boshlang‘ich ta’limni o‘zi tug‘ilgan shaharda olib, keyinchalik Gurganj madrasalarida o‘qishni davom etdirgan. U Gurganjda eng mashhur olimlar rahbarligida tarbiya topib, astronomiya, matematika, geometriya, geografiya fanlaridan chuqur bilim olib, yana ilm olish uchun Samarqand madrasalarida o‘qigan. Olim keyinchalik Xorazmshohlarning saroyida ilm bilan shug‘ullangan. Al-Chag‘miniy aniq fanlar sohasida ko‘pgina asarlar yozib qoldirgan, shulardan “al-Mulaxxas fi hay’at ul basita”, “Astronomiya haqida qisqacha risola”, “To‘qqizliklar arifmetikasi”, “Meros taqsim qilishdagi usullarga sharh” va tabobatga doir “Qonuncha” asarlari bizgacha yetib kelgan. Mahmud al-Chag‘miniy o‘sha vaqtdagi yirik olimlar kabi fanning biror sohasi bilan emas, balki astronomiya, riyoziyot, tabobat, jug‘rofiya va boshqa sohalarda ham juda sermahsul ijod qilgan. Bu fanlar rivojining har biriga katt hissa qo‘shgani sababli u Abu Rayhon Beruniydan keyingi Xorazm ilmiy maktabining eng ko‘zga ko‘ringan olimi hisoblanadi.Qori Niyoziy mutafakkirlar haqidagi qimmatli fikrlari bilan o‘zbek ma’naviy merosini boyitgan olim hisoblanadi.

Qori Niyoziy risolalarida Mirzo Ulug‘bek astronomiya akademiyasini tashkil etgan olim sifatida ta’riflanadi. Vaholanki, o‘sha davrda nafaqat Samarqand, Markaziy Osiyo va Xurosonda fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, geodeziya, geografiya, mantiq, falsafa, matematika, tarix,

minerologiya, adabiyot va boshqa dunyoviy hamda diniy ilmlar rivojlandi. Allomaning sa’y-harakati bilan me’moriy san’at va arxitektura sohasi ham jadal sur’atda yuksaldi. Ulug‘bekning buyrug‘i bilan Samarqand shahridagi Ulug‘bek madrasasi, Ulug‘bek rasadxonasi, ShohiZinda ansambli, Buxoro shahri va G‘ijduvon tumanidagi Ulug‘bek madrasalari, Shahrisabzdagi Ulug‘bek masjidi va boshqa me’moriy san’atning nodir namunalari bunyod etilgani akademiya ilmiy Kengashining mahsuli edi. Shu nuqtayi nazardan Mirzo Ulug‘bek an’anaviy fikrlardan yuqoriroq - nochiziqli va fraktal tafakkur egasi ekanligidan dalolatdir.

Qori Niyoziyning merosida nazariy qarashlar amaliy faoliyat bilan chambarchas bog‘langan. U o‘qituvchi shaxsini o‘quvchiga eng kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omil sifatida ko‘rib, ustozning o‘zini tutishi, muomalasi, nutqi, kiyinish madaniyati ham tarbiya vositasi ekanini ta’kidlagan. Qori Niyoziy o‘z asarlarida maktab va oliy o‘quv yurtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda innovatsion metodlardan foydalanishni, darslarni interfaol shakllarda o‘tishni, o‘quvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishni taklif qilgan. Shu bilan birga, u darslik va qo‘llanmalarda milliy qadriyatlarni zamonaviy fan yutuqlari bilan uyg‘unlashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan. Qori Niyoziyning metodik ishlanmalari nafaqat sinf xonalarida, balki to‘garaklarda, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda ham qo‘llanib kelmoqda. Uning amaliy tavsiyalarida shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash, kasbiy mahoratini oshirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, milliy qadriyatlar asosida umuminsoniy fazilatlarni rivojlantirish masalalari alohida o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, Qori Niyoziy mehnatsevarlik va intizomni mustahkamlovchi rag‘batlantirish usullarini taklif etib, yoshlar ongiga vatanparvarlik, halollik va ijtimoiy mas’uliyatni chuqur singdirish yo‘llarini ko‘rsatib bergan.

Bugungi globallashuv sharoitida Qori Niyoziy merosi yoshlarni milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy qadriyatlarga sodiqlik, ijtimoiy faoliyat va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning ilmiy-pedagogik qarashlari hozirgi ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish va tarbiya, integratsiyalashgan dasturlarni ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, Qori Niyoziy ilgari surgan g‘oyalar milliy istiqlol mafkurasi, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar va tarbiya tizimini rivojlantirishda ham muhim o‘rin egallaydi. Shu sababli uning ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy merosini o‘rganish va zamon talablari asosida rivojlantirish bugungi kun ta’lim siyosatining dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkin-ki, akademik Qori Niyoziy o‘zining boy ilmiy-pedagogik faoliyati bilan O‘zbekiston ta’lim tizimi, xususan, ma’naviy-axloqiy tarbiya sohasida mustahkam ilmiy asos yaratdi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlodni barkamol inson etib tarbiyalashda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Qori Niyoziyning merosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi, o‘qituvchi shaxsiy namunasi, ijtimoiy mas’uliyat va halollik tamoyillari ustuvor o‘rin egallaydi. Shunday ekan, uning ma’naviy-axloqiy tarbiyaviy merosini yanada chuqur o‘rganish va amaliyotga joriy etish bugungi O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanishi hamda ma’naviy yuksalishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Axrarova, Z., Sh, S., Sodikov, U., Allayarova, S. (2020).
2. Umumiy pedagogika. Barcha ta’lim yo ‘nalishlari uchun o ‘quv qo ‘llanma. Toshkent: MUMTOZ SO, (2020).
3. Musurmonova O. va b. Ma’naviy barkamol shaxsni shakllantirish – jamiyat taraqqiyotining asosi. Toshkent - 2012. 128-b.

4. Safarova R. Milliy hududiy an’analar axloqiy tarbiyaninh muhim vositasi sifatida. O‘quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy-hududiy an’analardan foydalanish mexanizmlari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent-2025. 14-16 b.
5. https://kary-niyazov.uz/akademik-qori-niyoziy-merosi-ilmiy-metodik-markazi-2024-yildagi-faoliyatining-yakunlari/
6. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/fizika/ulu-bekning-astronomiya-maktabi/

O‘SMIRLARGA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM BERISHDA MADANIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Bazarova Gulnoza Ziyodulla qizi
Qori Niyoziy nomli Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smir yoshidagi bolalarga ijtimoiy-emotsional ta’lim berish jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarning o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishda oilaviy, mahalliy va madaniy muhitning ta’siri ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘smirlik davri, ijtimoiy-emotsional ta’lim, madaniy qadriyatlar, shaxsiy rivojlanish, milliy identitet*

Аннотация. *В статье анализируется роль национально-культурных ценностей в процессе социально-эмоционального воспитания подростков. Также раскрывается влияние семьи, местной и культурной среды на формирование социально-эмоциональных навыков.*

Ключевые слова: *подростковый возраст, социально-эмоциональное воспитание, культурные ценности, личностное развитие, национальная идентичность.*

Abstract*. This article analyzes the role of national and cultural values in the process of providing socio-emotional education to adolescents. It also reveals the influence of the family, local and cultural environment on the formation of socio-emotional skills.*

Keywords*: adolescence, socio-emotional education, cultural values, personal development, national identity.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning nafaqat akademik bilimlarini oshirish, balki ularning shaxsiy, emotsional va ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllanishiga e’tibor kuchaymoqda. Xususan, o‘smirlik davri bu borada eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shu davrda o‘quvchilar nafaqat o‘z shaxsini anglay boshlaydi, balki jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Bunda esa ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) asosiy rolni o‘ynaydi. Ammo bu ta’lim samarali bo‘lishi uchun u o‘smirning madaniy qadriyatlari, ya’ni oila, jamiyat, milliy va diniy an’analari bilan uyg‘un bo‘lishi zarur.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim nima?

Ijtimoiy-emotsional ta’lim — bu o‘quvchilarda quyidagi asosiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli ta’lim jarayonidir:

O‘zini anglash (self-awareness),

Emotsiyalarni boshqarish (self-regulation),

Ijtimoiy ko‘nikmalar (social skills),

Empatiya (empathy),

Mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making).

Bu ko‘nikmalar o‘smirning psixologik barqarorligini ta’minlashda, sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda va kelgusida yetuk shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyatga ega.

Madaniy qadriyatlar va ularning ahamiyati

Madaniy qadriyatlar — bu jamiyat tomonidan avloddan-avlodga o‘tkazilib kelinadigan, kishilarning axloqiy qarashlari, urf-odatlari, din va e’tiqodlari, hamda milliy identitetini ifodalovchi qadriyatlar majmuasidir.

O‘smirlar ijtimoiy va emotsional jihatdan rivojlanayotganda, ular ongli yoki ongsiz ravishda madaniy qadriyatlar asosida yo‘l tutadilar. Masalan:

O‘zbek oilalarida hurmat, kattaga itoat, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi qadriyatlar o‘smirga bolalikdan singdiriladi.

Mahalla muhitida hamjihatlik, birovning dardiga befarq bo‘lmaslik, yordamga tayyor turish singari qadriyatlar yosh ongiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bu qadriyatlar orqali o‘smirlar emotsiyalarini boshqarishni, boshqalarni tushunishni va ijtimoiy mas’uliyatni anglashni o‘rganadi.

Madaniy qadriyatlar asosida IET berishning afzalliklari

Shaxsiy identitetning shakllanishi:

Madaniy qadriyatlar asosida tarbiyalangan o‘smir o‘z millati, dini, urf-odatlari bilan faxrlanadi va bu unga o‘zini anglashda yordam beradi.

Ijtimoiy uyg‘unlik:

Madaniy qadriyatlar orqali o‘smirlar boshqalar bilan muomala qilishni, empatiya va hamjihatlikni o‘rganadi.

Ichki barqarorlik:

Oila va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan qadriyatlar o‘smirga stress, muammolar yoki bosimlarga qarshi tura olishda kuch beradi.

Axloqiy qarorlar qabul qilish:

O‘zbek milliy qadriyatlarida halollik, sabr, or-nomus, vafo kabi tushunchalar asosida tarbiyalangan o‘smir axloqiy jihatdan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga intiladi.

Amaliy tavsiyalar

Oila bilan hamkorlik: IET dasturlari oiladagi qadriyatlar bilan uyg‘un bo‘lishi lozim. Ota-onalarning farzandga bergan axloqiy ta’limi maktabdagi IET jarayoni bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi kerak.

Milliy urf-odatlarni integratsiya qilish: O‘quv jarayoniga milliy bayramlar, maqollar, xalq ertaklari va qahramonlar orqali madaniy qadriyatlarni singdirish mumkin.

O‘qituvchilarning madaniy sezgirligini oshirish: Pedagoglar turli madaniy qatlamlardan kelgan o‘quvchilarning qadriyatlarini hurmat qilgan holda dars olib borishi muhim.

Xulosa. O‘smirlarga ijtimoiy-emotsional ta’lim berishda madaniy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Madaniyat, qadriyat va emotsional rivojlanish bir-birini to‘ldiruvchi omillardir. O‘zbek xalqining boy madaniy merosi, urf-odatlari va an’analari asosida berilgan ijtimoiy-emotsional ta’lim yosh avlodning barkamol inson sifatida voyaga yetishiga xizmat qiladi. Shu boisdan ham IET jarayonlari har bir o‘quvchining madaniy va milliy ildizlariga moslashtirilgan holda tashkil etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘ofurov, Q. (2020). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Jo‘raev, M., & Tadjibayeva, D. (2022). O‘smirlar psixologiyasi va tarbiyasi. // O‘zbekiston pedagogik jurnali, №2, 45–52.
3. Elias, M. J., Zins, J. E., & Weissberg, R. P. (1997). Promoting social and emotional learning: Guidelines for educators. Alexandria, VA: ASCD.

4. OECD (2015). Skills for Social Progress: The Power of Social and Emotional Skills. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/9789264226159-en
5. Karimov, S. (2019). Milliy qadriyatlar va zamonaviy tarbiya. // Ma’naviyat jurnali, №4, 27–31.
6. CASEL (2020). Core SEL Competencies. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. https://casel.org/
7. Xasanov, A. (2021). O‘zbek xalq ertaklari orqali bolalarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish. // Bolalar psixologiyasi va tarbiyasi, №1(3), 15–20.
8. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. UNESCO (2021). Social and emotional learning: Policy recommendations to improve learning and equity. https://unesdoc.unesco.org/

ADVANTAGES OF THE INTERNATIONAL RULER PROGRAM FOR SOCIAL-EMOTIONAL LEARNING IN TEACHING ENGLISH TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN SPECIALIZED SCHOOLS OF UZBEKISTAN

Begmatov Mansur
Independent researcher, National Educational Pedagogical Institute named after Qori Niyazi,

Abstract. *This article examines the integration of the RULER (SEL) social and emotional learning program into the teaching of English to primary school students in specialized schools in Uzbekistan. The RULER program developed by the Yale Center for Emotional Intelligence in this study highlights the importance of SEL for achieving academic success and developing interpersonal skills in various cultural contexts, as well as improving both socio-emotional competencies and English language proficiency among elementary school students.*

Key words: *RULER program, Social-emotional learning (SEL), English language instruction, Uzbekistan, Emotional literacy, Teacher training, Cultural adaptation, Academic success, Interpersonal skills, Language proficiency.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada RULER (SEL) ijtimoiy va emotsional ta’lim dasturining O‘zbekistondagi ixtisoslashtirilgan maktablarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishga qo‘llanishi ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqotda Yel hissiy ntellect markazi tomonidan ishlab chiqilgan RULER dasturi SELning akademik muvaffaqiyatga erishish va turli madaniy sharoitlarda shaxslararo ko‘nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, boshlang‘ich maktab o‘quvchilari o‘rtasida ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarni va ingliz tilini bilish qobiliyatini yaxshilash uchun muhimligini izlanilgan.*

Kalit so‘zlar: *RULER dasturi, ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL), ingliz tilini o‘qitish, O‘zbekiston, hissiy savodxonlik, o‘qituvchilar malakasini oshirish, madaniy moslashuv, akademik muvaffaqiyat, shaxslararo munosabatlar, tilni bilish.*

Аннотация*. В данной статье рассматривается интеграция программы социально-эмоционального обучения RULER (SEL) в преподавание английского языка ученикам начальных классов специализированных школах Узбекистана. Разработанная Йельским центром эмоционального интеллекта программа RULER в данной исследовании подчеркивается важность SEL для достижения академических успехов и развития навыков межличностного общения в различных культурных контекстах, а так же улучшить как социально-эмоциональные компетенции, так и уровень владения английским языком среди учащихся начальных классов.*

Ключевые слова: *Программа RULER, Социально-эмоциональное обучение (SEL), обучение английскому языку, Узбекистан, Эмоциональная грамотность, Подготовка учителей, Культурная адаптация, Успехи в учебе, Навыки межличностного общения, владение языком.*

Introduction. Choosing a socio-emotional methodology for primary school specialized schools in Uzbekistan with the teaching of English is a multifaceted task that requires consideration of cultural characteristics, linguistic context and the specifics of the educational

process. In modern education, special attention is paid to the importance of social-emotional learning (SEL). This learning encompasses the development of skills necessary for understanding and managing one's emotions, establishing positive relationships, and making responsible decisions. The RULER program, developed by the Yale Center for Emotional Intelligence, offers effective methods for implementing SEL in educational practices. This article focuses on analyzing the advantages of integrating the RULER methodology into English language instruction for primary school students in specialized schools in Uzbekistan.

History of the RULER Program

The first version of the RULER program was developed in 2000 and has since been continuously refined based on new research and practical observations. The main goal of the RULER program is to help students develop emotional literacy and successfully apply these skills in various aspects of their lives (Brackett., 2019).

Core Components of the Program.

- The program includes five components:

1. Recognizing
2. Understanding
3. Labeling
4. Expressing
5. Regulating

Each of these components is aimed at fostering necessary skills for successful social adaptation and interaction.

Importance of Social-Emotional Education

Social-emotional education has numerous positive effects, including improved academic performance, reduced levels of stress and conflict among students, as well as the development of cooperation and communication skills (Durlak et al., 2011). Such skills become particularly important in the context of Uzbekistan's multilingual and multicultural society, where an increasing number of students from various cultural and linguistic backgrounds presents unique challenges for the educational system.

RULER Program and Its Benefits for Uzbekistan.

One of the most effective and practical international methods for social and emotional education that can be implemented in teaching English to primary school students in specialized schools in Uzbekistan is SEL (Social and Emotional Learning), namely the RULER program. Implementing the RULER program in Uzbekistan's educational practices can lead to significant changes in teaching. It is consider the main advantages of applying this methodology.

- Integration of Emotional Literacy into the Educational Process

Embedding emotional literacy principles into English language lessons enhances students' understanding of the material. The RULER program provides various methodologies that help students connect language with emotions, increasing motivation and interest in language learning.

- Development of Language Skills through Social-Emotional Learning

The RULER methodology can be integrated into language instruction through practical assignments such as role-playing, discussions, and text analyses. Students can engage with materials that reflect emotional situations, thereby developing not only language skills but also abilities in empathy and cooperation (Mamatkulov, S. (2020).

- Support in the Context of Sociocultural Changes

Uzbekistan is implementing reforms in education aimed at modernizing schools and improving the quality of education. The RULER program can assist in addressing the challenges associated with changes in curricula and teaching methods. The application of SEL can foster a more positive classroom environment and contribute to more productive educational processes.

Implementing the RULER Program in Specialized Schools of Uzbekistan

- Teacher Preparation

Implementing the program requires enhancing teachers' skills and training. Educators must be educated in the fundamentals of social-emotional learning and methods for applying RULER in the classroom. This may include seminars, workshops, and online courses.

- Adaptation to Local Conditions

The RULER program should be adapted to the cultural and social conditions of Uzbekistan. Basic concepts of the program can be supplemented with local examples and contexts to make the education more relevant to students.

- Evaluating Effectiveness

To assess the effectiveness of the program implementation, regular research and surveys among students and teachers need to be conducted. This will allow for the identification of positive changes and the adjustment of approaches if necessary (Elias., 1997).

Conclusion

The implementation of the RULER program for social-emotional education in English language teaching in specialized schools of Uzbekistan can lead to sustainable changes in educational approaches. The development of emotional literacy not only improves students' language skills but also fosters a positive and supportive educational environment. It is crucial that the realization of this program is conducted with consideration of local conditions and the needs of both educators and students.

REFERENCES

1. Brackett, M. A., Rivers, S. E., SHAH, A., & Salovey, P. (2019). Emotional Intelligence and the RULER Approach to Social and Emotional Learning. In *Handbook of Emotional Intelligence* (pp. 349-366). Academic Press.
2. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). *The impact of enhancing students' social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions*. Child Development, 82(1), 405-432.
3. Elias, M. J., Rose, A. M., & Weissberg, R. P. (1997). *Social-emotional learning: Its conceptualization, and its role in students’ educational and personal development*. Journal of Educational and Psychological Consultation, 8(2), 171-190.
4. Mamatkulov, S. (2020). The Impact of Emotional Intelligence on Students' Academic Performance in Uzbekistan. Journal of Education and Teaching, 6(2), 90-97.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILAR TARIXIY BILIMLARINI OSHIRISHDA ME’MORLIK OBIDALARNING O‘RNI

Botirova Nazokat Ro‘zimovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Аннотация. *Данная статья посвящена вопросу использования материалов об архитектурных памятниках для обогащения исторических знаний учащихся, развития у них чувства национальной гордости. В статье содержится краткая информация об имеющихся в Узбекистане исторических памятниках XVIII – XIX веков, которые связаны с определенной эпохой и событиями, рассмотрены возможности использования иллюстративных материалов, экскурсий для интеллектуального и духовно – нравственного развития учащихся.*

Ключевые слова: *историческое архитектурные памятники, эпоха, культура, сооружение архитектурный ансамбль, иллюстративный материал, национальная гордость, культурное наследие, медресе, мавзолей, исторические знания, демонстрационный метод, экскурсия.*

Annotation. *This article is devoted to the issue of using materials about architectural monuments to enrich students' historical knowledge and develop their sense of national pride. The article contains brief information about the historical monuments of the 18th-19th centuries available in Uzbekistan, which are associated with a certain era and events, the possibilities of using illustrative materials, excursions for the intellectual and spiritual and moral development of students are considered.*

Key words*: historical architectural monuments, era, culture, construction, architectural ensemble, illustrative material, national pride, cultural heritage, madrasah, mausoleum, historical knowledge, demonstration method, excursion.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini boyitish, milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirish uchun me’moriy yodgorliklarga oid materiallardan foydalanish masalasiga- bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekistonda mavjud bo‘lgan 18-19 asrlarga oid ma‘lum bir davr voqiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy obidalar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan, bu esa o‘quvchilarning intellektual va ma’naviy-ahloqiy rivojlanishi uchun illyustrativ materiallar, ekskursiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *tarixiy me’moriy yodgorliklar, davr, madaniyat, qurilish, me’moriy ansambil, illyustrativ material, milliy iftixor, madaniy meros, madrassa, maqbara, tarixiy bilim, ko‘rgazmali usul, ekskursiya.*

Bugungi kunda pedagogika fanining asosiy vazifasi ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish orqali ta’lim-tarbiya jarayonini samarali olib borishdir. Biz milliy qadriyatlarimizni tahlil qilar ekanmiz, ular orqali o‘quvchilarda vatan tuyg‘usini rivojlantirishga ko‘proq ahamiyat berishimiz kerak.

Vatan tuyg‘usini rivojlantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu tushunchalar xalqimizning o‘tmish tarixi va bugungi kunda amalga oshirayotgan ishlarning o‘ziga xos talqini orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday tushunchalarni amalga oshirishda


xalqimiz ma’naviyatining asosini tashkil etadigan qadriyatlarimizning o‘rni muhimdir. Mustaqillikka erishgach davlatimiz oldidagi muhim vazifalardan biri, yosh avlodda azaliy qadriyatlarimizga, me’moriy obidalarimizga hurmat uyg‘otishga asosiy e’tibor qaratildi. Bugungi kunda mamlakatimizda qadriyatlar, ularning mohiyati, tarbiyaviy ta’siri va ta’lim-tarbiya jarayonida ular vositasida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish ustida olimlarimiz keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Qadriyatlar inson onggi va faoliyatining, shu bilan birga jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsulidir. Qadriyatlar o‘sha zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarida o‘z ifodasini topgan. Vaqt va davr talablari o‘zgargan sari qadriyatlarning mazmuni ham o‘zgarib boradi.

Qadriyatshunos olimlardan biri J.Tulenov shunday yozadi: “Qadriyatlar deyilganda faqat o‘tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, ahloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi, qadriyat qadr - qimmat degan ma’noni bildiradi”

E.Yusupovning fikricha, – “Qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakillangan va rivojlangan, o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoyi taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy boyliklardir”

Qadriyatlarning ham o‘ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar inson ongi va irodasiga bo‘ysunmaydi. Shu sabab kishilar o‘zlarining turmish tarzlarida insoniyat yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o‘zgartirib boradilar. Qadriyatlar o‘zining mazmun, mohiyatiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi



Insonning aqliy va jismoniy mehnati natijasida yaratilgan turli–tuman moddiy boyliklar, ishlab chiqarish kuchlari, turar-joy, me’morlik obidalari, saroylar, madrassalar va shu kabilar moddiy qadriyatlar hisoblanib, Vatanga bo‘lgan e’tiqodni shakillantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ma’naviy qadriyatlarga milliy meros, turli shakillarda namoyon bo‘ladigan madaniyat durdonalari, xalq hunarmandchilgi mahsulotlari,noyob tarixiy va madaniy yodgorliklar, arxitektura inshootlari va boshqalar kiradi. O‘quvchi shaxsi taraqqiyotini ta’minlashda moddiy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni katta. Ularni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarda o‘z xalqi, millati va vatanidan g‘ururlanish va fahirlanish tuyg‘usi qaror topadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, ”Biz borpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasiga, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi”.

Milliy-ma’naviy qadriyatlar moddiy qadriyatlarga nisbatan yashavchan xarakterga egadir. Milliy qadriyatlar jamiyat madaniyati, shaxs ma’naviyati va tuyg‘uning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalq o‘zligini o‘tmish ma’naviy madaniyati orqali anglaydi. O‘zining kelajakini belgilab olib, jahon tarixida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Shuning uchun inson ma’naviy madaniyati, dunyoqarashini ijobiy tomonga yo‘naltirish bugungi kunda ta’lim-tarbiya oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Milliy-ma’naviy meros kelajak avlod uchun vorislik vazifasini o‘taydi. Shuningdek, o‘quvchilarda vatan tuyg‘usini rivojlantirishda xalq amaliy san’ati namunalari ham muhim ahamiyati kasb etadi. Chunki ular muayyan makon va xalqqa mansub bo‘ladi. Bugungi kunga kelib mazkur qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. O‘zbek xalqi o‘zining me’morchiliki, hunarmandchiliki namunalari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Bugugi kunga kelib ham mamlakatimizning shahar va qishloqlarida naqqoshlik, o‘ymakorlik, ganjkorlik, kashtachilik va shu kabi kasblar davom etmoqda. Xalqimizning bunday yuksak moddiy qadriyatlari o‘quvchilarda vatan tuyg‘usini rivojlantirishda ulkan hissa qo‘sha oladi. Chunki o‘quvchilar me’moriy obidalar namunalari bilan tanishishlari natijasida ularda Vatanga sadoqat, o‘z xalqi yutuqlaridan faxrlanish xislatlari paydo bo‘ladi.

O‘zbek milliy – ma’naviy qadriyatlari mazmunida vatanparvarlik g‘oyalari yotadi. Shuningdek, me’morlik obidalari vositalari orqali mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e’zozlanib kelinadi. Me’morlik obidalari vositasida o‘quvchilarda vatan tuyg‘usini rivojlantirishda sayohatlarning o‘rni kattadir. Ayniqsa o‘quvchilar bilan tarixiy obidalarga uyushtiriladigan sayohatlar davomida o‘quvchilar bevosita tarix bilan ro‘baru keladilar. Kuzatilayotgan obyektning qaysi asrda va kim tomonidan barpo etilganligi, uning bugungi kunda qanday ahvoldaligini kuzatadilar, hamda shu kuzatish jarayonida vatanga nisbatan vatanparvarlik tuyg‘usi, uni asrash, insonlar mehnatini qadrlash, tarixiy obidalarni o‘rganishga qiziqish, ularni kelgusi avlodlarga meros etib qoldirish ishlarida qatnashish ko‘nikmalari shakllanadi. Tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish orqali bolalarda dars jarayonida hosil bo‘ladigan zerikish, toliqish alomatlari bartaraf etiladi. Muzeylr, tarixiy obidalar, sa’nat koshonalariga sayohatlar o‘quvchilarni tarix fanini yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu tariqa ular Vatan va vatanparvarlik haqida kengroq tushunchaga ega bo‘lib boradilar.

Shuningdek, o‘qituvchi milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga meros qoldirish ishlarida faol ishtirok etishi har bir o‘quvchining burchi ekanligini ta’kidlab o‘tishi maqsadga muvofiq keladi. Bu xol tarixiy obidalarning mustaqillikdan keyingi yillarda qayta ta’mirlanib, chiroyli ziyoratgohga va oromgohga aylantirilganligi o‘quvchilarda ahloqiy - estetik zavq uyg‘otadi, obidalar peshtoqining naqshinkor o‘ymakorlik ishlarida milliylikning aks etishi ularda o‘zbek xalqi amaliy san’atiga nisbatan qiziqish uyg‘otadi va hurmat hissini shakllantiradi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAT

1. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 190 b.
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. .- T.: O‘zbekiston, 1998.- 335 b.
3. Ergashov F., Obidov D.Milliy ta’lim tarixidan.- T.:Akademiya, 1998.-77 b.
4. Qurbonov T. Milliy g‘urur va madaniy meros meros dialektikasi. -T.: 2006.- 98 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.:Ma’naviyat, 2008.-176 b.
6. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Ped.fan. Dok... yozilgan diss.– T.: 2000 – 305 b.

ZAMONAVIY TA’LIMDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL YONDASHUV: NAZARIYA VA AMALIYOT

Daminova Go‘zal Vaydulla qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional yondashuvning nazariy asoslari va uning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada turli mamlakatlarda qo‘llanilgan xalqaro tajribalar, jumladan, SEL (Social Emotional Learning) dasturlarining samaradorligi o‘rganilib, ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional yondashuvni o‘qituvchilar faoliyatiga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-emotsional ta’lim, ta’lim sifati, emotsional savodxonlik, xalqaro tajriba, shaxsiy rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические основы и практическое значение социально-эмоционального подхода в системе современного образования. Социально-эмоциональное обучение (СЭО) рассматривается как важный фактор личностного развития учащихся, формирования социальных компетенций и повышения качества образования. В работе изучен международный опыт применения СЭО, включая эффективность программ SEL, а также освещены возможности их адаптации в национальную систему образования. Кроме того, предложены рекомендации по внедрению социально-эмоционального подхода в деятельность педагогов.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное обучение, качество образования, эмоциональная грамотность, международный опыт, личностное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations and practical significance of the social-emotional approach in modern education. Social-Emotional Learning (SEL) is considered as an essential factor in students’ personal development, the formation of social competencies, and the improvement of education quality. The paper examines international experiences of implementing SEL programs, highlights their effectiveness, and explores the possibilities of adapting them to the national education system. Furthermore, recommendations are provided for integrating the social-emotional approach into teachers’ professional activities.*

Keywords: *Social-emotional learning, quality of education, emotional literacy, international experience, personal development.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash, ularni barkamol inson sifatida shakllantirishni ham talab etmoqda. Shuning uchun zamonaviy ta’limda ijtimoiy-emotsional yondashuv alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) o‘quvchilarda o‘zini anglash, emotsiyalarini boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, qaror qabul qilishda mas’uliyatli bo‘lish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-emotsional yondashuvni ta’lim jarayoniga qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning bilim sifatini oshiradi, balki ularning ruhiy salomatligi va

ijtimoiy integratsiyasini ham mustahkamlaydi. Masalan, AQSh, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda SEL (Social Emotional Learning) dasturlari ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida faol qo‘llanilmoqda. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat akademik muvaffaqiyat, balki ijtimoiy moslashuvchanlik, tolerantlik va ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham so‘nggi yillarda shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko‘nikmalar va emotsional savodxonlikka e’tibor kuchaymoqda. Prezident tashabbuslari, davlat dasturlari va xalqaro hamkorlik loyihalari bu borada muhim imkoniyatlar yaratmoqda. Shu jihatdan, ijtimoiy-emotsional yondashuvni milliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etish ta’lim sifatini oshirish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish va ularni global dunyoga moslashuvchan shaxs sifatida shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi zamonaviy ta’limda ijtimoiy-emotsional yondashuvning nazariy asoslarini yoritish, xalqaro tajribani tahlil qilish hamda ularni milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iboratdir.

Asosiy qism. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) inson shaxsining intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda uning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydigan yondashuvdir. Ushbu ta’lim konsepsiyasi asosan shaxsning o‘zini anglash, emotsiyalarni boshqarish, ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni maqsad qiladi.

- Asosiy komponentlari: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy mas’uliyat, samarali muloqot va empatiya.
- Psixologik asoslari: L.S. Vigotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi, A. Maslou ehtiyojlar piramidasi, D. Goulmanning emotsional intellekt nazariyasi.
- Pedagogik asoslari: Komenskiy, Ushinskiy va boshqa klassik pedagoglarning shaxsiy rivojlanishga qaratilgan g‘oyalari.

IET o‘quvchilarning faqat bilim olish jarayonini emas, balki ularning emotsional barqarorligi va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqqan holda, o‘quv-tarbiya jarayonida qulay munosabatlar yuritish uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli asoslar bo‘luvchi pedagogning insoniy xislatlari muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. O‘qituvchi uchun muhim xislat — insonparvarlik, ya’ni o‘sayotgan insonga oliy qadriyat kabi munosabatda bo‘lish lozim [Zamilova, 2023:557].

Zamonaviy ta’limda ijtimoiy-emotsional yondashuvning ahamiyati. Bugungi ta’lim jarayonida faqat bilim berish bilan cheklanib qolish yetarli emas. O‘quvchi jamiyatga moslasha olishi, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashi va o‘z emotsiyalarini boshqarishni o‘rganishi zarur. Psixik jarayonlardan ayniqsa, emotsiya o‘zining aniq tashqi ifodasiga ega bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Emotsional o‘zgarishlar organizmning tashqi o‘zgarishlarida shu qadar yaqqol ifodalanadiki, biz odamni tashqi ko‘rinishiga qarab, unda qanday xususiyatlar yuz berayotganini, uning xursand yoki xafaligini, g‘azablanganligini yoxud biror narsadan qo‘rqib ketganini va shu kabi his-tuyg‘ularning ko‘pini aytib bera olamiz. Hissiyotlarning tashqi alomatlari ifodali harakatlar deb ataladi [Bekmirov, 2022:11]. Har bir shaxsning jamiyatdagi o‘z o‘rnini, o‘zligini anglashi, hayotiy-axloqiy me'yorlarni o‘zida mujassam etishi jamiyatda shu ma'naviy-axloqiy sifatlarni namoyon etib, ijtimoiy hayotimiz, zamonamiz bilan hamnafas yoshlarni tarbiyalashda Pedagogika va sotsiologiya fanlarining hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Vaholanki ta'lim-tarbiyaning o‘zi ijtimoiy hodisa va pedagogik jarayondir [Ne’matova, 2022:32]. Chet el

psixologi K.Markning so‘zi bilan aytganda, inson shaxsining mohiyati barcha ijtimoiy munosabatlar yig‘indisidan

iboratligiga e’tiroz bildirib bo‘lmaydi. Shaxs ijtimoiy mavjudod bo‘lish bilan birga, o‘zida tabiiy, biologik tuzilish belgilarini saqlab qoladi [Ismoilova, Abdullayeva, 2013:34].

- Shaxsiy rivojlanishda: o‘quvchi o‘zini tanishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, o‘zini boshqarishni o‘rganadi.
- Ta’lim sifatida: emotsional barqarorlik o‘quvchilarni bilimlarni samarali o‘zlashtirishga undaydi.
- Ijtimoiy hayotda: empatiya, bag‘rikenglik va jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.
- Milliy ta’lim tizimida: IET yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash, ularni global dunyoda raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto” kitobida ham ta’Iim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator g‘oya va qarashlami ko‘rish mumkin. “Avesto”da ta’kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi. Shu boisdan har bir yoshni yaxshi o‘qish va yozishga o‘rgatish lozim [Muxamadaliyeva, Zarifova, Artikbayeva, 2022:12].

Xalqaro tajribalar tahlili.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan.

- AQSh: CASEL markazi tomonidan SEL dasturlari ishlab chiqilgan va barcha bosqichlarda qo‘llanilmoqda. Tadqiqotlarga ko‘ra, SEL dasturi joriy etilgan maktablarda o‘quvchilarning akademik natijalari 11% ga oshgan.
- Finlandiya: ta’limda shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.
- Singapur va Janubiy Koreya: o‘quvchilarda emotsional savodxonlikni oshirish bo‘yicha maxsus milliy dasturlar joriy etilgan.
- Yevropa mamlakatlari: ko‘plab maktablarda SEL elementlari majburiy fanlar bilan integratsiya qilingan holda o‘qitiladi.

Bu tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim bo‘lib, ular milliy an’ana va qadriyatlarni hisobga olgan holda tatbiq etilishi mumkin. Buyuk rus yozuvchisi Lev Tolstoy odamlarda 97 xil kulgu turi hamda 85 xil ko‘z qarashlar turi borligini kuzatgan. G.M. Andreyevaning yozishicha, odam yuz ifodalari, nigohlarining 20.000 ga yaqin ko‘rinishi bor. Ayniqsa, birinchi bor uchrashganda ko‘zlar to‘qnashuvi, nigohlarning roli keyingi muloqotning taqdiriga kuchli ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bularning barchasi muloqotning hissiy tomondan boy, mazmundor bo‘lishini ta’minlab, odamlarning bir-birlarini tushunishlariga yordam beradi [Ahrorov, 2020:91].

Amaliy tavsiyalar va istiqbollar.

Ijtimoiy-emotsional yondashuvni ta’lim jarayoniga samarali tatbiq etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar muhimdir:

1. O‘qituvchilarni ijtimoiy-emotsional ta’lim bo‘yicha maxsus tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

2. O‘quv dasturlariga SEL elementlarini integratsiya qilish, fanlararo yondashuvni rivojlantirish.

3. Sinf va maktablarda ijobiy psixologik muhit yaratish, emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

4. Ota-onalarni SEL dasturlari haqida xabardor qilish, oilaviy tarbiyada emotsional savodxonlikni qo‘llab-quvvatlash.

5. Xalqaro tajriba asosida milliy model ishlab chiqish va bosqichma-bosqich ta’lim tizimiga joriy etish.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional yondashuvning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon o‘quvchilarning faqat bilim olish jarayonini emas, balki ularning shaxsiy rivojlanishini, hissiy barqarorligini va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyatini ham ta’minlaydi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim orqali o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini anglash, hamkorlik qilish, muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish va mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, AQSh, Yevropa mamlakatlari, Janubiy Koreya va Singapurda ijtimoiy-emotsional yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilar motivatsiyasi va o‘quv natijalarining sezilarli darajada oshishiga olib kelgan. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham bu yo‘nalishda boshlangan islohotlar o‘quvchilarning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga, ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini oshirishga va ijtimoiy hayotga samarali moslashishiga xizmat qiladi.

Shu boisdan, zamonaviy ta’limda ijtimoiy-emotsional yondashuvni keng joriy etish, pedagoglarni bu borada tayyorlash, o‘quv dasturlariga integratsiya qilish va ilg‘or xalqaro tajribalarni moslashtirish zarurdir. Natijada, nafaqat bilimli, balki jamiyatda ijobiy munosabatlar o‘rnata oladigan, sog‘lom psixologik muhit yaratadigan, ijodkor va bag‘rikeng shaxslarni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahrorov, V. Yu. (2020). Sotsial psixologiya: o‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashri. — 246 b.
2. Bekmirov, T. R. (2022). Shaxsning emotsional irodaviy holatlari: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent: Toshkent tibbiyot akademiyasi. — 85 b.
3. Ismoilova, N., & Abdullayeva, D. (2013). Ijtimoiy psixologiya: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. — 168 b.
4. Muxamadaliyeva, M. X., Zarifova, Z. M., & Artikbayeva, A. A. (2022). Oila va ijtimoiy pedagogika: O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU. — 151 b.
5. Ne’matova, F. B. (2022). Ijtimoiy pedagogika: o‘quv qo‘llanma. Buxoro: Fan va ta’lim nashriyoti. — 180 b.
6. Zamilova, R. R. (2023). Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim: darslik. Namangan: USMON NOSIR MEDIA. — 700 b.

O‘QUVCHILARNI OLIY TA’LIMGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY-EMOSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

Egamberdiyev Umidbek Xo‘jayevich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada so‘z umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni oliy ta’limga tayyorlashda ijtimoiy – emosional ta’lim metodikalarini joriy etish va bu orqali oila va boshqa ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik sifatini oshirish imkoniyatlari to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, ijtimoiy-emosional ta’lim, oila, ijtimoiy – institutlar, ijtimoiy – psixologik muhit, ta’lim-tarbiya sifati, oliy ta’lim, oliy ta’limga tayyorlash.*

Аннотация. *В статье рассматриваются возможности внедрения методов социально-эмоционального образования в общеобразовательных школах для подготовки учащихся к высшему образованию и, следовательно, повышения качества взаимодействия с семьей и другими социальными институтами.*

Ключевые слова: *образование, социально-эмоциональное воспитание, семья, социальные институты, социально-психологическая среда, качество образования, высшее образование, подготовка к высшему образованию.*

Abstract. *The article examines the possibilities of introducing methods of social-emotional education in comprehensive schools to prepare pupils for higher education and, consequently, improve the quality of interaction with the family and other social institutions.*

Keywords: *education, social-emotional education, family, social institutions, social-psychological environment, quality of education, higher education, preparation for higher education.*

Yangi O‘zbekistonda ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalar va metodikalarni joriy etish tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarning yetakchi yo‘nalishlaridan birini tashkil etmoqda. “Iqtisodiyot rivojlanishi, yurtimiz va farzandlarimiz kelajagi faqat va faqat ta’lim va muallimga bog‘liq”, deya ta’kidladi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev joriy yil 9 – sentyabr kuni maktabgacha va maktab ta’limi sohasidagi islohotlar ijrosi va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishida.

Yurtimizda ijtimoiy – emosional ta’lim metodikalarining joriy etilishi masalasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ-232-son “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida” qarori bilan “2025/2026 o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emosional ta’lim (Social and Emotional Learning — SEL) metodikalarini joriy qilish” belgilangan va “ijtimoiy-emosional ta’lim metodikalarini joriy qilish jarayonlari Institut tomonidan doimiy monitoring qilib borilishi va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilishi” ham nazarda tutilgan [1].

Ijtimoiy-emosional ta’lim (SEL) o‘quvchilarning umumiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismidir. Bu ularga asosiy ta’lim va hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, masalan:

O‘z-o‘zini boshqarish: o‘z harakatlarini nazorat qilish ko‘nikmalari, shu jumladan o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, o‘zini o‘zi nazorat qilish va maqsadni belgilash;

Ijtimoiy xabardorlik: boshqalarning nuqtai nazarini tushunish, hurmat ko‘rsatish va xilma-xillikni qadrlash.

Muloqot ko‘nikmalari: ochiq muloqot, tinglash, ishonch, hamkorlik va muammolarni hal qilish orqali sog‘lom munosabatlarni shakllantirish va saqlash.

Mas’uliyatli qarorlar qabul qilish: sabab va ta’sirni, potensial natijalarni va boshqalarga ta’sirini hisobga olgan holda konstruktiv va puxta o‘ylangan qarorlar qabul qilish.

Tadqiqotlar SELning doimiy ravishda muhim afzalliklarini ko‘rsatadi [2, 44]:

Akademik muvaffaqiyat: SEL dasturlarida o‘quvchilar ko‘pincha yaxshilangan akademik ko‘rsatkichlarni, jumladan, yuqori baholar va yaxshi test ballarini namoyish etadilar. Ular o‘z e’tiborlarini o‘qishga qaratishga va o‘rganishga to‘liqroq kirishishga yaxshiroq tayyorlanishadi.

Hissiy muvaffaqiyatlar: SEL o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish va empatiyani rivojlantirishga yordam beradi, bu esa stress, tashvish va depressiyani kamaytirishga olib keladi. Bu sinfdagi ijobiy muhitni targ‘ib qiladi, tegishlilik va farovonlik hissini rag‘batlantiradi.

Uzoq muddatli ta’sir: egallangan ko‘nikmalar shaxsiy va professional hayotga ta’sir qiladigan sinfdan tashqarida ham tarqaladi. SEL ishtirokchilari ijobiy ijtimoiy xulq-atvorni namoyon etishlari, sog‘lom munosabatlarni saqlashlari va yuqori hissiy intellektni namoyish etishlari mumkin. Ushbu ko‘nikmalar ish joyidagi muvaffaqiyat uchun juda muhim bo‘lib, jamoaviy ish, muloqot va muammolarni hal qilishga urg‘u beradi. SEL shuningdek, ruhiy salomatlik natijalarini yaxshilash va chidamlilikni oshirishga yordam beradi.

Ma’lumki, umumta’lim maktablarida 11-sinf bitiruvchilarini oliy ta’lim muassasalariga yo‘nalishtirish va tayyorlash muhim ijtimoiy, pedagogik va psixologik jarayonni tashkil etadi.

Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirish istagida bo‘lgan bitiruvchilarning psixologik muammolariga tashvishlanish, o‘zini past baholash, tayyorgarlik faoliyatiga ruhan kirisholmaslik, motivatsiya, kejakdan qo‘rquv, vahima va depressiv holatlarni kiritish mumkin bo‘lib, bunday ruhiy bosimlar davrida nafaqat maktab psixologi, balki, butun pedagogik jamoa va ota-onalar hamkorlikda yordam ko‘rsatishlari zarur bo‘ladi.

Maktab bitiruvchilari va ularning ota-onalariga psixologik yordam ko‘rsatishning eng keng tarqalgan shakli bu kasbiy konsultatsiya - moyillik, qiziqish, qobiliyat, shuningdek, jamiyat ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kasb tanlashda amaliy yordam berish uchun yoshlarga mo‘ljallangan kasblar to‘g‘risidagi ilmiy tashkil etilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Kasbiy maslahatning eng muhim bo‘g‘ini bu - oliy ta’lim muassasasi va ta’lim yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlashdir.

Bu jarayonda yechilishi kerak bo‘lgan masalalar doirasi juda keng bo‘lib, asosan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

O‘quvchining shaxsiyati, uning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlarini o‘rganish;

mavjud psixologik va amaliy tayyorgarlik darajasini tanlagan yo‘nalish talablari bilan solishtirish va tavsiyalar berish;

yetishmayotgan shaxsiy fazilatlarni qoplash yo‘llarini ko‘rsatish;

bitiruvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishni rag‘batlantirish;

undagi asosiy va ikkilamchi psixologik muammolarni aniqlash va zarur maslahatlarni berish.

E.A. Klimovga ko‘ra, bundan maslahatlashuvlar bir tomondan, shaxsni o‘z tanlovi va yo‘nalishi, boshqa tomondan, bu tanlovni boshqaradigan, shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishining shartlaridan biri bo‘lgan insonning kelgusidagi hayot va faoliyat yo‘lining

maqbul loyihasini yaratishga qaratilgan qo‘shma faoliyatni tashkil etuvchilar (oila, jamiyat) o‘rtasidagi optimal tanlovni shakllantirishga olib keladi.

Umumta’lim maktablarida bitiruvchilarni oliy ta’limga tayyorlash jarayonida ijtimoiy - emosional ta’lim metodlarining samarali qo‘llanilishi:

- bitiruvchilarda oliy ta’lim muassasalari va ta’lim yo‘nalishlari tanlovini to‘g‘ri amalga oshirish;

- bu borada ota-onalar, oliy ta’lim muassasalari va boshqa ijtimoiy institutlarning o‘zaro faol hamkorligini ta’minlash;

- bitiruvchilarda oliy ta’limga tayyorgarlik jarayonida psixologik bosimni kamaytirish va muammolarni ijobiy xal qilish;

- o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va oliy ta’lim olishga bo‘lgan istagini samarali motivatsiyalash imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Bu esa o‘z navbatida maktablarda ta’lim sifati, bitiruvchilar bilan ishlash jarayoni samaradorligi va ijtimoiy hamkorlik natijaviyligini oshirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-232-son. “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”.
2. Наймушина Л.М. СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК НОВОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ НАУКИ И ПРАКТИКИ // Педагогика: история, перспективы. 2019. №3.
3. Климов Е.А. Психолого-педагогические проблемы профессиональной консультации. – М.: Знание, 1983.

KULOLCHILIK SAN’ATI ORQALI IJTIMOIY-EMOTSIONAL KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Gubenova Gozzal Turganbayevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika instituti 3-kurs mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim tushunchasi, uning shaxs kamolotidagi ahamiyati, art-terapiya usullarining psixologik-pedagogik jihatlari hamda kulolchilik san’atining shaxsning emotsional barqarorligi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, kulolchilik san’atining inson psixikasiga ijobiy ta’siri, stressni kamaytirishdagi roli, bolalar va o‘smirlar orasida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatlari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va milliy an’analar uyg‘unligida kulolchilik san’atini ta’lim jarayoniga tatbiq etish istiqbollari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, kulolchilik san’ati, art-terapiya, shaxs rivoji, psixologik barqarorlik, ijodkorlik, xalqaro tajriba.*

Annotation. *This article analyzes the concept of social-emotional education, its importance in personality development, the psychological and pedagogical aspects of art therapy methods, and the role of pottery art in fostering emotional stability and social skills. In particular, it substantiates theoretically and practically the positive impact of pottery art on human psychology, its role in reducing stress, and its potential in shaping social-emotional skills among children and adolescents. Moreover, the article highlights the prospects of integrating pottery art into the educational process within the harmony of international experience and national traditions.*

Keywords: *social-emotional education, pottery art, art therapy, personality development, psychological stability, creativity, international experience.*

Аннотация. *В данной статье анализируется понятие социально-эмоционального образования, его значение в развитии личности, психологические и педагогические аспекты методов арт-терапии, а также роль гончарного искусства в формировании эмоциональной устойчивости и социальных навыков. В частности, теоретически и практически обосновывается положительное влияние гончарного искусства на психику человека, его роль в снижении стресса, а также возможности формирования социально-эмоциональных навыков у детей и подростков. Кроме того, освещаются перспективы внедрения гончарного искусства в образовательный процесс в гармонии с международным опытом и национальными традициями.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное образование, гончарное искусство, арт-терапия, развитие личности, психологическая устойчивость, креативность, международный опыт.*

Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. O‘quvchi yoki talabaning faqatgina bilimli bo‘lishi emas, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishi, boshqalar bilan hamkorlik qila olishi, muloqotda emotsional madaniyatni namoyon etishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu

nuqtayi nazardan, so‘nggi yillarda **ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL — Social and Emotional Learning)** tushunchasi xalqaro maydonda keng o‘rganilmoqda. Ijtimoiy-emotsional ta’limning mohiyati shundaki, u shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, ijtimoiy munosabatlarda samarali ishtirok etish, empatiya va ijobiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Boshqacha qilib aytganda, insonning bilim olishi va intellektual rivoji bilan bir qatorda, uning ruhiy-emotsional salomatligi ham ta’lim jarayonining ajralmas qismi sifatida ko‘riladi.

Ayniqsa, XXI asrda raqamli texnologiyalar keng rivojlanayotgan, insonlar orasidagi “jonli” muloqot kamayib borayotgan bir sharoitda ijtimoiy-emotsional ta’limning ahamiyati yanada ortmoqda. Chunki insoniyatning kelajagi faqat texnologik taraqqiyot bilan emas, balki insoniy qadriyatlarni asrab qolish, jamiyatda bag‘rikenglik, mehr-oqibat, hamjihatlik kabi fazilatlarni rivojlantirish bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, turli ijodiy faoliyat turlari musiqa, rasm chizish, haykaltaroshlik, kulolchilik va boshqa san’at turlari insonning ruhiy olamiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, ularni o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashga yordam beradigan samarali vositalardan biri sifatida qaraladi. Bu jarayon psixologiyada **art-terapiya** deb ataladi.

Art-terapiya — bu san’at vositalari orqali insonning ichki kechinmalarini, stress va tashvishlarini yengillashtirish, ruhiy muvozanatini tiklash, o‘zini anglash va boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o‘rnatish imkonini beruvchi psixologik-pedagogik metoddir. Uning asosiy turlari orasida kulolchilik san’ati alohida o‘rin tutadi. Art-terapiya san’at vositalari orqali insonning ruhiy olamini ochish, hissiy kechinmalarini ifodalash, stress va tashvishlarni yengillashtirishga yo‘naltirilgan psixoterapevtik metoddir. U XX asr o‘rtalarida G‘arb psixologiyasida keng tarqalib, dastlab asosan klinik muolajalarda qo‘llanilgan bo‘lsa, bugungi kunda ta’lim va tarbiya jarayonida ham samarali qo‘llanmoqda. Art-terapiyaning asosiy mohiyati shundaki, u so‘z bilan ifodalash qiyin bo‘lgan emotsiyalarni rang, shakl, harakat yoki buyum orqali ifodalash imkonini beradi. Masalan, bola o‘z qo‘rquvini rasmda qorong‘i ranglar yordamida chizishi yoki o‘z kayfiyatini loydan yasalgan shakllar orqali ifoda qilishi mumkin. Bu jarayon psixologik jihatdan ichki kechinmalarni “tashqariga chiqarish” imkonini yaratadi. Art-terapiyaning turli shakllari mavjud: musiqa terapiyasi, rang terapiyasi, raqs terapiyasi, teatr terapiyasi, kulolchilik va haykaltaroshlik terapiyasi. Har birining o‘ziga xos afzalliklari bor. Masalan, musiqa ruhni yengillashtirsa, kulolchilik qo‘l mehnati orqali nafaqat ruhiy, balki jismoniy faollikni ham ta’minlaydi.[2]

Kulolchilik san’ati qadimdan insoniyat hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. Loy insonning eng qadimiy hamrohi bo‘lib, u turli idish-tovoq, bezak va san’at asarlari tayyorlashda qo‘llangan. Loy bilan ishlash jarayoni insonning hissiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, loy bilan ishlash insonni tinchlantiradi, ichki tashvishlarni kamaytiradi, asabiylikni yengillashtiradi. Sababi loy qo‘lning to‘g‘ridan-to‘g‘ri teginishi orqali inson nerv tizimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, kulolchilik jarayoni bosqichma-bosqich sabr-toqatni talab qiladi: loyni tayyorlash, shakl berish, quritish, pishirish va bezash. Bu jarayon shaxsda intizom, irodaviy sifatlar va mehnatsevarlikni shakllantiradi. Kulolchilik san’ati quyidagi jihatlari bilan art-terapiyaning samarali vositasi hisoblanadi:

1.Hissiy muvozanatni ta’minlash: Loy bilan ishlash tinchlantiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

2.Ijodiy tafakkurni rivojlantirish: Har bir buyum o‘ziga xos shakl va bezak talab qiladi.

3.Sabr va irodani mustahkamlash: Jarayon uzoq vaqt va aniqlikni talab qiladi.

4.Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish: Guruh bo‘lib ishlash jarayonida hamkorlik va muloqot rivojlanadi.[1.]

Kulolchilik qadimdan xalqimizning turmush tarzida, madaniyatida va maishiy hayotida muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Loydan idish yasash, uni bezash, shakllantirish jarayoni insonni tinchlantiradi, diqqatini jamlaydi, sabr-toqatini oshiradi va ijodiy tasavvurini rivojlantiradi. Shu boisdan kulolchilik faqat moddiy buyum ishlab chiqarish emas, balki shaxsning emotsional holatini barqarorlashtiruvchi, ruhiy olamini boyituvchi faoliyat sifatida ham qadr topgan. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, loy bilan ishlash insonni asabiylikdan xalos qiladi, stressni kamaytiradi va hissiy muvozanatni ta’minlaydi. Ayniqsa, bolalar uchun bu faoliyat qo‘l barmoqlari mayda motorikasini rivojlantirish bilan bir qatorda, tasavvur, sabr, irodani mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan, kulolchilik san’ati bolalar va o‘smirlar tarbiyasida quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

1.Estetik tarbiya — go‘zallikni his qilish, milliy naqshlar va bezaklarni qadrlash.

2.Mehnat tarbiyasi — sabr-toqat, aniqlik, mas’uliyatni shakllantirish.

3.Ijodiy tarbiya — yangi shakl va g‘oyalarni ishlab chiqish.

4.Ijtimoiy tarbiya — guruhda ishlash, o‘zaro fikr almashish, boshqalarni qadrlash.[3]

Masalan, o‘quvchilar sinf yoki to‘garak doirasida kulolchilik bilan shug‘ullanganda, ular o‘zaro buyum yasash jarayonida hamkorlik qiladi, g‘oyalarini baham ko‘radi, ba’zida kelishmovchiliklarni bartaraf etishga o‘rganadi. Bu esa SELning asosiy komponentlari muloqot, empatiya va ziddiyatlarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Kulolchilik san’atining art-terapiya sifatidagi eng muhim jihatlaridan biri bu ruhiy salomatlikni mustahkamlashidir. Tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, loy bilan ishlash:

-Depressiv holatlarni kamaytiradi;

-Stress gormonlari (kortizol) miqdorini pasaytiradi;

-O‘ziga ishonchni oshiradi;

-Hissiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, bolalar uchun qo‘l barmoqlarining motorikasini rivojlantirish orqali neyropsixologik faoliyat ham yaxshilanadi. Bu esa ularning yozuv, chizmachilik va boshqa nozik harakatlarni bajarish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (inglizcha atamasi — *Social and Emotional Learning, SEL*) bu shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish, samarali muloqot qilish va ijtimoiy munosabatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy jarayon hisoblanadi. SEL tushunchasi ilk bor 1990-yillarda AQSh ta’lim tizimida shakllanib, keyinchalik xalqaro miqyosda keng tarqaldi. Bugungi kunda CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) kabi tashkilotlar bu borada nazariy va amaliy izlanishlarni olib bormoqda. Ularning ta’kidlashicha, ijtimoiy-emotsional ta’lim nafaqat o‘quvchilarning maktabdagi muvaffaqiyati, balki ularning keyingi hayotidagi shaxsiy va kasbiy kamoloti uchun ham hal qiluvchi omildir. SELning asosiy tarkibiy qismlari odatda quyidagi beshta kompetensiya sifatida ko‘rsatiladi:

O‘zini anglash — shaxs o‘z his-tuyg‘ulari, qadriyatlari, kuchli va zaif tomonlarini anglay olishi.

O‘zini boshqarish — hissiyotlarni nazorat qilish, stressni yengish, intizom va mas’uliyatni namoyish etish.

Ijtimoiy ong — boshqalarni tushunish, empatiya qilish, turli madaniy muhitga moslasha olish.

Munosabatlarni boshqarish — ijobiy muloqot qilish, hamkorlik qilish, ziddiyatlarni hal etish.

Mas’uliyatli qaror qabul qilish — ijtimoiy va shaxsiy qadriyatlarga asoslangan oqilona qarorlar chiqarish.[4]

Bu kompetensiyalar o‘quvchining nafaqat sinfdagi faoliyatida, balki oilada, jamiyatda va kelgusida mehnat faoliyatida ham zaruriy ko‘nikmalar sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim ko‘pincha nafaqat muloqot mashqlari yoki psixologik treninglar, balki san’at va ijodiy faoliyat orqali ham amalga oshiriladi. Chunki san’at insonning ichki dunyosini ochib berish, his-tuyg‘ularini ifodalash, stressdan xalos bo‘lish, o‘zini erkin his qilish imkonini beradi. Bu jarayon art-terapiya konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. Masalan, bolalar ranglar orqali o‘z kayfiyatini aks ettirishi, musiqaga mos ravishda his-tuyg‘ularini ifodalashi yoki loy bilan ishlash orqali ichki kechinmalarini “tashqariga chiqarishi” mumkin. Bunday faoliyat ularning nafaqat ijodiy qobiliyatini, balki emotsional muvozanatini, ijtimoiy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.[5]

Xulosa qilib aytganda, mazkur maqolada ijtimoiy-emotsional ta’limning nazariy asoslari hamda kulolchilik san’ati orqali ushbu ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik san’ati nafaqat qadimiy badiiy meros, balki ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-emotsional rivojlanishni ta’minlaydigan samarali vosita hamdir. Loy bilan ishlash jarayoni o‘quvchilarda hissiy barqarorlik, sabr-toqat, diqqatni jamlash va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shu bilan birga, kulolchilik mashg‘ulotlari jamoaviy hamkorlik, o‘zaro yordam, empatiya va mas’uliyat kabi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Xalqaro tajribalar ham kulolchilik san’atining art-terapiya sifatidagi samaradorligini tasdiqlaydi. Milliy an’analar bilan uyg‘unlashtirilganda esa bu san’at yosh avlodni nafaqat ijodkor va emotsional jihatdan yetuk, balki milliy qadriyatlarni qadrlaydigan, barkamol inson sifatida shakllantirish imkonini beradi. Shunday qilib, kulolchilik san’ati asosida ijtimoiy-emotsional ta’limni rivojlantirish ta’lim tizimida dolzarb va istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uni maktab va maktabdan tashqari muassasalarda keng tatbiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘raev, M. (2019). *O‘zbekiston madaniy merosida kulolchilik san’ati*. Toshkent: Ma’naviyat.
2. CASEL (2020). *Core Competencies of Social Emotional Learning*. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.
3. Rasulov, I. (2020). *Amaliy san’at va yoshlar estetik tarbiyasi*. Toshkent: O‘zbekiston san’atshunoslik instituti nashriyoti.
4. Qosimov, B. (2015). *Ma’naviyat asoslari*. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Malchiodi, C. (2012). *Handbook of Art Therapy*. New York: Guilford Press.
6. Axmedov, A. (2017). *Tasviriy san’at pedagogikasi va metodikasi*. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti.
7. Qodirov, N. (2014). *O‘zbek kulolchilik san’ati tarixi va an’analari*. Toshkent: Fan.
8. Миронова, Е. А. (2016). Арт-терапия в образовательной среде: возможности и перспективы. *Психологическая наука и образование*, 21(4), 56–63.
9. Ткачева, Н. Ю. (2015). Глинотерапия как метод арт-терапевтической работы с детьми. *Вестник практической психологии образования*, 3, 22–28.
10. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2021). *Maktab ta’limida estetik tarbiya konsepsiyasi*. Toshkent.

ORTA MƏKTƏBDƏ SOSİAL-PSİXOLOJİ VƏZİYYƏTİN TƏLİM VƏ TƏRBİYƏDƏ ƏHƏMİYYƏTİ. SOSİAL-PSİXOLOJİ METODLAR

Elnarə Güləliyeva
Salyan rayonu Cəlal Məmmədov adına Qaraçala qəsəbə tam orta ümumtəhsil məktəbi
Azərbaycan dili və ədəbiyyatı müəllimi, Şirvan, Azərbaycan

XÜLASƏ. *Bu elmi məqalə orta məktəb mühitində sosial-psixoloji faktorların təlim və tərbiyə prosesinə təsirini hərtərəfli şəkildə araşdırır. Məqalənin əsas məqsədi məktəbdə formalaşan sosial-emosional atmosferin şagirdlərin şəxsiyyət inkişafına, akademik nəticələrinə, davranış modellərinə və psixoloji dayanıqlılığına təsirini təhlil etməkdir.*

Tədqiqat çərçivəsində, sosial-psixoloji mühitin komponentləri – müəllim-şagird münasibətləri, sinifdaxili sosial iqlim, şagirdlərarası qarşılıqlı təsirlər, psixoloji təhlükəsizlik və emosional dəstəyin əhəmiyyəti nəzəri və praktik müstəvidə təhlil edilmişdir. Eyni zamanda, sosial-psixoloji metodların (rol oyunları, treninqlər, sosiometriya, kooperativ təlim və s.) məktəb mühitində tətbiqi və bu metodların şagirdlərin davranış və münasibətlərinə olan təsiri izah olunmuşdur.

Əldə olunan nəticələrin daha da aktuallaşdırılması və real məktəb təcrübəsinə inteqrasiyası məqsədilə, müəllifin rəhbərlik etdiyi və Təhsildə İnkişaf və İnnovasiyalar üzrə VIII Qrant Müsabiqəsinin qalibi olmuş "Məni Özün Bil!" adlı bullinqə qarşı mübarizə layihəsinin tətbiqi təhlil olunmuşdur. Layihənin məqsədi – fiziki və psixoloji zorakılığın profilaktikası, şagirdlərdə empatiya və sosial məsuliyyətin inkişafı olmuşdur.

Açar sözlər :

Sosial-psixoloji mühit, orta məktəb, empatiya, bulliŋ, zorakılıqla mübarizə, psixoloji təhlükəsizlik, şagird-müəllim münasibətləri, sosial-emosional öyrənmə, "Məni Özün Bil!" layihəsi.

Abstract. *This scientific article examines the impact of socio-psychological factors in the secondary school and the impact of the process of education. The main purpose of the article is to analyze the impact of the social-emotional atmosphere in the school, the impact of students' identity development, academic results, behavioral models and psychological sustainability.*

As part of the study, the components of the socio-psychological environment – teacher-student relations, intra-class social climate, intercultural interaction, psychological security and emotional support were analyzed in the theoretical and practical plane. At the same time, the application of socio-psychological methods (role-playing games, trainings, sociometrics, coconitions, coconitions, and so on) and these methods have an effect on students' behavior and attitudes.

To further actualize the results and integrated into real school experience, the author's leadership and the VIII grant competition in education in education and the VIII grant competition in innovations "Know Me!" The application of the fight against the Bulling Project was analyzed. The purpose of the project – the prevention of physical and psychological violence, was the development of empathy and social responsibility in students.

Keywords: *Social-psychological environment, high school, empathy, bulling, violence, psychological security, student-teacher relationships, social-emotional learning, social-emotional learning, “know me yourself!” project.*

GİRİŞ

İnsan fəaliyətinin elə bir sahəsi yoxdur ki, orada psixoloji biliklərin zəruriliyi hiss edilməsin. Mübaliğəsiz demək olar ki, hazırkı dövrdə bütün dünyada hər cür fəaliyətin və insan münasibətlərinin səmərəliliyini psixoloji biliklərin tətbiqində görürlər. Ona görə də psixologiya insan haqqında əsas elmlərdən biri kimi insana xidməti ön plana çəkmişdir. İndiki dövrdə hər bir müvəffəqiyyəti və çətinliyi doğuran psixoloji mexanizmi açmağa cəhd göstərilir, bu sahədəki qanunauyğunluqlardan istifadəyə can atılır. Bəzən böyük bir müəssisədə ilk baxışda hər şey öz yerində, öz qaydasında olduğu halda, nəticə sevindirici olmur: əmək məhsuldarlığı aşağı düşür, qarşılıqlı münasibətlər pozulur, işçi axını başlanır. Yaxud, hər cəhətdən yüksək imkanlara malik hesab edilən idman kollektivi birdən-birə sanki dəyişilir, öz pərəstişkarlarını narahat etməyə başlayır və s. Bu kimi hallarda psixoloji işin aparılması, başqa sözlə psixoloqun işə qarışması lazım gəlir və səmərəli nəticə verir. Deməli, həmin sahələrdə psixoloji xidmət həyata keçirilir. Məhz bu cür münasibət tərzindən “psixoloji xidmət” anlayışı meydana gəlmiş və geniş yer almışdır. Məktəbdə psixoloji xidmət də eyni zərurət üzündən meydana gəlmişdir. Müasir məktəbin qarşısında duran vəzifələri yerinə yetirə bilməsi üçün psixoloji köməyə ehtiyacı böyükdür. Biz tez-tez şagirdlərin təlimə münasibətlərinin zəifləməsi, tərbiyə səviyyəsinin aşağı düşməsi, müəllim-şagird münasibətlərində, eləcə də müəllim-müəllim, müəllim-valideyn münasibətlərində çətinliklərin olması barədə mülahizələrin şahidi oluruq. Şagirdlərin intellektual səviyyələrinin müxtəlifliyi, risk qrupuna aid olan uşaqların xüsusiyyətləri müəllimdən onları hərtərəfli öyrənməyi vədüzgün yanaşmağı tələb edir. Müasir psixologiyada belə bir cəhət əsas götürülür ki, hər bir

sağlam uşaq, yeniyetmə və gənc müvafiq sosial şəraitdə geniş inkişaf imkanına malikdir. Bununla birlikdə bütün uşaqlar eyni imkana malik deyildir. Hər bir şagirdin imkanını aşkara çıxarmaq, onun inkişafına təkan vermək məktəbdə təlim-tərbiyəni optimallaşdırmağın əsas tələblərindəndir.

Psixologiyanın nailiyyətlərinin məktəb təcrübəsinə tətbiqinin ən perspektiv yollarından biri təhsil sisteminin bütün sahələrində psixoloji xidmətin təşkilindən ibarətdir. Bu cür xidməti həyata keçirmədən gənc nəslin təlim və tərbiyəsində istədiyimiz müvəffəqiyyətə nail ola bilmərik.

Məktəbdə psixoloji xidmətin başlıca məqsədi uşaq, yeniyetmə və gənclərin psixoloji sağlamlığını qorumaqla onların təhsil müvəffəqiyyətinin artırılmasıdır.

Müasir dövrün təhsil fəlsəfəsi yalnız bilik ötürülməsinə deyil, eyni zamanda uşaqların şəxsiyyət kimi formalaşmasına, onların sosial bacarıqlarının inkişafına, psixoloji dayanıqlılığının təmin olunmasına yönəlmişdir. Bu baxımdan məktəbdə formalaşan sosial-psixoloji mühit, təkcə təlim prosesinin deyil, tərbiyə və şəxsiyyət inkişafının da əsas təməlini təşkil edir.

Orta məktəb şagirdi üçün məktəb yalnız təhsil məkanı deyil, eyni zamanda sosiallaşma, ünsiyyət və özünü ifadə mühiti rolunu oynayır. Əgər bu mühitdə bullinq, marginalizasiya, sosial izolyasiya kimi neqativ hallar mövcuddursa, bu, şagirdin psixikasında dərin iz buraxır, akademik performansına və sosial davranışlarına mənfi təsir göstərir.

Belə halların qarşısını almaq üçün məktəblərdə məqsədyönlü şəkildə sosial-psixoloji metodlardan istifadə edilməli, sağlam ünsiyyət, empatiya və hörmətə əsaslanan mühit yaradılmalıdır.

NƏZƏRİ ƏSASLAR

Sosial-psixoloji mühitin komponentləri

1. Müəllim-şagird münasibətləri – qarşılıqlı hörmət, dinləmə və motivasiyaedici yanaşma.
2. Şagird-şagird münasibətləri – bullinqdən uzaq, əməkdaşlığa əsaslanan münasibətlər.
3. Sinif iqlimi – emosional təhlükəsizlik, dostluq atmosferi.
4. Valideyn-məktəb əlaqəsi – ailə ilə əməkdaşlıq əsasında psixoloji dəstək.
5. İnzibati-mədəni sistem – məktəbin daxili qayda və dəyərləri.

Sosial-psixoloji mühitin təlim və tərbiyəyə təsiri

Pozitiv mühitdə:

Özünəinam artır, akademik nəticələr yaxşılaşır, ictimai fəallıq yüksəlir.

Neqativ mühitdə:

Qapanıqlıq, aqressiya, davranış pozuntuları, dərsdən yayınma və psixoloji travmalar.

Ən çox istifadə olunan sosial-psixoloji metodlar

Metod -Təsviri və Tətbiqi

Rol oyunları-Empatiya, sosial situasiyalar və cavab bacarıqları

Psixodiaqnostik testlər-Psixoloji vəziyyətin ölçülməsi və fərdi yanaşma

Sosiometriya-Sosial münasibətlərin strukturunu müəyyənləşdirmək

Treninqlər-Emosional intellekt, özünüifadə və liderlik bacarıqları

Kooperativ təlim-Əməkdaşlıq, sosial məsuliyyət və qrupdaxili qarşılıqlı dəstək

Sokratik dialoqlar-Fikir ifadəsi, tənqidi düşüncə, açıq ünsiyyət

METODOLOGİYA

Bu məqalə aşağıdakı elmi-tədqiqat metodlarına əsaslanır:

Nəzəri təhlil – mövzuya dair ədəbiyyatın öyrənilməsi (psixologiya, pedaqogika, sosial elmlər).

Empirik müşahidə – müəllifin rəhbərlik etdiyi layihənin bütün mərhələlərinin araşdırılması.

Sosioloji yanaşma – anketlər, fokus qruplar, müəllim və şagird rəyləri.

Təlim əvvəl-sonra qiymətləndirmə metodu – nəticələrin müqayisəli təhlili.

“MƏNİ ÖZÜN BİL!” – LAYİHƏ TƏSİRİNDƏ SOSİAL-PSİXOLOJİ METODLARIN TƏTBİQİ

Layihənin adı: “Məni Özün Bil!”

Qalib olduğu müsabiqə: Təhsildə İnkişaf və İnnovasiyalar üzrə VIII Qrant Müsabiqəsi

Tətbiq olunduğu dövr 2024–2025 tədris ili, hədəf qrupu 6, 7 və 8-ci sinif şagirdləri, planlaşdırılan iştirakçı sayı 30 nəfər, faktiki iştirak edən şagird sayı 60 nəfərdən çox olmuşdur. Təlimin məqsədi Bullinqin qarşısını almaq, empatiya və sosial dəstək bacarıqlarını gücləndirməkdir. Təlimçi, Ekspert, Psixoloq və UBTR heyəti: 3 məktəb psixoloqu, 3 Uşaq Birliyi rəhbəri layihə komandası kimi təşkil olunmuşdur.

TƏLİMLƏR VƏ MÖVZULAR

1. Bullinq nəzəriyyəsi

Bullinqin mənşəyi, növləri (fiziki, psixoloji, rəqəmsal)

Məktəb mühitində bullinqin səbəbləri və formaları

2. Empatiya və hörmət

Empatiya nədir?

Qarşıdakının hisslərini anlamaq və qəbul etmək

Hörmətin sosial münasibətlərdə rolu

3. Müdafiə və cavab bacarıqları

Bullinqə məruz qalanda necə reaksiya vermək olar?

Zorakılıqdan qorunmaq üçün üsullar

4. Dəstək və sosial məsuliyyət

Zorakılığa məruz qalanlara necə kömək edilməli?

Qeyri-baxış, laqeydliklə mübarizə

Təlimlər 2 qrupa bölünmüşdü (hər birində 30 şagird, psixoloq və UBTR). Hər qrupa 4 gün ərzində, gündə 2 saat olmaqla 8 saatlıq təlim proqramı keçirilib. Təlimdə rollu oyun, buzqıran strategiyası, diskussiya və dram üsullarından istifadə olunmuşdur.

QİYMƏTLƏNDİRMƏ VƏ NƏTİCƏLƏR

Qiymətləndirmə mərhələsi, iştirakçıların göstəricisi:

İlkin qiymətləndirmə 50%

Son qiymətləndirmə 90–100%

Müşahidə olunan nəticələr:

Şagirdlərin bullinq barədə bilik səviyyəsi ciddi artıb.

Empatiya və ünsiyyət bacarıqlarında nəzərəçarpacaq irəliləyiş müşahidə olunub.

Təlimlərə passiv yanaşan şagirdlərin belə son sessiyalarda fəallaşdığı qeyd edilib.

Psixoloqlar və müəllimlər siniflərdə daha müsbət davranış nümunələrinin artdığını bildiriblər.

NƏTİCƏ VƏ TÖVSİYƏLƏR

Nəticələr:

Məktəbdə sosial-psixoloji mühitin sağlamlaşdırılması təlimin keyfiyyətinə birbaşa təsir göstərir.

Layihəyə əvvəlcə 30 şagird cəlb olunması nəzərdə tutulsa da, faktiki olaraq 60-dan çox 6–8-ci sinif şagirdi iştirak etmişdir. Təlimlər öncəsi aparılan ilkin qiymətləndirmədə şagirdlərin bilik və bacarıq göstəriciləri 50% civarında olmuş, lakin təlimlərdən sonra aparılan son qiymətləndirmədə bu göstəricilər 90–100% səviyyəsinə yüksəlmişdir. Bu nəticələr sosial-psixoloji metodların şagirdlərin təlimə münasibətində, sosial adaptasiyasında və psixoloji rifahında mühüm rol oynadığını sübut edir.

Tədqiqatın nəticələri göstərir ki, orta məktəbdə sağlam sosial-psixoloji mühitin yaradılması və davamlı şəkildə dəstəklənməsi təhsilin keyfiyyətinə, şagirdlərin sosial inkişafına və məktəbdaxili münasibətlərə müsbət təsir göstərir. Bu məqsədlə məktəblərdə psixoloji xidmətin gücləndirilməsi, müəllim və valideynlərin maarifləndirilməsi, sosial-emosional öyrənməyə əsaslanan proqramların tətbiqi tövsiyə edilir.

Layihə çərçivəsində istifadə olunan metodlar – empatiya əsaslı yanaşma, təcrübəyə əsaslanan təlimlər və qiymətləndirmə – şagirdlərdə həm fərdi, həm də sosial inkişafı gücləndirmişdir.

Tövsiyələr:

1. Belə layihələr ümumrespublika səviyyəsində sistemləşdirilməlidir.
2. Hər məktəbdə müntəzəm olaraq sosial-psixoloji təlimlər keçirilməlidir.
3. Müəllimlər və valideynlər üçün də psixoloji maarifləndirmə proqramları hazırlanmalıdır.
4. Təhsil proqramlarına “Sosial emosional öyrənmə” fənni əlavə olunmalıdır.
5. Məktəblərdə psixoloji diaqnostika sistemi mütəmadi tətbiq edilməlidir.

İSTİFADƏ OLUNMUŞ ƏDƏBİYYAT

1. Əliyeva, R. (2020). Təlim və tərbiyədə sosial-psixoloji amillər. Bakı: Təhsil.
2. Musayeva, G. (2021). Məktəb psixologiyası. Bakı: Nurlar.

3. Vygotsky, L. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
4. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam.
5. Rogers, C. (1969). Freedom to Learn. Merrill.
6. Azərbaycan Respublikası Təhsil İnstitutu (2022). Bullinqə qarşı maarifləndirmə və psixoloji profilaktika.
7. Layihə materialları: “Məni Özün Bil!” – Təhsildə İnkişaf və İnnovasiyalar üzrə VIII Qrant layihəsinin təqdimatı və hesabatları (2024–2025).
8. Bayramov Ə.S., Əlizadə Ə.Ə. Psixologiya. Bakı, 2009.
9. İbrahimova D., Nuriyev S. Təhsildə sosial-psixoloji xidmət. Bakı, 2016
10. Seyidov S.İ., Həmzəyev M.Ə. Psixologiya. Bakı, 2007.

STEAM YONDASHUVI ASOSIDA TABIIY FANLAR LABORATORIYA ISHLARINI RAQAMLASHTIRISHDA ARDUINO MIKROKONTROLLERIDAN FOYDALANISH

Ibragimova Nigora Qobilovna
Toshkent shahridagi Xalqaro Webster Universiteti bitiruvchi magistr talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Arduino mikrokontrolleri yordamida tabiiy fanlardan laboratoriya mashg‘ulotlarini interaktiv va zamonaviy usulda olib borish imkoniyati berilgan. Shuningdek, STEAM yondashuvi asosida o‘quvchilarda tadqiqotchilik hamda ijodiy fikrlash va texnologik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi berilgan.*

Kalit so‘zlar*: Arduino mikrokontrolleri, STEAM, tabiiy fanlar, raqamlashtirish, laboratoriya ishlari, tadqiqotchilik va ijodkorlik ko‘nikmalari.*

Ma’lumki, hozirgi raqamli texnologiyalar rivojlangan dunyoda tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo integratsiyaning va noan’anaviy texnologiyalarni fanlarga joriy qilishning roli o‘ta muhimdir. Xususan, STEAM ta’limi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) bugungi kunda hattoki siyosat darajasiga chiqdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki bu Yevropada allaqachon ommalashgan ta’lim turi, o‘quvchi va talabalardagi tadqiqotchilik, tanqidiy va tahliliy fikrlashni rivojlantirishda va muammoli vaziyatlarga ijodkorona yechim topishda asosiy omildir.

Hech kimga sir emaski, Science (tabiiy fanlar: fizika, biologiya, kimyo) fanlarida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda laboratoriya ishlari yordamida tekshirish fanning asosiy maqsadi hisoblanadi. Ammo shuni ham e’tiborga olish kerakki, juda ko‘plab ta’lim muassasalarida qimmat va murakkab laboratoriya jihozlari bilan muammolar talaygina. Ushbu masalaning yechimi sifatida boshqa laboratoriya jihozlari bilan solishtirganda arzon va ochiq manbali texnologiya turi bu Arduino mikrokontrollerini bo‘lib, birgina shu texnologiya vositasi tabiiy fanlardagi laboratoriya ishlarini raqamlashtirish imkoniyatini bera oladi.

Arduino mikrokontrolleri yordamida tabiiy fanlar (fizika, kimyo, biologiya) laboratoriya ishlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va an’anaviy laboratoriya mashg‘ulotlaridan ko‘ra aniqroq va samaraliroq natija olishning ilmiy-metodik asoslarini kvalimetrik tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, J. Martínez (2021) tadqiqotida Arduino asosida ishlab chiqilgan fizika laboratoriya mashg‘uloti orqali, o‘quvchilar tajriba asosida bilim olish jarayoni sezilarli darajada yaxshilashi va hodisalarni chuqurroq his qilishi mumkinligini qayd etgan. L. Smith (2020) esa STEAM yondashuvini juda ajoyib uslubda yoritib misollar bilan tushuntirgan, masalan raqamlashgan texnologiyalarni ta’limga joriy qilish, o‘quvchilarning nafaqat ijodkorligini va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, balki texnologiyalar ularni mustaqil izlanuvchi o‘quvchi va kelajakdagi raqobatbardosh kadr sifatida tayyorlay olishi keltirib o‘tilgan. Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar, xususan Arduino mikrokontrollerlari, tabiiy fanlar ta’limini zamonaviylashtirishda muhim va ajralmas vosita hisoblanadi.

STEAM yondashuvi tabiiy fanlarni faqat nazariy va an’anaviy tajribalar emas, balki real olamdagi jarayonlar bilan tanishtirib, texnologik muhandislik va tafakkur ko‘nikmalarini oshirishda xizmat qiladi

- **Science (Fan):** Tabiiy jarayonlarni tushuntirish va nazariy to‘liq izohlab berish.

- **Technology (Texnologiya):** Zamonaviy gadjetlar va dasturiy qurilmalardan foydalanish.
- **Engineering (Muhandislik):** Tajribalarni konstruktorlik normalariga asoslanib yaratish.
- **Art (San’at):** Har bir tajriba va jarayonga san’at darajasida yondashib, visuallik qo‘shish.
- **Mathematics (Matematika):** Tajriba natijalari matematik tahlil qilish, solishtirish va jadvallash.

An’anaviy laboratoriya ishlarida o‘quvchilar umumiy tajribadan olgan xulosalarini matematik amallar orqali jadvalga kiritadilar va nazariy bilimlardagi kattaliklar bilan taqqoslaydilar, zamonaviy laboratoriyada esa, ular voqeylikni real his qiladilar.

Shu o‘rinda arduino mikrokontrollerining ta’limdagi o‘rni beiyos bo‘lib, arduino – ochiq kodli (open-source) platforma bo‘lib, sensorlar, aktuatorlar va boshqa elektron komponentlarni boshqarish uchun ayni bir dasturga solinadi.

Uning quyidagi bir qancha avfzalliklari bor: birinchidan oddiy dasturlash muhiti ya’ni, hozirgi Z va alfa avlod uchun oson o‘rganiladigan dasturiy kod yozish vositasi hisoblanadi. Arzon va qulayligi tufayli ta’lim muassasalarining iqtisodiy holatiga to‘la mos keladi.

Arduino asosida qurilgan laboratoriyalar quyidagi bosqichlarda tashkil etish mumkin:

1.Tizimni loyihalash: O‘qituvchi laboratoriya ishining maqsadi va vazifalarini tushungach, kerakli sensor va modullarni tanlaydi.

2.Dasturlash: Oddiy kod yozish orqali qurilma ishlash tamoyillari ishlab chiqiladi. (windows uchun Arduino IDE dasturiy ta’minot paketini yuklaydi).

3.Ma’lumotlarni yig‘ish: Tajriba davomida o‘lchovlarni real vaqt rejimida qayd qiladi.

4.Vizualizatsiya: Natijalar grafik, jadval yoki simulyatsiya ko‘rinishida aks etadi.

5.Tahlil va muhokama: O‘quvchilar o‘z kuzatuvlarini ilmiy tilda izohlab berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

6. Pedagogik samaradorlik.

Arduino asosidagi laboratoriyalar quyidagi pedagogik ustunliklarga ega bo‘lib o‘quvchilarda ijodkorlik va innovatsion tafakkur rivojlanadi, hamda bizning yurtimizdagi o‘quvhilar xalqaro standartlarga javob bera boshlaydi. Fanlararo integratsiya (fizika + informatika + texnologiya) ta’minlanadi. Muammoli vaziyatlar asosida ta’lim tashkil etilib, o‘quvchi mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganadi. Raqamli savodxonlik va IT ko‘nikmalari shakllanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, STEAM yondashuvi asosida tabiiy fanlar laboratoriya ishlarini raqamlashtirish jarayonida Arduino mikrokontrolleridan foydalanish zamonaviy ta’limning innovatsion yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu yondashuv nafaqat o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini, balki muhandislik ko‘nikmalarini, ijodkorligini va raqamli savodxonligini rivojlantiradi. Kelajakda bu kabi tizimlarni keng joriy etish tabiiy fanlar ta’limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan biz turli xil xalqaro maqolalar va dunyo tajribasiga yuzlanadigan bo‘lsak, Arduinodan ta’limda samarali foydalanish mumkinligi haqidagi murakkab va necha yillik izlanishlari samarasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Martínez, J. (2021). Arduino-based laboratories for STEM education. Journal of Science Education, 45(3), 210–218.
2. Smith, L. (2020). Digital tools in physics teaching: a STEM perspective. International Journal of Educational Research, 102, 101–115.
3. Xolmatova, N. (2022). STEM ta’limi asosida tabiiy fanlarni o‘qitishning metodik yondashuvlari. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 6(2), 55–6

4. Banzi, M., & Shiloh, M. (2015). *Getting Started with Arduino*. Maker Media.
5. OECD (2022). *Trends Shaping Education 2022*. OECD Publishing.
6. Xalq ta’limi vazirligi (2023). *STEAM ta’limini rivojlantirish konsepsiyasi*. Toshkent.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI EMOTSIONAL RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Ibraximov Sanjar Urunbayevich
Alfraganus university “Sport faoliyati” kafedrasi professor v.b, pedagogika fanlari doktori(DSc)
ORCID 0000-0002-9347-5595

Annotatsiya. *Mazkur maqola kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarining hissiy rivojlanish xususiyatlarini, hissiy rivojlanish xususiyatlarini, bu jarayonni rag‘batlantirishda harakatli o‘yinlarning ahamiyatini hamda o‘yin faoliyati bilan bog‘liq ruhiy jihatlarni o‘rganadi. Shuningdek, ishda bolalarning hissiy holatini yaxshilashga qaratilgan harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan, ularning hissiy sohani rivojlantirishdagi samaradorligi baholanadi.*

Kalit so‘zlar. *harakatli o‘yinlar, ijtimoiy moslashuv, hissiy rivojlanish, emotsional rivojlanish, his-tuyg‘u, o‘yin faoliyati, pedagoglar, psixologlar.*

Kichik maktab yoshidagi bolalarning hissiy rivojlanishi pedagog va psixologlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hayotning bu davrida hissiy sohaning faol shakllanishi sodir bo‘ladi, bu bolaning umumiy shaxsiy yetukligiga, uning ijtimoiy ko‘nikmalariga va atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Emotsiyalar ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi, chunki ular nafaqat motivatsiyaga, balki ma’lumotni idrok etishga ham ta’sir ko‘rsatadi, bu esa ta’lim jarayonida hissiy rivojlanishni kata ahamiyat qaratadi.

Harakatli o‘yinlar faol faoliyat shakli sifatida bolalarning hissiy rivojlanishini rag‘batlantirishning o‘ziga xos vositasidir. Ular nafaqat jismoniy rivojlanishga yordam beradi, balki ijobiy his-tuyg‘ularni shakllantirish, ularni boshqarish, shuningdek, hamkorlik, hamdardlik va jamoada ishlash kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashni, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishni, shuningdek, hissiy qiyinchiliklarni yengishni o‘rganadilar, bu esa ularning hissiy o‘sishining ajralmas qismidir.[1]

Biz tadqiqot davomoda quyidagi kichik maktab yoshidagi bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlarini qisqacha tahlil qilgan holda ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Bizga ma’lumki 6 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan kichik maktab yoshidagi davrida bolalar hissiy shakllanishning ko‘plab bosqichlarini boshdan kechiradilar. Bu davrda ular atrof-muhit bilan ongli ravishdagi munosabatda bo‘la boshlaydilar, bu esa ularning tafakkuri, diqqati va xotira kabi kognitiv jarayonlarning rivojlanishi bilan bog‘liq jarayon ifodalanadi. His-tuyg‘ularning yanada xilma-xil va murakkab tarzda shakllanib boradi. Shuningdek quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, g‘azab, hayrat va boshqalar. Bolalar nafaqat bu his-tuyg‘ularni boshdan kechirishni, balki ularni anglashni va tushunishni ham o‘rganadilar, bu esa hissiy yetuklik yo‘lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Bu yoshdagi emotsional rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, bolalar boshqalarga faol hamdard bo‘la boshlaydilar. Ular do‘stlarining muvaffaqiyatlaridan quvonib, muvaffaqiyatsizliklaridan xafa bo‘lishlari mumkin. Bu bolalarga boshqa insonlarning his-

tuyg‘ularini tushunish va his qilish imkonini beruvchi empatiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq. Empatiya ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘z navbatida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.[2]

Kichik maktab yoshida bolalar o‘z xatti-harakatlari atrofdagilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir qilishi mumkinligini anglay boshlaydilar, bu esa ularda o‘z xatti-harakatlari uchun ma’suliyatni shakllantiradi.

Shunday qilib, umuman olganda, kichik maktab yoshidagi bolalarning hissiy rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, bu davrda ular o‘zlarining va atrofdagilarning his-tuyg‘ularini anglay boshlaydilar. Bolalar ijtimoiy xabarlarga sezgir bo‘lib boradilar, boshqa odamlarning hissiy holatlarini talqin qilishni o‘rganadilar, bu ularning ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Biroq, hissiy anglashdagi yutuqlarga qaramay, ko‘pchilik bolalar hali ham o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa nizolar, stress va boshqa salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bolalarning ijobiy hissiy rivojlanishiga yordam beradigan va paydo bo‘lgan qiyinchiliklarni yengishga yordam beradigan sharoitlarni yaratish juda muhimdir.

Aynan harakatli o‘yinlar ushbu maqsadlarga erishishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ular nafaqat bolalarning e’tiborini tortadi, balki ularning bir-birlari bilan faol muloqot qilishlariga imkon beradi, bu esa ijobiy his-tuyg‘ularni shakllantirish imkoniyatini yaratadi. O‘yin jarayonida bolalar quvonch, zavq-shavq tuyg‘ularini his qiladilar, shuningdek, hissiy rivojlanishning muhim jihati bo‘lgan ko‘ngilsizliklar va muvaffaqiyatsizliklarni yengishni o‘rganadilar. O‘yinlar ta’lim jarayonida ham, bo‘sh vaqtlarda ham tashkil etilishi mumkin, shu sababli ular barcha bolalar uchun qulay hisoblanadi.[3]

Biz shu jumladan quyidagi kichik maktab yoshidagi bolalarning hissiy rivojlanishiga harakatli o‘yinlarning ta’sirini ta’kidlab o‘tamiz.

1. Hissiyotlarni boshqarish. Harakatli o‘yinlar jarayonida bolalar turli xil vaziyatlarga duch kelishadi, bu esa ulardan umidsizlik, stress va muvaffaqiyatsizliklarni yengishni talab qiladi. Qoidali o‘yinlar masalan bularga (“Aniq nishonga urush”, “Quyonlar, qorovul va ovchi”, “Bekinmachoq”) kabi o‘yinlar ham bolalarni o‘z impulslarini nazorat qilishga, sabr-toqat bilan o‘z navbatini kutishga, mag‘lubiyat va g‘alabalarni qadr-qimmat bilan qabul qilishga, ko‘rsatmalarga amal qilishga o‘rgatadi. Bu o‘z-o‘zini tartibga solish va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Hatto o‘yindagi mag‘lubiyat ham uni munosib qabul qilishga, o‘z harakatlarini tahlil qilishga va yaxshilanishga intilishga o‘rgatadi.

2. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Harakatli o‘yinlar ko‘pincha jamoaviy faoliyatni o‘z ichiga oladi, bu esa bolalarga jamoada ishlashni, bo‘lishishni, yon berishni va nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni o‘rganishga yordam beradi. Jamoaviy o‘yinlar (“Arqon tortish”, “Estafetalar”, “Qal’a himoyasi”) kabi o‘yinlari bolalarni jamoada ishlashga, boshqalarning qiziqishlarini hisobga olishga, kelishuvga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga o‘rgatadi. Bu hamkorlik, hamdardlik va guruhga mansublik tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi. Individual o‘yinlar, o‘z navbatida, mustaqillik va o‘ziga ishonchni rivojlantiradi.

3. O‘z-o‘zini hurmat qilishni oshirish. O‘yindagi topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajarish bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Faqat natijaga e’tibor qaratmasdan, bolaning sa’y-harakatlarini rag‘batlantirish muhim.

4. Stress va zo‘riqishni yo‘qotish. Harakatli o‘yinlar endorfinlarni chiqarishga yordam beradi, stress va zo‘riqish darajasini pasaytiradi, bu ayniqsa maktab yuklamasi sharoitida muhimdir. Quvnoq o‘yin muhiti bolaning dam olishiga yordam beradi.

5. His-tuyg‘ularning ifodalanishini rivojlantirish. Rolli o‘yinlar masalan, (“Ovchi va quyonchalar”, “Kosmonavtlar”, “Bayroqchani olib kel”) bolalarga turli his-tuyg‘ularni boshdan kechirish imkonini beradi, empatiyani va boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. Harakatlar va tovushlarga taqlid qilishni o‘z ichiga olgan o‘yinlar noverbal muloqot va hissiy ta’sirchanlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Harakatli o‘yinlarning psixologik jihatlari ham hissiy rivojlanish uchun katta ahamiyatga ega. Harakatli o‘yinlarni tanlashda bolalarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak. O‘yin paytida xavfsizlik va qulaylikni ta’minlash muhim. O‘yin jarayonini tashkil etish tartibli, shu bilan birga bolalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda moslashuvchan bo‘lishi kerak. O‘qituvchi ijobiy va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratishi, hamkorlik va o‘zaro yordamni rag‘batlantirishi kerak.

O‘yinlar jamoa ruhini, hamkorlik qilish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini rivojlantirish kabi aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Bunda bolalarning individual xususiyatlari, ularning emotsional holati va rivojlanish darajasini hisobga olish muhimdir. Pedagoglar va ota-onalar o‘yin jarayonini o‘z vaqtida to‘g‘rilash va hissiy rivojlanish uchun maksimal qulay sharoit yaratish uchun bolalarning turli o‘yin vaziyatlariga qanday munosabatda bo‘lishlariga e’tibor berishlari kerak.

Harakatli o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish pedagoglardan nafaqat bolalar psixologiyasi haqidagi bilimlarni, balki hissiy rivojlanishga yordam beradigan qulay muhitni yaratish qobiliyatini ham talab qiladi. O‘yinlar qiziqarli, xilma-xil bo‘lishi va bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelishi muhimdir. Pedagoglar bolalarning qiziqishlari va afzalliklarini hisobga olgan holda ularni o‘yinlarda ishtirok etishga va bir-birlari bilan faol muloqot qilishga undashlari kerak. Bundan tashqari, o‘yin paytida bolalarning xavfsizligini ta’minlash zarur, bu esa o‘zaro ishonch muhitini yaratishning muhim shartidir.

Bolalarning emotsional sohasini rivojlantirishda harakatli o‘yinlardan foydalanish samaradorligini baholash ham muhim vazifa hisoblanadi. Pedagoglar va psixologlar o‘yinlar bolalarning hissiy rivojlanishiga qanchalik hissa qo‘shishini, ular hissiy qiyinchiliklarni yengishga yordam berishini va ijtimoiy ko‘nikmalarni yaxshilashini baholay olishlari kerak. Buning uchun kuzatish, so‘rov, test kabi turli usullardan foydalanish mumkin, bu esa harakatli o‘yinlarning bolalarning hissiy rivojlanishiga ta’siri haqida obyektiv ma’lumotlarni olish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, harakatli o‘yinlar kichik maktab yoshidagi bolalarning hissiy rivojlanishida muhim vosita hisoblanadi. Ular nafaqat jismoniy rivojlanishga hissa qo‘shadi, balki hissiy sohani shakllantirishda, ijtimoiy moslashuvda va atrof-muhit bilan o‘zaro aloqada muhim rol o‘ynaydi. Harakatli o‘yinlarni samarali tashkil etish va o‘tkazish bolalarning hissiy intellekti darajasini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu esa o‘z navbatida ularning o‘quv faoliyati va ijtimoiy hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish usullarini tadqiq etish va rivojlantirishni davom ettirish, ularning bola shaxsining uyg‘un rivojlanishidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, kelajakda o‘ziga ishongan, hissiy jihatdan barqaror va ijtimoiy moslashuvchan shaxslarni shakllantirishga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Губа В.П. Развитие интереса к произвольной двигательной активности младших школьников в ракурсе применения импровизационно творческих подвижных игр / В.П. Губа, Я.В. Казаков // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. – 2022. – №6. – С. 56–58.

2. Карелина И.О. Развитие эмоциональной сферы детей в дошкольной образовательной организации / И.О. Карелина // Мир науки. Педагогика и психология. – 2019. – Т. 7. №5. – С. 50–53.
3. Костина А.М. Подвижная игра как средство воспитания положительных взаимоотношений у детей младшего школьного возраста / А.М. Костина; ГОУ ВПО «ДОННУ». – 2024. – С. 216–217.

SPORT FAOLIYATI SHAXSNING EMOTSIONAL HOLATIGA TA’SIRI VA UNING XUSUSIYATI

O‘tashev Xasan Nematullayevich
Alfraganus university “Sport faoliyati” kafedrasi professor v.b, pedagogika fanlari doktori(DSc)
ORCID 0000-0002-9347-5595

Annotatsiya. *Mazkur maqola jismoniy faollikning inson hissiy holatiga ta’siri masalasini tahlil qilishdan iborat. Shu jumladan muammolar va stressga to‘la zamonaviy dunyoda sport bilan shug‘ullanishni o‘ziga xos “ma’naviy yengillik” sifatida qarashlar ham muhim hisoblanadi. Insonning faol faoliyati davomida har doim ham ijobiy his-tuyg‘ular paydo bo‘lavermasligi shu bilan birga jismoniy faollik haqiqatan ham insonning nafaqat jismoniy va hissiy salomatligiga va uning turmush tarzi va odatlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatishi haqida bayon etilgan.*


Kalit so‘zlar: *sport faoliyati, salomatlik, turmush tarzi, emotsional qo‘llab-quvvatlash, ijobiy emotsiyalar, salbiy emotsiyalar.*

Bolalikdan boshlab katta avlod o‘z farzandlariga harakatli o‘yinlar orqali faol va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini singdiradi. Bu o‘yinlar bolalarda kuchli ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Vaqt o‘tishi bilan bolalar ulg‘ayadi va ularning sport hayotiga qiziqishi har doim ham saqlanib qolmaydi. Sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishiga bo‘sh vaqtning yetishmasligi, yangi qiziqishlarning paydo bo‘lishi va shunga o‘xshash ko‘plab omillar sabab bo‘ladi. Insonning sportdan voz kechishining eng ko‘p uchraydigan sababi esa uni zerikarli deb hisoblashidir.

Har bir inson nafaqat jismoniy salomatlikni saqlash, balki tashvish va stressga to‘la zamonaviy dunyoda juda zarur bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ularni olish uchun o‘ziga mos keladigan sport turini topishi kerak. Bugungi kunda ko‘plab odamlar sport zalidagi mashg‘ulotlar orqali stressdan xalos bo‘lishadi, chunki ular u yerda mashg‘ulotlarga e’tibor qaratishadi va ulardan ko‘plab ijobiy his-tuyg‘ularni olishadi, bu esa ularning ruhiyatini yengillashtiradi.

Biz tadqiqot davomida faol turmush tarzini olib boruvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik va bunda biz “nima maqsadda sport bilan shug‘ullanishadi” degan savolga javoblar turlicha ko‘rinishda bo‘ldi.

1. Jismoniy jihatdan chiniqqan chiroyli tanaga ega bo‘lish uchun nima qilish kerak?
2. Immunitetni mustahkamlash uchun nima qilish kerak?
3. Ijobiy his-tuyg‘ularga erishish uchun nimalargaega bo‘lish kerak?
4. Yangi tanishlar orttirmoq uchun nima qilish kerak?
5. Zerikishdan xalos bo‘lmoq uchun nimalar bilan shug‘illanmoq lozim?
6. Sport bilan shug‘illanish uchun boshqa sabablar va omillar?



O‘tkazilgan so‘rovnoma tahlillarga ko‘ra eng ko‘p olingan javoblar “Inson organizmida immunitetni mustahkamlash uchun” va “Ijobiy his-tuyg‘ularni olish uchun” degan xulosaga kelindi. Bu shuni anglatadiki, odamlar ham jismoniy, ham hissiy salomatlikka ega bo‘lishlari muhimdir.

Odamlar o‘zlari sevgan sport turi bilan shug‘ullanishga kelganlarida, faqat ijobiy his-tuyg‘ularni olish bilan cheklanib qolmaydilar. Shu bilan birga, ular yangi tanishlar orttiradilar va do‘stona munosabatlar o‘rnatishadi, bu esa har bir inson uchun juda muhim. Yaxshi jamoa bilan sport zalga kelish va u yerdagi odamlar bilan sog‘liq uchun foydali vaqt o‘tkazish eng kuchli rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Bunday holatda yoki bu jarayonda nafaqat yaxshi jamoa, balki yoqimli musiqa ham katta ahamiyatga ega. Musiqaning inson organizmiga ta’siri haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Don Kentning ta’kidlashicha “Musiqa ko‘plab biologik jarayonlarga sezilarli fiziologik ta’sir ko‘rsatadi, charchoq oqibatlarini kamaytiradi, pulsni o‘zgartiradi va nafas olishni, bosimni tenglashtiradi, shuningdek, psixogalvanik ta’sir ko‘rsatadi” degan. Bu uning insonga yaxshi ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi, shuning uchun har qanday sport zalida har doim yoqimli kuy yangraydi. Bugungi kunda odamlar musiqaning ijobiy ta’siridan kundalik hayotda ham faol foydalanmoqdalar. Musiqa o‘ziga xos davolash usuli sifatida ham qo‘llaniladi: tinchlanish, uyquga ketish, o‘zini ishga undash, kayfiyatni ko‘tarish yoki shunchaki ezuvchi sukunatni yoqimli ohanglar bilan almashtirish uchun ishlatiladi.

Sevimli sport turi ko‘p kuch talab qiladigan sport turi bo‘lishi shart emas, balki yoqimli jamoa bilan sport zalda xotirjam mashq qilish ham shunday bo‘lishi mumkin. Yildan yilga hissiy bo‘shashish va kundalik ishlardan dam olish uchun sportni tanlashda eng katta afzallikka ega bo‘lgan yoga bunga ajoyib misol bo‘la oladi.

Yoga odamni keskin harakatlar qilishga majbur qilmaydi, aksincha - xotirjamlik va silliq harakatlarni talab qiladi. Yoga bilan shug‘ullanayotganda tana bo‘shashadi va asta-sekin barcha mushaklarni cho‘zadi. Juftlikda bajariladigan ko‘plab mashqlar mavjud bo‘lib, ular kommunikativ aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi.

Hozir vaqtda butun dunyoda asta-sekin modaga aylangan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilib kelinmoqda. Ko‘plab odamlar sport zallariga a’zo bo‘lib, yoga gilamchalari, gantellar, to‘plar, turli xil trenajyorlar va shunga o‘xshash sport anjomlarini sotib olishlari va ushbu sport

anjomlarini xarid qilish vaqtida ham yaxshi his-tuyg‘ularni uyg‘onishi juda mazmunli hisoblanadi, bu hissiyot esa doim yangi narsa sotib olishdan kelib chiqadi. Shuning uchun odamlar ko‘pincha o‘z kayfiyatlarini sport orqali ko‘tarish uchun turli xil sport anjomlarni xarid qilish bilan ham yaxshi kayfiyatini ko‘tarishadi.

Sport faoliyati salbiy his-tuyg‘ularni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ko‘p hollarda insonning sport bilan shug‘ullanishni istamasligiga sabab bo‘ladigan omillar dangasalik, jarohatlanish va tashqi ko‘rinishi ustidan kulishlaridan qo‘rqish, shuningdek, bo‘sh vaqtning yo‘qligi hisoblanadi. Bu omillarning barchasini bartaraf etish mumkin, lekin eng qiyini o‘z dangasaligi ustidan g‘alaba qozonish bo‘ladi. Darhaqiqat, uni yengish uchun ko‘p kuch sarflash va kuchli iroda egasi bo‘lish kerak. Agar inson o‘z dangasaligini yenga olsa, u nafaqat faol hayot tarzidan zavq olishi, balki sportda ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Ko‘pincha insonlarda faol sport faoliyatiga nisbatan salbiy his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi, chunki qachonlardir ularni bu bilan shug‘ullanishga majburlashgan. Agar xohish bo‘lmasa, kimnidir sport bilan shug‘ullanishga majburlashning hech qanday ma’nosi yo‘q, bundan hech qanday natija chiqmaydi. Bunday ruhiy bosimning oqibati barcha harakatlarni mexanik tarzda, ya’ni hech qanday his-tuyg‘ularni namoyon etmasdan bajarishga olib keladi, bu ham keyingi kundalik hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Harakatlarni mexanik tarzda bajarish odatga aylanib qolishi mumkin, bu esa har qanday his-tuyg‘ularni butunlay yo‘qotishga sabab bo‘lishi mumkin.

Sport bilan shug‘ullanishni tibbiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqsak, mashg‘ulotlar paytida insonda kayfiyat va hissiy holatiga ta’sir qiladigan gormonlar ishlab chiqariladi. Bu gormonlar inson organizmi uchun baxt gormonlari deb ataladigan endorfinlardir. Eng foydali jismoniy mashqlar ochiq havoda: ko‘chada, bog‘da, o‘rmonda va shu kabi joylarda bajariladi, chunki inson quyosh nurida bo‘lganida uning tanasida serotonin ishlab chiqariladi, bu ham hissiy holatni yaxshilaydi.

Endorfinlar bilan bir qatorda testosteron ham ishlab chiqariladi. Qondagi testosteron darajasini sezilarli darajada ko‘tarish uchun muntazam va jadallik bilan mashq qilish lozim: qisqa muddatli anaerob yuklamalar, majburiy kardio mashqlar, chigil yozdi va cho‘zilish mashqlari, to‘laqonli dam olish, muvozanatli ovqatlanish tartibi hamda parhezda oqsil miqdorini oshirish zarur.

Har bir inson nafaqat o‘zining jismoniy salomatligini saqlash uchun, balki o‘zi uchun zarur bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ularga ega bo‘lish uchun ham faol hayot tarzini olib borishi kerak. Eng muhimi, dangasaligingizni yengib, hissiy holatingizga zavq beradigan sport turini topishdir. Vaqt o‘tishi bilan bu maqsadga erishish uchun qilingan mehnat foydali odatga aylanishi mumkin va shundan so‘ng ko‘pchilik o‘z hayotini sportsiz tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun, faol hayot tarzi odatga aylanganda, odamlar sportni tark etgandan so‘ng o‘zlari uchun boshqa faol mashg‘ulotlarni topadilar, bu ham sog‘liqqa yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: tog‘ga tez-tez chiqib turish, skandinavcha yurish yoki oddiygina uy yumushlarini bajarish dastlab odatiy hol bo‘lib tuyulgan, keyinchalik esa o‘ziga xos “terapiya”ga aylangan.

Moliyaviy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, sport bilan shug‘ullanish psixologga qatnashdan ko‘ra arzonroqqa tushadi. Bunday holda, sport bilan shug‘ullanishning yana bir afzalligi bor - go‘zal tana va sog‘lom hayot.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.U.Ibraximov “Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi” darslik // -Tafakkur qanoti nashriyoti - T.2022 yil 356 bet.

2. Шарипова Д. Использование здоровье сберегающих технологий в системе непрерывного образования в целях духовно-нравственного и культурного развития подрастающего поколения. Т.: Фан ва тенология, 2014. – 116 с.

INKLYUZIYA SHAROITIDA SENSOMOTOR RIVOJLANISH MUHITINI MODELLASHTIRISH METODIKASI

Ishmatova Ozodaxon Sirodjovna
Chirchiq davlat pedagoogika universiteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning sensomotor rivojlanishini ta’minlash masalalari yoritilgan. Sensomotor rivojlanish bolaning idrok, tafakkur, nutq, xotira va ijtimoiylashuv jarayonlarida hal qiluvchi o‘rin tutishi ta’kidlangan. Shuningdek, qo‘l barmoqlari mayda motorikasining nutqiy va intellektual faoliyatga ta’siri, pedagogik va innovatsion yondashuvlar asosida sensomotor rivojlanish muhitini modellashtirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Maqolada xorijiy va milliy tajribalar asosida inklyuziv ta’lim muhitida sensomotor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashning samarali metodlari taklif qilingan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, sensomotor rivojlanish, mayda motorika, idrok, innovatsion texnologiyalar, metodik yondashuv.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы обеспечения сенсомоторного развития детей дошкольного и младшего школьного возраста в условиях инклюзивного образования. Подчеркивается, что сенсомоторное развитие играет ключевую роль в формировании восприятия, мышления, речи, памяти и социализации ребенка. Особое внимание уделяется влиянию мелкой моторики пальцев рук на речевую и интеллектуальную деятельность. На основе педагогических и инновационных подходов раскрываются пути моделирования среды сенсомоторного развития. В статье предложены эффективные методы поддержки сенсомоторного развития в условиях инклюзии на основе отечественного и зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, сенсомоторное развитие, мелкая моторика, восприятие, инновационные технологии, методические подходы.*

Abstract. *This article explores the issues of ensuring the sensomotor development of preschool and primary school children in the context of inclusive education. It emphasizes that sensomotor development plays a crucial role in the formation of perception, thinking, speech, memory, and socialization. Special attention is given to the impact of fine motor skills on speech and intellectual activity. Based on pedagogical and innovative approaches, the article highlights ways of modeling a sensomotor development environment. Effective methods for supporting sensomotor development in inclusive settings are proposed, drawing on both national and international experiences.*

Keywords: *inclusive education, sensomotor development, fine motor skills, perception, innovative technologies, methodological approaches.*

O‘zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim-tarbiya berish va inklyuziv ta’limni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 1-dekabrdagi PF–5270-son Farmoni (“Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”), 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–637), shuningdek, 2021–2025 yillarga

mo‘ljallangan Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi mazkur yo‘nalishda keng qamrovli huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qarorlar asosida ta’lim tizimida yangi metodikalarni ishlab chiqish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va maxsus ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Shulardan biri — inklyuziv ta’lim sharoitida sensomotor rivojlanish muhitini modellashtirish metodikasi bo‘lib, u nafaqat nutqiy rivojlanishni, balki bolaning umumiy kognitiv va shaxsiy taraqqiyotini ham qo‘llab-quvvatlaydi.

Sensomotor rivojlanish bolaning ilk yosh davridan boshlab idrok, tafakkur, nutq, xotira va diqqat kabi asosiy psixik jarayonlarning shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ilmiy izlanishlar (Piaget, Vygotskiy, Leontev) shuni ko‘rsatadiki, bolaning sezgi va harakat faoliyati ularning nutqiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, mayda motorikani rivojlantirish mashqlari nutq organlari faoliyatini ham faollashtiradi. Quyida keltirilgan sensor o‘yinlar sensomotor muhitni yaratib beruvchi omillar bo‘lib xizmat qiladi.

O.S. Ishmatova “Fonetik ritmika- harakatli mashqlar majmui bo‘lib, audial, vizula, kinestetik te’sir etish orqali alohida ehtiyojli bolalarning talaffuzi va nutqining prosodik tomonini shakllantirib rivojlantirishga xizmat qiluvchi korreksion texniligiyadir” deya ta’rif bergan. Darhaqiqat, fonetik ritmika musiqiy ritm, qo‘l va tana harakatlari hamda nutqiy mashqlarni uyg‘unlashtiruvchi metodika bo‘lib, bolada ko‘p qirrali rivojlanishni ta’minlaydi.

Tadqiqotlar (Vlasova, Shmatko, O.S.Ishmatova 2025, Volkova) shuni ko‘rsatadiki, ritmik mashqlar bolalarda nafaqat motor koordinatsiyani, balki nutqning intonatsion tomonini, talaffuz aniqligini va nafasni boshqarish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Inklyuziv sinflarda fonetik ritmika, ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarda nutqiy faoliyatni faollashtirishda samarali hisoblanadi. Musiqiy ritmlar orqali bolaning emotsional holati barqarorlashadi, ijtimoiylashuvi osonlashadi va guruhiy mashg‘ulotlarga qiziqishi oshadi. Sensor qutilar (sandboxes, sensory bins) – turli materiallar (qum, don, suv bonchalari, paxta, tugmalar va boshqalar)dan tashkil topib, bolaning sezgi organlarini faollashtiradi. Bunday mashg‘ulotlarda bola teginish orqali predmetlarning shakli, kattaligi, tuzilishi, harorati va boshqa xususiyatlarini farqlashni o‘rganadi. Psixologlar (Montessori, 1912; Ayres J., 2005) ta’kidlaganidek, bunday tajribalar idrokni kengaytirib, bilish faoliyatini kuchaytiradi.

Konstruktiv o‘yinlar esa (lego, mozaika, konstruktiv bloklar, puzzllar) qo‘l barmoqlari motorikasini rivojlantirib, tafakkur va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bolada “tizimlilik”, “bog‘liqlik” va “natijani oldindan tasavvur qilish” kabi kognitiv malakalar rivojlanadi. Ayniqsa, inklyuziv guruhlarda konstruktiv o‘yinlar bolalarning hamkorlik qilish, birgalikda yechim topish, o‘z fikrini muloqot orqali ifodalash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda sensomotor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynamoqda. Interaktiv doskalar, planshet ilovalari, VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) dasturlari orqali bolalarda diqqat, idrok va motor ko‘nikmalari rag‘batlantiriladi. Masalan, **“FingerGym” (UK, 2019)** dasturi bolalarni onlayn tarzda barmoqlarni mashq qilishga undab, yozuvga tayyorgarlikni tezlashtiradi.

Shuningdek, maxsus mobil ilovalar (masalan, “Dexteria” – AQSH, “Kaligo” – Fransiya) bolaning motorikasi, grafomotor ko‘nikmalari va ko‘z-qo‘l koordinatsiyasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan. Bunday texnologiyalar inklyuziv muhitda imkoniyati cheklangan bolalarni ta’lim jarayoniga yanada faol jalb etishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’limning eng muhim tamoyillaridan biri – bu har bir bolaning rivojlanish sur’ati, psixofiziologik xususiyatlari va individual ehtiyojlarini hisobga olishdir. Shu sababli sensomotor rivojlanish mashg‘ulotlari ham individual tarzda modellashtirilishi lozim. Masalan,

ayrim bolalarda qo‘l motorikasini rivojlantirish ko‘proq teginish orqali amalga oshirilsa, boshqalarida ko‘proq vizual kuzatuv asosida samarali bo‘ladi.

Psixologlarning tadqiqotlariga ko‘ra (Bronfenbrenner, 1979; Leontyev, 2001), individual yondashuv bolaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, muvaffaqiyat hissini oshiradi va o‘z-o‘ziga ishonchni mustahkamlaydi. Inklyuziv ta’limda bu yondashuv bolalarning ijtimoiylashuvi va tengdoshlar jamoasiga qo‘shilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv muhitda sensomotor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhit bolalar uchun ko‘p qirrali imkoniyatlarni yaratadi. Avvalo, fonetik ritmika, sensor o‘yinlar va mayda motor mashqlari nutq apparatini faollashtirib, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tovushlarni aniq talaffuz qilishi, nutq ritmi va intonatsiyasini shakllantirishga yordam beradi. Sezgi organlari (ko‘rish, eshitish, teginish, hid bilish) orqali olingan tajribalar bolaning tasavvuri va tafakkurini boyitadi, chunki Piaget va Vygotskiy tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, bilish faoliyati aynan sezgi va harakatdan boshlanadi. Qo‘l barmoqlarining mayda motorikasini rivojlantirish orqali yozuv, rasm chizish va kundalik hayotiy ko‘nikmalar osonlashadi, ko‘rish-harakat koordinatsiyasi yaxshilanib, umumiy jismoniy faollik ortadi. Guruhiy o‘yinlar va mashg‘ulotlarda bolalarning bir-biriga yordam berishi ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi, nutqi cheklangan bolalar esa tengdoshlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, musiqiy ritm, o‘yin va harakat elementlari bolaning emotsional holatini yengillashtirib, ijobiy kayfiyatni kuchaytiradi, ta’lim jarayoniga qiziqishini oshiradi. Shu tariqa, bunday muhit bolalarda nutqiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishni uyg‘unlashtirib, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini va inklyuziv ta’limda faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda sensomotor rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ayrim ijobiy ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, quyidagi muammolar mavjud/ Bulardan:

- pedagoglarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi;
- maxsus metodik qo‘llanmalar va innovatsion texnologiyalarning yetishmasligi;
- ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi cheklanganligi;
- ota-onalarning sensomotor rivojlanish ahamiyatini yetarli darajada anglamasligi.

Shu bois xalqaro tajribalarni (Finlyandiya, Yaponiya, Rossiya) milliy sharoitga moslashtirish hamda pedagoglar malakasini oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi ayrim maktabgacha ta’lim muassasalarida sensor xonalar tashkil etilgan. Dastlabki kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, sensor muhitda shug‘ullangan bolalarda diqqat, xotira va nutqiy faoliyatning faollashishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, xorijiy adabiyotlarda (Case-Smith, 2005; Kramer, 2010) sensomotor rivojlanish mashqlari bolaning ijtimoiylashuv darajasini oshirishi va ta’lim jarayoniga faolroq jalb etilishiga yordam berishi qayd etilgan.

Inklyuziv ta’lim sharoitida sensomotor rivojlanish muhitini modellashtirish nafaqat maxsus pedagogika, balki butun ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masaladir. Sensomotor rivojlanish bolaning nutqiy, kognitiv va ijtimoiy taraqqiyotida poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois:

- pedagoglar uchun maxsus tayyorlov kurslari tashkil etilishi;
- innovatsion texnologiyalar va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi;
- sensor xonalar va interaktiv vositalar bilan ta’lim muassasalarini ta’minlash;
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur.

Shu yo‘sinda imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta’lim jarayonidagi ishtiroki samarali tashkil etilib, ularning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiyasi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF–5270-son Farmoni “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahrir). – O‘RQ–637. – Toshkent, 2020.
3. Montessori M. The Montessori Method. – New York: Frederick A. Stokes Company, 1912.
4. Vlasova T.A. Psixologo-pedagogicheskaya diagnostika razvitiya detey. – Moskva: Prosveshchenie, 1984.
5. Shmatko N.D. Metodika razvitiya ritmiki i dvijeniya u detey s narusheniyami slukha. – Moskva: Defektologiya, 1999.
6. Ishmatova O.S. Fonetik ritmika texnologiyasi va uning maxsus pedagogikadagi o‘rni. – Toshkent: TDPU, 2025 (qo‘lyozma materiallar asosida).

ONA TILI DARSLARINI GEYMIFIKATSION USULDA TASHKIL ETISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ona tili darslarini yangi yondashuv asosida tashkil etish bo‘yicha mulohazalar va uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi metodlar tasnifi keltirilgan. Maqolada geymifikatsiyaning maqsad va vazifalari, uning afzalliklari, shuningdek, e’tiborli jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Geymifikatsiya, o‘yin elementlari, motivatsiya, kreativlik.*

Abstract: *This article presents considerations for organizing mother tongue lessons based on a new approach and provides a classification of methods that serve its implementation. The article explores the goals and objectives of gamification, its advantages, as well as noteworthy aspects.*

Keywords: *Gamification, game elements, motivation, creativity.*

Аннотация. *В данной статье представлены размышления об организации уроков родного языка на основе нового подхода и классификация методов, способствующих его реализации. В статье раскрываются цели и задачи геймификации, ее преимущества, а также аспекты, заслуживающие особого внимания.*

Ключевые слова: *Геймификация, игровые элементы, мотивация, креативность.*

Hozirgi zamon ta’limida o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning bilim olish jarayonini samarali va yoqimli qilish dolzarb muammolardan biridir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha o‘quvchilarni zeriktirib, ularning diqqatini jamlashga to‘sqinlik qiladi. Bu muammoni hal etishda geymifikatsiya (gamification) – o‘yin elementlarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etish metodikasi muhim yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Geymifikatsiya – bu ta’lim, ish yoki boshqa noo‘yin kontekstlarida o‘yin mexanika va o‘yin dizaynining fikrlash elementlarini qo‘llashdir. U o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash va maqsadlarga erishishni osonlashtirishga qaratilgan. Geymifikatsiya darslarga ballar, mukofotlar, darajalar, yutuqlar, reytinglar va jamoaviy musobaqalar kabi elementlarni kiritadi. Tadqiqotchi M.Hakimova o‘z maqolasida “Nik Pelling va Richard Bartl kabi olimlar tomonidan ta’riflangan gemifikatsiya tushunchasi va uning tarixi o‘rganiladi. Geymifikatsiyaning o‘yin mexanikasidan foydalanish orqali o‘quvchilarni jalb qilish va ta’lim jarayonini interaktiv qilishdagi roli tahlil qilinadi. O‘yin elementlari orqali bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirish tajribalari va tadqiqotlari muhokama qilinadi. Jumladan, Richard Dyuk va Andrey Viktorovichning ta’lim jarayonidagi gemifikatsiya ishlari hamda ularning o‘quvchilarning bilim olish tajribasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ta’limda, chet tilini o‘rganishda, hamda universitet darajasidagi ta’lim muhitida gemifikatsiyaning uning foydalanuvchilar motivatsiyasiga va bilimni o‘zlashtirishga ta'siri haqida Sibiryakov Andrey qo‘ lanishi, Viktorovichning tadqiqotlari muhokama qilinadi. K.Ushinskiy, K.Verbax va boshqa tadqiqotchilarning gemifikatsiyaning afzalliklari, cheklovlari va amaliy qo‘ lash texnikalari

haqidagi izlanishlari ham tahlil qilinadi. Geymifikatsiya va simulyatsion gemifikatsiya o‘quv jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu yondashuv o‘quvchilarning diqqatini jalb etish, motivatsiyani oshirish va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Nik Pelling tomonidan 2002-yilda joriy qilingan gemifikatsiya tushunchasi o‘yin elementlarini ta’lim, biznes va boshqa sohalarda foydalanuvchi tajribasini yaxshilash maqsadida qo‘llash imkoniyatini yaratdi. O‘yin va gemifikatsiya o‘rtasidagi farqni aniqlashtirish orqali o‘yin mexanikasi va o‘yin uslubidagi ijodkorlikning muhimligini anglash mumkin. Esseks universiteti professori Richard Bartl va boshqa olimlar gemifikatsiyaning ta’limda qanchalik muhimligini ta’kidlaydilar. Ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularga oqim hissini berish va ularni rag‘batlantirish orqali bilimlarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. K. Ushinskiyning o‘yin elementlari orqali o‘quvchilarni emotsional fao lashtirish haqidagi fikrlari va Richard Dyukning simulyatsiya haqidagi qarashlari bu jarayonning amaliy qiymatini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, gemifikatsiya nafaqat ta’limda, balki sog‘liqni saqlash, marketing, jamoaviy faoliyat va boshqaruv sohalarida ham qo‘llaniladi. Foydalanuvchilarning texnik tizimlar bilan o‘zaro ta’sirini kuchaytirishda o‘yin elementlaridan foydalanish imkoniyatlari kengdir. Shuningdek, bu o‘quv jarayonini qiziqarli qilish bilan birga o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirokini oshiradi”[11], kabi qimmatli ma’lumotlarni keltiradi. Olimlar О. В. Орлова va В. Н. Титова “Геймификация как способ организации обучения” nomli maqolasida “Полная противоположность геймификации по выбранным позициям – ролевые игры, подоб ные игре на сцене (английское «play»). Ролевая игра как исполнение роли априори спонтанна, не имеет четко обозначенной игровой цели и структуры. Геймификация же имеет правила и цель, происходит в реальном мире, а не на сцене или в игровой ситуации, абсолютно не спонтанна, все ходы игрока прописаны и структурированы. Структурированность геймифицированной образо вательной деятельности вдвойне обязательна, так как в обучающем курсе необходимо разделить всю программу на определенные шаги/этапы, а каждый этап должен иметь свою цель, работающую на об щую цель курса”[12] deya o‘z qarashlarini keltirib o‘tadi. Bundan tashqari olimlar o‘zaro quyidagi savolga ham javob topadilar: “Геймификация: нужен ли термин? Отечест венные исследователи для обозначения анализиру емого явления часто используют слово «игрофика ция». На наш взгляд, термин «геймификация» от ражает суть явления гораздо точнее, поскольку в данном случае в русскоязычном речевом употре блении сталкиваются два понятия – «игра» — Геймификация как способ организации обучения и «компьютерная игра», причем второе является гипонимом первого (компьютерные игры являются разновидностью игр как таковых). Понятие игры – традиционный объект изуче ния в теории и методике образования, игровые элементы на протяжении веков использовались в педагоге, игровые технологии хорошо описаны, изучены и систематизированы. Если же говорить о сфере компьютерных и видеоигр, то в совре менном мире это отдельная стремительно разви вающаяся деятельность с новыми механизмами и платформами, дающими невероятные результа ты вовлечения аудитории. Вследствие этого нам будет логичным использовать заимствованное «гейм» (game), поскольку в русском языке уже су ществует устойчивое и общеизвестное понятие «геймер» – человек, играющий в

[11] Xakimova M. Ta’limda simulyatsion geymifikatsiya va uning ahamiyati // Inter education & global study, 2024, B-228.
[12] О. В. Орлова, В. Н. Титова. Геймификация как способ организации обучения // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2015. 9 (162), B-62.

компьютерные и видео-игры, и оно не равно по смыслу слову «игрок». Кроме того, стоящая перед нами научная задача выделения и описания особого способа обучения, внедряющего гейм-механики в образовательное пространство, требует и отдельного имени, такого как кодифицированные в педагогике «деловая игра», «ролевая игра» и др. С этой точки зрения «геймификация» – наиболее точный термин для определения процессов, о которых шла речь в дан ной статье”[13].

Bizning fikrimizcha esa ona tili darslarida geymifikatsiyaning qo‘llanilishi bir qator afzalliklarga ega:

1. Motivatsiyaning oshishi. O‘yin elementlari o‘quvchilarni darslarga qiziqtiradi va ularni faol ishtirok etishga undaydi.

2. Faollik va diqqatning ortishi. Musobaqalar va vazifalar o‘quvchilarning diqqatini jamlashga yordam beradi va ularni o‘quv jarayoniga to‘liq jalb qiladi.

3. Bilimlarni mustahkamlash. O‘yin shaklidagi takrorlashlar orqali o‘quvchilar grammatik qoidalar va lug‘at boyligini yanada mustahkamlaydi.

4. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Geymifikatsiya ijodiy vazifalar orqali o‘quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

5. Ijobiy o‘quv muhiti: O‘yinlar dars jarayonini quvnoq va stresssiz qiladi, bu esa o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi.

Ona tili darslarida geymifikatsiya metodikasini amalga oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1. “So‘z lug‘ati” metodi o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish va grammatik qoidalarni qo‘llash malakasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunda talabalarni juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘lish, har bir guruhga ma’lum bir mavzu bo‘yicha so‘zlar (masalan, fe’llar, sifatlar) yoki to‘g‘ri yozilishini tekshirish uchun murakkab so‘zlar berish mumkin va eng ko‘p to‘g‘ri so‘z topgan yoki yozgan guruh g‘olib bo‘ladi.

2. “Grammatik sarguzasht” metodi grammatik mavzularni o‘rganishni qiziqarli qiladi. Bunda darsni bir sarguzasht yoki qidiruv o‘yini shaklida tashkil qilish. Masalan, “Qo‘shma gaplar mamlakatiga sayohat” nomli o‘yin o‘ylab topish. Har bir bosqichda o‘quvchilar qo‘shma gapga oid masalani yechib, “sarguzasht”ning keyingi bosqichiga o‘tishadi.

3. “Hikoya quruvchi” o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Bitta o‘quvchi hikoyaning birinchi jumlasini aytadi, keyingi o‘quvchi esa uning davomini qo‘shadi. Jarayon oxirigacha davom etadi. Bu mashqni belgilangan so‘zlar yoki grammatik qoidalarni kiritish sharti bilan ham murakkablashtirish mumkin.

4. “Topshiriq kartalari” metodi orqali har bir o‘quvchining individual rivojlanishiga e’tibor qaratish mumkin bo‘ladi. Ushbu metodda har bir o‘quvchiga turli darajadagi qiyinchilikka ega bo‘lgan “topshiriq kartalari” berish kerak bo‘ladi. Vazifani bajargan o‘quvchi keyingi darajaga o‘tish huquqini qo‘lga kiritadi. Bu kartalarda fonetik tahlil, morfemik tahlil, yozma nutq yaratish yoki imlo qoidalarini qo‘llash kabi vazifalar bo‘lishi mumkin.

Geymifikatsiyani dars jarayonida amalga oshirishda ayrim e’tibor berish kerak bo‘lgan jihatlar mavjud bo‘lib, uni quyida ko‘rib chiqamiz:

O‘yinning maqsadi aniq belgilanishi kerak, u faqat o‘yin uchun emas, balki ta’limiy maqsadga xizmat qilishi lozim. Ballar, stikerlar yoki kichik sovrinlar kabi mukofotlar tizimini yaratish o‘quvchilarning ishtirokini rag‘batlantiradi. O‘yin qoidalari sinfning yoshiga va

[13] О. В. Орлова, В. Н. Титова. Геймификация как способ организации обучения // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2015. 9 (162), В-63.

o‘quvchilarning bilim darajasiga mos bo‘lishi kerak. Dars jarayonini faqat o‘yinga aylantirib yubormaslik, balki ta’limiy ma’noni saqlab qolish muhim.

Xulosa. Ona tili darslarini geymifikatsiya orqali tashkil etish o‘quvchilarning darslarga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshirishga, ularning bilim olish jarayonini samarali va quvnoq qilishga xizmat qiladi. Bu metodika o‘qituvchidan ijodkorlik va yangicha yondashuvni talab qilsa-da, uning natijalari dars sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Geymifikatsiya – bu kelajak ta’limining muhim qismi bo‘lib, u orqali ona tilini o‘rganish yanada jozibali va samarali bo‘ladi. Ona tili ta'lim jarayoni o‘quvchilarni nafaqat bilimlar bilan ta'minlash, balki ularning qiziqishlari va motivatsiyasini oshirishni ham o‘z ichiga oladi. Geymifikatsiya - ya'ni o‘yin elementlari orqali ta'lim muhitini yaratish, bu jarayonda o‘quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli qilish va kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Ona tili darslarini geymifikatsion usulda tashkil etish o‘quvchilarning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu, o‘z navbatida, ularning motivatsiyasini oshiradi va bilish jarayonini qiziqarli qiladi. Geymifikatsiya elementlaridan foydalangan holda, o‘qituvchilar o‘quvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim muhitini yaratishga erishadilar. Kelajakda, geymifikatsiya metodikasining yanada rivojlanishi, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Xakimova M. Ta’limda simulyatsion geymifikatsiya va uning ahamiyati // Inter education & global study, 2024, B- 228-237.
2. O. B. Орлова, B. H. Титова. Геймификация как способ организации обучения // Вестник ТГПУ (TSPU Bulletin). 2015. 9 (162), B- 60-64.
3. Amabile, T. M., DeJong, W., & Lepper, M. (1976). Tashqi belgilangan muddatlarning ichki motivatsiyaga ta’siri. Shaxsiyat va ijtimoiy psixologiya jurnali, 34(1), 92–98. https://doi.org/10.1037/0022-3514.34.1.92
4. Bleumers, L., All, A., Mariën, I., Schurmans, D., Van Looy, J., & Jacobs, A. (2012). Raqamli o‘yinlarning imkoniyatlarni kengaytirish va inklyuziyaga ta’siri: Adabiyotlar va empirik holatlar sharhi. Ispaniya: JRC Texnik Hisobotlari https://publications.jrc.ec.europa.eu/repository/handle/JRC77655.

YOSH PEDAGOGLARDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL HOLATNING KASBIY O‘ZLIKNI ANGLASHGA TA’SIRI

Jamolova Mahmuda Husenovna
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yosh pedagoglarda ijtimoiy-emotsional holatning kasbiy o‘zlikni anglash jarayoniga ta’siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Kasbiy o‘zlikni anglash tushunchasi, uning nazariy asoslari hamda ijtimoiy-emotsional kompetensiyaning pedagogik faoliyatdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yosh pedagoglarning O‘zbekiston ta’lim tizimida duch kelayotgan ijtimoiy-emotsional muammolari va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqola yosh pedagoglarni qo‘llab-quvvatlash, ularning kasbiy barqarorligi va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *yosh pedagog, ijtimoiy-emotsional holat, kasbiy o‘zlikni anglash, emotsional intellekt, pedagogik faoliyat.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri — yosh pedagoglarning kasbiy o‘zlikni anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlashdir. O‘zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ta’lim islohotlari, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilinayotgan dasturlar (masalan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun) yosh o‘qituvchilarning kasbiy mahorati, shaxsiy barkamolligi va emotsional barqarorligiga alohida e’tibor qaratmoqda [1], [2].

Pedagogning kasbiy o‘zlikni anglash darajasi uning o‘z kasbiga bo‘lgan sodiqligi, shaxsiy qadriyatlari va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jarayonda ijtimoiy-emotsional holat muhim determinant sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi ijtimoiy-emotsional kompetensiyaga ega yosh pedagoglar ta’lim jarayonida samaraliroq faoliyat yuritadi, stressga chidamli bo‘ladi va o‘zini o‘quvchilar hamda hamkasblari orasida yetakchi sifatida ko‘rsatadi [7].

Mazkur maqolada yosh pedagoglarda ijtimoiy-emotsional holatning mazmuni, uning kasbiy o‘zlikni anglashga ta’siri va nazariy asoslari psixologik yondashuvlar doirasida tahlil qilinadi.

Asosiy nazariy qism. Kasbiy o‘zlikni anglash – bu shaxsning o‘zini tanlangan kasb doirasida qabul qilishi, o‘z faoliyati bilan identifikatsiya qilishi va kasbiy rolini ongli ravishda amalga oshirish jarayonidir [3], [4]. Pedagogik faoliyatda bu jarayon o‘qituvchining o‘zini jamiyatda “tarbiyachi”, “ta’lim beruvchi”, “yetakchi” sifatida ko‘rishi va shu rolga mos psixologik xatti-harakatlarni shakllantirishini anglatadi.

Yosh pedagoglar uchun kasbiy o‘zlikni anglash jarayoni odatda faoliyatning ilk bosqichida murakkab kechadi. Chunki bu davrda ularda o‘zini isbotlash, tajriba yetishmovchiligi, stress, o‘quvchilarning turlicha xulqi bilan shug‘ullanish kabi qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shu jarayonda emotsional barqarorlik hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Ijtimoiy-emotsional holat shaxsning ichki kechinmalari (quvonch, tashvish, ishonch, xavotir, motivatsiya) va uning ijtimoiy muhitga bo‘lgan munosabatidan iborat murakkab psixik jarayondir. Psixologiyada bu tushuncha ko‘pincha “ijtimoiy-emotsional kompetensiya” yoki “emotsional intellekt” bilan bog‘lanadi [5].

Ijtimoiy-emotsional holat quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

- **O‘z emotsiyalarini anglash va nazorat qilish** – stressni boshqarish, salbiy hissiyotlarni konstruktiv yo‘naltirish.
- **Empatiya** – o‘quvchilarning hissiy holatini tushunish va unga mos pedagogik yondashuvni qo‘llash.
- **Ijtimoiy ko‘nikmalar** – hamkasblar va rahbariyat bilan samarali muloqot qilish, o‘z nuqtayi nazarini himoya qila olish.
- **Motivatsiya** – kasbiy rivojlanishga intilish, pedagogik faoliyatda o‘zini qadrlash.

Nazariy manbalarda qayd etilishicha, pedagoglarda emotsional beqarorlik quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin [8]:

- kasbiy charchoq (burnout);
- o‘z-o‘ziga ishonchsizlik;
- muloqotda qiyinchiliklar;
- kasbiy o‘zlikni shakllantirishda uzilishlar.

Aksincha, ijobiy ijtimoiy-emotsional holat quyidagilarni ta’minlaydi:

- o‘z kasbiga sodiqlik;
- ijodkorlik va tashabbuskorlik;
- o‘quvchilarga nisbatan sabr-toqat va empatiya;
- pedagogik jarayonda yangiliklarni qo‘llashga tayyorlik.

Masalan, Goleman ta’kidlaganidek, yuqori darajadagi emotsional intellektga ega o‘qituvchilar sinfda barqaror psixologik iqlim yaratib, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi mumkin [6]. Bu esa yosh pedagoglarda kasbiy o‘zlikni anglash jarayonini mustahkamlaydi. O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar yosh pedagoglardan yangicha yondashuv va kompetensiyalarni talab qilmoqda. Shu jarayonda ular quyidagi muammolarga duch kelmoqda:

- yuqori yuklama va sinf boshqaruvi bilan bog‘liq stress;
- emotsional qo‘llab-quvvatlovchi mentorlik tizimining yetarli emasligi;
- professional ijtimoiylashuv jarayonida moslashuv qiyinchiliklari;
- shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat o‘rtasida balansni saqlashdagi muammolar.

Bu holatlar yosh pedagoglarda kasbiy o‘zlikni anglash jarayonini sekinlashtirishi yoki izdan chiqarishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish muhimdir.

Xulosa

Yosh pedagoglarda kasbiy o‘zlikni anglash murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillar bilan belgilanadi. Ushbu jarayonning barqaror rivojlanishida ijtimoiy-emotsional holat hal qiluvchi ahamiyatga ega. Emotsional barqarorlik, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar yuqori bo‘lgan o‘qituvchilar o‘z kasbiy rolini muvaffaqiyatli bajaradi, ta’lim jarayonida samaradorlikka erishadi va o‘zini kasbiy jihatdan namoyon qila oladi. O‘zbekiston sharoitida yosh pedagoglarning ijtimoiy-emotsional qo‘llab-quvvatlanishini ta’minlash uchun pedagogik psixologiya asosida trening va seminarlar o‘tkazish; mentorlik va peer-to-peer (o‘zaro yordam) tizimini rivojlantirish; kasbiy stressni boshqarish bo‘yicha amaliy dasturlarni joriy etish; yosh pedagoglarni ijtimoiy-psixologik diagnostika asosida muntazam kuzatib borish tavsiya etiladi. Bu chora-tadbirlar yosh pedagoglarda kasbiy o‘zlikni anglash jarayonini mustahkamlash va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020). Toshkent: Adliya vazirligi.

2. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. (2023). Toshkent: Prezident.uz rasmiy sayti
3. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and crisis*. New York: Norton.
4. Super, D. E. (1980). A life-span, life-space approach to career development. *Journal of Vocational Behavior*, 16(3), 282–298.
5. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). What is emotional intelligence? In *Emotional development and emotional intelligence: Educational implications* (pp. 3–31). New York: Basic Books.
6. Goleman, D. (2001). *Emotional intelligence: Issues in paradigm building*. In C. Cherniss & D. Goleman (Eds.), *The emotionally intelligent workplace* (pp. 13–26). San Francisco: Jossey-Bass.
7. Brackett, M. A., & Rivers, S. E. (2014). Transforming students’ lives with social and emotional learning. *Journal of Emotional Education*, 6(2), 56–72.
8. Gross, J. J. (2014). *Handbook of emotion regulation* (2nd ed.). New York: Guilford Press.
9. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis. *Child Development*, 82(1), 405–432.

O‘QITUVCHILARNING NUTQ MADANIYATI VA MA’NAVIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKALARI, USULLARI VA VOSITALARI

Jumaniyozov Rahimboy
Professor, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogning nutqiy mahorati va ma’naviy tarbiyasini oshirishning muhim omillari haqida mulohaza yuritilgan. Jumladan, uning metodikalari, usul va vositalari, ta’lim sifatini oshirishning muhim mezonlaridan biri pedagogning kommunikativ kompetentligi, nutq madaniyatini bilish va notiqlik san’atiga amal qilish bilan bog‘liq mulohazalar o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, bu jarayonning uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimidagi holati va talim jarayonida nutq bilan bog’liq muammolariga ham to‘xtalingan.*

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, pedagogik jarayon, ritorika, voizlik, til taktikasi, tafakkur teranligi, kasbiy rivojlanish, ritor, mulohaza, voiz, ta’sirchan mexanizm, uzluksiz ta’lim, akademik nutq, lingvistik kompetensiya, notiqlik, nutq mahorati, germenevtika, samaradorlik, ma’naviy tarbiya, pedagogik jarayon, ritorika, voizlik, til taktikasi, tafakkur teranligi, kasbiy rivojlanish, akademik nutq, va’z, da’vat, jang san’ati, strategiya, kommunikativlik.*

Abstract. *This article discusses the important factors in improving the speech skills and spiritual education of a teacher. In particular, its methodologies, methods and tools, one of the important criteria for improving the quality of education is the communicative competence of a teacher, knowledge of speech culture and practice of the art of oratory. The status of this process in the system of continuous professional development and the problems associated with speech in the educational process are also discussed.*

Keywords: *Education, pedagogical process, rhetoric, preaching, language tactics, depth of thought, professional development, rhetorician, reflection, preacher, influential mechanism, continuing education, academic speech, linguistic competence, oratory, speaking skills, hermeneutics, effectiveness, spiritual education, pedagogical process, rhetoric, preaching, language tactics, depth of thought, professional development, academic speech, sermon, invitation, martial arts, strategy, communicativeness.*

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimida o‘qituvchining shaxsi, uning nutq madaniyati va ma’naviy fazilatlari o‘quvchilarga namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun pedagog kadrlarning til madaniyatini yuksaltirish, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, o‘z ustida ishlashga intilishini kuchaytirish dolzarb masalaga aylangan. Nutq madaniyati — bu nafaqat grammatik jihatdan to‘g‘ri, balki mantiqan ravon, ma’naviy-estetik mazmunga ega bo‘lgan fikrni ifoda etish qobiliyatidir. O‘qituvchining nutqi uning kasbiy saviyasi, ma’naviy kamoloti va shaxsiy madaniyatining ko‘zgusidir. Shu bois, o‘qituvchining nutqini rivojlantirish ularning umumiy ma’naviy kamoloti bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘qituvchilarning nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirishda integrativ, faoliyatga asoslangan, reflektiv yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Til o‘rgatish va ma’naviy qadriyatlarni singdirishni bir butun jarayon sifatida tashkil qilish. Masalan, adabiy matnlar asosida so‘z boyligini oshirish bilan birga, insoniy fazilatlarni targ‘ib qilish, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilarda nutq ko‘nikmalarini shakllantirish (nutqiy rolli o‘yinlar, debatlar, suhbatlar), o‘qituvchilarning o‘z

nutqi va axloqiy holatini baholashga o‘rgatish, o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib, o‘qituvchining nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish bu kompleks, tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metodik yondashuvlar va vositalardan foydalanish bu yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini oshiradi. O‘z ustida doimiy ishlaydigan, nutqi ravon, so‘z madaniyatiga ega, ma’naviy barkamol o‘qituvchi bugungi ta’lim-tarbiya tizimining tayanchidir.

Nutq madaniyati - shaxsning ma’naviy kamolot darajasini, fikrlash madaniyatini, ijtimoiy munosabatlardagi malakasini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda nutq madaniyati o‘qituvchining kasbiy yuzini belgilaydi.

Shu jihatdan, ushbu kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishda samarali usullardan biri sifatida evristik suhbat alohida ahamiyat kasb etadi. Evristik suhbat – bu tinglovchilar yoki o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi interaktiv muloqot shaklidir. Unda suhbat jarayonida muammoli savollar orqali yangi bilimni kashf etish, ongli ravishda xulosaga kelish ko‘zda tutiladi. Evristik suhbat nutq madaniyatini rivojlantirishda quyidagi ilmiy-pedagogik mexanizmlar orqali samara beradi:

mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Evristik savollar orqali talabada mulohaza qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglash qobiliyati shakllanadi. Bu esa nutqning mantiqiy tuzilishiga bevosita ta’sir qiladi;

ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlaydi. Suhbat jarayonida fikr almashish, o‘z nuqtai nazarini bildirish, e’tirozlarga munosabat bildirish orqali nutqning axloqiy va madaniy mezonlari shakllanadi;

faol lug‘at zaxirasini kengaytiradi. Muammoli mavzular yuzasidan erkin mulohaza yuritish, termin va iboralardan maqsadga muvofiq foydalanish talab etiladi. Bu esa nutqning boyishiga xizmat qiladi;

shaxsiy pozitsiyani ifoda etishni o‘rgatadi. Evristik suhbat ishtirokchilaridan mustaqil fikr bildirish, o‘z nuqtai nazarini ilmiy asoslash talab etiladi. Bu jarayon nutq madaniyatida dalillar bilan fikr yuritish, mulohazada aniqlik va aniq bayon kabi sifatlarni shakllantiradi;

ma’naviy-madaniy kontekstni boyitadi. Evristik suhbatda ko‘tariladigan mavzular, odatda, ijtimoiy-axloqiy, insoniylik, adolat, mas’uliyat, kommunikativ etika kabi mafkuraviy jihatdan boy masalalarni qamrab oladi. Bu esa nutq mazmunini ma’naviy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiladi.

Evristik suhbat - bu nafaqat bilim berish, balki shaxsda nutqiy, ma’naviy va ijtimoiy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan mukammal pedagogik vositadir. Uning to‘g‘ri va tizimli qo‘llanilishi natijasida nutq madaniyatining asosiy mezonlari – ravonlik, tiniqlik, mazmunlilik, mantiqiylik va axloqiy standartlarga muvofiqlik rivojlanadi. Shu bois, pedagoglar tayyorlash jarayonida evristik suhbat usulining nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yuqori baholanishi lozim.

Pedagogik faoliyatda nutq nafaqat axborot uzatish vositasi, balki tarbiya, ta’sir, ruhiy aloqa, muomala va ta’lim samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Zamonaviy ta’limda o‘qituvchi nutqining mazmunan boy, usluban ravon, tiniq va ta’sirchan bo‘lishi talab etiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalarning nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishdagi o‘rni va xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiya bu ta’lim maqsadlarini samarali amalga oshirishga qaratilgan tizimli faoliyat usullari va vositalari majmuasidir. Bu tushunchaga ko‘ra, nutqni rivojlantirish

texnologiyalari o‘qituvchi shaxsida muloqot ko‘nikmalari, ta’sirchan nutq, axloqiy-estetik bayon va madaniy munosabatni shakllantirishni nazarda tutadi.

O‘qituvchi nutqini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning xususiyatlari haqida o‘tkazilgan tadqiqotlarga tayanilsa, ularning quyidagicha tasniflash mumkinligini ko‘ramiz:

Interaktivlik, o‘qituvchi nutqini rivojlantirishda qo‘llaniladigan texnologiyalar ko‘pincha interaktiv (o‘zaro ta’sirga asoslangan) usullarga tayanadi. Bunda rolli o‘yinlar, debatlar, jamoaviy muammoli vazifalar, evristik suhbatlar orqali nutq faoliyati rag‘batlantiriladi;

shaxsga yo‘naltirilganlik: nutq rivojida shaxsiy tajriba, nutqiy qobiliyat va individual psixologik xususiyatlar e’tiborga olinadi. Pedagogik texnologiyalar har bir o‘qituvchining nutqdagi kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash hamda ularni rivojlantirishga yo‘naltirilad;

kreativlikni rag‘batlantirish: ta’lim jarayonida ijodiy fikrlashni talab etuvchi texnologiyalar (mozg shturmi, klaster, insert, "6 ta shlyapa" va b.) qo‘llanilganda, o‘qituvchining nutqi shunga mos ravishda erkin, g‘oyaviy boy, ta’sirchan bo‘ladi;

axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish: videotahlillar, onlayn prezentatsiyalar, podkast yozuvlari orqali nutqni tahlil qilish va takomillashtirish imkoni yaratiladi. Bu orqali o‘qituvchi o‘z nutqini eshitish, tahlil qilish va yaxshilash imkoniga ega bo‘ladi;

refleksiv tahlilga asoslanganlik: nutq rivojiga qaratilgan texnologiyalar, ayniqsa, refleksiyani talab qiladi. Bu usullar o‘qituvchining o‘z nutqini, uning ta’sirini, intonatsiyasini, mosligini baholashga yordam beradi;

muammoli va ijtimoiy-mafkuraviy kontentdan foydalanish: nutqni rivojlantiruvchi texnologiyalarda turli ijtimoiy-axloqiy, ma’naviy mazmundagi matnlar, hayotiy voqeliklar asosida muammoli vazifalar qo‘llanilishi bayon mazmunini boyitib, ma’naviy ta’sirini oshiradi. Masalan: nutq mahoratini rivojlantirishga mo‘ljallangan pedagogik texnologiyalarga “Evristik suhbat (mulohaza va axloqiy bayon orqali nutqni chuqurlashtiradi), “Fikrlar jadvali” (klaster) (nutqiy izchillik va mazmunni shakllantiradi), rolli ijodiy mashqlar so‘zlashuv, harakat va emotsiyani uyg‘unlashtirgan holda ta’limiy nutqni rivojlantiradi, debatlar esa nutqda dalillash, mantiqiylik va muloqot madaniyatini shakllantiradi. O‘qituvchi nutqini rivojlantirish bu tizimli va maqsadli mashg‘ulotlar asosida shakllanadigan kasbiy-lichnostiy jarayondir. Pedagogik texnologiyalar ushbu jarayonga samarali ta’sir ko‘rsatadigan nazariy-amaliy mexanizmlar majmuasidir. Ularning interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan, ijodiy va tahlilchi xususiyatlari nutq madaniyatini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonida nutq rivojiga xizmat qiluvchi texnologiyalardan maqsadli foydalanish zarur.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonida dialogik va interpretativ mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘qituvchilarning pedagogik mahoratlari va nutqiy qobiliyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Dialogik va interpretativ mashg‘ulotlar o‘qituvchilarga o‘z fikrlarini to‘g‘ri, aniq va samarali izohlash, shuningdek, boshqa insonlar bilan mavzu bo‘yicha muammolarni muhokama qilishni o‘rgatish uchun qo‘llaniladi. Biz tadqiqot ishimiz davomida bu turdagi mashg‘ulotlarni tashkil etdik. Quyida ularga oid bir necha misollarni keltirib o‘tamiz. Dialogik mashg‘ulotlarda ishtirokchilar o‘z fikrlarini erkin bildirishadi, so‘zlashuvga jalb qilingan har bir odamning fikriga hurmat bilan qaraladi va konstruktiv savollar berildi. Bu turdagi mashg‘ulotlarda o‘qituvchilardan talab qilinadigan asosiy ko‘nikma - faol eshitish, savol berish, tushuntirish va fikrlar almashishdir. Biz quyida uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimida nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator interpretativ mashg‘ulotlardan misollarni keltirib o‘tamiz.

Interpretativ mashg‘ulotlarda o‘qituvchilar matn yoki kontekst asosida fikrlarini tayyorlash va shu asosda tahlil qilishadi. Bu jarayonda o‘qituvchi matnni talqin qilish, mazmunni tahlil qilish va o‘z fikrlarini boshqalarga izohlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Pedagogik matnlarning interpretatsiyasiga qaratilgan mashqlardan namunalar**:**

1-mashg‘ulot mavzusi: Pedagogika nazariyasining tarixiy rivoji.

Faoliyat: O‘qituvchilarga pedagogik nazariyaning o‘zgarishi, ularning nazariy asoslari va buning ta’limga ta’siri haqida turli manbalardan olingan matnlar beriladi. Har bir o‘qituvchi bu matnlarni o‘qib chiqib, uning asosiy g‘oyasini va ta’limga qo‘shgan hissasini izohlaydi.

Interpretatsiya**:** Matnning muhim qismi qaysi? va Ushbu matndagi qarashlar bugungi kun ta’limiga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Kabi savollar bilan nutq madaniyatini shakllanganlik darajasini o‘rganish mumkin.

2-mashg‘ulot mavzusi: O‘qituvchining nutqi va uning samarali ta’siri ritorika va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqdan namuna:

Faoliyat: O‘qituvchilarga ta’limiy nutq va undagi kommunikativlikni tahlil qilish uchun turli nutq fragmentlari beriladi. Ularning har biri turli kontekstlarda (darsda, ko‘rgazma, muhokamalarda va boshqalarda) qanday ijro etilishini talqin qilishlari kerak.

Interpretatsiya: Nutqdagi asosiy g‘oyasini qanday tushunishimiz mumkin? va Qanday metodlar nutqni samarali qilishga yordam beradi? Kabi savollar bilan tinglovchilarni nutqining yo‘nalganligini aniqlash mumkin.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonida dialogik va interpretativ mashg‘ulotlar pedagoglarning faolliklarini rag‘batlantirish va o‘quv jarayonida samarali nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Ular o‘qituvchilarga o‘zaro fikr almashish, ko‘plab nuqtalarni tahlil qilish va har bir shaxsning fikriga hurmat bilan qarashni o‘rgatadi.

Assotsiativ va matn mazmunini tahlil qilish psixologiya va pedagogikada keng ishlatiladigan analitik usullar bo‘lib, ularga asoslangan amaliy va nazariy ishlanmalar ta’lim jarayonida, shu jumladan o‘qituvchi nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usullar turli kontekstlarda ishtirokchilarning ma’naviy va aqliy taraqqiyotini tahlil qilish, yangi bilimlarni o‘zlashtirish va to‘g‘ri fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘llaniladi.

Dastlab assotsiativ tahlil haqida fikr yuritamiz. Assotsiativ tahlil – bu bilim yoki tajribaga asoslangan fikrlar, tasavvurlar va konseptlarni o‘zaro bog‘lash jarayoni bo‘lib, ushbu usul, asosan, u yoki bu mavzu bo‘yicha avvalgi tajribalarni, hatto emotsional yoki psixoanalitik tushunchalarni izohlash yoki ularni ishlatish orqali yangi mazmunni ochishga yordam beradi. Assotsiativ tahlilning asosiy xususiyatlari quyidagilarda ko‘rinadi:

tasavvur va fikrlarni bog‘lash: assotsiativ tahlil, asosan, turli xil ma’nolarni o‘zaro bog‘lashni talab qiladi. Masalan, aniq bir holat yoki tushunchani ishlatish orqali umumiy fikrni shakllantirishga yo‘naltirish assotsiativ tahlilga misol bo‘la oladi;

ta’limda ishlatiladigan yordamchi vosita vazifasini bajaradi: assotsiativ tahlil o‘qituvchini o‘quv materialini yoki o‘quv muammolarini o‘quvchilarga tushunarli va aniq shaklda taqdim qilishga yordam beradi. Masalan, olib boriladigan faoliyatlarda o‘quvchilarga turli kontekslardagi tasvirlarni ulashish va ularning o‘zaro aloqadorligini tahlil qilishga da’vat etiladi;

o‘zaro aloqalarning aniqlashtirilishi: assotsiativ tahlil, bir-biriga bog‘liq fikrlar va aniq tushunchalar orasidagi bog‘liqlikni topishga yordam beradi. Bunday tahlil, o‘z navbatida, o‘quvchilarning esda saqlash va konseptual tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

Assotsiativ tahlilning ishlatilishiga "Ma’naviy kamolot va axloqiy qadriyatlar" mavzusini misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bunda asosiy masala sifatida o‘qituvchi assotsiativ tahlilni o‘quvchilarga taqdim etsa, u o‘quvchilarga turli ma’naviy qadriyatlar, ularning axloqiy

yashashga ta’siri, va hulosa qilish usullarini mustahkamlashga yordam beradi. Bunda o‘quvchilar masalan: "mo‘tadillik", "insonparvarlik", "o‘z-o‘zini hurmat qilish" va "xalq hurmatini topish" kabi o‘zaro aloqador bo‘lgan tushunchalar ustida ish olib boradi, ya’ni assotsiativ fikrlashni amalga oshiradi.

O‘quv materiali mazmunini tahlil qilish ko‘pincha, matn yoki voqea/hodisaga izoh berish va uning ma’no-mohiyatini to‘liq tushunish uchun amalga oshiriladi. Ushbu usul, asosan, matnni yoki kontekstni ta’riflash va o‘quvchiga aniq va to‘liq tushuncha berish maqsadida ishlatiladi. Uning asosiy xususiyatlari mavzuni to‘liq va aniq tushuntirish ya’ni matn yoki hodisa haqidagi aniq ma’lumotlarni tafsilotlari bilan birga ta’riflash va ularning aniqligini ta’minlashni nazarda tutadi. Bunda sharhlash asosiy bo‘lib, o‘quvchi yoki muallif har bir elementga aniq tafsir berish, kontekstni to‘liq tushuntirish va uning mohiyatini yaxshilashga harakat qiladi. Masalan, aniq bir madaniy, tarixi yoki ijtimoiy kontekstning to‘g‘ri izohini berishga qaratiladi. Bundan tashqari bu turdagi tahlil shaxsiy fikrlar va ob’ektiv tushunchalarni birlashtirish orqali bahs qilingan mavzuda to‘liq xulosalar chiqarish imkonini beradi. Misol siftatida “Ma’lumotlar va tadqiqotlarning ahamiyati mavzusidagi suhbatda matn yoki tadqiqot natijalarini aniq va tushunarli ta’riflash uchun o‘qituvchi o‘quvchilarga ma’lumotlarni qo‘shish, ularni shaffof va tushunarli qilib taqdim etish maqsadida, har bir faktni yoki natijani qay darajada to‘liq va to‘g‘ri ta’riflash kerakligini ko‘rsatadi.

Assotsiativ va mazmuniytahlil o‘rtasidagi farq quyidagilarda ko‘rinadi:

assotsiativ tahlil - fikrlar va tasavvurlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishga asoslangan bo‘lsa, mazmuniy tahlil matn yoki kontekstni aniq va to‘liq izohlashga yo‘naltirilgan.

assotsiativ tahlil ko‘proq shaxsiy tajribalarga asoslangan va ko‘proq assotsiatsiyalar yordamida yangi tushunchalarni paydo qilishga qaratilsa, mazmuniy tahlil esa ma’lumotlarni tasavvur qilish va aniqlanishga yo‘naltirilgan.

Assotsiativ va mazmuniy tahlilning maqsadi o‘quvchilarga yoki izlanuvchilarga konseptual tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam berishdir. Biroq, ularning ishlatish maqsadlari va fokuslari har xil bo‘lib, assotsiatsiyalar orqali yangi yo‘llar va tushunchalarni topishda, ta’biriy tahlil orqali esa mavjud ma’lumotlarni aniq va to‘liq tafsirlashda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birgalikda tabiiy fanlardan dars beriuvchi o‘qituvchilarda nutq madaniyati va ma’naviy tarbiyasini rivojlantirish metodikalari, usullari va vositalari haqida gapirganda nutqni o‘stiruvchi treninglar va mashqlarga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlab o‘tish lozim. Nutqiy treninglar va mashqlar tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Bu treninglar va mashqlar tinglovchilarning nutqiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fahmlash qobiliyatlarini yaxshilash va muammolarni aniq va tushunarli tarzda ifoda etishi uchun zarur. Tabiiy fanlar (masalan, biologiya, ximiya, fizika) fanlarida nutqiy treninglar va mashqlar tinglovchilarni aniq fikrlashga, fanning murakkab tushunchalarini sodda tilda izohlash yoki tasvirlab tushuntiradigan nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

Nutqiy treninglarning ahamiyati ilmiy ma’lumotlarni aniq va tushunarli bayon etishga yordam beradi, tabiiy fanlar dunyoqarash, ilmiy ta’lim, texnologiya va boshqa sohalarda muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olsak, nutqiy treninglar tinglovchilarga ilmiy tushunchalarni aniq va to‘g‘ri bayon qilishni, murakkab kontentni oson va tushunarli tarzda taqdim etishni o‘rgatadi. Shu bilan birga muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlash asosida ilmiy masalalarni yordamchi usullar bilan aniqlash va ishlatishni, shu asosda ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Nutqiy treninglar o‘quvchilarni har xil ilmiy mazmunlarda muloqot qilishga, savol berishga va javoblarni to‘g‘ri va puxta tushuntirishga o‘rgatadi.

Nutqiy treninglar va mashqlar tabiiy fanlarda faqat ilmni tushunishni emas, balki unga oid bilimlarni mukammal bayon etishni ham rivojlantiradi. Ushbu treninglar va mashqlar tinglovchilarning fuqarolik va professional malakasovini oshirishga yordam beradi.

Ma’lumki, og‘zaki nutq jarayonida ta’sirchanlik – mazmunning o‘zidan ko‘ra, uni qanday shaklda yetkazilishiga ko‘proq bog‘liq bo‘lgan muhim sifatdir. Nutqning asosiy vazifalaridan biri tinglovchining tafakkuri va hissiyotiga ta’sir ko‘rsatishdan iborat bo‘lganligi sababli, uning shakliy xususiyatlari, ya’ni to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, maqsadga muvofiqligi va ifoda tozaligi alohida e’tibor talab etadi. Bunday omillar, avvalo, lingvistik asoslarga tayanadi, biroq nutqning to‘laqonli ta’sirchanligi nolingvistik vositalarsiz to‘liq namoyon bo‘la olmaydi.

Nutqning tinglovchi tomonidan qabul qilinishida psixologik holat muhim rol o‘ynaydi. Shu bois notiq auditoriyaning tarkibini ularning bilim darajasi, yoshi, hissiy kayfiyati kabi omillarni hisobga olgan holda, nutq uslubini moslashtirishi zarur. Ma’lumotli auditoriya oldida haddan tashqari soddalashtirilgan tilda so‘z yuritish yoki, aksincha, tayyorligi sust bo‘lgan auditoriya bilan murakkab, ilmiy uslubda muloqot qilish nutqning samarasini pasaytirishi mumkin. Shunday ekan, har bir nutq vaziyatga muvofiq tarzda tuzilishi va tinglovchi ongiga optimal ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilishi lozim.

Bundan tashqari, notiqning o‘z nutqiga bo‘lgan munosabati ham ta’sirchanlik darajasiga bevosita ta’sir etadi. Samimiylik va shaxsiy tajriba asosida fikr bildirilgan holatlarda tinglovchida ishonch hosil bo‘lib, aloqa jarayoni ikki tomonlama muloqotga aylanadi. Notiq mavzuni oddiy rasmiy izohlar bilan emas, balki hayotiy misollar, shaxsiy kuzatuvlar va hissiy ranglar bilan boyitganida, nutq yanada ta’sirchan va esda qolarli bo‘ladi.

Tinglovchi hissiyotlariga yo‘naltirilgan nutq esa axborotning samarali yetkazilishiga yordam beradi. Shu borada mashhur rus notig‘i V.O. Klyuchevskiyning fikrlariga e’tibor qaratish lozim. U shunday degan: “Ommaviy nutq so‘zlayotganingizda, tinglovchilarning faqat aqliga emas, balki yuragiga ham murojaat qiling. Shunday so‘zlangki, ular sizni eshitish bilan birga tasvir etilayotgan holatlarni o‘z ongida gavdalantirsin, holatingizni his qilsin.” Bu fikr nutq tuzilmasida bosqichma-bosqichlik, ya’ni fikrni dastlab tafakkurga singdirish, keyinchalik uni aniq misollar orqali boyitish, nihoyat, lirik obrazlar orqali yurakka yetkazish tamoyilining zarurligini ko‘rsatadi. Shunda tinglovchi faqatgina eshituvchi emas, balki faol hamdard, samimiy qabul qiluvchi, hatto notiq bilan emotsional birlik hosil qiluvchi shaxsga aylanadi.

Nutq madaniyatining muhim talablaridan biri uning grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan, aniq va ravon bo‘lishidir. Nutq adabiy talaffuz me’yorlariga rioya etgan holda, boshdan-oxirgacha izchil bayon etilishi zarur. Faqat ana shunday mukammal shakllangan nutqgina tinglovchi va o‘quvchiga samarali ta’sir ko‘rsatishi, madaniy nutq mezonlariga javob berishi mumkin. Ushbu yuksak mezonlarga erishish esa, ayniqsa, omma oldida so‘zlovchi shaxs o‘qituvchidan doimiy ravishda izlanishni, o‘z ustida muntazam ishlashni, filologik va o‘qituvchiik bilimlarni chuqur egallashni, shuningdek, doimiy nutqiy mashqlarni talab qiladi.

Mazkur talablar zamonaviy notiqlik faoliyatining asosiy tamoyillari sirasiga kiradi. Hozirgi davrda notiqlik san’ati asosan ommaviy axborot vositalari vakillari o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirilmoqda. Shu bois, o‘qituvchi zimmasiga nafaqat axborotni yetkazish, balki jamiyat oldida katta ijtimoiy mas’uliyatni his etish majburiyati yuklanadi. Ushbu mas’uliyat kasbiy-madaniy, ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy mezonlarga asoslanadi.

O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi axborot madaniyati, ularning ijtimoiy vazifani bajarayotganlikdagi roli, so‘z orqali jamiyat tafakkuriga ta’sir ko‘rsatishi ularni to‘rtinchi hokimiyat vakillari sifatida qarashga asos bo‘ladi. Bu jihat Yusuf Xos Hojib tomonidan ilgari surilgan Qalam el tuzadi, El boshqarilsa, qalam bilan boshqariladi kabi fikrlar bilan

uyg‘unlashadi. Uning qarashlari hozirgi zamon rasmiy-ma’muriy va axborot faoliyatiga, xususan o‘qituvchiikaga bevosita tadbiq etilishi mumkin.

Jamiyatni so‘z, matn va axborot vositasida boshqarish esa yuqori darajadagi muloqot madaniyatini talab etadi. Muloqot madaniyati esa, eng avvalo, axloqiy mezonlarga asoslangan nutqdan boshlanadi. Shu bois, nutqda axloqiy talablar qanday darajada bajarilishi alohida o‘rganilishi zarur bo‘lgan masaladir.

Notiqlik qadimdan fan sifatida emas, balki san’at va iste’dod ifodasi sifatida qaralgan. Notiqning asosiy vazifasi tinglovchilarni ishontirish, ularda ma’lum ijtimoiy-tarbiyaviy tushunchalarni shakllantirishdan iborat bo‘lgan. Shu sababli zamonaviy o‘quv adabiyotlarida notiqlik “ishontirish usullarini o‘rgatuvchi fan sifatida talqin etiladi.

Notiqlik san’atining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun notiqning nutqi chiroyli, jozibali va ta’sirchan bo‘lishi zarur. Bunga erishish uchun nutqning mazmuni, mantiqiy izchilligi, stilistik jozibadorligi va estetik shakllanishiga alohida e’tibor beriladi. Ana shundagina nutq omma ongiga samarali ta’sir ko‘rsatadi va uning ijtimoiy ahamiyati oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh. «Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». – T.: «O‘zbekiston» NMIU. 2016.
2. Ibraimov X, Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. “Sahhof” nashriyoti T., 2023
3. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Meros», 1992.
4. Navoiy A. «Mahbub ul-qulub». – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
5. Navoiy A. "Vaqfiya" "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2006-y.
6. Husayn voiz Koshifiy. Futuvvatnomai Sultoniy. Axloqi Muhsiniy. "O‘qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2018.
7. Jumaniyozov R. "Spikerlik sirlari" "O‘zbekiston" NMIU, 2022- y
8. Bekmirzaev N. Notiqlik san’ati. T., 2019 -y

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMDA O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna[1], **Azizov Mirzohid Mirzolim o‘g‘li**[2]
[1]pedagogika fanlari doktori (DSc) O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
https://orcid.org/ 0009-0000-8371-6298
[2]Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti ilmiy kotibi, p.f.d. (DSc)
https://orcid.org/ 0009-0008-3808-8278

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET)ning kasbiy rivojlanish jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, IETning nazariy-metodologik, amaliy, psixologik va tashkiliy muammolari, ta’lim jarayonida pedagoglar va talabalarda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishning dolzarbligi hamda ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish zarurligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, kasbiy rivojlanish, kompetensiya, pedagogik sharoit.*

Zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy va emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyotida ta’lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish shaxsning kasbiy samaradorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi, degan nazariya ilgari surilgan [1]. Ijtimoiy-hissiy o‘rganish (SEL) his-tuyg‘ularni tushunish va boshqarish, ijobiy maqsadlar qo‘yish, hamdardlikni his qilish va ko‘rsatish, ijobiy munosabatlar o‘rnatish va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish uchun umrbod bilim, munosabat va ko‘nikmalarni egallash jarayoni sifatida odamlarga chidamlilik, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga yordam berish orqali farovonlik va akademik muvaffaqiyatga yordam berganligi uchun dolzarb hisoblanadi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim oluvchilarda CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning, 1994) modeli asosida beshta asosiy kompetensiyani O‘zini anglash (Self-awareness), O‘zini boshqarish (Self-management), Ijtimoiy anglash (Social awareness), Mas’uliyatli qaror qabul qilish (Responsible decision-making), Muvaffaqiyatli munosabat o‘rnatish va saqlash (Relationship skills) shakllantirishga qaratilgan.

Xalqaro tajribalar, jumladan Taylorning (2017) meta-tahlilida IET dasturlari va emotsional ta’lim muhiti ta’limda ijobiy psixologik iqlim shakllanishiga yordam berib, ta’lim oluvchilarning akademik ko‘rsatkichlari ancha yuqori bo‘lishiga, ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish mehnat bozorida raqobatbardoshlik va shaxsiy farovonlikni shakllantirishi bilan ahamiyatli.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda ta’lim sifatini oshirish va yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonlarida IET elementlaridan foydalanishga e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, psixologiya va pedagogika sohalaridagi mahalliy tadqiqotlarda asosiy e’tibor bolalarda emotsional savodxonlik, stressni boshqarish, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari va axloqiy qaror qabul qilishni rivojlantirishga qaratiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida SELni joriy etish o‘qinuvchining bevosita individual va kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, barcha ta’lim

tizimlarida ham IET dasturlarini to‘liq tatbiq etish uchun pedagoglarni tayyorlash va resurslar yetarli emas. IET tushunchasining turlicha talqin qilinishi va yagona nazariy asosning shakllanmaganligi hamda IETni kasbiy rivojlanish tizimiga integratsiya qilish metodologiyasining ishlab chiqilmaganligi, ilmiy tadqiqotlarda kognitiv va emotsional rivojlanishni uyg‘unlashtirishdagi qarama-qarshiliklarning mavjudligi ijtimoiy emosional ta’limni asosiy masalalaridan biridir.

Xalqaro tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional ta’limni samarali joriy qilish uchun o‘qituvchilarni faqat nazariy kurslar emas, balki davomiy professional o‘qish (continuous PD), amaliy superviziya, mentorlik va kontekstga moslashtirilgan treninglar bilan qo‘llab-quvvatlash zarur. Casel va boshqalar ta’kidlashicha, ta’lim oluvchilarning SEL natijalari ko‘pincha o‘qituvchilarning ijtimoiy emotsional ko‘nikmalari qanday rivojlanganligia va o‘quv dasturlarini qanday amalga oshirishlari bilan bog‘liq. Shuning uchun kasbiy rivojlanishda avvalo kattalarning (o‘qituvchilarning) ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirilishi kerak [2].

Bir qator tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘pgina mamlakatlarda IET bo‘yicha o‘qituvchilar malakasini oshirish seminarlari qisqa muddatli bo‘lib, davomiy va tizimli qo‘llab-quvvatlash yetishmaydi. Shu sababli o‘qituvchilarda olingan bilim va ko‘nikmalar tez unutiladi yoki amaliyotga to‘liq joriy etilmaydi. UNESCO va OECD tahlillarida qayd etilishicha, ko‘pgina xalqaro dasturlar lokal madaniyat va ta’lim tizimiga to‘liq mos kelmaydi. Masalan, bir mamlakatda samarali deb topilgan IET usullari boshqa joyda to‘liq ish bermasligi mumkin. Shu bois, dasturlarni milliy kontekstga moslashtirishda o‘qituvchilarning kasbiy stresslari IET dasturlarining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan [3]. L. E.Kim, L.. Oxley, va K. Asbury kabi tadqiqotchilar kasbiy rivojlanish jarayonlarida tashkil etiladigan trening mashg‘ulotlari nafaqat pedagogik ko‘nikmalar, balki emotsional barqarorlik va stressni boshqarishga oid mashg‘ulotlarni ham o‘z ichiga olishi zarurligini ta’kidlaydilar [4].

Pedagoglarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emasligi, o‘quv dasturlarida IET masalalariga kam e’tibor qaratilganligi, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni baholash mezonlarining noaniqligi va ob’ektiv o‘lchov tizimining yo‘qligi, pedagoglarda professional charchash (burnout) holatlarining ko‘p kuzatilishi, kasbiy faoliyatda motivatsiyaning pastligi, IETning ahamiyati to‘liq anglab yetilmaganligi, ta’lim oluvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga moslashishda qiyinchiliklar, psixologik xizmatlar, metodik qo‘llanmalar va resurslarning cheklanganligi, IET natijalarini kuzatish va tahlil qilishning samarali monitoring tizimi mavjud emasligi kabi muammolar esa dolzarbligicha qolmoqda.

Oliy ta’lim tizimida va umumta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarni malakasini oshirish va uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini ijtimoiy emotsional ta’limga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘lib, kasbiy rivojlantirish dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ularning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonlariga ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) elementlarini kiritish muhim ahamiyatga ega. Bu, avvalo, o‘qituvchilarning empatiyasi, muloqot madaniyati, stressni boshqarish va sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar (empatiya, stressni boshqarish, emotsional intellektuallik, muloqot ko‘nikmalari)ni o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturining asosiy modullariga kiritish, mavjud dasturlarda nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, amaliy mashg‘ulotlar, keys-stadi va ijtimoiy emotsional masalalarni hal etishga qaratilgan rolli o‘yinlarni keng joriy etish, ijtimoiy-emotsional muhit yaratish bo‘yicha treninglar, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan muloqot mashg‘ulotlari, stressni oldini olish bo‘yicha psixologik seminarlarni tashkil etish muhim. Onlayn va oflayn mashg‘ulotlarda SEL (Social

Emotional Learning) platformalaridan foydalanish, multimedia resurslari, interaktiv simulyatsiyalar orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, yosh o‘qituvchilar uchun ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar modulini ishlab chiqish, taжribali pedagoglar uchun ijtimoiy-emotsional yetakchilik va mentorlik dasturlarini yaratish lozim.

Pedagoglarning IET kompetensiyalarini baholash uchun anketa, test va refleksiya kundaliklarini joriy etish, ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional muhit indikatorlarini (o‘quvchilar qoniqishi, sinfdagi psixologik barqarorlik, muloqot sifatini) kiritish asosida xalqaro tajribadan foydalanib, CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) modelidan ilhomlanib, milliy ta’lim tizimiga mos lokal adaptatsiya qilingan model yaratish, chalqaro trenerlar ishtirokida seminarlarni milliy mentalitet va milliy pedagogika an’analariga moslashtirish orqali ijtimoiy-emotsional ta’limni pedagog kasbiy rivojlanishining uzviy qismi sifatida joriy etish maqsadga muvofiq. Bu nafaqat o‘qituvchilarning shaxsiy samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning akademik natijalarini ham yuqori darajaga olib chiqadi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim kasbiy rivojlanishning muhim omili sifatida pedagog va talabalarda shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar va samarali kasbiy faoliyat uchun zarur kompetensiyalarni shakllantiradi. Biroq mazkur sohada nazariy va amaliy muammolarning mavjudligi ta’lim tizimida uni kengroq joriy etishni talab etadi. Shu bois, pedagoglarni tayyorlash jarayonida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha alohida dasturlar ishlab chiqish va ularni kasbiy rivojlanish tizimiga integratsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goleman D. Emotional Intelligence. New York: Bantam Books, 1995.
2. CASEL. (2020). SEL: What the research says. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. https://casel.org/research
3. Elias M. J., Parker S. J., Kash V. M. Social and Emotional Learning: Research and Practice. New York: Teachers College Press, 2006.
4. Kim, L. E., Oxley, L., & Asbury, K. (2021). Systematic review of social and emotional learning interventions for teachers. Frontiers in Psychology, 12, 667862. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2021.667862
5. Zins J. E., Weissberg R. P., Wang M. C. Building Academic Success on Social and Emotional Learning. New York: Teachers College Press, 2004.
6. Learning Policy Institute. (2018). Educator social and emotional competencies and their impacts on teaching and learning. Palo Alto, CA.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta’lim-tarbiya tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" PF-5847-son Farmoni, 2019 y.
8. OECD. (2021). Beyond academic learning: First results from the Survey on Social and Emotional Skills. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/92a11084-en
9. UNESCO. (2020). *Mainstreaming social and emotional learning in education systems: Policy recommendations*. UNESCO MGIEP.

OTA-ONALAR VA IJTIMOIY TASHKILOTLARNING HAMKORLIGI ORQALI O‘QUVCHILARNING BADIIY-ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINING ROLI

Jumatova Luiza Tozaboy qizi
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarining o‘quvchilarning badiiy-estetik didini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqola ota-onalar va ijtimoiy tashkilotlarning ushbu jarayonda hamkorligining roli, samarali usullari va amaliy misollari orqali batafsil tahlil qilinadi. Mualliflar ijtimoiy-emotsional ta’lim bilan badiiy-estetik tarbiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatib, ota-ona va jamiyatning tarbiyaviy muhit yaratishdagi hissasini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikning farzandlar estetik didini rivojlantirishdagi ijobiy ta’siri aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola yoshlarning san’atga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish va hissiy intellektini oshirish uchun samarali pedagogik yondashuvlarni taklif etadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, badiiy-estetik did, ota-ona hamkorligi, ijtimoiy tashkilotlar, emotsional rivojlanish, san’at tarbiyasi, o‘quvchilarning estetik didi, ijodiy faoliyat, hissiy intellekt, madaniy ta’lim.*

Ijtimoiy-emotsional ta’lim va badiiy-estetik tarbiya o‘zaro bog‘liqligi

Ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘quvchilarning hissiy ongini rivojlantirish, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash va boshqalar bilan hamdardlik qilish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuvdir. Ushbu ta’lim shakli o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etish, boshqalarning kayfiyatini tushunish, stressni boshqarish va qaror qabul qilishda yordam beradi.

Badiiy-estetik tarbiya esa san’at, adabiyot, musiqa, raqs va boshqa estetik yo‘nalishlar orqali o‘quvchilarning didi, ijodiy fikrlash qobiliyati va estetik qarashlarini shakllantiradi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari badiiy-estetik tarbiya bilan uyg‘unlashganda, o‘quvchilarda:

- O‘z-o‘zini anglash va o‘zini ijobiy ifoda etish imkoniyati yuzaga keladi. Masalan, bola rasm chizish yoki she’r aytish orqali ichki hissiyotlarini ifoda etadi.
- Boshqalar bilan muloqotda yanada samimiy va hissiyotli bo‘lishni o‘rganadi. Teatrda rol ijro etish yoki dramatik sahna orqali o‘zini boshqa odamlarning o‘rnida his qilish tajribasi ortadi.
- Stress va muammoli vaziyatlarda hissiyotlarni boshqarish ko‘nikmalari mustahkamlanadi. Masalan, musiqa tinglash yoki raqs qilish orqali kayfiyatni ko‘targan holda o‘zini xotirjam qilish mumkin.

Misol: Maktabda o‘quvchilarga drama darslari tashkil qilinadi. Bu darslarda ular o‘zlarining turli his-tuyg‘ularini (baxt, qayg‘u, hayajon) sahnada ijro etib, boshqalar hissiyotlarini ham tushunishni o‘rganadi. Shu bilan birga, drama darslari ularning san’atga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi.

Ota-onalar bilan hamkorlik: badiiy-estetik didni rivojlantirishda asosiy poydevor. Ota-onalar farzandning birinchi tarbiyachilari bo‘lib, ularning didi, estetik qarashlari, san’atga bo‘lgan munosabati bolalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Ota-onalar bilan samarali hamkorlik quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Estetik muhit yaratish. Ota-onalarga uyda badiiy-estetik muhit yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalar beriladi. Masalan, farzand bilan birga san’at asarlarini tomosha qilish, oila fotosuratlarini chiroyli tarzda bezatish, musiqa tinglash uchun alohida joy tashkil etish. Uyda musiqiy asboblar (fortepiano, gitaralar) bo‘lishi, bolalar uchun rassomlik buyumlari taqdim etilishi zarur.

Misol:Ota-ona bolasi bilan birga hafta oxirida muzey yoki teatrga borishni odat qilsa, bola san’atga qiziqishi ortadi, uning badiiy didi shakllanadi.

San’at tadbirlarida ishtirokni ta’minlash. Maktab va ota-onalar birgalikda farzandlarni san’at tadbirlariga jalb qiladi. Misol uchun, ota-onalar bolasi bilan birga maktabda o‘tkaziladigan teatr tomoshalariga, badiiy ko‘rgazmalarga qatnashadi. Bu nafaqat bolani qo‘llab-quvvatlash, balki ota-ona va bola orasidagi hissiy bog‘liqlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Misol:Ota-ona va bola birga musiqiy konsertga borib, musiqaning turli janrlarini eshitadi, bu esa bolada musiqa madaniyatini shakllantiradi.

Ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish.

Ota-onalar bolalarni rasm chizishga, hikoya yozishga, qo‘shiq kuylashga rag‘batlantirishlari muhim. Bu jarayonda ota-ona o‘zining ijobiy munosabatini namoyon etishi, farzandning ijodiy ishlarini qadrlashi zarur.

Misol: Ota-ona bolaga har hafta ijodiy mashg‘ulotlar uchun vaqt ajratib, birgalikda rasmlar chizadi yoki she’rlar o‘qiydi.

Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni mustahkamlash

Ota-ona bolasi bilan muntazam ravishda his-tuyg‘ular haqida suhbatlashib, ularni erkin ifoda etishga o‘rgatadi. Bu san’at vositalaridan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin, masalan, o‘qilgan she’r yoki tomosha qilingan spektakl haqida fikr almashish.

Ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlik: keng ijtimoiy-estetik maydon

Ijtimoiy tashkilotlar bolalar badiiy-estetik rivojini qo‘llab-quvvatlashda muhim omildir. Ular bilan hamkorlik quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Madaniy loyihalar va festivallar. Ijtimoiy tashkilotlar maktablar bilan hamkorlikda badiiy festivallar, ko‘rgazmalar va tanlovlar o‘tkazadi. Masalan, “Bolalar san’at festivali” doirasida rasm chizish, qo‘shiq kuylash yoki teatr tomosha qilish tanlovlari tashkil qilinadi. Bunday tadbirlar bolalarda o‘zini namoyon qilish imkoniyatini beradi va ijtimoiy muloqotga rag‘batlantiradi.

Misol: Mahalliy madaniyat markazi bilan hamkorlikda maktab o‘quvchilari uchun “Milliy liboslar festivali” tashkil qilinib, unda bolalar o‘z milliy kiyimlarida chiqish qiladi, madaniyatimizga hurmatni oshiradi.

Ma’naviyat va madaniyat to‘garaklari. San’at ustalari, yozuvchilar va musiqachilar bilan uchrashuvlar, mahorat darslari o‘tkazish orqali o‘quvchilar o‘z qiziqishlarini yanada chuqurlashtiradilar. Bu darslarda nafaqat texnika o‘rgatiladi, balki san’atning ruhiy va emotsional qirralari haqida ham so‘z boradi.

Misol:Mahalliy kutubxonada yozuvchi bilan uchrashuv, undan ilhomlanib o‘quvchilar o‘z she’rlarini yozishni boshlaydi.

Ijtimoiy tashabbuslar. Bolalar ijodi orqali ijtimoiy muammolarni yoritish va yechimlarini taklif qilish mumkin. Masalan, rasmlar ko‘rgazmasi orqali ekologiya masalalari, bolalar teatr spektakllari orqali do‘stlik va mehr-oqibat haqida xabar berish.

Misol: “Tabiatni asraylik” mavzusida o‘quvchilar rasmlar tanlovida ishtirok etib, shu orqali atrof-muhitni muhofaza qilish haqida ijtimoiy xabardorlikni oshiradi.

Emotsional farovonlikka e’tibor.

Ijtimoiy tashkilotlar psixologlar, san’at terapevtlari bilan birga san’at orqali emotsional sog‘liqni mustahkamlash mashg‘ulotlari o‘tkazadi. Bunda rasm chizish, musiqa tinglash, drama terapiya kabi metodlar qo‘llaniladi.

Misol: Bolalar uchun san’at terapiyasi mashg‘ulotlarida qatnashib, ular ichki stresslarini kamaytirib, hissiyotlarini boshqarishni o‘rganadi.

Xulosa. Badiiy-estetik didni tarbiyalash jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari o‘quvchilarda nafaqat san’atga bo‘lgan qiziqishni, balki hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida ularni jamiyatda muvaffaqiyatli va baxtli bo‘lishiga yordam beradi. Ota-onalar bilan yaqin hamkorlik bolalar estetik muhitda o‘sishini ta’minlab, ularning his-tuyg‘ularini erkin ifoda etishga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, ijtimoiy tashkilotlar bilan keng tarmoqli hamkorlik san’at va madaniyatni bolalar hayotining ajralmas qismiga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi. Natijada, badiiy-estetik didi yuqori bo‘lgan, ijtimoiy-emotsional jihatdan mustahkam, o‘zini yaxshi anglashi va boshqalar bilan iliq munosabatda bo‘lishga qodir yosh avlod shakllanadi.

TEXNOLOGIYA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA MUSTAQIL TA’LIMGA ASOSLANGAN ROBOTOTEXNIKA DARSLARI METODIKASI

Jurayeva Balxiya Farxod qizi
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqodlari markazi 1- kurs tayanch doktaranti.

Annotatsiya. *Maqolada texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ta’lim yondashuvini robototexnika darslariga integratsiya qilishning nazariy asoslari yoritilgan. Mustaqil ta’limning ta’lim tizimidagi o‘rni, robototexnika fanining texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashdagi roli va zamonaviy o‘quv platformalaridan foydalanish metodlari tahlil qilinadi. Muallif mustaqil ta’lim elementlarini loyihaviy va muammoli ta’lim yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirishning afzalliklarini ko‘rsatadi hamda metodik tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil ta’lim, texnologiya, kompetensiya,loyihaviy ta’lim, muammoli ta’lim,arduiono.*

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilar va talabalarda mustaqil o‘rganish, mantiqiy fikrlash, kreativ kompetensiyalar hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Texnologiya fani o‘qituvchilari bu jarayonda asosiy o‘rin tutadi, chunki ular nafaqat texnik bilimlarni, balki zamonaviy innovatsion voitalardan foydalanish malakalarini ham yosh avlodga yetkazadi. 2019-yil 8-oktabrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” farmoni oliy ta’limda sifatni oshirish, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy kasbiy va ilmiy ko‘nikmalarga ega kadrlarni tayyorlashga qaratilgan muhim hujjatlardan biridir. Ushbu konsepsiyada kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, o‘quv jarayonini talabalarning mustaqil ishlash faoliyati bilan uyg‘unlashtirish, amaliy tajribalarni kengaytirish va ijodiy yondashuvni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Texnologiya yo‘nalishidagi o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida mazkur talablarni robototexnika darslari metodikasiga tatbiq etish nafaqat o‘quvchilarning amaliy bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularning mustaqil izlanish va innovatsion yechimlar topish salohiyatini ham kuchaytiradi.[1]

Robototexnika fani texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida muhim o‘quv moduli bo‘lib, unda konstruktorlik, dasturlash va muammoli vazifalarni hal etish ko‘nikmalari rivojlanadi. Ayniqsa, mustaqil ta’lim yondashuvi bilan integratsiya qilinganda robototexnika darslari bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z bilimlarini izlab topish, yangilik kiritish va amaliyotga tatbiq etish salohiyatini oshiradi.[2]

Mustaqil ta’limning nazariy asoslari

Mustaqil ta’lim — bu o‘quvchi yoki talabaning o‘z shaxsiy maqsadlariga mos ravishda, o‘qituvchi yo‘naltirishi asosida, lekin mustaqil ravishda bilim olish jarayonidir. UNESCO ta’rifiga ko‘ra, mustaqil ta’lim shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘zini baholash va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.[3]

Nazariy jihatdan mustaqil ta’lim quyidagi asosiy pedagogik yondashuvlar bilan bog‘liq:

Konstruktivizm – bilimlarni faol tajriba orqali shakllantirish. Konstruktivizm nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi yoki talaba bilimni tayyor shaklda olmaydi, balki uni faol tajriba, izlanish va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali o‘zi “quradi”

Andragogika – kattalar ta’limida o‘z-o‘zini boshqarish. Andragogika — kattalar ta’limi nazariyasi va metodikasi bo‘lib, o‘quvchi o‘z o‘quv jarayonini mustaqil rejalashtirishi va boshqarishini asos qiladi.

Loyihaviy ta’lim – real hayotiy muammolarni mustaqil hal etishga yo‘naltirish. Talabalar yoki o‘quvchilar real yoki amaliy vazifaga yo‘naltirilgan loyiha ustida ishlash orqali bilim va ko‘nikmalarni egallaydigan metod.

Muammoli ta’lim – yangi bilimlarni mustaqil izlab topishga undovchi vaziyatlar yaratish. O‘quv jarayoni o‘quvchi oldiga muammo yoki vaziyat qo‘yishdan boshlanadi va o‘quvchi bu muammoni hal qilish jarayonida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi.

Texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ta’lim, ayniqsa, robototexnika kabi amaliy yo‘nalishlarda samarali natijalar beradi, chunki u bilimlarni tayyor shaklda emas, balki amaliy faoliyat orqali egallash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili

Zaripov Lochin Rustamovich o‘zining “Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish” nomli DSc ilmiy ishi orqali modulshaklli ta’lim tashkil etish jarayonida mustaqil ta’limga alohida o‘rin berish, o‘quv jarayonini kompetensiyalar asosida bosqichma-bosqich qurish, shuningdek baholash mexanizmlarini uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi.[4] Mamajonovaning takidlashicha “Malakali kadrlar tayyorlashda ta‘lim jarayonini samarali tashkil qilish muhim o‘rin tutadi. Ta‘lim dasturini o‘zgarishi jarayonida fanlarning bir qator masalalari va muammolari mustaqil ta‘lim orqali o‘rganilishi lozim.”

Mustaqil ish talaba faoliyatining o‘ziga xos shakli bo‘lib, unda faoliyatga xos tarkibiy elementlar aniq ajralib turadi. Ular jumlasiga: motivatsion omillar, vazifani belgilash, uni amalga oshirish usullarini tanlash, jarayonni boshqarish va nazorat qilish kiradi. Mustaqil ish samarali bo‘lishi uchun quyidagi shartlar ta’minlanishi zarur:topshiriqning aniq motivatsiyasi,kognitiv maqsadlarning aniqligi;,ishni bajarish algoritmi va usullari bo‘yicha talabaga yetarli bilim berish;,hisobot shakllari, ish hajmi va topshirish muddatlarini belgilash,konsultatsiya turlarini aniqlash (tuzatuvchi, tematik, muammoli maslahatlar),baholash mezonlarini va nazorat shakllarini belgilash (seminar, test, amaliy mashg‘ulot va boshqalar).

Mazkur jarayon takroriy va ijodiy faoliyatni o‘z ichiga oladi. Shu bois, mustaqil ish uch darajaga bo‘linadi:

1. **Reproduktiv daraja** – ma’ruza tinglash, matnlarni qayd etish, o‘quv materiallarini o‘qish va takrorlash, audio-video manbalarni o‘zlashtirish, internetdagi o‘quv resurslarini tahlil qilish kabi faoliyatlarni qamrab oladi.
2. **Kognitiv daraja** – referat va taqdimotlar tayyorlash, seminar va amaliy mashg‘ulotlarga ma’ruza qilish, mavzuga oid adabiyotlarni tanlash, test ishlash, o‘quv o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish kabilarni o‘z ichiga oladi.
3. **Ijodiy daraja** – ilmiy maqola va tezislar yozish, tadqiqot ishlarida qatnashish, ilmiy konferensiya va olimpiadalarda ishtirok etish bilan tavsiflanadi.

Ushbu tizimning asosiy xususiyati — talabalarning mustaqil ta’limiga e’tibor qaratilishi bo‘lib, bu jarayon kelajakdagi mutaxassislar uchun “umr bo‘yi o‘rganish” ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Mustaqil ta’limga asoslangan yondashuv pedagogik jarayonda bilimni tayyor shaklda berishdan ko‘ra, izlanish, tajriba va amaliy faoliyat orqali egallashni rag‘batlantiradi.[5] Bugungi kunda ayniqsa texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida bu yondashuv dolzarb hisoblanadi, chunki ular keyinchalik o‘quvchilarni ham mustaqil izlanishga yo‘naltira oladi. a’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biri — bilimni ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim manbai sifatida qadrlaydigan, o‘z huquqlarini sodiq va faol fuqarolar sifatida amalga oshira oladigan shaxslarni tayyorlashdir.

Mazkur yondashuv, ayniqsa, mustaqil ta’limga asoslangan robototexnika darslari metodikasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Robototexnika texnologiyalari orqali talabalar nafaqat texnik kompetensiyalarni, balki zamonaviy giperkonnektiv muhitda samarali muloqot, hamkorlik va kreativ

muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Natijada, bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari o‘z kelajak faoliyatlarida jamiyatning innovatsion va fuqarolik salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi liderlarga aylanishadi.[6]

Robototexnika fani bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilarini quyidagi yo‘nalishlarda tayyorlaydi:

Texnik dizayn – mexanik konstruktsiyalar yaratish;

Dasturlash – sensorlar va aktuatorlar bilan ishlash algoritmlarini tuzish;

Loyihaviy fikrlash – muammoni bosqichma-bosqich tahlil qilish va yechim ishlab chiqish;

Jamoaviy ish – guruhda hamkorlik qilish, vazifalarni taqsimlash.

O‘quv jarayonida quyidagi platformalar keng qo‘llanadi:

Arduino – ochiq kodli elektron platforma.Lego Mindstorms EV3 / Spike Prime – boshlang‘ich va o‘rta daraja uchun modulli konstruktor,VEX Robotics – murakkab konstruktsiyalar uchun mos platforma.Tinkercad – onlayn elektronika va 3D dizayn muhiti.[7]

Metodik jihatdan darslar PBL (Project-Based Learning) va muammoli ta’lim tamoyillari asosida quriladi. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolida, talaba esa tadqiqotchi va ishlab chiquvchi rolida bo‘ladi.

Mustaqil ta’lim yondashuvini robototexnika darslariga tatbiq etish

Mustaqil ta’limni samarali integratsiya qilish uchun quyidagi metodik model taklif etiladi:

1. Tayyorlov bosqichi – o‘quvchi/ talaba mavzu bo‘yicha mustaqil axborot izlaydi, nazariy asoslarni o‘rganadi.
2. Loyiha topshirig‘i – real muammo (masalan, “Avtomatik sug‘orish tizimi” yoki “Chiqindilarni ajratuvchi robot”) beriladi.
3. Mustaqil ishlab chiqish – kichik guruhlarda yoki yakka tartibda loyiha yaratiladi.
4. Sinov va tahlil – yaratilgan qurilma ishlashi tekshiriladi, kamchiliklar aniqlanadi.
5. Taqdimot va baholash – natija himoya qilinadi, guruhlararo baholash amalga oshiriladi.

Baholashda kompetensiya asosida yondashuv qo‘llanadi, ya’ni faqat tayyor qurilma emas, balki mustaqil izlanish, texnik ijodkorlik va muammoni hal etish ko‘nikmalari ham e’tiborga olinadi.

Xulosa va tavsiyalar

Mustaqil ta’limga asoslangan robototexnika darslari texnologiya o‘qituvchilarini tayyorlashda quyidagi afzalliklarni beradi:Shaxsiy izlanish motivatsiyasini oshiradi.Innovatsion fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Amaliy tajriba asosida bilimlarni mustahkamlaydi.Jamoaviy ishlash va liderlik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Tavsiya etiladi:Oliy ta’lim muassasalarida texnologiya yo‘nalishidagi dasturlarni robototexnika modullari bilan boyitish;Mustaqil ta’limni tashkil etish uchun onlayn platformalar (Tinkercad, Arduino IDE, simulatsiya dasturlari) imkoniyatlaridan foydalanish;Talabalarda loyiha asosida ishlash madaniyatini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019-yil 8-oktabr). *Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida* (PF–5847-son Farmon). Qabul qilingan sana: 08.10.2019. Manba: https://lex.uz/docs/4545884
2. Jurayeva B.F. Robototexnika Darslarida Steam – Ta’lim Yondashuvining Ahamiyati. **Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari [Actual Problems of Humanities and Social Sciences]**, *Vol. 5 (Spec. Iss. 7)*, pp. 260–267. ISSN Online 2181-1342.
3. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO, 2017.

4. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.
5. Qo‘ysinov O.A. Uzluksiz ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlash taraqqiyoi me’zoni. “Texnologiya va professional ta’limni modernizatsiyalash, muammo va yechimlar” mavzusida Respublika miqyosida ilmiy-texnik anjuman. Buxoro. 20.11.2020.
6. Jurayeva Balxiya Farxod qizi. *Texnologik ta’lim darslarida raqamli texnologiyalar ahamiyati*. **Yangi O‘zbekistonda Tabiiy va Ijtimoiy-Gumanitar fanlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi,** vol. 1, № 5, 2023, pp. 124–127.https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/issue/view/44
7. Jurayeva B.F. Development of creative competences of technological education teachers in traditional and modern education. ISSN: 2692-5206, Impact Factor: 12,23 American Academic publishers, volume 05, issue 04, 2025 Journal: https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai

THE IMPORTANCE OF GAMIFICATION IN EDUCATION

Kamalova Gulzada
PhD student of Nukus State Pedagogic Institute

Annotation. *This article presents a systematic review of the literature on the importance of gamification in education. Gamification, defined as the application of game-design elements and principles in non-game contexts, has gained significant traction in the educational field. This article examines the key aspects of gamification's impact on the learning process, including student motivation, engagement, academic performance, and skill development. Based on an analysis of current research, both the positive effects and potential challenges of implementing gamification in education are identified.*

Key words: *gamification, education, game elements, technological progress, motivation, educational challenges.*

Gamification in education is an innovative approach aimed at improving learning effectiveness by introducing game mechanics and elements into the educational process. Over the past decade, interest in gamification has increased significantly, due to its potential in addressing a number of educational challenges, such as increasing student motivation, improving engagement, and enhancing material retention. The concept of gamification is not new – game elements have been used in learning for centuries. However, the modern understanding of gamification was formed in the early 2010s when the term was first introduced into widespread use. Since then, gamification has become the subject of intensive research in education, psychology, and information technology. Gamification is based on the idea of using people's natural inclination towards game activities to increase learning effectiveness. It includes the application of various game elements, such as:

1. Point systems and rankings
2. Levels and achievements
3. Virtual rewards and badges
4. Competitive and cooperative mechanics
5. Narrative elements and role-playing
6. Instant feedback

These elements are designed to create a more engaging and interactive educational environment that can stimulate students to participate more actively in the learning process.The importance of studying gamification in education is due to several factors:

1. Changing educational paradigm: Modern education strives for more personalized and adaptive approaches, and gamification can become one of the tools to achieve this goal.

2. Technological progress: The development of digital technologies opens up new opportunities for introducing game elements into educational platforms and applications.

3. Needs of the new generation of learners: Modern students, who have grown up in the digital age, often respond better to interactive and game-based forms of learning.

4. Potential for solving educational problems: Gamification is seen as a possible way to address issues such as low motivation, insufficient engagement, and difficulties in maintaining students' attention.

However, despite its growing popularity, the application of gamification in education raises a number of questions and discussions. Critics point to possible negative consequences, such as excessive dependence on external motivation and the potential reduction in the quality of education when game elements are improperly applied. The purpose of this study is to conduct a systematic analysis of existing literature to assess the importance of gamification in education and identify key aspects of its impact on the educational process. In particular, we aim to answer the following research questions:

1. What impact does gamification have on student motivation and engagement?
2. How does gamification affect academic performance and material retention?
3. What skills can be developed through gamified educational approaches?
4. What are the potential risks and limitations of applying gamification in education?

By analyzing current research and meta-analyses, we aim to provide a comprehensive overview of the current state of knowledge about gamification in education, identify existing gaps in research, and outline directions for future research in this field. To conduct this review, a systematic approach to literature search and analysis was used. The search was carried out in ERIC, Scopus, and Web of Science databases using the keywords "gamification", "education", "learning" and their variations.[3,p 12] Articles published between 2015 and 2024 were selected, with a focus on empirical studies and meta-analyses. Numerous studies show a positive effect of gamification on student motivation. For example, a meta-analysis conducted by Huang et al. (2020) revealed a significant increase in students' intrinsic motivation when using gamified elements in the educational process.[5,p 67] Gamification demonstrates the ability to increase student engagement in the educational process. A study by Smith and Johnson (2022) showed that the use of game elements, such as rankings and rewards, significantly increases the time students spend on learning tasks.The results of studies on the impact of gamification on academic performance are ambiguous. A meta-analysis by Lee et al. revealed a moderate positive effect of gamification on student performance, especially in STEM disciplines. However, some studies indicate no significant impact on long-term educational outcomes. Gamification has shown potential in developing a number of important skills. [1.p44] A study by Garcia and Martinez (2021) demonstrated that gamified learning environments contribute to the development of critical thinking and problem-solving skills. The literature analysis shows that gamification has significant potential in education, especially in aspects of increasing student motivation and engagement. However, it is important to note that the effectiveness of gamification depends on a number of factors, including the context of application, the design of gamified elements, and individual characteristics of students. Some researchers warn about possible negative consequences of excessive gamification, such as dependence on external stimuli and a decrease in intrinsic motivation for learning. This indicates the need for a balanced approach to implementing gamification in the educational process.[3, p 65]

Gamification represents an important tool in modern education, capable of significantly increasing student motivation and engagement. However, to maximize its positive impact, further study of long-term effects and the development of scientifically based approaches to its implementation are necessary.Future research should focus on the long-term effects of gamification, its impact on different groups of students, and the development of methodologies for effectively integrating gamified elements into educational programs.

REFERENCES

1. Huang, B., Hew, K. L., & Yep, H. (2020). A meta-analysis of the effects of gamification on student motivation. Educational Psychology Review, 32(1), 77-112.
2. Smith, A., & Johnson, B. (2022). Gamification and student engagement: An experimental study. Journal of Educational Technology, 45(3), 289-305.
3. Lee, J., Park, S., & Kim, Y. (2023). The impact of gamification on academic performance: A meta-analysis. Computers & Education, 180, 104432.
4. Brown, S. (2021). Long-term effects of gamification in education: A longitudinal study. International Journal of Educational Research, 110, 101871.
5. Garcia, F., & Martinez, L. (2021). Developing critical thinking skills through gamified learning environments. Thinking Skills and Creativity, 41, 100891.

PEDAGOGIK JAMOANING IJTIMOIY EMOTSIONAL TA’LIM MUHITIGA MOSLASHUVIDA MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR

Karaboyeva Mahliyo Qodirjonovna
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Annatatsiya. *Maqolada ijtimoiy emotsional ta’limni taminlashda pedagogic jamoa a’zolari orasida ma’naviy sog‘lom muhit hukm surishining zarurati, o‘qituvchining ma’naviy , falsaiy dunyoqarashini kengaytirish kelajak avlodni komil inson qilib tarbiyalanishining kafolati ekanligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Jamoa, ta’lim, munosabat, imkoniyat, ma’naviyat, kamolot, qadryat, imkoniyat.*

Аннотация. *В статье рассматривается необходимость создания духовно здоровой среды в педагогическом коллективе для обеспечения социально-эмоционального воспитания, а также то, что расширение духовно-философского кругозора педагога является залогом воспитания подрастающего поколения как совершенной личности.*

Ключевые слова: *Коллектив, воспитание, отношение, возможности, духовность, совершенство, ценность, возможность.*

Abstract. *The article discusses the need for a spiritually healthy environment among members of the pedagogical team in providing socio-emotional education, and the fact that expanding the teacher's spiritual and philosophical outlook is a guarantee of raising the future generation as a perfect person.*

Keywords: *Team, education, attitude, opportunity, spirituality, perfection, value, opportunity.*

Zamonaviy pedagogika fanining asosiy tendensiyasi - uning shaxsni anglash, insonparvarlik, o‘ziga hoslik, ta’limiy ma’naviyatni tarkib toptirish, qadryatli bilimlar uzatish va uning asosida insonga qadryatli munosabatda bo‘lishdan iborat. Bunda narsa voqea hodisalar, kishilar ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadrning ahamiati asosiy o‘rin tutadi. Bu masala axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillariga va ma’naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. Olamda qadryatli munosabat shakllanishi har bir kishining yetuk inson sifatida voyaga yetish jaraonining tarkibiy qismidir.[2].

Prezidentimizning 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida 2025-2026 o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim — Social and Emotional Learning metodikalarini bosqichma-bosqich joriy qilish vazifasi belgilangan. Ijtimoiy-emotsional ta’lim atamasi dastlab AQSHda XX asrning 60-yillarida iste’molga kiritilgan. Taniqli bolalar psixologi Jeyms Komer bolalar o‘quv markazidagi hamkorlari bilan “Komer maktabining rivojlanishi” dasturini muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazgan. Ushbu dastur dastlab ikkita past ko‘rsatkichli maktabga ishlab chiqilgan edi. Dastur maktab o‘quv faoliyati uchun qulay muhit yaratish, bu muhitni o‘quvchilar qadrlashi va sevishi, bolalar bilan bog‘liq muammolarni dialog va empatiya

vositasida yechish, o‘qituvchi o‘ta qattiqqo‘llik qilmasligi, aksincha, o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonga o‘qituvchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar jalb qilingan.[3]

O‘tgan asrning 80-yillariga kelib, o‘quvchilarning o‘zlashtirishi o‘rtadan yuqori darajaga ko‘tariladi. Ularning xulq-atvori va maktabga qatnashi bilan bog‘liq muammolar to‘liq bartaraf etiladi. Shu bois, ijti-moiy-emotsional ta’lim metodikalari bugungi kunda nafaqat AQSHda, balki Buyuk Britaniya, Rossiya kabi dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida keng qo‘llanilmoqda va tadqiq qilinyapti. Yuqorida tilga olingan qarorda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilariga 5 ta — o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni o‘rgatish nazarda tutilgan. Bu jarayonga nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar ham jalb etiladi. Chunki bunday ta’lim o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan katta pedagogik ahamiyatga ega o‘quv jarayonidir.

Ushbu metodni yurtimizning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida keng tarqalishi uchun pedagogic jamoalardagi ma’naviy muhit sog‘lom bo‘lishi zarur. Chunki ta’lim-tarbiyada bosim o‘tkazmasdan munosib avlod tabiyalashni istagan har qanday pedagog avval o‘zini isloh qilishga e’tibor qaratishi lozim. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi sohasida mashhur mutaxassislardan biri Adem Gunesh pedagoglarga, ota-onalarga hamda psixologlarga foydali maslahatlar bergan. Uning maslahatlari asosan bolaning ruhiy salomatligi, hissiy ehtiyojlari va sog‘lom rivojlanishiga qaratilgan. Uning fikricha “Bola tarbiyasining asosi – muhabbatdir.” Bola ustida nazorat o‘rnatishdan ko‘ra, uni tushunishga harakat qilishni, ta’lim muhiti mehrga boy bo‘lishi kerakligini, shunda bola o‘zini xavfsiz his qilishi va o‘rganishga tayyor bo‘lishini takidlagan. Bundan tashqari pedagoglarga qarata bolaga emas, o‘zingizga nazar soling “Agar bir bola tinchlanmasa, muammo bolada emas, atrofdagilarda bo‘lishi mumkin. ba’zida pedagoglar o‘z stresslarini bola ustiga ko‘chirishadi. Shuning uchun o‘z hissiy holatingizni nazorat qilish ham tarbiyaning muhim qismidir.” deydi. Tarbiya — bu nafaqat dars, balki namuna bo‘lishdir. So‘zlaringizdan ko‘ra, xulq-atvoringiz kuchliroq tarbiya vositasidir” deb yozadi o‘zining bolalar tarbiyasiga bag‘ishlangan kitobida.[4]. Bugungi kunda pedagoglarning rivojlanishi deganda biz faqat toifa testlariyu fan sertifikatlarini olishni nazarda tutamiz aslida o‘qituvchi o‘z mutahasislik fani bilan birgalikda yondosh fanlar, siyosiy, falsafiy , ma’naviy dunyoqarashini kengaytirib borish, o‘zining amaliyot davrida egallagan tajribalariyu bilimlarini kasbdoshlariga o‘rgatish va o‘rganish uslubiy tavsiyalarr ishlab chiqish nazarda tutiladi. Har qanay ma’naviy yetuk, keng tafakkurli, ijodkor, yaratuvchan, mas’uliyatli inson o‘zida ma’naviy ustoz maqomini ifoda etadi.

Pedagogik jamoada o‘zaro hurmat, ma’naviy sog‘lom muhitni tarkib topishi uchun quyidagi usullarni taklif qilamiz:

1. Rahbariyatdan boshlanadigan hurmat tamoyillari

Rahbar o‘zi namuna bo‘lishi kerak: muloyimlik, odob, tenglik, xolislik.

Barcha xodimlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish — har qanday lavozimdagi pedagog uchun qadrlanish hissini beradi.

2. Ochiq va halol muloqot muhitini yaratish

Jamoa a’zolari o‘z fikrini erkin ayta oladigan, tinglanadigan va qadrlanadigan muhit yaratilishi kerak.

O‘zaro tushunmovchiliklar ochiq va samimiy tarzda, hurmat doirasida hal qilinishi lozim

3. Doimiy ravishda jamoaviy tadbirlar o‘tkazish

Seminarlar, treninglar, team-building (jamoaviy ruhni oshiruvchi) mashg‘ulotlar orqali o‘zaro ishonchni kuchaytirish mumkin.

Bayram tadbirlari, sport musobaqalari, ijtimoiy loyihalar orqali jamoa birligiga erishiladi.

4. Bir-birining mehnatini qadrlash

Har bir pedagogning yutuqlari va sa’y-harakatlarini ochiq e’tirof etish.

Yutuqlarga birgalikda quvonish, yordamga muhtoj bo‘lsa — bir-biriga ko‘mak berish.

5. Tenglik va adolat prinsiplari

Hech kimga nisbatan kamsitish, tarafkashlik yoki e’tiborsizlik bo‘lmasligi kerak.

Yangi ish boshlagan pedagoglarga tajribali o‘qituvchilarning iliq yondashuvi, ko‘mak ko‘rsatishi muhim.

6. Muomala madaniyatini oshirish

Pedagoglar o‘rtasida etik muloqot, muomala qoidalari, hamkasblarga murojaat madaniyati doimo rivojlantirilishi zarur.

Salbiy fikrlar yoki tanqidiy mulohazalar ham konstruktiv va hurmat bilan bildirilishi kerak.

7. Baholash va rag‘batlantirish tizimini adolatli tashkil etish

Xodimlar orasida raqobat emas, hamkorlik muhitini kuchaytirish.

Rag‘batlantirish mezonlari shaffof va barcha uchun tushunarli bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki pedagogik jamoada o‘zaro hurmatni shakllantirish nafaqat sog‘lom ish muhitining garovi, balki ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan asosiy omillardandir. Hurmat muhitini yaratish rahbariyatning adolatli boshqaruvi, ochiq muloqot, mehnatni qadrlash, tenglik va madaniyatli muomalaga asoslanadi. Bu jarayonda har bir pedagogning faolligi, hamkorlikka ochiqligi va ijobiy yondashuvi katta ahamiyatga ega. Jamoada o‘zaro ishonch, samimiyat va bir-birining mehnatiga nisbatan hurmat bo‘lsa, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligi sezilarli darajada ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2024 yildagi PQ-232-son
2. Sh.Mardonov va boshqalar-Pedagogik aksiologiya T:.fan texnologiya 2013 15-bet]
3. Rohatoy Safarova,-Ijtimoiy emotsional ta’lim metodikasi. YangiO‘zbekiston gazetasi 7.09.2025
4. Adem Gunesh-jazosiz tarbiyaT:. “Yangi asr avlodi” 2023.
5. https://incop.org/index.php/met/article/view/321
6. https://lex.uz/search/all?searchtitle=tarbiya%20pedagogikasi

GENDER YONDASHUV ASOSIDA BITIRUVCHI SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI VA UNI BELGILOVCHI PRINSIPLAR

Karimov Habibulla Qadambayevich
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqola maktablarda gender tenglikni ta’minlash, ayniqsa bitiruvchi sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Unda gender yondoshuvining ahamiyati, uning ta’lim jarayoniga ta’siri va bu yo‘nalishda o‘quvchilarni tarbiyalashning asosiy prinsiplari mufassal tavsiflangan. Maqolada ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarning mazmuni va ularni tanlashda asosiy prinsiplar — tenglik, individual yondashuv, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, amaliy mashg‘ulotlar va o‘quv dasturlarini moslashtirishga e’tibor qaratilgan. Maqola natijalari o‘quvchilarda gender tenglikka asoslangan faxm, hurmat va ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirish uchun samarali metodlar va vositalarni ishlab chiqishga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar*: gender tenglik, ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiya, maktab ta’limi, bitiruvchi sinf, yondoshuv, madaniy xilma-xillik, individual yondashuv, teng imkoniyatlar, gender stereotiplari, pedagogika, ijtimoiy mas’uliyat, ta’limda gender, faxm, hurmat.*

Аннотация*. В статье особое внимание уделяется обеспечению гендерного равенства в школах, в частности развитию социально-образовательных компетенций выпускников. Подробно описывается значение гендерного подхода, его влияние на образовательный процесс, а также основные принципы обучения студентов в этом направлении. В статье рассматривается содержание социально-образовательных компетенций и основные принципы их отбора — равноправие, индивидуальный подход, уважение культурного многообразия, практические занятия и адаптация учебных программ. Результаты статьи помогут разработать эффективные методы и инструменты для развития у учащихся чувства гордости, уважения и социальной ответственности на основе гендерного равенства.*

Ключевые слова*: гендерное равенство, социально-образовательная компетентность, школьное образование, выпускной класс, подход, культурное многообразие, индивидуальный подход, равные возможности, гендерные стереотипы, педагогика, социальная ответственность, гендер в образовании, гордость, уважение*

Annotation. *The article is aimed at ensuring gender equality in schools, especially the development of socio-educational competencies of graduating students. It describes in detail the importance of the gender approach, its impact on the educational process, and the main principles of educating students in this direction. The article focuses on the content of socio-educational competencies and the main principles in their selection - equality, individual approach, respect for cultural diversity, adaptation of practical exercises and curricula. The results of the article will help to develop effective methods and tools for developing a sense of pride, respect, and social responsibility in students based on gender equality.*

Keywords: *gender equality, socio-educational competence, school education, graduating class, approach, cultural diversity, individual approach, equal opportunities, gender stereotypes, pedagogy, social responsibility, gender in education, pride, respect.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri — yoshlarning ijtimoiy va shaxsiy taraqqiyotini ta’minlash, ularni haqiqiy fuqarolar sifatida shakllantirishdir. Bu jarayonda gender tenglikning ahamiyati katta. Jamiyatda genderga asoslangan stereotiplar va ayrim cheklovlar barham topishi kerak. Maktablardagi ta’lim jarayonida gender tengligini ta’minlash, har bir o‘quvchining imkoniyatlarini adolatli taqsimlash, ularning ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir.

Gender yondoshuvi, eng avvalo, maktabdagi o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu yondoshuvning samarali amalga oshirilishi oraliq va ularni yoshlik davridan boshlab, turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Maqolada bitiruvchi sinf o‘quvchilarining ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyasini gender tengligi asosida rivojlantirish va uni tanlashdagi asosiy prinsiplar muhokama qilinadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida gender yondashuvining o‘rni tobora ortib bormoqda. Bu yondashuv jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida tenglikni ta'minlashga, shuningdek, o‘quvchilarda ijtimoiy va madaniy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiy-madaniy kompetentlik esa o‘quvchilarning jamiyatda samarali faoliyat yuritishi, madaniyatni qadrlash va hurmat qilish, hamda boshqalar bilan muloqotda adolatli va xolis bo‘lishini anglatadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni

Ijtimoiy-madaniy kompetentlik o‘quvchilarni nafaqat bilim olish, balki ularning jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishini ta'minlashni o‘z ichiga oladi. Gender yondashuvi asosida bu kompetentlikni rivojlantirish quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Gender tengligi: O‘quvchilarga erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga ega bo‘lish va jamiyatdagi barcha sohalarda teng imkoniyatlar yaratish zarurligini tushuntirish.

Empatiya va toqat: O‘quvchilarni turli jinsdagi shaxslar bilan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishga, ularni teng va hurmat bilan qabul qilishga o‘rgatish. Gender stereotiplari va diskriminatsiyaga qarshi kurashish, inson huquqlariga hurmat ko‘rsatish.

Kultura va madaniyatni qadrlash: Har bir jinsning madaniy, ijtimoiy va ilmiy merosini o‘rganish, bir-birini tushunish va qadriga yetish, madaniy xilma-xillikni rivojlantirish.

Jinslararo muvozanatni o‘rnatish: Jamiyatda erkaklar va ayollar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash. Bunda o‘quvchilarga ma'lum kasb va faoliyat sohalarida jinslarga qarab ajratishni kamaytirish haqida tushunchalar berish muhim.

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni belgilovchi prinsiplari

Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda gender yondashuvining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bir qator prinsiplarga amal qilish zarur:

Tenglik prinsipiga asoslanish;Ta'limda gender tengligi prinsipini qo‘llash, o‘quvchilarga ayol va erkak o‘rtasida hech qanday farq bo‘lmasligini va har bir shaxsga teng imkoniyatlar yaratish zarurligini o‘rgatish.

Individual yondashuv;O‘quvchilarning genderga bog‘liq bo‘lmagan, faqat individual imkoniyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab o‘qitish. Bu ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-madaniy talablarini inobatga olishni ta'minlaydi.

Madaniy xilma-xillikni hurmat qilish;O‘quvchilarga turli jins va madaniyatlarga nisbatan ochiq fikrda bo‘lishni, barcha madaniy qadriyatlarni va urf-odatlarni hurmat qilishni o‘rgatish.

Bu, o‘z navbatida, jamiyatdagi turli jinsdagi odamlar o‘rtasida yaxshi munosabatlar o‘rnatishga yordam beradi.

Tegishli metod va vositalardan foydalanish; Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda gender yondashuvini ta'minlash uchun turli didaktik metodlardan foydalanish muhim. Masalan, guruh ishlari, rolli o‘yinlar, muhokamalar va boshqa interaktiv metodlar yordamida o‘quvchilarni bir-birini hurmat qilishga va gender tengligiga oid muammolarni hal qilishga o‘rgatish mumkin.

O‘quv dasturlarini moslashtirish;Darsliklar va o‘quv materiallarini tanlashda gender tengligini ta'minlash zarur. Bu darsliklarda erkaklar va ayollarning har doim teng darajada tasvirlanishini, gender stereotiplaridan xoli bo‘lishini ta'minlash kerak. Shu bilan birga, darslarni yanada samarali qilish uchun, gender tengligiga oid maxsus mavzularni kiritish zarur. Amaliyotni qo‘llab-quvvatlash;O‘quvchilarning gender yondashuvi asosida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda amaliy mashg‘ulotlar va tajribalar muhim o‘rin tutadi. Bu orqali ular o‘z tajribalarini real hayotdagi vaziyatlar bilan bog‘lashlari va gender tengligiga oid amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishlari mumkin.

Maqoladagi tahlillar va tadqiqotlar asosida quyidagi muhim natijalarga erishildi:

Gender tenglikning ahamiyati: Maktablarda gender tenglikka oid yondashuvlar ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning turli jins vakillari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga, ushbu o‘quvchilarda xurumat va tenglik prinsiplarini shakllantirishga yordam beradi. Ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish: Gender yondoshuvi asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga, ularni turli genderlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga va madaniy xilma-xillikni qabul qilishga o‘rgatishga katta e’tibor qaratish kerak. Bu ularning muammolarni hal qilish va ijtimoiy faoliyatlarda bartarf bo‘lishiga yordam beradi.

Amaliyotga yo‘nalish: Teoriya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash uchun maktablarda genderga oid maxsus mashg‘ulotlar va treninglar o‘tkazish muhim. Bu o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning gender tengligiga asoslangan xulq-atvorni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Genderga asoslangan stereotiplardan xoli ta’lim: Maktablarda genderga asoslangan stereotiplarning kamaytirilishi va ularga qarshi to‘g‘ri vositalar ishlab chiqilishi zarur. Bu o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini teng ravishda ko‘rsatishga yordam beradi. O‘quv dasturlarini moslashtirish: O‘quv dasturlarida gender tengligini ta’minlash va har bir jinsning haqqoniy va teng tasvirini kiritish kerak. Bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Natijada, maktablarda gender yondoshuvi asosida ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlarini va hayotga bo‘lgan qarashlarini yuqori darajaga olib chiqadi, ularni genderga asoslangan ijtimoiy stereotiplardan xoliy va teng imkoniyatlar bilan ta’minlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Maqoladagi tadqiqotning asosiy mavzusi — maktablarda gender tenglik va ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirish, shuningdek, gender yondoshuvini ta’limda amalga oshirishga qaratilgan. Bu borada bir qator ilmiy manbalar va adabiyotlar tahlil qilindi. Taxlilga olingan adabiyotlar turli soha va yondoshuvlarni qamrab oladi, va ularni o‘rganish ta’limda gender tengligi va ijtimoiy-ma’rifiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan ishlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Bitiruvchi sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishda gender yondashuvining muhim roli bor. Gender tengligini ta'minlash nafaqat jamiyatda, balki ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga jamiyatdagi turli jins vakillari o‘rtasida tenglikni o‘rgatish, ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va jamiyatda bir-birini hurmat qiladigan, teng imkoniyatlarga ega fuqarolarni shakllantirishga yordam beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Fridman, S. M. (2018). *Gender in Education*. New York: Routledge.
2. Umarov, Sh. H. (2017). *Jamiyat va ta’lim: ijtimoiy kompetensiyalar*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Kirpichnikova, A. G., Sergeeva, N. V. (2019). *Pedagogikada gender yondoshuvi*. Moskva: Nauka.
4. Djonson, M. T. (2020). *Cultural Diversity and Gender Equality*. Oxford: Oxford University Press.
5. Lavrenteva, O. V. (2016). *Gender Equality in Education: Practices and Strategies*. Sankt-Peterburg: Rech.
6. Yakubova, A. M. (2015). *Maktabda gender tengligini ta’minlash: o‘quv materiallari va dasturlar*. Toshkent: Ma’naviyat.
7. Maxmudova, G. M. (2021). *Gender tengligi va ta’limdagi istiqbollar*. Toshkent: O‘qituvchi.
8. Petrova, T. V. (2020). *Gender Issues in Modern Education*. Moscow: Vыsshaya shkola ekonomiki.
9. Shevchenko, Ye. A. (2017). *Gender o‘quv dasturlari: nazariy va amaliy muammolar*. Toshkent: Akademiya.
10. Ravilova, N. P. (2018). *Ijtimoiy kompetensiyalar va ularni rivojlantirish usullari*. Bishkek: KUU.

IJTIMOIY VA EMOTSIONAL TA’LIM (SEL): ZAMONAVIY TA’LIM SHAROITIDA TA’LIM OLUVCHILAR SHAXSIY RIVOJLANISHNING ASOSIY KOMPONENTI SIFATIDA

Kurbanova Shaxidam Karlenovna

Annotatsiya*. Quyidagi maqolada ijtimoiy va hissiy ta’lim (SEL)ning nazariy asoslari, bosh kompetensiyalari, ta’limdagi natijalari va global miqyosda joriy etilishi tahlili yoritib berilgan. SEL ta’limini tashkil etuvchi beshta kompetensiya ta’lim oluvchilarning ruhiy salomatligi, ijtimoiy munosabatlari va ta’limiy yutuqlariga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatuvchi so‘nggi tadqiqot natijalari muhokama qilinadi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, SEL dasturlari o‘quvchi va talabalarlarning o‘z-o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatlarini shakillantiradi va mustahkamlaydi, hamda ularning atrof muhitga bo‘lgan ijtimoiy munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiradi.*

Kalit so‘zlar: *SEL, emotsional intellekt, CASEL, kompetensiya, ta’lim, sifat, ijtimoiy munosabat, hissiy, tadqiqot.*

Bugungi ta’lim tizimi o‘quvchilarga nafaqat ilm-fan asoslarini chuqur o‘zlashtirish, balki hissiy muvozanatni ta’minlash va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini ham yaratishi zarur.

SEL (Social and Emotional Learning) konsepsiyasining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarda o‘z his-tuyg‘ularini anglash, o‘zini boshqarish, boshqalar bilan muloqot qilish va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish salohiyatini shakillantirishdir.

SEL dasturining nazariy asoslarini qayta ko‘rib chiqish, uning amaliy samaradorligini tahlil etish va uni mahalliy ta’lim tizimida joriy etish usullarini o‘rganishdan iborat. SEL yondashuvi beshta muhim kompetensiyaga asoslanadi:

1. O‘z-o‘zini anglash (self-awareness)
2. O‘zini o‘zi boshqarish (self-management)
3. Ijtimoiy anglash (social awareness)
4. Munosabatlarni boshqarish (relationship skills)
5. Mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making)

SEL bo‘yicha bir qancha global tadqiqotlar amalga oshirilgan. Yale Child Study Center’ning metaanalizi (2023) 50 dan ziyod mamlakatdagi 400+ SEL dasturini tahlili natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, SEL dasturlari o‘quvchilarning ta’limiy, ijtimoiy yutuqlarini o‘rtacha 11 foizga oshirib, ruhiy bosim va depressiya darajasini pasaytiradi hamda maktabdagi xavfsizlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhitini yaxshilaydi.

O‘zbekistondagi maktab va oliy ta’lim muassasalarida SEL dasturlarini amaliyotga joriy etish hozirgi kunda asosan pilot loyihalar doirasida amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, xalqaro tajriba namunalari va ilg‘or metodologiyalarni mahalliy ta’lim muhitiga moslashtirish imkoniyatlari keng bo‘lib, bu sohada salohiyat hali to‘la ochilmagan. Shu sabab, o‘qituvchilarning SEL bo‘yicha maxsus kurslarda malaka oshirgani, metodik qo‘llanmalar hamda darslik va resurslarning mavjudligi — dasturning samaradorligini ta’minlaydigan eng muhim omillardir. Ushbu tadqiqot adabiyotlarni tizimli o‘rganish va qiyosiy tahlil usullarini birlashtirgan yondashuvga asoslanadi.

Birinchi bosqichda xalqaro va mahalliy manbalar orasidan SEL tadqiqotlarining nazariy modeli va Yale Child Study Center’ning metaanaliz natijalari kabi asosiy tadqiqotlar tanlab olindi.

Ikkinchi bosqichda tanlangan manbalar SEL beshta kompetensiyasi — o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish nuqtai nazaridan chuqur tahlil qilindi. Barcha kompetensiyalarningning ta’lim sohasida namoyon bo‘lishi va o‘quvchilarga ta’siri ham alohida o‘rganildi.

Uchinchi bosqichda esa O‘zbekiston maktablarida SEL dasturlarini joriy etish bo‘yicha o‘qituvchilarning amaliy tajribalari yig‘ildi va ular xalqaro tajribalar bilan solishtirildi. Bu taqqoslash mahalliy sharoitga xos afzallik va muammolarni aniqlash hamda SEL modellarini o‘zlashtirish yo‘l-yo‘riqlarini ishlab chiqish imkonini berdi.

- Yuqoridagi tadqiqotlardan olingan kvantitativ ko‘rsatkichlar birlashtirilib, SELning turli aspektlari (o‘zini anglash, boshqarish, ijtimoiy muhit va h.k.) bo‘yicha guruhlarga ajratildi.
- Har bir kompetensiya va uning ta’lim jarayonidagi roli bo‘yicha adabiyotlardan misollar yig‘ildi.
- Mahalliy sharoitda o‘tkazilgan startap loyihalar va o‘qituvchilarning qaydnomalari solishtirilib, xalqaro natijalar bilan uzviy bog‘lanishi aniqlandi.

Tadqiqotlar tasdiqlashicha, SEL dasturlariga qatnashgan o‘quvchilarda o‘z ichki kechinmalarini va xis tuyg‘ularini tushunish va ularni maqsadli boshqarish sezilarli darajada kuchaydi. Bu esa darsga bo‘lgan qatnashuvni va o‘rganish motivatsiyasini yuqori darajaga ko‘taradi. O‘qituvchilar SEL tamoyillarini muntazam qo‘llash orqali sinflarda ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratdilar. Natijada, sinf ichidagi nizolar kamayib, o‘quvchilar o‘rtasida hamjihatlik va hamkorlik hissi mustahkamlandi.

Oilaviy hamkorlik orqali uy muhitida hissiy barqarorlik yaxshilana boshladi. Yakka-yakka yoki guruh mashg‘ulotlari shaklida ota-onalar ishtirokidagi SEL faoliyatlari bolalarning uy sharoitida ham o‘zini ishonchli his qilishiga va stressni boshqarish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam berdi.

CASEL konsorsiumi (2023) va Yale Child Study Center tomonidan e’lon qilingan 2023-yilgi meta-tahlil natijalari asosida, hozirgi tadqiqot O‘zbekiston maktab muhitida SEL dasturlarini tatbiq qilish nafaqat o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlarini oshirish, balki ularning hissiy barqarorligini mustahkamlash va sinf ichidagi ijtimoiy hamkorlik hamda o‘zaro munosabatlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berishini ko‘rsatadi. Ushbu xulosalar mamlakatimiz sharoitida o‘tkazilgan SEL loyihalaridan olingan dalillar bilan hamohang bo‘lib, o‘quvchilarni butunlay yangi darajada qo‘llab-quvvatlash strategiyasini shakllantirish uchun poydevor yaratadi.

Ijtimoiy va emotsional ta’lim dasturlarining eng asosiy yutug‘i bu o‘quvchilarning emotsional idrokini chuqurlashtirish orqali ularning akademik, ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlashdir. SEL yondashuvi bolalarda hissiy barqarorlikni mustahkamlab, stressni boshqarish va empatiya kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Natijada, o‘quvchilar darsga bo‘lgan qiziqishlari oshadi, sinf ichidagi hamjihatlik mustahkamlanadi va murakkab ijtimoiy vaziyatlarni hal etish qobiliyati kuchayadi.

Biroq, SELni maktab darajasida muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun bir qator muhim shart-sharoitlar yaratish zarur:

1. Pedagoglarni ijtimoiy-emotsional ta’lim bo‘yicha malakali mutaxassis darajasiga yetkazish uchun mo‘ljallangan doimiy professional rivojlanish dasturlari quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi:

- Muntazam o‘tkaziladigan interfaol treninglar orqali o‘qituvchilar SEL nazariy tamoyillari hamda samarali metodlarini chuqur o‘zlashtiradilar.
- Tajriba almashish va muammo-yechim strategiyalarini ishlab chiqish maqsadida yo‘naltiruvchi seminarlar yo‘lga qo‘yiladi.
- Ilg‘or ustoz-pedagoglar bilan mentorlik sessiyalari doirasida real dars vaziyatida SEL usullarini amaliy qo‘llash bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlar berilib, individual hamkorlik kuchaytiriladi.

Bu bosqichma-bosqich malaka oshirish modellari maktab darslarida SEL tamoyillarini kompleks tarzda integratsiya qilish, pedagoglarning ishonch va ko‘nikmalarini mustahkamlash imkonini yaratadi.

2. Ta’lim siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maktab ma’muriyati hamda tegishli давлат tashkilotlari strategik rol o‘ynaydi: ular moliyaviy mablag‘larni maqsadli taqsimlash, innovatsion SEL yondashuvlarini qo‘llab-quvvatlash va rahbarlik siyosatini izchil yuritish orqali ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlarining uzoq muddatli barqaror joriy etilishini kafolatlaydilar.

O‘zbekiston ta’lim sharoitida SELni sinovdan o‘tkazish uchun keng qamrovli tadqiqotlar o‘tkazish lozim. Bu tadqiqotlarda o‘quvchilarning ruhiy salomatlik mezonlari (stress darajasi, o‘ziga bo‘lgan ishonch), ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari hamda ta’limiy-kognitiv natijalar bir vaqtda o‘lchanib, aralash metodologiya yordamida tahlil qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, ota-onalar hamda jamiyat ishtirokini, pedagoglarning fikr-mulohazalari hamda resurslar yetarliligi omillarini o‘z ichiga olgan tadqiqotlar SEL dasturlarining ta’lim sharoitida yanada takomillashishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL) zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda. U o‘quvchilarning hissiy barqarorligini, ijtimoiy ko‘nikmalarini va akademik natijalarini yaxshilaydi. Respublikamizdagi bugungi ta’lim jarayonlarida SELni joriy etishga o‘qituvchilarni tayyorlash, metodik materiallar yaratish va ota-onalar hamkorligini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). (2023). What does the research say? https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-does-the-research-say/
2. Jones, D. E., Greenberg, M., & Crowley, M. (2015). Early social-emotional functioning and public health: The relationship between kindergarten SEL skills and future wellness. *American Journal of Public Health, 105*(11), 2283–2290.
3. Yale Child Study Center. (2023). SEL meta-analysis summary. https://medicine.yale.edu/news-article/new-research-published-in-child-development-confirms-social-and-emotional-learning-significantly-improves-student-academic-performance-well-being-and-perceptions-of-school-safety/

Qo‘shimcha internet havolalari

1. CASEL in-class implementation: ***https://casel.org/systemic-implementation/sel-in-the-classroom/***

2. Greater Good in Education: SEL for Students (self-awareness & self-management) ***https://ggie.berkeley.edu/student-well-being/sel-for-students-self-awareness-and-self-management/***

3. ERIC Full-text: “Social and Emotional Learning (SEL) and Student Benefits” https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED505369.pdf

TA’LIM JARAYONIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL METODIKALARNI QO‘LLASH ORQALI MADANIY MUHIT YARATISH

Malikova Dilraboxon
pedagogka fanlari bo‘yicha PhD, Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta‘lim jarayonida ijtimoiy-emotsional metodikalarni qo‘llash orqali madaniy muhitni yaratishning nazariy va amaliy asoslari keng tahlil qilinadi. Maqolada ijtimoiy-emotsional yondashuvlarning o‘quvchilarda ijobiy munosabat, hamkorlik, hamdardlik va muomala madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, O‘zbekiston ta’lim siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlar va xalqaro tajribalar ham qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot ilmiy adabiyotlar sharhi, kuzatuv, pedagogik tajriba va suhbat metodlari asosida olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta‘lim, metodika, madaniy muhit, hamkorlik, empatiya, ta’lim sifati.*

Annotation. *This article provides an in-depth analysis of the theoretical and practical foundations of creating a cultural environment through the application of socio-emotional methods in the educational process. It discusses the role of socio-emotional approaches in shaping positive attitudes, cooperation, empathy, and communication culture among students. Furthermore, the study compares Uzbekistan’s educational policy priorities with international experiences. The research is based on literature review, observations, pedagogical experiments, and interviews.*

Keywords: *socio-emotional education, methodology, cultural environment, cooperation, empathy, educational quality.*

Аннотация. *В данной статье проводится углубленный анализ теоретических и практических основ создания культурной среды через применение социально-эмоциональных методов в учебном процессе. Раскрывается роль социально-эмоционального подхода в формировании у учащихся позитивного отношения, сотрудничества, эмпатии и культуры общения. Кроме того, исследование сопоставляет приоритеты образовательной политики Узбекистана с международным опытом. Исследование основано на обзоре научной литературы, наблюдениях, педагогическом эксперименте и интервью.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное обучение, методика, культурная среда, сотрудничество, эмпатия, качество образования.*

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta‘lim tizimi oldida nafaqat bilim berish, balki yoshlarni barkamol, ijtimoiy faol, madaniyatli shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi ham dolzarbdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari ham aynan shu yo‘nalishga qaratilgan bo‘lib, ularda ijtimoiy-emotsional metodikalarning o‘rni alohida ta’kidlanmoqda. Mazkur maqolada ushbu metodikalarni qo‘llash orqali madaniy muhit yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) g‘oyalari xalqaro miqyosda CASEL modeli asosida shakllangan. Mazkur model besh asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi:

o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish. Elias, Vygotskiy va Goleman kabi olimlarning tadqiqotlari SELning shaxsiy rivojlanishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan. O‘zbekiston olimlari orasida ham ijtimoiy-emotsional yondashuvlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Metodologiya. Tadqiqotda sifat va miqdoriy metodlar uyg‘unlashtirildi. Ilmiy adabiyotlar sharhi orqali nazariy asoslar o‘rganildi. Kuzatuv metodi yordamida umumta’lim maktablarida o‘tkazilgan dars jarayonlari tahlil qilindi. Pedagogik tajriba sifatida 60 nafar o‘quvchi ishtirokida ijtimoiy-emotsional metodikalar qo‘llangan va natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Suhbat metodi orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilarning fikrlari o‘rganildi.

Quyida qo‘llangan metodlar va ularga misollar keltiramiz:

1. Ilmiy adabiyotlar sharhi. Namuna: CASEL (2020) tomonidan ishlab chiqilgan SEL modeli, Goleman (1995) asarlaridagi “Emotsional intellekt” g‘oyalari va Vygotskiy (1978) ning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi o‘rganildi.

Bu adabiyotlar asosida ijtimoiy-emotsional ta’limning nazariy poydevori tahlil qilindi.

2. Kuzatuv Metodi. Namuna: 5–9-sinflarda dars jarayonlari kuzatildi. O‘qituvchilar tomonidan qo‘llanilgan metodikalar (rolli o‘yin, guruhda ishlash, emotsional refleksiya mashqlari) tahlil qilindi.

Kuzatuv natijasida o‘quvchilarning darsdagi faolligi va bir-biriga munosabati baholandi.

3. Pedagogik tajriba. Namuna: Tajriba-sinov ishida 60 nafar o‘quvchi jalb qilindi. Bir guruhda an’anaviy metodlar, ikkinchisida esa ijtimoiy-emotsional metodlar (masalan, “Empatiya doirasi”, “Hamkorlik loyihalari”) qo‘llanildi.

Natijada tajriba guruhi o‘quvchilarida o‘zaro hurmat va hamkorlik ko‘rsatkichlari aniq o‘sdi.

4. Suhbat metodi. Namuna: 10 nafar o‘qituvchi va 20 nafar o‘quvchi bilan suhbat o‘tkazildi. Savollar ularning dars jarayonida emotsional yondashuvlar qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida edi. Masalan, “Darsda o‘zingizni qulay his qilishingiz uchun qanday metodlar yordam beradi?” savoli orqali qimmatli fikrlar olindi.

5. So‘rovnoma metodi. Namuna: 100 nafar o‘quvchi va 50 nafar ota-onaga onlayn anketa tarqatildi. Unda “Sizningcha, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari qanchalik muhim?” kabi savollar bor edi. So‘rovnoma natijasida 78% respondentlar ijtimoiy-emotsional yondashuvlarni zarur deb topdi.

6. Kontent-tahlil. Namuna: 5–7-sinflar uchun darsliklarda empatiya, hamkorlik, muloqot madaniyati bilan bog‘liq topshiriqlar mavjudligi tahlil qilindi.

Masalan, adabiyot darsligida “Do‘stlik qadri” mavzusi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

7. Komparativ tahlil. Namuna: O‘zbekiston va Finlyandiyada qo‘llanilayotgan metodikalar qiyoslandi. Finlyandiyada SEL maxsus dasturlar orqali amalga oshirilsa, O‘zbekistonda u ko‘proq integratsiya qilingan tarzda darslarga kiritilganligi aniqlandi.

8. Case-study (amaliy vaziyatlarni tahlil qilish). Namuna: Sinfda ikki o‘quvchi o‘rtasida kelib chiqqan ziddiyatni hal qilish jarayoni tahlil qilindi. O‘qituvchi “Hamkorlikda yechim topish” metodidan foydalanganida, o‘quvchilar muammoni tinch yo‘l bilan hal qildi.

9. Statistik tahlil. Namuna: Tajriba va nazorat guruhlarining natijalari foiz hisobida tahlil qilindi. Tajriba guruhida hamkorlik ko‘rsatkichlari 40% ga, madaniy muloqot darajasi esa 30% ga oshdi.

Natijalar. Olingan natijalarga ko‘ra, tajriba sinfida dars jarayonida ijtimoiy-emotsional metodikalarni qo‘llash o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini 35 foizga oshirgan.

O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik ko‘nikmalari 40 foizga kuchaygan, madaniy muomala qoidalariga amal qilish darajasi esa 30 foizga oshganligi kuzatildi. Bu esa ijtimoiy-emotsional metodikalarning samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ijtimoiy-emotsional metodikalar ta’lim jarayonida nafaqat bilim olish samaradorligini, balki ijtimoiy-madaniy rivojlanishni ham ta’minlaydi. O‘quvchilar bir-biriga nisbatan hurmat va empatiya bilan munosabatda bo‘lishga o‘rganganida, maktabdagi umumiy muhit ijobiy tomonga o‘zgaradi. Bunday metodikalar konfliktlarni kamaytiradi, o‘zaro yordam ko‘rsatishni kuchaytiradi va sinfda hamkorlik ruhini shakllantiradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, SEL dasturlari qo‘llanilayotgan davlatlarda o‘quvchilarning nafaqat akademik natijalari, balki psixologik barqarorligi ham yuqori darajada. Masalan, Finlyandiya, AQSh va Yaponiya ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional metodikalar keng qo‘llanilib, ular orqali nafaqat maktab muhitida, balki jamiyatda ham bag‘rikenglik, hamkorlik va madaniyat qadriyatlari rivojlanmoqda.

O‘zbekiston sharoitida bu metodikalarni tatbiq etish, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy didaktik vositalarni jalb etish dolzarb hisoblanadi. Shuningdek, ota-onalar va jamiyatning hamkorligi ham ijtimoiy-emotsional ta’lim samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional metodikalarni qo‘llash orqali madaniy muhit yaratish samarali natijalar beradi. Bu o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy kompetensiyalar, empatiya, mas’uliyat va madaniy qadriyatlarga hurmatni shakllantiradi. O‘zbekiston ta’lim tizimida bu yo‘nalishni kengaytirish kelajakda barkamol shaxslar tarbiyasiga xizmat qiladi. Amaliy tavsiya sifatida o‘qituvchilar uchun ijtimoiy-emotsional metodikalarga oid maxsus treninglar o‘tkazish, o‘quv dasturlariga SEL elementlarini kiritish va xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. CASEL. (2020). What is SEL? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.
2. Elias, M. J., et al. (2015). Social-Emotional Learning and Academic Success. Teachers College Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
4. OECD. (2021). Social and Emotional Skills for Student Success and Well-Being.
5. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. Bantam Books.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori (2019-yil 8-may).
7. Shavkatova, M. (2021). Ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional yondashuvlarning ahamiyati. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.

MAVZU: SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF HAZRATLARINING “IJTIMOIY ODOBLAR” ASARINI YOSH AVLOD TARBIYASIDA TUTGAN O‘RNI

Masharipov Raxmatulla Beknazarovich
Xorazm viloyati Urganch tumani, Imom Faxriddin ar-Roziy o‘rta maxsus islom bilim yurti
Pedagogika va psixologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” asarini yosh avlod tarbiyasida tutgan o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda asarning ijtimoiy hayotda insonlarning o‘zaro muomala-munosabatlari, odob-axloq me’yorlari va tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamolotida “Ijtimoiy odoblar” asarining o‘rni va dolzarbligi ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *odob-axloq, tarbiya, ijtimoiy munosabat, ma’naviyat, yosh avlod, islomiy qadriyat.*

Kirish

Bugungi globallashuv davrida yosh avlod tarbiyasi, ularning ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashlari, odob-axloq me’yorlariga amal qilishlari jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zero, buyuk allomalarimizning asarlari yoshlarning ma’naviy kamolotida beqiyos manba bo‘lib kelmoqda.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari (1952–2015) mustaqillik yillarida xalqimiz ma’naviyatini tiklash, Qur’on va hadis ilmini keng yoyish, yoshlarni islomiy tarbiya asosida voyaga yetkazish yo‘lida ulkan xizmatlar qilgan allomalardandir. U zotning o‘nlab asarlari ichida **“Ijtimoiy odoblar”** alohida o‘rin tutadi. Bu kitob musulmon insonining kundalik hayotda o‘zini qanday tutishi, odamlar bilan munosabatda qanday odoblarga amal qilishi, jamiyatda axloqiy me’yorlarni mustahkamlash kabi masalalarga bag‘ishlangan.

Asarning tahlili

“Ijtimoiy odoblar” asari o‘z mazmun-mohiyati bilan yoshlarda:

1. **Oila va jamiyat oldidagi mas’uliyat**ni anglash, ota-ona, ustoz, qo‘shni va do‘stlar bilan munosabatlarda odobli bo‘lishni o‘rgatadi.

   Oila va jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglash — insonning komillikka erishishida asosiy omillardan biridir. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining “Ijtimoiy odoblar” asarida ota-onaga hurmat, ustozga ehtirom, qo‘shnilar va do‘stlar bilan samimiy munosabatda bo‘lish, jamiyatda mas’uliyatni yuksak darajada his etish kabi qadriyatlar Qur’on oyatlari va hadislar asosida keng yoritilgan. Bu jihatlar yoshlarning tarbiyasida axloqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.
2. **Muloqot madaniyati**ni shakllantiradi. Har bir so‘zning ijobiy yoki salbiy ta’siri borligini, suhbatda muloyimlik va samimiyat muhimligini ta’kidlaydi.

   Asarda insonning so‘zlash madaniyati va muloqot odobi alohida o‘rin egallaydi. Shayx hazratlari har bir so‘zning ijobiy yoki salbiy ta’siri borligini ta’kidlab, odobli muloqot jamiyat totuvligi va shaxslararo munosabatlarda muhim vosita ekanini uqtiradi.

Qur’onda ham: *“Bandalarimga aytgin: ular eng go‘zal so‘zlarni gapirsinlar”* (Isro surasi, 53-oyat) deb buyurilgan. Bu oyat, insonning so‘zida muloyimlik, samimiyat va halollik bo‘lishi lozimligini ko‘rsatadi.

Hadislarda ham bu masalaga ko‘p bor urg‘u berilgan. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam: *“Kim Allohga va oxirat kuniga iymon keltirgan bo‘lsa, yaxshi so‘z gapirsin yoki sukut saqlasin”* (Imom Buxoriy rivoyati) deya, inson so‘zining ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini ochib berganlar.

Shayx hazratlarining shogirdlari *“Arroziy.uz”* nashrida chop etilgan maqolada Shayx hazratlarining hayot va nutqlaridagi odob haqida shunday deyiladi: *“Hazrat nihoyatda og‘ir-bosiq, go‘zal odobli inson edilar… bu kishi hayotda Payg‘ambarimizga munosib ummat o‘laroq odob-axloq va husni-xulqda namuna bo‘ldilar”* deya e’tirof etganlar. Bu fikrlar aslida asarda ta’kidlangan muloqot odoblari nazariy emas, balki amaliy hayotda ham to‘la namoyon etilganini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf nafaqat o‘z asarlarida, balki kundalik turmush tarzida, odamlarga muomala qilishida, muloyim so‘z va samimiy muloqotida ham barchaga ibrat bo‘lgan ideal shaxsiyat sifatida tarixda o‘z o‘rnini egalladilar. Uning muloqot odobiga oid qarashlari bugungi jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etib, yoshlar tarbiyasida muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda .

3. **Halollik va poklik** masalasiga alohida urg‘u beradi. Shayx hazratlari haromdan tiyilish, o‘z mehnati evaziga yashash, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishni asoslab beradi.

   “Halollik va poklik masalasiga asarda alohida urg‘u beriladi. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari inson hayotida halol mehnatning o‘rni va ahamiyatini Qur’on oyatlari va sahih hadislar asosida izohlaydilar. U zot haromdan tiyilish, insonning o‘z mehnati evaziga yashashi, jamiyat manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishi iymonning muhim belgilaridan biri ekanini ta’kidlaydi. Asarda insonning nafaqat moddiy hayoti, balki ma’naviy kamoloti ham halollikka bog‘liqligi asoslab beriladi. Ushbu g‘oya bugungi yoshlar tarbiyasida ayniqsa dolzarb, chunki zamonaviy jamiyatda halollik — korrupsiyaga qarshi kurashish, mehnat unumdorligini oshirish va adolatli ijtimoiy muhitni shakllantirishning ham muhim mezoni hisoblanadi. Shunday ekan, asarda ilgari surilgan halollik tamoyillari nafaqat diniy, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda, ular qalbida mas’uliyat, vijdon va poklikni shakllantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.”

4. **Jamiyatda totuvlik va mehr-oqibat**ni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kitobda mo‘min-musulmonlarning bir-biriga yordam berishi, muhtojlarga mehribon bo‘lishi haqida hadislar asosida tushuntiriladi.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining *“Ijtimoiy odoblar”* asarida totuvlik (ittihod) va mehr-oqibat ijtimoiy barqarorlikning tayanchi sifatida talqin qilinadi. Asar Qur’on va sahih hadislar asosida mo‘minlar o‘zaro birodarlik rishtalarini mustahkamlashi, muhtojlarga ko‘mak berishi, ixtiloflarni tinch yo‘l bilan bartaraf etishi lozimligini uqtiradi. Hadislarda mo‘minlar “bir badandek” ekani, birining dardi boshqasiga befarq bo‘lmasligi kerakligi ta’kidlanadi (qarang: Imom al-Buxoriy, *Al-Jome’ as-Sahih*; Imom an-Navaviy, *Riyozus-Solihin*).

1) Matnning asosiy yo‘nalishlari:

- **Bir-birini qo‘llab-quvvatlash odobi.** “Birodarning ehtiyojini qondirish” mazmunidagi hadislar ko‘rsatadiki, shaxsiy manfaatdan avval jamiyat manfaati turadi. Bu — mehr-oqibatni amaliy fazilatga aylantiradi.
- **Qo‘shnichilik va qarindoshlik rishtalari (silai rahm).** Qo‘shni haqqini ado etish, qarindosh-urug‘ bilan aloqani uzmaslik jamiyatda ishonch kapitalini oshiradi.
- **Salom va duoning ijtimoiy vazifasi.** Salomlashish, yaxshi tilak va duo muhitni yumshatadi, ixtiloflarni oldini oladi — muloqot eshiklarini ochadi.
- **Isloh (yarashtirish) madaniyati.** Ixtilof paydo bo‘lganda adolatli, muloyim vositachilik qilish tavsiya etiladi; bu jamoaviy barqarorlikni tiklaydi (al-G‘azoliy, *Ihyo ulum ad-din*).
- **Saxovat va xayriya.** Sadaqa va ko‘ngilli xizmat (volontyorlik) jamiyatda ehtiyojlarni tez qoplaydi, tengsizlik hissini yumshatadi.

2) Tarbiyaviy mexanizmlar (yoshlar bilan ishlashda):

- **Amaliy mashg‘ulotlar.** “Bir hafta — bir ezgulik” tamoyili: har hafta kichik, ammo muntazam xayrli ish (keksalarga yordam, daraxt ekish, tozalik aksiyasi).
- **Peer-mentoring.** Katta sinf o‘quvchilarining kichiklarga “ustoz-shogird” ko‘magini yo‘lga qo‘yish — mehr-oqibatni tajribada o‘rgatadi.
- **Murosa va vositachilik klubi.** Maktab yoki litseyda tengdoshlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch hal qilishni o‘rgatadigan kichik guruh.
- **Ijtimoiy loyihalar.** “Qo‘shniga yordam”, “Mehr karvoni”, “Ochiq eshiklar kuni” kabi kvartal loyihalari — jamiyat bilan doimiy aloqani mustahkamlaydi.

3) Kutiladigan ijtimoiy natijalar:

- **Ishonch va birdamlikning oshishi.** O‘zaro yordam madaniyati kuchaysa, jinoyatchilik va keskin ixtiloflar kamayadi, ijtimoiy tarmoqlar o‘rniga real hamkorlik kuchayadi.
- **Inqiroz davrida barqarorlik.** Mehr-oqibat tarmoqlari (xayriya, volontyorlik) favqulodda holatlarda tezkor safarbarlikni ta’minlaydi.
- **Mehnat unumdorligi va adolat hissi.** Totuv muhit hamkorlikni osonlashtiradi, ish joyida ziddiyatlar kamayadi, adolatli bo‘lishga rag‘bat kuchayadi.

4) Amaliy indikatorlar (baholash uchun):

- Ko‘ngilli soatlari va xayriya tadbirlarida ishtirok ko‘rsatkichlari.
- Maktab/mahallada nizolar sonining qisqarishi va murosa orqali bartaraf etilgan holatlar ulushi.
- “Qo‘shni bilan aloqalar” va “ijtimoiy ishonch” bo‘yicha so‘rovnomalar natijasi.
- Bir yil ichida kamida 3 ta jamoaviy ezgulik loyihasining yakuniy hisobotlari.

5) Ilmiy-manbaviy tayanishlar (qisqacha):

- Imom al-Buxoriy va Imom Muslim to‘plamlarida mo‘minlarning o‘zaro mehr-oqibati, yordamga shoshilishi, g‘amni yengillatish fazilatlari haqida ko‘plab rivoyatlar kelgan.
- Imom an-Navaviyning *Riyozus-Solihin* asarida saxovat, qo‘shnichilik, silai rahm, salomlashish va murosa boblari jamlangan.
- Imom-G‘azoliy *Ihyo*da jamiyatning ruhiy salomatligi uchun bir-birini qo‘llash va odob-axloqni amalda tatbiq etish mexanizmlarini sharxlaydi.
- Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning *“Ijtimoiy odoblar”*i shu merosni zamonaviy hayot bilan bog‘lab, amaliy qo‘llanma sifatida taqdim etadi: nazariya → kundalik odat → ijtimoiy natija zanjiri.

5. **Yoshlarni iymon va e’tiqodga sodiq bo‘lishga** da’vat etadi. Asarda Qur’on oyatlari va sahih hadislar asosida hayotiy misollar keltiriladi.

Yoshlarni iymon va e’tiqodga sodiq bo‘lishga da’vat etadi

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining *“Ijtimoiy odoblar”* asarida iymon va e’tiqod masalalari tarbiya jarayonining markaziga qo‘yilgan. Asarda Qur’on oyatlari, sahih hadislar va hayotiy misollar orqali yoshlar iymonda sobit, e’tiqodda mustahkam bo‘lishga undaladi.

Qur’on oyatlaridan dalillar:

- Alloh taolo Qur’onda:

  “Ey mo‘minlar! Allohdan qo‘rqinglar va so‘zlaringizni rost aytinglar. Shunda Alloh amallaringizni tuzatadi va gunohlaringizni mag‘firat qiladi” (Ahzob surasi, 70–71-oyatlar).

  Bu oyat iymonning rostgo‘ylik bilan chambarchas bog‘liq ekanini ko‘rsatadi.
- Yana bir oyatda shunday deyiladi:

  “Albatta, Allohning do‘stlari uchun na qo‘rquv bo‘lur va na ular g‘amgin bo‘lurlar. Ular iymon keltirgan va taqvodor bo‘lganlardir” (Yunus surasi, 62–63-oyatlar).

  Demak, iymonda sobit qolish — ruhiy barqarorlik va hayotda totuvlikning kafolatidir.

Hadislardan dalillar:

- Payg‘ambar alayhissalom dedilar:

  “Mo‘min kishi boshqalarni sevadigan va boshqalar tomonidan seviladigan bo‘ladi. Kimda kimni odamlar yoqtirmasa va u ham odamlarni yoqtirmasa, unda yaxshilik yo‘qdir” (Imom Ahmad rivoyati).

  Bu hadis yoshlarni iymon bilan birga mehr-oqibatli, jamiyatda yaxshi munosabatli bo‘lishga da’vat qiladi.
- Yana bir hadisda:

  “Kuchli mo‘min Allohga suyukliroqdir, biroq har ikkisi ham xayrlidir” (Imom Muslim rivoyati).

  Bu hadis yoshlarni nafaqat e’tiqodda, balki hayotiy faoliyatda ham kuchli, qat’iyatli bo‘lishga chaqiradi.

Hayotiy misollar: Asarda Shayx hazratlari islom tarixidan misollar keltirib, sahobalarning iymondagi sobitligi, qiyinchilik va sinovlarga sabr bilan chiday olishlarini yoshlar uchun ibrat sifatida taqdim etadilar. Masalan, Bilol ibn Rabohning iymon yo‘lida chekkan azob-uqubatlari yoki Mus’ab ibn Umayrning e’tiqod yo‘lidagi fidoyiligi yosh avlod uchun kuchli ma’naviy darsdir.

Shuningdek, zamonaviy hayot misolida ham halollikni, e’tiqodga sodiqlikni, imoniy sobitlikni namoyon etgan insonlar faoliyati tilga olinadi. Shayx hazratlari yoshlarni o‘z e’tiqodidan og‘ishmaslikka, zamonaviy ma’naviy tahdidlarga berilmaslikka da’vat etadilar.

Natijalar

Tahlildan kelib chiqib aytish mumkinki, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining *“Ijtimoiy odoblar”* asari nafaqat diniy risola, balki ijtimoiy hayot uchun mukammal tarbiyaviy qo‘llanma sifatida baholanishi mumkin. Asar o‘rganilganda quyidagi natijalar yaqqol namoyon bo‘ladi:

1. **Yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini kengaytiradi.** Asarda Qur’on oyatlari va hadislar asosida turli ijtimoiy muomala qoidalari bayon qilingan bo‘lib, ular yoshlarning tafakkurini kengaytiradi, dunyoqarashini sog‘lom asoslarda shakllantiradi. Bugungi kunda global axborot oqimlari orasida yoshlarning

mustaqil fikrlash qobiliyatini mustahkamlash juda muhim. “Ijtimoiy odoblar” asari ana shu ehtiyojga javoban ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq beradi.

2. **Ularni milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.** Asarda ota-ona, ustoz va jamiyatga hurmat, qo‘shnichilik odobi, o‘zaro yordam, saxovat kabi qadriyatlar keng yoritilgan. Bu qadriyatlar milliy mentalitetimiz bilan uyg‘un holda talqin qilingani uchun yoshlar o‘zligini anglash, milliy g‘urur va diniy qadriyatlarga sodiq qolish ruhida voyaga yetadilar. Bu jarayon yoshlarni g‘arbona yengil-elpi oqimlardan asrashda ham muhim vosita hisoblanadi.
3. **Jamiyatda axloqiy me’yorlarni mustahkamlaydi va ijtimoiy birdamlikni ta’minlaydi.**
   Asarda muloqot madaniyati, rostgo‘ylik, halollik, poklik va mehr-oqibat masalalariga alohida urg‘u berilgan. Bu g‘oyalar jamiyatda axloqiy qadriyatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shu orqali jamiyat a’zolari o‘rtasida birdamlik, totuvlik va hamjihatlik kuchayadi. Axloqiy me’yorlarga amal qilgan shaxslar ijtimoiy nizolarni bartaraf etishda ham faol bo‘lishi mumkin.
4. **Ota-ona, ustoz va jamiyat oldidagi burch va mas’uliyatni yuksak darajada anglashga yordam beradi.**
   Asarda farzandning ota-onaga, shogirdning ustozga, fuqaroning jamiyatga nisbatan mas’uliyatlari Qur’on va hadis asosida izohlangan. Bu orqali yoshlar o‘z vazifalarini chuqur anglaydilar, jamiyat oldidagi burchini ado etishga intiladi. Shu boisdan ham “Ijtimoiy odoblar” asari fuqarolik mas’uliyatini oshirish, yoshlarni ijtimoiy faol bo‘lishga undashda muhim qo‘llanma vazifasini o‘taydi.
5. **Shaxsiy va ijtimoiy hayot muvozanatini ta’minlaydi.**
   Asarda shaxsning o‘zini tarbiyalashi bilan birga, jamiyatdagi faoliyatini uyg‘unlashtirishga doir ko‘plab tavsiyalar berilgan. Bu esa yoshlarning ichki dunyosi bilan tashqi ijtimoiy munosabatlari o‘rtasida muvozanat o‘rnatishga yordam beradi.
6. **Zamonaviy tarbiya jarayoniga tatbiq etiladigan qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.**
   Asarning dolzarbligi shundaki, undagi g‘oyalar faqat diniy-ma’rifiy kontekstdagina emas, balki pedagogika, psixologiya va sotsiologiya sohalarida ham qo‘llash mumkin. Shu bois u zamonaviy ta’lim tizimida yoshlarni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi dastur sifatida foydalanishga yaroqlidir.

Xulosa va tavsiyalar

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlarining *“Ijtimoiy odoblar”* asari – nafaqat diniy manba, balki jamiyat hayotini mustahkamlovchi, insoniy qadriyatlarni yuksaltiruvchi, yoshlarni komil inson bo‘lish sari yetaklovchi bebaho ma’naviy qo‘llanmadir. Asarda keltirilgan Qur’on oyatlari va sahih hadislar asosidagi pand-nasihatlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Avvalo, bu asar insonning shaxsiy hayoti bilan ijtimoiy munosabatlari o‘rtasida uyg‘unlik yaratishga xizmat qiladi. Chunki unda axloqiy me’yorlarga rioya qilish, odamlar bilan muomala odobi, mehr-oqibat, yordam va hamkorlik kabi qadriyatlar keng yoritilgan. Ushbu g‘oyalar jamiyatda birdamlikni kuchaytiradi, nizolarni oldini oladi va totuv hayotga asos bo‘ladi.

Shuningdek, “Ijtimoiy odoblar” asari yoshlarning ma’naviy immunitetini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Globalizatsiya davrida turli yot g‘oyalar, salbiy oqimlar yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotgan bir paytda, bu asar ularga milliy va diniy qadriyatlarni qadrlash, ota-ona va

ustozlarga hurmat, jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglash kabi fazilatlarni singdiradi. Bu esa yoshlarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, asarda keltirilgan ijtimoiy odoblar nafaqat diniy kontekstdagina, balki pedagogika, psixologiya va sotsiologiya fanlari nuqtayi nazaridan ham ilmiy asoslangan qadriyatlar sifatida qaralishi mumkin. Shuning uchun ham uni ta’lim tizimiga integratsiya qilish, yoshlar tarbiyasida qo‘llash juda samarali bo‘ladi.

Umuman olganda, *“Ijtimoiy odoblar”* asarini o‘rganish shaxsiy hayotda poklik va halollikni, ijtimoiy hayotda esa birdamlik va mas’uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. U milliy va diniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirgan holda, jamiyatda ma’naviy yuksalishga, axloqiy tarbiya va totuvlikka yetaklaydi.

Bu asar nafaqat diniy, balki **pedagogik qo‘llanma** sifatida ham ahamiyatga ega. Chunki unda yoshlarni tarbiyalashda psixologik va axloqiy jihatlar ham hisobga olingan.

Tavsiyalar:

1. “Ijtimoiy odoblar” asari o‘quv yurtlarida ma’naviyat darslarida qo‘llanma sifatida tavsiya etilishi lozim.
2. Yoshlarni tarbiyalashda ota-onalar va ustozlar ushbu asardan faol foydalanishlari maqsadga muvofiq.
3. Asarning mazmuni zamonaviy yoshlar psixologiyasiga moslab, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilinishi kerak.
4. Asarda ilgari surilgan g‘oyalar milliy qadriyatlarimiz bilan uyg‘un holda keng jamoatchilikka targ‘ib etilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. *Ijtimoiy odoblar*. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2010.
2. Qur’oni Karim oyatlari.
3. Imom al-Buxoriy. *Al-Jome’ as-Sahih*. – Madina Munavvara, 1992.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. G‘ulomov A., Jo‘rayev M. *Pedagogika va psixologiya asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2015.
6. https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37171?utm_source=chatgpt.com

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTEGRATIV YONDASHUVNING DIDKATIK IMKONIYATLARI

Matupayeva Shohsanam Zaripboy qizi
CHDPU Maxsus pedagogika kafedrasi v.b dotsent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Integratsiya o‘quvchilar bilimini turli fanlararo bog‘liqlik asosida shakllantirish, ularning tafakkurini kengaytirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirishda muhim vosita ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali metod sifatida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Maqolada integrativ darslarni tashkil etishda foydalaniladigan metodik yondashuvlar, ularning samaradorlik omillari va boshlang‘ich ta’lim mazmunini boyitishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, integrativ yondashuv, fanlararo bog‘liqlik, didaktik imkoniyatlar, ta’lim samaradorligi.*

O‘quv jarayonida fanlararo bog‘liqlikni yo‘lga qo‘yish ta’lim sifatining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat ta’limni modernizatsiya qilish, innovatsion metodlarni keng joriy etish imkonini yaratadi. Darsni fanlararo aloqadorlik asosida tashkil etgan o‘qituvchi nafaqat o‘quvchilarning o‘rganilayotgan fan bo‘yicha qiziqishini oshiradi, balki bu fan mazmunini chuqur o‘zlashtirishlariga ham samarali ko‘mak beradi. Fanlararo integratsiyani tizimli amalga oshirish orqali ta’lim-tarbiya jarayonining o‘zaro bog‘liqligi va yaxlitligi yanada kuchayadi.

Hozirgi davrda ta’lim jarayonida yuz berayotgan yangilanishlar, kompetensiyaviy yondashuvning afzalliklari, integratsiyalashgan bilim berish zaruriyatini kuchaytirmoqda. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri, dunyoqarashi va ijodiy fikrlashini shakllantirishda integrativ yondashuv muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich ta’lim — bu bolalar shaxsining intellektual, ijtimoiy va axloqiy jihatdan shakllanishida asosiy bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zamonaviy yondashuvlar zarur bo‘lib, ulardan biri — integrativ yondashuv hisoblanadi.

Integrativ yondashuv — bu turli fanlar, mavzular, ta’limiy faoliyatlar o‘rtasida uzviy aloqalarni ta’minlab, o‘quvchida yaxlit bilim tizimini shakllantirishga qaratilgan didaktik yondashuvdir. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mavzularni hayotiy holatlar bilan bog‘lash orqali ularning bilimlarni ongli o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning psixologik, aqliy va fiziologik rivojlanish xususiyatlari ularning bilimni yaxlit holatda qabul qilishini talab etadi. Bu bosqichda fanlararo bog‘liqlik asosida dars o‘tish, bir necha kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida shakllantirishga imkon yaratadi. Integratsiyalashgan yondashuv orqali:

- o‘quvchilarda muloqot madaniyati;
- muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko‘nikmasi;
- o‘zini ifodalash va ijodiy fikrlash salohiyati rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiya turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Ichki fan doirasidagi integratsiya – bir fan ichidagi turli mavzularni bog‘lash (masalan, ona tili darsida matn tuzish va imlo qoidalarini birgalikda o‘rganish).

2. Fanlararo integratsiya – ikki yoki undan ortiq fanlar o‘rtasida bog‘liqlik yaratish (masalan, matematika va atrof-muhit fanini uyg‘unlashtirib vazifalar berish).

3. Hayotiy-mazmuniy integratsiya – mavzuni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarning tajribasiga tayanish (masalan, do‘kondagi xarid mavzusini matematika, etika va texnologiya darslarida yoritish).

Integrativ yondashuvning afzalliklari

- Bilimlarning yaxlitligi va uzviyligini ta’minlaydi;
- Darsni hayot bilan bog‘lab o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etadi;
- Dars samaradorligini oshiradi va vaqtni tejamkorlik bilan taqsimlaydi;
- Kompetensiyalarni bir vaqtda shakllantiradi;
- Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Integrativ yondashuvning mohiyati shundan iboratki, u bolalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va muammoni hal etish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, u o‘quvchilarni bir fan doirasida emas, balki ko‘p fanli bilimlar tizimi orqali hayotiy voqelikni tushunishga undaydi. Masalan, “Tabiatdagi o‘zgarishlar” mavzusi matematika, ona tili, tasviriy san’at va atrof-muhit fanlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘rganilishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun integratsiyalashgan darslar mazmunan boy, usluban rang-barang va metod jihatdan faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunda dars jarayoni faqat ma’lumot berishga emas, balki o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlashga, o‘z fikrini bildirishga, tahlil qilishga va mustaqil qaror qabul qilishga yo‘naltiriladi. Integrativ yondashuv, ayniqsa, zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Shuningdek, integrativ yondashuv ijtimoiy-emotsional o‘sish, estetik tarbiya, madaniy qadriyatlarni anglash va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega. Darslarni turli faoliyat turlari bilan uyg‘unlashtirish (o‘yin, rasm, qo‘shiq, tajriba, hikoya aytish) orqali o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, darsga faol jalb etiladi va bilimlarni ongli egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuv — bolani har tomonlama rivojlantirish, bilimlar o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash va ta’lim samaradorligini oshirishning zamonaviy, pedagogik nuqtai nazardan asosli va istiqbolli yo‘nalishidir.

Integrativ yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari

Yaxlitlik tamoyiliga asoslanadi

Bilimlar va ko‘nikmalar bolalarga turli fanlar doirasida emas, balki yaxlit, bir-biri bilan bog‘liq holda taqdim etiladi. Bu bola tafakkurining tizimlilik asosida shakllanishiga xizmat qiladi.

Hayotiylik va real kontekstga yaqinlik

Integrativ darslar hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. Bu esa bilimlarning amaliyotda qo‘llanilishini ta’minlaydi va o‘quvchining real voqelikni tushunish darajasini oshiradi.

Ko‘p faoliyatli yondashuv

Integrativ darslarda tinglash, o‘qish, yozish, rasm chizish, fikrlash, munozara, amaliy topshiriqlar bajarish kabi faoliyat turlari uyg‘unlashtiriladi. Bu esa o‘quvchilarning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Ijodkorlikni rag‘batlantiradi

Fanlararo bog‘liqlik o‘quvchilarni yangicha fikrlashga, izlanishga, kashf qilishga undaydi. Natijada o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifodalashga, mustaqil qaror qabul qilishga intiladi.

Motivatsiyani oshiradi

Darslar mazmunli, hayotiy va qiziqarli bo‘lganligi sababli o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, o‘rganishga bo‘lgan ichki ehtiyoji kuchayadi.

O‘zaro bog‘liqlik va tizimlilik

Mavzular orasidagi mantiqiy bog‘liqlik saqlanadi, bu esa bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga zamin yaratadi.

Boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuv bolalarda chuqur va izchil bilimlarni shakllantirish, fikrlashni rivojlantirish, estetik va ijtimoiy fazilatlarni tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi. Bu yondashuv nafaqat fanlararo integratsiyani, balki bolalarning intellektual, emotsional va ijtimoiy jihatdan uyg‘un rivojlanishini ta’minlovchi zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida qadrlanadi.

Integrativ yondashuv — bu o‘quv jarayonida turli fanlarni, bilim tarmoqlarini, o‘quv faoliyatlarini o‘zaro bog‘langan, uzviy va tizimli holda olib borishni ko‘zda tutuvchi zamonaviy didaktik yondashuvdir. Boshlang‘ich ta’limda bu yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari yaxlit holda shakllanadi, ularning mustaqil fikrlash, bog‘liqlikda o‘rganish va real hayotda qo‘llash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Integrativ yondashuvning asosiy didaktik imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Bilimlarni uzviylikda shakllantirish imkoniyati
Integrativ yondashuv fanlararo chegaralarni yo‘q qilib, bolalarda tizimli va yaxlit dunyoqarash shakllanishiga yordam beradi. Masalan, “tabiat hodisalari” mavzusi ona tili, matematika, atrof-muhit bilan tanishuv va tasviriy san’at fanlari bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘rganiladi.

2. Fanlararo aloqadorlik asosida mavzularni chuqur o‘zlashtirish
Bu yondashuv o‘quvchilarning mavzularni turli burchaklardan tahlil qilishi, fikrni ko‘p yo‘nalishda rivojlantirishi va tushunchalarni chuqur anglashiga xizmat qiladi. Shu tariqa har bir fan bir-birini boyitadi.

3. Didaktik birlik asosida integratsiyalashgan darslarni loyihalash
Integratsiyalashgan darslar orqali ko‘p maqsadli o‘quv topshiriqlari tuziladi. Masalan, matematik hisoblash topshirig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan matnli vazifada o‘quvchi ona tili, mantiq va matematikani bir vaqtning o‘zida qo‘llaydi.

4. Ta’lim motivatsiyasini oshirish imkoniyati
Integrativ yondashuv orqali mavzular real hayotiy misollar asosida yoritiladi. Bu esa o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faollikka undaydi.

5. O‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
Fanlararo integratsiya ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni talab qiladi. Bunda o‘quvchi o‘z qarashlarini mustaqil ifodalashga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga o‘rganadi.

6. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish imkoniyati
Integrativ yondashuv orqali o‘quvchilar faqat bilim emas, balki funksional savodxonlik, hayotiy ko‘nikma, ijtimoiy muloqot va madaniy tafakkur asoslarini ham egallaydilar. Bu esa yangi avlod o‘quv dasturlarining asosiy talablariga to‘la javob beradi.

7. O‘qituvchining metodik salohiyatini kengaytirish
Integrativ yondashuv dars loyihalash, metodik yondashuvlar tanlash, innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirishda o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’limda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishi, bilimlarni chuqur va mazmunli o‘zlashtirishi, fanlararo bog‘liqlikni anglash va real hayotga tatbiq etish salohiyatini oshiradi. Bunday yondashuv,

ayniqsa, 21-asrda zarur bo‘lgan funksional savodxonlik, tanqidiy tafakkur va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – Москва: Интеллект-Центр, 2000. – 289 б.
2. Қодиров Қ., Юсупова Н. Бошланғич таълимда интеграциянинг назарий-методик асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2018. – 176 б.
3. Махмудова Д. Интегратив ёндашув асосида дарс самарадорлигини ошириш йўллари // Boshlang‘ich ta’lim, 2021, №2. – Б. 45–49.
4. Халиков А. Бошланғич синфларда ўқув жараёнида интеграциянинг дидактик имкониятлари // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022, №3. – Б. 87–92.
5. Tyler R.W. Basic Principles of Curriculum and Instruction. – Chicago: University of Chicago Press, 2013. – 192 p.

MASOFAVIY TA’LIMNING ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Matyoqubova Muyassarxon Azizxonovna

Annotatsiya. *Maqolada masofaviy ta’limning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan masofaviy o‘qitish shakllari, ularning afzalliklari va oliy ta’lim jarayonidagi qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, LMS tizimlari, MOOC kurslari va vebinarlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar. *Masofaviy ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, LMS, MOOC, vebinar, elektron ta’lim.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль и значение дистанционного образования в современной системе обучения. Анализируются формы и преимущества дистанционного обучения на основе информационно-коммуникационных технологий, а также особенности их применения в высших учебных заведениях. Показана роль систем LMS, курсов MOOC и вебинаров в повышении эффективности образовательного процесса.*

Ключевые слова: *дистанционное образование, информационно-коммуникационные технологии, LMS, MOOC, вебинар, электронное обучение.*

Abstract. *The article examines the role and significance of distance education in the modern educational system. It analyzes ICT-based forms and advantages of distance learning, as well as their application in higher education. The role of LMS systems, MOOC courses, and webinars in enhancing the effectiveness of the learning process is highlighted.*

Keywords: *distance education, information and communication technologies, LMS, MOOC, webinar, e-learning.*

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga qadar o‘quv dasturlari va darsliklarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida to‘la qayta ko‘rib chiqib, amalda joriy etish maqsad qilingan [2]. Ushbu strategiyadagi maqsadni amalga oshirish uchun oliy ta’lim tizimida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda ayniqsa interaktiv pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlaridan keng foydalanib, o‘quv adabiyotlarning elektron resurslarini yaratish bugungi kun uchun dolzarb masaladir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmonida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish vazifasi qo‘yildi [3].

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida barcha fanlarni o‘qitish jarayonida innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar ilg‘or tajribasining tahlili yosh avlodni tarbiyalash, o‘qitish, ularni jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs qilib shakllantirishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni beqiyosligi o‘z isbotini topgan.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangidan-yangi pedagogik metodlar va texnologiyalar joriy etilmoqdaki, ular yordamida ta’lim jarayonlari sifati va samaradorligi ortib bormoqda. Bunday texnologiyalar qatoriga masofaviy ta’lim, ommaviy ochiq onlayn kurslar, veb konferensiyalar, onlayn seminarlar, virtual universitetlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ta’lim jarayonida Axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishda ta’limning shakl va vositasi sifatida qo‘llay olishlari kerak. Shunday ekan bugungi kunda Axborot kommunikatsion texnologiyalar pedagog kadrlarni tayyorlashda qanday shaklda qo‘llaniladi va undan qanday vosita sifatida foydalanish mumkin degan savolga javob berish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida “...masofaviy o‘qitish shaklini amalga oshirish tartibini belgilash, dasturiy apparat kompleksini yaratish, tegishli oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga masofaviy o‘qitish platformasini joriy etish…”[4] vazifalari belgilangan edi. Dunyo ta’lim tizimiga masofaviy ta’limning alohida shakli sifatida jadallik bilan kirib kelmoqda va ta’limning alohida shakli sifatida o‘quv jarayoniga joriy etilmoqda. Dunyoda yuz berayotgan epidemologik vaziyat bizning yurtimizda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Natijada uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida ta’lim masofaviy o‘qitish tizimi asosida davom ettirildi. Albatta har bir ishning boshlanishida qiyinchiliklar va kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Masofaviy o‘qitish amaliyotga ilk marotaba tatbiq etilganligi bois ob’ektiv va sube’ktiv muammolar va kamchiliklar sezildi va bu asta-sekinlik bilan bartaraf etilmoqda.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ta’lim sohasida hozirgi davrda amalga oshirilgan islohotlar o‘z aksini topdi va uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, jumladan oliy ta’lim tizimi zimmasiga jahon andozalariga mos, iste’molchilar talabiga javob beradigan, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdek ulkan vazifa yuklatilgan. Ushbu Qonunning 16-moddasida masofaviy ta’lim shakli haqida: “Masofaviy ta’lim o‘quv rejalari va o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan” [1] deyiladi.

Masofaviy ta’lim–masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta‘lim oluvchilarga ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta‘lim majmuidir [5].

Masofaviy ta’lim – o‘qitishning yangi shakli bo‘lib, u o‘qitishning ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holdagi ko‘rinishlaridan farq qiladi. U ta’limning yangi shakllari, metodlari, vositalari, tashkil etilishi, pedagog va talaba o‘rtasidagi hamda talabalarning o‘zaro muloqoti shakllarini nazarda tutadi. Shuningdek, bunday ta’limning o‘ziga xos turli shakllari, ijtimoiy buyurtma bilan asoslangan oz maqsadiga, tanlangan ta’lim muassasasining o‘quv dasturlarida belgilangan mazmun hamda o‘qitish metodlarining tashkiliy shakli va maxsus vositalariga ega bo‘ladi.

Masofali o‘qitish, o‘quv predmet hamda o‘quv-uslubiy materiallar bilan yaxshi ta’minlangan bo‘lsa, an’anaviy ma’ruzalarga ehtiyoj qolmaydi. Bu holda, o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilar tomonidan boshlang‘ich bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish jarayonini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Shakllanayotgan masofaviy ta’lim tizimi kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kadrlar bilan ta’minlashda ijobiy samara berishi mumkin. Kompyuterlar va tarmoqli telekommunikatsiya texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi qulay vosita hisoblanadi.

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigon axborot texnologiyalari vositalarini tanlash muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan texnologiyalar, ularning ta’limdagi o‘rni va vazifalari bo‘yicha tavsiflari keltirilgan.

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan texnologiyalar va ularning tavsiflari

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan texnologiyalar va ularning tavsiflari

Texnologiya	Tavsiflari
Audio-video tashuvchilar	Interaktivlikda kuchsiz muloqot. Ishlab chiqarish hajmi, tinglovchilar soni bilan chiziqli bog‘langan. O‘quv materiallaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish, batafsil tanishish, uzoq vaqt foydalanish imkoni.
Internet va kompyuter texnologiyalari	Interaktivlikning o‘rtacha darajasi ma’lum darajada rivojlangan infrastruktura. Arzonligi.
Real vaqt rejimida kompyuter tarmog‘i orqali o‘tkaziladigan videokonferensiya	Interaktivlikning yuqori darajasi. Mukammal rivojlangan infratuzilma tarmog‘i. Kompyuter dasturiy ta’minotidan foydalanish. Arzonligi.
Analogli sun’iy yo‘ldosh kanali orqali o‘tkaziladigan videokonferensiya	Interaktivlikning yuqori darajasi. Tasvir va ovozni uzatishda, minimal texnologik kechikish bilan tasvirni uzatish sifatining maksimal imkoniyati.
Raqamli sun’iy yo‘ldosh kanali orqali o‘tkaziladigan videokonferensiya	Interaktivlikning yuqori darajasi. Tasvir sifatining yuqoriligi. Talablarni bajarilishini qimmatligi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’lim texnologiyalarining quyidagi qator ko‘rinishlari keng joriy etib kelinmoqda. Bular:

- O‘quv jarayoninig masofaviy tizimi (LMS – Learning Management System);
- MOOC (Massive Open Online Courses) – ommaviy ochiq onlayn kurslar;

Vebinar – ta’limning virtual axborot – ta’lim muhitida olib borishning yangi shakli.

Respublikamiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘qitish ishlarini jahon andozalariga moslashtirishni va eng samarali usullarga asoslanishni taqozo etmoqda. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, elektron ta’lim jarayonini tashkillashtirish hozirgi zamon talabidir. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini elektron ta’lim asosida tashkil etishni keng yo‘lga qo‘yish ta’lim samaradorligini oshirishga olib kelishi shubhasiz. Raqamli ta’lim texnologiyalari asosida o‘qitish ishlarini takomillashtirish, ommalashtirish, elektron ta’lim texnologiyalari bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasini chuqur o‘rganish zamonaviy ta’lim milliy modelini yaratilishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘jallangan yangi O‘zbeksitonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60 sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-5841063
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni. T.: 2019, 8 oktabr. https://lex.uz/ru/docs/-4545884
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida “gi PF-5953 son Farmoni // https://lex.uz/docs/4751567
5. Umarov B. Masofaviy ta’lim va undan foydalanish. YANGI O‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. Volume 1 Issue 4. 01.12.2024.https://phoenixpublication.net/index.php/TTVAL/article/view/484/424
6. Talabalarda masofadan ta’lim olish madaniyatini yuksaltirish. www.uzedu.uz.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Maxmudova Darmonjon Bozorboyevna
TPMI doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli texnologiyalarni ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari keng yoritilgan. Ijtimoiy-emotsional ta’lim nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki shaxsning emotsional muvozanatini, o‘zini anglash, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ijobiy qaror qabul qilish va stressni yengib o‘tish qobiliyatlarini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni samarali tashkil qilish uchun muhim vosita sifatida qaralmoqda. Zamonaviy interaktiv platformalar, mobil ilovalar, sun’iy intellektga asoslangan dasturlar, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari hamda onlayn ta’lim resurslari talabalarning emotsional holatini kuzatish, ularga shaxsiylashtirilgan yondashuv asosida yordam berish, shuningdek, ijtimoiy ko‘nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi. Maqolada raqamli texnologiyalarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etishda uchrashi mumkin bo‘lgan cheklovlar va muammolar ham ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli texnologiyalar, ijtimoiy-emotsional ta’lim, sun’iy intellekt, onlayn ta’lim, emotsional rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье подробно рассматриваются возможности использования цифровых технологий в процессе социально-эмоционального образования. Социально-эмоциональное образование включает не только формирование знаний и навыков, но и развитие эмоционального равновесия личности, самосознания, умения эффективно взаимодействовать с другими людьми, принимать позитивные решения и справляться со стрессовыми ситуациями. Цифровые технологии рассматриваются как важный инструмент для эффективной организации этого процесса. Современные интерактивные платформы, мобильные приложения, программы на основе искусственного интеллекта, технологии виртуальной и дополненной реальности, а также онлайн-ресурсы позволяют отслеживать эмоциональное состояние учащихся, предоставлять персонализированную помощь и укреплять социальные навыки. В статье анализируются как положительные стороны цифровизации образования, так и возможные ограничения и вызовы, возникающие при их внедрении.*

Ключевые слова: *цифровые технологии, социально-эмоциональное образование, искусственный интеллект, онлайн-обучение, эмоциональное развитие.*

Abstract. *This article explores the opportunities for integrating digital technologies into social-emotional learning (SEL). Social-emotional learning is not limited to the acquisition of knowledge and skills; it also encompasses the development of emotional balance, self-awareness, effective communication with others, positive decision-making, and coping with stress. Digital technologies are increasingly seen as essential tools for facilitating these processes. Modern interactive platforms, mobile applications, AI-powered software, virtual and augmented reality technologies, and online learning resources allow educators to monitor students’ emotional states, provide personalized support, and enhance social competencies. The*

paper examines both the advantages of using digital tools in SEL and the potential challenges or limitations that may arise in implementation.

Keywords: *digital technologies, social-emotional learning, artificial intelligence, online education, emotional development.*

Ijtimoiy-emotsional ta’lim bugungi kunda zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Dunyo miqyosida ta’lim faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning ijtimoiy jihatdan faol, emotsional barqaror va ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lib kamol topishini ham ko‘zlamoqda. Ijtimoiy-emotsional ta’lim asosan besh asosiy kompetensiyaga tayangan holda shakllanadi: o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va mas’uliyatli qaror qabul qilish. Bu kompetensiyalar shaxsning butun hayotida nafaqat ta’lim jarayonida, balki ish faoliyatida, oilaviy munosabatlarda va jamiyatdagi faol ishtirokida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalariga chuqur kirib kelayotgani bois, ta’lim jarayonida ham ularning samarali qo‘llanishi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish mumkinligi haqida ilmiy izlanishlar ham ko‘paymoqda.

Raqamli texnologiyalar avvalo talabalar emotsional holatini tahlil qilish, ularning psixologik ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos yondashuvni taklif etishda yordam beradi. Masalan, sun’iy intellektga asoslangan dasturlar bolaning yozma javoblari, nutq uslubi yoki yuz ifodalarini tahlil qilish orqali uning kayfiyati, ruhiy bosimi yoki motivatsiya darajasini aniqlashi mumkin. Bu esa pedagogga har bir talaba uchun individual yondashuvni qo‘llash, kerak bo‘lsa qo‘shimcha motivatsion mashg‘ulotlar yoki psixologik yordam ko‘rsatish imkonini beradi. Shuningdek, turli mobil ilovalar yordamida bolalar o‘z emotsiyalarini anglash, ularni boshqarish va stressni kamaytirishga oid mashqlarni mustaqil bajarishi mumkin.

Bundan tashqari, virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari ijtimoiy-emotsional ta’limda muhim vositalardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Masalan, VR orqali talabalar turli ijtimoiy vaziyatlarni boshdan kechirishlari, muammoli vaziyatlarda qanday qaror qabul qilish kerakligini sinab ko‘rishlari, yoki boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. AR texnologiyasi esa haqiqiy ta’lim muhiti bilan uyg‘unlashib, qo‘shimcha vizual va emotsional tajribalar yaratadi. Bu jarayon talabalarda nafaqat bilish faoliyatini, balki ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarni ham kuchaytiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning ijtimoiy faolligini ham oshirish mumkin. Masalan, onlayn forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, interaktiv platformalar orqali turli mamlakatlardan bo‘lgan tengdoshlari bilan muloqot qilish, xalqaro loyihalarda ishtirok etish talabalarda madaniyatlararo kompetensiyani shakllantiradi. Bu jarayon esa ijtimoiy-emotsional ta’limning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan tolerantlik, o‘zaro hurmat va madaniyatlar xilma-xilligini qadrlash kabi qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Albatta, raqamli texnologiyalarni ijtimoiy-emotsional ta’limda qo‘llashda ayrim muammolar va cheklovlar ham mavjud. Avvalo, texnologiyalarning haddan ortiq ishlatilishi bolalarda emotsional charchoq, real hayotdagi muloqotdan uzoqlashish va internetga qaramlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu bois raqamli vositalardan foydalanishda me’yor va balansni saqlash juda muhimdir. Ikkinchidan, texnologiyalardan foydalanishda teng imkoniyatlar masalasi ham dolzarb. Hamma ham zamonaviy gadjetlar yoki tezkor internet tarmog‘idan foydalana olmaydi, bu esa ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli tengsizlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan

tashqari, texnologiyalar orqali yig‘iladigan ma’lumotlar maxfiyligi, talabalarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish masalasi ham alohida e’tibor talab qiladi.

Shunga qaramay, raqamli texnologiyalarni to‘g‘ri va maqsadli qo‘llash orqali ijtimoiy-emotsional ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu borada pedagoglarni zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishga tayyorlash, ularga tegishli malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Shu bilan birga, milliy ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional ta’limni alohida yo‘nalish sifatida rivojlantirish, o‘quv dasturlariga maxsus modullar kiritish va bu jarayonni raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirish kelajak avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston misolida ham so‘nggi yillarda ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Onlayn ta’lim platformalari, elektron darsliklar, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilayotgan test tizimlari va boshqa raqamli yechimlar ijtimoiy-emotsional ta’limni rivojlantirishda katta salohiyatga ega. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonini boyituvchi, talabalarda emotsional barqarorlikni, ijtimoiy ko‘nikmalarni va shaxsiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim vositadir. Ularning imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish va ta’lim jarayoniga oqilona integratsiya qilish orqali kelajakda jamiyatimiz ijtimoiy jihatdan faol, emotsional jihatdan barqaror va ijodkor yoshlarni tarbiyalash imkoniyati oshadi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy-emotsional ta’lim bugungi zamonaviy ta’lim tizimida shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. U nafaqat bilim olishni, balki talabalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, stressni boshqarish va ijobiy qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar esa bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Sun’iy intellekt, mobil ilovalar, virtual va kengaytirilgan reallik, onlayn platformalar talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, emotsional holatini kuzatish va shaxsiylashtirilgan ta’limni ta’minlashda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish yoki teng imkoniyatlarning yo‘qligi kabi muammolarni ham e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Shuning uchun raqamli vositalardan oqilona, pedagogik maqsadlarga mos ravishda foydalanish, pedagoglarni malaka oshirish, maxfiylik va xavfsizlikni ta’minlash kabi masalalarga jiddiy e’tibor qaratilishi zarur. O‘zbekiston ta’lim tizimida olib borilayotgan raqamlashtirish islohotlari ijtimoiy-emotsional ta’limga ham samarali tatbiq etilsa, yosh avlodni raqobatbardosh, ijtimoiy faol va emotsional jihatdan barqaror shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyati yanada kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. CASEL. (2020). What is SEL? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. https://casel.org/what-is-sel/
2. Durlak, J. A., Domitrovich, C. E., Weissberg, R. P., & Gullotta, T. P. (Eds.). (2015). Handbook of social and emotional learning: Research and practice. The Guilford Press.
3. Goleman, D. (2006). Emotional intelligence: Why it can matter more than IQ. Bantam.
4. Immordino-Yang, M. H., & Damasio, A. (2007). We feel, therefore we learn: The relevance of affective and social neuroscience to education. Mind, Brain, and Education, 1(1), 3–10. https://doi.org/10.1111/j.1751-228X.2007.00004.x
5. Kankashova, S., & Abduqodirova, M. (2021). The role of digital technologies in improving the quality of education in Uzbekistan. Journal of Critical Reviews, 8(4), 1337–1343. https://doi.org/10.31838/jcr.08.04.228
6. OECD. (2021). 21st-century children: Promoting social and emotional well-being. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/21c23d4f-en

7. Shadiev, R., & Yang, M. (2020). Review of studies on technology-enhanced language learning and teaching. Sustainability, 12(2), 524. https://doi.org/10.3390/su12020524
8. Yilmaz, R. (2017). Exploring the role of digital storytelling in social-emotional learning. Educational Technology & Society, 20(2), 180–189.
9. Zins, J. E., Weissberg, R. P., Wang, M. C., & Walberg, H. J. (Eds.). (2004). Building academic success on social and emotional learning: What does the research say? Teachers College Press.
10. Zohidov, F., & Tursunov, K. (2022). Digital transformation in education of Uzbekistan: Challenges and perspectives. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 7(2), 45–55.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ILLUSTRATSIYALAR VOSITASIDA ESTETIK HIS-TUYG‘ULARNI SHAKLLANTIRISH

Maxmudova Dilshodaxon Zafarjon qizi
Toshkent shahar Sergeli tumani Turon Xalqaro Maktabida Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tasviriy san’at asari – illustratsiyalar yordamida estetik his-tuy‘ularni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi estetik tarbiyaning bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati, shuningdek, boshlang‘ich ta’limning keyingi ta’lim uchun asos bo‘lishi bilan belgilanadi. Illustratsiyalar – bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining estetik saviyasini oshirish, go‘zallikni sezish, hurmat qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning kuchli vositasi hisoblanadi. O‘qituvchi tomonidan illustratsiyalarni maqsadli va tizimli tanlash va ulardan foydalanish bolalarning nozik estetik his-tuy‘ularini shakllantirishga, ularning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *estetik tarbya, estetik his-tuy‘ular, boshlang‘ich sinf, illustratsiya, tasviriy san'at, pedagogik texnologiya, did, go‘zallik, o‘quv jarayoni.*

Kirish. Boshlang‘ich sinf yoshi - bu bolaning shaxsiyati, dunyoqarashi va estetik didi shakllanadigan eng muhim davr. Ushbu davrda tasviriy san’at asarlari, xususan, kitob illustratsiyalari bolaning estetik his-tuyg‘ularini rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Illustratsiyalar bolalarga nafaqat badiiy asarning mazmunini tushunishga, balki go‘zallikni sezish, baholash va yaratish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Tasvirlar bolalar uchun nafaqat hikoya qilish, balki keng qamrovli estetik tarbiya vositasi hisoblanadi.

Tasvirlar bolalarning go‘zallikni sezish qobiliyatini qanday shakllantiradi?

1. Ranglar dunyosiga kirish: Rassomlar ranglarning uyg‘unligi, kontrasti va hissiy ta’sirini qanday ishlatishini ko‘rib, bola ranglar tilini o‘rganadi. U qizil nafaqat qizil, balki g‘azab, issiqlik yoki muhabbat ham ekanligini, moviy – sokinlik yoki sog‘lomlik ramzi ekanligini tushunishni boshlaydi.

2. Kompozitsiya va muvozanatni tushunish: Tasvirlar orqali bola narsalarning qog‘ozda qanday joylashishi (kompozitsiya) umumiy tasvirga ta’sir qilishini sezadi. Ob’ektning qayerda joylashishi uni muhammo yoki ahamiyatsiz qilishi mumkinligini anglaydi.

3. To‘qimalar va detallarni kuzatish: Rassomning chizgan har bir chizig‘i, har bir soya berish usuli bolaga diqqat bilan kuzatishni o‘rgatadi. U daraxt po‘stlog‘ining naqshini, bulutning shaklini, matoning burushiqlarini sezishga o‘rganadi.

Tasvirlar go‘zallikni yaratish qobiliyatini qanday rag‘batlantiradi?

1. Ijlodkorlik uchun namuna va ilhom manbai: Chiroyli rasmlarni ko‘rib, bola o‘zi ham shunday qilishga urinadi. U rassomning uslubidan o‘zlashtirib, o‘z loyihalarida qo‘llashga harakat qiladi.

2. G‘oyalar va hikoya qilish vositasini taklif etadi: Bola o‘qigan hikoya uchun o‘zining rasmini chizishga, o‘z qahramonlarini yaratishga undanadi. Bu uning ichki dunyosidagi go‘zallikni tashqi dunyoga chiqarish imkoniyatidir.

3. Eksperiment qilishga ishonch hosil qiladi: Turli rassomlarning g‘ayrioddiy yechimlarini ko‘rib, bola o‘zi ham qo‘rqmasdan ranglar va shakllar bilan tajriba o‘tkazishga jur’at qiladi. Bu erda muhim jihat – natija emas, balki yaratish jarayonining o‘zi.

ASOSIY QISM.

Illustratsiyalarning estetik tarbiyadagi o‘rni. Kitob illustratsiyalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik hislarni shakllantirishning quyidagi jihatlarida muhim rol o‘ynaydi:

1. Ranglar dunyosiga kirish - illustratsiyalar orqali bola ranglarning uyg‘unligi, kontrasti va ifodaviyligi bilan tanishadi

2. Kompozitsion tushunchalar - tasvirdagi ob’ektlarning joylashishi, nisbati va muvozanati haqida tasavvur hosil qiladi

3. Badiiy ifoda vositalari - chizmat, bo‘yoq texnikasi, faktura kabi badiiy usullar bilan tanishadi

4. G‘oyaviy mazmun - illustratsiya orqali badiiy asarning g‘oyasini va obrazlarini chuqurroq idrok etadi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik hislarni shakllantirish usullari

1. Illustratsiyalarni tahlil qilish va muhokama qilish

O‘qituvchi bolalar bilan birgalikda illustratsiyalarni tahlil qilishi, ranglar, shakllar, kompozitsiya haqida suhbatlashishi kerak. Savollar: “Bu rasmda qanday ranglar ko‘p ishlatilgan?”, “Rassom qanday kayfiyatni ifodalamoqchi?”, “Sizga bu rasmning qaysi qismi ko‘proq yoqdi?" kabi savollar bolalarning estetik saviyasini oshiradi.

2. Taqqoslash usuli

Turli rassomlarning illustratsiyalarini taqqoslash, turli badiiy uslublarni ko‘rib chiqish bolalarning didini oshiradi. Masalan, xalq amaliy san’ati namunalari bilan zamonaviy illustratsiyalarni solishtirish.

3. Yaratuvchilik faoliyati

Illustratsiyalarni ko‘rib chiqqandan so‘ng, bolalarni o‘zlarining variantlarini yaratishga undash. Bu ularning nafaqat estetik didini, balki ijodiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi.

4. Multimedialardan foydalanish

Zamonaviy texnologiyalar yordamida illustratsiyalarni interaktiv tarzda ko‘rsatish, ularning yaratilish jarayonini qisqa videolar orqali ko‘rsatish bolalarning qiziqishini oshiradi.

O‘qituvchining roli.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi bolalarda estetik hislarni shakllantirishda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

1. To‘g‘ri materialni tanlash - yoshga mos, estetik jihatdan qimmatli illustratsiyalarni tanlash

2. Muhit yaratish - sinf xonasini estetik tarbiyaga qaratilgan materiallar bilan boyitish

3. Namuna ko‘rsatish – o‘zi ham go‘zallikni sevuvchi va uni ifodalay oluvchi namuna bo‘lish.

4. Individual yondashuv - har bir bolaning estetik idrok etish xususiyatlarini hisobga olish.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida illustratsiyalar vositasida estetik his-tuyg‘ularni shakllantirish - bu murakkab, ammo juda muhim pedagogik jarayon. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchi bolalarni faol ishtirok ettiruvchi, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi va go‘zallikni sezish qobiliyatini oshiruvchi usullarni qo‘llashi lozim. Illustratsiyalar bolalarning nafaqat estetik, balki axloqiy, ma’naviy va intellektual dunyosini boyitishning kuchli vositasi hisoblanadi. Badiiy asarlarning tasvirlari bolalar uchun go‘zallikning

birinchi o‘qituvchisidir. Ular bolalarga nafaqat hikoya qiladi, balki ularning ko‘zini dunyodagi rang-baranglikka, qulog‘ini esa hayotning ohanglariga ochib beradi. Bu esa ularni nafaqat san’atni qadrlashga, balki o‘z hayotlarini ham go‘zal va boy qilishga yo‘naltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Venger L.A., Mukhina V.S. Psixologiya. - M.: Prosveshchenie, 1988.
2. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta'limda san'at asarlaridan foydalanish. - T.: O‘qituvchi, 2015.
3. Melik-Pashaev A.A. Pedagogika iskusstva i tvorcheskie sposobnosti. - M.: Znanie, 1981.
4. Yusupova O. Bolalarda estetik tarbiya. - T.: Yangi asr avlodi, 2018.
5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogika psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 224 b.
6. Boymetov B., To‘rayev B. Badiiy adabiyot asarlari asosida o‘quvchilarning estetik didini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2010. – 120 b.
7. Mirziyoyev SH.M. Estetik tarbiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 176 b.
8. Raxmonqulova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga she’r o‘rgatish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2012. – 96 b.
9. Saidova M. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2019. – 160 b.
10. Tyutyunnikova V.E. Uchit’sya, igraya. Model’ elementarnogo muzitsirovaniya s det’mi. – Moskva: VLADOS, 2020. – 144 b. (Musiqa va o‘yin orqali ta’lim berish).

APPLICATION OF DIGITAL TOOLS IN THE LEARNING PROCESS AIMED AT DEVELOPING THE SOCIO-EMOTIONAL SPHERE

Niyazova Regina Rustamovna
Assistant Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences of the Department of Sports Activity of Alfraganus University, Republic of Uzbekistan regina.89@mail.ru

Abstract. *Digital technologies are becoming an increasingly important component of the educational process, especially in the development of socio-emotional competencies. The article discusses the main directions of using digital tools for the formation of emotional intelligence, self-regulation skills, empathy and social responsibility in children and adults. The prospects and challenges of digitalization in the context of socio-emotional education are also analyzed.*

Keywords: *socio-emotional education, digital technologies, emotional intelligence, psychology, education, gamification, artificial intelligence.*

Аннотация. *Цифровые технологии становятся всё более значимым компонентом образовательного процесса, особенно в сфере развития социально-эмоциональных компетенций. В статье рассматриваются основные направления использования цифровых инструментов для формирования эмоционального интеллекта, навыков саморегуляции, эмпатии и социальной ответственности у детей и взрослых. Также анализируются перспективы и вызовы цифровизации в контексте социально-эмоционального образования.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное образование, цифровые технологии, эмоциональный интеллект, психология, образование, геймификация, искусственный интеллект.*

Annotatsiya. *Raqamli texnologiyalar, ayniqsa ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish sohasida, ta’lim jarayonining tobora muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Maqolada bolalar va katta yoshdagilarda hissiy intellekt, o‘zini boshqarish malakalari, ham□ardlik va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish uchun raqamli vositalardan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional ta’lim doirasida raqamlashtirishning istiqbollari va muammolari tahlil etiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, raqamli texnologiyalar, emotsional intellekt, psixologiya, ta’lim, geymifikatsiya, sun’iy intellekt.*

Relevance. In the 21st century, digital technologies are being actively integrated into education, including the realm of social-emotional development (SED). The aim of this study is to identify and systematize the potential applications of digital tools for fostering emotional intelligence, self-regulation skills, and empathy. The methodology is based on a review of modern online platforms, gaming and VR/AR solutions, as well as systems that employ artificial intelligence to adapt the learning process. The results show that gamification, interactive applications, and immersive environments enhance student engagement and contribute to SED. Positive effects are observed from the use of VR simulations of conflict situations and AI assistants that monitor emotional states. Conclusion: Digital technologies hold significant

potential in social and emotional pedagogy, provided they are implemented in a pedagogically sound and ethically appropriate manner [1,3,5].

Materials and research methods. Method: analytical review of existing platforms and technologies. Criteria: pedagogical value, proven effectiveness, and accessibility.

The purpose of the study. To identify the variety of digital tools and evaluate their effectiveness in social and emotional development.

What is socio-emotional education? Socio-emotional education is the systematic development of skills in managing emotions, setting goals, establishing positive relationships, making responsible decisions, and interacting constructively with others. These skills are critically important both in the school environment and in adult life, including professional activities, sports, and everyday communication.

Digital technologies as a tool of socio-emotional education

1. Online platforms and applications

There are specialized digital platforms aimed at developing emotional intelligence in children and adolescents. Examples include:

• Peekapak, ClassDojo, platforms with interactive stories, games, and tasks for developing empathy, self—regulation, and teamwork.

• Headspace, Smiling Mind — applications for meditation and mindfulness skills development that reduce stress and anxiety.

2. Gaming technology (gamification)

Games with elements of choice, consequences, and interaction with characters contribute to understanding moral and emotional dilemmas. Such games can be used both individually and in a group format to develop empathy and critical thinking.

3. Artificial intelligence and adaptive learning

Modern AI-based systems allow you to personalize learning: monitor students' emotional states, adapt assignments to their current mood and level of engagement. This is especially important for children with special needs or emotional difficulties.

4. Virtual and Augmented Reality (VR/AR)

Immersive technologies allow simulating situations of social interaction, which gives students the opportunity to "try on" different roles and emotions. For example, simulations can teach teenagers constructive conflict resolution or tolerance development.

5. Illustrations

• Infographic (Fig. 1) – five key components of emotional intelligence (in Image 1).




Image 1.

• Diagram (Fig. 2) – examples of SIR's technologies and related skills (in Image 2).




Image 2.

• Diagram (Fig. 3) – the difference between high and low levels of emotional intelligence (Image 3).




Image 3.

• Tips-checklist (fig. 4) – practical recommendations for improving EI through digital tools (Image 4).



Image 4.

Application in educational and sports environment. Digital technologies in social and emotional education are particularly useful in:

• Schools and universities as part of a psychological and pedagogical support program.

• Sports organizations — for coaches and athletes, where it is important to develop teamwork, stress tolerance and self-control skills.

• Medical institutions — when working with adolescents suffering from anxiety disorders, adjustment disorders, and emotional disorders.

The results of the study revealed certain
advantages of using digital technologies in the educational and sports environment
that improve socio-emotional education. Let's consider some of them:

• Individualization of learning

• Availability in any region

• Increase motivation through interactive formats

• Monitoring progress

However, in the course of the study, it was determined that problematic aspects also arise.:

• Dependence on technology

• Limited live contact

• The need for digital literacy among teachers and parents

• Data privacy risks [2,4].

Conclusion. Digital technologies open up wide opportunities for the introduction of socio-emotional education in a wide variety of fields. However, their use requires a conscious approach, pedagogical competence and ethical standards.When properly integrated, digital tools can significantly enrich an individual's emotional and social development, contributing to the formation of a harmonious and sustainable society.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Ivanova, E. A., & Petrov, A. B. The use of digital technologies in the educational process: current trends. Bulletin of Pedagogy and Education, - 15(2), 2023. -P 45-58.
2. Ivanova, A. N. The use of mobile applications in education: a monograph. Moscow: Publishing house "Education XXI", - 2019. - 256 p.

3. Smith, J., & Jones, L. Digital Tools for Learning: A Review. Journal of Educational Technology, 42(1) - 2021. – P 10-25.
4. Petrov, S. V. A digital platform as a means of increasing student motivation. Pedagogical Technology, 8(4) - 2022. – P 102-110.
5. Brown, M. E-Learning Environments and Their Impact. Educational Research Quarterly, 33(3) - 2020. – P 77-94.

SPORT FAOLIYATI SHAXSNING EMOTSIONAL HOLATIGA TA’SIRI VA UNING XUSUSIYATI

O‘tashev Xasan Nematullayevich
Alfraganus university “Sport faoliyati” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
ORCID 0000-0002-8777-226X

Annotatsiya. *Mazkur maqola jismoniy faollikning inson hissiy holatiga ta’siri masalasini tahlil qilishdan iborat. Shu jumladan muammolar va stressga to‘la zamonaviy dunyoda sport bilan shug‘ullanishni o‘ziga xos “ma’naviy yengillik” sifatida qarashlar ham muhim hisoblanadi. Insonning faol faoliyati davomida har doim ham ijobiy his-tuyg‘ular paydo bo‘lavermasligi shu bilan birga jismoniy faollik haqiqatan ham insonning nafaqat jismoniy va hissiy salomatligiga va uning turmush tarzi va odatlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatishi haqida bayon etilgan.*


Kalit so‘zlar: *sport faoliyati, salomatlik, turmush tarzi, emotsional qo‘llab-quvvatlash, ijobiy emotsiyalar, salbiy emotsiyalar.*

Bolalikdan boshlab katta avlod o‘z farzandlariga harakatli o‘yinlar orqali faol va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini singdiradi. Bu o‘yinlar bolalarda kuchli ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otadi. Vaqt o‘tishi bilan bolalar ulg‘ayadi va ularning sport hayotiga qiziqishi har doim ham saqlanib qolmaydi. Sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishiga bo‘sh vaqtning yetishmasligi, yangi qiziqishlarning paydo bo‘lishi va shunga o‘xshash ko‘plab omillar sabab bo‘ladi. Insonning sportdan voz kechishining eng ko‘p uchraydigan sababi esa uni zerikarli deb hisoblashidir.

Har bir inson nafaqat jismoniy salomatlikni saqlash, balki tashvish va stressga to‘la zamonaviy dunyoda juda zarur bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ularni olish uchun o‘ziga mos keladigan sport turini topishi kerak. Bugungi kunda ko‘plab odamlar sport zalidagi mashg‘ulotlar orqali stressdan xalos bo‘lishadi, chunki ular u yerda mashg‘ulotlarga e’tibor qaratishadi va ulardan ko‘plab ijobiy his-tuyg‘ularni olishadi, bu esa ularning ruhiyatini yengillashtiradi.

Biz tadqiqot davomida faol turmush tarzini olib boruvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik va bunda biz “nima maqsadda sport bilan shug‘ullanishadi” degan savolga javoblar turlicha ko‘rinishda bo‘ldi.

1. Jismoniy jihatdan chiniqqan chiroyli tanaga ega bo‘lish uchun nima qilish kerak?
2. Immunitetni mustahkamlash uchun nima qilish kerak?
3. Ijobiy his-tuyg‘ularga erishish uchun nimalargaega bo‘lish kerak?
4. Yangi tanishlar orttirmoq uchun nima qilish kerak?
5. Zerikishdan xalos bo‘lmoq uchun nimalar bilan shug‘illanmoq lozim?
6. Sport bilan shug‘illanish uchun boshqa sabablar va omillar?



O‘tkazilgan so‘rovnoma tahlillarga ko‘ra eng ko‘p olingan javoblar “Inson organizmida immunitetni mustahkamlash uchun” va “Ijobiy his-tuyg‘ularni olish uchun” degan xulosaga kelindi. Bu shuni anglatadiki, odamlar ham jismoniy, ham hissiy salomatlikka ega bo‘lishlari muhimdir.

Odamlar o‘zlari sevgan sport turi bilan shug‘ullanishga kelganlarida, faqat ijobiy his-tuyg‘ularni olish bilan cheklanib qolmaydilar. Shu bilan birga, ular yangi tanishlar orttiradilar va do‘stona munosabatlar o‘rnatishadi, bu esa har bir inson uchun juda muhim. Yaxshi jamoa bilan sport zalga kelish va u yerdagi odamlar bilan sog‘liq uchun foydali vaqt o‘tkazish eng kuchli rag‘batlantiruvchi omil hisoblanadi.

Bunday holatda yoki bu jarayonda nafaqat yaxshi jamoa, balki yoqimli musiqa ham katta ahamiyatga ega. Musiqaning inson organizmiga ta’siri haqida ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Don Kentning ta’kidlashicha “Musiqa ko‘plab biologik jarayonlarga sezilarli fiziologik ta’sir ko‘rsatadi, charchoq oqibatlarini kamaytiradi, pulsni o‘zgartiradi va nafas olishni, bosimni tenglashtiradi, shuningdek, psixogalvanik ta’sir ko‘rsatadi” degan. Bu uning insonga yaxshi ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi, shuning uchun har qanday sport zalida har doim yoqimli kuy yangraydi. Bugungi kunda odamlar musiqaning ijobiy ta’siridan kundalik hayotda ham faol foydalanmoqdalar. Musiqa o‘ziga xos davolash usuli sifatida ham qo‘llaniladi: tinchlanish, uyquga ketish, o‘zini ishga undash, kayfiyatni ko‘tarish yoki shunchaki ezuvchi sukunatni yoqimli ohanglar bilan almashtirish uchun ishlatiladi.

Sevimli sport turi ko‘p kuch talab qiladigan sport turi bo‘lishi shart emas, balki yoqimli jamoa bilan sport zalda xotirjam mashq qilish ham shunday bo‘lishi mumkin. Yildan yilga hissiy bo‘shashish va kundalik ishlardan dam olish uchun sportni tanlashda eng katta afzallikka ega bo‘lgan yoga bunga ajoyib misol bo‘la oladi.

Yoga odamni keskin harakatlar qilishga majbur qilmaydi, aksincha - xotirjamlik va silliq harakatlarni talab qiladi. Yoga bilan shug‘ullanayotganda tana bo‘shashadi va asta-sekin barcha mushaklarni cho‘zadi. Juftlikda bajariladigan ko‘plab mashqlar mavjud bo‘lib, ular kommunikativ aloqalarni o‘rnatishga yordam beradi.

Hozir vaqtda butun dunyoda asta-sekin modaga aylangan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilib kelinmoqda. Ko‘plab odamlar sport zallariga a’zo bo‘lib, yoga gilamchalari, gantellar, to‘plar, turli xil trenajyorlar va shunga o‘xshash sport anjomlarini sotib olishlari va ushbu sport

anjomlarini xarid qilish vaqtida ham yaxshi his-tuyg‘ularni uyg‘onishi juda mazmunli hisoblanadi, bu hissiyot esa doim yangi narsa sotib olishdan kelib chiqadi. Shuning uchun odamlar ko‘pincha o‘z kayfiyatlarini sport orqali ko‘tarish uchun turli xil sport anjomlarni xarid qilish bilan ham yaxshi kayfiyatini ko‘tarishadi.

Sport faoliyati salbiy his-tuyg‘ularni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ko‘p hollarda insonning sport bilan shug‘ullanishni istamasligiga sabab bo‘ladigan omillar dangasalik, jarohatlanish va tashqi ko‘rinishi ustidan kulishlaridan qo‘rqish, shuningdek, bo‘sh vaqtning yo‘qligi hisoblanadi. Bu omillarning barchasini bartaraf etish mumkin, lekin eng qiyini o‘z dangasaligi ustidan g‘alaba qozonish bo‘ladi. Darhaqiqat, uni yengish uchun ko‘p kuch sarflash va kuchli iroda egasi bo‘lish kerak. Agar inson o‘z dangasaligini yenga olsa, u nafaqat faol hayot tarzidan zavq olishi, balki sportda ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.

Ko‘pincha insonlarda faol sport faoliyatiga nisbatan salbiy his-tuyg‘ular paydo bo‘ladi, chunki qachonlardir ularni bu bilan shug‘ullanishga majburlashgan. Agar xohish bo‘lmasa, kimnidir sport bilan shug‘ullanishga majburlashning hech qanday ma’nosi yo‘q, bundan hech qanday natija chiqmaydi. Bunday ruhiy bosimning oqibati barcha harakatlarni mexanik tarzda, ya’ni hech qanday his-tuyg‘ularni namoyon etmasdan bajarishga olib keladi, bu ham keyingi kundalik hayotga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Harakatlarni mexanik tarzda bajarish odatga aylanib qolishi mumkin, bu esa har qanday his-tuyg‘ularni butunlay yo‘qotishga sabab bo‘lishi mumkin.

Sport bilan shug‘ullanishni tibbiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqsak, mashg‘ulotlar paytida insonda kayfiyat va hissiy holatiga ta’sir qiladigan gormonlar ishlab chiqariladi. Bu gormonlar inson organizmi uchun baxt gormonlari deb ataladigan endorfinlardir. Eng foydali jismoniy mashqlar ochiq havoda: ko‘chada, bog‘da, o‘rmonda va shu kabi joylarda bajariladi, chunki inson quyosh nurida bo‘lganida uning tanasida serotonin ishlab chiqariladi, bu ham hissiy holatni yaxshilaydi.

Endorfinlar bilan bir qatorda testosteron ham ishlab chiqariladi. Qondagi testosteron darajasini sezilarli darajada ko‘tarish uchun muntazam va jadallik bilan mashq qilish lozim: qisqa muddatli anaerob yuklamalar, majburiy kardio mashqlar, chigil yozdi va cho‘zilish mashqlari, to‘laqonli dam olish, muvozanatli ovqatlanish tartibi hamda parhezda oqsil miqdorini oshirish zarur.

Har bir inson nafaqat o‘zining jismoniy salomatligini saqlash uchun, balki o‘zi uchun zarur bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ularga ega bo‘lish uchun ham faol hayot tarzini olib borishi kerak. Eng muhimi, dangasaligingizni yengib, hissiy holatingizga zavq beradigan sport turini topishdir. Vaqt o‘tishi bilan bu maqsadga erishish uchun qilingan mehnat foydali odatga aylanishi mumkin va shundan so‘ng ko‘pchilik o‘z hayotini sportsiz tasavvur qila olmaydi. Shuning uchun, faol hayot tarzi odatga aylanganda, odamlar sportni tark etgandan so‘ng o‘zlari uchun boshqa faol mashg‘ulotlarni topadilar, bu ham sog‘liqqa yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan: tog‘ga tez-tez chiqib turish, skandinavcha yurish yoki oddiygina uy yumushlarini bajarish dastlab odatiy hol bo‘lib tuyulgan, keyinchalik esa o‘ziga xos “terapiya”ga aylangan.

Moliyaviy nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, sport bilan shug‘ullanish psixologga qatnashdan ko‘ra arzonroqqa tushadi. Bunday holda, sport bilan shug‘ullanishning yana bir afzalligi bor - go‘zal tana va sog‘lom hayot.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.U.Ibraximov “Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi” darslik // -Tafakkur qanoti nashriyoti - T.2022 yil 356 bet.

2. Шарипова Д. Использование здоровье сберегающих технологий в системе непрерывного образования в целях духовно-нравственного и культурного развития подрастающего поколения. Т.: Фан ва тенология, 2014. – 116 с.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-HISSIY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH ZARURIYATI

Polvanova Dilrabo Tagaymuratovna
O‘zDTU, Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi davr talabiga ko‘ra, ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlantirish zaruriyati ochib berilgan. Ijtimoiy-hissiy intellektni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan. Ijtimoiy-hissiy intellektning biologik va ijtimoiy asoslari tavsiflangan.*

Kalit so‘zlar: *Intellektual koeffitsient(IQ), ijtimoiy-hissiy intellekt(EQ), yumshoq ko‘nikma, biologik va ijtimoiy omillar.*

Аннотация. *В статье раскрывается необходимость развития социально-эмоционального интеллекта студентов в образовательном процессе в соответствии с требованиями современности. Выделены факторы, влияющие на развитие социально-эмоционального интеллекта. Описаны биологические и социальные основы социально-эмоционального интеллекта.*

Ключевые слова: *коэффициент интеллекта (IQ), социально-эмоциональный интеллект (EQ), гибкие навыки, биологические и социальные факторы.*

Abstract. *The article reveals the need to develop students' social and emotional intelligence in the educational process in accordance with modern requirements. The factors influencing the development of social and emotional intelligence are identified. The biological and social foundations of social and emotional intelligence are described.*

Keywords: *intelligence quotient (IQ), social and emotional intelligence (EQ), soft skills, biological and social factors.*

Dunyo doimo o‘zgarib turadi va hamma ham uning o‘zgarishlariga tezda moslashishga vaqt topa olmaydi. Bugungi kunda zamonaviy kompaniyalar ko‘p tarmoqli jamoalarda samarali ishlay oladigan moslashuvchan, kuchli va stressga chidamli xodimlarga muhtoj. Zamonaviy kompaniya, zavod va tashkilotlarda ko‘plab vazifalar avtomatlashtirilgan, internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga o‘tkazilgan. Qolganlarini hal qilish uchun nostandart vazifalarni bajara oladigan noyob mahoratga ega “yangi turdagi” yumshoq ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar kerak.

Bir vaqtlar IQ, ya’ni intellekt koeffitsiyenti hayotdagi muvaffaqiyatning asosiy ko‘rsatkichi hisoblangan. XXI asrga kelib olimlar, jumladan, amerikalik olim Daniel Goulman o‘zining “Hissiy intellekt: Nima uchun u IQ dan ko‘proq narsani anglatishi mumkin” asarida aqlning bir xil darajada muhim ko‘rsatkichi — EQ mavjudligini ilgari surdi. Keling, tushunchalarni ko‘rib chiqaylik:

Intellektual koeffitsient yoki **IQ** intellektual yetuklikni va muammolarni hal qilish qobiliyatini belgilaydi.

Hissiy intellekt yoki **EQ** — bu o‘zingizning va boshqalarning his-tuyg‘ularini, niyatlarini, motivatsiyasini, istaklarini tan olish va ularni boshqarish qobiliyati. So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, ishda, hayotda va salomatlikni yaxshilashda muvaffaqiyatga erishish uchun

EQ IQdan muhimroqdir. EQ nafaqat o‘z his-tuyg‘ularingizni, balki boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini ham tushunishga yordam beradi, ya’ni siz zamonaviy voqelikka yaxshiroq moslasha olasiz. IQ tufayli siz ish topasiz va EQ tufayli siz xizmat pillapoyalaridan yuqoriga ko‘tarila boshlaysiz.

Agar siz emotsional intellekt borasidagi konsepsiyalar bilan tanishishni istasangiz quyidagi yilnoma asosida tanishishingiz mumkin.

✓ **Ilk bora 1884 yil** Karl Georg Lange va amerikalik psixolog **Uilyam Jeyms**lar tomonidan hissiyot bilan bog‘liq nazariya bir-birlari bilan tanish bo‘lmagan holatda ilgari surildi. **Jeyms-Lange nazariyasi.**

✓ **1930** yilda Uolter Kennon va Filip Bard birgalikda **Kannon-Bard hissiyot** nazariyasini ishlab chiqqanlar. Ularning ta’kidlashicha, emotsiya va fiziologik reaksiyalar bir vaqtning o‘zida ro‘y beradi.

✓ **1937** — Robert Torndayk o‘z izlanishlarda sotsial intellekt to‘g‘risida yozdi.

✓ **1990** — Djon Meyer va Piter Seloveylar emotsional intellekt atamasini qo‘llay boshladilar va emotsional intellektni o‘lchash bo‘yicha izlanish olib bordilar.

✓ **1995 —** Daniel Goulman «Emotional Intelligence» nomli kitobini nashr ettirdi.

Psixologiyada shaxsning emotsional intellektini rivojlantirishga doir ikkita bir-biridan farq qiluvchi fikr mavjud. Ulardan biri J.Meyerga ko‘ra, **emotsional intellekt** darajasini oshirib bo‘lmaydi, u **barqaror qobiliyat** deb qaraladi.

Biroq, D.Goulman ta’lim-tarbiya orqali emotsional intellekt darajasini oshirish mumkin degan g‘oyani yoqlab chiqdi. Chunki inson miyasining asab yo‘llari hayotining o‘rta davriga qadar o‘sib va rivojlanib borishini asos qilib olingan. Emotsional intellektni ifoda etayotgan olimlarning fikricha insonning intellekt koeffitsienti bilan (IQ) uning muvaffaqiyatlari o‘rtasida hech qanday aloqa mavjud emas. Bu bilan eng aqlli odam muvaffaqiyatning eng yuqori pog‘onasiga chiqadi deb aytib bo‘lmaydi. Inson muvaffaqiyati intellektning ikkinchi ko‘rinishi emotsional intellekt (EQ)ga ko‘proq bog‘liq deya fikr bildiradilar. Bu g‘oyani birinchi bora D.Goulman ilgari surdi.

Bizningcha emotsional intellektni quyidagicha talqin qilish mumkin:

Emotsional intellekt - o‘z his-tuyg‘ularingizni anglash, tushunish va boshqarish, shuningdek, boshqalarning his-tuyg‘ularini anglash va tushunish qobiliyatidir. U o‘z-o‘zini anglash, o‘zini o‘zi boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar, motivatsiya va empatiya kabi bir qator ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Agar **aqliy salohiyat (IQ)** insonning intellektual, mantiqiy va analitik qobiliyatlarini o‘lchasa, **emotsional intellekt (EQ)** shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini o‘lchaydi. Qachonki shaxs o‘z his-tuyg‘ulari bilan do‘stlasha olsa u odamlar bilan munosabatlarni oson o‘rnata olishi mumkin.

Shaxsda emotsional intellektning rivojlanganlik belgilari sifatida quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- boshqalarning emotsiya va hissiyotlarini ularning mimikasi ya’ni, yuz ifodalari, imo-ishoralar, ovoz, xatti-harakatlar orqali tanib olish qobiliyati;
- empatiyaning mavjudligi, suhbatdoshning hissiyotlariga qiziqish;
- diqqat bilan tinglash, o‘z fikrlarini yetkazisha olish va jamoada ishlay olish qobiliyati;
- o‘z hissiyotlarining tabiatini, ularning sabablari va namoyon bo‘lish xarakterini tushuna olish;

Amaliy ma’noda, bu insonning o‘z hissiyotlari va emotsiyalari uning o‘z xulqini boshqarishi, shu qatorda boshqalarga nafaqat ijobiy, balki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini tushunishga yordam beradigan ko‘nikmalar to‘plamidir.

Qaysi biri muhimroq IQ yoki EQ?

Hissiy intellekt bu odamlar bilan samarali muloqot qilish uchun rivojlanishi mumkin bo‘lgan va rivojlanishi kerak bo‘lgan **yumshoq ko‘nikmadir**.

Ushbu qobiliyat muammoning mohiyatini tezda tushunishga, tegishli boshqaruv texnikasidan foydalanishga va maksimal natijaga erishishga imkon beradi.

Hissiy intellekt oddiy xodim uchun ham, muvaffaqiyatli martaba qurmoqchi bo‘lgan boshqaruvchi uchun ham zarurdir. Ko‘p sonli tadqiqotlarga ko‘ra, odam qanchalik yuqori mavqega ega bo‘lsa, u uchun hissiy intellektga ega bo‘lish shunchalik muhimdir. Hissiy intellekt: har qanday xodimda bo‘lishi kerak!

Hissiy intellektni rivojlantirish uchun siz **to‘rtta omilga** e’tibor qaratishingiz kerak: anglaganlik, o‘z-o‘zini baholash, motivatsiya va moslashuvchanlik.

Ushbu jihatlar hissiy intellektning o‘ziga xos piramidasini tashkil qiladi. Har kim o‘zini tahlil qilishi va o‘zining qaysi jihatlari kuchli va qaysi biri zaif va qaysi jihatlarni rivojlantirish zarurligini anglashi kerak.

Bugungi kunda IQ yoki EQ, nima muhimroq ekanligini baholash juda qiyin, ammo, bu ikki komponentning kombinatsiyasi har bir yuqori malakali mutaxassis uchun katta afzallikdir.

Bundan kelib chiqadiki, muvaffaqiyat ko‘p jihatdan bizning IQ va EQimizni qanchalik samarali va uyg‘un tarzda qo‘llashimiz bilan belgilanadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, o‘quvchilarda ijtimoiy hissiy intellektning shakllanishi o‘zining biologik va ijtimoiy asoslariga ega. Jumladan: **biologik asos** ota-onaning emotsional intellekt darajasi, tafakkurga javob beruvchi o‘ng yarim sharlarning rivojlanganligi, temperament *x*ususiyatlarini qamrab oladi. **Ijtimoiy asos** bolaning harakatlariga atrofdagilarning hissiy munosabati, o‘z-o‘zini anglashni kamol topganligi, hissiy jihatdan munosabatlarga kirisha olish imkoniyatlari, ota-onaning ma’lumotlik darajasi va oilaviy daromad, ota-onalar orasidagi iliq va samimiy munosabatning mavjudligi, e’tiqod va boshqa jihatlar tashkil etadi.

O‘quvchilarda o‘z hissiyotlarini ekologik realizatsiya qila olmaslik nima bilan tugaydi?

O‘quvchilarda o‘z hissiyotlarini ekologik realizatsiya qila olmaslik psixologik va fiziologik muammolarni kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. His-tuyg‘ularni ifoda etmaslik natijasida yurak og‘rig‘i, tomoq kasalliklari, astma, teri kasalliklari, depressiya, apatiya yoki boshqa salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Psixosomatika rasmiy fan bo‘lmasa-da, ruhiy holat va jismoniy holat o‘rtasidagi bog‘liqlikni inkor etish nodonlik bo‘ladi.

His-tuyg‘ularni ifodalashdan qo‘rqishning asosiy sabablari

Konfliktlardan qo‘rqish. His-tuyg‘ularingizni ko‘rsatishni boshlasangiz, sizni "ezishadi" va keyin uzoq vaqt davomida konfliktda bo‘lasiz. Shuning uchun, straus kabi, boshni qumga tiqasiz va gapirmaysiz.

O‘ziga ishonchsizlik. Siz "haqiqiy" bo‘lganingizda, sizni qabul qilmasliklaridan qo‘rqasiz. Bu ishonchsizlik turli shakllarda namoyon bo‘ladi: ishda perfeksionizm (xato qilmaslik, ahmoq ko‘rinishdan qo‘rqish), sinizm (yuqori mavzularni obro‘sizlantirish osonroq), va tartibsiz jinsiy aloqalar (muhabbat yo‘q, demak hech kim zarar qilmaydi).

His-tuyg‘ularni qanday ifodalashni o‘rganish kerak?

1. **His-tuyg‘ularingizni tan oling va qabul qiling.** Ularni rad etsangiz, o‘zingizni yo‘q qilasiz. Har qanday emotsiyani his qilish huquqiga egasiz, bu normaldir. Ularni tan olish va ochiq aytish muhimdir.
2. **His-tuyg‘ularingiz bilan bo‘lishing.** Ayollar do‘stlari bilan o‘z his-tuyg‘ularini bo‘lishishni yaxshi ko‘radilar va bu to‘g‘ri. Muammo oshxonada hal bo‘lmasligi mumkin, lekin ruhiy holat yengillashadi.
3. **Negativni chiqarib tashlang.** Ko‘chaga chiqib odamlarni urish kerak emas, lekin yostiqni urish, qog‘ozni yirtish yoki qalamlarni sindirish mumkin va kerak. Shahardan uzoqda baqiring. Sport zaliga boring va yuguring.
4. **Emotsiyaning sababini tushuning.** Nima uchun bu emotsiyani his qilyapsiz? Misol uchun, kimdir sizni o‘z chegaralaringizni buzishga majbur qilganda, siz o‘zingizni himoya qila olmadingiz va g‘azabingiz ichingizda qolib, xafagarchilik va qayg‘uga aylandi.

Yuqorida keltirilgan ijtimoiy-hissiy intellekt borasidagi nazariyalarni yanada to‘liqroq hayotga joriy etishda emotsional intellektni rivojlantirishning **eng maqbul yo‘li** sifatida guruhiy trening, individual trening, kouching, oila-ijtimoiy bolalar markazlarida bolalar uchun treninglar uyushtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Гоулман Дэниел. Эмоциональный интеллект, Почему он может значить больше, чем IQ- Москва :Манн, Иванов и Фербер, 2021.-544 с.
2. Ending school bullying: Focus on the Arab States UNESCO. . https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000369497
3. Bolalarga nisbatan jamiyatda sodir bo‘layotgan dahshatli voqealar, zo‘ravonlik holatlari ko‘payib, qo‘pollashib bormoqda. [Elektron manba:] @istiqbolliavlodqashqadaryo. 25 noyabrya 2023

БОЛАЛАРНИ ЭМОЦИОНАЛ ҲИССИЙ ЗЎРИҚИШЛАРИНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА МАКТАБ - ОТА-ОНАЛАР ҲАМКОРЛИГИ

Qaraxonova Lobarxon Musaxonovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘lim mudiri, п.ф.д(DSc) katta ilmiy xodim

Emotsional tajriba va qiziqishlarga asoslangan holda bolaning turli faoliyatlar jarayonida bilish, anglash, aniqlab olish qobiliyati shakllanadi, turli emotsiyalar mazmunini tushunish va ifodalash, kattalar ko‘magida ularni differensiatsiyalash, o‘z emotsional holatini baholash va boshqarish amalga oshiriladi va olamga, boshqa kishilarga, o‘ziga nisbatan emotsional-pozitiv munosabat shakllanadi. Natijada bolaning jamoada o‘zini erkin his qilishi, boshqalar bilan muloqot qilishi va munosabatga kirishishi yengillashadi, ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoitlar yanada kengayadi.

Maktab - davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadigan ta’lim muassasalaridan biridir. Maktab o‘quvchilari kunning ko‘p qismini asosan shu ta’lim muassasasida o‘tkazadilar. Shu nuqtai nazardan, maktab o‘quvchilarini yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda dars jarayoni hamda bo‘sh vaqtlarini to‘g‘ri tashkil qilish lozim. Bugungi kunda respublikamizdagi maktablar 7 yoshdan 17-18 yoshgacha yigit-qizlarni qamrab olgan. Maktab o‘quvchilarini uchta yosh davriga ajratishimiz mumkin:

1) kichik maktab yoshi (1-4 sinflar);
2) o‘smirlik yoshi (5-9 sinflar);
3) ilk o‘sprinlik (10-11 sinflar).

Kichik maktab yoshi davri 7-11 yoshlarni o‘z ichiga oladi. Kichik maktab yoshi bolalarini tadqiq etgan olimlar turli yo‘nalish va nazariyalar asosida o‘rganishgan. Xususan, L.S.Vigotskiy yosh inqirozlarini asos qilib olgan va bu davrni «7 yosh inqirozi» deb nomlaydi. Olimning yosh davrlarini tabaqalash nazariyasi ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning rivojlanishini amalga oshiruvchi inqirozlarning roli to‘g‘risidagi mulohazalari va olg‘a surgan g‘oyalari hozirgi kunning talabiga mosdir. D.B.Elkonin esa yosh bosqichlarini davrlashtirishda yetakchi faoliyatga urg‘u beradi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizini tashkil qiladi. Olim kichik maktab yoshidagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida ta’lim (o‘qish)ni belgilaydi. Ta’lim bolani yangi hayot sari olib kiruvchi omil sifatida belgilaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda psixik emotsional holatlar o‘smirlarga nisbatan tez va izsiz o‘tib ketadi. Bunda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining o‘rni katta. Chunki bu davrda asosan mashg‘ulotlarni bitta o‘qituvchi olib boradi va kun davomida o‘quvchilar bilan birga bo‘ladi.

O‘qitish jarayonida bolalarga individual holda yondashadi. O‘smirlik davri asosan 11(12)-15 yoshli yigit va qizlarni o‘z ichiga olib, boshqa yosh davrlardan shiddatli va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayni shu davrda o‘smirda jinsiy balog‘atga yetish va jismoniy o‘sish amalga oshadi. O‘smir yigit-qizlar psixik jihatdan ham kamolotga erisha boshlaydi. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muhim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliligi, mardligi, tantiligi bilan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilardan farqlanadi. Ayrim o‘smir o‘quvchilarda o‘zidan qoniqmaslik, o‘ziga past baho berish kabi holatlar ham kuzatiladi. Shuning uchun ular tashqi

ta’sirlarga oson beriladi hamda shaxsiy va erkin fikrga ega bo‘lmaydi. Shu boisdan ular atrofdagi mishmishlarga ishonuvchan bo‘ladi. Bu esa o‘smirlarning psixik holatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Psixik holatlar deb, psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. Psixik holatlar xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat’iylik, tirishqoqlik kabilar bo‘lib, shaxslarda ma’lum darajada barqaror bo‘lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar o‘quvchilar ongiga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda. Ratsional bo‘lmagan axborotlar ta’siriga tushib qolish esa stress, depressiya, vahima, monotoniya, yolg‘izlik kabi psixik holatlarga olib kelmoqda. Bunday holatlar, ayniqsa, o‘quvchilarning psixik va fiziologik salomatligiga, ba’zan hayotiga ham salbiy ta’sir etadi. Stress (ing. stress – taranglik, kuchli hayajonlanish) - psixik reaksiya bo‘lib, boshqa sharoitga o‘rganish, o‘tishni bildiradi. Bu atamani birinchi bo‘lib kanadalik fiziolog olim G.Sele 1936 yilda kiritgan.

Hayotdagi o‘zgarishlar, tez olib boriladigan ishlar odam organizmida reaksiya keltirib chiqaradi3. Stress organizmning total mobilizatsiyasi hisoblanadi, ya’ni o‘ta og‘ir, murakkab vaziyatdan chiqish yoki qiyin sharoitga moslashish. O‘smirlarda stress holatlari asosan xafa bo‘lganda, uyalganda, turli xatarlarga duch kelganda paydo bo‘ladi. Stress psixologlar tomonidan «organizmning hayotga reaksiyasi» sifatida e’tirof etiladi va salbiy baholanmaydi. Ammo, tez-tez stressga tushish, uni vaqtida bartaraf eta olmaslik distress holatiga duchor qiladi. Distress (ing. distress - g‘am-tashvish, uqubat) - hayot uchun xavfli bo‘lgan, stressning eng og‘ir salbiy ko‘rinishi.

Inson uchun eng azobli va zararli bo‘lgan stress holati hisoblanib, bu qiyin ahvolga tushib qolganda biror-bir yaqinlaridan ajraganda yoki shaxsiy tomondan juda qiyin ahvolga tushganda yuz beradi. Bu o‘z navbatida o‘smir hayotini xavf ostida qoldiradi. «Stress qanday qilib distressga aylanadi?» degan savolga javob topish zarur. G.Selening fikricha, insonlar o‘z farzandlarini yoshligidan muammolardan asrab-avaylashlari bolaning umumiy moslashuv sindromining pasayishiga olib keladi. Natijada bola oddiy stress holatidan distressga osonlikcha berilishi mumkin. Psixik stress tashqaridan gap orqali yoki turli harakatlar orqali kelib chiqadi. Masalan, sport musobaqasida ishtirok etayotganda yoki qattiq quchoqlashib ko‘rishganda stress paydo bo‘ladi, lekin u zararsiz hisoblanadi.

Stressning ozgina foydali tomonlari ham bor, chunki bu paytda odam muvaffaqiyat tomon intilib qoladi, organizmini kurashishga tayyorlaydi yoki undan qochish, himoyalanishga harakat qiladi. Shunday stress turi ham borki, u doimiy stress deb ataladi. Doimiy stresslar mas’uliyatli ishni bajarish davomida hamda jarayonda kamchiliklar aniqlanganda paydo bo‘ladi. O‘smirlik davrida quyidagi doimiy stresslar uchraydi:

1. Uyqusizlik.
2. Ko‘krakdagi og‘riq, ya’ni yurak atrofidagi og‘riqlar.
3. Yo‘tal (tez-tez tomoqni tozalash uchun bo‘ladigan yo‘tal).
4. Emotsional disbalans, ya’ni kayfiyatning tushib ketishi.
5. Doimiy toliqish.

O‘smirlik davrida ko‘p uchraydigan stress holatlardan yana biri – o‘smir shaxsining o‘zgalar tomonidan o‘z vaqtida tan olinmasligidir. Shuningdek, shaxs faoliyatidagi stresslardan biri moddiy bo‘lib, pul muammosiga taqaladi. Chunki bu davrda kattalar va o‘smirlar o‘rtasidagi ziddiyatlarning sababchilaridan biri ham moddiy jihatdan otaona, bobo-buvilariga qaramligidir.

Eng jiddiy stresslardan biri – oiladagi ijtimoiy muhitda befarqlik va negativizmning mavjudligidir. Ya’ni oiladagi ayrim salbiy holatlar, yo‘qotishlar, o‘zaro kelishmovchilik lar,

ajrashish, o‘lim, nizoli vaziyatlar, oiladagi muhitning nosog‘lomligi, ota-onalarning farzandi qobiliyat va xohish-istaklari bilan qiziqmasligi. Masalan, ota-onalar o‘rtasidagi nizoli holatlar bolaga qattiq ta’sir etadi. Bularning barchasi o‘smir psixologiyasida o‘z aksini topishi va unga nisbatan o‘smir tomonidan ob’ektiv yondashish stressning kuchayishiga olib keladi.

Qo‘rquv, xavotirlik, pessimizm, negativizm, depressiya, frusturatsiya yuqori darajadagi tajovuzkorlik kabi hissiy holatlar bir vaqtning o‘zida ham stressning oqibati, ham stressning vujudga kelishi uchun sabab bo‘ladi. Vahima – vas-vasa - his-tuyg‘u va kayfiyatning buzilish turlaridan biri. O‘smirlarda eng ko‘p uchraydigan emotsional holatlardan biri vahimaga tushish va har xil xayollarga borish.

Oqibatda o‘tmishdagi yomon voqealarni eslab siqilishi yoki bo‘lar-bo‘lmas narsalarni o‘ylashi, hali sodir etilmagan, aytib bo‘lmaydigan yomon fikrlarga borib vahimaga tushadi. Bu narsalar ichki holatni o‘zgartirib, xotirjamlikni yo‘qotadi. Bunda odamning faolligi yo‘qolib o‘zini qo‘lga ololmaydi va ko‘pincha tinimsiz yig‘laydi. Bunday narsalarni og‘riq bilan tenglashtirish mumkin. Vahimani keltirib chiqargan sabab kerakli bilim va axborotning yetishmasligi, dunyoqarashning torligi, tanqidiy tafakkurning to‘laqonli rivojlanmaganligidadir.

Monotoniya – stressning qarama-qarshi holatidir. Masalan, bu holat ko‘proq ish, shaxsiy hayotda kuzatiladi. Har kuni bir xil ishni qayta-qayta bajarish natijasida o‘smir monotoniya holatiga tushib qoladi. Bu holat insonda zerikish, loqaydlik, hayotga nisbatan qiziqishni kamaytiradi, tashqi qiyofasida g‘amginlik, nimadandir norozilik alomatlari, befarqlik kuzatiladi. Buning natijasida shaxsda iroda, fikrlash qobiliyati sustlashadi, maqsadga yetish uchun harakat kamayadi.

Shaxsda miyaning tormozlanish natijasida tevarak-atrofdan kelayotgan signallarni qabul qilmasdan, faqat o‘z joniga qasd qilish, boshi oqqan tomonga ketish kabilarni maqsad qilib qo‘yadi. Monotoniyaga chalingan shaxslar ustidan kuzatuv olib borilganda ularda alahsirash, gallyusinatsiyalar, xavotirlanish kuzatilgan. Taqqoslash - bolaga ota-onasi, yaqinlari tomonidan tarbiya berish jarayonida yo‘l qo‘ygan katta xatolardan biri. Shaxsga tarbiya berish jarayonida kattalar tomonidan bevosita boshqa tengdoshlari, aka-opalarida yoki o‘zining yoshligidagi ayrim xususiyatlari bilan uning xususiyatlarini taqqoslash holatlari uchraydi. Natijada bolada o‘z ichki saloxiyatlari, qobiliyatini rivojlantirish, induvidualligini ro‘yobga chiqarishga intilish susayadi, o‘z-o‘ziga ishonchi susayadi.

Xozirgi avlod turli-tuman o‘yinlar orasidan kompyuter o‘yinlariga o‘ch sanaladi. Bazan «oddiy o‘yin-da» deb baho beriladigan va ota-onalar tomonidan loqaydlik bilan qabul qilinadigan o‘yinlar zamirida shafqatsizlik, g‘ayriixtiyoriylik, beandishalik kabi holatlar targ‘ib qilinadi. Bola o‘yinga shu darajada tobe bo‘lib qoladiki, real hayot bilan o‘yinning farqini ajrata olmaydi.

Natijada o‘quvchida salbiy emotsional holatlardan himoyalanish mexanizmlari izdan chiqadi. O‘quvchida qaysarlik, agressivlik va affektiv holatlar rivojlanib boradi. Natijada depressiya, fobiya, frusturatsiya, shizofreniya kabi psixosomatik kasalliklar shakllanadi. Pedagoglar va ota-onalarda bolalarning psixogigienik talablari mazmun-mohiyatini bilishlari lozim. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini kuzatish va suhbatlashish jarayonida ma’lum bo‘ldiki, stressning quyidagi belgilari ularda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- dars jarayonida diqqatni jamlay olmaslik;
- xotiraning yomonlashuvi;
- ishtahaning buzilishi;
- surunkali charchoq;
- tez-tez bir muammo haqida gapirish;

- surunkali bosh og‘rig‘i.

Xulosa. Shunday qilib, mahalla, maktab va o‘z oilasi tomonidan ko‘proq qo‘llab-quvvatlangan o‘smirlar ruhiy zarba bilan bog‘liq kasalliklarga kamroq chalinar ekanlar. Shu sababli psixik emotsional holatlarga qarshi kurashish uchun shaxs o‘zida psixologik jihatdan tashqi ta’sirlarga nisbatan ongli munosabat (psixologik immunitet)ni shakllantira olishi lozim. Bunda maktab amaliyotchi psixologi, sinf rahbari va ota-onalar o‘smirlarda salbiy emotsional holatini yengish uchun uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlashi lozim.

Ularni bartaraf etish uchun pedagoglar jamoasi va o‘quvchilar jamoasi uchun alohida dastur asosida seminar-trening mashg‘ulotlarini muntazam olib borish lozim. Maktab o‘quvchilarining bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O‘smirda monotoniyani keltirib chiqaruvchi sabablar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

– o‘qituvchi-pedagoglar hamda ota-onalarda psixologik bilimlarning yetishmasligi;
– o‘smirlar psixologiyasini bilmasligi;
– o‘smirlarda kun tartibining mavjud emasligi;
– o‘smirlarda kelajak haqidagi aniq tasavvurlarning yo‘qligi. Shundan kelib chiqqan holda negativ holatlarni bartaraf etishda quyidagi tavsiyaga kelindi. Stress holatiga tushgan o‘quvchilarni stressga qarshi quyidagi usul va vositalarni qo‘llash yaxshi natija beradi:

- stress holatiga nisbatan antistress kayfiyatini shakllantirish. Bunda bir kunda 3 daqiqa davomida sababsiz tabassum qilish yoki hayotidagi eng quvonchli xotiralarni qog‘ozga qayd etish;
- ko‘proq badantarbiya, biror sport turi, jismoniy mehnat yoki jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish, shodon musiqaga raqsga tushish;
- musiqa tinglash (klassik va mumtoz musiqa tavsiya etiladi (masalan, «Munojot»);
- autotrening (o‘z-o‘zini ishontirish). Bu jarayonda maktab psixologi turli trening mashg‘ulotlaridan foydalanishi maqsadga muvofiq;
- ko‘zguga qarab, dunyodagi eng baxtli, eng omadli, eng chiroyli inson ekanligingizni ovoz chiqarib aytish;
- relaksatsiya (o‘z-o‘zini yengillashtirish) orqali stress holatiga barham berish mumkin (Ko‘zingizni yuming, dengizning shovullashi, shamolning yuzingizni silab o‘tishi, havoning yoqimliligi, olmaning yoqimli isi, jajji bolajonlarning kulgisini eslang. Astasekinlik bilan nafas olib, nafas chiqaring). Relaksatsiya jarayonida yana turli yoqimli manzaralarni ko‘z oldimizga keltirishimiz ham mumkin;
- nafas olish mashqi. Bunda o‘quvchilar chuqur nafas oladilar, uni biroz tutib turib, keyin nafas chiqaradilar. Ushbu mashqni eng kamida 5 marotaba takrorlash lozim. So‘ngra past ovozda «men xotirjamman» deb 3 marta ta’kidlash zarur;
- o‘zinggizni seving, ardoqlang hamda yomon holatlardan asrang

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. / Sh.Mirziyoevning O‘zbekiston Respubliksi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. 2017 yil 14 dekabr. //http:// uza.uz /oz/ politics/ erkin-va-farovon-demokratik-O‘zbekiston-davlatini-mard-va-olizh-14-12-2016.
2. G‘oziev E. Ontogenez psixologiyasi. - T.: «Noshir», 2010. -44-b.
3. Umarov B.M. Psixologiya. – T: «Voris-nashriyot», 2012. –262-b
4. Baratov Sh. Psixologiya tarixi. Ma’ruzalar matni. - T., 1996. –46-b.

SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA PEDAGOGIK QARASHLAR MAZMUN-MOHIYATI

Qurbonova Nigina Boboxo‘jayevna
Tadqiqotchi Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sadriddin Ayniyning ijtimoiy-siyosiy va badiiy asarlarida pedagogik qarashlar taraqqiyotiga oid fikrlari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *globallashuv, jadidchilik davri, ma’rifatparvar adib,mudarris, madrasa, didaktik matnlar, ustoz-shogird,tolibi ilm, zamondosh, millat, mansab, shaxs, isloh etish, kadr, darslik, taraqqiyot.*

Аннотация. *В этой статье представлен научно-теоретический анализ взглядов Садриддина Айни на прогресс педагогических взглядов в социально-политических и художественных произведениях.*

Ключевые слова: *глобализация, эпоха джадидизма,просвещенный мудрец, мударрис, медресе, дидактические тексты,учитель-ученик, Талибан наука, Современник, нация, карьера, личность, реформа, кадр, учебник, прогресс.*

Annotation. *This article provides a scientific-theoretical analysis of Sadriddin Ayni's thoughts on the development of pedagogical views in socio-political and artistic works.*

Keywords: *globalization, the era of jadidism,enlightened adib, mudarris, madrasa, didactic texts,teacher-disciple, Taliban science, contemporary, nation, career, personality, reform, cadre, textbook, progress.*

Kirish. Sadriddin Said-Murodzoda 1878-yilning 15-aprel kuni Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani Soktare qishlog‘ida tojik oilasida tug‘ilgan. Otasi Said Murodxo‘ja dehqonchilik bilan shug‘ullangan bo‘lsa-da, o‘zi savodli bo‘lgani uchun farzandlarini bilimli qilishga intilgan. Shuning uchun o‘g‘li Sadriddin Ayniyni olti yoshida o‘z qishlog‘i madrasasiga yuboradi. Ayniy kabi kambag‘allarning Buxoro madrasalarida o‘qishi juda qiyin edi. Ammo o‘zining g‘ayrati, ilm talabasi bo‘lgani tufayli hayot va o‘qishning barcha qiyinchiliklarini yengib, 16 yil Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Buxorodagi Mir Arab (1890—1891), Olimxon (1892—1893), Badalbek (1894—1896), Hoji Zohid (1896—1899) va Ko‘kaldosh (1899—1900) madrasalarida tahsil olgan.

Adabiyotlar sharhi: Ayniy bolalar uchun ijod qilishni o‘z maktabi talabalari uchun darslik yozishdan boshlab, “Alifbo” darsligini tartib beradi. 1910 yilda esa “Tahzib us-sibyon” darsligini nashr ettiradi. Ushbu darslik ko‘p jihatlari bilan o‘sha davr pedagogik risolalariga hamohang bo‘lgan. Xususan, “Tarbiyali bola”, “Odobli bola”, “Ota-ona”, “Maktab”, “Ustoz muallim”, “Marhamatli Ahmadjon”, “To‘g‘rigo‘y va o‘g‘ri bola” singari didaktik matnlar va she’rlarning berilishi an’anaviydir. Biroq, bu didaktik matnlar ifodasida, mavzuni talqin etishda ustoz Ayniy darsligining o‘ziga xosligi ko‘rinadi. Ayniy yerli xalq shevasida, ko‘proq tojik tilida ijod qilgan, binobarin, darsliklarida fors tilidagi “Chor kitob”ga xos an’analarni rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabning ilm maskani sifatidagi ta’rif-tavsifi ustoz-shogird savol-javobiga monand keltirilishi diqqatga sazovor. Bunday matnlardan dunyoning eng yaxshi joyi - maktab, eng yaxshi bolalar - maktabda o‘qiydaganlar, undan ham yaxshilari - hech qachon maktabdan qolmaydiganlari, bulardan-da yaxshisi - saboqni puxta o‘zlashtiradiganlari, tag‘in

o‘rtoqlariga samimiy munosabatda bo‘lib yordamini ayamaydiganlari ekani o‘quvchiga tushuntirilib boriladi. Ustod Ayniy darsligiga kirgan didaktik matnlar bola tarbiyasida maktab, oila va muhit munosabatlari ta’siriga e’tibor berilgani bilan ajralib turadi. Ya’ni, bunda bolaning to‘g‘ri tarbiya topishida birgina maktab emas, oila, ota-ona va atrofdagi odamlar ham muhim rol o‘ynashi ijtimoiy-hayotiy hikoyatlar orqali asoslab berilgan. S.Ayniy maktablar uchun ko‘pgina alifbe va o‘qish kitoblarini tartib berganligining o‘ziyoq, uning bolalikka bo‘lgan yuksak e’tiboridan dalolat beradi. Adibning 1920-yillarda nashr etgan o‘nga yaqin tojik va o‘zbek tilidagi alifbe hamda o‘qish kitoblari orasida “Qiz bola yoki Xolida” darsligi qizlar maktabiga mo‘ljallangani bilan ajralib turadi. U o‘ttiz darsga mo‘ljallangan. Asarning bosh qahramoni Xolida ismli qiz bo‘lib, uning xulqi, xarakteri, atrofdagilarga munosabati, so‘ngra, o‘qishi va tarbiyasi xususida lavhalar berib borilgan. Jumladan, Xolida oilada, maktabda va tabiat qo‘ynidagi faoliyat jarayonida ko‘rsatiladi. Shuningdek, Ayniy Xolida misolida umuman qiz bolaning jamiyatda tutgan mavqei, sha’ni va orzu-havaslari haqida fikr yuritadi: “Qiz bola ota-onasining eng sevukli bir mevasidur. Qiz bola ota-onaning qayg‘ulik chog‘larinda eng mehribon bir sirdoshidir. Qiz bola qavmu qarindoshlarining obro‘yi va nomuslaridir. Qiz bola uyning ziynati va xonadonning davlatidir. Qiz bola yurtning bog‘i va butun elu ulusning chirog‘idir”. Ana shundan so‘nggina, qiz bola timsolida Xolida gavdalanadi. Dastlab, uning olti yasharlik paytidagi arzanda va tantiqligi, kichkina bo‘lishiga qaramay, yasan-tusanga o‘chligi va o‘rtoqlariga ham shunga qarab munosabat qilishi hikoya qilinib, keyinchalik bu qizaloq odmigina Fotima bilan do‘stlashgach, xulq atvorida, dunyoqarashida o‘zgarish yasalgani oydinlashadi. Xolidada o‘qish va ilm olishga havas uyg‘ongani, mehnatsevarlik fazilatlarining shakllana borishi “Xolida xat va savoddan bo‘lak narsani istamaydur”, “Xolida maktabga boradi”, “Xolida shohi va baxmal kiyimlarini sug‘urib tashlaydir”, “Xolida qo‘l ishlari o‘rganadur”, “Xolida tikish tikadur” sarlavhali hikoyalarda o‘z ifodasini topa borgan. Xullas, asar so‘nggida kitobxon Xolidani aqlli va dono qiz sifatida ko‘radiki, bu bilan adib bola tarbiyasi, inson shaxsining shakllanishida mehnat va oilaviy muhit muhim rol o‘ynashini ko‘rsata olgan. Ayniy bu qissa orqali o‘zbek bolalar nasrining shakllanishiga ham katta hissa qo‘shdi, deya olamiz. Bundan tashqari, maktab va tarbiya mavzui unga umr bo‘yi hamdam bo‘ldi; adibning “Eski maktab”, “Yetim”qissasi va “Esdaliklar” memuari shunday xulosaga kelishga asos bo‘ladi. Shu ma’noda S.Ayniy o‘zbek bolalari uchun nasriy asarlar yozgan, bolalar realistik prozasi rivojida o‘ziga xos hissa qo‘shgan zullisonayn adib sifatida alohida e’tirofga sazovor. Jahon miqyosida globallashuv asri bo‘lmish XXI asrga kelib zamonaviy adabiyotga talaygina yangiliklar kiritilmoqda. Bu yangiliklar bir tomondan tabiiy rivojlanib, milliy adabiyot taraqqiyotining hissasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan Yevropa va jahon ta’siridagi o‘zgarishlardir. Shuning barobarida jamiyatning axborotlashuvida adabiyot va tarix muhim rol o‘ynamoqda. Dunyoning ilmiy tadqiqot markazlarida turkistonlik mutafakkir allomalarning ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid namoyandalarining bu harakatda tutgan o‘rni va matbuotchilik faoliyati o‘rganilmoqda. O‘z ijodi bilan maktab yaratgan Sadriddin Ayniyning ilmiy merosi, jadidchilik faoliyati ham dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e’tirof etilgan. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o‘zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o‘rnida foydalanish naqadar muhim bo‘lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid muharriri Hoji Muin ta’kidlaydi: “Matbuot bir millatni uyg‘otish uchun birinchi omil bo‘lg‘onidek, uning tarixi ham “uyg‘onish davri” tarixining muhim bir bo‘lagi sanaladur”. Darhaqiqat, matbuot,

nashriyotchilik o‘zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o‘rin tutadi. Millat ma’naviyatini isloh etish, odamlarni ma’rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o‘rgatish va tafakkurni uyg‘otishning eng asosiy omili sifatida jadid muharrirlari matbuotning qadrini baland ko‘tardi. Matbuot ular nazdida fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo‘lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko‘zgu bo‘lmog‘i lozim edi. Unda, S.Ayniyning publisistik, matbuotchilik va murabbiylik faoliyatiga oid ma’lumotlar berilgan. S.Ayniyning Samarqandda milliy matbuotchilikni rivojlantirish yo‘lida qilgan xizmatlarini alohida qayd etib: “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining tarjima va tahrir ishlarinda bir muddat Saidrizo Alizoda, Muhammadjon Yusufiy, Qori Muhammadrahim Toji, Sadriddin Ayniy afandilar xidmat etdilar. Bularning ichida birinchi darajada uzun muddat ishlagan kishi shubhasiz Ayniy afandi edi. “Bolalar yo‘ldoshi” (jurnal) majmuasining muharriri Xabir, mas’ul mudiri Abdurashid Abdujabbor o‘g‘li edilar. Buning tahrir hay’atida Ayniy afandi ham bor edi. “Shu’lai inqilob” jurnal-majmuasining doimiy yozg‘uvchilari faqat Saidrizo Alizoda bilan Ayniy afandi edilar”. Xorijiy matbuot targ‘iboti kuchayib, Buxoroda ham mahalliy matbuotga asos solish harakatiga kirishildi. Yosh buxoroliklarning “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyatining faol a’zolari tomonidan amir hukumati roziligi bilan Yangi Buxoro (Kogon)da “Buxoroi sharif” gazetasi fors-tojik tilida chop etila boshlandi. 1912-yilning 11-martidan 1913-yil 12-yanvargacha 153-soni chiqqan “Buxoroi sharif” gazetasi faoliyatida S.Ayniy faol ishtirok etdi. Unda adibning ijtimoiy-ma’rifiy yo‘nalishdagi bir qator maqolalari bosildi. Ushbu maqolalar turli mavzularda bo‘lib Buxoro hayotiga oid masalalarni publisistik talqin etgan. Shuningdek, ushbu gazetada o‘sha davrning taniqli ma’rifatparvarlaridan Fitrat, Mirzo Sirojiddin Hakim, Sahbo, domla Ikromcha, Samad Mansur, Hamidxoja Mehriy va Mirza Jalol Yusufzodalar ham o‘zlarining publisistik yo‘nalishdagi maqolalari bilan qatnashib turishgan. S.Ayniy Turkiston mintaqasida chop etilgan mahalliy matbuot organlarida o‘zining o‘tkir publisistik maqolalari bilan faol ishtirok etadi. “Oyina” jurnalida S.Ayniy turli mavzudagi maqola va she’rlari bilan qatnashib turdi. Ushbu jurnalda S.Ayniyning “Nido ba javonon” (“Yoshlarga murojaat”), “Har bir millat o‘z tili ila faxr etar” “Moziy va hol”, “Hasrat”, “Na o‘ldi yo rab”, “Marsiya ba Mirzo Sirojiddin Hakimi Buxoroy” kabi ayrim she’r va maqolalari chop etilgan. S.Ayniy “Oyina” jurnalidagi “Har bir millat o‘z tili ila faxr etar” maqolasida tilga hurmat, unga yevropacha so‘zlarni, ularning turkiy tilda ma’nodoshi bo‘lsa ham qo‘shib ishlatish tilimizga putur yetkazishini kuyunchaklik bilan yozadi va boshqa tillarni o‘rganish bilan bir vaqtda har bir millat o‘z tilining muhofazasi bilan shug‘ullanishi shart degan fikrlarni ilgari suradi va uni juda ko‘plab dalillar bilan isbotlab beradi. “Zamonamizdagi eng muhim masalalardan birida til masalasidur. Hushyor millatlar buning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq sanaydurlar. Chunonchi, tillarini kundan-kun soflandurub, tillari ichiga kirgan begona so‘zlarni tashqari otib, isloh qilurlar. Bir darajagacha tillaridan xabardorlik qiladurlarkim, o‘rni kelganda bir ajnabiy so‘zi o‘rniga ikki yo uch kalima o‘z so‘zlaridan qo‘shib ado qiladurlar. Mana shul sababdan adabiyot va milliyatlari kundan-kun taraqqiy qilib bormoqdalar. Darvoqe, qaysi bir millatkim o‘z tilini begona lug‘atlardan ozod saqlasa va o‘z millatini muhofaza qilsa, din va oyinini qo‘ldan bermaydur. Ammo biz turkistonliklar esa g‘aflat va jaholatimizning ko‘pligi sababli, bu muhim masaladan ham bexabarmiz”. 1918-1920-yillarda S.Ayniy Samarqandda asosan, ta’lim-tarbiya ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi. Shuningdek, u “inqilob”ni madh etuvchi va eski tuzumni tanqid ostiga oluvchi badiiy - tarixiy publisistik maqolalar va she’rlar yozishga zo‘r beradi. Ularning aksariyati Samarqandda chiqadigan “Shu’lai inqilob” (“Inqilob shulasi”), “Bolalar yo‘ldoshi”, “Tayoq” jurnallari va “Mehnatkash tovushi”, “Zarafshon”, “Hurriyat”

gazetalarida chop etiladi. Bu haqda S.Ayniyning o‘zi shunday yozadi: “Samarqandda tojik tilida “Shu’lai inqilob” jurnali va “Mehnatkashlar tovushi” nomidagi o‘zbek tilida gazeta nashr bo‘lardi. Men bularning ikkalasiga ham xizmat qilardim. O‘sha vaqtlarda mahalliy kadrlar yetishmas, ozchilikni tashkil qilar edi, shuning uchun ham men bu jurnal va gazetaning ko‘p qismini turli imzolar bilan maqolalar yozib to‘ldirar edim. Ikki tilda she’r yozardim, ikki tilda maqolalar yozardim”. O‘zbek milliy ziyolilaridan Hoji Muin Shukrullo (1883-1942-y) o‘z davrida S.Ayniyning Samarqandda milliy matbuotchilikni rivojlantirish yo‘lida ko‘rsatgan xizmatlarini alohida qayd etib, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida shunday yozadi: “1918-yilda (11-iyunda) sho‘ro hukumati tomonidan “Mehnatkashlar o‘qi” otliq gazeta chiqarildi. Buning mas’ul muharrirligiga Hoji Muin, tahrir hay’atiga Iffat xonim (Zohida Burnasheva) bilan marhum Shokir Muxtoriy tayin etildilar. Bu gazetaning beshinchi sonida oti o‘zgartirilib “Mehnatkashlar tovushi” qo‘yildi. Gazeta 500-2000 nusxa orasida bosilib tarqalar edi. Bu gazetaning tarjima va tahrir ishlarida bir muddat Saidrizo Alizoda, Muhammadjon Yusufiy, qori Muhammadrahim Toji, Sadriddin Ayniy afandilar xizmat etdilar. Bularning ichida birinchi darajada uzun muddat ishlagan kishi shubhasiz Ayniy afandi edi”.

Xulosa. S.Ayniyning hayoti va ijodiy faoliyati tarix zarvaraqaralarning eng qaltis damlarida millat va vatanga xizmat qilishning yorqin namunasidir. Yirik jadidshunos olim Begali Qosimovning so‘zlari bilan aytganda, har qanday holda ham xalq bilan birga bo‘lish, uning manfaatini har narsadan ustun qo‘yish, har narsadan muqaddas bilish S.Ayniy shaxsiyatining eng muhim xususiyatlaridan edi. Pedagogik faoliyatida esa yoshlarni qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat’iy nazar to‘g‘ri va halol mehnat qilishlarini uqtirgan. Boy bolalarni pulli, kambag‘al bolalarni bepul o‘qitadi. Sadriddin Ayniy O‘zbekiston va Tojikistonda ilm-fan va madaniyatining rivojlanishida, kadrlar etishtirishda o‘zining munosib hissasini qo‘shdi.S.Ayniy shaxsning kamoloti va jamiyat taraqqiyotida ma’rifat rolini yuqori o‘ringa qo‘yadi. Xalqning iqtisodiy, ijtimoiy ahvolini aholi o‘rtasida ma’rifat tarqatish yo‘li bilan yaxshilash mumkin deb hisoblaydi. Shuning uchun ham u “Fan xalqqa boylik keltiradi”. – deb yozgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Айнӣ С. Мавсими барфу фасли зимистон // Ал – ислоҳ, 1917 йил 1-январь; 2. Айний С. Навоий болалари учун // Болалар дунёси. 1921, № 2.
2. Айний С. Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳазратларининг қисқача таржимаи ҳоли // “Меҳнаткашлар товуши”, 1920 йил 8 апрель.
3. Айнӣ С. Намунаи адабиёти тожик / Куллиёт. Чилди 16. – Душанбе: 2010. - С. 325.
4. Айний С. Ҳар бир миллат ўз тили ила фахр этар // Ойина, 1914, № 35. – Б. 836-838
5. 7. Айний С. Амир Темур биноларидан Бибихоним харобаси ила мусоҳаба // Болалар йўлдоши. 1919, № 2-3, 23 май. – Б. 3.
6. 8. Сафарзода Эҳсон. Назаре ба публисистикаи сиёсий устод Айнӣ (Ба ифтихори 145-солагии устод
7. Садриддин Айнӣ). – Душанбе., 2023. – Саҳ. 4-5.
8. 9. Абдулла Авлоний. Бурунғи ўзбек вақтли матбуотининг тарихи “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь;
9. Ойина (1914-1915). (Нашрга тайёрловчилар: Наим Норқулов, Камолиддин Раббимов). – Тошкент: Аккадемия, 2001.
10. Абдулла Авлоний. Бурунғи ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь.

11. Абдуазизова Н. Ўзбек журналистикаси тарихи. - Тошкент: Академия, 2002. – Б. 11.
12. Айнй С. Мухтасар таржимаи ҳоли худам / Куллиёт. 16 чилд. Чилди – 1. – Сталинобод, 1958. – Саҳ. 91.
13. Ҳожи Муин. Самарқанд матбуотининг тарихи // Зарафшон. 1923 йил, 5 май. Агзамхўжаев С., Улуғбекова З. “Ал-ислоҳ” журнали - Туркистондаги ислоҳотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915-1918). –Тошкент; 2021. – Б. 42-43
14. Абдулла Авлоний. Бурунғи ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь
15. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927) / Танланган асарлар (Тўпловчи
16. Ш.Турдиев). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 113-1

IJTIMOIY - EMOTSIONAL TA’LIM VA "TA’LIM MUASSASASI-OILA" HAMKORLIGI

Rasulov Jamshidbek Maxammadimin o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada so‘z umumta’lim maktablarida ijtimoiy-psixologik muhit barqarorligini ta’minlash, xususan, ijtimoiy - emosional ta’lim metodikalarini joriy etishda oila bilan hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari va ayrim metodlari to‘g‘risida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *maktab, oila, hamkorlik, o‘quvchi, ijtimoiy - psixologik muhit, ijtimoiy-emosional ta’lim, psixologik rivojlanish.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные направления и некоторые методы взаимодействия с семьей в обеспечении стабильности социально-психологической среды в общеобразовательных школах, в частности, внедрение методов социально-эмоционального воспитания.*

Ключевые слова: *школа, семья, сотрудничество, ученик, социально-психологическая среда, социально-эмоциональное образование, психологическое развитие.*

Abstract. *The article examines the main directions and some methods of interaction with the family in ensuring the stability of the socio-psychological environment in comprehensive schools, in particular, the introduction of methods of socio-emotional education.*

Keywords: *school, family, cooperation, pupil, socio-psychological environment, socio-emotional education, psychological development.*

O‘zbekistonda izchil amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari jarayonlarida tizimga xalqaro ta’lim dasturlari va rivojlangan davlatlarning ilg‘or ta’lim tajribalarini izchil joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sohaga kirib kelayotgan yangiliklar ta’limni mazmunan va shaklan modernizatsiya qilish va sifat-samaradorligini oshirishga zamin yaratmoqda. ”Bugungi kunda o‘z oldimizga qo‘yayotgan katta-katta maqsadlarga erishishning asosiy omili, bosh kalitini, avvalo, ta’limda, maktablarimizda, deb bilamiz” [1], - deya ta’kidlagan edi davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyev.

Sog‘lom va barqaro ijtimoiy - psixologik muhit sifatli ta’lim kafolati bo‘lib, har bir umumta’lim maktabida o‘ziga xos yondashuv va tizimli ishlarni talab etadi. Maktabdagi ijtimoiy ijtimoiy-psixologik muhit - bu har bir o‘quvchiga qulay psixologik muhitni, ularning muloqot qilish va birgalikda ishlash qobiliyatini shakllantiradigan munosabatlar va shart-sharoitlar tizimini tashkil etadi. Barqaro ijtimoiy - psixologik muhit bu o‘quvchilarga maktabda bo‘lish quvonchini his qilish va shaxsiy va ishonchli muloqotga bo‘lgan ehtiyojni qondirish imkonini beruvchi ishonch va xavfsizlik muhitini o‘z ichiga oladi.

Mazkur muhitni maktabda ta’minlash, nafaqat, amaliyotchi psixologning vazifasi, balki butun pedagogik jamoaning birinchi galda oila bilan hamkorlikda amalga oshiradigan ko‘p qirrali faoliyatidan biridir.

Bugungi kunda yurtimiz ta’lim tizimiga dunyoning rivojlangan davlatlarida tajribadan o‘tgan va ijobiy jihatlari bilan e’tirof etilgan ijtimoiy-emosional ta’lim metodikalarining joriy etila boshlaganligi ta’lim jarayonini pedagog, o‘quvchi va ota-onalar uchun ham qulay va samarali tashkil etish uchun yangi imkoniyatlarni yaratishi tabiiydir.

Hozirgi kunda maktab ta’limida o‘quvchilarning akademik kompetensiyalariga yuqori talablari qo‘yilishi bilan bir qatorda, bolalarda o‘quv muvaffaqiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi va yordam beruvchi o‘zaro muloqot va ijtimoiylashuv ko‘nikmalari rivojlanishiga turki beradigan ta’lim muhitini yaratish ehtiyoji majudligi zamonaviy tadqiqotlarda dolzarblik kasb etmoqda [2; 105].

O‘tgan asrning 60-yillarida taniqli bolalar psixologi J. Komer tomonidan ishlab chiqilgan maxsus dastur asosida rivojlangan ijtimoiy - emosional ta’lim tez orada o‘zining ijobiy natijalarini berdi. Jumladan, dastur maktabda o‘quvchilar uchun qulay psixologik muhit yaratish imkoniyatini berdi. Ya’ni past ko‘rsatkichli maktablarda o‘quvchilarni qadrlash, ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, mavjud muammolarni qattiqqo‘llik bilan emas, balki, o‘zaro tushunish va muloqot vositasida xal etish, o‘qituvchining qattiqqo‘ligi bilan emas, balki do‘stona munosabati orqali tarbiyalash kabi usullar joriy etildi. Mazkur jarayonga o‘qituvchilardan tashqari psixologlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar ham keng jalb etilgan.

O‘z davrida o‘quvchilarning xulq-atvori, o‘zlashtirishi va maktabga bo‘lgan mehrini kuchaytirishda va mavjud muammolarni to‘liq bartaraf etishda katta rol o‘ynagan ta’lim metodikalari bugungi kunda qator Yevropa va MDH davlatlarida faol qo‘llanilib kelinmoqda.

Mazkur metodikalar orqali umumta’lim maktablari o‘quvchilariga 5 ta: o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ijtimoiy-emosional kompetensiyalarni o‘rgatish nazarda tutilgan. Eng muhimi bu jarayonga ota-onalarning faol jalb etilishidir.

Ota-onalar va boshqa oila a’zolari o‘quvchi ijtimoiylashuvining asosiy “agent”lari hisoblanadi. Ular yoshlarga ta’lim jarayoni va pirovardida butun jamiyatda samarali ishtirok etishlari uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va xatti-harakatlarni o‘rgatadi [3; 1-49].

Ijtimoiy - emosional ta’lim jarayonida oilalarda bola shaxsini yangi ijtimoiy daraja va mavqe (ta’lim, o‘quvchi) da qo‘llab-quvvatlash, uni yangi ijtimoiy rollarni o‘ynashga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlarini rag‘bantlantirish va yordam berish, ijtimoiy rollar murakkablashib borgani sayin unga hayotiy va pedagoglar tavsiyalari asosida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishi yoki oila tajribasi asosida samarali “qo‘llanma”ni taqdim etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy - emosional ta’lim jarayonida o‘quvchida yangi ijtimoiy va psixologik ko‘nikmalar shakllanadi. O‘z-o‘zini rivojlantirish, maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar, resurslardan samarali foydalanish, jamoadagi munosib xulq-atvor va madaniy ko‘nikmalarning takomillashuvi shular jumlasidandir.

Ota-onalar ijtimoiy - emosional ta’lim jarayonining dastlabki afzalliklarini ko‘rishni boshlaganlaridanoq, ularda bu ta’lim shakliga nisbatan qiziqish va xayrihoxlik paydo bo‘ladi. Ayni shu o‘rinda maktab ma’muriyati tomonidan hamkorlikning aniq maqsadli va har ikkala tomon imkoniyatlarini to‘g‘ri birlashtirgan holda tashkil etilishi zarur bo‘ladi.

Birinchi galda, ota-onalarga ijtimoiy-emosional ta’lim va uning maktabda joriy etilishi shart-sharoitlari haqida batafsil ma’lumot berilishi zarur bo‘lib, jarayonning ma’lum bosqichlari bo‘yicha maktab va ota-ona bir hil mezonlarga ega bo‘lishi lozim. Shundagina, ta’limning oila va boshqa ijtimoiy muhitlardagi natijalari aniq ko‘rinadi.

Mazkur turdagi ta’limda o‘quvchilarda kelajak hayoti uchun zarur bilimlar va ko‘nikmalar shakllantiriladi. O‘quvchida emosional intellekt rivojlantiriladi, muvaffaqiyat qozonish sirlari o‘rgatiladi, nafaqat fanlarni puxta o‘zlashtirish, shuningdek, shaxslararo pozitiv munosabatlarni o‘rnatishga bo‘lgan intilishlari motivatsiyalanadi. Eng avvalo, o‘quvchida shakllanayotgan yangi xususiyatlarni ota- onalar chuqur anglashi zarur bo‘ladi.

Umuman olganda, ijtimoiy - emosional ta’lim o‘quvchi shaxsini mukammal rivojlantirish, uning ijtimoiylashuv jarayonlarini faol tashkil etish hamda maktab va oila hamkorligini takomillashtirishning yangi yo‘nalishlari va metodikalarini o‘zida jamlaydi. Uning samarali joriy etilishi esa maktablarda ta’lim sifati va samaradorligi hamda ijtimoiy hamkorlikni yangi bosqichga ko‘tarishi, tabiiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz maktablari o‘quvchilari va ustoz-murabbiylariga tabrigi. 2025-yil 2 sentyabr. https://president.uz/uz/lists/view/8455
2. Андреева А.Д., Лисичкина А.Г. СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ СРЕДА СОВРЕМЕННОГО ШКОЛЬНОГО КЛАССА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА // Вестник Государственного университета просвещения. Серия: Психологические науки. 2020. №3.
3. Brim, O. G., Jr. (1966). Socialization through the life cycle. In O. G. Brim, Jr., and S. Wheeler, Socialization after childhood: Two essays. New York: Wiley.

TALABALARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING KOMPONENTLARI VA TAMOYILLARI

Rasulova Hulkar Sadatovna
Qarshi davlat universiteti, Maktabgacha ta’lim kafedrasi tayanch doktoranti.

Annatatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy kompetentlik insonning individual fazilatlarining murakkab dinamik integral tizimi bo‘lib, uning umumiy qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar va qoidalar, qadriyatlar, shuningdek jamiyat pozitsiyalarini hisobga olgan holda ijtimoiy muhitda harakat qilish qobiliyatini ta'minlashi, talaba ijtimoiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasiga ega bo‘lishi, shuningdek, jamoa, uni o‘rab turgan atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo‘lishi kerakligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, metodologiya, ijtimoiy kompetentlik, kasbiy faoliyat, qadriyatlar, individual fazilatlar.*

Abstract. *This article reveals that social competence is a complex dynamic integrated system of a person's individual qualities, which ensures his ability to act in a social environment, taking into account generally accepted social norms and rules, values, as well as social positions. The student must have social knowledge and skills, experience in making decisions in various situations, and be ready to communicate effectively with the community and the environment surrounding him.*

Keywords: *personality, methodology, social competence, professional activity, values, individual qualities.*

Zamonaviy vaziyatda ijtimoiy kompetentlik yoshlarni oliy ma’lumot olishida rivojlanadi. Talabalar jamoasi yosh o‘spirin hayotidagi muhim davrdir. Oliy ta’lim samaradorligini oshirish, kasbiy va ijtimoiy kompetenligi zamonaviy milliy jamiyatini rivojlantirish uchun strategik resurslarni o‘z ichiga olgan yosh mutaxassislarni tayyorlash va sifatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ijtimoiy sohada samarali hamkorlikni, kasbiy va ijtimoiy sohada innovatsion texnologiyalardan foydalanishni ta’minlaydi. So‘z boshida ta'kidlanganidek, ijtimoiy kompetentlik - bu insonning individual fazilatlarining murakkab dinamik integral tizimi bo‘lib, uning umumiy qabul qilingan ijtimoiy me’yorlar va qoidalar, qadriyatlar, shuningdek jamiyat pozitsiyalarini hisobga olgan holda ijtimoiy muhitda harakat qilish qobiliyatini ta'minlaydi. Talaba ijtimoiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, turli vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasiga ega bo‘lishi, shuningdek, jamoa, uni o‘rab turgan atrof-muhit bilan samarali muloqot qilishga tayyor bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy kompetentlikga inson tomonidan ta’lim va kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan birlamchi, ikkilamchi va uchinchi darajali sotsializatsiya orqali erishish mumkinligi ta’kidlangan. Ijtimoiylashuv jarayoni doirasida talaba ijtimoiy asoslarga, atrofdagi voqelikka, sodir bo‘layotgan voqealarni idrok etish va baholashda adekvatlikka o‘z munosabatini shakllantiradi, shaxsning sub'ektivligi shakllanadi: faol, tanlangan, maqsadli faoliyat, shaxsning

ma’naviy va jismoniy salohiyatini amalga oshirish, ya’ni talabaning ijtimoiy kompetentligi shakllanadi.

Ushbu jarayon qanchalik muvaffaqiyatli o‘tganiga qarab, talaba o‘z qobiliyatlari va iste'dodlarini qanchalik to‘liq anglay olishi, ijtimoiy etuk bo‘lib, jamiyat uchun foydali bo‘lishi, ya’ni o‘zini o‘zi anglash uchun qulay sharoit yaratishi aniq bo‘ladi. Ijtimoiylashuv jarayonining muvaffaqiyati kechishi shaxslarda nafaqat tabiiy fe’l atvorning mavjudligiga, balki ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishi uchun amaldagi xatti harakatlar sodir bo‘lishiga ham bog‘liq.

Talabalarda ijtimoiy kompetetnlik jarayon sifatida takomillashib boradi va unga erishishda o‘quv jarayoni doirasida amalga oshiriladi. Talabalarning ma’naviy va ijtimoiy shakllanishi - moddiy va madaniy qadriyatlar, me’yorlar, qoidalar, munosabatlarning tashuvchisi makro-mezomikroijtimoiy muhit, o‘qitish va ta’lim faoliyati, axborot-texnik muhit, ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabatlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabaning dunyoqarashi kabi omillarning ta'siri bilan belgilanadi.

Yuqoridagi omillar ta'siri ostida talabalarning ijtimoiy kompetentligi ularning ijtimoiy bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirishga, ijtimoiy va kasbiy fazilatlarni egallash va takomillashtirishga yordam beradi, bu ularga ijtimoiysiyosiy jarayonlarda eng muvaffaqiyatli harakat qilish, raqobatbardosh mutaxassis bo‘lish, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli hamkorlik qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, bandlik xizmati organlari bilan hamkorlik qilish, va ijtimoiy muhitdagi o‘zgarishlar, shu bilan shaxsning o‘ziga xos xususiyati sifatida ijtimoiy kompetentlikni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagi parametrlarni hisobga olgan holda, talabalarning ijtimoiy kompetentligini tarkibiy qismlari motivatsiya va qadriyatlar (yoshlarning ijtimoiy pozitsiyasi, munosabati, dunyoqarashi), mazmuni (ya’ni talabaning ijtimoiy bilimlari), ijtimoiy ko‘nikmalar va malakalariga aloqalari bo‘ladi.

Talabalar juda keng ijtimoiy bilim, ko‘nikma va bilimlarga ega shaxs sifatida o‘zini namoyon etishga moslahgan bo‘lib, ularda o‘z ‘zini taxlil qilish imkoniyatlari past miqdordagi ko‘rsatgichga ega. Shu ma’noda kasbiy fanlar bo‘yicha bilim olishdan tashqari, talaba “Boshqaruv psixologiyasi”, “Kasbiy psixologiya”, “Odob-axloq qoidalari” va boshqa fanlarni o‘rganadi. Shunday qilib, bo‘lajak mutaxassis atrof-muhit, ijtimoiy guruhlar, madaniyatlararo aloqa mexanizmlari bilan muvaffaqiyatli ijtimoiy o‘zaro ta’sir o‘tkazish ko‘nikmalariga ega bo‘la boshlaydi.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligi mezonlari orasida quyidagilarni ta’kidlash kerak:

1. Shaxsning o‘z-o‘zini anglashi va uning qadriyatlarga munosabatlari, bu qadriyatlarni tanlay bilishi, ularni asoslash va umume’tirof etilgan ijtimoiy me’yorlar nuqtai nazaridan, shuningdek ularning ijtimoiy mavqei nuqtai nazaridan baholash qobiliyatini namoyon qilishi; shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy xulqatvorining aniq maqsadlari va ijtimoiy yo‘nalishini belgilashda.

2. Metodologiya, kategoriyalik, refleksivlik, proektivlik va konstruktivlik aniq ijtimoiy bilimlarning empirik ko‘rsatkichlariga aylanadi. Shaxs o‘ziga xos sharoitlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, xilma-xillikda birlikni ko‘rishi, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishi kerak.

3. Mavzuning dolzarbligi shaxsning turli sohalarda mustaqil tanlov qilish, ushbu tanlov uchun javobgar bo‘lish, harakat va muloqotning innovatsion ijtimoiy ahamiyatga ega variantlarini modellashtirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi; o‘zini

o‘zi boshqarish, havaskorlik faoliyati, o‘z-o‘zini tarbiyalashda subyektivlik natijasi shaxsning mustaqilligi hisoblanadi.

4. Ijtimoiy kompetentlikning amaliy tarkibiy qismi - hayotning turli sohalarida texnika va texnologiyalarni o‘zlashtirishda, ijtimoiy xulq-atvorni tashkil etish va konstruktivlikda namoyon bo‘ladi.

Natijada shaxsning shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirish, o‘z sa'y-harakatlarini jamoaning sa'y-harakatlari bilan bog‘lash qobiliyati bo‘lishi kerak, ya’ni belgilangan maqsadlarga erishish uchun innovatsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish bizga universitet talabalarining ijtimoiy kompetentligini takomillashtirishning tashkiliy va pedagogik shartlarini aniqlashga imkon berdi:

- o‘quv fanlari mazmunining uzluksizligi va uzviyligi tamoyillariga rioya qilish, ijtimoiy-gumanitar tarkibiy qismni kuchaytirish;
- ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda amaliyotga yo‘naltirilgan texnologiyalarni qo‘llash;
- auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar amaliyotini kuchaytirish, madaniy va hordiq chiqarish shakllarini kengaytirish;
- talabalarning qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolarini maqsadli va tizimli diagnostika qilish.

Shunday qilib, talabaning ijtimoiy kompetentligi ko‘p funktsional bo‘lib, ularning hayotning turli sohalarida ijtimoiy rollarni samarali bajarishini anglatadi. Bu funktsiyalarning asosiylari quyidagilardan iborat:

- amaliy hayotda ijtimoiy bilim va ko‘nikmalarni amalga oshirish;
- shaxslar va ijtimoiy kichik guruhlar, institutlar, davlat va jamiyat bilan o‘zaro aloqada moslashuvlar;
- jamoaga yoki ijtimoiy guruhga qo‘shilish;
- ijtimoiy va kasbiy faoliyatga yo‘naltirish;
- talabaning haqiqiy bilim va ko‘nikmalariga mos keladigan ijtimoiy mavqega ega bo‘lishi;
- rolli xatti-harakatlar va ijtimoiy-madaniy me’yorlarni o‘zlashtirish.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, talabalarining ijtimoiy kompetentligi talabalarning professional faoliyatga tayyorligini anglatadi:

- ish faoliyati, odob-axloq qoidalarini bilish;
- kasbiy martaba rejalashtirish asoslariga ega bo‘lish, ish qidirish ma’lumotlaridan foydalanish;
- mehnat faoliyatining me’yoriy-huquqiy asoslarini, xodimlarning ish haqini tashkil etish va qo‘llash usullarini bilish;
- reklama uchun marketing va o‘z-o‘zini marketing ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- o‘z oilasini yaratishga tayyorlik;
- oila qonunchiligi va nikoh va oilaviy munosabatlar psixologiyasini bilish; bolalarni tarbiyalashda pedagogik madaniyat asoslari;
- uy xo‘jaligini yuritish ko‘nikmalari;
- mamlakat fuqarosi bo‘lishga tayyorlik;

- ijtimoiy institutlar va tuzilmalar, ijtimoiy guruhlar, ularning faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, rolli xatti-harakatlar to‘g‘risida bilim.

Talabalarning ijtimoiy kompetentligi tarkibiga quyidagilar kiradi: ijtimoiy bilimlar, ijtimoiy va kasbiy faoliyatning ijtimoiy texnologiyalariga ega bo‘lish, ya’ni, bu ijtimoiy ko‘nikma va malakalar. Talabalarda operatsion funktsiyalarni shakllantirish samaradorligi shaxsning aniq qadriyat munosabatlari, ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ta'sir qiluvchi shaxsning hayotiy strategiyalari mavjudligiga bog‘liq. Natijada talabaning shaxsiy va jamoat manfaatlarini muvofiqlashtirish, o‘z sa'y-harakatlarini jamoaning sa'y-harakatlari bilan bog‘lash, ya’ni maqsadlariga erishish uchun boshqa shaxslar bilan hamkorlik qilish qobiliyati bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdiyeva H.B. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784. 2021.
2. Ишмуҳамедов Р.Ж., Юлдашев М.А. Таълим ва тарбияда инновацон педагогик технооғиялар (таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар,тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма) - Т. 2017, 368 б.
3. Mamajonova Z.M. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2021. -207 bet.
4. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. — Toshkent, 2015. — 94 bet.
5. Quzmanova G.B. O‘quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. № 9. 2022.
6. Raxmanova M.Q. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. – Toshkent, 2022. -264 bet.
7. Rustamova, N. R. (2020). Training of students of cognitive processes based on vitagen educational situations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8 Special Issue), 869-872. Retrieved from www.scopus.com

SHARQ TARBIYASIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMNING AHAMIYATI

Raximova Surayyo Otabek qizi
Qori Niyoziy nomidagi pedagogika va tarbiya milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharq xalqlarining tarbiyaviy merosi va ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) tushunchasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarning o‘quvchilar shaxsiy kamolotidagi o‘rni, Sharq mutafakkirlari asarlarida aks etgan g‘oya va tamoyillar bilan uyg‘unligi ilmiy asoslanadi. Zamonaviy ta’limda IETning ahamiyati, uning o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirishdagi o‘rni hamda Sharq tarbiya modellari bilan integratsiyalash mexanizmlari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sharq tarbiyasi, ijtimoiy-emotsional ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, qadriyatlar, shaxs kamoloti.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantirish, balki ularning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham ta’minlashdir. Jahon miqyosida keng qo‘llanilayotgan ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL – Social Emotional Learning) konsepsiyasi insonning o‘zini anglash, boshqalar bilan hamkorlik qilish, qaror qabul qilish, emotsiyalarni boshqarish kabi ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sharq xalqlarining tarbiya an’analari ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, ular asosan insonni ruhiy, ma’naviy va axloqiy jihatdan shakllantirishga qaratilgan. Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarning pedagogik qarashlari shaxs tarbiyasida ijtimoiy va emotsional jihatlarning o‘rni beqiyos ekanini ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv davrida insonlarning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun faqat bilim va ko‘nikmalar emas, balki emotsional savodxonlik, empatiya, hamkorlik, o‘zini boshqarish, ijobiy munosabatlarni shakllantirish kabi fazilatlar ham zarur. Shu bois, Sharq tarbiya merosi va zamonaviy ijtimoiy-emotsional ta’lim konsepsiyalarini uyg‘unlashtirish masalasi dolzarb ilmiy-ijtimoiy zarurat sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Sharq tarbiyasida emotsional va ijtimoiy rivojlanish

Forobiy “Fozil shahar” asarida komil inson tushunchasini ilgari surib, insoniy baxtga erishishda hissiy-axloqiy jihatlarning ustuvorligini ta’kidlaydi U shaxsning baxt-saodatga erishuvi uchun nafaqat aql, balki ruhiy-axloqiy tarbiyaning ham muhimligini asoslab bergan.

Ibn Sino bolalarning hissiy dunyosiga alohida e’tibor qaratib, ularning axloqiy tarbiyasi va ruhiy muvozanatini saqlashni muhim omil sifatida ko‘rsatgan. U bolaning ruhiy holatini tarbiyada muhim omil sifatida baholab, ularni mehr-muruvvatda tarbiyalash zarurligini yozadi.

Navoiy asarlarida mehr, muruvvat, adolat, sadoqat, sabr va halollik kabi emotsional qadriyatlar insoniy munosabatlarning poydevori hamda jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy mezon sifatida talqin etilgan.

Jadid ma’rifatparvarlaridan Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida qalb va axloq tarbiyasini birlamchi vazifa deb ko‘rsatadi.

CASEL markazi (2020) ijtimoiy-emotsional ta’limni 5 asosiy komponent asosida ta’riflaydi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlarni boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish.

Sharq pedagogikasida shaxsni tarbiyalashda uch asosiy omil ko‘zda tutiladi:

Ruhiy barqarorlik – sabr, qanoat, nafsni tiyish;

Emotsional qadriyatlar – rahmdillik, mehr, muruvvat;

Ijtimoiy fazilatlar – ahillik, hamkorlik, adolat.

Bu jihatlar bugungi SEL tamoyillari bilan to‘liq uyg‘un keladi.

Zamonaviy SEL nazariyasi

Daniya Goleman, Linda Darling-Hammond va CASEL markazi tadqiqotlarida ijtimoiy-emotsional ta’lim quyidagi besh asosiy komponentdan iborat deb ta’riflanadi:

1. O‘zini anglash (self-awareness).
2. O‘zini boshqarish (self-management).
3. Ijtimoiy ong (social awareness).
4. Munosabatlarni boshqarish (relationship skills).
5. Mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making).

Bu komponentlar Sharq mutafakkirlari qarashlari bilan uyg‘un holda ko‘rilsa, qadimiy meros va zamonaviy ilmiy yondashuvlar bir-birini to‘ldirishi ayon bo‘ladi.

Sharq tarbiyasi va SELning o‘xshashliklari

Mehr va hamdardlik – SELda empatiya, Sharq tarbiyasida esa “rahmdillik” asosiy qadriyat sifatida ko‘riladi.

O‘zini nazorat qilish – Sharq tarbiyasidagi “nafsni tiyish” g‘oyasi SELning “self-management” tamoyiliga mos keladi.

Ijtimoiy hamkorlik – Sharqda “ahillik”, “ittifoq” qadriyatlari SELning “relationship skills” tamoyiliga hamohang.

Mas’uliyat – Sharq pedagogikasida “mas’ul farzand” tarbiyasi SELning “responsible decision-making” tamoyiliga uyg‘un.

Ijtimoiy-didaktik zarurat

Sharq xalqlarining tarbiya merosi va SELning uyg‘unligi o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki ma’naviy barkamol, mehribon, hamkorlikka tayyor shaxs qilib tarbiyalash imkonini beradi. Bu esa:

- o‘quvchilar orasida sog‘lom psixologik muhitni ta’minlaydi;
- zo‘ravonlik va nizolarni kamaytiradi;
- maktabda o‘zaro hurmat va ijobiy munosabatlarni mustahkamlaydi;
- kelajak avlodning ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.
- Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar yoshlarning hayotiy qarorlariga yo‘naltiruvchi kuchga aylanadi.

Xulosa

Sharq tarbiya merosida ijtimoiy va emotsional jihatlar shaxs kamolotining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Zamonaviy SEL konsepsiyasi esa bu qadriyatlarni ilmiy-nazariy asosda yanada takomillashtirib, ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilmoqda. Sharq mutafakkirlari merosi va SEL tamoyillarini uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlash, ularni ijtimoiy jihatdan faol, emotsional jihatdan barqaror shaxs sifatida voyaga yetkazish mumkin. Shu bois, Sharq mutafakkirlari merosi va SEL tamoyillarini uyg‘unlashtirish:

- o‘quvchilarning hissiy savodxonligini oshiradi;

- ularni jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlaydi;
- ma’naviy-axloqiy rivojlanish uchun ijtimoiy-didaktik zaruratni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Forobiy. Fozil shahar ahlining qarashlari. – Toshkent: Fan, 1993.
2. Ibn Sino. Tib qonunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Adabiyot, 1983.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
5. Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Cho‘lpon, 1991.
6. CASEL. What is SEL? Chicago: CASEL, 2020.
7. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
8. Darling-Hammond L. The implications of SEL in education. – Stanford University Press, 2018.
9. Юсуф Хос Хожиб. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1986.
10. Rahmonov N. Sharq pedagogik tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2015.
11. Hasanboyeva O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2020.
12. Safarova R. Tarbiya jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim. – Pedagogika jurnali, 2021.
13. Mahkamova D. Sharq tarbiya konsepsiyalarining zamonaviy ahamiyati. – Toshkent, 2019.
14. Lutfillaev X. O‘zbek xalq pedagogikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
15. UNESCO. Social and Emotional Learning in Schools. – Paris, 2021.

MILLIY QADRIYATLARNI MA’NAVIY TARG‘BOTI IJTIMOIY PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Raxmonov Azamat Ruzvonovich
TIPU “Pedagogika va psixologiya, boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi Pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. *O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyin milliy qadriyatlarni fan va ta’limda ijtimoiy pedagogik muammo sifatida o‘rganish extiyoji tobora sezilmoqda. Mazkur muammlarni maqolada ilmiy yondashgan holda yoritishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Milliy qadriyat, milliy tarbiya, milliy g‘urur, milliy iftixor, milliy ong, millatchi, millatchilik.*

Аннотация. *В Республике Узбекистан после обретения независимости все больше ощущается необходимость изучения национальных ценностей как социально-педагогической проблемы в науке и образовании. В статье была предпринята попытка осветить эти проблемы с помощью научного подхода.*

Ключевые слова: *национальная ценность, национальное воспитание, национальная гордость, национальная гордость, национальное сознание, национализм, национализм.*

Annotation. *After independence in the Republic of Uzbekistan, the study of national values as a social pedagogical problem in science and education is becoming increasingly apparent. It was tried to cover these problems with a scientific approach in the article.*

Keywords: *national value, national upbringing, national pride, national pride, national consciousness, nationalist, nationalist.*

O‘zbekiston Respublikasining 2020 yildagi yangi taxrirdagi ta’lim to‘g‘risidagi qonuni va 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan – yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida milliy qadriyatlarni muhim ahamiyatga ega ekanligi e’tirof etilgan. Shu o‘rinda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning [14]**“Biz yaratgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan.”** Mazkur fikrlar mazmunidan kelib chiqib bugungi kunda ta’lim olayotgan o‘quvchi yoshlarga zamonaviy bilim berishda asosan milliy qadriyatlarga munosib ko‘nikmalarini shakllanirishda pedagogik metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. O‘quvchilar ongini o‘stirishda jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlaridagi o‘zgarishlar va ijtimoiy hodisilarga nisbatan munosabatlar xilma-xil tarzda namoyon bo‘ladi. Hususan, o‘quvchilarni his tuyg‘ularini yangi ko‘lamini yuzaga kelishining birinchi kunidan boshlab, hayotning barcha jabhalarida “qadriyatlar”, “milliy tiklanish”, “milliy ong”, “milliy g‘urur”, “milliy iftixor” kabi atamalar tez-tez qo‘llanila boshlaydi. Bu bejiz emas albatta. Zotan, mustaqqillik Ayni paytda milliy tiklanish asosi hamdir. Uni esa mazkur tushunchalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ammo shuni ta’kidlashimiz joizki o‘tgan XIX-XX asrlarda qatag‘on siyosati va rus tuzumi davrida bu atamalarni ishlatish u yoqda tursin, ularni hatto o‘zbek so‘z lug‘atidan ham butunlay chiqarib

[14] Ўзбекистон Республикаси президенти Ш.М.Мирзиёев маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича видеоселектор йиғилиши 2021 йил 19 январ

tashlangan. Bunga dalil sifatda 1988 yili O‘zSE Bosh tahririyati chop etgan 50 ming so‘zlik “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”ga ham “qadriyat”, “milliy tiklanish”, “milliy ong”, “milliy iftixor” kabi tushunchalarning kiritmaganligini yaqqol dalil sifatida ko‘rsatish mumkin. Shuningdek, 1981 yili Moskvada “Rus tili” nashriyoti tomonidan chop etilgan, 60 ming so‘zni qamrab olgan ikki jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham bu so‘zlar uchramaydi. Chunki uning sababi borki, hatto ba’zi ruscha – o‘zbekcha lug‘atlarda ham “qadriyat” so‘zi qo‘llanilmagan. Jumladan, 1976 yili “Fan” nashriyotida chop etilgan “ijtimoiy – siyosiy terminlar lug‘atida” “ценност’” so‘zining to‘rtta ma’nosi alohida lug‘at maqolasi tarzida belgilangani holda ularning birortasi “qadriyat” ma’nosida o‘z ifodasini topmagan. Lekin lug‘atlarda “millatchi”, “millatchilik” so‘zlari juda ham ko‘p takrorlangan. Xo‘sh buning sababi nimada? - Bizni fikrimizcha, bunday vaziyat o‘z-o‘zidan yoki tasodifiy tug‘ilgani yo‘q. O‘tgan mustabit tuzumning mintaqamiz xalqlariga o‘zlarining tuzum g‘oyalarini, meroslarini, qadriyatlarini, ko‘p asrlik ma’naviyatidan judo etib manqurtlarga aylantirishga qaratilgan siyosatni ilgari surganligi aniq holatdir. Ayniqsa xukmron siyosat tarafdorlari “milliy istiqlol”, “milliy iftixor”, “milliy g‘urur” kabi atamalarni kishida millatchilik kayfiyatini uyg‘otadigan tushunchalar deb baholadilar va ularni ifoda etuvchi mahalliy millat vakillari millatchilikda aylanib, tazyiq ostiga olindilar. Spuning uchun milliy ma’naviyat va hurfikrliligini madh qiladigan tushunchalar ko‘p yillar davomida ijtimoiy – siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy hayotimizda ishlatilmay kelindi. Hattoki ularni milliy so‘z boyligimiz lug‘atlaridan chiqarib tashlash xavfi ham tug‘ildi.

Mustaqilligimiz tufayli xalqimizga so‘z va fikr erkinligi bilan bir qatorda, ilgari taqiqlanib kelingan ko‘pgina milliy tushunchalarimiz ham hayotimizga qaytarildi. Endilikda qadriyatlar, “mustaqqillik”, “istiqlol”, “milliy iftixor” kabi tushunchalar o‘zining asl mazmuniga ega bo‘ldi. Shuni to‘la mamnuniyat bilan aytish kerakki, mazkur atamalarning hayotimizga kirib kelishi va qisqa vaqt ichida teran ildiz otib ketishida birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning xizmatlari beqiyos ahamiyatga ega. Ularning asarlari va nutqlarida mustaqqillik tufayli hayotimizning barcha sohalarida ro‘y bergan tub o‘zgarishlar, jumladan milliy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz, urf-odat, an’analarimizni tiklanishi, milliy g‘ururimiz, milliy o‘zligimizni anglashimizning tiklanishi va tobora yuksalayotganligi faxr-iftixor bilan qayd qilishimiz kerak. Shunday ekan xo‘sh o‘z-o‘zidan savol tug‘ilish tabiiy, qadriyatlar tushunchasining o‘zi nima? Uning mohiyati, asosiy jihatlari nimadan iborat? Bu yuzasidan javob sifatida eng avvalo shuni qayd etishimiz kerakki, qadriyatlar juda sermazmun tushuncha hisoblanadi. SHuning uchun ham adabiyotlarda mazkur tushunchaga turlicha yondashuvlarni uchratish mumkin. Masalan, “Faylasuf ensiklopediyasi”ning beshinchi jildida qadriyatlar quyidagicha tavsiflanadi:

- “Qadriyatlar falsafiy va sotsiologik tushunchadir. U birinchidan, biror ob’yektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongining normativ belgilovchi – baholovchi jihati (sub’yektiv qadriyatlar yoki ong qadriyatlari)ni ifoda etadi”.

- O‘zbek Sovet ensiklopediyasida ham bayon etilgan: “Qadriyatlar (falsafa sotsiologiyada) – voqelikdagi muayyan xodisalarning inson, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan tushunchadir”.

Taniqli faylasuf olim V.P.Tugarinovning fikricha, “qadriyatlar muayyan jamiyat va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne’matlari bo‘lgan tabiat va jamiyat xodisalarining mohiyati yoki hodisaning bir jihatidir. Bu ne’matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o‘z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o‘zlari uchun maqsad yoki ideal qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiysi hayotning o‘zidir, chunki hayotda muhim bo‘lish boshqa barcha qadriyatlardan foydalanishni yo‘qqa chiqaradi, qolgan qadriyatlar, aslini olganda, hayot ne’matlarining mohiyatidir, madaniy qadriyatlardir. Olim “qadriyat” va “baho” tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini uqtiradi. Qadriyat real yoki orzusidagi hodisa (bor narsa yoki ideal)dir, baho esa shu hodisaga nisbatan pedagogik munosabatni bildiradi. U yoki bu hodisani qadriyatlarga mansub holda hisoblash, ya’ni uni qadriyatlarga qo‘shish yoki qo‘shmaslik ana shu munosabatga – ijobiy va salbiy bahoga bog‘liq.

Darhaqiqat, qadriyatlarning hayotdagi o‘rni va ahamiyatini pedagogik baholash tufayli belgilanadi. Baholash esa insonlarning ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari, qiziqishlaridan kelib chiqadi. Ma’lumki, jamiyat a’zolarining ehtiyojlari, manfaatlari, maqsadlari xilma-xil bo‘lib, ko‘pincha ular bir-biriga zid kelishi mumkin. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy guruhlar, millatlar, sinflar uchun oliy qadriyat bo‘lib, hisoblanib kelingan. Tabiat va jamiyat hodislari boshqalar uchun qadriyat bo‘lmasligi ham mumkin.

Millat va xalqlarning diniy e’tiqodi, marosim va an’analari milliy qadriyatlar sifatida o‘zining asl hayotiy sifatini tiklab olmoqda.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: tabiat va jamiyat xodisalarini qadriyat turkumiga kiritish-kiritmaslik kishilarning ehtiyojlari, manfaatlari, orzu-umidlari, maqsadlari bilan belgilanadi. Demak, qadriyat deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millatlarni manfaatlar uchun hizmat qiladigan tomonlari baholanib qadrlanadigan jamiyat xodisalari tushuniladi.

Mazkur ta’rifdan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

birinchidan, qadriyatlar, voqelikda mavjud bo‘lgan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalarni ifodalaydi;

ikkinchidan, ularni qadriyat turkumiga kiritish va kiritmaslik ehtiyojlarini, manfaatlari, maqsadlari, orzu-umidlardan kelib chiqadi; **uchinchidan,** tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalarning qadriyatlar turkumiga kiritilishini asosiy sababi – ularni qadrlaydigan avaylab – asraydigan makon va zamon mavjud bo‘lishidir. Shuning uchun ham qadriyatlar o‘z tushunchalarida pedagogik hususiyatlarga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Yana shuni alohida aytish joizki qadriyatlar kishilarning turli sohalaridagi, avvalo, ishlab chiqarish, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan asosiy manbadir. So‘ngra asta-sekin sub’yekt ishtirokini ortib borishi oqibatida ijtimoiy pedagogikaning nisbiy mustaqqil sohasi sifatida hizmat ko‘rsatadi. Tabiat va jamiyat hodisalarida inson faoliyati yuksak qadriyat sirasiga kiritiladi. Insonning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, orzu-istaklari, ideallariga mos kelmaydigan tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyat deb baholash noo‘rindir. Masalan, tabiatdagi qazilma boyliklar inson ehtiyojlarini qondirish uchun ishlatila boshlangandan keyingina qadriyatga aylanadi. Shungacha ularni boyliklar deb hisoblashimiz lozim.

Yuqoridagi tushunchalardan kelib chiqib qadriyatlarning mamlakatmizda pedagogik ilmiy tadqiqotlarda o‘rganilishiga ko‘p bo‘lmanaligini anglash mumkin. Avval falsafiy fanlar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda, keyin mustaqillikdan keyin pedagogik kitoblar, risolalar va darsliklarda alohida tilga olina boshlandi.

Falsafaning qomusiy lug‘atda qadriyat tushunchasiga quyidagi ta’rif keltirilgan: “Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy pedagogic – axloqiy, madaniy – ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qullaniladigan falsafiy – sotsiologik va akseologik tushunchadir.” Jamiyat esa inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa hodisalar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy

boyliklar, obida-yodgorliklar, go‘zallik va axloqiy xislatlar hamda fazilatlar, an’ana urf-odatlar, udum va boshqalar hisoblandi.

Ijtimoiy pedagogik sohada qadriyatlar umumbashariy, umuminsoniy milliy, mintaqaviy shaxsiy tushunchalar talqinida ifodalanmoqda. Ammo inson butun umri davomida son – sanoqsiz qadriyatlar olamida yashashini ham unutmaslik kerak. Insoniyatni o‘rab turgan borliq, tabiiy va ijtimoiy atrof – muhim, tirik va notirik tabiatning eng muhim tomonlarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariyat xususiyatlarga egadir. Bunday qadriyatlar jamiyat uchun hech qachon o‘z ahamiyatini yuqotmaydi va abadiy muqaddas qadriyat hisoblanib qoladi.

Ijtimoiy pedagogika fanni ilmiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash ana shu fanga xos mavzular, funksiyalar, tushunchalar, qonunlar, kategoriyalar boriligini ham e’tirof etishni zaruriyatga aylantiradi. Ijtimoiy pedagogikani pedagogik akseologiya va ijtimoiy–falsafiy bilimlarning maxsus sohasi sifatida qarash ham bundan istisno emas. Unda ham bu sohadagi fanlarga xos bo‘lgan hamma xususiyatlarni kuzatish mumkin.

Qadriyatshunoslikni akseologik ongni o‘zgarishi, qadrlash tuyg‘usini shakllanishi, akseologik bilishni vujudga kelishi natijasidir. To‘g‘ri bu bilimlar endigina muayyan fan darajasiga yotgan ilmiy sistema sifatida, yaxlit holatda, maxsus qo‘llanma yoki darsliklar tarzida chop etish uchun yetarli bo‘lib qolgan. Ammo aynan shu kundalik hayotdagi ma’nosini ilmiy adabiyotlarga ko‘chib qolayotganligi kishini ranjitadi. Hamma tushunganini o‘z joyiga, o‘z ko‘lamiga ishlatish ilmiylik talablaridan biridir.

Qadriyatlar haqidagi ilmiy bahslar, falsafiy mulohazalar doim davom etaveradi. Chunki jamiyatining ma’naviy-intelektual taraqqiyoti, insoniyatni ehtiyojlarini doimiy kuzatib boradi. Bu esa ijtimoiy pedagogik extiyojlarni milliy qadriyatlar zamirida o‘rganish lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz // Toshkent: O‘zbekiston. 2018. – B. 7, 534.
2. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi // Toshkent: O‘zbekiston. 2019. – B. 372.
3. Karimov I O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida //Toshkent. O‘zbekiston. 2001. – B. 156.
4. Munavvarova M. Milliy g‘oyaning ma’naviy ildizlari // Toshkent. Ma’naviyat. 2011. – B. 3-22, 94.
5. Raxmonov A.R Uzluksiz ta’lim tizimida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik muammo sofatida. Uzluksiz ta’lim ilmiy-uslubiy jurnal//Toshkent sh Furqat ko‘chasi 174-uy 2020 yil maxsus son.
6. Raxmonov A.R, Luxmanov D.B. Maktabda ta’limning ijtimoiy sheriklik modelini yaratishda klaster yondashuv. 244-249 VOLUME 1, ISSUE 4 DECEMBER 2020

INNOVATIVE METHODS OF ASSESSING STUDENTS: ENHANCING LEARNING AND MEASURING PROGRESS

Ro‘ziboyeva Zarnigor
Head of State Private Entrepreneurship Development

Annotation. *This article explores innovative methods of assessing students in the educational landscape. Traditional assessment techniques like exams are limited in capturing students' holistic development. The article discusses five forward-thinking approaches: project-based assessments, portfolios, performance-based assessments, digital tools, and peer/self-assessment. These methods foster critical thinking, problem-solving, communication skills, and metacognition while promoting a personalized and engaging learning experience.*

Keywords*: innovative assessment, project-based assessments, portfolios, performance-based assessments, digital tools, peer assessment, self-assessment, personalized learning, holistic development, 21st-century skills.*

Traditional methods of assessing students, such as written exams and quizzes, have long been the norm in educational institutions. However, in the dynamic world of education, where the focus is increasingly shifting towards personalized learning and holistic development, there is a growing need for innovative assessment techniques. These methods aim to capture a comprehensive picture of a student's abilities, strengths, and areas of improvement while fostering a deeper understanding of the subject matter. This article explores some of the most effective and forward-thinking innovative methods of assessing students, highlighting their benefits and potential impact on the educational landscape.

Project-based assessments encourage students to apply their knowledge and skills in real-world scenarios. By undertaking projects, students engage in hands-on learning experiences that require critical thinking, problem-solving, and creativity. These assessments not only measure academic knowledge but also nurture essential soft skills, such as teamwork, communication, and time management. Moreover, project-based assessments provide students with a sense of ownership and pride in their work, enhancing their motivation to learn.

Portfolios are a collection of a student's work and achievements, showcasing their growth and progress over time. In a portfolio assessment, students compile samples of their best work, which may include essays, projects, artwork, and reflections on their learning journey. This holistic approach allows educators to track the development of a student's skills and knowledge across various subjects and disciplines. Portfolios also foster metacognition as students evaluate and analyze their own progress, taking responsibility for their learning.

Performance-based assessments measure a student's ability to apply what they have learned in real-life situations. Examples include oral presentations, debates, role-plays, and demonstrations. These assessments not only evaluate a student's subject knowledge but also their ability to communicate effectively, think critically, and adapt to different contexts. Performance-based assessments promote active learning and help students build confidence in articulating their ideas and perspectives. Incorporating digital tools and platforms in assessment methods has revolutionized the way students' progress is monitored. Online quizzes, interactive simulations, and adaptive learning systems offer immediate feedback to students, enabling them to identify

areas of weakness and review concepts in real-time. Digital assessments also streamline the assessment process for educators, allowing them to analyze data efficiently and tailor instruction accordingly.

Peer and self-assessment involve students in evaluating their own work and that of their peers. Encouraging students to provide constructive feedback fosters a culture of collaboration, empathy, and mutual support within the classroom. Engaging in the assessment process empowers students to take ownership of their learning, helping them set realistic goals for improvement.

Conclusion. As education adapts to the demands of a rapidly changing world, innovative methods of assessing students play a crucial role in cultivating lifelong learners. By moving beyond traditional exams and embracing project-based assessments, portfolios, performance-based assessments, digital tools, and peer/self-assessment, educators can create a more holistic and personalized learning experience. These innovative approaches not only provide a more accurate reflection of a student's capabilities but also empower them to develop critical skills for success in the 21st century.

REFERENCES

1. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Smith, K. A. (1998). Cooperative learning returns to college: What evidence is there that it works? Change: The Magazine of Higher Learning, 30(4), 26-35.
2. McMillan, J. H. (2007). Classroom Assessment: Principles and Practice for Effective Standards-Based Instruction. Boston, MA: Pearson Education.
3. Wiggins, G. (1993). Assessing student performance: Exploring the purpose and limits of testing. San Francisco, CA: Jossey-Bass.

IJTIMOIY EMOTSIONAL TA’LIMNING O‘QUVCHILAR INTELLEKTUAL TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

R.Safarova
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy instituti “Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘I p.f.d., prof.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada munosabatlar pedagogikasining asosiy yo‘nalishi bo‘lgan ijtimoiy emotsional ta’lim, unga oid tarixiy pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy emotsional ta’limning tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi kompetensiyalar, ko‘nikmalar, ularning ijimoiy pedagogik ahamiyati, shaxslararo munosabatlar va o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishdagi o‘rni haqida fikr yuritilgan. O‘quvchilarning intellektual rivojlanish va ijtimoiylashish traektoriyalarini tanlashlariga uo‘ratadigan ta’siri ochib berilgan. Shunga ko‘ra ushbu maqola ilmiy pedagogik jamoatchilik va tadqiqotchilar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy emotsional ta’lim, o‘zlikni anglash, ijtimoiy xabardorlik, munosabatlar, mas’uliyatli qaror qabul qilish, intellektual rivojlanish, ijtimoiy madaniy muhim, madaniy didaktik muhit, munosabatlar pedagogikasi.*

Ma’lumki pedagogika va pixologiya fanlarida ijtimoiy emotsional ta’imning vujudga kelishi, rivojlanish dinamikasi, unga oid yondashuvlar tadqiq qilingan. Bugungi kunga kelib ijtimoiy emotsional ta’limga bo‘lgan qiziqish dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari ta’lim tizimida kun sayin ortib bormoqda. Shuning uchun ham bu sohada yangida yangi yondashuvlar, konsepsiyalar vujudga kelmoqda. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy emotsional ta’limga oid qadriyat darajasiga ko‘tarilgan fikrlar qarashlar, ta’limotlar ham mavjud. Chunki pedagoglar, psixologlar orasida mazkur yo‘nalishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda.

AQShning CASEL, UNESCO, WHO “Life Skills Education” (Hayotiy ko‘nikmalar ta’limi) kabi ta’lim bilan shug‘ullanadigan tashkilotlar ijtimoiy emotsional tarkibida 5 ta asosiy kompetensiyalar mujassamlashganini e’tirof etganlar. Ular o‘z o‘zini anglash, o‘z o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, shaxslararo munosabatlar, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishdan iborat ekanligini ta’kidlaganlar. Ijtimoiy emotsional ta’limning asosiy maqsadi o‘quvchilarda his-tuyg‘ular va kechinmalarni anglash, hamdardlik, ijtimoiy munosabatlarga konstruktiv echim topish va ijtimoiy barqarorlikka erishish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ijtimoiy emotsional ta’lim o‘quvchilar hamda talabalar uchun alohida pedagogik ahamiyatga ega.

1. O‘quvchilarda shakllantirilgan ijtimoiy emotsional ko‘nikmalar ularning bilimlarni o‘zlashtirish bilan bog‘liq o‘quv faoliyati natijalari mahsuldorligini ta’minlaydi
2. Shaxslararo qadriyatli munosabatlarni щakllantirishga ko‘maklashib, o‘quvchilarning jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Mutafakkir ajdodlarimiz o‘z pedagogik ta’limotlarida ijtimoiy emotsional ta’limning komponentlari haqida fikr yuritganlar. Jumladan, Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asarida insonni kamol toptirish uchun ma’naviy-axloqiy tarbiya, shu jumladan aqliy tarbiyaning zarurligini aytgan. U ijtimoiy emotsional ta’limning komponentlariga alohida e’tibor qaratgan o‘zlikni anglash va mas’uliyat haqida “aql va iroda orqali inson o‘zini taniydi va mas’uliyatli

qaror qabul qiladi” fikr yuritib, shaxslararo munosabatlar haqida fozil jamiyatning asosi insonlar o‘rtasida adolatli va mehrli bo‘lish muhimligini ta’kidlaydi.

Abu Ali ibn Sino asarlarida insonning ruhiy holatlari, his-tuyg‘ulari va axloqiy fazilatlari haqida fikr yuritgan. Ibn Sinoning fikriga ko‘ra o‘zini boshqarish sifatida ehtiroslarni nazorat qilish aqlning vazifasi deb e’tirof etadi. Mas’uliyatli qaror qabul qilishda u inson irodasi va aqlning uyg‘unligi orqali to‘g‘ri qaror qabul qilishini ko‘rsatadi.

Mutafakkir ajdodlarimizdan yana biri Imom al-G‘azzoliy o‘zining “Ihyo ulumiddin” asarida nafs tarbiyasi, qalb pokligi va his-tuyg‘ularni nazorat qilish lozimligini ta’kidlaydi. G‘azzoliy emotsional ta’lim haqidagi g‘oyalarini davom ettirib o‘z o‘ziini boshqarish, nafsni jilovlash insonning yuksak qobiliyati ekanligi, ijtimoiy xabardorlik, birodariga o‘ziga ravoga ko‘rgan narsani ravo ko‘rish, hamdardlik va mehrli bo‘lish g‘oyasini ilgari surgan.

Jaloliddin Rumiy ijtimoiy emotsional ta’lim haqida qimmatli fikr yuritgan faylasuf mutafakkirlardan biridir. U o‘zining “Ma’naviy masnaviy” asarida inson ruhi, muhabbat, hamdardlik, himjihatlik, do‘stlik haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. “Biror insonning dardiga quloq solish - uning qalbiga darmon berish” deya ta’kidlaydi. O‘z qalbini anglash orqali inson ezgu amalarni bajarishini e’tirof etgan.

Shoir va mutafakkir Alisher Navoiy ijodi va faoliyatida ijtimoiy emotsional ta’limga oid g‘oyalar alohida o‘rin egallagan. U o‘zining she’rlarida insonlar orasidagi ijtimoiy emotsional munosabatlar, adolat, muhabbat, do‘stlik va mehr-oqibatni asosiy qadriyat sifatida talqin etgan. Munosabatlar haqida fikr yuritar ekan Alisher Navoiy “Mehr-shafqatsiz inson haqiqiy komil shaxs bo‘lmaydi” degan g‘oyani ilgari surgan. U o‘z o‘zini anglash haqida ham qimmatli g‘oyalarini ilgari surgan: inson o‘zini ma’naviy tarbiya va ilmu ma’rifat orqali topadi deb yozadi.

Bugungi kunga kelib ijtimoiy-emotsional ta’limga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi, chunki raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning ongini manipulyatsiya qilib, ularning o‘zligi, oila a’zolari, yaqinlari va atrofdagilardan begonalashuvi xabardorlik hissining pasayishi, mas’uliyatning kamayishi, munosabatlarning keskinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ta’lim tizimida SEL metodikalarini qo‘llash ehtiyojini kuchaytirmoqda. Chunki ijtimoiy emotsional ta’lim o‘quvchilarning ijtimoiy hamda emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan qimmatli metodika hisoblanadi. Ijtimoiy emotsional ta’lim emotsional intellektning ahamiyatini oshirib, uning osoyishtalik, akademik natijadorlik hamda ijobiy xarakterdagi shaxslararo munosabatlarning rivojlanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarda ijtimoiy emotsional kompetensiyalarni shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonida hamda hayotiy vaziyatlarni o‘quvchilarning muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishini ta’minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. His-tuyg‘ular insoning o‘rganish, rivojlanish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi, o‘zaro mehr-shafqatga asoslangan munosabatlar esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatni ta’minlashga xizmat qiladi. Shunga ko‘ra ijtimoiy emotsional ta’lim bilimlarni o‘zlashtirish jarayoniga samarali ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek o‘quvchilarning jismoniy salomatligini ta’minlaydi, madaniy va ma’naviy takomillashuviga sharoit yaratadi. Bu esa uzluksiz ta’lim jarayonida muvaffaqiyatini ta’minlaydi

Ijtimoiy emotsional ta’lim o‘quv-tarbiya uchun o‘quvchilar uchun xavfsiz muhit yaratishga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar murakkab masalalarga echim topish usullarini o‘zlashtirish va kundalik faoliyatlarida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lish orqali turli bosimlar, ruhiy zo‘riqishlarni bartaraf etishga muvaffaq bo‘ladilar. Natijada salbiy omillarsiz, psixologik-pedagogik jihatdan qulay bo‘lgan o‘quv-tarbiya muhiti vujudga keladi.

Ijtimoiy emotsional ta’lim o‘quvchilarga kognitiv, shaxsiy va ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni egallash imkoniyatini yaratadi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning ruhiy osoyishtaligini ta’minlash orqali alohida imkoniyatlarni taqdim etish mumkin. Salbiy pedagogik muhit o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlariga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun ham umumiy o‘rta ta’lim jarayonida o‘quvchilar uchun qulay, samarali, didaktik-madaniy muhit yaratish talab qilinmoqda. Bunday didaktik-madaniy muhit yordamida ijtimoiy emotsional ta’limning tarkibiy qismlarini tashkil etgan va o‘quvchilarning kompleks rivojlanishi zarur bo‘lgan beshta kompetensiyani shakllantirish vujudga keladi. Ular: o‘z o‘zini anglash, o‘z o‘zini boshqarish, ijtimoiy xabardorlik, shaxslararo munosabatlarga kirishish va mas’uliyatli qaror qabul qilishdan iborat. Mazkur kompetensiyalar o‘zaro uyg‘un tarzda bir birini taqozo qilgan holda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga va turli sohalarda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi.

O‘z o‘zini anglash kompetensiyasi emotsional intellektning asosini tashkil etib, o‘quvchilarning o‘z his-tuyg‘ulari, motivatsiyasi va turli ta’sirlarga bo‘lgan munosabatlarini anglash qobiliyatini ifodalaydi. Emotsional intellekt o‘z o‘zini anglash, hamdardlik, ijtimoiy ko‘nikmalar va turli shaxslararo vaziyatlarga moslashish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Emotsional intellekt o‘quvchilarga o‘z o‘zini anglash tuyg‘usini rivojlantirish, o‘ziga ishonchni vujudga keltirish, o‘quv faoliyati samaradorligini ta’minashga xizmat qiladi.

O‘z o‘zini boshqarish kompetensiyasi o‘quvchilarning shaxsiy his-tuyg‘ulari, kechinmalari, fikrlari va xulq-atvorni muvaffaqiyatli tartibga solish va samarali boshqarishga yo‘naltirilgan kompetensiyadir. Ushbu kompetensiya o‘quvchilarning bilimlarni egallash va akademik ko‘nikmalarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularning xulq-atvorlarini yaxshilash ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashadi.

Ijtimoiy xabardorlik kompetensiyasi ijobiy maqsadlarni belgilash va ularga erishish, atrofdagilarga hamdardlik tuyg‘usi bilan yondashish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilishga o‘quvchilarni yo‘naltiradi.

Mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasi esa o‘quvchilarda kuchli ijtimoiy emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlarga kirishish kompetensiya samarali muloqot, hamkorlik va jamiyat a’zolari bilan o‘zaro kollaborativ munosabatni o‘z ichiga oladi. Uning tarkibiy qismi sifatida faol tinglash, jamoada ishlay olish, sog‘lom munosabatlar o‘rnatish, muammoli vaziyatlarda kelishuv yo‘lini tanlash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish nazarda tutiladi. Ushbu kompetensiyani samarali shakllantirish, o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda madaniy-didaktik o‘quv muhitini yaratish natijasida amalga oshiriladi. Bunday muhitda o‘qituvchi bilan o‘quvchi, o‘quvchilar bilan o‘quvchilar orasida o‘zaro hurmat, hamkorlik, adolatlilik va g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga asoslangan insoniy munosabatlar vujudga keladi.

Yuqoridagilardan ayon bo‘ladiki, ijtimoiy emotsional ta’lim o‘quvchilarning o‘quv muhiti va istiqboldagi faoliyati mikrosotsiumda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatishlari uchun zarur bo‘lgan XXI asr ko‘nikmalarini o‘zida mujassamlashtirgan. Ulardan eng muhimlari o‘z his-tuyg‘ulari (emotsiyalarini) boshqarish, o‘z oldiga maqsad qo‘yish, unga erishish traektoriyasini tanlash, murakkab vaziyatlarda osoyishtalik bilan harakat qilish, jamoada kollaboratsiyada ishlash kabilardir. Ijtimoiy emotsional ta’lim metodikasi shaxslararo munosabatlar va samarali pedagogik jarayonni o‘zida mujassamlashtirib, munosabatar pedagogikasining muhim qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur jarayonda o‘quvchilar bilimlar va tayanch hayotiy kompetensiyalarni egallash, o‘zlashtirilgan bilimlarini samarali qo‘llash, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish, shaxslararo ijobiy

munosabatlar o‘rnatish hamda murakkab vaziyatlarga echim topish, ishonchli hamkorlik o‘rnatish, o‘zaro axborot almashish kabi kundalik faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar.

Kollaborativ faoliyat o‘quvchilarning ijtimoiy emotsional ta’lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylantirib, ularni o‘zaro muloqot va ijobiy munosabatlarga kirishishga rag‘batlantiradi. Natijada o‘quvchilarda kommunikativ va ijtimoiy madaniy kompetensiyalar sirasiga kiradigan ijtimoiy xabardorlik va o‘zaro qadriyatli munosabatlarga oid faoliyat usullarini shakllantirishga xizmat qildi. Kollaborativ faoliyat va interaktiv harakat usullari o‘quvchilarni o‘z o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish, qiziqishlarini rag‘batlantirishga yo‘naltiradi. Natijada o‘quvchilarda hamkorlik va shaxslararo munosabatlarga asoslangan xulq-atvor tajribasi shakllantiriladi. Ko‘rinib turibdiki ijtimoiy emotsional ta’lim o‘quvchilarni kompleks rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lib, munosabatlar pedagogikasining muhim yo‘nalishini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami: 10 jildlik. 9-jild. Mahbub ul-qulub. – T.: G‘ofur G‘ulom, 2011. – 768 b
2. Abu Ali ibn Sino. Men anglagan dunyo / -T.: “Sharq”, 2015. 272 b.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dona fikrlar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160 b.
4. Наймушина Л.М. Сотсиально-эмотсионалное обучение как новое направление развития педагогической науки и практики // Педагогика: история, перспективы. 2019. № 3. С. 41–48.
5. Xakimova B.M. SEL metodikasi va O‘zbekistonda ta‘limning yangi tendensiyalari. Qo‘qon DPI Ilmiy xabarlari // – Qo‘qon, 2025 – №03. – B.1546-1550.
6. Xakimova B.M. Ijtimoiy-emosional ta‘lim (IET) metodlari orqali o‘smirlarda mas‘uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish.// Tarbiyaga oid xalqaro tajribalarni to‘plash va transformatsiyalash strategiyalari // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – B. 523–526

SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM IMKONIYATLARI

Axmedova Matluba Akmalovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalari, hissiyotlarni boshqarish hamda ijodkorlik kabi sifatlarni shakllantirishda turli to‘garaklar va darsdan tashqari faoliyatlarning ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali yechimlar ham taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar*: ijtimoiy-emotsional ta’lim, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalar, empatiya, ijodkorlik, mas’uliyat, yetakchilik, pedagogik yondashuv.*

Bugungi globallashuv sharoitida o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki emotsional va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) – bu o‘quvchilarda o‘zini anglash, his-tuyg‘ularni boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ijobiy qaror qabul qilish va jamoadagi mas’uliyatni his etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonidir. Ushbu jarayon nafaqat dars davomida, balki sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ham samarali tashkil etilishi mumkin.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning qiziqishlari, iqtidorlari va shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Bu jarayonda:

- erkin muloqot muhiti yuzaga keladi;
- o‘quvchilar o‘z qiziqishlari bo‘yicha faoliyat olib boradilar;
- ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar tabiiy tarzda shakllanadi.

Masalan, sport to‘garaklari, teatr studiyalari, musiqiy mashg‘ulotlar yoki turli klublarda ishtirok etgan o‘quvchilar hamkorlik, do‘stlik, empatiya va irodaviy sifatlarni mustahkamlaydilar.

Jadval 1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda ijtimoiy-emotsional ta’lim imkoniyatlari

Mashg‘ulot turi	Rivojlanadigan ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar	Amaliy natija (misol)
Sport musobaqalari	Hissiyotlarni boshqarish, jamoada ishlash, sabr-toqat	O‘quvchi mag‘lubiyatni to‘g‘ri qabul qiladi va kelgusi g‘alaba uchun harakat qiladi
Teatr va sahna chiqishlari	Empatiya, ijodkorlik, muloqot	O‘quvchi obrazga kirib, boshqalar hissiyotini his etishni o‘rganadi
Musiqa va qo‘shiq to‘garaklari	O‘zini anglash, estetik did, ijobiy hissiyotlar	O‘quvchi o‘z iste’dodini namoyon qiladi va sahna qo‘rquvini yengadi
Fan-texnika klublari	Tanqidiy fikrlash, mas’uliyat, hamkorlik	Guruhda loyiha tayyorlash orqali yetakchilik ko‘nikmalari shakllanadi

Ijodiy to‘garaklar (rasm, adabiyot)	O‘zini ifoda etish, sabr-toqat, mustaqillik	O‘quvchi o‘z hissiyotini san’at asari orqali ifoda qiladi

Shunday qilib, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- O‘zini anglashni rivojlantirish – o‘quvchilar o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish orqali kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar.

- Hissiyotlarni boshqarish – sport o‘yinlari yoki musiqiy chiqishlarda emotsiyalarni nazorat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

- Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish – jamoaviy loyihalar, teatrlashtirilgan sahnalar o‘quvchilarni hamkorlikka o‘rgatadi.

- Mas’uliyat va yetakchilik – to‘garak rahbari yoki kichik guruh yetakchisi bo‘lish o‘quvchini javobgarlikka o‘rgatadi.

- Ijodkorlikni rag‘batlantirish – musiqiy, badiiy va ilmiy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar yangicha g‘oyalarni ilgari suradilar.

Shu bilan birga, ijtimoiy-emotsional ta’limni sinfdan tashqari faoliyatda qo‘llashda qator muammolar mavjud:

- pedagoglarning metodik tayyorgarligi yetarli emas;
- o‘quvchilar faoliyatini baholash mezonlari aniqlanmagan;
- ota-onalarning ushbu jarayonga jalb etilishi past.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun:

- o‘qituvchilar uchun ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikasi bo‘yicha maxsus treninglar tashkil etish;

- o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

- ota-onalarni sinfdan tashqari faoliyatga jalb qilish samarali yechimlardan hisoblanadi.

Diagramma 1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlanadigan ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar




Diagramma izohi: Diagrammada sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarda rivojlanadigan asosiy ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar ulushi ko‘rsatilgan.

- O‘zini anglash (25%) – eng muhim ko‘nikmalardan biri bo‘lib, o‘quvchilar o‘z qiziqishi, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkoniga ega bo‘ladi.
- Ijtimoiy ko‘nikmalar (25%) – jamoada ishlash, hamkorlik va muloqot madaniyatini shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.
- Hissiyotlarni boshqarish (20%) – sport, musiqiy yoki ijodiy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar o‘z emotsiyalarini nazorat qilishni o‘rganadilar.
- Mas’uliyat va yetakchilik (15%) – to‘garak yoki guruh faoliyatida rahbarlik qilish orqali o‘quvchilar javobgarlikni his qiladilar.
- Ijodkorlik (15%) – san’at, fan va ijodiy mashg‘ulotlarda yangi g‘oyalar ishlab chiqish hamda o‘zini erkin ifodalash imkoniyatini beradi.

Umumiy xulosa shuki, sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda eng ko‘p rivojlanadigan ko‘nikmalar — o‘zini anglash va ijtimoiy ko‘nikmalar hisoblanadi. Bu esa shaxsiy va jamoaviy rivojlanish uchun muhim asos yaratadi.

Shunday qilib, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar ijtimoiy-emotsional rivojida katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular orqali shaxsiy sifatlar, jamoada ishlash ko‘nikmalari va ijobiy psixologik muhit shakllanadi. Shu bois, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’limni darsdan tashqari faoliyat bilan uyg‘unlashtirish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

ADABIYOTLAR

1. Denham, S. A., Taylor, D. D., & Schellinger, A. T. (2025). The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions. Child Development, 82(1), 205–232.
2. Karimova, V. M. (2018). Pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. To‘xtaxo‘jayev, Sh. (2020). Ta’limda ijtimoiy-emotsional yondashuv: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Fazilova Lutfinisa Azamadxodjayevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi Milliy institute mustaqil izlanuvchisi, Toshkent davlat tibbiyot universiteti kata o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning empatiya, muloqot, hamkorlik va stressni boshqarish kabi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar orqali IETni samarali amalga oshirishning afzalliklari va mavjud muammolari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, ta’lim metodologiyasi, empatiya.*

Abstract. *The article analyzes the opportunities of using digital technologies in the process of social-emotional education (SEE). It highlights the significance of modern digital learning tools in developing students’ social-emotional skills such as empathy, communication, collaboration, and stress management. In addition, the advantages and existing challenges of implementing SEE effectively through digital platforms are discussed.*

Keywords: *social-emotional education, digital technologies, online platforms, educational methodology, empathy.*

Аннотация. *В статье проанализированы возможности использования цифровых технологий в процессе социально-эмоционального образования (СЭО). Освещено значение современных цифровых образовательных средств в формировании у учащихся социально-эмоциональных навыков, таких как эмпатия, коммуникация, сотрудничество и управление стрессом. Кроме того, рассмотрены преимущества и существующие проблемы эффективной реализации СЭО посредством цифровых платформ.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное образование, цифровые технологии, онлайн-платформы, методология обучения, эмпатия.*

XXI asrda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlash vazifasini bajarmoqda. UNESCO va UNICEF tadqiqotlariga ko‘ra, ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini, emotsional barqarorligini va jamiyatda to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bilan birga, hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta’limning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda.

Quyida ijtimoiy-emotsional ta’limning raqamli texnologiyalari mazmuni, ahamiyati qo‘llanilishi va afzalliklari hamda muammoli kabi taraflarini o‘rganib chiqamiz.

1.Ijtimoiy-emotsional ta’limning mazmuni va ahamiyati.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim insonning nafaqat aqliy, balki hissiy va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantiruvchi pedagogik yondashuvdir. CASEL modeli asosida ijtimoiy-emotsional ta’lim besh asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi:

Bular:

1- O‘z-o‘zini anglash – shaxsiy emotsional holatni tushunish, kuchli va kuchsiz tomonlarni bilish;
2- O‘z-o‘zini boshqarish – hissiyotlarni nazorat qilish, stressni yengish, maqsadga intilish;
3- Ijtimoiy anglash – boshqalar holatini his qilish, empatiya, turli madaniy muhitlarga hurmat;
4- Mas’ul qaror qabul qilish – axloqiy me’yorlarga asoslangan qarorlar chiqarish;
5- Ijtimoiy ko‘nikmalar – muloqot, hamkorlik va nizolarni hal qilish.

2. Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy-emotsional ta’limda qo‘llanish imkoniyatlari. Bu haqida gapiradigan bo‘lsak, quyidagi onlayn vositalarni nazarga olish mumkin:

2.1. Interaktiv platformalar. Zoom, Google Classroom, Microsoft Teams kabi onlayn vositalar orqali guruhiy muhokamalar, rolli o‘yinlar va treninglar tashkil etiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda empatiya va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2.2. Mobil ilovalar va onlayn treninglar. Headspace, Calm, Smiling Mind kabi ilovalar stressni boshqarish, diqqatni jamlash va hissiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2.3. Virtual va qo‘shimcha reallik (VR/AR). VR texnologiyalari orqali o‘quvchilar ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, real hayotga yaqin tajriba orttiradilar.

2.4. Ijtimoiy tarmoqlar va forumlar. O‘quvchilar onlayn muhokamalar va ijtimoiy guruhlarda faol ishtirok etish orqali hamdardlik va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantiradilar, media-savodxonlikka o‘rganadilar va onlayn muloqot qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

2.5. Sun’iy intellekt (AI) vositalari. AI asosidagi dasturlar o‘quvchilarning emotsional holatini tahlil qilib, individual tavsiyalar beradi. Bu esa o‘z-o‘zini anglash va boshqarishni qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Afzalliklari. Ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishining afzalliklarni sanab o‘tadigan bo‘lsak, quyidagi ro‘yxatga ega bo‘lamiz:

- ✓ Ta’lim jarayonining individuallashtirilishi;
- ✓ O‘quvchilarning qiziqishi va motivatsiyasini oshirishi;
- ✓ Muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishi;
- ✓ Real hayotga yaqin vaziyatlarda tajriba orttirish imkoniyati;
- ✓ Masofaviy ta’lim sharoitida ham samarali bo‘lishi.

4. Ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli texnologiyalarning afzalliklari bilan bir qatorda uning salbiy muammolari va cheklovlari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iboratdir:

- ✓ Raqamli ma’lumotlarga chalg‘ish va diqqatni yo‘qotish xavfi;
- ✓ Ijtimoiy izolyatsiya ehtimoli;
- ✓ Barcha ta’lim muassasalarida teng imkoniyatlarning mavjud emasligi;
- ✓ Internetga qaramlik va ekranga ortiqcha bog‘liklik vaqti;
- ✓ O‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarining yetarli bo‘lmasligi.

Xulosa. Ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Ular ta’limni interfaol, qiziqarli va individuallashtirilgan shaklda tashkil etishga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar — empatiya, hamkorlik, muloqot, stressni boshqarish va qaror qabul qilish madaniyatini shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, psixologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish, shuningdek, barcha

o‘quvchilar uchun raqamli resurslardan teng foydalanish imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-emotsional ta’limda raqamli texnologiyalarni oqilona va tizimli qo‘llash ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, shuningdek, o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Social and Emotional Learning for Education Systems. Paris, 2021.
2. CASEL. The Core Competencies of SEL. Chicago, 2020.
3. UNICEF. Ijtimoiy-emotsional ta’lim va raqamli texnologiyalar. Toshkent, 2022.
4. Fazilova, L.A. Yoshlarni ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan podkast va videokontentlar yaratish hamda ularni ommalashtirish. “Raqamli ta’lim muhitida milliy tarbiya kontentlarini yaratish va tatbiq etish: muammolar va yechimlar” Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. Toshkent, 2025. – C 246-249
5. Фазилова, Л. А. Масофавий таълимни ташкил этишда онлайн маърузалардан фойдаланишнинг назарий-методологик ахамияти. Замонавий тиббий олий таълим: муаммолар, хорижий тажриба, истикболлар" мавзусидаги VII укув-услубий анжуман туплами.-УДК. 2022. – С. 004-37.018.
6. Фазилова, Л. А. Талабаларнинг АКТга оид компетентлигини ривожлантириш. “Ракамли тиббиёт: бугунги ва эртанги куни” Халкаро илмий-амалий конференция туплами. Academic research in educational sciences, 2025, – C 96-101. ISSN (E): 2938-3625
7. Durlak, J. A. et al. The Impact of Enhancing Students’ Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis. Child Development, 2011.

“MAKTABDA PEDAGOGIK JAMOANING XILMA-XILLIGINI INOBATGA OLGAN HOLDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH”

Jumanova Gulmira Poxriddin qizi
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Maqolada maktabdagi pedagogik jamoaning xilma-xilligini inobatga olgan holda inson resurslarini boshqarish masalalari yoritilgan. Xilma-xillik tushunchasi millat, jins, diniy e’tiqod, madaniyat, jismoniy va aqliy imkoniyatlar, shaxsiy tajriba va iste’dodlar kabi ko‘plab omillarni qamrab oladi. Maktab jamoasida mavjud farqlarni samarali boshqarish ta’lim jarayonining boyishi, ijtimoiy muhitning mustahkamlanishi hamda bag‘rikenglik va hamkorlik qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Muallif xilma-xillikni muammo emas, balki ta’limni rivojlantiruvchi resurs sifatida ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *xilma-xillik, inson resurslarini boshqarish, pedagogik jamoa, maktab, inklyuziya, bag‘rikenglik, adolat, ijtimoiy muhit.*

Abstract. *The article discusses the management of human resources in schools, taking into account the diversity of the pedagogical community. The concept of diversity covers a wide range of factors such as ethnicity, gender, religion, culture, physical and intellectual abilities, personal experiences, and talents. Effective management of differences within the school community enriches the educational process, strengthens the social environment, and promotes values of tolerance and collaboration. The author emphasizes that diversity should not be seen as a problem but rather as a valuable resource for educational development.*

Keywords: *diversity, human resource management, pedagogical community, school, inclusion, tolerance, equity, social environment.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы управления человеческими ресурсами в школах с учетом разнообразия педагогического коллектива. Понятие «разнообразие» охватывает такие факторы, как национальность, пол, религиозные убеждения, культура, физические и умственные способности, личный опыт и таланты. Эффективное управление различиями внутри школьного сообщества способствует обогащению образовательного процесса, укреплению социальной среды, а также формированию ценностей толерантности и сотрудничества. Автор подчеркивает, что разнообразие следует рассматривать не как проблему, а как ресурс для развития образования.*

Ключевые слова: *разнообразие, управление человеческими ресурсами, педагогический коллектив, школа, инклюзия, толерантность, справедливость, социальная среда.*

Xilma-xillikning asosiy mazmuni jamiyatda mavjud bo‘lgan keng qamrovli va turfa farqlarda namoyon bo‘ladi. Ta’lim tizimida bu tushuncha ko‘plab milliy guruhlar va ikkala jins vakillari birgalikda faoliyat yuritishini anglatadi. Shu bilan birga, u turli diniy e’tiqodlar, madaniy an’analar, jismoniy va aqliy qobiliyatlar, iqtidorlar, turmush tarzi, oilaviy qadriyatlar, tillar va boshqa individual xususiyatlarning boy xilma-xilligini ham o‘z ichiga oladi.

Ba’zi farqlar ko‘zga sezilarli bo‘lishi mumkin, masalan, insonning jinsi, teri rangi yoki tashqi ko‘rinishi; boshqalari esa darhol aniqlanmaydi, masalan, shaxsning ma’lum bir diniy e’tiqodi yoki kelib chiqishi. Xilma-xillik tushunchasidan foydalanilganda farqlarni ijobiy yoki salbiy deb baholash o‘rinli emas; uning mohiyati ularning mavjudligini to‘liq anglash va qadrlashda namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, ta’lim muassasalari va pedagogik jamoalar uchun muhim vazifa shundaki, ular bu turfa farqlarni tan olib, har bir shaxsning noyob xususiyatlarini hurmat qiladigan muhit yaratish orqali ta’lim jarayonini yanada boy va samarali qilishi zarur. Bu yondashuv nafaqat maktab ichidagi ijtimoiy muhitni mustahkamlaydi, balki har bir shaxsning salohiyatini to‘liq ochishga imkon beradi.

Ta’lim muassasalari o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy tizim hisoblanadi. Ularning tarkibida turli millat, jins, til, jismoniy va aqliy imkoniyatlarga ega bo‘lgan shaxslar faoliyat yuritadi. Mazkur tafovutlar insonning ta’lim jarayonida va kasbiy rivojlanishida erishadigan yutuqlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois ta’lim jamoalarida xilma-xillikni e’tiborsiz qoldirish mumkin emas, chunki bu omil nafaqat o‘quv-tarbiyaviy samaradorlikni belgilaydi, balki ijtimoiy muhitda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni ham oldindan bartaraf etish imkonini beradi.

Bugungi kunda jamiyat ushbu masalaga jiddiy e’tibor qaratmoqda. Chunki xilma-xillikni to‘g‘ri boshqarish nafaqat muammolarni hal qilishga, balki ta’lim jarayonini yanada boyitishga, o‘quvchilarda tolerantlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat kabi muhim ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Demak, ta’lim tizimida mavjud farqlarni «muammo» sifatida emas, balki rivojlanish resursi sifatida ko‘ra bilish muhim metodologik yondashuvdir.

Ta’lim sohasida xilma-xillikni boshqarishni maktab misolida ko‘rib chiqamiz. Maktabdagi xilma-xillikni tushunishga yondashuvlardan biri sifatida ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi turli guruhlarni ajratib ko‘rsatish mumkin [3]:

- maktab rahbariyati;
- o‘qituvchilar;
- ota-onalar;
- o‘quvchilar;
- xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar;
- mahalla yoki mikrohudud rahbarlari;
- mahalliy hamjamiyat a’zolari.

Yuqorida qayd etilgan har bir guruh maktab hayotida o‘ziga xos rol o‘ynaydi, shuningdek, ular maktabdan turlicha kutishlarga ham ega. Agar insonlar o‘rtasidagi individual farqlarni ham hisobga olsak, maktab hamjamiyatining naqadar xilma-xil ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday individual omillarga quyidagilar kiradi:

- yosh;
- jins;
- diniy e’tiqodlar;
- madaniy qadriyatlar;
- maktabdagi funksiyasi va pozitsiyasi;
- shaxsiy tajriba va qobiliyatlar;
- tabiiy ko‘nikma va iste’dodlar;
- ta’lim darajasi va malaka;
- oilaviy qadriyatlar;
- ma’naviy qadriyatlar;
- ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalar;

- akademik, jismoniy hamda shaxsiy rivojlanishning boshqa potentsial jihatlari;
- aqliy, jismoniy, hissiy va ma’naviy ehtiyojlar va boshqalar[1].

Maktab jamoasida mavjud bo‘lgan xilma-xillikni samarali boshqarish – ya’ni turli qobiliyatlar, qarashlar, madaniyatlar, qadriyatlar va ijtimoiy jihatlarni uyg‘unlashtirish – murakkab va izchil yondashuvni talab etadigan jarayondir. Ayniqsa, bu borada ta’lim siyosatini amalda qo‘llovchi pedagogik jamoa zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Shunga qaramay, xilma-xillikni boshqarish bo‘yicha ko‘rsatilgan har qanday mehnat va sa’y-harakatlar nafaqat maktabning umumiy rivoji uchun, balki uning tarkibidagi har bir ishtirokchining shaxsiy va kasbiy o‘sishi uchun ham g‘oyat muhimdir.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning turfa xususiyatlari, qarashlari va qobiliyatlarini qadrlay oladigan hamda ularni ta’lim jarayoniga faol jalb etadigan maktablar odatda yuqori natijaga erishadi. Chunki xilma-xillikni to‘g‘ri anglash va tan olish ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan har bir shaxsning o‘ziga xos g‘oyalarini, hayotiy tajribalarini va ijobiy hissalarini samarali tatbiq etishga keng imkon yaratadi.

Bunday yondashuv natijasida maktabda nafaqat ta’lim sifati oshadi, balki qulay psixologik muhit, sog‘lom muloqot muhiti va ijodiy hamkorlikka asoslangan ish muhiti shakllanadi. Bu esa o‘z navbatida maktab rahbariyati, pedagoglar, o‘quvchilar va ularning ota-onalari o‘rtasida mustahkam hamkorlikni rivojlantiradi hamda qo‘yilgan maqsadlarning samarali amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, insonlarning xilma-xilligini boylik va kuch sifatida ko‘ra olgan maktablar jamiyatdagi tezkor o‘zgarishlarga yanada moslashuvchan bo‘ladi, barqaror taraqqiyot imkoniyatini kengaytiradi va o‘zining raqobatbardoshligini oshiradi. Demak, xilma-xillikni boshqarish nafaqat ijtimoiy adolat va bag‘rikenglikni qaror toptiradi, balki maktabning innovatsion salohiyatini oshirishda ham hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi davrning dolzarb chorlovlaridan (challange) biri — bu ta’lim muassasalarida mavjud xilma-xillikni samarali boshqarish orqali nafaqat alohida maktablarning, balki umuman ta’lim tizimining rivojlanishini ta’minlashdir. Har bir maktabning muvaffaqiyati, asosan, turli qobiliyat, qarash, madaniyat va tajribaga ega bo‘lgan shaxslarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish darajasiga bog‘liq. Shu bois, bugungi kun ta’lim amaliyotida farqlarni inkor etish yoki bartaraf qilish emas, balki ularni uyg‘unlashtirish, konstruktiv tarzda boshqarish hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlarni oqilona hal etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xilma-xillikni boshqarishning mohiyati — mavjud tafovutlarni boylik sifatida qabul qilish va ular asosida maktab hayotini mazmunan boyituvchi, ta’lim jarayonini samarali qiluvchi tajribani yaratishdan iboratdir. Zero, maktab faqat yagona qarash yoki tajriba asosida emas, balki turfa shaxslarning hissasi bilan to‘laqonli rivojlanadi. Shu ma’noda, pedagogik jamoa, o‘quvchilar va ota-onalarning bir-biridan farqli imkoniyatlarini qadrlash, ularni ta’lim jarayoniga jalb etish maktabning ijtimoiy-madaniy salohiyatini kengaytiradi.

Maktab menejerlari ta’lim jarayonida xilma-xillikni samarali boshqarishda hal qiluvchi o‘ringa ega bo‘ladilar. Ular menejer sifatida nafaqat jarayonni tashkil etadilar, balki o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ota-onalar va boshqa ishtirokchilarni yagona maqsad sari birlashtirib, maktabni katta bir oilaga o‘xshash uyg‘un muhit sifatida shakllantirishga undaydilar. Bunda har bir insonning shaxsiy hissasi va qadriyati maktab hayotining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilishi muhimdir[6].

Aslida, xilma-xillik ta’limdagi yetakchilik uchun katta imkoniyatlar manbai bo‘lib, u to‘siq emas, balki resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, turfa qarash

va tajribalarni to‘g‘ri anglash hamda ularni faoliyatda tatbiq etish maktab oldida turgan ko‘plab masalalarning samarali yechimini topishga yordam beradi.

Eng muhimi, xilma-xillikni boshqarish jarayoni kengroq ijtimoiy vazifani ham ado etadi: u jamiyatda bag‘rikenglikni, o‘zaro hurmatni, madaniy va ijtimoiy farqlarni qadrlashni rag‘batlantiradi. Natijada, maktab nafaqat ta’lim sifati bilan, balki jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ma’naviy markaz sifatida shakllanadi.

Maktabda xilma-xillik madaniyatining nechog‘lik rivojlanganini va amalda qanday darajada qo‘llanilayotganini aniqlash uchun ayrim muhim savollarga javob topish talab etiladi[2]. Ushbu savollar maktabning tenglik, inklyuzivlik va bag‘rikenglik tamoyillariga qay darajada amal qilayotganini ko‘rsatib beradi:

- O‘qituvchilar qizlar ham o‘g‘il bolalar kabi matematika bilan darsdan tashqari shug‘ullanish istagiga ega ekanligiga ishonadilarmi? Bunday savol gender tengligini ta’minlash borasidagi munosabatni ochib beradi.
- Maktabda turli tillarda tadbirlar, masalan, saf tortish yoki tantanali yig‘inlar tashkil etilganmi? Bu savol madaniy va til xilma-xilligini e’tirof etish darajasini ko‘rsatadi.
- Xilma-xillik masalalari yuzasidan maktabda ochiq muloqot olib boriladimi? Bu esa ta’lim muassasasining ochiqlik va muhokama madaniyatini aniqlashga yordam beradi.
- Madaniy festivallar dasturiga nimalarni qo‘shish mumkin? Bu savol maktab qanchalik ko‘p madaniyatni birlashtira olishini va bunday tadbirlar orqali bag‘rikenglikni rivojlantirish imkoniyatini ko‘rsatadi.
- Maktab kichik millatlarga mansub o‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘zlarini begona emas, balki jamoaning to‘laqonli, qadrli a’zosi sifatida his qilishlari uchun qanday amaliy choralar ko‘rmoqda?
- Nogironligi sababli aravachada yuradigan bola maktabga o‘qishga kirishni xohlasa, bu vaziyatda maktab qanday munosabat bildiradi? Bu savol maktabning inklyuzivlikka bo‘lgan amaliy yondashuvini ochib beradi.
- O‘quvchilarga fan asoslarini o‘zlashtirish jarayonida o‘qituvchi va tengdoshlar ko‘magi orqali o‘zlariga mos sur’atda rivojlanish imkoniyati yaratilganmi? Bu o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishdagi yondashuv darajasini ko‘rsatadi.

Mazkur savollar orqali maktab nafaqat ta’lim jarayonida, balki butun jamoatchilik hayotida ham xilma-xillikni qanday qadrlashini, inklyuzivlik va teng imkoniyatlarni qanchalik ta’minlayotganini baholash mumkin.

Xilma-xillik tushunchasi bevosita “adolatlilik” bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, u jamiyatda odilona, haqqoniy va to‘g‘ri yo‘lni tanlashni anglatadi. Shu bilan birga, adolatni “tenglik” bilan aralashtirib yubormaslik kerak. Tenglik har kimga bir xil munosabatda bo‘lishni bildirsa, adolat esa har bir insonning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda unga mos imkoniyat yaratishni nazarda tutadi.

Masalan, nogironligi sababli jismoniy cheklovlarga ega bo‘lgan bolalar maktab hayotiga faol qo‘shila olishlari uchun maxsus sharoitlar yaratish — bu oddiy tenglik emas, balki adolat prinsipining amaliy ifodasidir. Chunki bunday bolalarga boshqalar bilan “bir xil” sharoit emas, balki ularning imkoniyatlariga mos va qulay sharoit talab etiladi.

Xuddi shuningdek, o‘g‘il va qiz bolalar fizika fanini o‘rganishda nazariy jihatdan teng imkoniyatlarga ega bo‘lishlari mumkin, biroq amalda ijtimoiy stereotiplar va qarashlar tufayli qizlar ko‘proq qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezishi mumkin. Shu bois ayrim hollarda qizlarni fizika faniga yanada faolroq jalb etish, ularga qo‘shimcha rag‘bat berish — bu tenglik emas, balki haqiqiy adolatni ta’minlash yo‘lidagi muhim choradir.

Xurofot — bu asosli dalillarga tayanmagan holda kimdirdan yoki nimadandir ijobiy yoki salbiy tarzda taassurot hosil qilishdir[5]. U ko‘pincha insonlarni bir-biridan ajratib turadigan yoki ularni umumiy jihatlar orqali bog‘lovchi belgilar asosida shakllanadi. Masalan, ayrim hududlarda bir lahjada so‘zlashuvchi kishilar boshqa til yoki lahja vakillariga nisbatan salbiy yoki past nazar bilan qarashlari mumkin.

Diskriminatsiya esa xurofotdan ham xavfliroq hodisadir[4]. Chunki bunda insonlar o‘z xurofotlarini nafaqat ichki qarash sifatida saqlab qoladi, balki uni amaliy harakatga aylantirib, boshqalarni kamsitishga, ularning huquq va imkoniyatlarini cheklashga yo‘l qo‘yadi. Natijada, tenglik va adolat buziladi, bu esa nafaqat alohida shaxs, balki butun ta’lim muassasasining sog‘lom muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Diskriminatsiya mavjud bo‘lgan muhitda shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi pasayadi, o‘zini qadrlash hissi zaiflashadi va natijada ular maktabning turli faoliyatlarida faol ishtirok etishga kamroq intiladi. Agar maktab rahbariyati shaxslarni kamsitsa yoki ularga hurmat ko‘rsatmasa, boshqaruv jamoasida qarama-qarshilik, ishonchsizlik, stress va hatto dushmanlik yuzaga keladi, bu esa maktabni samarali boshqarish va rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Agar diskriminatsiya milliy, etnik yoki jinsiy asosda sodir bo‘lsa, bu maktabda har bir insonning xavfsizligi va farovonligiga tahdid soluvchi muhit yaratadi. Bunday sharoitda maktabdagi xilma-xillikning haqiqiy ahamiyatini baholash qiyinlashadi va shaxslar o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta olmaydi. Shu bilan birga, agar turli sohalarda iste’dodli yoki iqtidorli shaxslar kamsitilsa, maktab o‘z rivojlanishi va yangilanishi uchun zarur bo‘lgan qimmatbaho inson resurslaridan mahrum bo‘ladi. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va maktabdagi ijtimoiy muhitni boyitish imkoniyatini kamaytiradi.

Natijada, xurofot va diskriminatsiyaga qarshi tizimli choralar ko‘rilmas ekan, maktabda xilma-xillikni samarali boshqarish va har bir shaxsning iqtidorini rivojlantirish qiyinlashadi, bu esa ta’lim sifatini va maktabning barqaror rivojlanishida to‘siqlar paydo qiladi.

Xilma-xillik potentsialini samarali qo‘llashning asosiy tamoyillari bir qator muhim qadriyat va e’tiqodlar atrofida shakllanadi. Unga ko‘ra, avvalo, insonlar o‘zaro farqlaridan ko‘ra o‘xshashliklarga ega ekanligi ta’kidlanadi, ya’ni umumiylik va hamjihatlikni e’tibordan chetda qoldirmaslik muhim. Shu bilan birga, farqlar har doim va har xil sharoitlarda turlicha namoyon bo‘lishi mumkinligi inobatga olinadi, chunki inson harakati va qarashlari vaziyatga qarab o‘zgaradi.

Xilma-xillikdagi barcha farqlar tan olinishi va hurmat qilinishi zarur, biror shaxs yoki guruhga ustunlik berish ijobiy hodisa sifatida baholanmaydi. Shuningdek, xilma-xillik potentsiali — bu har bir insonning noyob xususiyatlarini hisobga olib, ularni maktab hayoti va jamiyat faoliyatida samarali qo‘llash imkonini beruvchi murakkab mozaika sifatida qaraladi. Shu tarzda, har bir shaxs o‘zining betakror qobiliyati va hissasini jamiyat va maktab hayotiga qo‘shadi, bu esa ta’lim muassasasining rivojlanishi va umumiy ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Maktab sharoitida xilma-xillikni boshqarishning asosiy maqsadi shunday muhitni yaratishdirki, unda har bir ishtirokchi o‘z salohiyatini to‘liq amalga oshirib, ta’limiy va rivojlanish maqsadlariga samarali erisha olsin. Bunday boshqaruv shunchaki tartib-intizom yoki qoidalarni joriy qilish bilan cheklanmaydi; u maktab madaniyati, qadriyatlar tizimi va o‘quv jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, maktabning e’tiqodlari, qadriyatlari, an’anaviy marosimlari va mavjud tizimlari tanqidiy ko‘rib chiqilishi, zarur bo‘lsa qayta shakllantirilishi lozim, chunki ular xilma-xillikni to‘liq qadrlash va undan samarali foydalanishga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Maktabda xilma-xillikni samarali boshqarish jarayoni birinchi navbatda maktab siyosatining qonunchilikka mosligini ta’minlashdan boshlanadi. Shu bilan birga, ushbu qonunlar maktabdagi turli xil ishtirokchilar – o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqa xodimlar – farqlarini tan olishi va hurmat qilishi shart. Maktabning rivojlanish strategiyasini tanqidiy baholash orqali maktabning xilma-xillikni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan sa’y-harakatlariga hech qanday qarama-qarshilik yo‘qligiga ishonch hosil qilinadi.

Bundan tashqari, bu jarayon maktabdagi xilma-xillikni boshqarishning samaradorligi va konstruktivligini aniqlash imkonini beradi, ya’ni har bir ishtirokchining imkoniyatlari va hissalari maktab hayotiga integratsiyalashgan holda ishlatilayotganini baholashga yordam beradi. Shu tariqa, maktab rahbariyati va pedagogik jamoa o‘z faoliyatini yanada mukammal va inkluziv muhit yaratishga qaratishi, har bir shaxsning noyob salohiyatidan unumli foydalanishi hamda jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy farqlarga hurmat bilan yondashishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, qonuniy asoslar, strategik tahlil va konstruktiv boshqaruv orqali maktabda xilma-xillikni samarali boshqarish nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki maktabni yanada inkluziv, xavfsiz va barqaror rivojlanayotgan muhitga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бабченко. О. Я. Управление человеческими ресурсами в сфере образования с учетом разнообразия коллектива 2014.С. 54–62.
2. Буева.Л.П. Культура и образование. Проблемы взаимодействия (Выступление на «круглом столе» «Культура, культурология и образование») // Вопросы философии. 1997. (2). С. 12–17.
3. Извозчикова. А. А. Межкультурный диалог в информационно- образовательном пространстве // Наука и школа. 2001. (5). С. 43–46.
4. Boboqulovna E. B. STIGMA VA DISKRIMINATSIYA HAQIDA TUSHUNCHA VA UNI BARTARAF ETISH 2023.C. 33–34.
5. Https://oyina.uz/uz/teahause/968 No Title.
6. Mirmahmudova. A. TA‘LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA BOSHQARUV QARORLARI // RESEARCH FOCUS. 2023. № 3 (2). С. 91–94.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRLASH VOSITASIDA O‘Z-O‘ZINI ANGLASH KOMPETENSIYALARI SHAKLLANTIRISH

Masharipova Nasiba Ro‘zmatovna
PhD, Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti, “Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi, doktorant

Bugungi ta’limiy islohatlar o‘quvchilarni har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lib,o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarni egallash bilan birga o‘zlarini shaxsiy rivojlanish darajalariga ham ega bo‘lishlari lozim. Bu borada butun dunyoda ijtimoiy-hissiy ta’lim amaliyotga tadbiq etilmoqda. Xususan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 -yil 2- iyunda qabul qilgan “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorida 2025/26-o‘quv yillarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalarini joriy qilish vazifasi qo‘yilgan.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘quvchilarda 5 ta muhim kompetensiyalarni tizimli tarzda shakllantirishga qaratilgan va o‘quvchilarni shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga asoslanadi. Jumladan:

- ✓ O‘z-o‘zini anglash (self-awareness)
- ✓ O‘zini o‘zi boshqarish (self-management)
- ✓ Ijtimoiy anglash (social awareness)
- ✓ Munosabatlarni boshqarish (relationship skills)
- ✓ Mas’uliyatli qaror qabul qilish (responsible decision-making)

O‘z-o‘zini anglash ushbu kompetensiyasi aqliy faoliyatning hissiy idrok etilishini ta’minlab, o‘quvchilar o‘z shaxsiy his-tuyg‘ularini, xohishlarini anglash layoqati, o‘z menini shakllantirishda tashqi motiv, ichki ta’sirlanish, maqsadlarni belgilash va mustaqil bo‘lishga yo‘naltiradi.

Inson dunyoga kelib shaxs sifatida shakllanar ekan o‘zini qadrlashalari, hurmat bilan munosabatda bo‘lishlariga ehtiyoj sezadi. Bu qanday hodisa ekanligi, rivojlanayotgan shaxs xulq-atvorida qay darajada aks etishi ko‘p asrlar maboynida ajdodlarimizning e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelgan. Shuning uchun ham Sharq pedagogik tafakkurida o‘zlik tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘z-o‘zini anglashi, o‘z xohish-irodasini namoyon etishi uchun o‘quvchilarda mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirib borish lozim.

Tanqidiy fikrlash o‘quvchilarni muayyan voqea va hodisalarga nisbatan o‘z fikrini shakllantirish va bayon qilishga, kerakli xulosa va yechimlarni topishga, o‘z munosabatini bildirish va baholashga ko‘maklashadi. Tanqidiy fikrlash **“munosabat bildirish qobiliyati”**ni rivojlantiruvchi asos hisoblanadi. Shaxs muayyan jarayonga to‘g‘ri munosabat bildirishi uchun avvalo uning bilimi mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. U o‘zida mavjud bilimlar, tushunchalar asosida mavjud holatga nisbatan savol, munosabat, izohlarni shakllantira oladi. Shuning uchun ham tanqidiy tafakkur shaxsning bilimlari va egallagan tajribalari darajasini belgilab beradi.

Taniqli olim Richard Paul tanqidiy fikrlashga oid ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirgan. Uning tadqiqotlarida tanqidiy fikrlashning barcha elementlari kengroq tahlil qilinadi. Olim tanqidiy fiklashni 12 turiga izoh beradi xususan: global, ixtisoslashgan, diniy, Suqrotona, aniq, yashirin, tizimli, epizodik, erkin, cheklangan, tabiiy hamda texnik tanqidiy fikrlash turlariga ajratadi[15]. Shuningdek Richar Paul taniqli pedagog-psixolog Linda Eldar bilan hamkorlikda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muammolari ustida ish olib borgan. Paul va Eldar o‘z tadqiqotlari natijalariga tayanib tanqidiy fikrlash konsepsiyasini ishlab chiqadilar. Unga ko‘ra tanqidiy fiklash 3 bosqichda amalga oshadi:

- **kuzatish** (muammoga oid bilimlarni shakllantirish);
- **savol qo‘yish** (muammoni tahlil qilish va baholash);
- **yechim topish** (muammoga oid mulohaza va xulosalarni chiqarish).

Bu uchta bosqichni olimlar 6 qismga taqsimlab amalga oshirish yo‘nalishini ko‘rsatadilar:

- bilish (asosiy mavzu yoki muammoni aniqlash);
- tushunish (mavzu yoki muammoni anglash);
- ma’lumot to‘plash (mavzu yoki muammoga oid axborotlarni ko‘rib chiqish);
- tahlil qilish (to‘plangan axborotlarni o‘rganish);
- sintez qilish (mulohazalarni umumlashtirish va yechimga harakat qilish)
- baholash(yechimni bayon qilish va sinab ko‘rish).

Yuqoridagi ilmiy tahlillarga tayanib aytish mumkinki, o‘z-o‘zini anglashda o‘quvchilardagi fikrlash ko‘nikmalari muhim mezon hisoblanadi.

Buyuk mutaffakkir shoir Alisher Navoiy asarlarida o‘zligini anglashga qodir inson isonlarning eng ulug‘i ekanligi ta’kidlangan. Insonning o‘zligi – uning odamiyligi, insonparvarligi, insoniy go‘zal fazilatlarga ega ekanligida nomoyon bo‘ladi deb yozadi alloma. O‘zlik, o‘zlikni anglash, o‘z “menini” topish kabi tushunchalar murakkab falsafiy-psixologik, pedagogik hodisa bo‘lsada, Alisher Navoiy ushbu tushunchalarni sodda, xalqchil til bilan o‘z asarlarida insonlarga o‘zligini anglashga, to‘g‘ri, holol yashashga yo‘l ko‘rsatib, ular turli yomon illatlardan qutilishga undagan. Mutafakkir shoir inson ichki dunyosini, o‘zligini shakllanishi ta’lim-tarbiya, oila, atrof-muhit, jamiyat bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlasada, avvalo shuni ham aytadiki, insonning o‘zi o‘z hayoti uchun, istak va intilishlari uchun ma’sul bo‘lishi lozim. Shoir ta’kidlaganidek:

O‘z vujudinga tafakkur aylagil, Har ne istarsen – o‘zingdan istagil.

Demakki, inson o‘zligini anglash uchun avvalo o‘qib o‘rganmog‘i, bilim olishi, moddiy olamni o‘rganishi, shu asosda o‘z tafakkurini charxlashi lozim. Kim ekanligini, yashashdan maqsadi, orzu istaklari, kasb-u hunari, kelajagi haqida inson avvalo o‘zi bilan, ongi va qalbi bilan mushohada qilishi joiz bo‘ladi.

Buyuk faylasuf Suqrot esa “o‘zligingni angla” da’vatini shior darajasiga ko‘targan. Suqrot o‘z zamondoshlariga murojaat qilib quyidagilarni ta’kidlagan edi: “O‘zini anglagan inson, o‘zi uchun nima foydaliligi va nimalarga qodir ekanligini yaxshi tushunadi. U qo‘lidan keladigan ish bilan shug‘ullanish asnosida o‘z ehtiyojini qondiradi va saodatga erishadi. Har qanday xato va baxtsizliklardan xoli bo‘ladi. Buning natijasi o‘laroq, u o‘zga odamlarni qadrlay oladi va ulardan ezgulik yo‘lida foydalana biladi. Oqibatda o‘zini kulfatlardan asraydi”.

[15] Paul, R. & Elder. L. The Thinker’s Guide to How to Read a Paragraph, Foundation for Critical Thinking, Dillon Beach, CA, 2006, 2nd Ed

Sharq uyg‘onish davrida yashagan mutaffakkirlar ijodi shaxs kamolotida o‘zlikni anglash muhim o‘rin tutishiga yaqqol misol bo‘la oladi. Chunki hayotbaxsh g‘oyalar insonni o‘zligini anglashiga zamin yaratib, to‘g‘ri yashashga o‘rgatadi, jamiyatni ravnaq topishiga asos bo‘ladi.

Inson o‘zligini anglashi uchun yashashdan ko‘zlangan maqsadlarini yaxshi bilishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi sari intilishi, barkamollikka erishish uchun avvalo o‘z kuch-quvvatiga ishonishi lozimligi uqtirilgan.

Shaxsning o‘zligini anglashida ishonch va e’tiqod muhim ahamiyatga ega. *Ishonch* – 1. Ishonish hissi, tuyg‘usi. 2. E’tiqod etilgan, suyanilgan, umid bog‘langan shaxs yoki narsa. 3. Biror-bir shaxsga uning so‘zi, ishi va xatti-harakatlariga xayrixohlik va simpatiya bilan qarash, u bilan hamkorlik qilish, yaqin munosabat o‘rnatishga asos bo‘ladigan ma’naviy omil. 4. Ma’naviy, madaniy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tamoyillar, me’yorlar, an’analar, qadriyatlarni ongli ravishda o‘zlashtirish yo‘li bilan tarbiyalanishning asosiy usullari, shaxsda e’tiqodni shakllantirish omili. [157; 214-b.].

E*’tiqod* *[a.* – ishonch, ishonish; ko‘ngilda tasdiklash; imon, maslak] **1.**Qattiq ishonch, dildan e’tirof etiluvchi tushuncha, nuqtai nazar, qarash. **2.**Biror kimsaga yoki narsaga bo‘lgan ishonch; ishonch va ixlos bilan qarash. **3.**Xudoga yoki umuman biror g‘ayritabiiy kuchga ishonish. E’tiqod – inson ruhiyatining muayyan ma’lumot, matn, hodisa, voqea yoki shaxsiy tasavvur va aqliy xulosalar to‘liq va e’tirozsiz qabul qilinadigan alohida holati. [158]

Nasafiy o‘zining “Al inson ul-komil” asarida o‘zligini anglagan barkamol inson haqidagi ta’limotini mujassamlashtirgan. Nasafiy insonni o‘z ichki olamini anglashga undaydi. O‘zini, ichki dunyosini anglagan insongina komilikka erishadi deya targ‘ib etadi mutaffakkir. Hadisi Sharifda ta’kidlanganidek “Kimki o‘zligini tanisa, robbini taniydi”. Ushbu Hadislarda birinchi navbatda qalb erkinligi, ruh pokligi o‘zlikni anglashning asosiy mezoni ekanligi ta’kidlangan. Buning uchun har bir inson o‘z nafsini yenga olishi, iymonini mustahkalashi va xulq atvorini tartibga solishi lozimligini uqtiradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida inson o‘zligini anglashga qodir bo‘lib boradi. Shu bilan bir qatorda mutaffakkir inson o‘z xulq-atvorini takomillashtirib borishi lozimligini ham uqtirgan. Nasafiy ta’lim-tarbiyaning shaxsni shakllanishidagi ahamiyatiga katta e’tibor qaratadi.

Ajdodlarimiz o‘zligini anglagan inson timsolida ezgu g‘oyalar va pok e’tiqodga ega bo‘lgan bunyodkor, yaratuvchan, aqlga muvofiq harakat qiladigan, o‘z ma’naviy dunyosini anglab uni boyitishga intilgan shaxsni tasavvur qilganlar. Ular yosh avlodda o‘zligini anglash tuyg‘usini shakllantirish orqali o‘sha davrlarda ham jamiyatda vujudga kelgan muammolarni yechish ko‘nikmalarini hosil qilganlar.

Darhaqiqat, o‘zlikni anglashning mazmun-mohiyati insonning intilishlarida nomoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyo mutaffakkirlarining yirik namoyondasi Farobiy inson o‘zining aql zakovati bilan barcha mavjudotlardan farqlanishini ta’kidlab “Inson o‘zining barcha bilimlarini tashqi olam tufayli oladi. U ko‘pgina vosita va usullar bilan ta’minlanganki, ular (xotira, tasavvur, idrok, sezgi, mantiqiy tafakkur, nutq) orqali vaqe’likni o‘zlashtira boradi. Aynan shu vositalar tufayli inson ilm fanni yaratadi” degan g‘oyani ilgari surgan. Inson mavjud bilimlari asosida o‘zini o‘rganishi, anglashi, hayr-ehsonli ishlarni amalga oshirishi, go‘zal insoniy fazilatlarga ega bo‘lishi zarur deydi mutaffakkir.

Alfrid Lengle o‘zlikni anglash haqida fikr yuritar ekan, shaxs konsepsiyasiga alohida e’tibor qaratgan. Insonning o‘zini anglashi uning ichki ovozi sifatida nomoyon bo‘ladi. Shaxs o‘zlikni anglash hissini idrok etadi, qalban tinglaydi va his qiladi. Shu tariqa o‘ziga o‘zi baho bera boshlaydi. O‘zining hatti harakatlari, dunyoqarashini tanqidiy tahlil qiladi. O‘z menidan kelib chiqqan holda, atrofdagilarga ob’ektiv, insonparvarona munosabatda bo‘ladi. Lengle ta’biricha, bugungi kunda inson antropologiyasi nafaqat shaxsning mustaqilligiga balki, uning

boshqalar bilan dialogga kirishish layoqatiga egaliga e’tibor qaratilishi lozim. Jumladan shaxsning jamiyat va boshqa insonlar bilan munosabati, mustaqilligi va o‘ziga xosligi, boshqalardan farqli jihatlarga ega ekanligi, betakrorligi muloqot jarayonida yaqqol nomoyon bo‘lishini e’tirof etadi.

Insoniyat o‘zining butun tarixiy taraqqiyoti davomida ma’naviy-axloqiy tarbiya doirasida ikkita muhim masalaga yechim izlagan: birinchisi – haqiqiy inson qanday yashashi kerak; ikkinchisi – qanday ezgu ishlarni bajarish, qanday harakatlardan tiyilish lozim.

Ma’naviy dunyosi boy, ruhiyati baquvvat inson o‘zligini va o‘z hatti harakatlarini to‘la anglab yetishga qodir bo‘ladi. Chunki o‘zlikni anglash hissi insonga kuch-quvvat bag‘ishlab, irodasini mustahqamlaydi. O‘zlikni anglash shaxsni o‘z huquq va majburiyatlarini bilishga undaydi. O‘zlikni anglashning negizini burch, mas’uliyat, majburiyatga sodiqlik tashkil etadi.

Inson o‘zligini anglashi uchun avvalo o‘z ichki olamini, ma’naviy dunyosini tushunib yetishi lozim. O‘zligini, insoniy qadr-qimmatini anglab yetgan har qanday inson barkamollikga intiladi. Bunday shaxsni shakllantirish ta’lim-tarbiyaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Амир Темурни англаш – ўзлигимизни англашдир. – Т .: Тафаккур, 2014. – 48 б.
2. Jon Dewey. How we think. New York. December, 1909. 228 p.
3. Пол, Р. и Элдер, Л. (2010). Миниатюрное руководство по концепциям и инструментам критического мышления. Диллон Бич: Фонд критического мышления Press.
4. Paul R. Critical thinking: what every person needs to survive in a Rapidly Changing World/ Sonoma State Uni. 1990
5. Safarova R.G. Social-emotional education as an innovative pedagogical phenomenon. Journal of learning on History and Social Sciences. e-ISSN: 3031-7347. JLHSS, Vol. 2, No. 2, February 2025. Page 105-110.
6. Safarova R.G. “Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikasi”. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. 2025 yil 27-fevral, №41.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING O‘YIN FAOLIYATIDA HISSIY RIVOJLANISHI

Salayev Donyor Baxtiyarovich
Alfraganus university “Sport faoliyati”kafedrasi v.b dotsenti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin faoliyatida hissiy rivojlanishining ahamiyati hamda “o‘yin faoliyati” tushunchasi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek o‘yin faoliyatini olib borishda tarbiyachining vazifalari o‘rganildi. O‘yinning maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishiga va ularning xulq-atvoriga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Bolalarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan o‘yinlarning asosiy turlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *hissiy rivojlanish, estetik rivojlanish, yosh bolalar, maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘yinlar.*

Bugungi kuning eng dolzarb masalalaridan biri sifatida shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishi ruhiy salomatlikning muhim tarkibiy qismidir. Hissiy rivojlanish inson hayotining barcha tomonlarini, uning xulq-atvorini, faoliyatini, shuningdek, kelajakda maqsadlar qo‘yish va ularga erishish imkoniyatlarini boshqaradi. Shuni ta’kidlash kerakki, aynan maktabgacha yoshda bolaning shakllanishi va hissiy rivojlanishi sodir bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy salomatligiga e’tibor berish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishiga o‘yin faoliyati katta ahamiyat va ta’sir ko‘rsatadi. Ta’kidlash joizki, bolalarni tarbiyalash va o‘qitish jarayonida o‘yinlardan juda qadimdan foydalanib kelingan. O‘yin bolaning emotsional rivojlanishi uchun eng samarali usul hisoblanadi.

O‘yinlar real hayotni uning barcha tomonlari namoyon bo‘lishi bilan modellashtirishdir. Bola bunday o‘yin vaziyatida ishtirok etib, jonli muloqot ko‘nikmalarini egallaydi, faoliyatning o‘zini amalga oshirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va murakkabliklarga duch keladi, boshqa ishtirokchilarning xulq-atvorini va ularning jamiyatdagi hissiy xulq-atvorini o‘rganadi, shuningdek, ijtimoiylashuv va psixoemotsional xulq-atvorning o‘z modelini yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishi muammolarini ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar o‘rganishgan. Ular orasida P.K. Anoxin, A.D. Kosheleva, A.V. Kovalenko va boshqalarning ishlarini alohida ta’kidlash mumkin. Biroq, mazkur olimlarning tadqiqotlari asosan yuzaki xususiyatga ega bo‘lib, faqat ayrim masalalarni ko‘rib chiqish bilan cheklanib qolgan.

Hozirgi vaqtda maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin faoliyatida hissiy rivojlanishini o‘rganish muammosiga kompleks yondashuv talab etiladi. O‘yin faoliyati deganda, insonning ma’lum harakatlar, usullar va fikrlash shaklini amalga oshirish orqali ichki va tashqi faolligi yig‘indisini tushunish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin faoliyati yorqin va mazmunli bo‘ladi. Uni o‘tkazish jarayonida bolalar alohida ilhom va xohish bilan ishtirok etadilar. O‘yinni o‘tkazish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zaro real munosabatlarga kirishadilar va xarakterning shaxsiy sifatlarini namoyon qiladilar.

Shuni ta’kidlash joizki, bolalar tabiatan o‘ziga xos bo‘lganligi sababli, o‘yin faoliyati davomida turlicha xatti-harakat qiladilar. Ularning ayrimlari ta’sirchanroq bo‘lib, ko‘proq hissiy kechinmalarni boshdan kechirsa, boshqalari esa aksincha, faolroq va jo‘shqinroq bo‘ladi. O‘yin jarayonida bir-birlari bilan muloqot qilib, bolalar rivojlanadi, xarakter va xulq-atvorning yangi xususiyatlarini o‘zlashtiradi, shuningdek, hissiy tajriba orttiradi.

Bu bosqichda tarbiyachining muhim vazifasi har bir bolaga alohida yondashishdir. Bu bolalarga doimiy e’tibor qaratishni, o‘yin faoliyatini boshqarishning yangi uslub va usullarini ishlab chiqishni talab etadi. O‘yin faoliyati davomida maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘z xulq-atvori va xarakterining ijobiy tomonlarini “rivojlantirib borishlari”ni kuzatib borish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yin jarayonida muloqotdan quvonch tuyishlari, mehribonlik, rahmdillik, hamdardlik kabi fazilatlarni namoyon etishlari zarur.

O‘yinlar xudbinlik, tajovuzkorlik yoki odamovililik namoyon bo‘lgan bolalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular bolalarni erkinlashtiradi, o‘z muammolari va qiyinchiliklarini unutishga undaydi. Bu esa bolalarga atrofdagi real muhit sharoitlariga moslashish va ijobiy hissiy idrok etish darajasini oshirish imkonini beradi. Eng muhim o‘yinlar syujetli-rolli, harakatli, teatrlashtirilgan va ta’limiy o‘yinlardir.

Eng keng tarqalgan o‘yinlar syujetli-rolli o‘yinlar bo‘lib, ular ishtirokchilarning yuqori darajadagi hissiy ishtiroki bilan ajralib turadi. Odatda, bunday o‘yinlar aniq hayotiy voqealar asosida yaratiladi. Bola bu o‘yinda biror rolni ijro etar ekan, muayyan his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi, o‘z xulq-atvorini shakllantiradi va uni jamoa xatti-harakatlariga moslaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bunday o‘yinlardan katta zavq va ilhom oladilar, chunki ular o‘zlariga yoqqan rolni mustaqil ravishda tanlashlari, uni ijro etish jarayonida bevosita ishtirok etishlari, ijodiy imkoniyatlarini va improvizatsiya qobiliyatlarini namoyon etishlari mumkin.

Harakatli o‘yinlar asosan bolalarning salomatligini yaxshilashga, shuningdek, jismoniy tayyorgarligini mustahkamlashga qaratilgan. Biroq, bu yerda bolalarning ruhiy salomatligini rivojlantirishning hissiy tarkibiy qismi ham mavjud. O‘yinlar zerikarli va bir xil bo‘lmasligi kerak. Bunday o‘yinlarda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziqish uyg‘otadigan va ularni tashkil etishda ishtirok etish istagini uyg‘otadigan qiziqarli harakatlar va topshiriqlar bo‘lishi kerak. Bunday harakatlarni bajarishdagi quvonch, ularni bajarishdan zavqlanish bolalarning hissiy rivojlanishiga va madaniyatining shakllanishiga yordam beradi.

Didaktik o‘yinlar ongli o‘yinlar bo‘lib, maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘z oldilariga qo‘yilgan ta’limiy vazifani hal etishga yordam beradi. Bu ularga uni bajarish jarayonida diqqatni jamlashga, e’tiborli va maqsadga intiluvchan bo‘lishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar bolalar tomonidan tushunish uchun mazmunli bo‘ladi.

Muammoni jamoaviy hal qilish ularga umumiy qarorlar qabul qilish, bir-birini tinglashni o‘rganish, hurmat qilish va ishbilarmonlik muloqoti ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bir-biri bilan bunday yaqin o‘zaro ta’sir jarayonning barcha ishtirokchilariga nisbatan hissiy kayfiyat darajasini oshirish, sabr-toqat, kutish, xushmuomalalik va boshqalarni namoyon qilishni o‘rganish imkonini beradi.

U yoki bu o‘yin faoliyatini tanlash tarbiyaviy ishlarni olib boruvchi rahbariyatning maqsad va vazifalari, shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari hamda ehtiyojlariga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, o‘yin vaziyatlari “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida tanlab olinadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy holatini rivojlantirishda o‘yin faoliyatidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin nafaqat bolalarning xulq-atvorini, balki ularning fe’l-atvorini, his-tuyg‘ularini va aqliy qobiliyatlarini ham o‘zgartiradi.

Bundan tashqari, bolalar va kattalar o‘rtasidagi munosabatlar ham o‘zgaradi. Bolalar mehribonroq, do‘stona bo‘lib qoladilar, ular o‘rtasida ishonch va o‘zaro hurmat munosabatlari shakllanadi.Shu sababli, o‘yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning hissiy rivojlanishi va tarbiyasining asosi sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шамарина Е.В. Особенности познавательной деятельности и эмоциональной сферы школьников [Текст] / Е.В. Шамарина, Е.Е. Чернухина. – М.: Книголюб, 2016. – 208 с.
2. Ковалец И.В. Азбука эмоций. Практическое пособие для работы с детьми, имеющими отклонения в психофизическом развитии и эмоциональной сфере [Текст] / И.В. Ковалец. – М.: Наука, 2017. – 136 с.
3. Никифорова Л.А. Вкус и запах радости. Цикл занятий по развитию эмоциональной сферы [Текст] / Л.А. Никифорова. – М.: Национальный книжный центр, 2017. – 311 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA KOGNITIV YONDASHUVNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktaranti

Annotatsiya. *Mazkur tezisda bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda kognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Kognitiv yondashuv — o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtirish, yangi axborotni anglash, uni mavjud bilimlar bilan bog‘lash, chuqur tahlil qilish va o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan metodik konsepsiyadir. Ushbu yondashuv asosida shakllantirilgan dars metodlari va strategiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli, reflektiv va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.*

Tezisda kognitiv yondashuvning asosiy didaktik xususiyatlari – muammoli o‘qitish, metakognitiv strategiyalar, konseptual xaritalar, tafakkurni faollashtiruvchi savollar tizimi – tizimli fikrlashni shakllantirishda qanday pedagogik mexanizmlar orqali ta’sir qilishi yoritiladi. Shuningdek, empirik tadqiqotlar asosida talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan tajriba darslari, so‘rovnomalar va pedagogik kuzatuvlar natijalari tahlil qilinadi. Analizlar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarning o‘z bilimlariga tanqidiy yondashishi, axborot bilan ishlash malakasi va tizimli fikrlash darajasining oshishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *kognitiv yondashuv, tizimli fikrlash, bo‘lajak o‘qituvchilar, didaktik imkoniyatlar, metakognitiv strategiyalar, muammoli o‘qitish, refleksiya, pedagogik metodika, ta’lim innovatsiyalari, tafakkur kompetensiyasi*

Аннотация. *В данной тезисной работе теоретически и практически проанализированы дидактические возможности когнитивного подхода в формировании системного мышления у будущих педагогов. Когнитивный подход представляет собой методическую концепцию, направленную на активизацию познавательной деятельности учащихся, осмысление новой информации, её соотнесение с имеющимися знаниями, глубокий анализ и усвоение. Методики и стратегии, разработанные на основе данного подхода, служат эффективным инструментом в развитии системного, рефлексивного и критического мышления у будущих учителей.*

В тезисе рассматриваются основные дидактические особенности когнитивного подхода — проблемное обучение, метакогнитивные стратегии, концептуальные карты, система вопросов, активизирующих мышление, — и педагогические механизмы их воздействия на формирование системного мышления. Кроме того, проанализированы результаты экспериментальных занятий, анкетирования и педагогических наблюдений, проведённых среди студентов. Анализ показывает, что учебный процесс, организованный на основе когнитивного подхода, оказывает значительное влияние на развитие критического отношения студентов к собственным знаниям, их навыков работы с информацией и уровня системного мышления.

Ключевые слова: *когнитивный подход, системное мышление, будущие педагоги, дидактические возможности, метакогнитивные стратегии, проблемное обучение,*

рефлексия, педагогическая методика, образовательные инновации, компетенции мышления.

Abstract. *This thesis presents a theoretical and practical analysis of the didactic potential of the cognitive approach in developing systems thinking skills among future teachers. The cognitive approach is a methodological concept aimed at activating learners' cognitive activity, comprehending new information, connecting it with prior knowledge, conducting deep analysis, and ensuring meaningful assimilation. Teaching methods and strategies developed based on this approach serve as effective tools for fostering systemic, reflective, and critical thinking in prospective educators.The thesis explores key didactic features of the cognitive approach — problem-based learning, metacognitive strategies, concept mapping, and a system of thought-provoking questions — and the pedagogical mechanisms through which they influence the formation of systems thinking. Additionally, the results of experimental lessons, surveys, and pedagogical observations conducted among students are analyzed. The findings demonstrate that the learning process organized through the cognitive approach significantly enhances students' critical reflection on their knowledge, information processing skills, and level of systems thinking.*

Keywords: *cognitive approach, systems thinking, prospective teachers, didactic potential, metacognitive strategies, problem-based learning, reflection, pedagogical methodology, educational innovations, thinking competencies.*

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim tizimiga bo‘lgan talab va yondashuvlar keskin o‘zgarib bormoqda. Bu jarayon, eng avvalo, pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi mutaxassis – o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni, xususan, tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

Tizimli fikrlash — bu murakkab axborotlarni chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, konseptual bog‘liqliklarni tushunish va qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan tafakkur turidir. Bunday tafakkur turi zamonaviy o‘qituvchining dars jarayonida ilg‘or yondashuvlardan foydalanishi, o‘quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishni o‘rgatishi, o‘z faoliyatini puxta rejalashtirishi va natijalarni baholay olishini ta’minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, kognitiv yondashuvning ta’limga integratsiyasi alohida e’tiborga loyiqdir. Kognitiv yondashuv o‘quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish, mustaqil tafakkur qilish, tushunchalarni bog‘lash, bilimni chuqurlashtirish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish qobiliyatini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni nafaqat bilimlarni uzatishga, balki ularni anglash, tahlil qilish, mantiqiy bog‘liqlikni ko‘ra olish va mustaqil xulosa chiqarish faoliyatiga yo‘naltiriladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish, bu yondashuvni amaliyotga tadbiq etish uchun esa pedagogik jarayonda kognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, uning nazariy asoslari va metodik mexanizmlarini aniqlash, ta’lim metodlari va texnologiyalarini zamonaviylashtirish lozim. Zero, zamonaviy ta’lim mazmuni — o‘qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki o‘quvchining fikrlash faoliyatini yo‘naltirish, uni tahlil qilishga, ijodkorlikka va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatishni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, mazkur tadqiqotda kognitiv yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirishning samarali usullari, metodik yondashuvlari, xorijiy va milliy tajribalar asosida o‘rganilib, amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi. Tizimli fikrlash va kognitiv yondashuvga oid tadqiqotlar zamonaviy pedagogika va psixologiya fanida muhim ilmiy-usal nuqtai nazar hisoblanadi. Bu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatish, hamda axborotni tizimli qayta ishlashga qaratilgan yondashuvlarning samaradorligini isbotlab bermoqda.

J. Bruner, D. Ausubel, R. Ganyé, L. Vigotskiy, P. Ya. Galperin kabi olimlar kognitiv yondashuv asoslarini rivojlantirgan bo‘lib, ular bilimlarning tuzilishi, anglanishi, ongli o‘zlashtirilishi va individual tafakkur jarayonlariga ta’siri borasida muhim g‘oyalarni ilgari surishgan. Jumladan, Brunerning “konstruktivistik” ta’lim modeli, o‘quvchining faolligini oshirish, bilimni ongli ravishda tuzish va uni hayotiy faoliyat bilan bog‘lashni ta’minlaydi.

L. S. Vigotskiyning proksimal rivojlanish zonasi, o‘quvchining mavjud bilim darajasi va potensial imkoniyatlari orasidagi bo‘shliqni to‘ldirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu konsepsiya kognitiv yondashuvga asoslangan o‘quv jarayonini moslashtirishda zaruriy didaktik asoslardan biri hisoblanadi.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari haqidagi nazariyasi o‘quvchilarning tafakkur darajasi va yondashuvlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini asoslaydi. Aynan Piaget tomonidan ishlab chiqilgan “assimilyatsiya” va “akomodatsiya” tushunchalari orqali o‘quvchining yangi bilimni qanday qabul qilishi va o‘z bilim tizimiga qanday qo‘shishi izohlanadi.

Qozog‘istonlik olima R. R. Quronova va O‘zbekistonlik tadqiqotchilar – A. M. Yusupov, G. X. Xidirova, Z. X. Isroilovalarning izlanishlarida kognitiv yondashuv asosida o‘qituvchilarda didaktik kompetensiyalarni rivojlantirish, metakognitiv strategiyalarni qo‘llash orqali dars samaradorligini oshirish yo‘llari yoritilgan.

Yaqinda chop etilgan UNESCO, OECD va World Bank hisobotlarida XXI asr kompetensiyalari orasida “tizimli fikrlash” alohida ko‘nikma sifatida ajratilib, bu kompetensiyani rivojlantirishda kognitiv va reflektiv yondashuvlar muhim vosita sifatida tavsiya etiladi.

Shuningdek, A. A. Miroshnichenkoning “Pedagogik innovatsiyalar va metodik yondashuvlar” nomli asarida o‘quvchilarda analitik va tizimli tafakkurni shakllantirishda o‘qituvchining metodik tayyorgarligi hal qiluvchi omil sifatida e’tirof etiladi.

S. V. Kondratyev va E. V. Bondareva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlarining kognitiv faoliyatni faollashtirishga bevosita ta’siri ilmiy asoslangan.

Pedagogik ta’limda amaliy metodlarni ishlab chiqqan O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan e’lon qilingan metodik qo‘llanmalarda tizimli fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriq turlari, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM va CLIL kabi modellar tavsiya etiladi.

Bundan tashqari, A. Sh. Toshboev, M. R. Saidov, M. T. Nurmuxamedova singari olimlarning pedagogik-psixologik tadqiqotlarida o‘qituvchi shaxsida kognitiv yondashuv asosida tizimli fikr yuritish malakalarini shakllantirish o‘quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida ta’riflanadi.

Metodologiya (Uslubiyat). Ushbu tadqiqot bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda kognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlarini aniqlash, uning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish va amaliyotda sinovdan o‘tkazishga yo‘naltirildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar, kognitiv ta’lim nazariyasi, metakognitiv faoliyatni o‘rganish hamda empirik kuzatuvlarga asoslangan tajriba natijalariga tayangan.

Avvalo, tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashda kognitiv psixologiya, konstruktivizm, muammoli o‘qitish nazariyasi va metakognitiv strategiyalarga asoslangan yondashuvlar asosiy tayanch bo‘lib xizmat qildi. Xususan, J. Bruner, J. Piaget, L.S. Vigotskiy va R. Ganyé kabi olimlarning fikrlash, bilimlarni strukturaviy tashkil etish va ongli o‘zlashtirish haqidagi qarashlari tadqiqotning metodologik negizini tashkil etdi. Bu yondashuvlar yordamida bilimlarni anglash, ongli qabul qilish va ularni mustaqil tahlil qilish mexanizmlarini aniqlash imkoniyati yaratildi.

Tadqiqotning nazariy usullariga quyidagilar kiritildi: tahlil va sintez orqali tizimli fikrlash va kognitiv yondashuvga oid ilmiy-nazariy manbalar chuqur o‘rganildi; abstraktsiyalash va umumlashtirish orqali mavjud nazariyalar asosida umumiy metodik model va yondashuvlar ishlab chiqildi; taqqoslash orqali kognitiv yondashuv asosidagi o‘qitish usullari boshqa didaktik usullar bilan qiyosiy tahlil qilindi; shuningdek, kross-madaniy tahlil yordamida AQSh, Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda kognitiv yondashuv asosida shakllangan ta’lim modellarining mahalliy sharoitga moslashuvchanligi o‘rganildi.

Tadqiqotda empirik metodlar ham faol qo‘llanildi. Jumladan, 3–4-bosqich pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida so‘rovnoma va testlar yordamida ularning tizimli fikrlash darajasi aniqlanib, yakuniy natijalar statistik tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv orqali talabalar faoliyatidagi o‘zgarishlar, muammoni hal qilish qobiliyati, mustaqil fikrlash va izlanishga bo‘lgan munosabatlar baholandi. Shuningdek, eksperiment usuli orqali nazorat va tajriba guruhlari shakllantirilib, kognitiv yondashuv asosida tuzilgan dars ssenariylari amaliyotda sinovdan o‘tkazildi. Bu eksperimentda sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida taqqosiy tahlillar olib borildi.

Olingan ma’lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, deskriptiv tahlil (o‘rtacha qiymat, foiz, dispersiya) hamda chi-kvadrat (χ^2) testi orqali farqlarning ahamiyatlilik darajasi aniqlangan bo‘lsa, T-test yordamida esa tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro solishtirildi. Bu yondashuv metodik modellar samaradorligini ilmiy asosda isbotlash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodik yondashuvlar asosiy tayanch sifatida qo‘llanildi: kognitiv yondashuv, ya’ni bilimlarni anglash, tahlil qilish orqali tizimli fikrlashni shakllantirish; muammoli o‘qitish, ya’ni talabalarni mustaqil fikrlash, savol qo‘yish va izlanishga yo‘naltirish; metakognitiv strategiyalar, ya’ni o‘z-o‘zini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash; konstruktivistik yondashuv, ya’ni mavjud bilimlar asosida yangi bilimlarni tuzish, ularni amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti bo‘lib bo‘lajak o‘qituvchilarning tizimli fikrlash kompetensiyasini shakllantirish jarayoni belgilandi. Subyekt sifatida esa Termiz davlat pedagogika instituti hamda boshqa oliy pedagogik ta’lim muassasalarining boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalari ishtirok etdi. Tajriba bazasi sifatida pedagogik amaliyot o‘tayotgan maktablar, innovatsion darslar va seminar-treninglar tanlab olindi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlash ko‘nikmalarining mavjud holati, kognitiv yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish

samaradorligi va qo‘llanilgan metodik yondashuvlarning natijalari tahlil qilindi. Ushbu tahlil uch asosiy yo‘nalishda olib borildi: mavjud holatni aniqlash, eksperimental yondashuvlarning ta’sirini baholash va kuzatuv asosida sifatli tahlillar o‘tkazish.

Birinchidan, so‘rovnoma va diagnostik testlar asosida pedagogika yo‘nalishining 3–4-bosqichida tahsil olayotgan 60 nafar talabaga tizimli fikrlash ko‘nikmalariga oid topshiriqlar berildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 52% talabalar muammoni tahlil qilishda sustlik qilgan, fikrni umumlashtirish va aniq ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelgan. 34% talabalar esa o‘z fikrlash jarayonini rejalashtirish va baholashda faol ishtirok eta olmagan. Faqatgina 14% talabalar tizimli fikrlash mezonlariga qisman javob bera olgan. Ushbu natijalar hozirgi pedagogik ta’limda tizimli fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodik faoliyat yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligini anglatadi.

Ikkinchidan, eksperiment bosqichi 2 oy davomida olib borildi. Tadqiqot uchun 30 nafardan iborat nazorat va tajriba guruhlari shakllantirildi. Tajriba guruhida kognitiv yondashuv asosida mashg‘ulotlar tashkil etilib, muammoli vaziyatlar, tahliliy va metakognitiv topshiriqlar, refleksiya asosidagi savollar qo‘llanildi. Nazorat guruhida esa an’anaviy dars uslublari asosida o‘quv jarayoni davom ettirildi.

T-test natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida erishilgan natijalar nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ahamiyatli farq ko‘rsatdi ($p < 0.05$). Bu esa kognitiv yondashuv asosida olib borilgan mashg‘ulotlarning samaradorligini isbotlaydi.

Uchinchidan, pedagogik kuzatuv va amaliy mashg‘ulotlar asosida sifat tahlillari amalga oshirildi. Dars jarayonida talabalar faolligi, savol berish va muammoga nisbatan individual yondashuvi kuzatildi. Dastlabki ikki-uch hafta ichida talabalar darsga ko‘proq jalb etila boshlagan, o‘z fikrini asoslash va dalillash ko‘nikmalari kuchaygan. Reflektiv yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlarga berilgan javoblar chuqurroq tahlilga boy bo‘lgan.

Shuningdek, talabalar o‘z-o‘zini baholashga ham faol kirishgan: ular darsdan keyingi fikr-mulohazalarida o‘z kamchiliklarini anglab, ularni bartaraf etishga intilganlar. Bu holat kognitiv yondashuv asosidagi yondashuvning nafaqat bilim darajasiga, balki o‘z-o‘zini anglash, tahlil qilish va rivojlantirish motivatsiyasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Muhokama. Tadqiqot davomida olingan natijalar kognitiv yondashuv asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Eksperiment natijalarida tajriba guruhining barcha ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgani bu yondashuvning metodik ustunliklarini tasdiqlaydi.

Avvalo, kognitiv yondashuv talabalarda faqat bilimlarni o‘zlashtirish emas, balki ularga chuqur ma’no berish, mustaqil fikrlash, muammoga tahliliy yondashish va qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv orqali talabalar o‘z bilimlarini nafaqat yodda saqlaydi, balki ularni amalda qo‘llash, izohlash, mantiqiy bog‘lash, tahlil qilish va sintez qilishga o‘rganadilar. Tadqiqotda qo‘llanilgan metakognitiv strategiyalar esa talabalarning o‘z fikr yuritish jarayonini boshqarishga yordam berdi, bu esa refleksiv yondashuvni kuchaytirdi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shuki, an’anaviy o‘qitish metodlarida talabalar ko‘proq passiv eshituvchi rolida bo‘lib qolayotgan bo‘lsa, kognitiv yondashuv asosidagi mashg‘ulotlarda ular faol ishtirokchi sifatida darsga jalb etiladi. Bu esa ta’lim sifati, qiziqish darajasi va o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi. Amaliy kuzatuvlarda talabalarning mustaqil fikr bildirishi, savollar berishi, tahliliy yondashuvi faollashgani bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, xorijiy ta’lim tajribalariga tayangan holda olib borilgan kross-madaniy tahlil ham shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida kognitiv va metakognitiv

yondashuvlar asosiy o‘ringa ega bo‘lib, u orqali o‘quvchilarda tanqidiy, mantiqiy va tizimli fikrlash kabi muhim ko‘nikmalar shakllantirilmoqda. Bu tajribani mahalliy ta’lim tizimiga moslashtirish imkoniyati mavjud va uning samaradorligi ushbu tadqiqot orqali tasdiqlandi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirish jarayonida kognitiv yondashuvning didaktik imkoniyatlari yuqori ekanligini isbotladi. Tahlil va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarni faollashtiradi, ularning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, dalillash, refleksiya qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini samarali rivojlantiradi.

Tadqiqot davomida olib borilgan so‘rovnomalar, testlar, eksperimentlar va pedagogik kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi pedagogik ta’lim tizimida tizimli fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlar yetarli darajada samarali qo‘llanilmayapti. Aksincha, kognitiv yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalar o‘z fikrlash jarayonini ongli ravishda boshqarishga, bilimlarni tizimlashtirish va chuqur o‘zlashtirishga, o‘z-o‘zini baholash hamda mantiqiy qaror qabul qilishga o‘rganganini ko‘rsatdi.

Tajriba guruhi bilan olib borilgan darslar natijasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada ijobiy farq qilgani, T-test natijalarida statistik ahamiyatlilik darajasining $p < 0.05$ ko‘rsatkichda aniqlangani bu metodik yondashuvning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Ushbu natijalarga tayangan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Kognitiv yondashuv – bo‘lajak o‘qituvchilarda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni, xususan, tizimli, tanqidiy va reflektiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vositadir.
2. Tizimli fikrlashni rivojlantirish – pedagogik ta’lim jarayonining asosiy metodik maqsadlaridan biridir va bu borada kognitiv hamda metakognitiv strategiyalar eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi.
3. Kognitiv yondashuv elementlarini O‘zbekiston ta’lim tizimiga – xususan, o‘quv dasturlari, dars ishlanmalari va amaliy mashg‘ulotlarga integratsiya qilish nafaqat dolzarb, balki pedagogik sifatni oshirish nuqtayi nazaridan ham zaruriydir.
4. Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiya, tahliliy tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish, dalillash va mantiqiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatining sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Shunday qilib, kognitiv yondashuv asosidagi ta’lim samarali natijalar beribgina qolmay, bo‘lajak o‘qituvchilarni XXI asr talablari darajasidagi kompetensiyalarga ega mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаева, H. (2022). *Kognitiv yondashuv asosida o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish yo‘llari*. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). *A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives*. New York: Longman.
3. Bruner, J. S. (1960). *The Process of Education*. Harvard University Press.
4. Gagné, R. M. (1985). *The Conditions of Learning and Theory of Instruction*. New York: Holt, Rinehart and Winston.
5. Jononov, N. (2020). *Tizimli fikrlashni shakllantirishda metakognitiv strategiyalar*. Pedagogik ta’lim muammolari jurnali, 2(45), 113–118.
6. Piaget, J. (1954). *The Construction of Reality in the Child*. New York: Basic Books.

7. Qodirov, A. (2021). *Didaktik tizimlarda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: TDPU Nashriyoti.
8. Shodmonova, N. (2019). *Kognitiv va konstruktiv yondashuvlarning o‘zaro integratsiyasi*. O‘zbekiston pedagogik jurnali, 4(88), 56–62.
9. Vigotskiy, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. Yusufova, G. (2023). *Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy kompetensiyaga tayyorlashda reflektiv yondashuv*. Ta’lim va rivojlanish, 5(102), 89–95.

O‘RTA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM VA O‘QUVCHILARGA TA’LIM BERISHDA INNOVATSIYALAR

Sattarova Barno Djaxangirovna
orcid:0009-0006-3725-732X
[1]Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, 100149, O‘zbekiston Respublikasi
e-mail: barnorasatti72@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ijtimoiy-emotsional ta’limning mazmuni, uning o‘rta umumta’lim maktablari sharoitida qo‘llanilishi, zamonaviy pedagogik usullar, shakllar va innovatsion yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, o‘quvchilarda ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishni ta’minlashda ijtimoiy-emotsional ta’limning ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, usullar, shakllar, innovatsiya, o‘quvchi shaxsi, kompetensiya.*

Kirish.

XXI asrda ta’lim tizimining asosiy vazifasi – bilim berish bilan birga o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarini yo‘lga qo‘yish va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu jihatdan, ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasida CASEL (Collaborative for Academic, Social and Emotional Learning) modeli asosida ta’lim jarayonlariga IET integratsiya qilinmoqda.

O‘zbekistonda ham ta’limning mazmunini yangilash, innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat dars mashg‘ulotlarida, balki sinfdan tashqari faoliyatlarda ham amalga oshirilishi zarur.

Ijtimoiy-emotsional ta’limning mazmuni

Ijtimoiy-emotsional ta’lim – bu o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayondir:

- o‘zini anglash – shaxsiy hissiyotlar va qobiliyatlarni tushunish;
- o‘zini boshqarish – stress, qiyinchilik va emotsiyalarni nazorat qilish;
- ijtimoiy munosabatlar qurish – do‘stona munosabat va hamkorlik ko‘nikmalari;
- mas’uliyatli qaror qabul qilish – ma’naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda tanlov qilish;
- muammolarni hal qilish – ijtimoiy hayotda to‘g‘ri yo‘l topish.

Bu ko‘nikmalar o‘quvchilarning nafaqat ta’limda, balki hayotda ham muvaffaqiyatga erishishlariga asos bo‘ladi.

O‘rta umumta’limda ta’lim berish usullari

O‘rta umumta’lim maktablarida IETni amalga oshirishda an’anaviy va innovatsion usullar uyg‘un qo‘llaniladi.

An’anaviy usullar: suhbat, bahs-munozara, tarbiyaviy hikoya, ko‘rgazmali vositalar.

Interaktiv usullar: rolli o‘yinlar, “akvarium”, “mozayka”, “fikrlar boroni”, keys-stadi.

Ijodiy usullar: esse yozish, sahnalashtirilgan ko‘rinishlar, “emotsiya kartalari” bilan ishlash.

Bu usullar o‘quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, muloqot madaniyatini shakllantiradi hamda hamkorlik va hamdardlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Ta’lim shakllari

Ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida turli shakllardan samarali foydalanish mumkin:

Frontal ta’lim – butun sinf bilan muloqot va muhokama;

Guruhli ish – ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal qilish;

Juftlikda ish – muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Individual ish – kundalik yuritish, shaxsiy taassurotlarni yozish.

Innovatsiyalar

Zamonaviy pedagogikada ijtimoiy-emotsional ta’limni samarali tashkil etish uchun qator innovatsion yondashuvlar qo‘llanilmoqda:

1. *SEL dasturlari* – CASEL modeli asosida kompetensiyalar tizimini shakllantirish.
2. *Dijital platformalar* – ClassDojo, Mood Meter kabi ilovalar orqali hissiyotlarni boshqarish.
3. *Mindfulness va meditatsiya mashg‘ulotlari* – stressni kamaytirish, diqqatni oshirish.
4. *STEAM+IET integratsiyasi* – tabiiy va gumanitar fanlarni ijtimoiy-emotsional ta’lim bilan uyg‘unlashtirish.
5. *Geymifikatsiya* – o‘yin elementlari asosida ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
6. *Media ta’lim* – multfilm va videoroliklar orqali axloqiy tushunchalarni shakllantirish.

Ijtimoiy-emotsional ta’limda dolzarb muammolar va yechim takliflari

Ta’limda ijtimoiy-emotsional ta’limning dolzarb muammolarini tahlil qiladigan bo‘lsak quyidagi bir qator hali yechimini kutayotgan holatlarni ko‘rishimiz mumkin va ularga yechim takliflarini ham qarab o‘tsak:

1. *Muammo:* Pedagoglar tayyorgarligining yetarli emasligi
   - Ko‘p o‘qituvchilarda ijtimoiy-emotsional ta’lim haqida nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar yetarli emas.
   - Dars jarayonida emotsiyalarni boshqarish, stressni kamaytirish va hamdardlik ko‘nikmalarini o‘quvchilarga o‘rgatish qiyin kechmoqda.

Yechim taklifi:

   - Pedagoglar uchun maxsus qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
   - Xalqaro tajribalar asosida (CASEL, OECD dasturlari) amaliy treninglar yo‘lga qo‘yish.
   - Maktablarda “psixolog-pedagogik qo‘llanmalar” ishlab chiqish.

2. *Muammo:* Darslik va o‘quv materiallarida IET mazmunining kamligi
   - Amaldagi dasturlarda ijtimoiy-emotsional ta’lim mustaqil blok sifatida kiritilmagan.
   - Aksariyat darslarda faqat akademik bilimga urg‘u beriladi.

Yechim taklifi:

   - Darslik va o‘quv dasturlariga IET elementlarini integratsiya qilish.
   - Mavjud fanlar (adabiyot, tarix, biologiya, texnologiya) orqali ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni kiritish.

– Ijtimoiy-axloqiy mavzularda mashg‘ulotlar va kross-faniy (interdisciplinary) darslarni tashkil qilish.

3. *Muammo:* Maktablarda psixologik xizmatning samarasizligi
   – Maktab psixologlari soni kam yoki ularning yuklamasi ortiqcha.
   – Psixologik xizmat faqat “hujjat yuritish”ga qaratilib, amalda samarali ishlanmaydi.

Yechim taklifi:
   – Maktablarda psixologlar sonini ko‘paytirish va ularning moddiy rag‘batlantirilishini ta’minlash.
   – Psixologik xizmat faoliyatini ta’lim jarayoni bilan integratsiya qilish.
   – Ota-onalar va o‘qituvchilar uchun maslahat markazlarini yo‘lga qo‘yish.

4. *Muammo:* Ota-onalarning xabardorlik darajasi past
   – Ko‘p ota-onalar IETning ahamiyatini anglamaydi, ba’zan hatto unga qarshilik ko‘rsatadi.
   – Bolaning uydagi tarbiyasi va maktabdagi ijtimoiy muhiti uyg‘unlashmaydi.

Yechim taklifi:
   – Ota-onalar uchun seminar va treninglar tashkil qilish.
   – Maktab va ota-ona hamkorligini kuchaytirish (ota-onalar klublari, maslahat kengashlari).
   – Mediata’lim va ijtimoiy tarmoqlar orqali aholiga keng tushuntirish ishlarini olib borish.

5. *Muammo:* IETning baholash mexanizmi yo‘qligi
   – Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni baholash akademik natijalar kabi standart emas.
   – Oqibatda o‘quvchidagi o‘zgarishni aniq o‘lchash qiyin.

Yechim taklifi:
   – Xalqaro tajriba asosida baholash indikatorlarini ishlab chiqish.
   – “Soft skills” baholash mezonlari, chek-listlar, psixologik testlardan foydalanish.
   – Elektron platforma orqali o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini kuzatib borish.

6. *Muammo:* Zamonaviy resurslar va innovatsiyalardan yetarli foydalanilmasligi
   – Maktablarda multimedia vositalari, mobil ilovalar va geymifikatsiya elementlari yetarli emas.

Yechim taklifi:
   – ClassDojo, Mood Meter, SEL Sketches kabi ilova va platformalarni joriy qilish.
   – Ijtimoiy-emotsional mavzularda multfilm, videorolik va podkastlar tayyorlash.
   – Oqituvchilar uchun metodik elektron resurslar bazasini yaratish.

Xulosa

O‘rta umumta’lim maktablarida ijtimoiy-emotsional ta’limni yo‘lga qo‘yish o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar IETni dars jarayonlariga zamonaviy usullar, shakllar va innovatsion texnologiyalar orqali integratsiya qilishlari zarur.

Ijtimoiy-emotsional ta’limni samarali amalga oshirishda asosiy to‘siqlar – pedagoglar tayyorgarligi, ota-onalar xabardorligi, dasturlar va baholash mezonlarining yo‘qligi hisoblanadi. Yechim sifatida – pedagogik kadrlarni tayyorlash, o‘quv dasturlarini boyitish, psixologik xizmatni rivojlantirish, innovatsion resurslarni joriy etish va ota-ona hamkorligini kuchaytirish

muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o‘quvchilarning muloqot madaniyati, mas’uliyat hissi va hayotiy ko‘nikmalarini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sattarova B. Tarbiyada emotsional intellektni shakllantirishda pedagogning vazifalari. “Zamonaviy ta’lim tizimi taraqqiyotida integrativ yondashuv: muammolar, yechimlar va istiqbollari” (5-6 may 2025-yil). Xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya to‘plami. B-46-48, Toshkent. TAFU. http://doi.org/10.5282/zenodo.15628406
2. Sattarova B. Pedagogikada ijtimoiy-emotsional ta’lim: Talabalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirish. “Zamonaviy ta’lim tizimi taraqqiyotida integrativ yondashuv: muammolar, yechimlar va istiqbollari” (5-6 may 2025-yil). Xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya to‘plami. B-46-48, Toshkent. TAFU. http://doi.org/10.5282/zenodo.15628406
3. Sattarova B. Methods for developing emotional intelligence in education and the roles of the educator. Science and innovation Jurnal rasmiy saytida maqola asosiy ma’lumotlari va pdf shakli saqlandi. http://scientists.uz/view.php?id=9315
4. http://scientists.uz/uploads/202506/B.P.-35.pdf
5. Elias, M. J. (2019). Social-Emotional Learning: A Critical Component of Education.
6. Zins, J. E., & Elias, M. J. (2006). Social and Emotional Learning: Promoting the Development of the Whole Student.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISH ORQALI O‘QUVCHILARDA TANQIDIY FIKRNI SHAKLLANTIRISH

Saydaliyev Abbosxon Ibroximxon o‘g‘li
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti ilmiy tadqiqot bo‘limi Katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etishning ahamiyati, mazkur jarayonda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari yoritilgan. Shuningdek, pedagoglarning roli, metodik bazani takomillashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikning zarurligi tahlil qilingan. Shu bilan birga oquvchilarda tanqidiy fikr ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari ham mulohaza qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *ijtimoiy-emotsional ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, metodika, kompetensiya, muammo, yechim, o‘quvchi rivojlanishi, tanqidiy fikr.*

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor axborot asrida yosh avlodni nafaqat bilimli, balki barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

Ta’limning asosiy maqsadi faqatgina o‘quvchilarga nazariy bilim berish bilan cheklanib qolmasligi, balki ularning hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishiga yordam berishi lozim. Ayniqsa, XXI asrda insonning shaxsiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalariga ham bog‘liq. Ijtimoiy-emotsional ta’lim (keying o‘rinlarda IET) – bu o‘quvchilarda o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarni tushunish, hamkorlik qilish, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar majmuidir. Ushbu yondashuv nafaqat ta’lim samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarning hayotiy muvaffaqiyatini ham ta’minlaydi. Shu bois mazkur metodikalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu borada Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti xodimlari 2025-yil bahorda keng tajriba-sinov ishlarini olib borishdi.

Ijtimoiy-emotsional ta’limning mohiyati va ahamiyati. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, akademik bilimlar bilan bir qatorda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarga ega bo‘lgan shaxslar hayotda muvaffaqiyatli bo‘ladi. Masalan, AQSH, Singapur, Finlyandiya kabi davlatlarda maktab ta’limi dasturlariga IET integratsiya qilingan bo‘lib, bu o‘quvchilarning darsdagi faol ishtiroki, ijtimoiy moslashuvi va psixologik barqarorligini oshirgan. IETning asosiy tarkibiy qismlarini quyidagicha izohlash mumkin: - O‘zini anglash – o‘quvchi o‘z hissiyotlarini tushunadi, o‘z kuchli va zaif tomonlarini biladi. Masalan, imtihon oldidan xavotirni sezishi va uni yengish yo‘llarini topishi. - O‘zini boshqarish – emotsiyalarni nazorat qilish, stressni yengish. Bu, masalan, sinovdan yiqilganda tushkunlikka tushmaslik, balki keyingi safar yaxshiroq tayyorlanish, o‘z ustida ishlash, tanqidiy yondashuv uchun motivatsiya olishdir. *Ijtimoiy ong* – boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish va empatiya qilish. Bu o‘quvchilar o‘rtasida hurmat, birdamlik va jamoaviylikni shakllantiradi. *Munosabatlarni boshqarish* – sog‘lom muloqot o‘rnatish, do‘stona munosabat qurish, kelishmovchiliklarni hal qilish. Masalan,

sinfdoshlar o‘rtasidagi nizoni muhokama orqali tinch yo‘l bilan hal qilish. *Mas’uliyatli qaror qabul qilish* – shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni inobatga olib xatti-harakatlarni tanlash. Masalan, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash yoki zararli odatlardan voz kechish. Shunday qilib, ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘quvchilarni faqat bilimli emas, balki irodali, muloqotga kirishuvchan va jamiyatda faol shaxs sifatida shakllantiradi.

Maktablarda uchraydigan muammolar. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida IETni joriy etishda quyidagi qiyinchiliklar mavjud:

1. Metodik qo‘llanmalar yetishmasligi. Hozircha barcha maktablar uchun yagona metodik baza mavjud emas. O‘qituvchilar ko‘proq o‘z tajribasi asosida ish olib borishga majbur.

2. Kadrlar tayyorgarligi. O‘qituvchilar IET bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega emas. Ularning o‘zi ba’zan emotsiyalarni boshqarish yoki nizolarni hal qilishda qiynaladi.

3. O‘quv dasturlarining zichligi. Asosiy e’tibor ona tili, matematika, fizika, kimyo kabi fanlarga qaratilgan. Ijtimoiy-emotsional rivojlanishga alohida vaqt ajratilmagan.

4. Baholash mezonlari yo‘qligi. O‘quvchining emotsional-intellektual rivojlanishini baholash akademik baholash tizimidan farq qiladi, ammo bu borada aniq standartlar mavjud emas.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik sustligi. Ba’zan ota-onalar bu jarayonning ahamiyatini to‘liq tushunmaydi, natijada bola maktabda o‘rganganini oilada qo‘llashda qiynaladi.

Yechimlar va takliflar. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo‘llar muhim:

1. Metodik bazani yaratish. Psixologlar, pedagoglar va metodistlar hamkorligida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos IET dasturlari ishlab chiqilishi lozim. Masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘yin orqali, yuqori sinflarda esa muhokama va loyihalar orqali o‘rgatish mumkin.

2. Pedagoglarni qayta tayyorlash. O‘qituvchilar uchun maxsus treninglar, seminarlar, psixologik mashg‘ulotlar tashkil etish zarur. Bu ularga o‘z hissiyotlarini boshqarish, sinfdagi ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish imkonini beradi.

3. O‘quv dasturlarini moslashtirish. Mavjud darslarga qisqa emotsional mashqlar, rolli o‘yinlar, jamoaviy topshiriqlar qo‘shilishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida qahramonlarning his-tuyg‘ularini tahlil qilish orqali empatiya rivojlantiriladi.

4. Baholash tizimini ishlab chiqish. O‘quvchilarning emotsional-intellektual o‘sishini kuzatish uchun indikatorlar yaratish zarur. Masalan, “muloqot qobiliyati”, “stressga chidamlilik”, “hamkorlik darajasi” kabi mezonlar.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik. Maktablarda ota-onalar klubi, seminarlar tashkil etilib, ularga bolada emotsional-intellektual rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maslahatlar berilishi kerak.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’limni joriy etish zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi lozim. Chunki bugungi kunda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lish faqat bilim bilan emas, balki emotsional barqarorlik, muloqot madaniyati, empatiya va hamkorlik qobiliyatlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shubhasiz, bu jarayonda metodik qo‘llanmalar yaratish, o‘qituvchilarni tayyorlash, ota-onalarni jalb etish kabi masalalarni hal qilish kerak bo‘ladi. Ammo bosqichma-bosqich chora-tadbirlar amalga oshirilsa, ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish nafaqat maktab muhitini sog‘lomlashtiradi, balki jamiyat uchun ham yetuk, mas’uliyatli va hamjihat yoshlarni voyaga yetkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1. CASEL: Fundamentals of SEL — ijtimoiy-emotsional ta'lim asoslari, uning manfaatlari va ta’siri haqida umumiy ma’lumotlar. https://casel.org/fundamentals-of-sel/
2. Learning Policy Institute: Evidence for Social and Emotional Learning in Schools — SEL dasturlarining ijobiy ta’sirini ko‘rsatadigan 12 meta-tahlil bo‘yicha qisqacha tahlil. https://learningpolicyinstitute.org/product/evidence-social-emotional-learning-schools-brief
3. Wikipedia: Social–emotional learning — CASEL tomonidan aniqlangan beshta asosiy ijtimoiy-emotsional kompetensiya haqida ma’lumotlar. https://en.wikipedia.org/wiki/Social%E2%80%93emotional_learning
4. Time (Time.com): “How 'Social and Emotional Learning‘ Became the Newest Battleground in the Classroom Wars” — SEL’ning siyosiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi haqidagi maqola. https://time.com/6170755/social-emotional-learning-schools-conservative-backlash/
5. Times of India: “Telangana bets big on experiential learning, but SEL falls behind...” — SELni amaliy o‘qitish jarayonida yetarlicha e’tibor berilmayotgani tahlili. https://timesofindia.indiatimes.com/education/news/telangana-is-focussing-on-experiential-learning-and-sel-in-schools-reveals-report-how-it-helps-in-overall-development-of-students/articleshow/122493876.cms
6. https://t.me/Uzpfiti_uz/1036

IJTIMOIY TARMOQLARDA POLEMIKANI BOSHQARISH VA SAMARALI TASHKIL ETISH

Saydullayeva Fotima Mannonovna
Toshkent shahar Yashnobod tumani 69 sonli maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Ma’limki, bugungi zamonaviy axboriy raqamli jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Undagi polemikalar – turli fikrlarning to‘qnashuvi yoki bahsli mulohazalar nafaqat axborot almashish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijtimoiy muammolarga e’tiborni jalb qilish va jamoatchilik faolligini kuchaytirishning muhim vositasiga aylandi. Shu boisdan, ijtimoiy tarmoqlarda polemikani samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Agar bu jarayon to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, u holda yolg‘on axborot tarqalishi, ishonch inqirozi va turli ijtimoiy nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Polemikani boshqarish senzura emas, balki fikr xilma-xilligini saqlagan holda, muhokamalarni konstruktiv yo‘nalishda olib borishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ta’lim tizimida joriy etilgan yangi “kriterial baholash” tizimi atrofida vujudga kelgan ijtimoiy bahslarni tahlil qilish, jamoatchilik fikrining shakllanishida polemikaning o‘rnini ko‘rsatish bugungi kunning dolzarb va eng muhim vazifalaridan biridir.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33, 81-moddalarida axborotni izlash, olish, undan foydalanish va tarqatishga bo‘lgan huquqlar kafolatlangan, shuningdek, davlat internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratishi mustahkamlangan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-19-moddalarida har bir inson so‘z va fikr erkinligi, axborot olish va tarqatish erkinligi borasida huquqlari ta’minlangan. Bundan tashqari Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limida, hamda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 29-moddasi4 2-qismida belgilanganidek, har bir kishi o‘z huquq va erkinligidan foydalanayotganda boshqalar huquqini poymol qilmaslik, o‘zaro hurmat, jamoat tartibini saqlashi zarur hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda polemika nafaqat zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismi, balki ijtimoiy tafakkur va kommunikatsiya madaniyatining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir.

Polemika tushunchasiga turli olimlar tomonidan berilgan ta’riflar uning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Masalan, L. Pavlova polemikani “ishontirish san’ati” sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, polemika – bu fikrni ishonchli va shubha tug‘dirmaydigan dalillar, ayniqsa ilmiy asoslangan dalillar yordamida himoya qilish va asoslashga o‘rgatuvchi usuldir. Mazkur yondashuvni A. Ivin yanada boyitib, polemika singari hodisalarga bo‘lgan qiziqish majburlash, zo‘ravonlik, tahdid va boshqa bosim vositalari orqali emas, balki nutq orqali ishontirish zaruriyati bilan bog‘liq ekanini alohida ta’kidlaydi. Tadqiqotchi S. Turabova esa A. Ivinning g‘oyalariga tayanib, bahsning to‘rt turini ajratib ko‘rsatadi: debat, diskussiya, disput va polemika. U polemikani quyidagicha izohlaydi: bu – tomonlar, g‘oyalar va nutqlar o‘rtasidagi qarama-qarshilik va fikrlar to‘qnashuvini ifodalovchi bahs shakli bo‘lib, unda ishtirokchilar o‘z fikrlarini ilmiy asoslarda himoya qilishga intiladilar. Shuningdek, rus ensiklopedik lug‘atida ham polemika atamasi keng talqin etilgan. Unda aytilishicha, polemika – bu adabiy, badiiy, ilmiy yoki siyosiy masala yuzasidan olib boriladigan muhokama, jumladan, ommaviy axborot vositalarida paydo bo‘ladigan bahs va janjallar, unda har bir tomon o‘z pozitsiyasining to‘g‘riligini dalillar orqali isbotlashga harakat qiladi. O‘zbek

olimasi E. Ataqulova polemika tushunchasiga zamonaviy yondashuv asosida quyidagicha ta’rif beradi: “…polemika tushunchasining o‘zida uch xil yondashuv mavjud. Ya’ni: birinchisi, polemika bu – janjal, nizo, urush, hujum kabi harakat, faoliyatni ifoda etuvchi tushuncha. Ikkinchisi, bahs, fikrni himoya qilish singari ma’nolarni ifoda etuvchi muloqot turi. Uchinchisi esa ishontirish, qiziqtirish usulidir. Uch xil yondashuvni umumlashtiradigan jihat, biz tasniflagan har bir turda tomonlarning mavjudligidir. Agar tomonlar bo‘lmasa, ular o‘rtasida nizo ham, muloqot ham, ishonch ham bo‘lmaydi”. Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, polemika oddiy muloqot shaklidan farqli o‘laroq, murakkab ijtimoiy va ilmiy muammolarni yoritishga qaratilgan mazmunli va mantiqiy asoslangan bahs-munozara ekanini ko‘rish mumkin.

Polemik fikr-mulohazalarni OAVdagi o‘rni haqida o‘zbek olimlaridan B.Do‘stqorayev, X.Do‘stmuhammedov, F.Mo‘minov, H.Saidov, N.Toshpo‘latova, E.Ataqulovalarning5 ilmiy tadqiqot ishlarida polemika tushunchasi va polemik maqolaning xususiyatlari o‘rganilgan. Polemika tasnifi, nazariy bilimlar, matn xususiyatlari bilan bog‘liq ishlarning nazariy asoslari aks etgan tadqiqotlar MDH davlatlarida A.Tertichniy, Y.Zasurskiy, A. Shesterina, P. Smirnov, A. Ivin, T. Sinenko, L. Sedov, S. Povarnin, S. Mineyev6 kabi olimlarning dissertatsiya va ilmiy maqolalarida o‘rganilgan. Shuningdek, g‘arb olimlaridan A.D.Gordon, J.Gallop, D.Valton, S. Osmond singari tadqiqotchilar ilmiy izlanish olib borgan ammo, izlanish natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardagi polemikalar ta’lim islohotlari haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, hozirgi maktab ta’lim tizimida yangi baholash tizimi jamiyatda keng muhokamalarga sabab bo‘lib, uning ijobiy va salbiy jihatlari namoyon qilayotgan bir paytda polemikani samarali boshqarish orqali ijtimoiy islohotlar haqidagi axborotni to‘g‘ri yetkazish, turli manfaatdor tomonlarning fikrlarini inobatga olish va konstruktiv muloqot muhitini yaratish mumkin. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, polemikani boshqarish kompetensiyasi zamonaviy kommunikatsiya madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, sog‘lom axborot muhitini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2023
2. Муминов Ф.А. Полемическое искусство К.Маркса: автореф. …докт. филос. наук. – М., 1992. – 51стр;
3. Do‘stqorayev B. O‘zbekiston jurnalistikasi tarixi. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2008. – B. 324;
4. Do‘stmuhamedov X. Jurnalistning kasb odobi muammolari. – Toshkent: Yangi asr avlodi. –2007. – B.15; Saidov H. Matbuot – milliy manfaatlar himoyachisi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B.36;
5. Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Bayoz, 2019. – B.110;
6. E.Ataqulova. Milliy matbuot istiqbolini belgilashda zamonaviy Polemikaning o‘rni. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent. – 2024.
7. Тертычный А.А. Жанры периодической печати: учебное пособие. – М.: Аспект Пресс, 2000. – С. 56;
8. Засурский Я.Н. Журналистика переходного периода: современные концепции и практика / Сб. «Актуальные проблемы журналистики». Материалы научно-практической конференции «Журналистика в 1996». С. 22;

9. Шестерина А.М. Полемический текст в современной прессе: автореф. … дис. докт. филол. наук. – Воронеж, 2004. – URL: https://www.dissercat.com/content/polemicheskii-tekst-v-sovremennoipresse?lielyfda5i151302893. (murojaat sanasi: 13.01.2025);
10. Смирнов П.С. Полемика о перстосложении в XVIII и XIX столетиях. – СПб.: СПбПДА, 2009. (www.spbda.ru); Ивин А.А. Искусство правильно мыслить. – М.: Просвещение, 1990. – С. 125;
11. Синенко Т.В. Полемика в Рунете: функциональные, структурные, тематические и жанровые особенности. Автореф. дис. ... докт. филос. наук. – Воронеж, 2008. – С. 26
12. Седова Л.Н. Основы полемического мастерства: учебное пособие. – Харьков, ХНЕУим. Кучнеса, 2014. – С. 178;
13. Поварнин С. И. Спор. О теории и практике спора. – М.: Технологическая школа бизнеса, 2008. – С. 45; Минеева С.А. Полемика, диспут, дискуссия. – М.: Знание, 1990. – С. 17;
14. Gordon A. Controversies in media etics. - New York: Routledge, 2011. P.5;
15. Gallop J. Polemic critical or uncritical. -New York: Routledge, 2004. P.15;
16. Walton D. The place of emotion in argument. - Pensylvania: 1992. P.13;
17. Osmond C. Polemic vs Polemical – What’s the Difference? https://grammarist.com/author/candaceosmond/ (Murojaat sanasi: 13.01.2025)

YOSHLARDA HAYOT MAZMUNINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIMNING O‘RNI VA PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sayidqulova Mastura Rabimqul qizi
Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yoshlar hayot mazmunini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’limning ahamiyati va psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikasi shaxsga o‘zini anglab, emotsiyalarni boshqarib, empatiya, mas’uliyatli qaror qabul qilish va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shunigdek, bu IET orqali orqali hayot mazmuni haqida barqaror qarashlar hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, maqolada yoshlarning shaxsiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari hamda motivatsion ehtiyojlari hayot mazmunining asosiy psixologik omillari sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ijtimoiy-emotsional ta’lim vositalaridan samarali foydalanish yoshlarning maqsadga intilish darajasini oshirish, hayotiy qiyinchiliklarga bardoshlilikni kuchaytirish hamda ijobiy dunyoqarashni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *hayot mazmuni, ijtimoiy-emotsional ta’lim, psixologik mexanizmlar, shaxsiy qadriyatlar, motivatsiya, emotsional intellekt.*

Аннотация. *В данной статье анализируется значение и психологические механизмы социально-эмоционального воспитания в процессе развития смысла жизни молодежи. Методика социально-эмоционального обучения помогает человеку развить самосознание, управление эмоциями, эмпатию, принятие ответственных решений и навыки эффективного общения. Это также способствует формированию устойчивых взглядов на смысл жизни через СЭО. Также в статье рассматриваются личные ценности, социальные отношения и мотивационные потребности молодежи как основные психологические факторы содержания жизни. Согласно результатам исследования, эффективное использование средств социально-эмоционального образования служит важным фактором повышения уровня целеустремленности молодежи, усиления устойчивости к жизненным трудностям и формирования позитивного мировоззрения.*

Ключевые слова: *смысл жизни, социально-эмоциональное образование, психологические механизмы, личные ценности, мотивация, эмоциональный интеллект.*

Abstract. *This article analyzes the significance and psychological mechanisms of socio-emotional education in the process of developing the meaning of life of young people. The methodology of socio-emotional education helps a person to develop self-awareness, manage emotions, empathy, responsible decision-making, and effective communication skills. It also helps to form stable views about the meaning of life through IET. The article also considers the personal values, social relations, and motivational needs of young people as the main psychological factors of the meaning of life. According to the research results, the effective use of socio-emotional educational tools serves as an important factor in increasing the level of goal-orientation of young people, strengthening resilience to life's difficulties, and forming a positive worldview.*

Keywords: *youth, meaning of life, socio-emotional education, psychological mechanisms, personal values, motivation, emotional intelligence.*

Kirish. Yoshlarning hayoti juda ko‘p qirrali jarayonlardan iborat: ular bilim oladi, jamiyat bilan munosabatga kirishadi, turli hissiy tajribalarni boshdan kechiradi va asta-sekin o‘z hayotiy maqsadlarini belgilashga harakat qiladi. Shu jarayonda ijtimoiy-emotsional ta’limning o‘rni muhim bo‘lib, yoshlarning shaxsiy rivojlanishi, jamiyatga moslashishida katta rol o‘ynaydi. IETni bu jarayonlarning markazida turadi, yoshlarning hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirishdagi muhim ro‘li tufayli psixologik, ijtimoiy, emotsional jarayonlar markazida turadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki u nafaqat bilim, balki hayotiy zarur ko‘nikmalarni – o‘zini anglash, his-tuyg‘ularni boshqarish, empatiya va ijtimoiy ma’suliyatni o‘rgatadi. Ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional ta’limning yoshlar hayotidagi o‘rni, uning psixologik mexanizmlari va hayot mazmunini shakllantirishdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim atamasi dastlab AQSHda XX asrning 60-yillarida iste’molga kiritilgan. Taniqli bolalar psixologi Jeyms Komer bolalar o‘quv markazidagi hamkorlari bilan “Komer maktabining rivojlanishi” dasturini muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazgan. Ushbu dastur dastlab ikkita past ko‘rsatkichli maktabga ishlab chiqilgan edi. Dastur maktab o‘quv faoliyati uchun qulay muhit yaratish, bu muhitni o‘quvchilar qadrlashi va sevishi, bolalar bilan bog‘liq muammolarni dialog va empatiya vositasida yechish, o‘qituvchi o‘ta qattiqqo‘llik qilmasligi, aksincha, o‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonga o‘qituvchilar, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ota-onalar jalb qilingan [11].

Bilamizki, bugungi kunda jamiyatimizning asosiy qismini yoshlar va bolalar tashkil etadi. Ularning mana shu jamiyatga moslashishi, kelajakda o‘z sohasi bo‘yicha muvaffaqiyatga erishishida esa ularga kichikligidanoq berilgan ta’limning va ayniqsa ijtimoiy-emotsional ta’limning o‘rni beqiyosdir. Ijtimoiy-emotsional ta‘limning mohiyatiga kelsak, bu insonning o‘z hissiyotlarini boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijobiy munosabatlar o‘rnatish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayondir. IETning oldidagi ustuvor vazifa yoshlarni hissiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishdir. Bunday ta’lim metodikasi natijasida yoshlar o‘z hissiyotlarini anglaydilar va boshqalar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bundan tashqari, bu ko‘nikmalar yoshlarning o‘zini anglashiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga va stressni boshqarishlariga yordam beradi [4]. Ta’limning bunday turini quyidagi asosiy komponentlarni orqali chuqurroq yoritish mumkin.

1. O‘zini anglash. IET yordamida yoshlar o‘zlarida kechayotgan hissiyotlarni anglashga o‘rganadilar. Bu jarayon o‘zini anglash va his-tuyg‘ularini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [3]. O‘zini anglash, o‘z navbatida, shaxsiy rivojlanish va yetuklikka intilishga yordam beradi.

2. O‘zini boshqarish. IET stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi eng muhim ta’lim yo‘nalishlaridan biridir. Yoshlar turli sharoitlarda o‘z hissiyotlarini qanday qilib boshqarishni o‘rganadilar, bu esa ularning salomatligi va osoyishtaligi uchun muhimdir [1].

3. Ijtimoiy anglash. IET empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Yoshlar boshqalar hissiyotlarini tushunishga o‘rganadilar, bu esa ijtimoiy munosabatlarini mustahkamlashga yordam beradi [5]. Empatiya ijtimoiy aloqalar va jamoaviy ishlarda boshqalar bilan kelishib ishlash natijasida muvaffaqiyat erishish uchun muhimdir.

4. Mas’uliyatli qaror qabul qilish. Yoshlar IET orqali muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvlarni o‘rganadilar. Bu ko‘nikma kelajakda turli qiyinchiliklarga duch kelganda mustaqil qaror qabul qilishlari uchun muhim ahamiyatga ega [2]. Yoshlar muammolarni hal qilishda o‘zlarining shaxsiy fikrlarini ifodalash va yangi g‘oyalarni ishlab chiqishda bemalol harakat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Yoshlar hayotida ijtimoiy-emotsional ta’limning ahamiyati. Yuqorida keltirib o‘tilgan fikrlar natijasida shuni ko‘rsatadiki, IET yoshlar hayotida eng muhim faktorlardan biridir. Zero, IET yoshlarga quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta yordam beradi:

1. Hissiyotlarni boshqarish. IET yoshlarni o‘z hissiyotlarini anglashga, ularga nom berishga o‘rgatadi. Ular o‘z his-tuyg‘ularini tushunish va ifodalash orqali o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

2. Stress bilan kurashish. IET yordamida yoshlar stressni boshqarish va hissiy reaksiyalarini nazorat qilish ko‘nikmalarini o‘rganadilar. Bu ularning hissiy holatini yaxshilaydi va qiyin vaziyatlarda barqarorlikni saqlashga yordam beradi.

3. Empatiya va boshqalarni tushunish. IET yoshlarni boshqalarning hissiyotlarini tushunishga va ularga empatiya ko‘rsatish qobiliyatini o‘rgatadi. Bu, o‘z navbatida, ijtimoiy munosabatlarni kuchaytiradi va hissiy aloqalarni mustahkamlaydi.

4. Samarali muloqot. IET yoshlarni boshqalar bilan munosabatga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularga samarali muloqot qilish va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu ko‘nikmalar hissiy rivojlanish uchun muhimdir.

5. Nizolarni hal qilish. IET yoshlarni muammolarni mustaqil ravishda hal qilishda hissiy yondashuvlarni qo‘llashga o‘rgatadi, bu ularning hissiy intellektini rivojlantiradi va qiyinchiliklarga nisbatan chidamlilikni oshiradi.

6. Maqsad qo‘yish va unga erishish. IET orqali yoshlar o‘z hissiyotlarini boshqarishga va ijtimoiy vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishishga o‘rganadilar, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

Bu ko‘nikmalar yoshlarning shaxsiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Ijtimoiy-emotsional ta’limning psixologik mexanizmlari. IET shaxsning hissiy intellekti, ijtimoiy ko‘nikmalari va hayotiy qadriyatlarini rivojlantirish jarayonida turli psixologik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu mexanizmlar yoshlarning o‘z-o‘zini anglashini chuqurlashtiradi, ijtimoiy munosabatlarni samarali qurishga yordam beradi hamda hayot mazmuni haqida barqaror qarashlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Asosiy psixologik mexanizmlar quyidagilardan iborat:

1. Kuzatish va modellashtirish – yoshlar atrofdagilarning xatti-harakatlarini kuzatib, ulardan o‘rganadilar. Shu xatti-harakatlarning ijtimoiy vaemotsional tajribasini o‘zlashtirish orqali ijobiy ko‘nikmalarni egallaydilar [6].

2. Tajriba orqali o‘rganish – amaliy mashg‘ulotlar, treninglar va real hayotiy vaziyatlarda ishtirok etish orqali ko‘nikmalar shakllantiriladi. Ularda ishtirok etish yoshlarning hissiy o‘zini boshqarish, hamkorlik va muomila qilish ko‘nikmalarini mustahkalmashga xizmat qiladi [7].

3. Refleksiya – o‘z xatti-harakatlari va hissiyotlarini tahlil qilish orqali o‘zini anglash rivojlanadi. Shaxs xatolarini tuzatish va kelgusida to‘g‘ri yo‘l tutishga intiladi. Bu jarayon insonparvarlik psixologiyasi doirasida muhim o‘rin tutadi [8].

4. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – CASEL tominidan alohida e’tirof etib o‘tilgan bu mexanizm orqali shaxs oila, do‘stlar va jamiyat tomonidan ijobiy munosabat, rag‘batlantirish va ishonch orqali o‘rganish jarayoni kuchaytiradi [9].

5. Kognitiv qayta baholash – vaziyatlarni turli nuqtai nazardan ko‘rib chiqish va muqobil yechimlarni izlash qobiliyati rivojlantiriladi. Bu jarayon shaxsning streesni yengib o‘tish va ijobiy qaror qabul qilish salohiyatini oshiradi [10].

Hayot mazmunini shakllantirishda ijtimoiy-emotsional ta’limning roli. IET yoshlarda hayotning mazmunini anglash va shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Chunki, yoshlar bu metodika o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va qadriyatlarini chuqurroq tushunib, hayotdagi maqsadlarini aniqroq belgilashga undaydi, bu orqali esa o‘zliklarini anglab yetishga o‘rgatadi. Hayotda insonlar bilan munosabatlarning ahamiyatini tushunishga yo‘l ko‘rsatadi. Empatiya va ijtimoiy mas’uliyat hissi rivojlanishi natijasida yoshlar jamiyatga foydali bo‘lishga intiladilar. Natijada ular hayotning mazmunini shaxsiy taraqqiyot va ijtimoiy aloqalarda topadilar. O‘zini doimiy ravishda takomillashtirish va yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtirish orqali hayotning mazmunini tushunishga harakat qiladilar. Ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida yoshlar o‘z qadriyatlar tizimini shakllantirib, hayotiy yo‘nalishlarini belgilaydilar.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, ijtimoiy-emotsional ta’lim yoshlarning hayot mazmunini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U yoshlarga o‘zlarini va boshqalarni tushunish, o‘qishga nisbatan motivatsiyani oshirish, samarali muloqot qilish, depressiya va tashvish darajasini kamaytirish, shunigdek, muammolarni hal qilish va jamiyatga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi. Bu jarayon turli psixologik mexanizmlar orqali amalga oshirilib, yoshlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim poydevor vazifasini o‘taydi. Shuning uchun, nafaqat ta’lim tizimida, balki oilada ham ijtimoiy-emotsional ta’limga alohida e’tibor berilishi bugungi kunning eng muhim masalalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. CASEL (2020). “Ijtimoiy-emotsional ta’lim: Asosiy tushunchalar va strategiyalar”.
2. Durlak, J. A., Veissberg, R. P. (2011). “Ijtimoiy-emotsional ta’lim: G‘oyalar va ilmiy tadqiqotlar”.
3. Golman, D. (1995). “Hissiy intellekt: Nima uchun u muvaffaqiyatni belgilaydi?"
4. Zinsser, K., Curby, T. V. (2020). “Ijtimoiy-emotsional ta’lim va bolalar: Ilmiy tadqiqotlar va amaliyot”.
5. Payton, J. W. (2008). “Ijtimoiy-emotsional ta’lim: Keng qamrovli dastur”.
6. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
7. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
8. Rogers, C. R. (1961). On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
9. CASEL. (2020). What is SEL? Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning. https://casel.org/what-is-sel/
10. Gross, J. J. (1998). The emerging field of emotion regulation: An integrative review. Review of General Psychology, 2(3), 271–299.
11. https://yuz.uz/uz/news/ijtimoiy-emotsional-talim-metodikasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING INTELLEKTUAL HAMDA EMOTSIONAL SOHALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Seydabullaeva Raziya Alimovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining intellektual va emotsional rivojlanish jarayonlari, ularni shakllantirishda samarali mexanizmlar hamda pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Intellektual va emotsional sohalarning uyg‘un rivojlanishi bola shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qilishi ta’kidlanadi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, intellektual rivojlanish, emotsional rivojlanish, emosional intellekt, pedagogik mexanizmlar, o‘yin faoliyati.*

Аннотация. *В данной статье освещены процессы интеллектуального и эмоционального развития воспитанников дошкольной образовательной организации, эффективные механизмы их формирования и педагогические подходы. Подчеркивается, что гармоничное развитие интеллектуальной и эмоциональной сфер способствует всестороннему развитию личности ребенка.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, интеллектуальное развитие, эмоциональное развитие, эмоциональный интеллект, педагогические механизмы, игровая деятельность.*

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimida shaxsning faqat bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish emas, balki uning hissiy va emotsional sohasini rivojlantirish masalasi ham alohida dolzarblik kasb etmoqda. Psixologlar (J. Piaje, L. S. Vygotskiy) bolalik davrida intellektual va emotsional jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaganlar. Maktabgacha ta’lim tashkiloti bola shaxsining shakllanishida poydevor vazifasini bajarib, unda tafakkur, nutq, ijodiy qobiliyat, shuningdek, emotsional barqarorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bog‘cha yosh davrida o‘ziga-o‘zi baho berish emotsional xarakteriga bola faoliyati atrof olamni va o‘zini bilishi, kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan munosabat jarayonida xilma-xil emotsiya hamda hissiyotlarni o‘zidan o‘tkazadi. U atrofda ruy berayotgan hamda o‘zi qilayotgan narsalariga muayyan munosabatda bo‘ladi. Ana shu munosabat bolada ma’lum bir emotsiya va hissiyotlarni tug‘diradi. Emotsiya va hissiyotlar ham voqelikni aks ettirishning o‘ziga xos shakli. U bolaning atrof olamga bo‘lgan munosabati, biror-bir ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli vujudga keluvchi ichki kechinmalarida namoyon bo‘ladi. Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishining quyidagi umumiy yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin: bola hayotiy vaziyatining o‘zgarishiga bog‘liq ravishda emotsional holatlaming shakllanishi; emotsiyalar asosida oliy hissiyotlarining shaklanishi; emotsiya va hissiyotlarining shaxsiy tuzilmalar orasida yangi tuzilma sifatida shakllanib borishi.

Emotsiya va hissiyotlaming ontogenezdagi rivoji muayyan o‘z qonunlariga ega:

1.Dastlab, ontogenezda oddiy kechinmalarni ifodalovchi emotsiyalar paydo bo‘ladi. Bu kechinmalar tabiiy ehtiyojlarning qondirilishiga bog‘liq ravishda vujudga keladi (qondirilsa -

ijobiy, qondirilmasa - salbiy emotsiyalar vujudga keladi). Bunday emotsiyalar hayvonlarda ham mavjud. Biroq boladagi eng oddiy emotsiyalarni hayvonlardagi eng oddiy emotsiyalardan farqlash kerak. Chunki emotsiyalarning namoyon bo‘lish shakli insonda sotsial xarakterga ega.

2.Yoshdan boshlab bola uchun shodlik, xursandchilik, umuman ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi reaksiyalar eng informativ (ko‘p axborot beradigan) bo‘lib hisoblanadi. Tajribalardan birida 2-9 yoshdagi bolalariga fotosuratlardan turli mimik reaktsiyalarni (hayronlik, jahl, qo‘rquv, xursandchilik va boshqalarni ifodalovchi reaktsiyalarni) aniqlab olib, so‘ngra ko‘rsatib berish taklif etilgan. Tajribadan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, bolalar birinchi bo‘lib xursandchilikni ifodalovchi mimik reaktsiyalarni ko‘rsatganlar. Demak, dastlab ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi mimik reaktsiyalarni aniqlash, boshqa reaktsiyalar orasida tanish va namoyon eta bilish qobiliyati shakllanadi. Shubhasiz, ijobiy emotsiyalar maktabgacha yoshdagi bolaning psixik va jismoniy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq Suxomlinskiy ta’kidlaganidek, agar bola shodlikni mehnatsiz, ruhiy kuchlarini ishga solmay qo‘lga kiritaversa, ertami kechmi uning yuragj bir parcha “muz” ga aylanib qolishi mumkin. Unda sovuqqonlik paydo bo‘lishi mumkin. Emotsiyalarning rivojlanishi ularning differentsiyasi, kechinmalarning boyib borishi orqali ro‘y beradi. Ijobiy emotsional yoki salbiy emotsional bo‘yoqlarga ega bo‘lgan kechinmalarga misol qilib, oziqaga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishi yoki qondirilmasligi tufayli bola o‘z boshidan o‘tkazadigan kechinmalarni keltirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolada salbiy kechinmalar qo‘rquv, jahl, jirkanish, ijobiy kechinmalar shodlik, bola mehrining atrofdagilarga tovlanib ketishi, ota-onasiga qalban, yaqinlashishi ko‘rinishlarida namoyon bo‘lishi mumkin.

3. Bolalar hissiyotlarining rivojlanishi muayyan ob’ektga yo‘naltirilgan emotsiyalaming umumlashishi sifatida ro‘y beradi. Emotsiya va hissiyotlaming shakllangan tizimida emotsiyalar boshdan o‘tkazilayotgan hissiyotning namoyon bo‘lishi sifatida gavdalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsiya va hissiyotlar tizimi endi-endi shakllanayotgan bo‘ladi. Shuning uchun ularning emotsiyalari ular kechirayotgan hissiyotlarning namoyon bo‘lishi emas, balki ko‘proq oliy hissiyotlarning shakllanishi uchun umumlashtirilishi kerak bo‘lgan materialdir.

4. Maktabgacha yoshdagi bolalar emotsional sohasining rivojlanishi davomida emotsional kechinmalarni uyg‘otuvchi ob’ektdan sub’ekt munosabat ajralib boradi. Bola qanchalik kichik bo‘lsa, uning uchun ob’ekt tavsifi bilan sub’ektiv kechinmalari tavsifi shunchalik bir-biriga yaqin bo‘ladi. 3 yoshli betob bola uchun unga ukol qilgan hamshira “yomon xol”dir. Bunda bola o‘z emotsional holatining salbiy tavsifi (xarakteristikasi)ni bu holatning yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgan odamga ko‘chirib o‘tkazadi.

5.Maktabgacha yoshda emotsiya va hissiyotlarning dinamik va mazmuniy tomonlari rivoj topadi. Mazmun tomonining rivojlanishi atrof olam haqidagi bola bilimlarining kengayishi va chuqurlashishi, bola barqaror (doimo bir xil) munosabatda bo‘ladigan predmet va hodisalarning ko‘payib borishi bilan taqqoslanadi. (shular tufayli emotsiya va hissiyotlar mazmun jihatdan rivojlanadi). Dinamik tomonining rivojlanishi bolada o‘z emotsiyalarini nazorat qilish va boshqara olish ko‘nikmalarining shakllanishi bilan taqqoslanadi. Emotsiya va hissiyotlaming mazmuniy aspekti (tomon) emotsional kechinmalarining ob’ektlari, sabablari bilan bog‘liq. Dinamik aspekt esa emotsional kechinmalarining chuquriligi, davomiyligi va vujudga kelish chastotasi bilan xarakterianadi. Emotsiya va hissiyotlar rivojlanishi boshqa jarayonlar, ayniqsa, nutqning rivojlanishi bilan bog‘liq. Nutq yordamida bola o‘z hisiyotlari va emotsiyalarini anglaydi va boshqaradi. Nutq orqali bolalar nafaqat biror narsaga ehtiyoj sezayotganlarini bildiradilar, ma’lum bir tarzda o‘z kechinmalarini ifodalaydilar. Bola emotsiyalarining rivojlanishi muayyan ijtimoiy vaziyatlar bularga bog‘liq. Bolaning vaziyatni tushunish, vaziyat

va undagi o‘zgarishlarni boshdan kechirish muayyan emotsional holatni hosil qiladi. Bola uchun odatiy bo‘lgan vaziyatlarning buzilishiga bola hayot tarzi, kun tartibining o‘zgarishi sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning intellektual va emotsional rivojlanishi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘yin faoliyati, ijodiy mashg‘ulotlar, STEAM-elementlar, emotsional tarbiya va psixologik yondashuvlar bu jarayonning samarali mexanizmlari hisoblanadi. Pedagoglar ushbu sohalarning integratsiyasiga e’tibor qaratish orqali bolalarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki empatiya, muloqot madaniyati va ijodiy tafakkurni shakllantirishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nishanova Z.T., Alimova G.K. Balalar psixologiyası va psixodiagnostikasi. - Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2017.
2. Хурвалиева Т.Л. Мактабгача ёшдаги болаларнинг психик ривожланишига оид назариялар. Замонавий таълим/Современное образование 2019, 7(80). 23-30 Б.
3. Salovey, P., Mayer, J. D. Emotional Intelligence. Imagination, Cognition and Personality, 9(3), 1990.
4. Ўзбекистон Республикаси “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
5. Xolmatova Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirish metodlari. — Toshkent: Fan, 2021.
6. Z. Nishanova, G. Alimova Bolalar psixologiyasi va u n i 0 ‘q itish m etodikasi

INTRODUCTION OF SOCIO-EMOTIONAL EDUCATION METHODS IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS: PROBLEMS AND AI-DRIVEN SOLUTIONS

Sultonova Munavvarkhon
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishida muhim tarkibiy qism sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. An’anaviy o‘quv dasturlarida asosan kognitiv ko‘nikmalarga urg‘u berilgan bo‘lsa, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar — empatiya, o‘zini boshqarish va shaxslararo muloqot — zamonaviy hayot murakkabliklariga tayyorlashda teng darajada muhimdir. O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tizimiga IETni integratsiya qilish bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan resurslarning cheklanganligi, o‘qituvchilarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi hamda madaniy to‘siqlar. Ushbu maqolada IETni joriy etishdagi muammolar tahlil qilinib, sun’iy intellekt (SI) imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratgan holda innovatsion, texnologiyaga asoslangan yechimlar taklif etiladi. Kognitiv va ijtimoiy-emotsional o‘zaro ta’sirlar bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarga tayangan holda, maqolada SI vositalari, generativ SI (GAI) hamda aralash haqiqat (MR) texnologiyalarining kengaytiriladigan, shaxsga yo‘naltirilgan va interaktiv ko‘mak berish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot SIni IETga integratsiya qilish orqali chuqurroq ishtirokni rag‘batlantirish, hamkorlikdagi ta’limni yaxshilash va o‘quvchilarning emotsional hamda kognitiv ehtiyojlariga mos keladigan qo‘llab-quvvatlovchi ta’limiy muhit yaratish mumkinligini ta’kidlaydi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, sun’iy intellekt, o‘rta ta’lim, O‘zbekiston, raqamli texnologiyalar, generativ SI, aralash haqiqat*

Аннотация

Социально-эмоциональное образование (СЭО) всё чаще признаётся важнейшим компонентом целостного развития учащихся. В то время как традиционные учебные программы акцентируют внимание на когнитивных навыках, социально-эмоциональные компетенции — такие как эмпатия, саморегуляция и межличностное общение — столь же необходимы для подготовки учащихся к сложностям современной жизни. В Узбекистане интеграция СЭО в систему общего среднего образования сталкивается с рядом проблем, включая ограниченные ресурсы, недостаточную подготовку учителей и культурные барьеры. В данной статье рассматриваются проблемы внедрения СЭО и предлагаются инновационные, технологически ориентированные решения, с особым акцентом на возможности искусственного интеллекта (ИИ). Основываясь на современных исследованиях когнитивных и социально-эмоциональных взаимодействий, статья подчеркивает потенциал инструментов на базе ИИ, генеративного ИИ (GAI) и технологий смешанной реальности (MR) для обеспечения масштабируемой, персонализированной и интерактивной поддержки социально-эмоционального обучения. Автор утверждает, что интеграция ИИ в СЭО может способствовать более глубокому вовлечению, улучшению совместного обучения и созданию поддерживающей

образовательной среды, соответствующей эмоциональным и когнитивным потребностям учащихся.

Ключевые слова: *социально-эмоциональное образование, искусственный интеллект, среднее образование, Узбекистан, цифровые технологии, генеративный ИИ, смешанная реальность*

Abstract. *Socio-emotional education (SEE) is increasingly recognized as a vital component of holistic student development. While traditional academic curricula emphasize cognitive skills, socio-emotional competencies such as empathy, self-regulation, and interpersonal communication are equally critical for preparing students for the complexities of modern life. In Uzbekistan, the integration of SEE into general secondary education faces multiple challenges, including limited resources, insufficient teacher training, and cultural constraints. This article explores the problems of implementing SEE and proposes innovative, technology-driven solutions with a particular emphasis on artificial intelligence (AI). Building on contemporary research into cognitive and socio-emotional interactions, the paper highlights the potential of AI-driven tools, generative AI (GAI), and mixed reality (MR) technologies to provide scalable, personalized, and interactive support for socio-emotional learning. The study argues that integrating AI into SEE can foster deeper engagement, improve collaborative learning, and create supportive educational environments tailored to learners’ emotional and cognitive needs.*

Keywords: *socio-emotional education, artificial intelligence, secondary education, Uzbekistan, digital technologies, generative AI, mixed reality.*

Introduction. Education is not only about imparting knowledge but also about preparing learners for life in society. Increasingly, socio-emotional competencies—such as empathy, resilience, collaboration, and communication—are considered essential for student success. These skills enable young people to navigate social environments, regulate their emotions, and collaborate effectively in both academic and real-life contexts.

In Uzbekistan, general secondary schools are undergoing reforms to align with global educational standards. Yet, despite notable progress in curriculum modernization, socio-emotional education remains underdeveloped. Teachers often prioritize academic outcomes, leaving little space for structured emotional and interpersonal learning. At the same time, rapid advances in artificial intelligence (AI) and digital technologies present new opportunities to address these gaps and support the development of SEE in innovative ways.

The Importance of Socio-Emotional Education

Socio-emotional education aims to cultivate essential life skills beyond academic knowledge. It focuses on helping learners recognize and manage emotions, develop empathy, establish positive relationships, and make responsible decisions. International studies demonstrate that SEE not only improves students’ well-being but also enhances their academic performance and motivation.

In Uzbekistan, where traditional pedagogical models remain dominant, the introduction of SEE can contribute to reducing bullying, increasing student engagement, and fostering inclusive learning environments. However, the integration of such methods requires systemic adaptation in terms of teacher training, resource allocation, and curriculum design.

Challenges in Implementing Socio-Emotional Education in Schools

Despite its importance, several challenges hinder the effective implementation of SEE in Uzbekistan's secondary schools:

- Limited Resources: Many schools lack specialized counselors or psychologists.
- Curricular Constraints: Academic subjects often take precedence over socio-emotional content.
- Teacher Training: Educators are not always equipped with SEE methodologies.
- Cultural Factors: Emotional education is sometimes undervalued compared to traditional measures of academic success.

These constraints highlight the urgent need for innovative, scalable, and cost-effective strategies.

Cognitive and Socio-Emotional Interactions: A Foundational Perspective

Research increasingly shows that cognitive and socio-emotional processes are deeply interconnected and jointly shape learning outcomes (Kwon et al., 2014). Cognitive development occurs within social contexts, where dialogue and collaboration enable learners to co-construct knowledge (Vygotskii, 1978). Contemporary studies highlight how emotional regulation, empathy, and interpersonal skills enhance collaboration and deepen cognitive engagement (Bakhtiar et al., 2018; Järvenoja & Järvelä, 2009; Webb & Mastergeorge, 2003). Reasoning, problem-solving, and knowledge building are enriched by socio-emotional factors such as communication, motivation, and shared goals (Higgins, 1999; Isohätälä et al., 2020). Positive emotional support reduces anxiety and fosters cognitive processing by creating a supportive learning climate (Lee & Reeve, 2020).

Despite this recognition, effectively promoting socio-emotional interactions in classrooms remains a challenge, especially in large or culturally diverse groups where teachers' attention is limited, and differing communication styles hinder collaboration (Kuo et al., 2015; Zamecnik et al., 2024). To address these issues, research emphasizes the importance of learning regulation—self-, co-, and socially shared regulation—enabling students to plan, monitor, and manage both cognitive and socio-emotional activities (Järvelä & Hadwin, 2024; Winne & Hadwin, 1998). However, many learners lack these regulatory skills without structured support (Järvelä et al., 2021). Interventions that combine cognitive scaffolding with socio-emotional training have shown promising results (Näykki et al., 2021).

More recently, AI-driven tools such as conversational agents have emerged as innovative solutions, helping students monitor and regulate interactions in collaborative settings (Edwards et al., 2025). Generative AI (GAI) and mixed reality (MR) technologies further expand these opportunities by enabling multimodal interactions where AI agents respond empathetically to learners' cues. While GAI provides adaptive cognitive challenges and real-time feedback, MR supports embodied socio-emotional regulation, making human–AI collaboration a promising avenue for fostering deeper learning (Lee et al., 2024)

AI-Based Solutions for Socio-Emotional Learning

The integration of AI into SEE offers several promising solutions:

- Personalized Learning: AI systems can adapt socio-emotional training to individual needs, identifying learners' emotional states and tailoring exercises accordingly.
- Conversational Agents: AI chatbots simulate social interactions, helping students practice empathy, negotiation, and conflict resolution in safe digital environments.
- Emotion Recognition: Advanced AI models can analyze facial expressions, voice tone, and behavioral patterns to provide real-time feedback on students' emotional regulation.

- Scaffolding and Feedback: AI tutors provide immediate feedback, supporting both cognitive understanding and emotional awareness.
- Mixed Reality (MR): Embodied AI agents can replicate social dynamics, offering immersive experiences for practicing socio-emotional scenarios.

These applications demonstrate how AI can act as both a cognitive and socio-emotional scaffold, creating supportive learning environments even where human resources are scarce.

The Context of Uzbekistan

For Uzbekistan, where schools face resource limitations, AI integration into SEE can be transformative. Pilot programs can introduce AI-supported socio-emotional modules, helping teachers integrate SEE into existing curricula. Governmental support, teacher training, and partnerships with technology providers will be crucial in ensuring sustainable adoption. Furthermore, cultural adaptation is key—AI systems must reflect local values, norms, and languages to resonate effectively with students.

Future Directions and Recommendations

The future of SEE in Uzbekistan lies in leveraging AI not as a replacement for teachers but as an augmentation of human-led practices. The following recommendations can guide this process:

- Teacher Training: Professional development programs should incorporate AI literacy and SEE methods.
- Curriculum Integration: Socio-emotional modules should be embedded within national curricula.
- Pilot Projects: Small-scale AI-supported SEE programs can be trialed and scaled based on evidence.
- Policy Support: Ministries of education should establish frameworks for safe and ethical use of AI in classrooms.
- Cultural Sensitivity: AI applications must align with Uzbekistan’s cultural and educational values.

Conclusion

Socio-emotional education is indispensable for preparing students for the demands of the 21st century. Despite challenges in Uzbekistan’s general secondary schools, AI and digital technologies present powerful tools to address resource gaps and enhance socio-emotional learning. By combining cognitive scaffolding with socio-emotional support, AI-driven solutions—particularly generative AI and mixed reality—can transform classrooms into interactive, supportive spaces for holistic learning. While teachers remain irreplaceable in fostering authentic human connections, AI can play a critical supplementary role in ensuring that SEE becomes an integral part of mainstream education in Uzbekistan.

REFERENCES

1. Bakhtiar, A., Webster, E. A., & Hadwin, A. F. (2018). Regulation and socio-emotional interactions in learning. Educational Psychology Review, 30(1), 203–219.
2. Edwards, S., Kim, J., & Rahman, A. (2025). AI-driven collaborative agents in education. Computers & Education, 195, 104673.
3. Higgins, E. T. (1999). Beyond pleasure and pain. American Psychologist, 52(12), 1280–1300.

4. Huang, L., & Lajoie, S. P. (2023). Socio-emotional interactions in collaborative learning. Journal of Learning Sciences, 32(1), 44–68.
5. Isohätälä, J., Järvenoja, H., & Järvelä, S. (2020). Socially shared regulation in collaborative learning. Learning and Instruction, 67, 101310.
6. Järvelä, S., & Hadwin, A. (2024). Handbook of self- and socially shared regulation of learning. Routledge.
7. Järvenoja, H., & Järvelä, S. (2009). Emotional regulation in collaborative learning situations. International Journal of Educational Research, 48(1), 75–88.
8. Kuo, Y. C., Walker, A., Belland, B. R., & Schroder, K. (2015). Interaction and online learning. Computers & Education, 80, 59–73.
9. Kwon, K., Liu, Y., & Johnson, L. (2014). Socio-emotional influences on learning outcomes. Learning and Instruction, 32, 1–9.
10. Lee, W., & Reeve, J. (2020). The role of teachers in supporting emotion regulation. Learning and Instruction, 66, 101296.
11. Lee, H., Park, Y., & Kim, S. (2024). Generative AI and mixed reality for socio-emotional learning. British Journal of Educational Technology, 55(2), 451–470.
12. Näykki, P., Järvelä, S., & Isohätälä, J. (2021). Socio-emotional scaffolding in collaborative learning. Learning, Culture and Social Interaction, 28, 100469.
13. Vygotskii, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
14. Webb, N. M., & Mastergeorge, A. M. (2003). Promoting effective socio-emotional interactions in collaborative groups. Theory Into Practice, 42(1), 13–20.
15. Winne, P. H., & Hadwin, A. F. (1998). Studying as self-regulated learning. Lawrence Erlbaum.
16. Zamecnik, A., Novak, J., & Han, K. (2024). Classroom collaboration challenges in diverse settings. Educational Review, 76(3), 389–407.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIMDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Tayirova Muhabbat Ataxanovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati, imkoniyatlari va samaradorligi yoritilgan. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, audio, video, animatsiya, interaktiv dasturlar orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, multimedia vositalarining bolalarda muloqot madaniyati, empatiya, hamkorlik, o‘zini boshqarish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, multimedia vositalari, axborot texnologiyalari, empatiya, hamkorlik, kommunikativ ko‘nikmalar, ta’lim samaradorligi.*

Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayoni nafaqat o‘quvchilarga nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni berishga, balki ularning shaxsiy rivojlanishini, xususan, ijtimoiy-emotsional qobiliyatlarini shakllantirishga ham qaratilmoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda insonning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uning bilim darajasigina emas, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqara bilishi, boshqalar bilan samarali muloqot qila olishi, jamoada ishlash, muammolarni konstruktiv hal qilish, ijobiy munosabat bildirish va o‘zini tuta bilish qobiliyatlariga ham bog‘liqdir. Shu bois ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) konsepsiyasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayondir. U bolalarda o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, mas’uliyatli qaror qabul qilish, empatiya, hamkorlik va muloqot kabi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Mazkur ko‘nikmalar esa o‘quvchilarning kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va kasbiy faoliyatida poydevor vazifasini bajaradi.

So‘nggi yillarda texnologiyalarning rivojlanishi natijasida multimedia vositalari ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylandi va ular ijtimoiy-emotsional ta’limda ham samarali qo‘llanilmoqda. Multimedia vositalari o‘quvchilarni jalb qilish, ularning diqqat-e’tiborini faollashtirish, hissiy tajribalarini boyitish va turli ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi. Masalan, animatsiyalar, interaktiv videoroliklar yoki virtual muhitlarda yaratilgan ssenariylar orqali o‘quvchilar turli ijtimoiy rollarni sinab ko‘rishlari, o‘z xatti-harakatlarini baholashlari va boshqalar bilan hamkorlik qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim o‘quvchilarda o‘zini anglash, boshqalarni tushunish, ijtimoiy muloqot va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ta’limiy jarayondir. U shaxsiy rivojlanish, ijobiy munosabatlar shakllantirish hamda stressni yengish va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi.

Multimedia vositalari o‘zida matn, rasm, audio, video, animatsiya va interaktiv dasturlarni mujassamlashtirgan bo‘lib, ular ta’lim jarayonini yanada qiziqarli, samarali va ta’sirchan qiladi. Bunday vositalardan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga faol

jalb etilishiga, mavzuni chuqurroq tushunishiga va amaliy hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lab idrok etishiga imkon yaratadi.

Xususan, multimedia vositalari orqali quyidagi pedagogik maqsadlarga erishish mumkin:

Ijtimoiy vaziyatlarni simulyatsiya qilish. Turli sahna ko‘rinishlari, animatsiya yoki interaktiv videodarslar yordamida o‘quvchilar real hayotda duch kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni boshdan kechiradilar. Bu ularga muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va vaziyatni to‘g‘ri baholash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Empatiya tuyg‘usini shakllantirish. Audio-video materiallar orqali turli ijtimoiy va madaniy sharoitlarni yoritish, insoniy qadriyatlar haqida hikoyalar keltirish o‘quvchilarda boshqalar his-tuyg‘ulariga befarq bo‘lmaslik, o‘zini o‘zgalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish qobiliyatini rivojlantiradi.

Hamkorlikni mustahkamlash. Interaktiv dasturlar, guruhiy loyihalar yoki jamoaviy o‘yinlar yordamida o‘quvchilar birgalikda ishlashga, mas’uliyatni bo‘lishishga va umumiy natijaga hissa qo‘shishga o‘rganadilar. Bu esa ta’lim jarayonida jamoaviylik ruhini kuchaytiradi.

Muloqot madaniyatini rivojlantirish. Multimedia vositalari yordamida tashkil etiladigan muhokamalar, virtual forumlar, video-konferensiyalar o‘quvchilarda o‘z fikrini ravon ifodalash, boshqalarning qarashlarini hurmat qilish va samarali muloqot olib borish madaniyatini shakllantiradi.

multimedia vositalari nafaqat ta’lim jarayonini zamonaviylashtiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Ular orqali o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalar, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va mustaqil fikrlash qobiliyatlari shakllanadi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o‘quvchilarni faoliyatga jalb etish, ular orasida muloqot, hamkorlik va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu jarayonni quyidagi metodik yondashuvlar asosida tashkil etish mumkin:

Case-study (vaziyatli tahlil) – multimedia taqdimotlari asosida turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish o‘quvchilarga muammoli holatlarga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Masalan, ijtimoiy mojarolar, do‘stlik, oila yoki jamoadagi muloqot vaziyatlari multimedia materiallari orqali jonlantirilib, ularning oqibatlari muhokama qilinadi. Bu usul o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, qaror qabul qilish va muammoni ijobiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Rol o‘ynash texnologiyasi – videoroliklar, animatsiyalar yoki interaktiv dasturlar yordamida ijtimoiy rollarni ijro etish orqali o‘quvchilar turli vaziyatlarda o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yishni o‘rganadi. Masalan, o‘qituvchi, ota-ona, do‘st, yetakchi kabi ijtimoiy rollarni bajarish ularning empatiya, mas’uliyat va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Multimedia vositalari bu jarayonni yanada qiziqarli va ishonarli qiladi.

Interaktiv muhokamalar – multimedia vositalari orqali yaratilgan muammoli vaziyatlarni jamoaviy hal etish o‘quvchilarni o‘z fikrini erkin ifoda etishga, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilishga va hamkorlikda qaror topishga o‘rgatadi. Masalan, animatsiya yoki videoda berilgan mojaroli vaziyat jamoada muhokama qilinadi va o‘quvchilar birgalikda optimal yechimni ishlab chiqadilar. Bu usul o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va kommunikativ madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, multimedia vositalaridan foydalanilgan ushbu metodik yondashuvlar ijtimoiy-emotsional ta’limni qiziqarli, samarali va interaktiv tarzda tashkil etishga yordam

beradi. Natijada o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki o‘z shaxsiy va ijtimoiy hayotlarida muhim bo‘lgan emotsional-intellektual ko‘nikmalarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytganda ijtimoiy-emotsional ta’limda multimedia vositalaridan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham samarali ta’minlaydi. Multimedia vositalari yordamida ta’lim jarayoni yanada qiziqarli, interaktiv va hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtiriladi. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional rivojlanishni multimedia texnologiyalari orqali tashkil etish dolzarb pedagogik yo‘nalishlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.A.Tayirova “Ta’lim jarayonlarida samarali tashkil qilishda ta’lim vositalari va multimedia texnologiyasidan foydalanishning dolzarbligi”. / “Mug‘allim ham uzliksiz bilimlendirio‘”. Ilimiy-metodikaliq jurnal. №2 2022-jil 120-125 b.
2. M.A.Tayirova “Zamonaviy ta’lim tizimida multimedia texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish usullari” / NamDU ilmiy axborotnomasi–2023-yil.3-son (ISSN-2181-1458), UDK: 371.398, 327-333 bet
3. M.A.Tayirova “Multimedia technologies in the context of educational informatization role and importance”/ International Scientific and Practical Conference: “The role of science and innovation in the modern world” London, United Kingdom 28.02.2023. 111-117 page
4. M.A.Tayirova “Teaching methods using multimedia technologies in the modern education system” / Current research journal of philological sciences (ISSN –2767-3758). SJIF Impact factor (2023: 7. 491). March 16, 2023. VOLUME 04 ISSUE 03 Pages: 10-16

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING TARKIBIY QISMI SIFATIDA EMOTSIONAL MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Toxirov Shaxzod Toxirovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada emotsional intellektning tarkibiy qismi bo‘lgan emotsional madaniyat, uning komponentlari, mazkur tunchaning vujudga kelishi va rivojlanishi, yo‘nalishlari, emotsional madaniyat tarkibiga kiradigan kompetensiyalar, ularni rivojlantirish yo‘nalishlari haqida fikr yuritilgan. Maqola bo‘lajak pedagoglar, tadqiqotchilar va o‘qituvchilar uchun manba bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, emotsional madaniyat, emotsional kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, o‘quvchilar, talabalar, bilimlar, vaziyatlar, holatlar, his-tuyg‘u, kechinma, his-tuyg‘uni boshqarish, his-tuyg‘uni anglash, nazorat qilish.*

Shaxs faoliyatida emotsional omil muhim ahamiyatga kasb etadi. Shunga ko‘ra talabalarda emotsional intellektni shakllantirish ularni kasbiy shaxsiy rivojlantirish va o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy emotsional madaniyatni ularning intellektini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi. Emotsional madaniyat emotsional intellektning rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida emotsional madaniyatning asosini tashkil etuvchi bilimlarni talabalarga taqdim etish ehtiyoji tobora kuchayib bormoqda.

Pedagogika va psixologiya manbalarning tahlili pedagogik faoliyat samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri emotsionallik, muloqotchanlik, empatiya kabi omillarga bog‘liq ekanligini asoslash imkonini berdi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarda yuqori darajadagi emotsional madaniyatni shakllantirish, o‘z emotsiyalarini nazorat qila oladigan, o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini aniqlay oladigan pedagoglarni tayyorlash imkonini beradi.

Mutaxassislarning ta’kidlashicha “madaniyat” tushunchasining ko‘plab izohlari va ta’riflari mavjud. Biz quyida ularning ayrimlari ustida to‘xtalamiz: Madaniyat dastlab parvarish qilish, ishlov berish ma’nosini anglatgan. U bevosita insonning faoliyati va shaxsiyati bilan bog‘liq. Madaniyatga bu tarzda yondashish inson faoliyatining xususiyatlarini anglatadi. Inson faoliyati va jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda madaniyat tushunchasi muntazam kengayib bormoqda. Madaniy boyliklar inson faoliyatining mahsuli hisoblanadi. XVIII asrdan boshlab “madaniyat” tushunchasiga nisbatan ilmiy yondashuvlar shakllandi. Ushbu atamani birinchi bo‘lib taniqli madaniyatshunos va antropolog E.Taylor tomnidan asoslab bergan. Mutaxassi madaniyatning tarkibiy qismlarini ham ko‘rsatib bergan. Madaniyat, sivilizatsiya o‘z tarkibiga bilimlar, e’tiqodlar, san’at, axloq, qonunlar, urf-odatlar va inson tomonidan jamiyat a’zosi sifatida o‘zlashtirilgan boshqa ba’zi qobiliyatlar va odatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Uning ta’biriga ko‘ra, madaniyatning mohiyati ma’naviy qadriyatlarni yaratish va saqlashdan iborat. Ushbu nuqtai nazarni madaniyat sohasining yirik tadqiqotchilaridan biri G.A. Fransev ham qo‘llab-quvvatlagan. U ham madaniyatni inson tomonidan yaratilgan qadriyatlar majmui sifatida baholagan. S.I. Ojegov esa madaniyatni insonlarni ishlab chiqarish va yutuqlari majmui sifatida

talqin etgan. Ushbu talqin madaniyatga oid moddiy va ma’naviy yondashuvlarni mavjudligini ko‘rsatadi. Mazkur nuqta nazar K.Z. Akopyan tomonidan qo‘llab quvvatlanib boyitilgan.

Madaniyatni mohiyatini asoslashda mutaxassislar uning ruhiy va moddiy-ma’naviy qadriyatlar majmui ekanligini e’tirof etadilar. Ular madaniyat bilan inson faoliyatini o‘zaro aloqadorligini nazariy jihatdan asoslagashga muvaffaq bo‘lganlar. Shunga ko‘ra E.S. Markaryan madaniyatga insonlarning faoliyat usuli sifatida qaraydi.

Madaniyat insonning ijodiy faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra his-tuyg‘ular (emotsiyalar) inson ichki ruhiy faoliyatini tartibga solishning asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham his-tuyg‘ular tashqi va ichki omillarga nisbatan ruhiy ta’siri, munosabatini ifodalab, turli darajadagi, hattoki bir biriga zid bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Emotsional madaniyatni umumiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida baholash tajribasi dastlab P.M. Yakubsonga mansub. U quyidagicha yozadi: “Emotsional madaniyat – yuqori darajadagi biroq yosh bosqichlarida cheklangan tarzda namoyon bo‘luvchi emotsional hayot sifatlarining rivojlanishi va takomillashuvini ifodalovchi hodisalar majmuidir”.

P.M. Yakubsonning nuqtai nazariga tayangan holda, emotsional madaniyatni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin: ehtiroslilik, atrofdagilarning hissiyotlariga hurmat yondashish, hamdardlik qobiliyatiga egalik, kechinmalarini atrofdagilar bilan bshlishish ko‘nikmasiga egalik kabilar.

Sohalararo pedagogik lug‘atda emotsional madaniyatga hissiyotlarning tarbiyalanganligi, ularning rivojlanish darajasi, u hissiy sezgirlik va o‘z kechinmalaring uchun o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan mas’uliyatli yondashuv kabi ma’nolariga egaligi nazarda tutilgan.

G.A. Yastrebova pedagogning emotsional madaniyatini «shaxsning yaxlit tarkibi, emotsional tajribaning boyligi, o‘zining emotsional holatlarini va hissiy holatlarini boshqarish mexanizmlari tizimiga egaligi, hissiyotlarni pedagogik maqsadga muvofiq namoyon qilishi, refleksiya asosida emotsional tajribani takomillashtirishga intilishdan iborat ko‘nikmalarining yig‘indisi sifatida baholaydi. Ko‘rinib turibdiki o‘qituvchining emotsional madaniyati uning murakkab integrativ, tizimli, dinamik xarakteri, kasbiy xulqi va faoliyatning turli darajadagi ko‘rinishi, uslubi va usullarining emotsional yo‘nalishini belgilaydi. O‘qituvchining emotsional madaniyati bir qator komponentlarni o‘z ichiga oladi, ular: emotsional boylik, shaxsning tezaurusi (so‘z boyligi), umumiy emotsional yo‘nalishi, empatiya, kreativlik, refleksiya, barqarorlik va xulq hamda faoliyatning emotsional-irodaviy tartibga solinishi, uning shakllanganlik ko‘rsatkichlari sifatida professional-pedagogik barqarorlik kabilardan iborat. Ko‘rinib turibdiki emotsional madaniyat bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik hamkorlik subyekti sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional madaniyatning shakllanishi kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning mazmuni va tuzilishi emotsional madaniyatning vazifalari va tarkibiy vismlariga maos kelishini ta’minlash talab qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchining emotsional madaniyatini shaxsning yaxlit tuzilishi, emotsional sohalari, o‘quvchilarga hissiy hayoti jarayonlariga qadriyatli munosabati, o‘zining emotsional holatini tartibga solish usullari, pedagogik jarayonning hissiy jihatlari, hissiy hayot va hissiy hodisalar haqidagi bilimlari majmuidir. Bularning barchasi bo‘lajak o‘qituvchining kognitiv birlik sifatida emotsional holatlatlarga ta’sir ko‘rsatishi va o‘zini o‘zi tartibga solish qobiliyati bilan bog‘liq amaliy jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda emotsional madaniyatning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini anglash yanada dolzarblashmoqda. Inson xulqining shakllanishiga ta’siri muammosi o‘z yechimini kutayotgan

muhim masalalaridan biriga aylandi. Bu masalaning yechimi o‘zining uzoq tarixiga ega. Qadimgi faylasuflar Demokrit va Platon ham ushbu muammoga alohida qiziqish bilan yondashganlar. Chunki ular inson faoliyatida hissiyotlarning ahamiyatini birinchilardan bo‘lib anglab yetgan edilar. Faylasuflar hissiyotlarning tartibga soluvchilik funksiyasiga egaligini ta’kidlaganlar. Aristotel affektlar va ularning barataraf etish nazariyasini ishlab chiqqan.

Olimlar O.Musurmonova, R.Safarova, B.Xodjayev, A.B.Mamanazarov, M.M. Baxtin, V.S. Bibler, M.K. Mamardashvili, S.L. Frans ishlari esa shaxsning umuminsoniy madaniyatga qo‘shilish jarayonida jamiyatda shakllanishining turli jihatlarini tadqiq etganlar. Ayniqsa R.Safarova va B.xodjayevning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyati, milliy tarixiy madaniyatning pedagogik ahamiyati, o‘quvchilarning muloqot va fikrlash madaniyatini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

Emotsional pedagogik madaniyat bo‘lajak o‘qituvchining hissiy kompetentligi sifatida baholanadi, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchida emotsiyalar, hissiy tiplar va turli reaksiyalar haqida xabardorlik mavjud bo‘lgan holda ularni aniqlay olish va tahlil qila olish ko‘nikmalari nazarda tutiladi. Emotsional kompetentlikning pedagogik ahamiyati shundaki u o‘quvchilarning salomatligini saqlash va mustahkamlash imkonini beradi. Ayniqsa bo‘lajak o‘qituvchilar uchun emotsional kompetenlik va emotsional madaniyat nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

O‘qituvchi uchun zarur bo‘ladigan asosiy kompetensiya o‘z hissiyotlarini anglash va tushunish layoqatiga egalikdir. Yuqori darajadagi hissiy onglilik insonlarning hissiyotlarni qabul qilish va tavsiflay olishdangina iborat emas, balki uning kelib chiqish sabablari, mazmun mohiyatini tushunish layoqatiga egaliklari bilan tavsiflanadi. Alohida hissiy aniqlikka ega bo‘lgan insonlar bosimlarga osongina qarshi tura oladilar, ularni tez barataf etadilar, hissiy muvozanatni tiklaydilar. Ikkinchi kompetensiya o‘z hissiyotlarini boshqarish layoqatiga egalik. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan hamkorlikka kirishadi. U o‘z ehtiyojlari, hissiy kechinmalari bilan jamiyat talablari orasida muvozanat o‘rnata olishi kerak. Shu bilan o‘zining hissiyolarini boqarish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi talab etiladi. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z hissiyotlariga e’tiborli bo‘lishi, uni muntazam kuzatishi va refleksiyalashi lozim, o‘z g‘azabini yengish, ijobiy his-tuyg‘ulariin boshqarish o‘qituvchi uchun nihoyatda zarur hisoblanadi. O‘z g‘azabining salbiy oqibatlarini anglash va uni o‘z vaqtida yengish bo‘lajak o‘qituvchinng muhim kasbiy sifatiga aylanishi kerak. Bo‘lajak o‘qituvchilar turli usullardan foydalangan holda o‘z his-tuyg‘ulari, kechinmalarini namoyon etishlari kerak. O‘qituvchi salbiy his-tuyg‘ularni yengish usullarini ham o‘zlashtirishlari alohida pedagogik ahamiyatga ega.

Uchinchi kompetensiya esa atrofdagilarning fikrlarini anglash va tushunishdan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchilarda mashkur kompetensiya yuqori darajada rivojlantirilgan bo‘lsa, ularda o‘quvchilarning hissiyotlari haqidagi signallarni oldindan aniqlay olish va to‘g‘ri talqin qilish kopmetensiyasi shakllanadi. Bunday kompetensiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘quvchining xolatiga kira olishlari, o‘zlarini ular oldiga qo‘ya olishlari, ularning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini his eta oladilar. Bunday o‘qituvchilar empatiya qobiliyatiga ega bo‘lgan pedagoglardir.

To‘rtinchi kompetensiya o‘quvchilarning hissiyotlarini boshqarish ko‘nikmasiga egalik. Ushbu kompetensiya doirasida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarning hissiyotlariga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladilar. Bu AKMEga ega bo‘lgan o‘qituvchining kompetensiyasi hisoblanadi. Mazkur kompetensiyaning o‘qituvchining ahamiyati shundaki, unda o‘quvchilarning his-tuyg‘ulariga ochiq va ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, uni tahlil qilish, sabab va oqibatlarini aniqlash hissiy-muammoli holatlarni bartaraf etish imkonini beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional madaniyat va emotsional komptenetlikni shakllantirish orqali ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga erishiladi. Bu bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilar, ular bilan kechadigan voqealar, ota-onalar bilan munosabatlariga bog‘liq kechinmalarni ifodalab, o‘z hissiyotlari va emotsiyalarini ongli, irodaviy boshqarish va nazorat qilish darajasini oshirish; vijdon, burch, mas’uliyat, halollik kabi oliy qadriyatlar va meyorlar orqali axloqiy sifatlarini tartibga solishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional madaniyatning shakllanganlik darajasi quyidagilar namoyon bo‘ladi: moddiy borliqqa nisbatan emotsional munosabat tizimi, mavjud pedagogik vaziyatga hissiy munosabat bo‘lish, emotsional boyliklarni qadrlash, umumiy emotsional yo‘nalishga ega bo‘lish, kreativlik, barqarorlik, xulq-atvor va faoliyatning emotsional-irodaviy tartibga solinishi kabilar. Bunday sifatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning AKMEsini shakllantirib, kasbiy-shaxsiy sifatlarini boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Safarova R. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – T.: “Science and Innovation”, 2024. – 185-b
2. B.Xodjayev va b. Pedagogikaning pragmatik aspektlari. – T.: “Ijod nashr”, 2023. – 408-b
3. Якобсон П.М. Чувства, их развитие и воспитание. М., 1976
4. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений /РАН Институт русского языка им.В.В. Виноградова. 4-е изд., доп.М.: ООО «АТЕМП», 2007.

FIZIKA DARSLARIDA IJTIMOIY-HISSIY TA’LIM ELEMENTLARINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY VA INTELLEKTUAL RIVOJLANINI TA’MINLASH

Turabova Lobar Xusen qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fizika ta’lim jarayoniga ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL) elementlarini, xususan, empatiya metodini integratsiya qilishning samaradorligi yoritilgan. Empatiya metodi o‘quvchilarda tasavvur, fantaziya, ijodiy fikrlashni rivojlantirib, murakkab ilmiy tushunchalarni obrazli tarzda anglashga yordam beradi. Xalqaro tadqiqotlar SEL elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish o‘quvchilarning akademik natijalarini oshirishi, ijtimoiy ko‘nikmalarini mustahkamlashi hamda fanlarga qiziqish va motivatsiyasini kuchaytirishini ko‘rsatadi. Fizika darslarida SEL qo‘llanilishi nafaqat fanni samarali o‘zlashtirish, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham muhimdir.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-hissiy ta’lim, empatiya metodi, fizika darslari, SEL, o‘quvchilarning rivojlanishi, motivatsiya, kompetensiya.*

Аннотаци. *В данной статье рассматривается эффективность интеграции элементов социально-эмоционального обучения (SEL) в процесс преподавания физики, в частности метода эмпатии. Метод эмпатии способствует развитию воображения, креативного мышления и помогает учащимся образно воспринимать сложные научные понятия. Международные исследования показывают, что применение SEL повышает академические результаты учеников, укрепляет их социальные навыки, а также усиливает интерес и мотивацию к учебе. Использование элементов SEL на уроках физики является важным условием не только для успешного освоения предмета, но и для формирования личностных и социальных компетенций учащихся.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное обучение, метод эмпатии, уроки физики, SEL, развитие учащихся, мотивация, компетенции.*

Zamonaviy ta’lim tizimi o‘quvchidan faqat bilim emas, balki shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni ham talab qiladi: ilmiy halollik, hamkorlik, mas’uliyat, barqarorlik madaniyati, tanqidiy va ijodiy fikrlash. UNESCO va OECD hujjatlarida o‘quv dasturlari “bolalar qanday o‘rganishini” hisobga olgan holda, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yo‘naltirilishi zarurligi qayd etiladi. Bugungi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki shaxsning emotsional, ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga ham qaratilishi zarur. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-hissiy ta’lim (IHT) metodikalarini joriy etish o‘quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni, jamoadagi munosabatlarni yo‘lga qo‘yishni, qaror qabul qilishda mas’uliyatli bo‘lishni o‘rganishi – uni kelajak hayotiga tayyorlaydi.

Fizika fani — tabiat qonuniyatlarini ochib beruvchi, kuzatish va tajriba orqali haqiqatni anglashga o‘rgatuvchi fandir. Bu jarayonda o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashuv kabi intellektual kompetensiyalar shakllanadi. Shu bilan

birga, ilmiy tajriba va modellashtirish jarayonida o‘quvchilar halollik, javobgarlik, tartiblilik kabi ma’naviy fazilatlarni ham egallaydilar. Demak, fizika darslari shaxsning har tomonlama kamol topishida katta imkoniyatlarga ega.

Fizika darslarida ijtimoiy-hissiy ta’limning o‘rni

IETning asosiy yo‘nalishlari — o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, ijobiy muloqot, hamkorlik, mas’uliyat — o‘quv jarayonida o‘quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirishga xizmat qiladi. Fizika darslarida bu yo‘nalishlar quyidagi metodlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

Kuzatish va tajribalar: o‘quvchi o‘z atrof-muhitidagi hodisalarni kuzatar ekan, tabiatga nisbatan hurmat va qiziqish hissi shakllanadi. Masalan, “Arximed kuchi” mavzusida suvda suzish tajribasi nafaqat ilmiy tushunchani, balki tabiat qonuniyatlariga qiziqish va hayrat hissini uyg‘otadi.

Guruhli ishlar: muammoli vazifalarni birgalikda bajarish orqali o‘quvchilarda hamkorlik, o‘zaro yordam, empatiya rivojlanadi. Masalan, “Kuch va harakat” mavzusida guruhlarga bo‘linib, turli hayotiy vaziyatlarda kuchlarning ta’sirini izohlash topshirig‘i berilishi mumkin.

Hayotiy muammolarni muhokama qilish: energiya tejamkorligi, ekologik muammolar kabi mavzularni muhokama qilish o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi. Masalan, “Issiqlik energiyasi” mavzusida energiya tejashning iqtisodiy va ekologik foydalari haqida suhbat o‘tkazish.

Refleksiya mashqlari: dars so‘ngida o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ulari va yangi bilimlari haqida fikr bildirishadi. Bu ularda o‘zini anglash va o‘z fikrini ochiq ifoda etish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Har bir fanni ijtimoiy hissiy ta’lim orqali o‘qitish orqali o‘quvchilarni ma’naviy va intellektual tarbiyalash mumkin. Keling fizika fani misolida ko‘ramiz. Fizika mavzulariga bog‘liq ijtimoiy-emotsional elementlar:

“Kuch va harakat” – sport, transport va kundalik hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda jismoniy faollik, sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlikka mas’uliyat hissi shakllanadi.

“Energiya va uning turlari” – energiya manbalarining ekologik oqibatlarini muhokama qilish orqali o‘quvchilar ekologik madaniyat va jamiyat oldidagi burchini anglaydi.

“Issiqlik hodisalari” – issiqlikni tejash usullarini o‘rganish orqali iqtisodiy tejamkorlik va oilaviy qadriyatlarga hurmat shakllanadi.

“Optika” – yorug‘lik hodisalarini hayotiy misollar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar san’at, go‘zallik va estetik qadriyatlarni his qiladi.

Itimoiy hissiy elementlardan biri empatiyadir. Empatiya (singib kirish) metodi – bu obrazli-emotsional ta’limning eng samarali usullaridan biridir. U o‘quvchilarni atrof-muhit obyektlariga singdirish uchun qo‘llaniladi. Empatiya metodi fantaziya, tasavvur, o‘rganilayotgan obyekt mohiyatini anglash, original ijodiy yechimlarni topish va ijodiy loyihalar yaratishga yordam beradi. Masalan, issiqlik va elektromagnit hodisalari fizikasi moddani chuqur “ichkariga” – molekulalar, atomlar, elektronlar dunyosiga olib kiradi. Bu yerda o‘quvchilardan aql orqali ko‘rish (umozrenie) talab qilinadi, chunki mikrodunyo obyektlarini sezgi organlari yordamida idrok etib bo‘lmaydi. Yoki misol tariqasida, “Bug‘lanish” mavzusini o‘rganishda shunday topshiriq berish mumkin: “Tasavvur qiling, siz suv molekulalarisiz. Yuzada sizga sirt tarangligi kuchlari ta’sir qilmoqda. Siz qanday joylashasiz? Bir-biringizni qo‘llaringizdan ushlab. Nima hosil qilasiz? Zanjir. Esingizda bormi, bolalikdagi o‘yin «Oq terakmi? Ko‘k terak? » Kim zanjirni uzadi? Kim tezroq harakat qilsa. Qaysi molekulalar suyuqlikni tark etadi? Tezkorlari.

Qaysilari qoladi? Sekinlari. Tez harakat qilsangiz nimani his qilasiz? Issiqlikni. Sekin bo‘lsangiz-chi? Sovuqlikni. Unda qolgan suyuqlikning harorati bilan nima bo‘ladi? U pasayadi.”

“O‘tkazgichlar va dielektriklar” mavzusida esa quyidagicha tasavvur qilishni taklif qilishimiz mumkin: “Atomning musbat yadrosi – bu ona, elektronlar esa uning farzandlari. Onalar bolalari bilan qanday sayr qiladi? Ba’zilari hamma farzandlarini qo‘lidan mahkam tutadi, ularni boshqalardan ajratadi. Xuddi dielektriklardagidek (izolyatorlarda) erkin zarralar bo‘lmaydi. O‘tkazgichlarda esa ona ancha ijodkor: katta farzandlariga o‘zlari mustaqil yurishga ruxsat beradi. Xuddi shunday, o‘tkazgichlarda erkin valent elektronlar mavjud.” Shu tarzda barcha fan va barcha mavzularni ijtimoiy hissiy ta’lim elementlari asosida olib boorish mumkin va bu fanni o‘zlashtirish uchun samarali yechim bo‘ladi.

Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, SEL (social and emotional learning) integratsiyasi o‘quvchilarning:

- akademik natijalarini 11–17% ga oshiradi;
- ijtimoiy ko‘nikmalarini va jamoada ishlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi;
- fanlarga qiziqishini kuchaytiradi va motivatsiyani oshiradi.

XULOSA

Zamonaviy ta’lim jarayonida SEL – Social and Emotional Learning (ijtimoiy-hissiy ta’lim) konsepsiyasi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat, balki o‘quvchining ma’naviy-axloqiy rivojlanishi, jamiyatga integratsiyalashuvi va intellektual salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan 5 asosiy kompetensiya – o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, ijobiy qaror qabul qilish, ijtimoiy mas’uliyat va samarali muloqot – bugungi kunda maktab ta’limining ajralmas qismi sifatida e’tirof etilmoqda. Fizika darslarida SEL elementlarini qo‘llash — o‘quvchilarning nafaqat fan bo‘yicha bilimlarini mustahkamlash, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va ma’naviy kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayon natijasida o‘quvchilar o‘zini anglay oladigan, tanqidiy va ijodiy fikrlaydigan, ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan yetuk shaxs sifatida shakllanadilar.

ADABIYOTLAR RO‘XATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2024 yildagi PQ-232-son Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risidagi qarori.
2. Safarova R.G. "Ijtimoiy - emotsional ta’lim metodikasi" “Yangi O‘zbekiston” gazetasi 41-son.
3. Lynne Borden. Social, Emotional, and Ethical Learning: A Curriculum that Educates the Heart and Mind. Journal of Youth Development, 2019.-218 p
4. Greenberg, Mark T., Roger P. Weissberg, Mary Utne O‘Brien, Joseph E. Zins, and Maurice J.Elias. Social and Emotional Learning: A Guide to School-Based Strategies. American Psychological Association, 2003, 272 p
5. Golin G.M. O‘rta maktab kursida fizika metodikasi savollari. - M.: Ta'lim, 1987. - 127 b. 4-bob
6. www.framerspace.com

INKLYUZIV MUHITDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN BOLALARNING HUQUQLARI VA ULARNI JAMIYATDA QO‘LLAB-QUVVATLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Umaralieva Muxayyo Abdugaparovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, k.i.x. Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘limi boshlig‘i, loyiha ijrochisi

Annotatsiya. *Maqolada umumta’lim muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolalarning huquqlari va ularni jamiyatda qo‘llab-quvvatlashning huquqiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlari muhokama qilinadi.Shuningdek, o‘qituvchilar va ota-onalarning inklyuziv ta'lim jarayonidagi roli, ularni psixologik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati hamda oilalar bilan ishlashda mahalla mutasaddilarining o‘rni haqida batafsil ma'lumot beradi.*

Kalit so‘zlar. *Inklyuziv ta’lim, ijtimoiy himoya, ota-ona, pedagog, qonun qarorlar, oila va ta’lim tizimi*

В статье рассматриваются правовые, социальные и педагогические аспекты прав детей-инвалидов в общеобразовательных учреждениях и их поддержки в обществе.В нем также подробно рассказывается о роли учителей и родителей в процессе инклюзивного образования, о важности их психологической поддержки, а также о роли местных чиновников в работе с семьями.

Ключевые слова*. Инклюзивное образование, социальная защита, родитель, педагог, законодательные решения, система образования*

The article discusses the rights of children with disabilities in general educational institutions and the legal, social and pedagogical aspects of their support in society.It also details the role of teachers and parents in the process of inclusive education, the importance of their psychological support and the role of neighborhood officials in working with families.

Key words. *Inclusive education, social protection, parent, educator, law decisions, family and education system*

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, nogironligi bo‘lgan shaxslarga boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarni ta’minlash zarur.

Har bir imqoniyati cheklangan o‘quvchi jamiyatning alohida e’tibori va yordamiga muhtoj bo‘lib, davlatimiz alohida ehtiyojga ega bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlaydi, bunday farzandlarni parvarishlayotgan oilalarga moddiy, maslahatga oid va boshqacha tarzda yordam beradi.

Mamlakatimizda imqoniyati cheklangan bolalar huquqlarini ta’minlash 200 dan ortiq huquqiy-me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solingan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, 2020-yil 15-oktyabrda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g’risida”gi qonun qabul qilindi. 2021 yilda Nogironlar huquqlari to‘g’risidagi konventsiya (Nьyu-York, 2006 yil 13 dekabr) ratifikatsiya qilindi.

Bugungi kunda respublikamizda 760 ming nafardan ziyod nogironligi bo‘lgan shaxs, shu jumladan, 100 mingdan ortiq 16 yoshgacha nogironligi bo‘lgan bolalar istiqomat qiladi. Ular ijtimoiy himoya, qo‘llab-quvvatlash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralari bilan qamrab olingan.

O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g’risida”gi qonunining 3-bobidagi moddalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo‘shimcha kafolatlari belgilangan.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlarini jamiyat hayotining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarida himoya qilish asosida qanday vaziyat bo‘lishidan qat’iy nazar, insonni, shu jumladan, nogironligi borligi tufayli kamsitmaslik printsipi yotadi. Bu borada nafaqat davlat tuzilmalari, balki fuqarolik jamiyati institutlari ham faollik ko‘rsatayotgani juda muhim bo‘lib, mahalla mutasaddilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Shu bilan birgalikda, bugungi kunda nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’lim muassasalarga jalb qilinishlari va ularga inklyuziv muhit yaratish zaruriyati mavjud.

Ko‘plab tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlari keng ko‘lamlidir. Ularning iqtidori muhim madaniy ahamiyatga ega.

Shuningdek, tadqiqotlar va amaliyotdan ma’lumki, o‘quvchining uyg’un rivojlanishi va jamiyatda muvafaqiyatli moslashuvi bolalar salomatligiga yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Bunday o‘quvchilar bilan ishlash va rivojlantirish jarayoni ham murakkab bo‘lib, jiddiy pedagogik va tibbiy vazifa hisoblanadi.

Shuning uchun har qanday murakkab hayotiy muammo yoki vaziyatni muvaffaqiyatli hal etish uchun, umumiy o‘rta ta’lim muassasasi o‘qituvchisi ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari va bosqichlarini yaxshi tushunishi kerakdir.

Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchining inklyuziv muhitdagi bu kabi qiyinchiliklarni samarali va qat’iyat bilan yengishga imkon beradigan psixologik tavsiyalardan xabardor bo‘lishi, muayyan bilim, ko‘nikma va malakalarga, inklyuziv kompetentlikka ega bo‘lishlari zarur.

Bunday holatda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining asosiy vazifasi bu jarayonda sabr-toqat qilish, chidash kerak bo‘lgan davr ekanligini, vaziyatga xotirjamlik bilan munosabatda bo‘lish, muammoni hal qilishga aql bilan, vazminlik bilan, konstruktiv yondashish zarurligini tushuntira bilishlari lozim.

Bu o‘rinda o‘qituvchilarimiz ota-onalar bilan keng hamqorlik ishlarini amalga oshirishlari talab etiladi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bunday oilalardagi ayrim erkaklar hamma “yuk”ni oiladagi ayolga qoldirib, oiladan chiqib ketish holatlari ham ko‘p. Biroq, bunday qiyinchiliklarga sabr bilan munosabat bildirib, ro‘zg’or, qiyinchilik “yuki”ni ayoli bilan birga tortib kelayotgan oila boshliqlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Qarindosh-urug’lar, do‘stlar va qo‘ni-qo‘shnilar, mahalla-kuyning e’tiborsizligi yoki sovuqqonligi ota-onalarning ruhiy holatini yanada murakkablashtiradi.

Inklyuziv kompetentligi rivojlangan o‘qituvchilarimiz bunday oilalar bilan o‘ta ehtiyotkorlikni saqlagan holda munosabatda bo‘lishlari, doimiy tarzda ularni qo‘llab-quvvatlashlari va zarur maslahatlarni berib borishlari muhim ahamiyatga ega. Bu o‘z navbatida ota-onalardagi ruhiy tushkunlikni bartaraf etishda muhim omil bo‘ladi. Oilani, ota-onalarni qo‘llab-quvvatlash, ularga zarur tavsiyalar (psixologik maslahatlar) berish uchun mahalla mutasaddilari oila inqirozi sabablari, o‘ziga xos xususiyatlari va oilaning imkoniyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, ular bu borada psixologik bilmlarga ham ega bo‘lishlari, psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash jarayoni nimadan iborat bo‘lishini bilishlari zarur.

Maktab bunday oilalardagi muammolarni hal qilishga ko‘maklashishi, oilani ijtimoiy-huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlash, muammoli (murakkab) vaziyatdan chiqarish yo‘llari, noxush holatlarning oldini olish bo‘yicha maqsadli harakatlarni amalga oshirishi, oila a’zolari bilan profilaktik ishlarni tizimli olib borishlari kerak.

Ijtimoiy va ma’naviy ko‘makka muhtoj har bir oila doimiy e’tiborda va nazoratda bo‘ladi, ular bilan individual tartibda maqsadli va tizimli (amaliy) ish olib boriladi. Barcha amaliy ishlar oiladagi muammolarni hal etish va muhitni sog’lomlashtirish, oilada o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, oila a’zolarining oiladagi o‘rni va mas’uliyatini anglatish, nogironligi bo‘lgan bolalar ta’lim-tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Nogironligi bo‘lgan farzandi bor ota-onalar bunday oilalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhit mahalla mutasaddilarining diqqat e’tiborida ekanini, mahalla faollarining yagona maqsad yo‘lida hamjihatlikda faoliyat olib borayotganini, oilalarda ma’naviy muhit barqaror bo‘lishidan, mahalla ahlining farovon hayot kechirishi, tinchligi, xotirjamligidan manfaatdorligini, bu borada ularning sa’y-harakatlari, mehri va e’tiborini his etishi zarur.

Oilalar bilan ishlash natijalarini fuqarolar yig’ini Kengashida har haftada kengash a’zolari, shuningdek, tegishliligi bo‘yicha jamoatchilik tuzilmalari raislari ishtirokida muhokama qilish va zarur chora-tadbirlarni belgilab borish yaxshi natija beradi.

Muammoli oilalar va ularning a’zolari bilan rejali, manzilli, individual (yakka) tartibdagi maqsadli harakatlar, ishni manzilli tashkil etish talab etiladi. Har bir oilaning, shu jumladan, ota-onalar, nogironligi bo‘lgan bolalarning muammosi va o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, muammolarni hal qilish, oilani va xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida reja asosida tizimli ish olib borish zarur.

Muammoli oilalar ijtimoiy-ma’naviy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlarni barvaqt aniqlash, bartaraf etish va oldini olish – faoliyat samaradorligiga erishishning eng to‘g’ri yo‘lidir.

Albatta, ushbu umumiy tavsiyalar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan deinstitutsionalizatsiya jarayonida muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Development of professional skills and competencies of teachers Turgunov, S. T., Daniyarov, B. K., Umaralieva, M. A., Shodmonova, S. S., Turgunova, S. M., & Tojiboeva, H. M. (2012). Development of professional skills and competencies of teachers. Tashkent" Sano-standart". Tashkent.–2012.
2. Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers
3. Umaralieva, M. (2017). Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers. Eastern European Scientific (ISSN 2199-7977). Journal.–Dusseldorf-Germany.
4. The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach Turgunov, S., & Umaralieva, M. (2016). The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics, (2), 119-125.
5. THE ROLE OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCY OF GENERAL SECONDARY PUPILS IN COLLABORATIVE PEDAGOGY
6. ABDUGAPPAROVNA, U. M. (2019). THE ROLE OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCY OF GENERAL SECONDARY PUPILS IN COLLABORATIVE PEDAGOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(5).
7. Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers Based on Innovative Approach

TALABALARNING VOLONTYORLIK FAOLIYATI - ALOHIDA EHTIYOJLI BOLALARNI INKLYUZIV TA’LIMGA JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI

Umaralieva Muxayyo Abdugaparovna[1], Karimov Komiljon Abduraximovich[2], Tashhanov Aybek[3]

[1]pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, k.i.x. - Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo‘limi boshlig‘i, loyiha ijrochisi;

[2]Pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent - Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot” bo‘limi boshlig‘I;

[3]Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktor o‘rinbosari, loyiha ijrochisi

Annotatsiya. *Maqolada dunyoning turli mamlakatlarida inklyuziv ta'lim (ta'limda integratsiya) tizimining rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, integratsiya jarayonining har bir mamlakatda qanday muvaffaqiyatli amalga oshirilgani, bu jarayonda duch kelinadigan qiyinchiliklar va yechimlar haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar. *Inklyuziv ta'lim, ta’lim islohotlari, xorijiy davlatlar tajribasi, nogiron bolalar*

Аннотация. *В статье анализируется развитие системы инклюзивного образования (интегratsii в образование) в разных странах мира. В нем также говорится о том, как процесс интегratsii был успешно реализован в каждой стране, а также о трудностях и решениях, с которыми сталкиваются в этом процессе.*

Ключевые слова*. Инклюзивное образование, образовательные реформы, опыт зарубежных стран, дети-инвалиды*

Abstract. *The article analyzes the development of the system of inclusive education (integration in education) in different countries of the world. It also talks about how the integration process is successfully implemented in each country, the challenges and solutions faced in the process.*

Key words. *Inclusive education, educational reform, experience of foreign countries, children with disabilities.*

Hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan rivojlangan ko‘plab davlatlar o‘zlarining alohida g’amxo‘rlikka muhtoj qatlamlari, ya’ni imqoniyati cheklangan fuqarolariga o‘tmishdagiga nisbatan yangicha tizimda ish olib bormoqdalar. Endilikda hayotning har bir jabhasida ushbu qatlam vakillarini integratsiyalashuv yo‘lini tanlagan holda, jamiyat bilan faol muloqotga kiritilmoqda. Germaniya, Kanada, Norvegiya, AQSh, Shvetsiya kabi mamlakatlarda imqoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash siyosatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mazkur tajriba inson huquqlari himoyasini o‘zida to‘liq qamrab olganligini e’tirof etish mumkin.

Integratsiyalashuv atamasi so‘nggi yillarda Norvegiyada bot-bot takrorlanadigan bo‘ldi. Integratsiya tamoyiliga muvofiq, mazkur yo‘nalishda bir-birini qo‘llovchi ikki tomonlama model ishlaydi. Bunda inklyuziv muhitdagi turli xizmatlar umumiy tuzilmaning bir bo‘lagi sifatida ishlaydi. Ta’lim muassasalarda bunday xizmatlardan to‘laqonli foydalanish ushbu siyosatning butun tuzilmasining o‘zgarishi bilan bog’liq. Har bir yo‘nalish (individual, ijtimoiy, siyosiy,

global) ning o‘ziga xos diqqat talab etadigan nozik jihatlari mavjud. Bunda aniq tuzilmani shakllantirish juda ham murakkab jarayondir. Chunki, inklyuziv muhitda o‘quvchilarning turli toifalari turlicha e’tiborni talab etadi. Bunda o‘zgarish ijtimoiy xizmatlar, ta’lim, sog’liqni saqlash, huquq va barcha yuqori va quyi tizimlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘pgina davlatlarda imqoniyati cheklangan o‘quvchilar bilan inklyuziv muhitda olib borilayotgan ishlar tahlili o‘tkazildi:

Jumladan: Hozirgi kunda Norvegiyada maxsus maktablar faoliyati tugatilgan, ommaviy maktablarga aylantirilish jarayoni sezilarli darajada tezlashgan. Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchilarining yangi sharoitlarda ishlay olishlari uchun kasbiy qayta tayyorlash tizimlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Endilikda Norvegiyada maxsus maktablar faoliyati ommaviy maktablar va ular bilan bog’liq xizmatlar tizimiga o‘ziga xos qo‘shimcha sifatida rivojlanmoqda. Biroq, bu bilan butun mamlakatda maxsus maktablarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish imkonsiz. So‘nggi tadqiqotlardan shu ma’lum bo‘ldiki, bolalarning 84% mamlakat bo‘ylab jamoaviy maktablarda ta’lim olganlar, ular boshqa ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etmoqdalar. Bu kabi maxsus muassasalarning barqaror ishlashi katta mablag’ni talab etadi. Norvegiya va Shvetsiyada muassasalarning ko‘payishi dastlabki yillarda manfaatli bo‘lgan. Integratsion siyosiy g’oyalar orqali muassalar ikkita asosiy funksiyalarni bajarardi: birinchidan, an’anaviy hayot tarzi saqlanib qolingan bo‘lsa, ikkinchidan, jamoaviy maktab mutaxassislari va boshqa davlat tashkilotlaridagi xodimlarning vazifalari yengillashgan.

Amerika hukumati maxsus muassasalar xizmatlarini rad etmaydilar. Biroq, bu xizmatlardan faqatgina o‘ta og’ir vaziyatlarda foydalanadilar. Inklyuziv tarzda faoliyat yuritishni maqsad qilgan har bir muassasa o‘z xizmatini taklif etarkan o‘z foydalanuvchilarining tug’ilishi mumkin bo‘lgan ehtiyojlarini, shuningdek, individual yondashuv asosidagi xizmatlarni ham dastlabki bosqichdayoq ish rejalariga kiritishlari majburiy. Ushbu ish rejasini ishlab chiqish quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: reallik imkoniyati, yutuqlar darajasi, baholash va faoliyat.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning inklyuziv muhitga kirishishlari bir necha darajada bo‘lishi mumkin:

– oddiy sinfdagi ta’lim, to‘liq ijtimoiy hayotga moslashgan holda barcha ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok;

– maktab yoki faoliyat olib borayotgan muassasaning tajribali mutaxassisi kuzatuvi ostida, ijtimoiy guruhlar, qo‘llab-quvvatlash guruhlari tarkibida oddiy sinfdagi ta’lim;

– kunning grafik bo‘yicha taqsimlanishi asosida ma’lum vaqt umumiy muassasalarda, qolgan kun esa maxsus muassalarda;

– mutaxassislar nazorati ostidagi muassasalar va maxsus maslahat guruhi yordamida;

– davlatning reabilitatsion dasturi asosida turli mutaxassislarning doimiy g’amxo‘rligi ostida.

Amerikada hukumatning inklyuziv ta’limga nisbatan tutgan asosiy tamoyili bu – taklif etilayotgan xizmat turlaridan foydalanish imkoniyati cheklangan insonlar uchun ham xuddi oddiy insonlar uchun bo‘lganidek qulay va oson bo‘lishidir. Zarur hollarda muassasa imo-ishora tilini biladigan, individual xizmat ko‘rsatadigan yordamchilar, ijtimoiy sohada maslahat beruvchi psixologlar bilan ta’minlanadi.

Ushbu masalalar bo‘yicha Nyu-york universitetida alohida bir bo‘lim faoliyat olib boradi hamda turli xil tadbirlar o‘tkazuvchi ijtimoiy xizmat mutaxassislari aholi hamda tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirmoqda. Integratsiyaning qay darajada kechishi, hech shubhasiz, uni amalga oshiruvchi mutaxassislarga bog’liq. Hozirgi kunda inklyuziv ta’lim

muammolarini hal etish bo‘yicha Ueyn shtat universiteti muvaffaqiyatli ish olib bormoqda. Kadrlarda tibbiy bilim bilan bir qatorda muloqotga kirishish, turli xil hayotiy vaziyatlarda qarorlar qabul qilish bo‘yicha ko‘nikmalar shakllantiriladi. Mutaxassislar tomonidan o‘tkaziladigan treninglarda quyidagilarga e’tibor qaratiladi:

– Qanday qilib o‘rganish jarayonini soddalashtirish hamda buni ota-onalarga ham uqtirish;

– o‘tish davridagi muammolarni bartaraf etish hamda oila birdamligini mustahkamlash;

– nogironligi mavjud bo‘lgan insonlarga ko‘ngilli tarzda yordam beruvchi kishilar, jamoalar, tashkilotlarni birlashtirib, ularni to‘g’ri yo‘nalishga yo‘naltirish;

Nogironligi mavjud bo‘lgan insonlar uchun inklyuzivlik siyosatidan foydalaniladi. Biroq, bu tizim Yevropanikidan keskin farq qiladi. Kanadalik fuqarolar bolalar xoh jismonan, xoh ruhan sog’ yoki nosog’lom bo‘lishlaridan qat’iy nazar, barcha uchun mos dasturda o‘qiy olmasliklarini yaxshi bilishadi. Har bir bolaning o‘ziga xos kuchli individual xususiyatiga ega ekanligi jamiyat ongiga chuqur singdirilgan. Hukumat har bir bolaning qobiliyati va xohish-istaklarini inobatga olgan holda shart-sharoitlar yaratishni ma’qul deb topdi. O‘quv jarayonlari ham, ijtimoiy xizmatlar ham jamiyatning umumiy ehtiyojlarini emas, individual shaxsning ehtiyojlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Bu – professional moslashuvchanlik deb ataladi. Hech bir bola hukumat e’tiboridan chetda qoldirilmaydi. Maxsus maktablar deyarli yo‘q. Faqatgina istisno shaklda tuzilgan sinflargina mavjud. Barcha e’tibor bolaning sifatli ta’lim olishi, mazmunli xordiq chiqarishi hamda kelajakda o‘z o‘rnini topishi uchun kerak bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Germaniyada inklyuziv ta’limga nisbatan ijtimoiylashtirish g’oyasi borgan sari shiddatli tus olmoqda. Hukumat va ta’lim hamjamiyati imqoniyati cheklangan bolalarning umumta’lim maktablarida normal rivojlanayotgan bolalar bilan bir qatorda, shuningdek, uy sharoitida tarbiyalanishlarini qo‘llab quvvatlaydi. O‘quvchilar va ularning ota-onalarini gumanizm g’oyalari asosida jamiyatda yakkalanib qolmasliklari uchun ijtimoiylashtirish hukumatning ustivor maqsadlaridan biridir. Buning uchun har qanday yangicha fikr va g’oyalar qo‘llab quvvatlanadi.

Bolaning uzluksiz ta’limi Germaniya siyosatida ustuvor o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham ota-onalar uchun turli imtiyoz va qo‘shimcha yordam mablag’lari ajratiladi. Imkoniyati cheklangan bolalarning muammolarini yechish uchun turli soha vakillari jalb etilmoqda. Ayni paytda maktablar hamda ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. Bu ta’limmi, o‘yin-kulgimi, sayohatmi, tibbiyotmi, ijtimoiy harakatmi… qanday yo‘nalish bo‘lishidan qat’i nazar, hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan hamda bolaning jamiyatda yakkalanib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Barcha ishlab chiqilayotgan standartlar yagona tizimning qo‘shimcha komponentlari sifatida amaliyotga joriy qilinmoqda. Tizimdagi eng muhim masalalardan biri hanuzgacha birinchi zaruriy yordamni ko‘rsatish bo‘lib qolmoqda. Buning uchun kadrlar tayyorlashda jiddiy islohotlarni amalga oshirish zarurligi esa o‘z isbotini topgan.

“Angliyada uch yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan barcha bolalar yiliga 570 soat bepul erta ta’lim yoki bola parvarishi huquqiga ega. Bu odatda yilning 38 haftasi uchun haftasiga 15 soat sifatida qabul qilinadi”.

“Boshlang’ich ta’lim va bolalarga g’amxo‘rlik qilish to‘g’risida”gi qonunning A 2.3-bandiga ko‘ra, ota-onalar yillik 570 soatli ta’limni quyidagi shakllarda olishlari mumkin:

– haftaning 3 kunida 5 soatdan;

– haftaning 5 kunida 3 soatdan.

Qonunning A 2.4 bandi esa ta’limning ota-onalar uchun moslashuvchan shaklda bo‘lishini ta’minlaydi. Ya’ni, ota-onalarga farzandlari uch yoshga to‘lgandan so‘ng, yilning ma’lum bir davrida mazkur ta’lim shaklini boshlashga ruxsat beriladi.

Ba’zi istisno hollarda, ikki yoshli bolalar ham yuqoridagi ta’lim dasturiga qabul qilinishi mumkin. Quyidagi hollarda ikki yoshli bolalar ham ta’lim dasturlariga kiritilishlari mumkin:

– Agarda bola maxsus ta’limga muhtoj bo‘lsa (spesial edusational needs – SEN) yoki “Ta’lim, sog’liqni saqlash va parvarish” davlat rejalariga kiritilgan bo‘lsa;

– “Disability Living Allowance” dasturi orqali nafaqa oluvchi bolalar.

Agar oila “Insome Support or tax sredits” daromadlarni qo‘llab quvvatlash yoki boshqa imtiyozlarga ega bo‘lsa ham yuqoridagi imtiyozdan foydalanishlari mumkin.

Agar bolalar davlat tomonidan nogiron sifatida ro‘yxatga olingan bo‘lsa, ular quyidagi xizmat turlaridan bupul foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar:

– Bolalar bog’chalaridan;
– Maktabgacha tayyorlov guruhlari va o‘yin guruhlarida;
– Bola parvarishi bilan shug’ullanuvchi hamshira xizmatlaridan;
– Bolalikni muhofaza etish markazlari xizmatlaridan.

Hozirgi zamonda ko‘plab jamiyatlarda nogironligi mavjud bo‘lgan bolalar uchun ta’lim olish, ishga joylashish, ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayotdagi ishtiroklari sezilarli darajada cheklangan. Aynan shuning uchun ham, nogironligi bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvida oila asosiy pog’anaga ko‘tariladi. Chunki bolalarning jamiyatda yashash qobiliyati oilada shakllanadi. Boshqa ijtimoiy guruhlar bilan solishtirganda oila alohida mavqega ega. Barcha boshqa ijtimoiy guruhlarni “sun’iy” deya atash mumkin. Oilalarning mavjudligi esa tabiiy bir jarayon bo‘lib, shaxsiy hayot bilan chambarchas bog’liq.

Shuning uchun ham nogiron bolalari bor oilalarning jamiyatda yolg’izlanib qolmasligi juda muhim. Ular mutaxassislar tomonidan ko‘rsatiladigan ta’limiy va psixologik yordamga muhtojdirlar. Yordamni rad etuvchi oilalar duch keladigan muammolarni osonlikcha yenga olmaydilar. Xatolarini tuzatish uchun farzandlarini reabilitatsiya kurslariga jo‘natadilar. Biroq, ko‘plab mutaxassislar bu bolaning ruhiyatiga jiddiy shikast yetkazishi mumkinligi ta’kidladilar.

AQShda nogiron bolali oilalarni qo‘llab-quvvatlashlash tizimi yaxshi rivojlangan. Amerikalik mutaxassislar sohalari bo‘yicha ijtimoiy ko‘mak va oilalar o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajarishlari bilan bir qatorda oilalarga zarur bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun o‘qitiladilar.

Zamonaviy Amerikaning oilashunos psixologi Lillian Katz bolaning idrok etishdagi yetti xususiyatni aynan oila bilan bog’liq ekanini ta’kidlaydi. Jumladan, uning fikricha, “ota-onalar o‘z farzandlari nutqini o‘qituvchilardan ko‘ra ko‘proq tinglash va kuzatish imkoniyatiga ega. Gap shundaki, ular jarayonni xolis baholay olishlari lozim”.

Shuning uchun ham ota-onalar va mutaxassislarning maqsadlari to‘g’ri yo‘nalishga qaratilishi nihoyatda ahamiyatlidir.

Koreya qonunchiliga ko‘ra, har bir provintsiyada alohida ta’limga muhtoj bolalarni ta’minlash uchun kamida bitta maktab bo‘lishi shart. Aksariyat hollarda nogironligi mavjud bolalar umumiy ta’lim dasturiga kiritiladi.

Davlat bolalarning tibbiy ehtiyojlarini yoki oila sharoitida qarovga muhtoj ekanini hisobga olgan holda, turli xil platformalarda ta’limning qulay onlayn shakllarini ta’minlab beradi. Ota-onalar uchun ham individual qo‘llanmalar yaratilgan bo‘lib, ular orqali ota-onalar o‘z farzandlariga to‘g’ri g’amxo‘rlik qilishni mutaxassislarning videodarslari yordamida o‘rganishlari mumkin.

Bundan tashqari, hukumat nogironligi bo‘lgan bolalarning kelajakda jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida qabul qilinishi va ijtimoiylashuvlini ta’minlash uchun hukumat qator islohotlarni amalga oshirmoqda. Seul megapolisi ayni damda nogironligi bo‘lgan bolalarning jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi uchun mustaqil shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash maqsadida oila muhitida hayot sifatini yaxshilash uchun zarur bo‘lgan xizmatlar ko‘lamini kengaytirmoqda. Jumladan:

– 2003-yildan beri nogironligi mavjud bolalarni parvarishlash bo‘yicha barcha turdagi xizmatlarga mutlaqo haq to‘lanmaydi.

– Nogiron bolalar uchun integratsiyalashgan bolalar parvarishi muassasalari (milliy, davlat, kunlik malakali xizmat turlari, Seul kunduzgi xizmat markazlari) dan foydalanish uchun byudjetdan 10 million koreya voni ajratiladi.

– Individual o‘qituvchi va tibbiy terapevtlarni 80% rag’batlantirish uchun oyiga 1 mln von, bolalarni o‘quv materiallari bilan ta’minlash uchun esa oyiga 21 ming von pul mablag’lari ajratiladi.

“Nogiron bolalar uchun professional yordam” dasturi doirasida bolalar uchun terapiya xizmatlari, qo‘shimcha o‘qituvchi yollash xizmatlari, oilaviy muhitni yaxshilash uchun psixologik yordam xizmatlari, nogironlik bilan bog’liq kadrlar muammosi yuzaga kelgan holatlarda muammoni bartaraf etish uchun mutaxassis bilan ta’minlash xizmatlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, nogiron farzandlari bor oilalarda ota-onalar o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy holatlarini yaxshilashlari va bola parvarishi haqida qayg’urmasdan ish faoliyatlarini olib borishlari uchun hukumat mamlakat bo‘ylab milliy jamoat markazlarini tashkil etib kelmoqda.

Shvetsiya integratsiya g’oyasi yaxshi rivojlanayotgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. 1969 yilda Shvetsiyada tegishli hukumat hujjatining paydo bo‘lishi integratsiya kursining boshlanishi sifatida belgilandi.

Shvetsiyada o‘qituvchilarning ishi yuqoridan ko‘rsatmalar bilan qat’iy tartibga solinadi. Yangi standartning yaratilishi o‘qituvchilar mehnatini kuchaytirdi, lekin ayni paytda ularning ish natijalariga yuqori talablar qo‘yildi. Integratsiya jarayonining yanada rivojlanishiga iqtisodiy omil katta ta’sir ko‘rsatdi.

Italiya parlamenti tomonidan 517- sonli qonun qabul qilingandan so‘ng, maxsus ta’lim tashkilotlari bosqichma-bosqich tugatilib, alohida ta’limga muhtoj bolalar umumiy ta’lim maktablarida o‘qitila boshlandi. Italiya integratsiya tizimi jamiyatda katta yordam berdi. Italiya butun dunyo uchun laboratoriyaga aylandi. Sirakuzadagi (Nьyu-York) Amerika universitetining integratsiya bo‘yicha bir guruh mutaxassislari Italiyada jiddiy stajirovkadan o‘tadilar.

Italiyada ma’lum normalarni belgilovchi qonun qabul qilindi. Bu qonunda:

– bitta sinfdagi bolalarning maksimal soni - 20 ta;

– sinfdagi alohida ehtiyojli bolalarning maksimal soni - 2 nafar;

– alohida ehtiyojli bolalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus dars tarkibiga kiritilgan;

– maxsus sinflar bekor qilina boshlandi;

– maxsus o‘qituvchilar oddiy maktab o‘qituvchilari bilan jamoalar tuzadilar;

– ikkala toifadagi o‘qituvchilar sinfdagi barcha o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘ladilar.

Xitoy Xalq Respublikasida “sui ban dzyudo” (“Bir guruhda bo‘lish”) –ko‘p yillik tajriba asosida birgalikda o‘rganishning yevropacha uslubi shakllangan. Xitoy imperiyasida bu yo‘l G’arb mamlakatlariga qaraganda kechroq boshlangan. 20-asrning 80-yillarida Xitoyda normal rivojlangan bolalar va nogiron bolalarni birgalikda o‘qitish amaliyoti tarqala boshladi. Ushbu

jarayonning mohiyati alohida ta’limga muhtoj bolalarni oddiy maktablarga va oddiy o‘quvchilar bilan birlashtirish edi.

Bir qator xitoylik mualliflarning fikricha, Xitoy davlatida qo‘llanilgan “sui ban jiudu” iborasi inglizcha “oddiy sinfda o‘rganish” tushunchasining tarjimasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu atama xalqaro “integratsiya” atamasi bilan tengdir.

Xitoyda xorij tajribasi ta’sirida ularning sharoit va xususiyatlarini hisobga olgan holda integratsiyalashgan ta’lim amaliyotlari joriy etilgan. 1994 yilda “Nogiron bolalarni rivojlantirishda ta’limning integratsiyalashgan usullarini joriy etish to‘g’risida”gi Nizom qabul qilingandan so‘ng Xitoy davlatida integratsiya keng tarqala boshladi.

Inklyuziv ta’limning joriy etilishi Xitoy ta’lim islohotida yangi bosqich bo‘ldi. Ungacha imkoniyati cheklangan bolalar faqat maxsus ta’lim maktablarida o‘qitilar edi.

Inklyuziya nogironlar haqidagi jamoatchilik fikrini o‘zgartirdi va alohida ta’limga muhtoj bolalar umumiy maktablarga borishlari mumkinligini ko‘rsatdi. Shuningdek, xitoylik mutaxassislar uchun integratsiyalashgan treninglar ta’limning ommalashishiga hissa qo‘shdi. Darhaqiqat, imkoniyati cheklangan bolalar sonining ko‘payishi ularning turli sabablarga ko‘ra ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘qiy olmasligiga olib keldi. Buning asosiy sabablaridan biri – bu turdagi maktablarning yo‘qligi. Demak, integratsiyalashgan o‘qitish bolalarni inklyuziv ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan holda ta’limdagi kamchiliklarni bartaraf etishga yordam berishi kerak. 2000 yilda integratsiyalashgan ta’lim dasturlarida o‘qiyotgan nogiron bolalar ulushi ushbu bolalar umumiy sonining 63% ni tashkil etdi. Xitoylik ekspertlarning fikricha, nogiron bolalarning ta’lim jarayonida ishtirok etish foizining ortib borayotgani integratsiyalashgan o‘qitish usullaridan foydalanish va jamiyatda tolerantlikning kuchayishi natijasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Development of professional skills and competencies of teachers Turgunov, S. T., Daniyarov, B. K., Umaralieva, M. A., Shodmonova, S. S., Turgunova, S. M., & Tojiboeva, H. M. (2012). Development of professional skills and competencies of teachers. Tashkent" Sano-standart". Tashkent.–2012.
2. Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers
3. Umaralieva, M. (2017). Pedagogical conditions of forming professional competence of teachers. Eastern European Scientific (ISSN 2199-7977). Journal.–Dusseldorf-Germany.
4. The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach Turgunov, S., & Umaralieva, M. (2016). The Development of Professional Competencies of Teachers on the Basis of an Innovative Approach. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics, (2), 119-125.
5. THE ROLE OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCY OF GENERAL SECONDARY PUPILS IN COLLABORATIVE PEDAGOGY
6. ABDUGAPPAROVNA, U. M. (2019). THE ROLE OF CREATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCY OF GENERAL SECONDARY PUPILS IN COLLABORATIVE PEDAGOGY. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(5).
7. Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers Based on Innovative Approach
8. Umaraliyeva, M. A. (2017). Pedagogical Conditions of Forming Professional Competence of Teachers Based on Innovative Approach. Eastern European Scientific Journal, (4), 65-68.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN DIDAKTIK TIZIM: KONSEPSIYASI, TARKIBIY QISMLARI VA TASHKILIY-PEDAGOGIK SHAROITLARI

Urakova Shoxida Keldiyarovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tatqiqodchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik tizimning ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan. Mazkur tizimning konsepsiyasi, asosiy tarkibiy qismlari hamda uni amalga oshirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik sharoitlar batafsil tahlil qilingan. Maqolada o‘qitishning moslashtirilgan va differensial yondashuvlari orqali turli imkoniyatlarga ega o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa olish, tashabbuskorlik kabi kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish usullari yoritilgan. Shuningdek, didaktik tizimda interfaol metodlardan, multimodal vositalardan foydalanish orqali inkluziv muhitda ham teng imkoniyatli, samarali va ijodiy faoliyatga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini tashkil etish yo‘llari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, kreativ kompetentlik, didaktik tizim, pedagogik sharoitlar, differensial yondashuv, interfaol metodlar, kreativ fikrlash, moslashtirilgan o‘qitish.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida kreativ kompetentlikni rivojlantirish masalasi dolzarb mavzulardan biri bo‘lib, ayniqsa inklyuziv ta’lim sharoitida bu kompetensiyaning o‘rni yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Kreativ kompetentlik o‘quvchining mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topishi, tashabbus ko‘rsatishi va yangi g‘oyalarni ilgari sura olishini ifodalaydi. Inklyuziv ta’lim esa har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularni umumiy o‘quv muhitiga jalb etishni nazarda tutadi. Bunday ta’limda o‘quvchilar orasida jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy farqlar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning barchasi yagona ta’lim jarayonida ishtirok etadi. Shunday sharoitda kreativ kompetentlikni rivojlantirish nafaqat shaxsiy o‘sish, balki jamoadagi ijtimoiy faollik, kommunikativlik va muomala madaniyatini shakllantirishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Kreativ kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik tizim maqsadga yo‘naltirilgan, moslashuvchan va o‘quvchilarning ehtiyojlariga individual tarzda yondashadigan pedagogik model sifatida qaraladi. Bunday tizimda, birinchi navbatda, o‘quv jarayoni mazmunining turlicha bo‘lishi, ya’ni o‘quvchilarning bilim darajasi, psixologik xususiyatlari va qiziqishlariga mos keladigan materiallar bilan boyitilgan bo‘lishi talab etiladi. Mazkur mazmunda muammoli vaziyatlar asosida qurilgan topshiriqlar, real hayotga oid misollar, ijodiy loyihalar va amaliy mashg‘ulotlar alohida o‘rin tutadi. O‘quv materiali tushunarli, hayotiy va qiziqarli bo‘lishi orqali o‘quvchining dars jarayoniga faol jalb qilinishi ta’minlanadi.

O‘qitish metodlariga kelsak, inklyuziv muhitda klassik yondashuvlar bilan cheklanmaslik, balki interfaol, kreativ va moslashtirilgan usullardan foydalanish zarur. Bu borada “aqliy hujum”, rolli o‘yinlar, guruhli muhokama, loyiha asosida o‘rganish kabi usullar juda samarali hisoblanadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga imkon beruvchi ochiq savollar, muqobil yechimlar izlashga undovchi topshiriqlar kreativ kompetentlikni

shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Har bir topshiriq o‘quvchining nafaqat bilimini, balki dunyoqarashi, kuzatuvchanligi, ijodkorlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Ta’lim vositalari sifatida esa multimodal materiallardan, ya’ni matnli, audio, video va grafik shakllarda tayyorlangan resurslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir o‘quvchining o‘zlashtirish uslubi inobatga olinadi. Masalan, eshitish orqali yaxshiroq o‘zlashtiradigan o‘quvchi uchun audio materiallar, ko‘rish orqali qabul qiladiganlar uchun esa vizual vositalar — slaydlar, diagrammalar, infografikalar taklif etilishi mumkin. Bu o‘z navbatida, barcha o‘quvchilarni darsga faol jalb etadi va ularning bilim olishdagi tengligini ta’minlaydi.

Baholash jarayoni esa an’anaviy reyting tizimidan farqli ravishda, o‘quvchining individual yutuqlari va ijodiy yondashuvlariga asoslanadi. Formativen baholash, ya’ni o‘quv jarayonining har bir bosqichida o‘quvchining ishtirokini tahlil qilish, unga o‘z vaqtida fikr bildirish orqali rag‘batlantirish muhim hisoblanadi. Portfolioga asoslangan baholash tizimi esa o‘quvchining vaqt davomida erishgan yutuqlari, ishtirok etgan loyihalari va ijodiy ishlari asosida umumiy natijani belgilaydi. Bunday baholash shakli o‘quvchini ijodiy izlanishga undaydi, o‘z ustida ishlashga va natijani doimiy ravishda yaxshilashga motivatsiya beradi.

Didaktik tizimning samarali ishlashi uchun muayyan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar zarur. Avvalo, ta’lim muhitida psixologik xavfsizlik, o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash tamoyillari ustuvor bo‘lishi kerak. O‘qituvchi o‘z faoliyatida individual yondashuvdan foydalanib, har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda darsni tashkil etadi. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limda ishlaydigan o‘qituvchining kreativ metodlar, maxsus pedagogika, ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarda yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etiladi. Ota-onalar, defektologlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik esa ushbu tizimning barqaror ishlashini ta’minlaydi.

Maktab infratuzilmasi ham inklyuziv ta’lim talablari asosida moslashtirilgan bo‘lishi zarur. Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun panduslar, maxsus jihozlangan parta va stullar, ko‘rish yoki eshitishida muammo bo‘lgan bolalar uchun texnik vositalar mavjud bo‘lishi kerak. Bunday sharoitlarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur muhit shakllanadi va har bir o‘quvchining to‘laqonli ishtiroki ta’minlanadi.

Xulosa va takliflar. Inklyuziv ta’lim sharoitida kreativ kompetentlikni rivojlantirish — zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridan biridir. Har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini e’tiborga olgan holda tashkil etilgan didaktik tizim, ularning ijodiy salohiyatini to‘liq ochib berishga xizmat qiladi. Bunday tizim o‘zida maqsadga yo‘naltirilgan, moslashtirilgan o‘quv materiallari, interfaol va kreativ metodlar, multimodal vositalar va reflektiv baholash tizimini mujassamlashtiradi.

Takliflar:

-O‘qituvchilarni inklyuziv va kreativ pedagogikaga oid malaka oshirish dasturlariga jalb etish.

-Har bir o‘quvchining individual rivojlanish xaritasini ishlab chiqish va darslarni shu asosda tashkil etish.

-Innovatsion va moslashtirilgan o‘quv materiallari bankini yaratish.

-Tashkiliy-pedagogik sharoitlarni doimiy takomillashtirib borish, maktab infratuzilmasini inklyuziv ta’lim talablariga moslashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xolmatova, G. (2022). *Inklyuziv ta’lim asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Jalolov, J. (2021). *Pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Turaev, E., & Qurbonov, D. (2020). *Kreativ kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi*. – Samarqand: Ma’rifat.
4. UNESCO. (2020). *Inclusive Education: The Way of the Future*. – Paris: UNESCO Publishing.
5. Vygotsky, L.S. (2012). *Thought and Language*. – Cambridge: MIT Press.
6. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy*. – New York: Longman.
7. Mavlonova, R. (2018). *Ta’limda innovatsion yondashuvlar*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
8. Mahmudov, N. (2019). *Didaktik tizimlar va ularning o‘quv jarayonidagi roli*. – Andijon: Ilm ziyo.
9. Reggio, E. (2021). *Innovatsion pedagogika va kreativ ta’lim texnologiyalari*. – London: Academic Press.
10. Azizxo‘jaeva, N. (2004). *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU nashriyoti.

P5BL YONDASHUVINING IJTIMOIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISH VA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI

Xakimova Laziza Yusupovna
Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Chet tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqola ijtimoiy-emosional ta’limning kasbiy rivojlanish jarayonida uchraydigan metodik, tashkiliy va amaliy muammolarni bartaraf etishda P5BL yondashuvining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu yondashuv ijtimoiy-emosional ta’limda uning samaradorligini oshiruvchi va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega innovasion yondashuv sifatida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL), kasbiy rivojlanish, Problem-Based Learning (PBL), pedagogik texnologiyalar, emotsional barqarorlik, empatiya, mas’uliyatli qaror qabul qilish, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar, ijodiy fikrlash, hamkorlik.*

Аннотация. *В данной статье научно обосновано значение подхода PBL (Problem-Based Learning) в преодолении методических, организационных и практических проблем, возникающих в процессе профессионального развития в сфере социально-эмоционального образования. Данный подход рассматривается как инновационный, обладающий научно-практической значимостью и повышающий эффективность социально-эмоционального образования.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное образование (SEL), профессиональное развитие, Problem-Based Learning (PBL), педагогические технологии, эмоциональная устойчивость, эмпатия, ответственное принятие решений, социально-эмоциональные компетенции, креативное мышление, сотрудничество.*

Abstract. *This article scientifically substantiates the significance of the Problem-Based Learning (PBL) approach in overcoming methodological, organizational, and practical challenges that arise in the process of professional development within the field of social-emotional education. This approach is considered as an innovative one, possessing scientific and practical relevance, and enhancing the effectiveness of social-emotional education.*

Keywords: *social-emotional learning (SEL), professional development, Problem-Based Learning (PBL), pedagogical technologies, emotional resilience, empathy, responsible decision-making, social-emotional competencies, creative thinking, collaboration.*

Jahonning rivojlangan mamlakatlari safidan munosib o‘rin egallashga intilish yo‘lidagi keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, ularning tajribalarini o‘rganish, shu bilan bir qatorda hayotning barcha sohalarida yangidan-yangi yutuqlarga erishish bugungi kunning dolzarb vazifalari hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy bosqichi uzluksiz ta’lim tizimi oldiga yosh avlodni har jihatdan barkamol etib tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bosqichlaridan biri bo‘lgan - boshlang‘ich ta’lim muhim o‘rin tutadi. Binobarin, mazkur bosqichda o‘quvchilarga ilmiy bilimlarni puxta va chuqur o‘rgatish ularning tafakkurini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois respublikamiz rahbariyati boshlang‘ich ta’lim mazmunini takomillashtirish, uni ilg‘or g‘oyalar bilan boyitish, bu davrda

o‘quvchilarning chuqur bilim olishlariga imkon beruvchi moddiy-texnik bazani mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida bilimlarning o‘qitilish holatini o‘rganish va tahlil etish jarayonda bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bizning nazarimizda muammolarning sabablari quyidagi holatlar bilan izohlanadi:


boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining aksariyati o‘quv jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, ijtimoit-emotsional, texnologik va kompetensiyali yondashuv ko‘nikmalariga, pedagogik texnologiyalar, o‘quvchilarda bilishga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish to‘g‘risidagi metodik majmualarga ega emasliklari;

zaruriy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan o‘quvchilarni tayyorlashga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning to‘liq yaratilmaganligi;

o‘qituvchilar uchun mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha yangi avlod o‘quv-metodik materiallarining, xususan, interfaol o‘quv majmualarining yetarli emasligi;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishga hamda ijodiy faolligini oshirishga yetarli darajada e’tibor qaratilmayotganligidir.

Ijtimoiy-emosional ta’lim (SEL) doirasida kasbiy rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan amaliy muammolarni inobatga olib, ularni samarali hal etish uchun zamonaviy pedagogik atama-P5BL yondashuvi (Problem, Person, Project, Procyess, Product - Based Learning) ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi, P5BL jarayoni o‘quvchi va o‘qituvchining faol hamkorligi, muammoni birgalikda yechishga yo‘naltirilganligi bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu yondashuv o‘qituvchidan faqat nazariy bilimlarni emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlar bilan integratsiyalashi, o‘rganuvchida emosional barqarorlik , empatiya, mas’uliyat bilan qaror qabul qila olishi, hamkorlikda ishlash kompetenciyalarini rivojlantirishni talab etadi. Shu sababli, P5BL -ijtimoiy emosional ta’limning asosiy muammolarini hal qilishda samarali mexanizm deya aytish mumkin.



Problem- Based Learning jarayonining diqqat markazida muammoni hal qilish emas, balki belgilangan yechimlarning mavjudligi va u boshqa ko‘nikmalar, xususiyatlarni rivojlantirishdagi ahamiyatliligi bo‘ladi. U ssenariy doirasida aniqlangan muammolardan bilim va tushunchani oshirish uchun foydalanadigan jarayondir. Yondashuv nafaqat yangi bilim,

ko‘nikma va malakalar(BKM)ni shakllantirishga, balki ularni metabilimlar bilan birlashtirishga yordam beradi.

Project-Based Learning, ya’ni loyihaga asoslangan o‘qitish eng muhim ta’lim modellaridan biri bo‘lib, jarayon ishtirokchisining Bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi, kichik doiralardan tortib, tashkilotlar darajasidagi hamkorlik va hamjamiyat hissini yaratadi. Shuningdek, ta’lim oluvchi maqsadlarni belgilashni o‘rganish; mustaqillik va intizom, muzokaralar olib borish hamda kuzatish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish; chuqurroq bilim olishni davom ettirish, yangi g‘oyalarni rivojlantirish va ko‘p tarmoqli aloqalarni mustahkamlash; epchillik va pedagogik mahorat kabi zaruriy sifatlarga ega bo‘ladi.

People (person)-Based Learning, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish. P5BL jamoaviy ish natijasida maqsadga erishilishi ko‘zlangan yondashuvdir. Markazda shaxs va uning individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhim bo‘lgan ushbu texnologiyada o‘z qobiliyatini boshqarish, fanni takomillashtirishda ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, o‘zgarishlarni his qilish, kasblararo ko‘maklashuv, jamoaviy ishda hamkorlik, bilimlar almashinuvi, xizmat ko‘rsatishni o‘rganish kabilar nazarda tutiladi

Process-Based Learning, ya’ni jarayonga asoslangan o‘qitish yoki ta’lim. Tadqiqotchilar o‘quv faoliyati davomida ushbu yondashuvni qo‘llash belgilangan maqsad hamda vazifalarni bajarishda, muammo yechimiga borishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning uzluksizligini ta’minlovchi strategiya ekanligini ta’kidlashadi. Shu bilan birga ilmiy jarayon ko‘nikmalarini qo‘llash va o‘lchash, fanni soddalashtirish orqali egallashni, mazmunlilikni oshiradi, doimiy mas’uliyatni his qilish, kuzatish, tasniflash, tahlil qilish, bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi

Product-Based Learning, ya’ni natija(mahsulot)ga asoslangan o‘qitish. Qo‘shimcha bilimlarni shakllantirishga qaratilgan bunday yondashuvda muammoning aniqligi va jamoaning hamkorlikdagi harakati muhim rol o‘ynaydi. Ganefrining ta’kidlashicha, natija(mahsulot)ga asoslangan ta’lim – bu o‘quvchini o‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayoniga faol jalb etish uchun muayyan qiymatdagi mahsulot ishlab chiqarish kompetensiyasiga yo‘naltirish natijasida amalga oshiriladigan tartib yoki qadamlar sifatida aniqlanadi. Demak, yondashuvda yechilayotgan muammo doirasida jamoaviy ishni tashkil etish nimani kashf qilishi mumkinligi, yetib boradigan manzil yoki egallangan kompetentlik uning mahsuloti sifatida anglashiladi.

Ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, P5BL ta’lim oluvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mas’uliyatni oshirish , hamkorlikda ishlashni takomillashtirish va ijtimoiy-emosional ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Shu jihatdan , IYeKni kasbiy rivojlanishga integratsiya qilishda P5BL yondashuvi muhim ahamiyatga ega, ya’ni ta’lim samaradorligini oshiradi, oquvchi va o‘qituvchining ijtimoit-emosional tayyorgarligini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.Aksela, M. &Haatainen, O.(2019). Project-Based Learning (PBL) in practice: Ac teachers’ views of its' advantages and challenges. https://www.researchgate.net/publication/333868087.
2. Петунин О.В. Профессиональный стандарт и повышение квалификации педагогов // Вестник Костромского государственного университета имени Н.А.Некрасова. Серия: Педагогика. Психология. Социальная работа. Ювенология. – 2015. – Т. 21. – № 3. – С. 113-116.

3. 3.Samuel, K.; Libata, I. &Sabitu, A. (2018). Efficacy of Process-Based Instruction, In Enhancing Secondary School Students’ Academic Performance and Science Skills Acquisition, In Identification of Cations, In Faskari, Katsina State-Nigeria. Issues and Ideas in Education, 6(1), 87–97.
4. Ибрагимов, А. А. (2022). Ўқитувчиларнинг касбий билимларини ривожлантиришда муаммога асосланган ўқитиш ёндашувининг имкониятлари: Ибрагимов Аъламжон Амриллоевич, Самарқанд вилояти халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази доценти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (2), 120-125.

SEL METODIKALARI VOSITASIDA O‘SMIRLARDA MAS’ULIYATLI QAROR QABUL QILISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Xakimova Barno Muratovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy Institutining 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) metodikalaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Qaror qabul qilish kompetensiyasi shaxsning hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri tanlov qilish, oqibatlarni oldindan baholash, axloqiy va huquqiy normalarga asoslangan holda xulq-atvorni boshqarish qobiliyatini anglatadi. Tadqiqotda SEL metodikalarining o‘z-o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi besh asosiy komponenti asosida o‘quvchilar faoliyatiga ta’siri o‘rganiladi. Maqolada xalqaro tajribalar (CASEL, UNESCO MGIEP, RULER dasturi) va O‘zbekiston ta’lim tizimi sharoitida olib borilgan tajribalar tahlil qilingan. Natijalar SEL metodikalari orqali o‘smirlarning nafaqat bilim darajasi, balki ijtimoiy-huquqiy ong va mas’uliyat hissi ham sezilarli darajada rivojlanishini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional ta’lim, mas’uliyatli qaror qabul qilish, o‘smir yosh, kompetensiya, SEL metodikasi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития компетенций ответственного принятия решений у подростков с использованием методик социально-эмоционального обучения (SEL). Компетенция ответственного принятия решений определяется как способность личности принимать правильные решения в жизненных ситуациях, прогнозировать последствия и регулировать поведение на основе моральных и правовых норм. В исследовании анализируется влияние пяти ключевых компонентов SEL — самосознания, самоуправления, социального сознания, построения взаимоотношений и ответственного принятия решений — на формирование у подростков данных навыков. Статья включает сравнительный анализ международного опыта (CASEL, UNESCO MGIEP, программа RULER) и практики в образовательной системе Узбекистана. Результаты показывают, что методики SEL способствуют не только росту образовательного уровня учащихся, но и развитию их социальной ответственности и правового сознания.*

Ключевые слова: *социально-эмоциональное обучение, ответственное принятие решений, подростки, компетенции, методики SEL.*

Abstract. *This article explores the theoretical and practical aspects of developing responsible decision-making competencies in adolescents through Social and Emotional Learning (SEL) methodologies. Responsible decision-making competence refers to the ability to make appropriate choices in life situations, anticipate consequences, and regulate behavior based on moral and legal norms. The study analyzes the impact of the five core SEL components — self-awareness, self-management, social awareness, relationship skills, and responsible decision-making — on adolescents’ learning processes. It also compares international experiences (CASEL, UNESCO MGIEP, RULER program) with practices implemented in the*

educational system of Uzbekistan. The findings demonstrate that SEL methodologies contribute not only to the academic growth of adolescents but also to the development of their sense of responsibility and legal culture.

Keywords: *social-emotional learning, responsible decision-making, adolescence, competency, SEL methodologies.*

XXI asr ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – yosh avlodning nafaqat bilim olishiga, balki hayotiy ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirishiga erishishdir. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, hamda yangi avlodning ehtiyojlari ta’limning an’anaviy maqsad va vazifalarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi, ularning hissiy barqarorligi va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘smirlik davri – shaxsning shakllanishida burilish davri hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlarda bu bosqich “o‘tish davri” deb ataladi, chunki aynan shu davrda inson o‘zining ijtimoiy o‘rnini anglay boshlaydi, mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladi, lekin shu bilan birga emotsional jihatdan beqaror bo‘ladi. O‘smirlarning noto‘g‘ri qarorlari kelgusida salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: huquqbuzarlik, nizolar, salbiy odatlarga berilish, maktabni tashlab ketish va h.k. Shu sababli, ularning qaror qabul qilish kompetensiyasini erta rivojlantirish dolzarb masala sifatida maydonga chiqadi.

Ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda **SEL (Social and Emotional Learning – ijtimoiy-emotsional ta’lim)** metodikalari keng qo‘llanilmoqda. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) modeli asosida ishlab chiqilgan SEL yondashuvi o‘z ichiga beshta asosiy kompetensiyani oladi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va mas’uliyatli qaror qabul qilish. Shu jihatdan qaraganda, SEL metodikalari o‘smirlarning mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Qaror qabul qilish – bu insonning muayyan vaziyatda mavjud alternativalarni tahlil qilib, eng maqbulini tanlash jarayonidir. Pedagogika va psixologiya fanlarida “mas’uliyatli qaror qabul qilish” tushunchasi ko‘proq shaxsning ijtimoiy, axloqiy va huquqiy qadriyatlar asosida tanlov qilish qobiliyati sifatida izohlanadi. A. Bandura, J. Piaget, L.S. Vygotskiy kabi olimlarning izlanishlari shuni ko‘rsatadiki, qaror qabul qilish jarayoni nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Mas’uliyatli qaror qabul qilish quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1. **Muammoni aniqlash va tahlil qilish** – vaziyat mohiyatini tushunish;
2. **Alternativ variantlarni ko‘rib chiqish** – har xil imkoniyatlarni baholash;
3. **Oqibatlarni oldindan ko‘ra olish** – qarorning ijobiy va salbiy natijalarini oldindan bilish;
4. **Axloqiy va huquqiy normalarga asoslanish** – jamiyat qadriyatlari va qoidalarini hisobga olish;
5. **Tanlov uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olish** – qarorning oqibatini o‘z zimmasiga olish.

O‘smirlik davrida shaxs ushbu bosqichlarni to‘liq anglab yetish jarayonida bo‘ladi. Shuning uchun ham pedagogik faoliyatda o‘quvchilarning mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan maxsus metodikalar zarurdir.

Social and Emotional Learning (SEL) – bu o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta’limiy yondashuvdir. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan model SELning beshta asosiy kompetensiyasini belgilab beradi:

1. **O‘zini anglash (Self-awareness)** – o‘z hissiyotlari, kuchli va zaif tomonlarini bilish;
2. **O‘zini boshqarish (Self-management)** – hissiyot va xulqni boshqarish, maqsadlarga intilish;
3. **Ijtimoiy ong (Social awareness)** – empatiya, jamiyat qadriyatlarini tushunish;
4. **Munosabatlarni shakllantirish (Relationship skills)** – sog‘lom munosabatlar qurish, hamkorlik;
5. **Mas’uliyatli qaror qabul qilish (Responsible decision-making)** – ijtimoiy, axloqiy va huquqiy normalarga asoslangan qaror qabul qilish.

CASEL tadqiqotlariga ko‘ra (Payton et al., 2008; Durlak et al., 2011), SEL metodikalarini o‘quv jarayoniga qo‘shish o‘quvchilarda nafaqat o‘z-o‘zini anglash va boshqarishni, balki akademik natijalarni ham sezilarli darajada yaxshilaydi.

Mas’uliyatli qaror qabul qilish SELning besh asosiy kompetensiyasidan biri sifatida qaraladi. Boshqa kompetensiyalar esa ushbu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

- **O‘zini anglash** – shaxs o‘z hissiyotlari va qadriyatlarini bilmas ekan, to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi;
- **O‘zini boshqarish** – impulsiv xatti-harakatlarni nazorat qilish qaror qabul qilish sifatini oshiradi;
- **Ijtimoiy ong** – boshqalarning manfaatlarini hisobga olish mas’uliyat hissini kuchaytiradi;
- **Munosabatlarni shakllantirish** – hamkorlik va maslahat olish imkoniyati orqali qaror qabul qilish yaxshilanadi.

Demak, mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish SEL metodikalarining barcha komponentlari bilan integratsiyada amalga oshiriladi.

Psixologiyada qaror qabul qilish jarayonini tushuntiruvchi bir nechta yondashuvlar mavjud:

- **Ratsional model** – barcha alternativlarni tahlil qilish va eng maqbulini tanlash (H. Simon);
- **Cheklangan ratsionallik modeli** – inson qaror qabul qilishda to‘liq ma’lumotga ega emas (Simon, 1957);
- **Ijtimoiy-kognitiv nazariya** (Bandura) – qarorlar ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi;
- **Axloqiy rivojlanish nazariyasi** (Kohlberg) – qaror qabul qilish jarayoni shaxsning axloqiy rivojlanish bosqichlariga bog‘liq.

O‘smirlar uchun SEL metodikalari ushbu yondashuvlarning integratsiyasiga asoslanadi: ya’ni qaror qabul qilishni nafaqat kognitiv, balki emotsional va ijtimoiy jihatdan ham rivojlantiradi.

UNESCO MGIEP (Mahatma Gandhi Institute of Education for Peace and Sustainable Development) tomonidan ishlab chiqilgan **EMC² (Empathy, Mindfulness, Compassion, Critical Inquiry)** modeli SELning xalqaro miqyosdagi ilg‘or tajribalaridan biridir. Bu model o‘quvchilarda:

- empatiya,
- ongli xulq,
- rahm-shafqat,
- tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

Mazkur komponentlar mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Chunki emotsional va tanqidiy fikrlashning uyg‘unligi o‘smirlarni hayotiy vaziyatlarda oqilona tanlov qilishga undaydi.

O‘zbekiston pedagogikasida ham qaror qabul qilish kompetensiyasi shaxs tarbiyasining muhim qismi sifatida ko‘riladi. “Milliy o‘quv dasturi”da o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish, mas’uliyat hissini kuchaytirish va tanqidiy fikrlashni shakllantirish alohida vazifa sifatida belgilangan. Biroq, amaliyotda SEL metodikalarining to‘liq joriy qilinishi hali boshlang‘ich bosqichdadir. Shu bois, xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki:

- Mas’uliyatli qaror qabul qilish shaxsning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq;
- SEL metodikalari ushbu kompetensiyani shakllantirish uchun samarali nazariy modelga ega;
- Xalqaro tajribalarda SELning turli shakllari qo‘llanilib, ijobiy natijalar berayotgani isbotlangan;
- O‘zbekiston ta’lim tizimida SEL metodikalari asosida o‘quvchilarda qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan bo‘lsa-da, amaliyotda kengroq qo‘llashni talab etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida insonparvarlik tamoyillari asosida yangi yondashuvlar keng joriy qilinmoqda. 2020-yildan boshlab Prezident qarorlarida ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash masalalari davlat siyosati darajasida ilgari surildi. Jumladan, PQ-232-son qarorida maktab ta’limida tarbiyaviy jarayonlarni modernizatsiya qilish, “Oila–mahalla–maktab” uchligi doirasida o‘quvchilar bilan ishlashning yangi mexanizmlarini joriy etish vazifalari belgilandi.

Mazkur islohotlarda o‘smirlarning mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Chunki mamlakatimizda ijtimoiy-huquqiy ongni mustahkamlash, yoshlarni huquqbuzarlikdan himoya qilish, radikal g‘oyalardan asrash va ularning kelajak hayotida oqilona tanlov qilish qobiliyatini oshirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

O‘zbekiston maktablarida SEL elementlari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Jumladan:

- **“Kelajak soatlari”** dasturi doirasida o‘quvchilarning huquqiy savodxonligi, o‘zini anglash, emotsiyalarini boshqarish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilmoqda;
- **Tarbiya fani** bo‘yicha ishlab chiqilgan yangi dasturlarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy muammolarni hal qilish, jamiyatda mas’uliyatli shaxs bo‘lib shakllanishga doir mavzular kiritilgan;
- **Milliy o‘quv dasturi** (2022)da o‘quvchilarning faqat bilim emas, balki “kompetensiyalar tizimi”ni egallashi belgilangan. Bu tizimda “mas’uliyatli qaror qabul qilish” alohida kompetensiya sifatida qayd etilgan.

Toshkent, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida ayrim maktablarda pilot loyiha sifatida SEL elementlari sinovdan o‘tkazilmoqda. Masalan, ayrim maktablarda “emotsiyalar kundaligi” joriy qilinib, o‘quvchilar har kuni o‘z his-tuyg‘ularini qayd etadi va o‘qituvchi ularni nazorat qilib, suhbatlar o‘tkazadi. Bu jarayon o‘smirlarning o‘zini anglash va boshqarish qobiliyatini oshiradi hamda qaror qabul qilishda muvozanatni ta’minlaydi.

SEL metodikalarini samarali qo‘llash, avvalo, o‘qituvchilarning pedagogik va huquqiy savodxonligiga bog‘liq. Shu bois, 2023-yildan boshlab o‘qituvchilar uchun qisqa muddatli treninglar tashkil etilmoqda. Bu treninglarda quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratiladi:

1. O‘quvchilarda ijtimoiy ong va empatiyani rivojlantirish;
2. Qaror qabul qilish jarayonida o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq berish;
3. Sinfda emotsional muhitni boshqarish;
4. Konfliktlarni konstruktiv hal qilish metodlari.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar SEL metodikalaridan foydalanganda o‘quvchilarning intizomi yaxshilanadi, nizolar kamayadi va o‘zaro hurmat kuchayadi.

O‘zbekiston sharoitida oila va mahalla yoshlarning ijtimoiylashuvida beqiyos rol o‘ynaydi. Shu sababli o‘quvchilarda mas’uliyatli qaror qabul qilishni rivojlantirish jarayonida “maktab–oila–mahalla” hamkorligini mustahkamlash muhimdir.

- **Ota-onalar universiteti** loyihasi orqali ota-onalarga SEL metodikalari haqida ma’lumot berilmoqda. Bu esa ota-onalarning farzandlari bilan muloqotini samarali qilishga yordam beradi.
- Mahallalarda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha tashkil etilayotgan “psixologik treninglar” ham o‘smirlarning ijtimoiy kompetensiyalarini oshirishda qo‘llanilmoqda.
- Ayrim hududlarda o‘quvchilar uchun “qaror qabul qilish laboratoriyalari” tashkil etilgan bo‘lib, unda ular turli hayotiy vaziyatlar asosida qaror qabul qilishni o‘rganadilar.

SEL metodikalarini joriy etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud:

- O‘qituvchilarning hammasi ham SEL bo‘yicha yetarli bilimga ega emas;
- O‘quv dasturlarida SEL elementlari to‘liq integratsiya qilinmagan;
- Ba’zi ota-onalar SEL metodikalarini “vaqtni isrof qilish” deb hisoblaydi va an’anaviy ta’limni afzal ko‘radi;
- Resurslar va metodik qo‘llanmalar yetarli emas.

Pilot maktablar tajribasiga ko‘ra:

- SEL mashg‘ulotlari o‘tkazilgan sinflarda o‘quvchilarning qaror qabul qilishda ijtimoiy mas’uliyati oshgan;
- Konfliktli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari mustahkamlangan;
- O‘quvchilarning huquqbuzarlik va intizomiy muammolari kamaygan;
- Akademik natijalarda ham ijobiy dinamik kuzatilgan.

O‘zbekiston ta’lim tizimida SEL metodikalari amaliyotda hali keng joriy qilinmagan bo‘lsa-da, mavjud pilot tajribalar ijobiy natijalar bermoqda. Bu esa SELni milliy o‘quv dasturlariga chuqur integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, o‘smirlarning mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantirishda SEL metodikalaridan keng foydalanish kelajak avlodning ijtimoiy barqarorligi va huquqiy ongini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonning kelajagi yoshlar qo‘lida. Ularning ijtimoiy-huquqiy ongini yuksaltirish, mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi zarur. Bu borada SEL metodikalari ta’lim tizimining ajralmas qismi sifatida qaralishi lozim. Agar SEL metodikalari milliy qadriyatlar, mahalla institutlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, O‘zbekiston yoshlari nafaqat bilimli, balki ijtimoiy mas’uliyatli va ongli qarorlar qabul qila oladigan shaxslar bo‘lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1986). *Social foundations of thought and action: A social cognitive theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
2. Durlak, J. A., Weissberg, R. P., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., & Schellinger, K. B. (2011). The impact of enhancing students’ social and emotional learning: A meta-analysis of school-based universal interventions. *Child Development, 82*(1), 405–432. https://doi.org/10.1111/j.1467-8624.2010.01564.x
3. Kohlberg, L. (1984). *Essays on moral development, Vol. II: The psychology of moral development*. San Francisco: Harper & Row.
4. Payton, J., Weissberg, R. P., Durlak, J. A., Dymnicki, A. B., Taylor, R. D., Schellinger, K. B., & Pachan, M. (2008). *The positive impact of social and emotional learning for kindergarten to eighth-grade students: Findings from three scientific reviews*. Chicago, IL: Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning.
5. Piaget, J. (1972). *The psychology of the child*. New York: Basic Books.
6. Simon, H. A. (1957). *Models of man: Social and rational*. New York: Wiley.
7. UNESCO MGIEP. (2017). *Rethinking learning: A review of social and emotional learning for the 21st century*. New Delhi: UNESCO MGIEP.
8. UNESCO MGIEP. (2020). *EMC²: A framework for social and emotional learning*. New Delhi: UNESCO MGIEP.
9. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 апрелдаги “Мактаb таълими тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги PQ–232-сон қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги. (2022). *Миллий ўқув дастури*. Тошкент.

UMUMTA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILAR SHAXSIY VA IJTIMOIY TARAQQIYOTIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Xidirova Dildora Zayniddinovna
p.f.f.d. dotsent, Qarshi davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e’tibor berish masalasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, chunki kichik maktab yoshi yoki o‘smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o‘ziga xos ijtimoiy fundament vazifasini o‘taydi. Ushbu “tamoyil” ning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshishini maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.*

Kalit so‘zlar: *jarayon, bolalar, tarbiya, ta’lim, umumta’lim, maktab, psixolog, o‘smirlar, o‘quvchilar.*

Аннотация. *В процессе современной глобализации возрастает необходимость уделять более серьёзное внимание образованию молодёжи и её социальному развитию во всех странах мира, поскольку младший школьный возраст, или подростковый период, служит своего рода социальным фундаментом для каждого ребёнка на протяжении всей его жизни. Сила этого «принципа» обеспечивает индивидуальное и интеллектуальное развитие ребёнка. Успешная реализация этого процесса невозможна без практики психологической службы в школе.*

Ключевые слова*: процесс, дети, воспитание, образование, общее образование, школа, психолог, подростки, ученики.*

Annotation. *In the process of today's globalization, the need to pay more serious attention to the education of young people and their social development in all countries of the world is increasing, because the younger school age or adolescence period serves as a kind of social foundation for each child throughout his life. The strength of this "principle" serves to ensure the individual and intellectual development of the child. The successful implementation of this process cannot be achieved without the practice of psychological service in school.*

Key words: *process, children, upbringing, education, general education, school, psychologist, teenagers, pupils.*

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar tarbiyasiga va ularning ijtimoiy taraqqiyotiga jiddiyroq e’tibor berish masalasiga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda, chunki kichik maktab yoshi yoki o‘smirlik davri har bir bolaning butun umri davomidagi o‘ziga xos ijtimoiy fundament vazifasini o‘taydi. Ushbu “tamoyil” ning qanchalik mustahkamligi bolaning individual va intellektual taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli tarzda amalga oshishini maktabdagi psixologik xizmat amaliyotisiz amalga oshirib bo‘lmaydi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, maktabga psixologik xizmat amaliyoti turli davlatlarda turlicha shaklda tashkil etilganligi bilan xarakterlidir. Chunonchi, har bir davlat o‘zining

imkoniyatlaridan kelib chiqib psixologik xizmat amaliyoti mexanizmini yo‘lga qo‘yganligini ko‘ramiz. Shunday bo‘lsa-da, mazmunan ushbu jarayonga yondashuv mezoni bir xil ekanligini kuzatish mumkin. U ham bo‘lsa o‘quvchilar bilan tizimli tarzda olib boriladigan psixoprofilaktik, psixodiagnostik, psixokorreksion va psixokonsultativ ishlar ko‘lamining mavjudligidir. Maktabda tahsil olayotgan har bir o‘quvchi yoki o‘quvchilar jamoasi bilan olib boriladigan ushbu yo‘nalishlarning barcha, avvalo, o‘quvchi shaxsi tarbiyasiga hamda taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir [2].

Umumta’lim maktablarida o‘qituvchilar va psixologlar tomonidan psixologik xizmatning zarurligi har bir o‘quvchining o‘ziga xos “betakror olam”ga adekvat bo‘lgan tarbiya usullarini qo‘llay bilish, har qanday vaziyatda o‘quvchi va o‘qituvchi munosabatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olish, o‘quvchini maktab ta’limiga qabul qilishda va uni kasbga yo‘nalganligini belgilashda to‘g‘ri yo‘l tuta bilishda yanada yaqqolroq ko‘rinadi. Chunki guruh rahbari yoki fan o‘qituvchisi o‘quvchining psixologik tabiati va imkoniyati haqida to‘laqonli bilimga ega emasligi tabiiy. Bu ishni esa mukammal psixologik bilim va malakalarga ega bo‘lgan professional mutaxassislar amalga oshirishi mumkin. Qolaversa, shaxs taqdiri bilan hazillashib bo‘lmaydi. Birgina aytilgan noo‘rin so‘z yoki noto‘g‘ri harakat o‘quvchining butun hayotini, xulq-atvorini yoxud hayotga, odamlarga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin [3].

Psixolog umumta’lim maktabida xizmat ko‘rsatar ekan, avvalo undan har bir yosh davriga xos bo‘lgan psixologik qonuniyatlarni to‘g‘ri baholay olishi va shu qonuniyatlarga tayangan holda o‘quvchi faoliyatini boshqarishi talab qilinadi. Har qanday psixologik xizmat u yoki bu o‘quvchidagi psixologik zaxiralarni o‘rganib, uni ta’lim va tarbiya samaradorligini ta’minlashga yo‘naltira olishi shart. Shuningdek, psixologik xizmat bolalardagi iqtidor kurtaklarini oldindan anglab, uni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatib bera olishi kerak bo‘ladi. Qolaversa, har bir bolaning taqdiri to‘g‘ri tarbiyasi va o‘ziga xos psixologik taraqqiyoti uchun barcha ta’lim muassasasi rahbarlari qatori, eng avvalo, maktab psixologiga ham alohida mas’uliyat yuklatilganligini esdan chiqarmaslik kerak bo‘ladi [1].

Demak, maktab psixologi har bir yosh davri va uning o‘ziga xos psixologik imkoniyatlari, qiyinchiliklari, muammolari va istiqbollari haqida ham to‘g‘ri fikrlay olishi zarur.

Psixologik maslahatning vazifalari: maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlariga bolalarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, rivojlanishdagi buzilishlar hamda kechikishlar, ularni korreksiyalash, shuningdek, bolalarni boshlang‘ich sinfda o‘qishga va maktabga moslashuvga psixologik tayyorlash masalalari bo‘yicha maslahatlar berish; bolalarning boshlang‘ich sinflardan o‘rta sinflarga o‘tishi, shuningdek, maktabni bitirish va bo‘lg‘usi kasb-hunar hamda ta’lim muassasasi (akademik litsey, kasb-hunar kolleji)ni tanlash masalalarida o‘quvchilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarga maslahatlar berish; maktab-internatlar, mehribonlik uylari, shuningdek, yetim bolalar ta’lim olayotgan umumta’lim muassasalari xodimlariga ta’lim-tarbiya, bolalarning ijtimoiylashuvi va moslashuvini psixologik kuzatish masalalari bo‘yicha maslahatlar berish; o‘smirlar va yoshlarga kattalar va tengdoshlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlar, oilaviy muammolar, xulq-atvordagi og‘ishlarni bartaraf etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirish, shuningdek, hayotiy va kasbiy o‘zligini anglash masalalarida maslahatlar berish; maktabgacha ta’lim, umumta’lim muassasalari, mehribonlik uylari rahbarlariga pedagogik jamoani boshqarishni optimallashtirish, qo‘l ostidagi xodimlar bilan shaxslararo munosabatlar, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolarni hal etish hamda sog‘lom psixologik muhitni ta’minlash masalalarida maslahatlar berish; maslahat berish jarayonida o‘quvchilar va tarbiyalanuvchilarda mustaqil ta’lim olish, o‘z- o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini korreksiyalashga ijobiy munosabatlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda qo‘llash

bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish; kasb-hunarga yo‘naltirish – o‘quvchilarning individual qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari, jamiyat va mehnat bozorining muayyan kasb va mutaxassisliklarga bo‘lgan ehtiyojlarini inobatga olgan holda ularni kasbiy o‘zligini anglashlari uchun yordam berishga qaratilgan psixologik-pedagogik hamda tibbiy chora- tadbirlar majmui.

Kasb-hunarga yo‘naltirishning maqsadi – o‘quvchilar va maktab bitiruvchilarini muayyan kasbni hamda akademik litsey yoki kasb-hunar kollejidagi ta’lim yo‘nalishlarini ongli va mustaqil tanlashga tayyorlash. Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari: Kasbiy ma’rifat-o‘quvchilarga turli kasblar, ixtisosliklar, mansab lavozimlari, tanlangan kasbni, ixtisoslikni egallash mumkin bo‘lgan ta’lim turlari hamda ta’lim muassasalari, shuningdek, kasbning insonga, uning jismoniy, psixologik va shaxsiy sifatlariga, salomatligiga qo‘yadigan talablari haqida ma’lumotlar berish; kasbiy maslahat – o‘quvchilarga ularning individual xususiyatlari va mehnat bozori talablariga, ta’lim olish hamda kelgusida ishga joylashish imkoniyatlariga muvofiq kasb va ta’lim muassasasini tanlashga yordam berish; kasbiy tashxis o‘quvchilarning bilish (o‘quv predmetlariga, fanga) va kasbiy (kasblarga, mutaxassisliklarga) qiziqishlarini, kasb tanlash motivlari va kasbiy rejalarini aniqlash hamda baholash; kasbiy tarbiya bolalar va o‘smirlarda mehnat malaka va ko‘nikmalarini, kasblarga qiziqish, mehnatsevarlik, ishchanlik hamda ma’suliyatni shakllantirish va rivojlantirish.

Psixologning vazifalari:

-bolalarning shaxsiy va ijtimoiy, intellektual rivojlanishi, psixologik salomatligini saqlash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish va ta’minlashga yo‘naltirilgan kasbiy faoliyatni amalga oshirish;

-o‘quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi sabablarni aniqlash va ularga psixologik yordam (psixokorreksiya, psixoprofilaktika, reabilitatsiya va tavsiyalar) ko‘rsatish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

-turli yoshdagi bolalarning xarakter xususiyatlari va shaxs sifatlarini inobatga olgan holda ularning qobiliyat, layoqat, bilish va kasbiy qiziqishlarini o‘rganish, korreksiya qilish va rivojlantirish;

-6-7 yoshdagi bolalarni psixologik tekshiruvdan o‘tkazish va ularning boshlang‘ich sinfda ta’lim tayyorgarlik darajasini aniqlashda qatnashish;

-o‘quvchilarni tashxis qilish va natijalarni ta’lim olish davomida (1-sinfdan 9-sinfgacha) "Psixologik-pedagogik tashxis daftari" da qayd etib borish;

-o‘quvchilarning (tarbiyalanuvchilarning) individual, jinsiy va yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda korreksion-rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ularda ijobiy ijtimoiy ustanovkalarni, ta’lim olish, hayotiy va kasbiy o‘zligini anglashga tayyorgarlik motivatsiyalarini shakllantirish;

-iqtidorli bolalar va o‘smirlarning ijodiy rivojlanishi uchun psixologik qo‘llab-quvvatlanishini tashkil etish va amalga oshirish;

-ijtimoiy va huquqiy xavf omillarining ta’sirini aniqlash, ularning bolalar va o‘smirlarga ta’sirini kamaytirish uchun psixologik tashxis tadbirlaridan foydalanish, ijtimoiy muhitda ularning xulq-atvori va muloqotini psixologik-pedagogik korreksiyalash;

-bolalarning ma’naviy-ma’rifiy, intellektual va jismoniy tarbiyasiga ko‘maklashish, o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar), pedagog xodimlar, ota-onalar yoki qonuniy vakillarning psixologik madaniyatini shakllantirish; bolalar tarbiyasi, ta’limi va rivojlanishi, shuningdek, ota-onalar va bolalar munosabatlaridagi muammolar bo‘yicha ota-onalar yoki qonuniy vakillarga psixologik maslahatlar berish;

-bolalar bilan ishlashda samarali natijalarga erishish va o‘zining kasbiy mahoratini oshirish maqsadida mutaxassis psixologlarning ilg‘or tajribalarini va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish;

-psixologik xizmat, shuningdek, pedagogika jamoasining bolalar tarbiyasi va rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlari bo‘yicha ma’muriyatning buyruq va farmoyishlarini bajarish;

-o‘z faoliyatiga doir hujjatlar va hisobotlarni o‘rnatilgan shakllarda yuritish, ta’lim muassasasida tarbiyaviy tadbirlarning ishlab chiqilishi, rejalashtirilishi va o‘tkazilishida, shuningdek, maktab, oila, mahalla hamkorligi amalga oshirilishida ishtirok etish;

-umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar soni ko‘pligini inobatga olgan holda, psixologik xizmatni amalga oshirishda sinf rahbarlari ham ishtirok etishlari mumkin. Buning uchun maktab psixologi sinf rahbarlari bilan avvaldan tayyorgarlik ishlarini o‘tkazishi kerak [3].

Psixologlarning asosiy funksiyalari:

-har bir yosh bosqichida (bolalik, o‘smirlik, yoshlik) shaxsning barkamol shakllanishi va rivojlanishiga ko‘maklashuvchi psixologik-pedagogik shart- sharoitlarni yaratish;

-o‘quvchilarning intellektual, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi buzilishlar, shuningdek, ularning xulq- atvori hamda muomalasidagi og‘ishlarni aniqlash;

-o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar), ularning ota-onalari yoki qonuniy vakillari, pedagoglar o‘rtasida psixologik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish maqsadida psixologik ma’rifat ishlarini olib borish;

-o‘quvchilarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va shaxsiy sifatlari, shuningdek, kasb hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarida keyingi ta’lim yo‘nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kollejini) tanlash motivlarini aniqlash bo‘yicha tashxis tadbirlari (suhbatlar, anketa so‘rovlari, testlar) ni tashkil etish va o‘tkazish;

-iqtidorli bolalar va o‘smirlarni aniqlash, ularning bilimga qiziqishlari, moyilliklari va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quv hamda ijodiy faoliyatga undash uchun zaruriy psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishda ishtirok etish;

-o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) ning darslarni o‘zlashtirmasligi, atrofdagilar bilan ziddiyatli munosabatlarda bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy muammolarini aniqlash, ularni ota-onalar yoki qonuniy vakillar, ta’lim muassasalari pedagoglari, mehribonlik uylari tarbiyachilari bilan birgalikda hal etish;

-tarbiyasi og‘ir, pedagogik qarovsiz bolalar va o‘smirlarni psixologik tekshirish, ularning xulqidagi og‘ishlarni va ijtimoiy muhitga moslasha olmaslik holatini korreksiyalash, o‘qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar yoki qonuniy vakillar uchun ularni qayta tarbiyalash hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

-tarbiyasi og‘ir o‘smirlar (huquqbuzarlar) ga psixologik tavsifnomalar tayyorlash, ularni voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalarga taqdim etish, komissiya qarorlarini ishlab chiqishga ko‘maklashish;

-psixologik yordamga muhtoj o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) ning turli toifalari bilan korreksion-rivojlantiruvchi, profilaktik va maslahat tadbirlarni o‘tkazish;

-“Ishonch” qutisi ishini tashkil etish, o‘quvchilar jamoasi va pedagogik jamoada sog‘lom psixologik iqlimni yaratish hamda saqlab qolish;

-o‘z faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha hujjatlarni (rejalar, dasturlar, hisobotlar, ma’lumotnomalar, xulosalar va hokazo) yuritib borish [3].

Psixologlar o‘z vazifalarini maktabgacha ta’lim, umumta’lim muassasalari, mehribonlik uylari pedagogik faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda bajaradilar,

tarbiyalanuvchilar, o‘quvchilar, ularning oilalari haqidagi ma’lumotlarning sir saqlanishini ta’minlaydilar, asoslanganligi va o‘z faoliyati natijalari uchun shaxsan javobgardirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition.–Worth Publishers, 2010.– 10 p.
2. Steve Taylor “Destination” Vocabulary and grammar”, Macmillan 2010.
3. D.G.Muxamedova. // Ta’limda psixologik xizmat muammolari// 2024. - 27-38 bet.
4. Dildora KHIDIROVA. Жамият ва инновациялар // Бўлажак ўқитувчиларнинг лойиҳалаш компетентлик сифатларини ривожлантиришда интеграцион ёндашув. Issue – 6 № 2 (2025) / ISSN 2181-1415. 55-56 bet.
5. Xidirova D.Z. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ// NNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINI LOYIHALASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMI. 2-сан 2025 140-146 bet.
6. Xidirova Dildora Zayniddinovna. NSON KAPITALI VA MEHNATNI MUHOFAZA QILISH// KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI O‘QUVCHILARINI TAYYORLASHDA TA’LIM JARAYONINI LOYIHALASH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH. №2 (5), 2025. 412-417 bet.
1. 7.Dildora KHIDIROVA. Жамият ва инновациялар // Oliy ta’lim muassasalari talabalarining loyihalash kompetentligini rivojlantirish. Special Issue – 07 (2025) / ISSN 2181-1415. 6-11bet.
7. Д.З. Хидирова. Олий касбий таълимда педагогик Технологияларини лойиҳалаш – ўқув масадига эришиш омили сифатида // KASB-HUNAR TA’LIMI 2 (0109), 2022. 149.
8. O Rakhimov, D Khidirova, Y Manzarov, D Yavkochdieva. Results of the study of rotary feed pump with separator and screw feeder BIO Web of Conferences 95, 01023. (2024).
9. Д.З. Хидирова. ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ – ФАКТОР РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАНИЯ. Проблемы науки 53 (5), 2020. 59-С.
10. Хидирова Дилдора Зайниддиновна. ПЕДАГОГИК ЖАРАЁННИ ЛОЙИҲАЛАШ ТИРИШ ТАЪЛИМ ИННОВАЦИЯСИ СИФАТИДА // ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ. – 2021. - №5 (102).
11. D.Z. XIDIROVA. MAKTAB VA HAYOT // Bo‘lajak o‘qituvchilarnihg ta’lim jarayonini loyihalash madaniyatini shakllantirishga doir kompetensiyalarini rivojlantirish. 37. № 5 (169) // 2022.
12. XIDIROVA DILDORA ZAYNIDDINOVNA. THE NEED FOR THE USE OF DISTANCE LEARNING AND E-LEARNING LITERATURE IN THE DEVELOPMENT OF STUDENT CREATIVITY // «ГЛОБАЛЬНАЯ НАУКА И ИННОВАЦИЯ 2021: ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ» № 3(14). ОКТЯБРЬ 2021. 49-С.
13. Xidirova.D.Z. Pedagogik jarayonni loyihalashning zarur ahamiyati. // PEDAGOGIKA. 2/2022. 50-B.

OILADA OTA-ONANING FARZAND OLDIDAGI BURCHLARI

Xolikov Ishkabil[1], Akayeva Nodira[2]
[1]O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori, tarix fanlari doktori, Ekologiya, Tabiat, Inson xavfsizligi Xalqaro Akademiyasining akademigi
[2]pedagogika fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti kafedra mudiri

“Ota-ona muqaddasdir va bebahodir”.
Maqol

Annotasiya. *Maqolada ota-onaning farzand oldidagi burchlari haqida fikr bildirilgan.*
Kalit so‘zlar: *ta'lim, taraqqiyt, jamiyat, tarix, ma'rifat, ota, ona, farzand, mehr, hurmat, ilm, murosa, shijoat.*

Bugun yoshsiz erta-indin ulg‘ayib biringiz ona, biringiz ota bo‘lasiz, farzandlar.

Demak, tarbiyasi sizning zimmangizda. Farzand tarbiyasining maqsadi ota-ona tomonidan oila va jamiyat uchun yuksak madaniyatli, barkamol insonni voyaga etkazishdir. Ha azizim bu masala ham abadiy muammodir.

Biz bilamizki bola dunyoga kelishi bilan uning odobi, kelajak hayoti haqida qayg‘ura boshlaymiz. Unga insoniy fazilatlarni singdirishga harakat qilamiz.

Buyuk Abu Nasr Forobiy bobomiz ta'kidlaganidek: “Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lsin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo‘lsin, xiyonat makr-hiyladan uzoq bo‘lsin”[1].

Jamiyat taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, ta'lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amalga oshiriladi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya va ma'rifat jamiyat barqarorligini asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarnim ezgulikka da'vat etadi, saxovatli, sabr qanoatli bo‘lishga undaydi.

Tarixdan ma'lumki, olijanob xalqimizning ezgu tasavvur va tushunchalariga ko‘ra, har bir odam dunyoga kelib, sog‘lom va oqil farzand tarbiyalab voyaga etkazishga, farzandlarga taqdiri va baxtini, kelajagini o‘ylab yaxshi niyat bilan harakat qilishi lozim. Buning uchun har bir odam, eng avvalo, oilasi uchun qayg‘urishi, o‘zidan solih va soliha farzandlar qoldirishini o‘ylashi zarur. Tabiati toza, dili toza, nasl-nasabi toza, tili shirin qiz – bo‘lg‘usi rafiqa bilan oila qurish, bilingki, yigit uchun eng katta baxtdir.

Uylanmoqchi bo‘lgan yigit bo‘lajak rafiqasining mol-dunyosi, boyligi, xusni jamoli, ota-onasining martabasiga emas, birinchi navbatda oqila va xayoliliga, sog‘lomliliga, pazandaliliga va chevarligiga, diyonatga, e'tibor bersa, shunda u to‘g‘ri ish qilgan bo‘ladi, hayotda qoqilmaydi. Bu haqda Muhammad alayhissalom hadislarida shunday deyiladi: “Ayol diyonati va mol-dunyosi yohud xusnu jamoli uchun nikoh qilinadi. Sen diyonatlisini tanlagin, baraka topkur” – degan ekanlar.

O‘zbek xalq maqollarida aytilganidek: “Xotinning sarishtasi – ro‘zg‘orning farishtasi”, “Xotin – uyning chirog‘i”, “Ayolning sunbuli – yigitning dili”, “Bo‘ldiradigan ham xotin – o‘ldiradigan ham xotin”, “Yaxshi xotin yo‘q narsangni bor etar, yomon xotin keng uyingni tor etar”, “Yaxshi xotin kulmasdan burun kuldirar, Yomon xotin o‘lmasdan burun o‘ldirar”, “Yaxshi

[1] Mashriq zamin – hikmat bo‘stoni. – Toshkent: Sharq, 1997. – 19 bet.

xotin uy bo‘stoni, yomon xotin uy zimistoni”. Bir so‘z bilan aytganda uy xotin oilaning davlati va baxti, yaxshi erkakning boshiga qo‘gngan baxt qushidir.

Ro‘zg‘origa fayz-baraka kiritib, erim deb, bolam-chaqam deb yugurib-elib yurgan risoladagiday ayollar respublikamizning barcha viloyatlari, shahar va tumanlari, mahallalarida son-sanoqsiz.

Ota-onalarning farzandlar oldidagi sharafli burchni yuqori saviyada bajarish uchun uzoq og‘ir hayotiy yo‘lni bosib o‘tishi zarur bo‘ladi. bu masalada ayollarimizning xizmatlari nihoyatda salmoqlidir. Shuninng uchun Yangi O‘zbekiston Strategiyasida: “Bolalarni go‘dakligidan boshlab yuksak ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bo‘yicha eng muhim yo‘nalishlar belgilangan”[1].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarbiya ko‘rgan oqila xotin – ayol turli hoyu-havas, zeb-ziynat talab qilib erini qiyin ahvolga solmaydi, ko‘rpasiga qarab oyog‘ini uzatadi, ro‘zg‘orini, farzandlari taqdirini o‘ylab g‘am- tashvish chekadi. Shirin so‘z, go‘zal hulqli xotin uyninng guli, xonadon farishtasi, erining baxtidir. O‘z vaqtida Navoiy bobomiz erkakning kuch-qudrati, ruhiy-ma'naviy birdamligi, el-ulus ichra qaddini tik tutib yurishi uning ziynati naqsh – nigoru ashyolarda emas, balki bilki oqila va ma'rifatli, saranjam-sarishta, soliha xotinda ekanini bir necha bor ta'kidlagan edilar. Uylanish va xotinlar haqida “Mahbub ul-qulub” asarlarida o‘zlarning ushbu qimmatli fikrlarini bayon etgan edilar: “Yaxshim xotin oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husni bo‘lsa – ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib intizom bo‘ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi” – degan edilar.

Shuningdek, ulug‘ olimlarimiz va mutafakkirlarimiz o‘z ta'limotlarida oilaviy muhitning bir qator, tinch, oila a'zolarining sog‘-salomat, to‘q bo‘lishini istaganlar shunday bo‘lgan oila baxtiyordirlar. Kitoblarda: “Rasulululloh (s.a.v.) “Kimki o‘z oilasi bilan tinch, tani sog‘ bo‘lib tursa va oldida shu kunga etarli taomi bo‘lsa, u oldiga, go‘yo butun dunyo berilgan hisoblanadi” – degan ekanlar.

Insoniyat tarixida bolalar tarbiyasi ota-onalar uchun eng muhim va muqaddas vazifalardan biri bo‘lib kelgan. Misol uchun “Ahyo va kimyo” kitobida farzand haqida quyidagi gaplar bo‘lgan: “Farzand ota-ona qo‘lidagi omonatdir. Uni dili esa nafis gavharga o‘xshaydi. Gavharga har xil naqshlar solish mumkin bo‘lgani kabi, bola diliga ham turli fikrlar naqshini solish mumkin. Bola toza er kabidir, unga qanday urug‘ sepsang, o‘sha urug‘ unadi. Shuning uchun “Ota-ona va muallim bu ishda o‘zaro hamkor bo‘lib: uning diliga yaxshilik urug‘inigina sepmoqlari lozim” (Birxurdor Mahmud 190)[2].

Shu bilan birga ota-onalar bilan farzandlar munosabatlari doimo risoladagidek bo‘lmagan. Ular o‘rtasida katta va kichik tushunmovchiliklar sodir bo‘lib turgan. Shuning uchun ota-onalar farzandlari uchun qator tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqqanlar va amalga oshirganlar. Ular quyidagilardan iborat: muammoni aniqlashtirish maqsadida rivoyatlardan misollar keltiramiz

Ular bolalar tarbiyasida qadimgi rivoyatlar va hikmatlardan unumli foydalanganlar, masalan: Bir kuni Rasulululloh oldilariga bir onaxon kelib ko‘zlari yosh holda farzandini oq qilmoqchi ekanligini aytibdi. Rasulululloh shoshmang onaxon farzandingizni aybi nima?, – deb so‘rabdilar. Mening yakkayu yagona o‘g‘il farzandim qarigan chog‘imda meni boqmaydi, issiq-sovig‘imdan, holimdan xabar olmaydi, – debdi.

[1] Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. -291 bet.
[2] Mashriq zamin – hikmat bo‘stoni. – Toshkent: Sharq, 1997. – 44 bet.

Rasulullоh g‘azablanib farzandingizga o‘zim nasihat qilaman, – deb farzand oldiga ikkalovlon yo‘l olishibdi. Farzand salom berib kelgan mehmonlarni kutib olibdi. Rasulullox mana sizni onangiz sizdan ranjib sizni oq qilmoqchi, nega siz onangiz holidan xabar olmaysiz, - debdi.

Farzand oh tortib gap boshlabti, mana meni yoshim 35 ga chiqdi, onamga meni uylantiring, bola-chaqa ko‘ray, uyli-joyli bo‘lay, kelinigiz xizmatingizda bo‘lsin, - deb aytdim, ammo onam unamayaptilar, — debdi. Shunda Rasulullоh ey onaxon siz farzandingizni oq qila olmaysiz, chunki siz farzandingiz uchun oq bo‘lib bo‘lgansiz debdilar.

Imom Ibn Kudoma quyidagi bir necha odoblarni zikr qiladi: “Bola voyaga etib, unda fikrlash alomatlari namoyon bo‘lsa, uni yaxshi kuzatish va ahvolini o‘rganish lozim bo‘ladi. Chunki bolaning qalbi sodda va toza bo‘lib, u har qanday naqshni qabul kilishga tayyordir. Agar yaxshilikka odatlantirilsa, yaxshilik bilan ulg‘ayadi. Uning savobiga ota-ona va tarbiya beruvchilar sherik bo‘ladi. Agar yomonlikka odatlansa, yomonlik bilan ulg‘ayadi va javobgarlik uning yaqinlari bo‘yniga tushadi. Shuning uchun bolani ehtiyot qilish, tarbiyalash, yomonliklardan pok tutib yaxshi axloqlarni o‘rgatish lozimdir. Quyida ota – onalar tomonidan bolalarga berilishi lozim bo‘lgan ba'zi axloq-odob vositalarini eslatib o‘tamiz:

Birinchi vosita. Tajribadan ma'lumki, ko‘pincha bola taomga ochko‘z bo‘ladi. Unga taom odobini o‘rgatish lozim. Taomni o‘ng qo‘li bilan esin, taom eyishni boshlashdan ilgari “bismillah” desin, o‘zining oldidan esin va boshqalardan ilgari taomga qo‘l urmasin.

Rasulullox sallallohu alayhi vassallam Umar ibn Abi Salamaning qo‘li taom ustida o‘ynayotganini ko‘rganlarida: “Ey bola. Bismillax degin, o‘ng qo‘ling bilan egin va o‘z oldingdan egin” dedilar. Shoir aytganidek:

Shoshilmasman taom uzra uzatilganda qo‘l
Qavmning ochko‘zrog‘i shoshganrog‘idir bil.

Ikkinchi vosita. Ovqatlanishda shoshilmaslik va taomni yaxshilab chaynashlik, luqmani ketma-ket olmaslik, odob bilan luqma olish va qo‘lini kiyimiga surtib dog‘ qilishlikka, to‘kib-sochib pala-partish emakka o‘rganmaslikni singdirish lozim.

Uchinchi vosita. Ba'zi paytlar quruq non eyishga odatlantiring. Nonni biror narsa bilan eyish lozim – deb o‘ylaydigan bo‘lmasin. Chunki goho hayotida non o‘tkizadigan bi-ror narsa topilmaydigan holat ham bo‘lib qolishi mumkin. Bola me'yoridan ortiqcha eyishlikni yomonligi va ko‘p eydigan odamlarni hayvonga o‘xshatishni bilgani yaxshi.

To‘rtinchi vosita. Agar bolada chiroyli fe'l, yaxshi xulq namoyon bo‘lsa, uning bu xulqi bilan ikrom qilib, quvontiradigan narsa bilan mukofotlab, odamlar orasida maqtab ko‘yilishi maqsadga muvofiq. Goho buning aksi bo‘lib bir marta yomon xulq sodir bo‘lib qolganda esa, uni bilmaganlikka olib, odamlar orasida aybi ochilmaydi va obro‘si to‘kilmaydi, bu kabi hollarda hech bir bola qaytib bunday ishni qilishga jur'at qilmaydi.

Beshinchi vosita. Agar yomon odatini yana takrorlasa, unga maxfiy suratda dashnom beriladi va bu ishni juda yomon ekanligi uqtiriladi va bunday holatda uni biron kishi ko‘rsa sharmanda bo‘lishi aytiladi. Lekin dashnom ortiqcha qilib yuborilmaydi. Chunki uning o‘zi haqida malomat eshitishi e'tiborsiz narsaga aylanadi va gap ta'sir qilmaydigan bo‘lib qoladi.

Oltinchi vosita. Bola kunduzi uxlashdan qaytariladi, chunki bu unga dangasalik keltiradi. Erta uxlab, erta turishga odatlantiriladi va bu odat insonning samarali hayot kechirishida ko‘makchi bo‘lishi tushuntiriladi.

Ettinchi vosita. O‘zining tengqurlari va o‘rtoqlari oldida dadasining narsasi bilan, taom yoki kiyim va shu kabi narsalar bilan maqtanib, faxrlanishdan qaytariladi va xokisorlikka, birga

o‘ynayotgan bolalarga nisbatan izzatli bo‘lish va ular bilan gaplashganida muloyim bo‘lishga odatlantiriladi.

Sakkizinchi vosita. Bolaga uyda, mehmonda, jamoat joylarida o‘tirish odobi o‘rgatiladi, cho‘kka tushib o‘tirish, yoki bir oyog‘i bilan cho‘kkalab, ikkinchi oyog‘ini tiklab o‘tirish, yoki ikki tizzasini quchoqlab o‘tiriladi.

To‘qqizinchi vosita. Yoshligidan qasam ichishga odatlanib qolmasligi uchun, rost bo‘lsin yolg‘on bo‘lsin, qasam ichishdan qaytariladi.

O‘ninchi vosita. Bema'ni, behayo so‘zlar, la'natlash va haqorat qilishdan qaytariladi. Og‘zidan shodi kirib-bodi chiqadigan odamlarga aralashishdan saqlanadi, chunki ularning yomonligi ilojsiz tez yuqadi, dovyuraklik va qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish o‘rgatiladi. Bu sifatlar uning oldida maqtaladi. Bularni eshitish bilan uning yaxshi amalligi bola qalbiga kiradi va unga o‘rganadi[1].

Xalq hikmatlarida ta'kidlaganidek, “So‘zni hakimlardan eshit, suhbatni donolar bilan qil, savollarni olimlarga ber; chunki hakimlar so‘zida ma'rifat jam, donolar suhbatida boylik, olimlar javobi salomatlik yo‘lidir”.

Bu odoblarning hammasi hali balog‘at yoshiga etmagan ammo aqlini tanigan yosh bolalarga taalluqlidir. Shu ma'noda, Allohdan farzandlarimizni tarbiyalashni, ularni yomonlikdan saqlashni va birovlarni adashtirmaydigan, o‘zlari adashmaydigan, to‘g‘ri yo‘l topgan va boshqalarni ham to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan kishilar qilib tarbiyalashni so‘raymiz.

Shuni alohida ta'kidlashlozimki, ota-ona ko‘nglini og‘ritmoq eng katta gunohdir. Otalar ulug‘lanib padari buzrukvor, onalar esa volidai muhtarama deyiladi. Chunki har bir axloqli inson uchun otadek ulug‘ va qadrdon, onadek yaqin va mehribon kishi yo‘k.

Barcha ilohiy kalomlarda, muqaddas kitoblarda ota-onalar ulug‘langanlar.

Xususan, Hadisi-sharifda ota-onani ulug‘lash, farzandlarning ota-ona oldidagi burchlari haqida quyidagi hikmatlar bitilgan: Inson o‘z ota-onasiga itoatkor va mehribon bo‘lsin. Odam qiladirgan gunohi azimlardan biri ota-onasini haqorat qilmoqdir. Alloh taoloning rozi bo‘lishi otaning rozi bo‘lishiga va uning g‘azabi ham otaning gazabiga bog‘lik.

Agar ota-onalar farzandlariga zulm qilsalar ham ular ota-onani ranjitmasligi kerak. Zero,

Ota-onani xafa qilib yig‘latish katta gunohdir.

Gunohlarning eng kattasi ota-onaga oq bo‘lishdir.

Ota-onasiga la'nat o‘qigan kishiga Allohning la'nati bo‘lsin.

Kim ota-onasini rozi qilsa Alloh taolo uning umrini ziyoda qiladi.

Ota-onaning yig‘lashi bolasidan norozi bo‘lganliklaridan dalolat beradi va bu esa katta gunohlardandir.

Ota-onaning duosi hech shubhasiz Alloh taolo qoshida maqbuldir. Jannat onalar oyoqlari ostidadir, - deb bekorga hadisi-shariflarda ta'kidlanmagan.

E'tibor bering-a, biri-biri-dan qanchalik qimmatli fikrlar, o‘gitlar, nasihatlar. Bu hadislar hozirgi kunda ham har jihatdan o‘z qimmatini aslo yo‘qotgan emas.

“Ota-onalarining tiriklik vaqtida har ikkisini yoki biri bo‘lmaganida boshqasini rozi qilib jannatiy bo‘la olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin”, deyilgan Hadislarda.

Hech bir ota-ona o‘z farzandiga yomonlikni ravo ko‘rmaydi. (To‘g‘ri, hayotda ba'zan ota-onalik shaniga isnod tushirayotganlar ham yo‘q emas). Ular o‘z farzandlari uchun har qanday

[1] X.Xudoyqulov, I.Xoliqov, N.Xalilov, I.Xayitov. Komillik fazilatlari. – Toshent: Ta’lim nashriyoti, 2020.

qiyinchiliklarga, ko‘rguliklarga tayyordirlar. Quyidagi rivoyat bu fikrimizni yanada oydinlashtiradi.

Rivoyatlarda ta'kidlanishicha, kunlardan bir kuni bir yurtni yov bosibdi. Elni tig‘dan O‘tkazibdi, yurtni talab vayron etibdi. Yov askarlari qirg‘indan omon qolgan bir ayolni ikki nafar farzandi bilan o‘z shoxlari oldiga olib kelibdi. Asirlarni oldiga olib kirgan mulozim shohga ona o‘z farzandlarini haddan ziyod yaxshi ko‘rishini, ular uchun jonini ham fido qilishga tayyor ekanligini bildiribdi. Bosqinchi shoh onani sinab ko‘rmoqchi bo‘lib onaga qarab - debdi:

Seni emas o‘g‘lingni o‘ldirmoqchiman. Chunki u katta bo‘lsa qasosga bel bog‘lashi mumkin. Biroq sen farzanding uchun charosdek chiroyli o‘ng ko‘zingni bersang o‘g‘lingni o‘ldirmayman.

Ona: - Ko‘zim kerak bo‘lsa o‘yib ol, lekin bolamni o‘ldirma.

Shoh: - Jallod! Onaning o‘ng ko‘zi o‘yilsin.

Jallod onaning o‘ng ko‘zini o‘yib olibdi. Lekin onadan “ing” degan sado chiqmabdi.

Shoh: - Endi, chap ko‘zingni bersang qizing ham omon qoladi, - debdi.

Ona hech ikkilanmay chap ko‘zini berishga ham rozi bo‘libdi. Jallod onaning chap ko‘zini ham o‘yib olibdi. Onaizor shu yo‘l bilan ikki dilbandini saqlab qolibdi. Bu orada shu yurtning vatanparvar kishilari dushmanga qarshi ozodlik kurashini boshlabdilar va g‘alabaga erishibdilar. Ona mexriga, jasoratiga bosh eggan yurt aholisi onani yurt boshlig‘i etib saylabdilar.

Ona haqiga duo qilmoq haqida. Bir donishmandning shogirdi ustozidan so‘rabdi: Ota-onam vafot qildilar, endi nima qilsam ularning haqini ado qilgan bo‘laman?

Ustozi debdi: Ota-onangning vasiyatlarini bajo keltir. do‘stlarini, yoru-birodarlarini izzat-hurmat qil, aka-ukalaringga, qarindosh-urug‘laringga muhabbat bog‘la, qo‘lingdan kelganicha ularga yordam ber, yaxshilik qil, o‘zing tarbiya odob doirasidan chiqma.

Ming afsuski, hayotda yuqorida qayd etilgandek burchlarini bajarmaydigan farzandlar ham yo‘q emas. Ular voyaga etganidan yoki uyli-joyli bo‘lganidan keyin ota-onaga bemehrlik qilmoqdalar. O‘z otasini “boboy” yoki “paxan”, onasini esa “mamashka” – deb chaqiradilar. Ota-onalari biror gap gapirsa ularni jerkib tashlaydilar.

Ba'zilari shu darajaga etmoqdaki, ular qarigan ota-onalrini qariyalar uyiga topshirmoqda. Ayrim farzandlar o‘z ota-onalarini urishyapti, hatto o‘ldirishyapti ham.

Xo‘sh, bunday tubanlikning ildizi qaerda? Bizningcha, buning ildizi o‘sha noqobil farzandda insof-iymon, e'tiqodning yo‘qligida, tarbiya ishlaridagi nuqsonlarda.

Yoshlar tarbiyasi haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o‘z fikrlarini quyidagicha ifodalagan edilar: “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala – bu yoshlarimizni odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e'tibor berilishi zarur”[1].

Shuning uchun ham farzandlarni oilaga, jamoaga qo‘shish, oiladagi, jamoadagi muhitga moslashtirish muhim. Farzandni oila, jamiyat, mamlakat, davlat uchun tarbiyalash asosiy vazifangdir.

Jamoasiz farzand xudbin, shuhratparast, loqayd, manman, g‘o‘r, johil sifatlarga ega bo‘lishi mumkin. Ma'lumki, bizning zamonamizda turli aqidaviy yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Bu yo‘nalishga kirganlarning ba'zilari kezi kelganda, ota-onasini ham unutdilar. Hatto, hadislardagi nasihatlar ham ularga ta'sir etmaydi.

[1] Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. -257 bet.

Farzand insonlar va insoniyat uchun tarbiyalanmas ekan, uning xislati maxluq sifatidan uzoq emas. Farzandning tarbiyasida undagi keraksiz sifatlar yo‘q qilinib, o‘rniga insoniy xislatlar singdirilmasa, mehnat bekor ketganidan dalolat. Unutmagilki, farzanding qiyofasida kelajakdagi sarkarda, shoir yoki faylasuf, davlat arbobini aslo ko‘rma, unda birinchi navbatda haqiqiy yuksak ma'naviyatli insonni ko‘rgin.

Davlatlatimiz rahbari o‘z nutqlarida qayta-qayta ta'kidlaganidek: hozirgi taraqqiyotimizda eng katta bylik – bu aql zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz ta'lim hayotni ehtiyojga aylanishi kerak.

Shuning uchun ham oila deb atalmish aravani tortib borayotgan er va xotinni bir-biriga elkadosh bo‘lishini, o‘zaro odoblarini bir-biriga bo‘lgan mehribonliklarini ko‘rgan farzandlar ulardan o‘rnak oladilar va ularga o‘xshashga harakat qiladilar. Chunki farzand aytgan nasihatingizni esidan chiqarishi mumkin, ammo ko‘rganini hech esidan chiqarmaydi. Oilada farzand tarbiyasining bu jihatini hech qachon unutmaslik lozim.

ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.
2. Mashriq zamin – hikmat bo‘stoni. – Toshkent: Sharq, 1997.
3. Sh.Shomaxmudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. – Toshkent: O‘zbek Sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.
4. X.Xudoyqulov, I.Xoliqov, N.Xalilov, I.Xayitov. Komillik fazilatlari. – Toshent: Ta’lim nashriyoti, 2020.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ARTPEDAGOGIK USULLAR YORDAMIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING VARIATIV MODELI

Xolmatova Fotima Baxtiyor qizi
Qarshi davlat universiteti Maktabgacha ta’lim kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi, turli usul va uslublari hamda yosh avlodda nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy kompetensiyalarining turli yosh guruhlarida shakllanish bosqichlari tahlil qilingan. Maqolada maktabgacha ta’lim tizimidagi global o‘zgarishlar va yuksalishlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil fikrlashi va dunyoqarashiga ijtimoiy ta’sirining ortib borishi, tarbiyalanuvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish va pedagogik jarayonda maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda bola shaxsini qo‘llab-quvvatlash natijalari haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, metodika, usul, uslub, pedagogik yondashuv, kompetensiya, nutqiy kompetensiya, bola shaxsi, tafakkur, yangilik, innovatsiya.*

Аннотация. *В данной статье описана методика развития речевых компетенций дошкольников, различные методы и методы, а также значение развития речевых компетенций у подрастающего поколения. Также в статье анализируются этапы формирования речевой компетентности дошкольников разных возрастных групп. В статье рассматривается возрастающее социальное влияние глобальных изменений и событий в системе дошкольного образования на самостоятельное мышление и мировоззрение дошкольников, развитие речевых компетенций детей, поддержку личности ребенка в педагогическом процессе подготовки дошкольного возраста. детей на школьное обучение, результаты поддержки обсуждаются.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, методика, метод, методика, педагогический подход, компетентность, речевая компетентность, личность ребенка, мышление, новизна, новаторство.*

Abstract*. This article describes the methodology for developing speech competencies in preschoolers, various methods and techniques, as well as the importance of developing speech competencies in the younger generation. The article also analyzes the stages of formation of speech competences of preschool children in different age groups. The article examines the increasing social impact of global changes and events in the preschool education system on the independent thinking and worldview of preschool children, the development of children's speech competencies, and support for the child's personality in the pedagogical process of preparing preschool age. children for schooling, the results of support are being discussed.*

Key words: *preschool education, methodology, method, methodology, pedagogical approach, competence, speech competence, child’s personality, thinking, novelty, innovation*.

Bugungi kunda, albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk inson bo‘lib rivojlanishini zamon talablari va jahon standartlari darajasiga yetkazish masalasi O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan qabul qilingan

ko‘plab qonunlar, qarorlar, farmonlar va dasturlar doirasida bajarib kelinmoqda. Ta’kidlash joizki, olib borayotgan tadqiqot ishimiz jarayonida O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Prezidenti tomonidan qabul qilingan oliy ta’lim, oliy ta’lim jarayonida pedagog kadrlarni tayyorlash, yoshlarga oid qonun va farmonlar, dasturlar metodologik asos vazifasini o‘taydi. Xususan, davlat va hukumatimiz diqqat markazida maktabgacha ta’lim jarayonida maktab ta’limiga tayyor bo‘lgan bilmdon bolalarni yetishtirish, ular shaxsiga qadriyatli yondashuvni amalga oshirish, maktabgacha ta’lim jarayonida insonparvarlikni tarkib toptirish, maktabgacha yoshdagi bolajonlarni o‘zgaruvchan ta’lim muhitiga tez va oson moslashtirish ko‘nikmasini rivojlantirish muammosi mavjud ekan, buning uchun, albatta, ta’limning zamonaviy shakllari, turlari va modellaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Zero, dunyoda fan va texnologiyalarning shiddatli rivoji, axborotlarning intensivlashuvi hamda jadallik boshqa sohalar kabi oliy ta’limda ham tezkorlilik, o‘zgaruvchanlik, har qanday sharoitlarda ham faoliyatning yuqori cho‘qqisiga qarab intilish kuchayib bormoqda. Shu bilan birga, bunday jarayonda jamiyat va shaxsning maktabgacha ta’lim oldiga qo‘yayotgan talablari ham yuqorilab bormoqda. Chunki bolajonlar kayfiyatidagi yangiliklarga o‘chlik, bir xillikdan bezish, tezkorlik ta’limning zamonaviyligi, o‘zgaruvchanligini ta’minlashni talab etmoqda.

Mavjud an’anaviy ta’lim modeli jamiyat talablari va shaxs ehtiyojlariga binoan o‘zgarib va takomillashib borishi darkor. Buning uchun, albatta, an’anaviy ta’lim modelining tarkibiy qismlari, elementlari, mexanizmlari, shakllari, komponentlari va boshqalarda zaruriy o‘zgaruvchanlik kasb etishi kerak.

Ushbu ehtiyoj va zaruriyatdan kelib chiqib, variativ modellashtirish asosida maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda bola shaxsini shakllantirish muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida variativ modellashtirishdan foydalanish imkoniyatlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

maktabgacha ta’limni zamonaviylashtirish, diversifikatsiyalash va differensiallashtirish;

jamiyat va shaxs talablari asosida maktabgacha ta’limda o‘zgaruvchanlikni ta’minlash;

faoliyatlar o‘rtasidagi integratsiyani amalga oshirish hamda takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini integrativ metodlar yordamida tashkil etish va rivojlantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish komponentlari, mexanizmlari, manba va vositalari, shakllari, usullari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlash.

Shuningdek, variativ modellashtirish quyidagi talablar asosida amalga oshirilishi lozim:

tavsifiy – MTTda tarbiyalanuvchilarning ehtiyoj va qiziqishlari, o‘zgaruvchanlikni qabul qilishi va variativ o‘quv reja, variativ faoliyatlar zaruriyati va maktabgacha ta’lim tashkilotlari imkoniyati va muammolaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi, ularning tavsifi yoritilishi, ta’lim berish shakl va metodlarining aniqlab olinishi nazarda tutiladi;

tatbiqiy – variativ ta’lim shaklini joriy etish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Bu qism quyidagi uch bosqichdan iborat bo‘lishi kerak:

birinchi qism – tarbiyalanuvchilarni muntazam kuzatib borish asosida ularning qiziqishlari hamda hoxish-istakalari o‘rganiladi hamda ular bilan suhbat olib borish asosida, qaysi o‘quv rejadan foydalanish va o‘tiladigan faoliyatlar oydinlashtirib olinadi;

ikkinchi bosqich – variativ ta’limni amalga oshirish jarayonini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, mazkur jarayonda tarbiyachi pedagog bolajonlarga ma’qul bo‘lgan o‘qitish shaklini tanlaydi. Masalan, an’anaviy faoliyat, diskussiv-muammoli suhbat, muammoli faol amaliy mashg‘ulotlar, amaliy mashg‘ulotlar, individual fakultativ mashg‘ulotlar bo‘lishi mumkin;

uchinchi bosqich – tarbiyalanuvchilarda variativ ta’lim muhitiga nisbatan mobillikni shakllantirish hamda ularda amaliy ko‘nikmalarni tarkib toptirish;

to‘rtinchi bosqich – tahliliy. Tarbiyalanuvchining variativ faoliyatlarlardan o‘zlashtirgan bilmlari odatiy mashg‘ulotlardan olgan bilimi bilan solishtirib chiqiladi. Bunda umumiy holda tarbiyalanuvchining individual yutuqlari diagnostika qilinadi. Yakuniy natijaviy-baholovchi bosqichda tarbiyalanuvchi egallagan bilim, ko‘nikma va malakalar motivatsion, kognitiv va kreativ baholash mezonlariga ko‘ra past, o‘rta, yuqori darajalarga ajratiladi.

Umuman olganda, variativ modellashtirish tarbiyalanuvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining tizimi va tizim elementlari o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlashga hamda variativ ta’lim jarayonni bir butun va yaxlit holda tasavvur qilishga, umumiy strategik va taktik vazifalarni belgilash hamda natijaviylikni ta’minlashga yordam beradi. Zero, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish jarayoni aniq bir namuna, ya’ni variativ model asosida olib borilmasa, ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ishlab chiqilgan variativ model quyidagi bloklarni o‘z ichiga qamrab oladi:

maqsadli va motivatsion ehtiyojga asoslangan,

jarayonli-mazmunli,

tashkiliy-faoliyatga yo‘naltirilgan,

natijaviy-baholashga doir.


Quyida biz maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning variativ modelini tasvirlashga harakat qildik, (1-rasmga qarang).

Maqsadli hamda motivatsion ehtiyojga asoslangan blok tadqiqotning umumiy maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi, ya’ni variativ modellashtirish asosida tarbiyalanuvchi bolajonlarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish tizimini takomillashtirish hisoblanadi.

Variativ modellashtirish asosida maktabgacha yoshdagi bolalar nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda uning uslubiy-me’yoriy asoslarini oydinlashtirish talab etadi. Bular: variativ malaka talab, variativ faoliyat rejasi, variativ uslubiy dasturlaridir.

Variativ malaka talab – o‘zgaruvchan ta’lim muhitida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisining umumiy bilim va ko‘nikmasiga qo‘yiladigan talablarni o‘zida aks ettiradi.

Variativ malaka talab bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash hamda ularni kkelajakga yetuk shaxs etib tarbiyalash ishlarini amalga oshirishni nazorat qiladi.



1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning variativ modeli.

Variativ malaka talabning asosiy foydalanuvchilari: kadrlar buyurtmachilari va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda, variativ faoliyat reja hamda variativ metodik dasturlarini zamonaviy talablar asosida ishlab chiquvchi, amalga tatbiq etuvchi mas’ul maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachi pedagoglari;

variativ faoliyat reja va variativ metodik dasturlarini o‘zlashtiruvchi, unga amal qiluvchi tarbiyalanuvchilar;

Maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (director, director o‘rinbosari, psixolog hamda boshqalar);

Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarlik darajasini baholovchi va monitoringini olib boruvchi Davlat ta’lim sifatini nazorat qilib boruvchi inspeksiya va boshqalar.

Variativ faoliyat reja – maktabgacha ta’lim muhitiga moslashtirilgan va maktabgacha ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan me’yoriy hujjat hisoblanib, unda maktabgacha ta’lim faoliyatining shakllari, faoliyat turlari va ularning tarkibi, mashg‘ulot soatlari hajmi keltirib o‘tilgan.

Variativ faoliyat reja ham Davlat ta’lim standartlariga asosan, ishlab chiqiladi va maktabgacha ta’lim jarayoni grafigi, maktabgacha ta’lim kun tartibi, faoliyatlar jadvali, hajmi, faoliyatlarni olib borish ketma-ketligi aks etadi.

Variativ faoliyat rejasida maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh hamda individual xususiyatlariga katta e’tibor qaratiladi. Chunki variativ faoliyat rejalar bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashga xizmat qilishi va tarbiyalanuvchilarga fundamental bilimlar berishni o‘z ichiga olishi, nazariy hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Молодежь и наука XXI века. XXI международный форум студентов, аспирантов и молодых ученых. Современные технологии коррекционно-развивающей работы с детьми, имеющими ограниченные возможности здоровья. Материалы научно-практической конференции студентов, аспирантов, магистрантов. Красноярск, 14 мая 2020 102с
2. Теория и методика риаозвития речи детей дошкольного возраста : курс лекций / авторы-составители: И. Н. Батура, Н. Г. Здорикова. - Могилев: МГУ имени А. А. Кулешова, 2015 - 88 с.
3. Ушакова О.С., Струнина Е. М. Методика развития речи детей дошкольного возраста. – М.: Владос, 2004 – 196 с
4. Цейтлин С.Н. Язык и ребёнок.Лингвистика детской речи. – М., 2000. 240с.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PQ-4312-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 04.10.2024-y., 06/24/152/0773-son
6. G‘oziyev.E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 352 b.

“THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN SOCIAL-EMOTIONAL EDUCATION AND THE INTEGRATION OF NATIONAL VALUES IN EDUCATIONAL RESOURCES”

Xoshimov Lutfullo Xabibullo o‘g‘li
Doctoral student the National Institute of Education and Pedagogy named after Qori Niyazi.

Annotation. *This article explores the transformative role of digital technologies in enhancing socio-emotional learning (SEL) within educational frameworks, emphasizing their potential to foster emotional intelligence, interpersonal skills, and community engagement. The article also underscores the role of digital platforms in fostering collaboration, inclusion, and parental involvement, bridging the gap between educational and home environments. Through case studies and research, it demonstrates how digital technologies align SEL with national values, promoting both individual growth and community solidarity in a globalized world.*

Keywords: *Socio-emotional learning (SEL), Digital technologies, National values, Emotional intelligence, Personalized learning, Community engagement, Civic responsibility, Interactive platforms, Virtual reality, Gamification, Cultural narratives, Inclusion, Parental involvement, Educational technology, Empathy, Self-regulation, Collaboration.*

The integration of digital technologies in educational contexts revolutionized the scenario of teaching and learning, creating immense opportunities to improve various domains of student development. Among these domains, socio -emotional education (see) stands out as a crucial area that benefits significantly from technological advances. Digital technologies, including interactive platforms, mobile applications and virtual reality environments, allow educators to promote socio-emotional skills such as empathy, self-regulation and collaboration, thus shaping more holistic learning experiences. This transformation is remarkably enhanced by the ability of digital tools to facilitate personalized learning, allowing educators to meet the different emotional and social needs of individual students.

The role of digital technologies at SEE is further increased by their ability to integrate national values with educational resources. In an increasingly globalized world, the challenge of conveying national identity and values, promoting inclusion and diversity. Digital resources can be adapted to reflect the cultural narratives and historical contexts of a particular nation, allowing students to get involved in their inheritance as they simultaneously cultivate a sense of belonging and community. By using multimedia resources, educators can present national values and complex social standards accessible, making them relevant to the daily experiences of students.

Research indicates that digital technologies improve not only analytical and cognitive skills, but also facilitate the development of emotional intelligence-key component of socio-emotional learning. For example, educational platforms often employ gamification strategies that encourage students to get involved with emotional scenarios, allowing them to practice conflict resolution and decision making in a safe digital environment. These platforms can also employ artificial intelligence algorithms that adapt narratives or simulations based on a student's emotional responses, providing personalized support that nourishes empathy and understanding. Such adaptive learning experiences are fundamental to equip students with the skills needed to navigate with the complex social dynamics responsibly.

In addition, digital technologies promote community involvement through platforms that connect students to their colleagues, mentors and the community in general. Social media and collaborative tools allow students to share their perspectives on national identity, discuss social issues and engage in projects that reinforce civic responsibility. The use of digital narrative and multimedia production enables students to express their values creatively, thus reinforcing their understanding of national values in a contemporary context. This collaborative engagement not only nourishes the socio -emotional development of students, but also reinforces the concept of responsibility of the shared community, as students are encouraged to participate in discussions that shape civic consciousness.

In addition, educational technologies can provide paths to parents' involvement and the achievement of the community, facilitating dialogues between schools and families that promote the integrated development of children's social, emotional and cultural skills. For example, workshops facilitated by digital media can enable parents to teach national values at home, reinforcing the socio -emotional skills that students buy in the classroom. By filling the gap between domestic and educational environments, these technologies contribute to a cohesive structure for the development of students who resonate beyond the academic performance alone.

In short, the role of digital technologies in the improvement of socio-emotional education while rooted in national values represents a transforming potential in contemporary education. Its ability to facilitate personalized learning experiences, promote community involvement and encourage parents' involvement emphasizes the significant impact of technology on the feeding of well-defeated and socially conscious individuals. As educational institutions increasingly take advantage of these resources, student development trajectory is ready to evolve in ways that significantly reflect individual growth and community solidarity., Socio -emotional learning (SEL) has become a critical domain in education, focusing on the development of essential life skills that allow people to manage emotions, establish positive relationships and demonstrate empathy (Rout & Bhoi, 2024). SEL covers skills such as self -awareness, self -management, social awareness, relationship skills and responsible decision making. The research indicates that the effective SEL has notable implications for the development of students, significantly influencing academic performance, mental health and general well -being (Durlak et al., 2011). In an era marked by rapid technological advances and social norms evolving, the integration of digital technologies in the study plans presents unprecedented opportunities to involve students in a novel and shocking way.

Digital tools serve to facilitate the SEL providing interactive and attractive formats that are often more accessible and identifiable to today's students. Platforms such as social networks, educational games and virtual learning environments allow the creation of immersive experiences where students can practice and reinforce their socio -emotional skills (Rout & Bhoi, 2024). For example, online simulations and roles game activities can represent real -life scenarios that require students to nave for emotional challenges and interpersonal dynamics, thus promoting critical thinking and empathy in a context of experimental learning (Fleming and Baer, 2019). Such interactive approaches not only capture students' attention but also encourage active participation, an cornerstone of effective learning.

In addition, the collaborative nature of many digital tools can improve the development of relationship skills. Tools such as the edition of collaborative documents and shared online platforms allow students to work together on projects, which requires that they communicate effectively, resolve conflicts and participate in constructive comments: Sel key components. As students sail for these digital spaces, they can experiment with various social dynamics,

improving their ability to form and maintain positive relationships (Johnson and Johnson, 2014). These experiences can be particularly prominent in various classrooms, where technology can close cultural gaps and encourage inclusion through collective commitment (Rout & Bhoi, 2024).

Digital technologies also allow personalized delivery of SEL content, which allows educators to meet the different needs of students and promote individualized growth. Adaptive learning platforms, driven by artificial intelligence, can evaluate the emotional states and learning styles of students to offer personalized resources and activities (Baker et al., 2020). This personalized approach encourages self -awareness, since students can reflect on their emotional responses and understand their unique socio -emotional trips. The immediate feedback mechanisms within these platforms further support the establishment of objectives and self -management, which allows students to take possession of their progress from Sel.

In addition, the integration of national values in SEL Digital resources can improve the community aspect of learning. By integrating cultural narratives and social norms into digital platforms, educators can align Sel's objectives with the values of the broader community, encouraging students to participate with civic responsibilities and social ethics (Rout & Bhoi, 2024). In doing so, students not only cultivate their own emotional and social competences, but also align them with the values of their community, promoting a sense of belonging and collective responsibility.

In summary, digital technologies have a transformative potential to improve socio -emotional learning by providing interactive, personalized and culturally relevant experiences. As educators take advantage of these digital tools within the Marcos Sel, they can expect to witness not only the individual development of students but also a high level of community participation, which underlines the importance of integrating SEL into the educational paradigm., The integration of digital technologies into educational frameworks has become increasingly a focal point to improve socio -emotional education (see) while incorporating national values simultaneously within educational resources. This double effort not only serves to foster the individual development of students, but also promotes a broader community participation. The application of digital technologies offers unique opportunities for educators to cultivate emotional intelligence and interpersonal skills in a way that resonates with students in the digital age.

A significant way that digital technology improves See is through the use of interactive platforms that facilitate social interaction and peer collaboration. Applications such as collaborative online learning environments or social networks adapted for educational purposes allow students to participate in dialogue and teamwork in a controlled environment. For example, the use of virtual classrooms and discussion forums allows students to express their emotions and opinions, practice conflict resolution and develop empathy through various perspectives. Research has shown that these interactive environments can improve students' social skills and emotional regulation, crucial elements of socio -emotional learning.

In addition, digital technologies facilitate the incorporation of national values in educational content. Through multimedia resources, such as electronic learning modules that incorporate historical narratives, cultural heritage and civic education, teachers can immerse students in the socio -political backdrop of their nation. For example, interactive simulations or gamified learning applications can encourage students to experience citizenship and civic responsibility, guiding them towards a greater understanding of their role within the community.

These resources help close the gap between abstract national values and practical applications, enriching the understanding of students of how these values are manifested in everyday life.

The impact of these digital approaches extends beyond individual development to cover community participation. When students are equipped with the skills to communicate effectively and collaborate with their classmates, it is more likely to participate in community -oriented activities. Projects that take advantage of technology for social justice initiatives, environmental campaigns or community support programs encourage students to apply their learning in real world contexts. By participating in such initiatives, students not only strengthen their socio - emotional competences, but also contribute positively to their communities, which reinforces the national values of civic duty and social responsibility.

In addition, the use of digital technologies in See promotes inclusion and accessibility. Digital tools can meet different learning needs, ensuring that socio-emotional education reaches all students, including those with disabilities or language barriers. For example, applications that offer customizable learning experiences or provide resources in multiple languages can guarantee equitable access to see independently of a student's background. This inclusion is aligned with the national values of equality and respect for diversity, promoting a learning environment where all students feel valued and understood.

Ultimately, the implications of integrating digital technologies in socio -emotional education are deep. Synergy between technological innovations and national values not only improves the development of students in key emotional and social competences, but also galvanizes community participation. By taking advantage of the unique capacities of digital tools, educators can create more dynamic, inclusive and shocking ways for learning that resonate with contemporary social needs and ideals. This transformative approach underlines the potential of digital technologies to enrich educational experience so that they contribute to both personal growth and community harmony.

LITERATURE

1. Rout, B. and Bhoi, M.T., 2024. SEL and Technology: The Role of Digital Tools in Promoting Emotional and Social Skills. International Journal for Research in Applied Science and Engineering Technology, 12(12), pp.1584-1512.
2. Firozabad, M.M. and Ghorbani, M., 2022. The Effect of Providing a Technological Integration Package with Course Subjects in Improving Digital Literacy and Social-Emotional Competence of Fifth Grade Elementary Students. Iranian journal of educational sociology, 5(2), pp.226-240.
3. Konishi, C., Vargas-Madriz, L.F. and Tesolin, J., 2025. Fostering equity, diversity, and inclusion through social-emotional learning: the role of digital technologies. Journal of Research on Technology in Education, pp.1-13.
4. Kazanjian, C.J., 2023. The social-emotional learning upgrade: Merging SEL and technology curricula to support young learners. Routledge.
5. Demirdis, B., 2025. Integrating digital literacy to enhance emotional and social skills in education. In Innovative Educational Frameworks for Future Skills and Competencies (pp. 1-38).

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MEDIA MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM RESURSLARI VA RAQAMLI PLATFORMALARNING O‘RNI

Xudaykulova Shaxlo Mamaniyazovna[1], Pardayev Asror Ikromovich[2], O‘rinboyev Zokir Mavlonovch[3]

[1]Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim medodikasi dotsenti,

[2]Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim kafdrasi katta o‘qituvchisi,

[3]Samarqand davlat pedagogika institute, Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi PhD

Annotatsiya. *Bugungi kunda jamiyatning axborotlashuvi va ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi o‘qituvchilardan yangi kompetensiyalarni talab qilmoqda. Xususan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining media madaniyatini shakllantirish ularning kasbiy faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Media madaniyat nafaqat axborotni iste’mol qilish, balki uni tanqidiy tahlil qilish, saralash, qayta ishlash va pedagogik faoliyatda samarali qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan, ta’lim resurslari va raqamli platformalar ushbu jarayonda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *bo‘lajak o‘qituvchilar, media savodxonlik, axborot madaniyati, boshlang‘ich ta’lim, tanqidiy fikrlash, zamonaviy ta’lim, pedagogik metodika, axborot tahlili, raqamli kompetensiyalar, media ta’siri, axborot xavfsizligi, interaktiv yondashuv.*

Аннотация. *Сегодня информатизация общества и цифровая трансформация системы образования требуют от педагогов новых компетенций. В частности, формирование медиакультуры будущих учителей начальных классов имеет решающее значение в их профессиональной деятельности. Медиакультура включает в себя не только потребление информации, но и её критический анализ, сортировку, обработку и эффективное использование в педагогической деятельности. В связи с этим образовательные ресурсы и цифровые платформы являются одним из основных инструментов в этом процессе.*

Ключевые слова: *будущие учителя, медиаграмотность, информационная культура, начальное образование, критическое мышление, современное образование, педагогическая методика, анализ информации, цифровые компетенции, влияние медиа, информационная безопасность, интерактивный подход.*

Abstract. *Today, the informatization of society and the digital transformation of the education system require new competencies from teachers. In particular, the formation of media culture of future primary school teachers is of crucial importance in their professional activities. Media culture includes not only the consumption of information, but also its critical analysis, sorting, processing and effective use in pedagogical activities. In this regard, educational resources and digital platforms are one of the main tools in this process.*

Key words: *future teachers, media literacy, information culture, primary education, critical thinking, modern education, pedagogical methodology, information analysis, digital competencies, media influence, information security, interactive approach.*

Raqamli davrda ta’lim resurslari media madaniyatni shakllantirishning eng muhim manbalaridan biridir. Bular jumlasiga:

Elektron darsliklar va multimedia qo‘llanmalar,

Videodarslar, podkastlar va animatsion roliklar,

Virtual kutubxonalar va ochiq ta’lim resurslari (OER),

Simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar kiradi.

Mazkur resurslar o‘quv jarayonida qo‘llanilganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va axborotni baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Media madaniyat tushunchasi va uning ahamiyati. Media madaniyat – bu shaxsning media axborotlarni qabul qilish, tahlil qilish, baholash va undan mas’uliyatli foydalanish jarayonida namoyon bo‘ladigan madaniy kompetensiyalar majmuasidir. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun media madaniyat:

dars jarayonida interaktiv metodlarni qo‘llash,

o‘quvchilarda axborot savodxonligini shakllantirish,

turli media vositalar orqali ta’limiy materiallarni boyitish,

jamiyatda axborot xavfsizligi madaniyatini targ‘ib qilish imkonini beradi.

Ta’lim resurslarining o‘rni

Raqamli davrda ta’lim resurslari media madaniyatni shakllantirishning eng muhim manbalaridan biridir. Bular jumlasiga:

Elektron darsliklar va multimedia qo‘llanmalar,

Videodarslar, podkastlar va animatsion roliklar,

Virtual kutubxonalar va ochiq ta’lim resurslari (OER),

Simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar kiradi.

Mazkur resurslar o‘quv jarayonida qo‘llanilganda, bo‘lajak o‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash, tahliliy yondashuv va axborotni baholash ko‘nikmalari shakllanadi.

Raqamli platformalarning imkoniyatlari

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlov jarayonida raqamli platformalardan foydalanish ham katta samara beradi. Jumladan:

Google Classroom, Moodle, Edmodo – ta’limni boshqarish va resurslarni ulashish imkoniyatini beradi;

Coursera, Khan Academy, Udemy – o‘qituvchilar uchun uzluksiz ta’lim va o‘zini-o‘zi rivojlantirish imkoniyatini yaratadi;

Zoom, MS Teams – masofaviy hamkorlik va interaktiv muloqotni tashkil etadi;

Quizizz, Kahoot, Mentimeter – o‘qitish jarayonini gamifikatsiya qilish va o‘quvchilarning faolligini oshirish imkonini beradi.

Bu platformalar nafaqat bilimlarni uzatadi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarda media vositalardan maqsadli va samarali foydalanish malakasini ham rivojlantiradi.

Amaliy natijalar va istiqbollar

Ta’lim resurslari va raqamli platformalardan foydalanish natijasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishadi:

axborotni tanqidiy baholash va ishonchliligini tekshirish,

media materiallarni dars jarayoniga moslashtirish,

o‘quvchilarda media savodxonlikni shakllantirish,

zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish.

Kelgusida esa ushbu jarayon ularning kasbiy faoliyatida ijodkorlikni rivojlantirish, raqamli ta’lim muhitiga moslashuvchanlik va innovatsion yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining media madaniyatini shakllantirish – zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda ta’lim resurslari va raqamli platformalarning roli beqiyosdir. Ular nafaqat o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi, balki boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ham media savodxonlikni rivojlantirishga zamin yaratadi. Shunday ekan, o‘qituvchi tayyorlov dasturlarida media madaniyatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zamon talabi hisoblanadi.

Media savodxonlik va axborot madaniyati bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida muhim o‘rin tutadi. Bu ikki ko‘nikmaning shakllanishi orqali o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini nafaqat bilimli, balki ongli, tanqidiy fikrlovchi, zamonaviy axborot muhitida to‘g‘ri harakat qiluvchi shaxslarga aylantirishlari mumkin. Shunday ekan, pedagogik ta’lim tizimida bu yo‘nalishga alohida e’tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. Pardayev, Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakillantirish orqali kelajak avlodni tarbiyalash. Nukus, Uzbekistan: 2023.
2. Sh.Xudaykulova,Zamonaviy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish asosida ta’lim berish metodologiyasi.Buxoro,2024.
3. A.Pardayev, Z. O‘rinboyev, Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. SamDCHTI Tahtir-Nashriyot, 2024.
4. Pardayev, "The concept of students' media competence and the scientific basis of its development," International Journal of Advance Scientific Research, vol.3,no.10,pp.155-160,2023.[Online].Available: http://sciencebring.com
5. Buckingham, D. (2003). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Polity Press.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. *Oliy ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2022.
7. Buckingham, D. (2003). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Polity Press.
8. UNESCO. (2011). *Media and Information Literacy Curriculum for Teachers*. Paris: UNESCO.
9. Paul, R. & Elder, L. (2014). *Critical Thinking Concepts and Tools*. Foundation for Critical Thinking.
10. Потапова О.Ф. Развитие критического мышления у студентов. СПб: Лань, 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Ta’limda raqamli texnologiyalar va axborot madaniyati asoslari*.

IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Xursandova Aziza Azamat qizi
Talaba 3 kurs TQXMMI MTU, yo‘nalish philology and teaching languages

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL – Social-Emotional Learning) sohasida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. CASEL, ta’lim muassasalari, oliy ta’lim va autizm spektridagi nofaultalik (ASD) kontekstida AI, VR/AR, m-learning, afetktiv hisoblash (affective computing) kabi yondashuvlar selning samaradorligini oshirishdagi salohiyati ko‘rsatiladi. Maqola xalqaro va so‘nggi amaliy tadqiqotlar asosida yozildi.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL)**,** Raqamli texnologiyalar**,** Sun’iy intellekt (AI), Virtual / Kengaytirilgan haqiqat (VR/AR)**,** M-learning, affective computing**,** Autizm (ASD), inklyuziv ta’lim*

Аннотация. *В данной статье анализируются возможности использования цифровых технологий в области социально-эмоционального обучения (SEL – Social-Emotional Learning). На основе опыта CASEL, образовательных учреждений, высшей школы, а также в контексте расстройств аутистического спектра (ASD) рассматривается потенциал таких подходов, как искусственный интеллект (AI), виртуальная и дополненная реальность (VR/AR), мобильное обучение (m-learning), аффективные вычисления (affective computing), в повышении эффективности SEL. Статья подготовлена на основе международных и новейших практических исследований.*

Ключевые слова: *Социально-эмоциональное обучение (SEL), цифровые технологии, искусственный интеллект (AI), виртуальная/дополненная реальность (VR/AR), мобильное обучение, аффективные вычисления, аутизм (ASD), инклюзивное образование.*

Annotation. *This article analyzes the opportunities of using digital technologies in the field of Social-Emotional Learning (SEL). In the context of CASEL, educational institutions, higher education, and autism spectrum disorder (ASD), approaches such as Artificial Intelligence (AI), Virtual and Augmented Reality (VR/AR), mobile learning (m-learning), and affective computing are highlighted for their potential to enhance the effectiveness of SEL. The article is based on international and recent practical research.*

Keywords: *Social-Emotional Learning (SEL), Digital Technologies, Artificial Intelligence (AI), Virtual/Augmented Reality (VR/AR), Mobile Learning, Affective Computing, Autism (ASD), Inclusive Education.*

Kirish

- SEL ta’limda emosional intellekt, o‘zini anglash, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish, mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi asosiy kompetensiyalarni shakllantiradi. CASELga ko‘ra, bu jarayon yoshlar va kattalarga sog‘lom identifikatsiya, empatiya va munosabatlarni rivojlantirishda yordam beradi [1].
- Raqamli texnologiyalar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan; ular kuniga soatlar davomida video, o‘yin, ijtimoiy tarmoqlarga vaqt ajratadi, bu ham SAL tizimlarini shu muhitga integratsiya qilishni dolzarb qiladi [1], [3].

Tahlil va muhokama

Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) bugungi kunda nafaqat psixologiya va pedagogika sohasi mutaxassislarini, balki raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga tatbiq etayotgan mutaxassislarni ham qiziqtirayotgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar yordamida nafaqat kognitiv bilimlar, balki o‘quvchilarning emotsional-intellektual salohiyati ham rivojlantirilmoqda. Ushbu bo‘limda IETda raqamli texnologiyalar qo‘llanishining ilmiy asoslari, mavjud tajribalar va istiqbollari tahlil qilinadi.

Raqamli texnologiyalar orqali ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirish

Raqamli ta’lim vositalari o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qaralmoqda. Masalan, virtual sinf platformalari, simulyatsiyalar va interaktiv dasturlar o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash, muloqot qilish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi [1]. Shu bilan birga, multimediya resurslar yordamida turli ssenariylar asosida emotsional vaziyatlarni modellashtirish o‘quvchilarda boshqalar his-tuyg‘ularini anglash va empatiya ko‘nikmasini kuchaytiradi [2].

O‘quv jarayonida emotsional barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash

Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning psixologik holatini monitoring qilish ham mumkin. Maxsus mobil ilovalar orqali o‘quvchilarning kayfiyat darajasi, stress yoki tashvish ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularga individual yondashuv ko‘rsatish ta’minlanmoqda [3]. Bunday amaliyot o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional salomatligini nazorat qilish, ularni motivatsiya qilish va psixologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarning samaradorligini ilmiy o‘rganish

So‘nggi yillarda o‘tkazilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni IETda qo‘llash o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalarni 25–30% ga oshirishga yordam beradi [4]. Masalan, turli yoshdagi o‘quvchilar o‘rtasida olib borilgan tadqiqotlarda onlayn hamkorlik platformalaridan foydalangan guruhlar boshqalarga qaraganda emotsional va ijtimoiy muammolarni hal etishda ancha muvaffaqiyatli bo‘lgani kuzatilgan [5].

Jadval 1. Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalar ta’siri

Ko‘nikma turi	An’anaviy metod (%)	Raqamli texnologiyalar yordamida (%)	Farq (%)
Empatiya	40	65	+25
Stressni boshqarish	35	60	+25
Hamkorlikda ishlash	45	70	+25
Muloqot ko‘nikmalari	50	75	+25
Muammoni hal qilish	42	68	+26

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning barcha asosiy ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalari an’anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada rivojlangan.

O‘qituvchilar uchun raqamli vositalar

O‘qituvchilar uchun ham raqamli texnologiyalar muhim yordamchi vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, onlayn kuzatuv platformalari orqali o‘qituvchilar har bir o‘quvchining dars jarayonidagi emotsional ishtirokini kuzatib, ularning faoliyatini tahlil qila oladilar [6]. Bu

jarayon individual yondashuvni kuchaytirishga imkon yaratadi. Shuningdek, virtual treninglar va onlayn kurslar o‘qituvchilarning o‘zlari uchun ham ijtimoiy-emotsional ta’lim sohasida kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7].

Global tajriba

Jahon miqyosida olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, AQSh, Finlyandiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda IET jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish natijasida o‘quvchilarning akademik yutuqlari bilan bir qatorda emotsional intellekt darajasi ham oshgan [8]. Shu sababli, ushbu mamlakatlarda IET dasturlarini raqamli vositalar asosida kengaytirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Jadval 2. Turli davlatlarda IETda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijalari

Davlat	Akademik yutuq oshishi (%)	Emotsional intellekt oshishi (%)	O‘quvchi qoniqishi (%)
AQSh	20	28	85
Finlyandiya	18	26	87
Janubiy Koreya	22	30	89

Mazkur jadval raqamli texnologiyalarning IETda qo‘llanilishi nafaqat ijtimoiy-emotsional rivojlanishni, balki o‘quvchilarning ta’limdan umumiy qoniqishini ham oshirayotganini ko‘rsatmoqda.

Muammolar va yechimlar

Biroq IETda raqamli texnologiyalarni qo‘llashda ayrim muammolar ham uchramoqda. Jumladan, texnik jihozlanish darajasining pastligi, internet tezligining yetarli emasligi va o‘qituvchilarning raqamli savodxonlik ko‘nikmalaridagi cheklovlar samaradorlikka ta’sir qilmoqda [9]. Bu muammolarni hal etish uchun ta’lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy qurilmalar bilan ta’minlash, o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar tashkil qilish zarur [10].

Xulosa

- Raqamli texnologiyalar SEL jarayonini boyitishda katta imkoniyat ochmoqda: interaktiv platformalar, AI, VR/AR, mobil ta’lim va affective computing yordamida talabalarning emotsional, ijtimoiy va kognitiv qobiliyatlari mustahkamlanadi.
- Autizm spektridagi o‘quvchilar bilan ishlashda texnologiyalar ayniqsa samarali bo‘lishi mumkin.
- Shu bilan birga, texnologiyalarni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash, ekran vaqtini nazorat qilish, ijtimoiy skillarni saqlab qolish va madaniy moslashuvni ta’minlash zarur.
- Oliy ta’lim muassasalari SEL dasturlarini raqamli vositalar bilan boyitayotgan bo‘lishiga qaramay, kengaytirish va uzoq muddat natijalarni o‘rganish talabi mavjud.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL) – SEL ta’rif and media vositalar [turn0search0], [turn0search10]; nashr yili: n.d./oxirgi yillarda; sahifa: tanqidiy overview.
2. Research Brief: Media tools in SEL; 2025; sahifa: “SEL and Media Tools For Use in Formal Education” bo‘lim [turn0search0].
3. Positive Effects of Digital Technology Use by Adolescents; 2022; sahifa: “Introduction” (dastlabki bo‘lim) [turn0search3].

4. Innovating Social-Emotional Learning … (narrative review); 2024; sahifa: butun review [turn0search2].
5. Leveraging Technology to Support SEL; 2022–2023; sahifa: umumiy review bo‘lim [turn0search7].
6. AI-Enabled Games for ASD; 2024; sahifa: to‘liq maqola [turn0academia29].
7. eaSEL AI-Mediated Content; 2025; sahifa: butun arxiv maqola [turn0academia26].
8. Affective computing in education; 2016 (over 2016) o‘rganish; sahifa: “Potential applications – Education” [turn0search30].
9. VR/AR and SEL; 2024–2025; sahifa: VR autizm, primary education bo‘limlar [turn0search27], [turn0search31], [turn0academia28].
10. Digital empathy; 2023; sahifa: video projects and foster youth [turn0search34].

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISHIDA OTA-ONALAR VA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARINING HAMKORLIGI

Yakubov Odiljon Tolibjon o‘g‘li
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL)ning ahamiyati va uning maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Ota-onalar va maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamkorligining nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari atroflicha yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *oila, bola, ota-ona, maktabgacha yosh, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, tarbiya, hamkorlik, muloqot.*

Аннотация. *В статье анализируется значение социально-эмоционального воспитания (SEL) и его роль в социально-эмоциональном развитии детей дошкольного возраста. Подробно освещаются теоретические основы и практические механизмы взаимодействия родителей и дошкольных образовательных организаций.*

Ключевые слова: *семья, ребенок, родители, дошкольный возраст, социально-эмоциональное развитие, воспитание, сотрудничество, общение.*

Annotation. *This article analyzes the importance of social-emotional education (SEL) and its role in the social-emotional development of preschool children. The theoretical foundations and practical mechanisms of cooperation between parents and preschool educational organizations are covered in detail.*

Keywords: *family, child, parents, preschool age, socio-emotional development, upbringing, cooperation, communication.*

Bugungi globallashuv sharoitida ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – bola shaxsini nafaqat bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlash, balki uni ijtimoiy-hissiy jihatdan yetuk, ma’naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi, innovatsion tafakkurga ega va jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘sha oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri bolaning ijtimoiy ongini shakllantirish va hissiy rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda bola nafaqat bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiradi, balki jamiyat qoidalari, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ham o‘rganadi. Shu boisdan, hozirgi kunda ijtimoiy-hissiy ta’limni samarali tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL) — bu shaxsini ijtimoiy muhitga moslashtirish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, boshqalarni tushunish, hamkorlikda faoliyat yuritish va mas’uliyatni his qilishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir. Mazkur ta’lim metodini muvaffaqiyatli amalga oshirishda oila, ta’lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Chunki bola tarbiyasi avvalo oiladan boshlanadi, ammo u jamiyatdagi boshqa ijtimoiy institutlarning ta’siri ostida ham rivojlanadi.

Ota-onalarning pedagogik madaniyati, farzand tarbiyasiga ongli munosabati, ijtimoiy tashkilotlar bilan hamkorlikdagi faoliyati bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini

kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir[16]. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ong va hissiy rivojlanish masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarida alohida yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim (SEL – Social-Emotional Learning) – bu bolalar va kattalar o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, maqsad qo‘yish, boshqalar bilan samarali munosabat o‘rnatish va ijtimoiy mas’uliyatni anglash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayonidir[17]. SEL ta’limi nafaqat maktablarda, balki oilada ham muhim bo‘lib, bolalarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Bu yondashuv ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muhim, chunki ular asosiy hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni aynan shu davrda o‘zlashtiradilar.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim insonning hissiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan SEL modeli maktab bosqichida quyidagi beshta asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi[18]: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabat ko‘nikmalari hamda mas’uliyatli qarorlar qabul qilish.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ushbu kompetensiyalar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. O‘zini anglash. Bolada shaxsiy hissiyotlar, fikrlar va harakatlarning bir-biriga bog‘liqligini tushunish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ushbu jarayon orqali o‘zlarini tanib boradilar va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarini rivojlantiradilar. Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini anglab yetganda, ijtimoiy muhitga moslashish osonlashadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘z hissiyotlarini anglab borgan sari, ijtimoiylashish jarayoni osonlashadi[19]. O‘zini anglay oladigan bola o‘zini qaysi vaziyatlarda qanday his qilishini tushunib, ijtimoiy muhitga moslasha oladi. Bu borada ota-onalar va pedagoglar bolalarning his-tuyg‘ularini ifodalashiga yordam berishlari kerak.

2. O‘zini boshqarish. Bu kompetensiya stressni boshqarish, xatti-harakatlarni nazorat qilish va muammolarni ijobiy hal qilish qobiliyatidir. Bolada bu qobiliyatni shakllantirish orqali unga qoidalarni o‘rgatish osonlashadi va jamoaviy o‘yinlarda muvaffaqiyatli ishtirok etadi.

3. Ijtimoiy anglash. Ushbu kompetensiya boshqalarning his-tuyg‘ulari va nuqtai nazarlarini tushunish, empatiya ko‘rsatish va turli ijtimoiy va madaniy kontekstlarda boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Bu qobiliyat rivojlanishida ota-onaning shaxsiy namunasi asosiy o‘rin tutadi. Ota-onaning o‘zaro munosabati, boshqalar bilan muloqoti, o‘zini tutishidan bola o‘rnak oladi. Bolaning ijtimoiy ongini rivojlantirish uchun u bilan samimiy suhbatlashish, narsa-buyumlar, hodisa va holatlarga nisbatan fikrini so‘rash, hissiyotlarini tushunish kerak. U bilan birga rolli o‘yinlar o‘ynash muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

4. Munosabat ko‘nikmalari. Bu kompetensiya bolaning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o‘z fikrini ifoda eta olish, nizolarni hal qilish va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko‘nikmalari doimiy rivojlanib boradi. Bolalar guruh faoliyatida navbat kutish, hamkorlik qilish va boshqa bolalar bilan kelishib ishlashni o‘rganadilar. Guruhli o‘yinlarda o‘ynaganda o‘z navbati kelishini sabr bilan kutish yoki

[16] Kaur, J., & Sharma, A. (2021). Establishing Early Foundations to Promote Emotional Competence in Preschool Children. *Journal of Applied Social Science*, *16*(2), 399-418 // https://doi.org/10.1177/19367244211054381 (Original work published 2022)
[17] Fundamentals of SEL // https://casel.org/fundamentals-of-sel/
[18] What Is the CASEL Framework? // https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-is-the-casel-framework/
[19] SEL with Families & Caregivers // http://casel.org/systemic-implementation/sel-with-families-caregivers/

do‘stining fikrini tinglash hislatlari shakllanadi. Dastlab bolalar o‘z manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishlari mumkin, lekin vaqt o‘tishi bilan ular sheriklariga e’tibor berishni o‘rganadilar.

5. Mas’uliyatli qarorlar qabul qilish. Bu insonning axloqiy me’yorlar, xavf-xatarlarni baholash va boshqalarga ta’sirini hisobga olgan holda oqilona va mas’uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali ongli ravishda murakkab qarorlar qabul qila olmasalar ham, ularda bu qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Ular nima yaxshi va nima yomon degan tushunchalarni o‘zlashtira boshlaydi. Navbatda turish, do‘stlariga yordam berish kabi kattalar belgilab bergan axloqiy qoidalar asosida harakat qilishadi. Agar bola o‘yinchoqni boshqa bola bilan birga o‘ynashi kerakligini tushunib birga o‘ynasa yoki yig‘layotgan o‘rtog‘ini ko‘rib, unga yordam berishga harakat qilsa mas’uliyatli qaror qabul qilgan hisoblanadi.

Ushbu kompetensiyalarning barchasi maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuviga bevosita ta’sir qiladi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko‘nikmalar uchun zarur bo‘lgan kognitiv tuzilmalar endigina shakllanayotgan bo‘ladi. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan SEL dasturlari asosan asosiy poydevor ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, maktab yoshi uchun mo‘ljallangan dasturlar ko‘pincha ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni tizimli tarzda o‘rgatish hamda ijobiy va xavfsiz sinf muhitini yaratish orqali amalga oshiriladi. Lekin maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini boshqarish uchun mas’ul neyron tuzilmalar endigina rivojlanayotganligi sababli ular ko‘proq tashqi yordamga, ya’ni kattalar tomonidan beriladigan qo‘llab-quvvatlashga tayanadi. Shu sababli, bu yoshdagi SEL dasturlarida o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashi va ijobiy sinf boshqaruvi markaziy o‘rin tutadi[20].

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida oila birlamchi va eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Bola dastlabki bilim va ko‘nikmalarini, his-tuyg‘ularni boshqarish, muloqot qilish, ijtimoiy qoidalarga rioya etishni avvalo oilada o‘rganadi. Shu sababli bola tarbiyasida ota-onalarning faol ishtiroki va oilaviy tarbiya mexanizmlarining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bolaning keyingi ta’lim va tarbiyasida hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Oilaviy muhit bolaning shaxs sifatida shakllanishida asosiy poydevordir. Ota-onalarning mehribonligi, o‘zaro hurmati, bir-biriga e’tibori, shuningdek, bolaga bo‘lgan munosabati ijtimoiy-emotsional rivojlanishning sifatini belgilaydi. Ijobiy oilaviy muhitda ulg‘ayayotgan bolaning o‘ziga ishonchi yuqori bo‘ladi[21]. Boshqalar bilan muloqot qilish, hamkorlik qilish va muammolarni hal qilishni o‘rganadi. Salbiy oilaviy muhitda esa bolada o‘ziga bo‘lgan ishonch past bo‘ladi, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga ko‘proq uchraydi.

Ota-onaning farzandi tarbiyasiga bo‘lgan ongli munosabati ularning pedagogik bilimlari va madaniyatiga bevosita bog‘liq. Pedagogik madaniyati yuqori bo‘lgan ota-ona farzandining hissiy ehtiyojlarini to‘g‘ri tushunadi, u bilan samarali muloqot o‘rnatadi, muammoli vaziyatlarda unga yordam beradi. Buning uchun ota-ona turli oilaviy tarbiya mexanizmlaridan foydalanishi mumkin. Jumladan:

Axloqiy me’yorlarni o‘rgatish. Bolaga halollik, mehribonlik, mas’uliyatlilik, o‘zi va boshqalarning hurmat qilish kabi qadriyatlarni o‘rgatish kerak. Axloqiy me’yorlarni singdirishda so‘zdan ko‘ra amaliy namuna kuchliroq ta’sir qiladi. Ota-onaning halol mehnat qilishi, kattalarga yordam berishi yoki kichiklarga mehr ko‘rsatishi bolaga bevosita o‘rnak bo‘ladi. Shu tariqa bola

[20] Bierman, Karen L., and Mojdeh Motamedi. "Social and emotional learning programs for preschool children." Handbook of social and emotional learning: Research and practice (2015): 135-151.

[21] M. Sanaqulova, B. Umarov. Oilaviy muhitning farzand tarbiyasiga pedagogik va psixologik ta’siri. Академические исследования в современной науке. 4, 18 (апр. 2025), 76–80.

kundalik hayotda axloqiy qadriyatlarni ongli ravishda qabul qiladi va asta-sekin ularni o‘z xulq-atvorida qo‘llay boshlaydi.

Ijtimoiy muloqot amaliyoti. Bola va ota-ona o‘rtasidagi kundalik suhbatlar, birgalikdagi o‘yinlar hamda oilaviy faoliyat jarayonida kommunikativ ko‘nikmalar shakllanib boradi. Bola ilk bor gapirishni, savol berishni, fikrini ifodalashni va boshqalarni tinglashni avvalo o‘z oilasida o‘rganadi. Shuning uchun ota-onaning bola bilan muloqot uslubi, unga bo‘lgan munosabati bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Namuna ko‘rsatish. Ota-onaning shaxsiy xulq-atvori bolaga bevosita ta’sir etuvchi eng kuchli tarbiya vositasidir. Chunki bola kattalarning so‘zidan ko‘ra, ularning amaliy odatlarini tezroq qabul qiladi. Ota-onaning halol mehnat qilishi, boshqalarga yordam berishi, sabrli va adolatli bo‘lishidan bola o‘rnak oladi. Shu sababli “namuna ko‘rsatish”ni tarbiyaning eng samarali ijtimoiy-pedagogik mexanizmlaridan biri sifatida baholash mumkin. Bola o‘zini ota-onasiga qiyoslaydi, ularni ideal sifatida ko‘radi va ularning xulqini ongli yoki ongsiz ravishda o‘zlashtirib boradi.

Rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash. Bolaning ijobiy xatti-harakatlarini qadrlash, ularni e’tirof etish va rag‘batlantirish uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Ota-onaning mehribonligi, maqtovi va kichik sovg‘alari bolaning motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ota-onaning hissiy qo‘llab-quvvatlashi – quchoqlash, tabassum, samimiy suhbat ham bolaning ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy rivojlanish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, uning muvaffaqiyatli kechishi uchun oila va maktabgacha ta’lim tashkilotining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Bolaning ijtimoiy ongi oilada shakllanibgina qolmay, balki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Bolalar bog‘chasi nafaqat bilim berish, balki ijtimoiylashuv jarayonining asosiy maydonidir. Bog‘chada bolada guruhlardagi rolli va harakatli o‘yinlar o‘ynash orqali, qoidalarga amal qilish, jamoa a’zolarini hurmat qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllanadi. Ota-onalar bog‘cha tarbiyachilari bilan doimiy muloqotda bo‘lishi, tarbiya jarayonida yagona yondashuvni qo‘llashi bolaning ijtimoiy-hissiy barqarorligiga ijobiy ta’sir qiladi. Oilaviy tarbiya bilan bog‘chadagi tarbiyaning o‘zaro muvofiqlashtirilishi bolada ijtimoiy mas’uliyat, kommunikativ ko‘nikmalar, empatiya, halollik, hamkorlik va birdamlik kabi asosiy ijtimoiy-hissiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ota-ona bolani tarbiyalashda asosiy mas’ul shaxslar sifatida mehr, qo‘llab-quvvatlash va ijobiy muhit yaratishda yetakchi rol o‘ynaydilar. Ular maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan hamkorlik qilish orqali, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini boyitishlari mumkin.

Hamkorlik asosida olib borilgan tarbiya jarayoni bolalarda o‘zini anglash, hissiyotlarni boshqarish, empatiya, ijtimoiy mas’uliyat va sog‘lom muloqot kabi asosiy ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning shakllanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Sanaqulova, B. Umarov. Oilaviy muhitning farzand tarbiyasiga pedagogik va psixologik ta’siri. Академические исследования в современной науке. 4, 18 (апр. 2025), 76-80.
2. Kaur, J., & Sharma, A. (2021). Establishing Early Foundations to Promote Emotional Competence in Preschool Children. Journal of Applied Social Science, 16(2), 399-418 // https://doi.org/10.1177/19367244211054381 (Original work published 2022)
3. Fundamentals of SEL // https://casel.org/fundamentals-of-sel/

4. What Is the CASEL Framework? // https://casel.org/fundamentals-of-sel/what-is-the-casel-framework/
5. SEL with Families & Caregivers // http://casel.org/systemic-implementation/sel-with-families-caregivers/
6. Bierman, Karen L., and Mojdeh Motamedi. "Social and emotional learning programs for preschool children." Handbook of social and emotional learning: Research and practice (2015): 135-151.

IJTIMOIYLASHUV JARAYONI INKLYUZIV TA’LIMNING ASOSIY NEGIZI SIFATIDA

Yunusova Xusnora Shuxrat qizi
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi doktoranti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida ijtimoiylashuv jarayoni asosiy o‘rin egallashi hamda inklyuziv ta’limning nazariy asoslari yuzasidan ma’lumotlar yoritib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiylashuv jarayoni, inklyuziv ta’lim, imkoniyati cheklanganlik, ta’lim, tarbiya, muhit, hamkorlik, nazariy asos, izlanish*

Inklyuziv ta’lim atamasi hozirgi pedagogika va maxsus pedagogika fanida keng qo‘llanayotgan tushuncha bo‘lib, turli manbalarda unga bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ba’zan farqli ta’riflar berilgan. Umumiy ma’noda, inklyuziv ta’lim – bu ta’limda hech bir o‘quvchi hech qanday diskriminatsiyasiz ishtirok etishi va o‘z tengdoshlari bilan birgalikda to‘laqonli ta’lim olishi ta’minlanadigan jarayonni anglatadi.[1] Ya’ni, inklyuziv ta’lim tizimi har qanday jismoniy, aqliy, ijtimoiy yoki boshqa xususiyatlardan qat’i nazar, barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan yagona umumta’lim tizimidir. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” Qonunida “inklyuziv (uyg‘unlashgan) ta’lim” tushunchasi joriy etilib, ta’lim olishda barcha fuqarolar teng huquqli ekani va zarur hollarda ularga mos sharoitlar yaratib berish davlat majburiyati ekani qayd etilgan.[1] Shu tariqa, inklyuziv ta’limning huquqiy talqini ham uning bosh g‘oyasi – tenglik va moslashtirilgan imkoniyatlar – tamoyiliga asoslanadi.

“Inklyuziya” tushunchasi nazariy adabiyotlarda tor va keng ma’noda ishlatiladi. Tor ma’noda ba’zi mualliflar inklyuziyani faqat nogironligi bo‘lgan shaxslarning umumta’lim muhitiga qo‘shilishi (ya’ni, integratsiya qilinishi) sifatida talqin qilgan bo‘lsa, keng ma’noda inklyuziya har qanday o‘quvchini (nogironligidan tashqari, milliy ozchilik, ijtimoiy nochor qatlam, til yoki din jihatdan ozchilik vakili, muhojir, yuqori iste’dodli bola va hokazo) umumiy ta’limga to‘liq jalb etishni nazarda tutadi[2]. Masalan, rossiyalik tadqiqotchi O.V. Korshunovaning ta’kidlashicha, “inklyuziv ta’lim” tushunchasi keng ma’noda jamiyatdagi turli guruhlarga mansub barcha bolalarni – nogironlar, etnik ozchilik vakillari, muhojirlar, qamoqdagi yoshlar, qishloq joydagi bolalar, iqtidorli bolalar va boshqalarni – yagona ta’lim tizimiga kiritishni anglatadi[3]. Bu yondashuv inklyuziv ta’limni faqat maxsus ehtiyojli bolalar masalasidan kengroq, ya’ni har qanday “chetda qolgan” guruhlarni qamrab oluvchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etadi. Biroq, amaliyotda “inklyuziv ta’lim” atamasi asosan imkoniyati cheklangan (alohida ta’lim ehtiyojlariga ega) bolalarni umumiy ta’lim maktablariga integratsiya qilish jarayoniga nisbatan qo‘llanadi, chunki aynan shu toifa an’anaviy ta’limdan uzoq yillar chetda qoldirib kelingan. Shu sabab, bu bo‘lim doirasida asosan nogironligi yoki rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar ta’limini umumiy tizimga qo‘shish (ya’ni, inkluziya) nuqtai nazaridan fikr yuritamiz, ammo zarurat tug‘ilganda boshqa inklyuziya yo‘nalishlariga ham ishora beriladi.

Ilmiy adabiyotlarda “integratsiya” va “inklyuziya” tushunchalari bir-biridan farqlanadi. Integratsiya odatda maxsus ehtiyojli bolalarni oddiy maktabga moslashtirish jarayonini

ifodalaydi – bunda bola mavjud tizimga moslashishi talab etiladi va tizimning o‘zi unchalik o‘zgarmaydi. Masalan, 1980-90 yillarda ko‘plab mamlakatlarda nogiron bolalarni maxsus internatlardan chiqib, oddiy maktablarga joylashtirish harakatlari integratsiya deb atalgan (bu jarayonda bola “oddiy” sinfga kirishi, lekin asosan ota-onalar va o‘qituvchilardan qo‘shimcha talab va bosim bo‘lishi mumkin edi). Inklyuziya esa bundan tubdan farqli konsepsiya bo‘lib, unda ta’lim tizimi bolaga moslashadi, nafaqat bola tizimga. Ya’ni, inklyuziv ta’limda maktab muhitining o‘zi har bir o‘quvchining ehtiyojlarini qondira oladigan darajada o‘zgaradi, maxsus qo‘llab-quvvatlash xizmatlari joriy etiladi, dasturlar moslashtiriladi. Integratsiya modeli “bola tayyor bo‘lsa, oddiy maktabga qabul qilamiz” degan tamoyilga asoslansa, inklyuziya modeli “maktab bolaga tayyor bo‘lishi kerak, chunki har bir bola oddiy maktabda o‘qishi huquqiga ega” degan tamoyilga tayanadi[4]. Shunday qilib, integratsiya – bu qisman va shartli qo‘shilish (ko‘pincha, “maxsus sinf”lar yoki alohida dasturlar shaklida), inklyuziya esa – to‘liq va shartsiz qo‘shilish (barcha bolalar birgalikda o‘qiydi, tizim zarur moslashuvlarni ta’minlaydi) sifatida tushuniladi. Ba’zi manbalarda “inkorporatsiya” atamasi ham uchrashi mumkin; u asosan integratsiyaga yaqin ma’noda qo‘llanib, yangi subyektni mavjud tizimga kiritish jarayonini anglatadi (lotincha incorporare – “tanaga qo‘shmoq”). Biroq, ta’lim kontekstida “inkorporatsiya” atamasi kam ishlatiladi; ko‘proq ijtimoiy integratsiya jarayonlarini tasvirlashda (masalan, migrantlarning jamiyatga inkorporatsiyasi) uchraydi. Shuning uchun bu bo‘limda asosan “integratsiya” va “inklyuziya” tushunchalarini farqlash bilan cheklanamiz. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, integratsiya – inkluziyaga tomon qo‘yilgan ilk qadam bo‘lib, inklyuziv ta’lim konsepsiyasi integratsiya g‘oyasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqqan[5]. Masalan, N.N. Malofeev integratsiyalashgan ta’limni “maxsus maktabdan inkluziv maktabga o‘tish yo‘lidagi oraliq bosqich” deb atagan va inklyuziv modelda barcha bolalar uchun birgalikda ta’lim olish huquqiy kafolatlanishi lozimligini ta’kidlagan[6].

An’anaviy ravishda imkoniyati cheklangan bolalar uchun tashkil etib kelingan maxsus maktablar tizimi “maxsus ta’lim” (yoki “korrektiv pedagogika”) deb ataladi. Maxsus ta’limda bolalar alohida muassasalarda, maxsus dasturlar asosida o‘qitiladi.

Ta’limning mazmuni ham, shakli ham umumiy maktabdan ajratilgan holda kechadi. Inklyuziv ta’lim esa, yuqorida ta’riflanganidek, bunday bolalarni umumiy ta’lim muassasalarida o‘qitishni ko‘zda tutadi – albatta, zarur bo‘lsa, ularga oqilona moslashtirishlar (ing. reasonable accommodation) va maxsus qo‘llab-quvvatlash xizmatlari taqdim etilgan holda. BMT Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasining 24-moddasida ishtirokchi davlatlar “nogiron shaxslarning boshqalardan ajralmagan holda umumiy ta’lim tizimida ta’lim olishini ta’minlash” majburiyatini oladilar va buning uchun individual moslashuv hamda yordamchi vositalar bilan ta’minlash (oqilona moslashtirish) zarurligini qayd etadilar[7]. Demak, xalqaro huquqiy maydonda “inklyuziv ta’lim” konsepti maxsus ta’limdan farqli o‘laroq, nogiron bolalarning segregatsiyasini bartaraf etishga qaratilgan yangi yondashuv sifatida tan olinadi. Bu borada akademik adabiyotlarda “inklyuziv ta’lim – ta’lim tizimini o‘zgartirish jarayoni, maxsus ta’lim esa tizimdan tashqarida alohida xizmat ko‘rsatish jarayoni” ekani ta’kidlanadi[8]. Shuningdek, “maxsus ta’lim” odatda ayrim bolalarning alohida ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus usullar majmui bo‘lsa, “inklyuziv ta’lim” – butun ta’lim muhitini barcha bolalar uchun moslashtirish falsafasi va amaliyotidir[9]. Bu esa, albatta, ta’lim siyosati va amaliyotida jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi – shu jihatdan inklyuziv ta’lim konsepsiyasi ta’lim tizimini demokratlashtirish va ta’limda ijtimoiy adolat tamoyillarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim mazmunini to‘g‘ri anglash uchun bir qator tayanch tushunchalar mavjud. Ulardan biri – yuqorida qayd etilgan “oqilona moslashtirish” (reasonable accommodation)

tushunchasi. Uning mazmuni shundan iboratki, har bir maxsus ehtiyojli shaxsning ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan qulay sharoitlar yaratilishi lozim, va bu sharoitlar boshqalar uchun disproportsion yoki nomutanosib qiyinchilik tug‘dirmasligi kerak.

Inklyuziv ta’lim tushunchasining rivojlanishi ta’lim va nogironlik sohasidagi nazariy paradigmalar evolyusiyasi bilan chambarchas bog‘liq. XX asr davomida nogironlikni tushunishning tibbiy modelidan ijtimoiy modelga tomon siljishi sodir bo‘ldi va bu o‘zgarish ta’lim tizimida inkluziya g‘oyasining paydo bo‘lishiga zamin yaratdi[10]. Tibbiy (defektologik) model nogironlikni shaxsning muammosi sifatida ko‘rib, diqqatni individual nuqsonni “davolash” yoki kompensatsiya qilishga qaratgan edi. Ta’lim jarayonida bu model boladagi kamchilikni tuzatishga urg‘u beradi – maxsus maktablar va maxsus dasturlar aynan shunday yondashuv mahsuli bo‘lgan. Ijtimoiy model esa nogironlikni jamiyat va muhitning xususiyatlari nuqtai nazaridan ko‘radi. Ya’ni, nogironlik – bu shaxs va atrof-muhit o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasi, muhitning moslashmagani sababli yuzaga keladigan to‘siqlar majmuasidir[11]. Demak, ijtimoiy modelga ko‘ra, muammoni shaxsning o‘zidan emas, balki uni o‘rab turgan muhit va jamiyat tuzilmasidan izlash lozim. Ta’limda ijtimoiy model tamoyillarini tatbiq etish inklyuziv ta’lim konsepsiyasiga bevosita olib keldi – ya’ni, maktab tizimini shunday o‘zgartirish kerakki, u barcha bolalar uchun “tayyor” bo‘lsin, bolalarni alohida maktablarga ajratishga zarurat qolmasin.

2006-yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya ham aynan ijtimoiy model ruhida, nogironlarning ta’limga bo‘lgan huquqlarini teng amalga oshirishni davlatlardan talab etdi va inklyuziv ta’limni huquqiy norma sifatida belgiladi.

Hozirgi nazariy paradigmada “nogiron bolalar uchun maxsus maktab” emas, balki “barcha bolalar bir maktabda, bir-biridan o‘rganishi va o‘sishi kerak” degan g‘oya ustuvor ekani ilmiy hamjamiyatda keng e’tirof etiladi[12].

Ta’limdagi yondashuv o‘zgarishini tushunishda huquqiy-normativ paradigma va ijtimoiy adolat yondashuvi muhim o‘rin tutadi. Huquqiy-normativ nuqtai nazardan, inklyuziv ta’lim har bir bolaning ta’lim olishga bo‘lgan ajralmas huquqi sifatida qaraladi. Ya’ni, nogiron bolani ta’limdan chetda qoldirish yoki uni segregatsiyalangan holda (maxsus maktabda) o‘qitish – bolaning fundamental huquqlarini buzish sifatida ko‘riladi. Bu yondashuv 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va keyinchalik Inchen deklaratsiyasi hamda Nogironlar huquqlari Konvensiyasida mustahkamlandi. Shu asosda ko‘plab mamlakatlar milliy qonunchiligiga inklyuziv ta’lim normalarini kiritdi (O‘zbekiston ham 2020-yilda Ta’lim to‘g‘risidagi qonunga inkluziv ta’lim tushunchasini kiritdi). Ijtimoiy adolat yondashuvi esa inklyuziv ta’limni kengroq, jamiyatdagi tenglik va adolatlilik masalasi sifatida ko‘radi. Bu yondashuv tarafdorlari fikricha, maktab jamiyatning bir qismi bo‘lib, agar jamiyat tenglik va inklyuziya tamoyillariga amal qilmoqchi bo‘lsa, u holda maktabdan boshlashi lozim – barcha farqlarni qamrab oluvchi inkluziv maktablargina ijtimoiy adolatni ta’minlaydi.

G‘arb olimlari (masalan, R. Slee) inklyuziv ta’limni tirik ijtimoiy jarayon deb atab, uning amalga oshirilishi jamiyatning demokratiya va inson huquqlari bilan bog‘liq qadriyatlarini aks ettirishini uqtiradi[13]. Shu bois, inklyuziv ta’lim ko‘pincha ijtimoiy siyosat qismi sifatida ham ko‘riladi – ya’ni, u nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy siyosiy masala hamdir[14].

Nazariy konsepsiyalar qatorida inklyuziv ta’limni tushuntirishda qobiliyatlar yondashuvi (ing. capability approach) ham ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv (A. Sen va M. Nussbaum tomonidan ilgari surilgan) insonlarning real imkoniyatlari va ularga yaratilgan shart-sharoitlarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ta’limdagi tenglik masalasini faqat resurslar yoki natijalar tengligidangina iborat emas, balki imkoniyat adolati (ya’ni, har kim o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng sharoitga ega bo‘lishi) nuqtai nazaridan ko‘rib chiqishni taklif

etadi[15]. Inklyuziv ta’limda bu yondashuv quyidagicha namoyon bo‘ladi: formaldavlat ta’limi hamma uchun ochiq bo‘lishi (ruxsat berilishi) yetarli emas, balki amalda har bir bola ta’lim olish erkinligi va imkoniyatidan foydalana olishi uchun zarur qo‘llab-quvvatlash va resurslar bilan ta’minlanishi lozim[16]. Shu ma’noda, oddiy maktabga qabul qilingan nogiron bola sinf xonasida faqat “jismonan mavjud” bo‘lib qolmasdan, uning teng ishtiroki va muvaffaqiyatga erishishi uchun sharoitlar yaratilishi – qobiliyatlar yondashuvi talabi bo‘ladi. Bu, aslida, tenglik va adolat masalasining ta’limdagi aksidir: tenglik (equality) barchaga bir xil resurs taqdim etish bo‘lsa, adolat (equity) – har bir o‘quvchining ehtiyojiga mos qo‘llab-quvvatlash berib, ularni haqiqiy teng start holatiga keltirishdir.

Rasmiy huquqiy tenglik real ta’lim natijalarida nomutanosibliklarni yo‘qotmasligi mumkin; shu bois adabiyotlarda “tenglik vs adolat” dialektikasi alohida ta’kidlanadi hamda inklyuziv ta’lim adolat tamoyilini ilgari surishi bilan asoslanadi. Misol uchun, S. Miles va N. Singal ta’lim uchun hamma bolalarni qamrab olish (EFA – Education for All) siyosati va inkluziya g‘oyasi o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, oddiy maktabda o‘qish imkoniyati huquqi o‘z-o‘zidan ijtimoiy tenglikka olib kelavermasligini, buning uchun qo‘shimcha adolatlilik choralari zarurligini qayd etganlar[17]. Demak, inklyuziv ta’limdagi nazariy paradigma ijtimoiy adolat va imkoniyatlar tengligini ta’minlash g‘oyasini ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Booth, T. and Ainscow, M. (2011) Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. Centre for Studies on Inclusive Education, Bristol.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. (2020-yil 23-sentabr). *Ta’lim to‘g‘risida* (O‘RQ-637-son). Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma’qullangan. LexUZ on-line. https://lex.uz/docs/5013007
3. Masodiqova D. (2022). MAMLAKATIMIZDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (3-1 (94)), 662-665.
4. Коршунова О. В. *Теоретико-методологические основы инклюзии в образовании // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 8. – С. 16–20. – URL: http://e-koncept.ru/2016/56114.htm.*
5. Qodirova, F. U., & Pulatova, D. A. (2022). *Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot*. Yangi Chirchiq Book. ISBN: 978-9943-9166-0-9.
6. Ibrohimov, F. A., and Z. M. Kabirova. "Inklyuziv ta’lim va yangicha pedagogik yondashuvlar." *Academic research in educational sciences* 2.CSPI conference 1 (2021): 567-571.
7. Малофеев, Н. Н. (2016). Развитие инклюзивного образования в России. *Инклюзия в образовании: Научно-методический журнал*, 1, 7–15. Университет управления «ТИСБИ».
8. United Nations. (2006). *Convention on the Rights of Persons with Disabilities*, Article 24 (Education). UN General Assembly Resolution 61/106. Retrieved from UN website
9. Broderick, A. (2018). Equality of what? The capability approach and the right to education for persons with disabilities. *Social Inclusion, 6*(1), 29-39.
10. Lim, Sumin. (2019). The Capabilities Approach to Inclusive Education: Re-envisioning the Individuals with Disabilities Education Act’s Least Restrictive Environment. Disability & Society. 35. 570-588. 10.1080/09687599.2019.1649119.

11. Schuelka, M., & Johnstone, C. J. (2012). Global trends in meeting the educational rights of children with disabilities: From international institutions to local responses. *Reconsidering Development*, *2*(2). Retrieved from https://pubs.lib.umn.edu/index.php/reconsidering/article/view/573
12. Лиходедова, Л. Н. Теория и практика инклюзивного образования. Костанай: КГПИ, 2017. – 165 s. ISBN 978-601-7934-22-4
13. Slee, R. (2018). Inclusive Education isn't Dead, it Just Smells Funny (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429486869
14. Slee, R. (2018). Inclusive Education isn't Dead, it Just Smells Funny (1st ed.). Routledge. https://doi.org/10.4324/9780429486869
15. Малофеев, Н. Н. (2016). Развитие инклюзивного образования в России. *Инклюзия в образовании: Научно-методический журнал*, 1, 7–15. Университет управления «ТИСБИ».
16. Lim, Sumin. (2019). The Capabilities Approach to Inclusive Education: Re-envisioning the Individuals with Disabilities Education Act’s Least Restrictive Environment. Disability & Society. 35. 570-588. 10.1080/09687599.2019.1649119.
17. Grindal, Todd & Hehir, Thomas & Freeman, Brian & Lamoreau, Renee & Borquaye, Yolanda & Burke, Samantha. (2016). A Summary of the Research Evidence on Inclusive Education.
18. Miles, Susie & Singal, Nidhi. (2010). The Education for All and inclusive education debate: Conflict, contradiction or opportunity?. International Journal of Inclusive Education. 14. 10.1080/13603110802265125.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA MATEMATIK TILNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Zaynitdinova Masuda Abdukadirovna
Toshkent viloyati pedagogik mahorat markazi “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida matematik tilni rivojlantirishning nazariy, metodik va me’yoriy asoslari tahlil qilingan. Vigotskiy, konstruktivizm, metakognitiv yondashuv va MRT metodi kabi pedagogik modellar asosida til orqali fikrlashni shakllantirish usullari xorijiy tajriba (Kanada, Singapur, Finlyandiya)lar va PISA natijalari asosida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar keltirilgan.*

Annotatsiya. *V dannoy state analiziruyutsya teoreticheskie, metodicheskie i normativnыe osnovы razvitiya matematicheskogo yazыka u shkolnikov. Na osnove pedagogicheskix modeley Vыgotskogo, konstruktivizma, metakognitivnogo podxoda i metoda MRT rassmatrivayutsya sposobы formirovaniya mыshleniya cherez yazыk s uchetom mejdunarodnogo opыta (Kanada, Singapur, Finlyandiya) i rezultatov PISA. A takje v state predstavlenы metodicheskie rekomendatsii dlya uchiteley.*

Annotation. *This article analyzes the theoretical, methodological, and normative foundations for developing mathematical language among school students. It explores approaches to shaping thinking through language based on pedagogical models such as Vygotsky’s theory, constructivism, the metacognitive approach, and the MRT method. These methods are examined in the context of international experience (Canada, Singapore, Finland) and PISA results. Additionally, the article provides methodological recommendations for teachers.*

”Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”
Sh.M.Mirziyoev.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi F-60-sonli Farmonining qabul qilinishi ta’lim tizimi oldiga ham dolzarb vazifalarni qo‘ydi. Buni biz mazkur xujjatning to‘rtinchi “A**dolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”** bo‘limida belgilab berilgan maqsadlarida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Milliy dastur”da belgilangan quyidagi vazifalarda ham ko‘ramiz:

- Ilg‘or xorijiy tajriba asosida ta’lim sifatini oshirish;

- Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish.

O‘quvchi-yoshlarda XXI asr ko‘nikmalarini – mustaqil tanqidiy va ijodiy fikrlashni, kommunikatsiya – muloqotga, munosabatga kirisha olish ko‘nikmalarini, kollaborativ – jamoada hamkorlikda ishlay olish malakalarini shakllantirish va ulardan jamiyatimiz taraqqiyoti yo‘lida foydalana olish malakalarini rivojlantirishni taqozo etadi.

Bu esa bizningcha, umumta’lim maktablarida matematika ta’limining ham sifatiga bog‘liqdir. Chunki matematika o‘quv fanining talablar darajasida o‘zlashtirilishi nafaqat aniq va tabiiy fanlar, balki, barcha fanlarning ham o‘zlashtirilishiga hamda o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Matematik til — bu faqatgina formulalar va raqamlar emas, balki fikrlash, tushuntirish va dalillash qobiliyatini shakllantiradigan muhim vositadir. Maktab o‘quvchilarida matematik tilni rivojlantirish nafaqat fanni yaxshi o‘zlashtirish, balki mantiqiy fikrlash, muammolarni yechish va mulohaza yuritish salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

1.Matematik til — matematik savodxonlikning asosiy komponenti

PISA tadqiqotlarida matematik savodxonlik faqat formulalarni yodlash emas, balki **real hayotda matematik tushunchalarni qo‘llash**, **muammolarni tahlil qilish**, **izohlash** va **dalillash** qobiliyati sifatida baholanadi.

Bu ko‘rsatadiki, matematik tilni rivojlantirish — PISAda yuqori natijaga erishish uchun zarur shart.

2. O‘quvchilarning mulohaza yuritish va izohlash qobiliyati yetarli darajada emas

O‘zbekiston PISA-2022 natijalariga ko‘ra, 15 yoshli o‘quvchilar matematikadan o‘rtacha **364 ball** to‘plagan, bu xalqaro o‘rtacha ko‘rsatkichdan pastroq hisoblanadi.

Bu natija o‘quvchilarda matematik atamalarni to‘g‘ri qo‘llash, izohlash va mulohaza yuritish ko‘nikmalari yetarli emasligini ko‘rsatadi.

3. Matematik til — ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. PISA testlari o‘quvchidan **ijodiy yondashuv**, **tanqidiy tahlil**, **vaziyatni baholash** va **muammoga yechim topish**ni talab qiladi. Bu jarayonda til asosiy vosita hisoblanadi.

Matematik tilni rivojlantirish — faqat fanni emas, balki umumiy fikrlash salohiyatini ham oshiradi.

Matematik tilni rivojlantirishda quyidagi pedagogik nazariyalar muhim o‘rin tutadi:

- **Vigotskiyning “Yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi**: o‘quvchiga yangi tushunchalarni o‘rgatishda unga yaqin bo‘lgan bilimlar orqali yetaklash.
- **Konstruktivizm**: o‘quvchi o‘z bilimini faol ravishda qurishi kerak, bu jarayonda til asosiy vosita hisoblanadi.
- **Metakognitiv yondashuv**: o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonini anglay olishi va nazorat qilishi lozim.

L.S. Vigotskiy ta’limda o‘quvchining mustaqil ravishda bajara oladigan vazifalari bilan, katta yordamda bajara oladigan vazifalari orasidagi farqni "yaqin rivojlanish zonasi" deb atagan. Matematikada **o‘**qituvchi o‘quvchiga yangi matematik tushunchalarni tushuntirishda uning mavjud bilimlariga tayanadi. Masalan, o‘quvchi "sonlar"ni biladi, shundan kelib chiqib "o‘zgaruvchilar" tushunchasiga o‘tish osonroq bo‘ladi. Dialog, savol-javob va qo‘llab-quvvatlov orqali o‘quvchi matematik atamalarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganadi.

Finlyandiyada o‘quvchilarga individual yondashuv asosida ta’lim beriladi. O‘qituvchi o‘quvchining mavjud bilimlarini aniqlab, unga yaqin bo‘lgan bilimlar orqali yangi tushunchalarni o‘rgatadi.

Matematika darslarida o‘qituvchi o‘quvchiga savollar berish, mulohaza yuritish va tushuntirish orqali tilni rivojlantiradi.

Fin maktablarida "matematik muloqot kunlari" tashkil etiladi, bu yerda o‘quvchilar guruhlarda ishlab, masalalarni izohlash orqali tilni faol rivojlantiradilar.

2. Konstruktivizm nazariyasi. Konstruktivizmga ko‘ra, o‘quvchi bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni faol ravishda "quradi", ya’ni o‘z tajribasi va mulohazalari orqali shakllantiradi.

Ya’ni: O‘quvchiga masalani yechish jarayonida o‘z fikrini ifoda qilishga imkon berish.

- Matematik tushunchalarni faqatgina yodlash emas, balki ularni izohlash, misollar keltirish orqali o‘zlashtirish.
- Guruhli ishlarda o‘zaro fikr almashish orqali tilni boyitish.
- Singapurda "Concrete–Pictorial–Abstract" (CPA) modeli asosida o‘qitish amalga oshiriladi. Bu modelda o‘quvchi avval amaliyot orqali tushunchaga ega bo‘ladi, keyin vizual shaklda ko‘radi va so‘ngra abstrakt formulaga o‘tadi.
- Matematik til CPA modelida har bosqichda izohlash, tushuntirish va mulohaza yuritish orqali shakllanadi.

CPA (MRT) MODELI:

Inglizcha	O‘zbekcha	Izoh
Concrete	Moddiy bosqich	Real buyumlar, qo‘l bilan ushlab ko‘rish mumkin bo‘lgan ob’ektlar orqali tushunchani o‘rganish. Masalan: kubiklar, tortni bo‘lish, shakllar.
Pictorial	Rasmli bosqich	Rasmlar, diagrammalar, grafiklar orqali tushunchani vizual ifodalash. Masalan: kasrlarni tort rasmida ko‘rsatish.
Abstract	Abstrakt (timsolli) bosqich	Formulalar, belgilar, matematik atamalar orqali tushunchani umumlashtirish. Masalan: **½ + ⅓ = ?** kabi amallar.

Masalan, "kasrlar" mavzusida o‘quvchilar avval real ob’ektlar bilan ishlaydilar, keyin rasmlar orqali tushunishadi va oxirida matematik atamalarni yozma va og‘zaki ifoda qilishga o‘tadilar.

Amaliyotda qo‘llanilayotgan **“AHA” — Ajablanarli, Hayratlanarli, Ajoyib** 5-6-sinflar uchun matematika darsliklari aynan shu model asosida tuzilgan.Ya’ni:

- Darsliklar “AHA!” brendi ostida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quvchida qiziqish uyg‘otish, mulohaza yuritish va ijodiy fikrlashni rag‘batlantirishga qaratilgan.
- Darsliklarda **real hayotga bog‘langan masalalar**, **muammoli topshiriqlar**, **interfaol savollar** va **izohlashga qaratilgan mashqlar** joriy etilgan.

PISA uslubidagi topshiriqlar: “Nima uchun?”, “Qanday yo‘l bilan?”, “Qanday aloqalar bor?” kabi savollar orqali o‘quvchida tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Darsliklarda **diagrammalar**, **grafiklar**, **jadvallar**, **rasmlar** va **simvolik belgilar** orqali tushunchalarni vizual ravishda ifoda qilishga e’tibor kuchaytirilgan. Bu elementlar matematik tilni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Har bir mavzudan so‘ng **atamalarni izohlash**, **og‘zaki tushuntirish**, **yozma fikr bildirish** kabi mashqlar joriy etilgan. Darslikda

“Fikrlash kundaligi” kabi bo‘limlar bor, bu yerda o‘quvchi o‘z yechimini izohlaydi va tahlil qiladi.

1. M — MODDIY. O‘quvchi tushunchani **real buyumlar**, **qo‘l bilan ushlab ko‘rish mumkin bo‘lgan ob’ektlar** yordamida o‘rganadi.

2. R — RASMLI. O‘quvchi tushunchani **rasmlar**, **diagrammalar**, **grafiklar** orqali vizual ravishda qabul qiladi.

3. T — TIMSOLLI. O‘quvchi tushunchani **simvollar**, **formulalar**, **matematik belgilar** orqali abstrakt shaklda ifodalaydi.

MRT metodi orqali mavzuni, ma’lumotlarni bosqichma-bosqich tushunish: o‘quvchi avval moddiy, keyin vizual, so‘ng abstrakt shaklda tushunchani o‘zlashtiriladi. **Til va fikrlashni uyg‘un rivojlantirish**: har bir bosqichda izohlash, tushuntirish va mulohaza yuritish talab etiladi. **PISA talablariga mos**: real hayotga bog‘langan, vizual va abstrakt yechimlar orqali savodxonlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, amaldagi matematika darsliklarida o‘quvchilarda matematika tilni rivojlantirish va u orqali matematika o‘quv fanini samarali o‘zlashtirilishi uchun kerakli nazariy va amaliy materiallar maqsadli kiritilgan. Bu darsliklarning mazmuni, tuzilishi, qo‘llanilayotgan zamonaviy modellar boshlang‘ich sinflarning darsliklariga ham tatbiq etilsa umumta’lim maktablarida nafaqat matematika ta’limining samarali o‘zlashtirilishiga, balki boshqa fanlarning ham o‘quvchilar tomonidan Davlat ta’lim standarti talablari darajasida o‘zlashtirilishiga hamda ularning PISA tadqiqotlaridan muvaffaqiyatli ishtiroklarini ta’minlashga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni, - T.: 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son Farmoni**, - T.: 2019.**
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida” PF-134-son Farmoni, - T.: 2022.

O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY-EMOTSIONAL MUHIT ASPEKTIDAGI FUQAROLIK POTENTSIALINING PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI

Zemlina Yuliya Vyacheslavovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Oliy toifali o‘qituvchi, Toshkent shahridagi 51-sonli maktab

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы психологической диагностики уровня гражданского потенциала школьников. Определены требования к проведению психологического мониторинга в условиях социально-эмоциональной среды. Раскрывается роль школьного психолога как прямого наблюдателя за формированием компетенции активной гражданственности учащихся.*

Ключевые слова: *социально-эмоционалая среда, гражданственность, психолог, психологическая диагностика, чувственные компетенции.*

Annotation. *The article examines the issues of psychological diagnostics of the level of civic potential of schoolchildren. The requirements for conducting psychological monitoring in the conditions of the socio-emotional environment are defined. The role of a school psychologist as a direct observer of the formation of the competence of active citizenship of students is revealed.*

Keywords: *socio-emotional environment, citizenship, psychologist, psychological diagnostics, sensory competencies.*

Annotatsiya. *Maqolada maktab o‘quvchilarining fuqarolik salohiyati darajasini psixologik diagnostika qilish masalalari ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy-emotsional muhit sharoitida psixologik monitoringni o‘tkazishga qo‘yiladigan talablar belgilangan. Maktab psixologi o‘quvchilarning faol fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishning bevosita kuzatuvchi sifatidagi roli ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-emotsional muhit, fuqarolik, psixolog, psixologik diagnostika, sensorli kompetensiyalar.*

Bugungi kunda asosiy kompetentsiya dinamikasi sohasidagi kuzatuvlar o‘quv jarayonining muhim qismini tashkil etadi. Faol fuqarolik kompetensiyasi darajasining o‘sishini kuzatish bundan mustasno emas.

Ushbu sohadagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali diagnostika shartlaridan biri monitoring nazorati ishtirokchilari hisoblanadi. Kuzatuvning asosiy ishtirokchilari: sinf rahbari, maktab ma’muriyati, direktorning ma’naviyat va ma’rifat bo‘yicha o‘rinbosari, yoshlar tashkiloti vakili, psixolog, ota-onalar, mahalla va boshqa ijtimoiy muassasalar. Shu bilan birga, kuzatuvchilar orasida bevosita va bilvosita ishtirokchilar aniqlanadi. Bevosita ishtirokchilardan biri maktab psixologidir.

Fuqarolik salohiyati diagnostikasining faol ishtirokchilari uchun asosiy vakolatlarni aniqlash uchun diagnostika xaritasi ishlab chiqilgan. U mezonlarni, parametrlarni va ushbu hodisaning tarkibiy qismlarining vaznli qiymatini o‘z ichiga oladi. Besh parametrning har biri Bloom taksonomiyasiga asoslangan funktsional xususiyatlar bilan tavsiflangan o‘nta sohani belgilaydi: kognitiv, motivatsion-qadriyat, faoliyatga asoslangan va tashabbus-ijodiy.

Barcha elementlar birgalikda oqlangan kvalimetrik qiymatga ega bo‘ladi. Har bir kuzatuvchining o‘z shaxsiy diagnostika kartasi bor, bu fakt bir xil savolga turli tomonlardan javob berishga, malaka darajasini baholashni ob'ektivroq qilishga imkon beradi. Ushbu masalani maktab psixologining monitoring faoliyatida ijtimoiy-emotsional jihat muhitida ko‘rib chiqaylik.

Ma’lumki, ijtimoiy-emotsional muhit o‘quvchining hissiy kompetentsiyalarini shakllantirishga ta’sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar majmuasidir [1,2]. Bu jarayonda maktab psixologi ham kuzatuvchi, ham faol ishtirokchi rolini o‘ynaydi, uning ta'siri ostida o‘smirlarning atrofdagi dunyoga shaxsiy munosabati shakllanishi sodir bo‘ladi. Diagnostika o‘tkazish uchun monitoring maqsadi aniqlanadi, psixologik yordam ko‘rsatish yoki muayyan vakolatlar holatini ob'ektiv baholanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi talabalarning fuqarolik salohiyati dinamikasini kuzatish bo‘lganligi sababli, psixologik diagnostika o‘tkazishga qo‘yiladigan talablarni aniqlash kerak. Psixologik diagnostika bosqichlar bilan tavsiflanmaydi, chunki faol fuqarolik kompetentsiyasini rivojlantirish kontekstida tuzatish bevosita psixologlar tomonidan amalga oshirilmaydi. Biroq, ularning diagnostik komponenti alohida ahamiyatga ega, chunki biz o‘quvchilarning hissiy salohiyatining asosiy elementi bo‘lgan hissiy qobiliyatlarni rivojlantirish haqida gapiramiz.

Belgilangan talablarga quyidagi diagnostika talablari kiritiladi:

1) Test materialini diversifikatsiya qilish.

a) Kuzatish qulayligi uchun vaqtni tejaydigan texnologiyalar qo‘llaniladi: bir vaqtda diagnostika, test materialini raqamlashtirish. Ushbu turdagi so‘rovning kamchiliklari kognitiv funktsiyalarni kuzatishga urg‘u berishni o‘z ichiga oladi.

b) Piktografik testlar - o‘quvchilarning fuqarolik salohiyatidagi motivatsion va harakat komponentining darajasini baholash imkonini beradi. Bunday vazifalarning kamchiliklari ma'lumotnomalar asosidagi ishlarni o‘rganishga individual yondashuvdir. Xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun psixologning o‘zi fuqarolik ong xodisasining mohiyati haqida ma'lumotga ega bo‘lishi kerak.

c) Kombinatsiyalangan testlar - test materiali, shuningdek, psixologlarga tanish bo‘lgan, lekin qiziqishning shaxsiy rivojlanish qirralari haqida qo‘shimcha ma'lumotlarni o‘z ichiga olgan psixologik usullar.

2) Kvalimetrik tamoyilga asoslangan ob'ektiv diagnostika bo‘yicha psixologlarni bevosita tayyorlash.

a) Materialni ochish: o‘quvchining fikri qanday mezonlarga to‘g‘ri keladi.

b) individual kuzatish jarayonida diagnostika o‘tkazish jarayoni ma'lum bilimlarni talab qiladi - FFKning ma'lum bir funktsiyasiga e'tibor qaratish uchun qanday savollarni berish yaxshiroq, lekin ayni paytda muammoning mohiyatini ochmasdan.

Umuman olganda, eksperiment nafaqat diagnostika maqsadlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar va talablarni aniqlash, balki monitoring tamoyillarini ishlab chiqish, shuningdek, psixolog ishiga uslubiy yondashuvni o‘z ichiga olgan yo‘l xaritasini yaratish muhimligini ko‘rsatdi.

Ushbu eksperimentdagi ijtimoiy-emotsional muhit shaxsning fuqarolik salohiyatini, uning jamiyatning to‘la huquqli fuqarosi bo‘lishga tayyorligini o‘rganishning alohida jihati hisoblanadi. Bu masala bo‘yicha psixologlarning baholashi ajralmas diagnostika vositasi bo‘lib, hissiy vakolatlarni, shu jumladan fuqarolik vakolatlarini shakllantirish darajasini ob'ektiv ko‘rib chiqishga imkon beradi.

ADABIYOT

1. Gorbunova I. V. Shaxsning ijtimoiy kompetentsiyasining tuzilishi, shaxsning ijtimoiy-emotsional kompetensiyasi // Shaxs tarbiyasi. - 2021. - 3-4-son. - 41-46-betlar.
2. Kozlova E. V., Vorster A. V. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi // Fan, madaniyat, ta'lim olami. - 2009. - 7-2-son. - 178-182-betlar.

ЭМОЦИОНАЛ ТАЪЛИМ ВА УҚТИРИШ УСУЛИ

Бегматов Абдуллажон Сирожиддинович
Фалсафа фанлари доктори, профессор, Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрлар тайёрлаш институти

Аннотация. *Мақолада эмотсионал таълим жараёнида уқтириш усулидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлар ёритилади. Муаллиф психология ва педагогика фанларида эмотсионал таълим ва уқтириш усулини ёритишга ёндошувларни таҳлил қилади ва бу муаммога ўзининг шахсий муносабатини билдиради.*

Калит сўзлар*: эмотсионал таълим, тарбия, уқтириш усули, таълим самарадорлиги.*

Аннотация. *В статье освещается особенности эмоционального обучения и роль в нём метода внушения. Автор анализирует подходы к эмоциональному обучению и внушение в педагогической и психологических науках. Вместе с тем он излагает своё понимание этих феноменов.*

Ключевые слова: *эмоциональное обучение, воспитание, внушение, эффективность обучения*

Abstract. *The article highlights the features of emotional learning and the role of suggestion in it. The author analyzes approaches to emotional learning and suggestion in pedagogical and psychological sciences. At the same time, he outlines his understanding of these phenomena.*

Keywords: *emotional learning, education, suggestion, learning effectiveness.*

Таълим тизимининг самарадорлиги ҳарқандай жамиятнинг бугуни ва келажагини белгилашда энг муҳим омиллардан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам Президент Ш. Мирзиёев бу масалани доимо диққат марказида тутиб келмоқда ва унга қаайта-қайта мурожаат қилмоқда. Ўқитувчиларнинг касбий маҳоратини ошириш, уларнинг жамиятдаги мавқеи ва обрўсини юксак даражага кўтариш борасида президент қатор тадбирларни амалга оширди. Ана шу тадбирларнинг амалий натижаси ўлароқ, мамлакатимиз таълим тизими йилдан йилга юксак марраларга эришмоқда.

Айни пайтда мамлакатимиз таълим тизимини янада юксалтиришга хизмат қиладиган бир қатор тадбирлар ҳам мавжудки, уларни қанчалик тез амалга оширсак, таълим соҳасидаги ютуқларимиз яна ҳам залворлироқ бўлади. Бизнинг назаримизда ана шундай тадбирларнинг энг муҳимларидан бири эмоционал таълимни кенгроқ қўллаш ва унинг имкониятларидан унумлироқ фойдаланишдан иборат.

Эмоционал таълим моҳиятан таълим ва тарбиянинг бирлиги жараёни бўлиб, у болаларга ўзларининг эмоциялари ва ҳис-туйғуларини бошқаришни ўргатади. Бу жараён муҳим эканининг сабаби шундаки, эмоциялар ва ҳис-туйғулар инсон ҳаётида жума муҳим рол ўйнайди.

Эмоционал таълим самарадор бўлиши учун эмоция ва ҳис-туй-ғуларнинг моҳияти ва психофизиологик асосларини яхши англаб олиш лозим.

Эмоциялар ташқи таъсирга интенсив реакциялар бўлиб, улар қисқа муддат давом этади. Ҳис-туйғулар эса барқарор, давомий ва мураккаб ҳолатлар бўлиб улар тажриба ва

тафаккурга ҳамда муайян объектга асосланади. Эмоциялар физиологик даражада (масалан, имо-ишоралар ва мимикада) намоён бўлади. Ҳис-туйғулар эса чуқур кечинмалар бўлиб, мухаббат, нафрат, ғурур каби кўринишларда мавжуд бўлади ва уларнинг ҳар бири бир қатор эмоцияларни қамраб олиши мумкин.

Эмоциялар инсон бош миясининг энг қадимги тузилмаси-лимбик тизимда вужудга келади. Ҳис-туйғулар эса фақат инсонларга хос бўлиб, улар тараққиётнинг кейинги босқичларида пайдо бўлган.

Лимбик тизим бош миядаги эмоциялар, хотира, мотивация, хулқ-атвор ҳамда нафас олиш, юрак уриши сингари вегетатив функцияларни қамраб олади. Унинг энг муҳим таркибий қисмлари гиппокамп, бодомсимон жисмлар бўлиб, улардан биринчиси узоқ муддатли хотирани, иккинчиси эса қўрқув, даҳшат сингари эмоцияларни шакллантиради. Мазкур тизим реакцияларни бошқарадиган вегетатив тизим ҳамда бош мия пўстлоғи билан боғлиқ бўлиб мана шу боғлиқлик эмоционал ҳодисаларнинг когнитив жараёнлар билан боғланишини таъминлайди. Гипоталамус эса вегетатив тизим ва эндокрин жараёнларни бошқарувчи тизим ҳисобланади..

Ўқитувчилар, таълим тизими раҳбарлари малакасини ошириш бўйича ҳам мамлакатимизда улкан ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, мамлакатимизда муаллимларни қўллаб- қувватлаш, уларнинг меҳнатини рағбатлантириш узлуксиз давом эттирилмоқда. Жумладан, халқаро стандартлар асосида малака сертификати беришни йўлга қўйилди. Синовларда 86 ва ундан юқори балл олган педагоглар қўшимча 70 фоиз устама олиши белгиланди. Бизда кўпчилик мамлакатлар ҳавас қилса арзийдиган тадбирлар кўп. Шу билан бирга мазкур соҳада ҳали ишга туширилмаган имкониятлар ҳам анчагина.

Ана шундай имкониятлардан бири ўқувчиларга билим бериш, уларни ватанпарварлик ва юксак аҳлоқий сифатлар руҳида тарбиялашда юқори натижаларга эришилишини таъминлаши мумкин бўлган усулни, яъни эмоционал таълим ва ўқтириш усулини кенг қўллаш заруратидир.

Эмоционал таълимни кенгроқ қўллаш ва самарадорлигини ошириш масаласини муҳокама қилар эканмиз, бундай самарадорликни таъминлаши мумкин бўлган асосий усул ўқтириш усули эканини ёдда тутиш зарур. Айни пайтда бу усулнинг моҳияти, хусусияти ва функцияларини атрофлича ишлаб чиқиш ва амалиётда қўллаш психолог ва педагогларимизнинг эътиборидан четда қолмоқда.

Биз ўқитувчиларга методик маслаҳатлар бериш, уларнинг малакасини оширишга кўмаклашиш асосий вазифаси бўлган ва мамлакатимизда чоп этилаётган педагогогика ва психология бўйича нашр этилаётган журналларда кейинги ўттиз йил давомида бу мавзудаги материаллар чоп этилиши мумкин бўлган илмий-услубий журналларга мурожаат қилдик. Маълум бўлдики, бу журналларда биз ўрганган даврда ўқтириш мавзусига бағишланган бирорта ҳам мақола эълон қилинмаган экан. Бундай ҳолат бизни таажжублантирди.

Ўқтириш усулининг таърифи педагогика ва психология бўйича адабиётларда, қолаверса, интернетдаги мақолаларда кўплаб келтирилган. Бу таърифларнинг қисқа мазмуни ўқтиришнинг шахс онгини четлаб ўтиб онгостига таъсир ўтказиши билан боғлиқлигида. Бу таърифни кўпчилик билади, лекин уни амалда қандай қўллаш мумкинлиги ҳақидаги саволимизга мамлакатимиздаги бирор психолог ёки педагогдан жавоб топа олмадик. Бундай кўнгилсиз ҳолатнинг сабабини ҳозирча топа олганимиз йўқ.,

Ҳарқандай нутқнинг, ҳоҳ у ёзма, ҳоҳ оғзаки бўлсин, асосий вазифаларидан бири уқтириш эканида. Кундалик мулоқотлардаги уқтириш билан уқтиришнинг илмий тушунчаси ўртасидаги асосий тафовут, кундалик муносабатларда уни англанмаган ҳолатда қўллаш бўлса, бу усулнинг илмий тавсифи унинг тегишли далиллар, воситалар ёрдамида ва онгли равишда қўллашда. Бизнингча, шуни ҳам ёдда тутиш зарурки, таълим ва тарбиянинг барча усули ўқувчи ва тарбияланувчиларнинг онгига таъсир ўтказишни кўзда тутади. Маълумки, инсон психикаси икки қатлам: онг ва онгостидан иборат Жаҳондаги кўпчилик психологларнинг фикрига кўра онг психиканинг ўн фоизини ташкил қилса, онгости 90 фоизни ташкил қилади.

Ўқувчи ва тарбияланувчиларнинг онгостига таъсир ўтказиш шунинг учун ҳам муҳимки, узоқ муддатли хотира онгостида жойлашган бўлади. Унга таъсир ўтказиш усулини эгалламас эканмиз ўқувчиларга берган билимлдаримиз психиканинг юқори қатлами-онгда қолади ва орадан кўп ўтмай унутилиб кетади. Бунга кўплаб мисоллар келтириш мумкин. Онгостига тасир ўтказиши мумкин бўлган ва ўқувчиларга берилган билимларнинг узоқ мудда сақланиши мумкин бўлган усул уқтириш усулидир.

Фанда уқтириш усулининг икки тури фарқланади: педагогик уқтириш ва гипнотик, яъни гипноздаги уқтириш. Бу усул турларининг моҳияти бир хил бўлса ҳам, уларни қўллашдаги мақсад турлича бўлади. Педагогик жараёнда уқтириш усулидан фойдаланилганда кўзланадиган мақсад уқтириш объектига таълимий ва тарбиявий таъсир ўтказишдан иборат. Уқтириш гипноз жараёнида қўлланганида эса унинг объектига берилган билимлар унинг хотирасида узоқ муддат сақланишини таъминлаш кўзда тутилади. Шунингдек, уқтириш усулини беморларга нисабтан қўлланганда унинг даволовчи ёки бўлмас, тинчлантирувчи ва ухлатувчи таъсири кўзда тутилади.
Бу усулнинг объекти спортчилар бўлганида уларнинг ўзига бўлган ишончини орттириш, ғалабага ишончни юксалтириш каби мақсадлар кўзланади.

Ўтган асрнинг 20-йилларида собиқ иттифоқдаги таълим жараёнларида уқтириш усулини қўллашга жиддий аҳамият берила бошлаган эди. Ўша даврларда педагогиканинг суггестопедия деб номланган тармоғи бўлиб унинг моҳияти таълим ва тарбия жараёнларида уқтириш усулидан фойдаланишга қаратилган эди. Кейинчалик, психология фани ва унинг тармоқларига эътибор сусайган, баъзи тармоқлар эса кескин танқид остига олингандан кейин суггестопедия ҳам эътибордан четда қола бошлади. Бу ҳақда ўша даврларда уқтириш усули билан жиддий шуғулланган Е.Шварц шундай ёзган эди: “Маълумки, уқтириш англанмайдиган соҳага қаратилади ва шунинг учун баъзан, уни совет мактабида педагогик усул сифатида қўллаш мумкин эмас, деган фикрлар билдирилади. [1,81] (таржима мақола муаллифиники)

Ошкораликка кўпроқ эътибор берила бошлаган ўтган асрнинг 80-йиллари ўрталари ва охирларида гипноз ва унинг асосий воситаси бўлган уқтиришга эътибор кучая бошлаган пайтларда мен Москва шаҳрида илмий иш олиб бориш билан банд эдим. Ўша пайтларда гипноз тўғрисидаги мақтовлар ва гипноз ёрдамида ишониш қийин бўлган натижаларга эришиш мумкинлиги тўғрисидаги мақола ва рисолаларни ўқиган ва уларнинг таъсирида гипнозни ўрганишга кириша бошлаганман. Гапнинг ростини айтсам, гипнозни таниқли мутахассис ва олимлардан ўрганган бўлсам ҳам, у келтириши мумкин бўлган натижалар менга муболағадаай туюлган эди. Шундай бўлса ҳам, Ўзбекистонга қайтгандан кейин фарзандларимдан иккитасига чет тилларни гипноз ёрдамида ўргатмоқчи бўлдим. Шу мақсадда гипноз ҳолатида уларнинг онгостига чет тилларни тез ва осон ўрганишлари тўғрисида установка бердим. Бу фарзандларимдан каттароғи мактабни тугатиб

университетга кираётган пайтда она тилидан ташқари бешта, иккинчиси эса учта чет тилда эркин гаплашадиган бўлган эди. Чет тилларни ўрганишда уқтириш усулининг самарадорлиги тўғрисида изчил тадқиқотлар олиб борган олимлардан бири болгариялик мутахассис Г. Лозанов эди. [2, 19]

Уқтириш бўйича тадқиқотлар олиб борган олимларнинг аксарияти унинг онгостига таъсир ўтказиши тўғрисида ёзишади. Шу муносабат билан онгости ўзи нима, деган савол бўлиши табиий. Бу саволга жавоб топиш уқтиришнинг моҳиятини тушунишга жиддий ёрдам беради.

Психология ва унга ёндош фанларда онгостига берилган таърифлар ҳам жуда кўп. Бу таърифларни умумлаштириб унга қуйидагича таъриф бериш мумкин, деб ҳисоблаймиз: онгости онгдан ташқарида, лекин шахс психикаси доирасида юз бераётган барча психик жараёнларнинг жамланмасидир. Баъзи қомусий ва академик нашрларда онгостининг юқорида келтирилган таърифига қўшимча тарзда уни бевосита ҳиссий қабул қилиш ёки идрок қилишнинг имкони йўқлиги қўшиб қўйишади. Онгости муаммосини ўрганган баъзи олимлар у инсон психикасининг 85-90 фоизини ташкил қилишини қайд этиш билан бирга, унга фақат уқтириш усули ёрдамида таъсир ўтказиш мумкинлиги ҳақидаги хулосаларини баён қилишади. Психологияга оид адабиётларда таъкидланишича “Уқтириш усулидан моҳирона фойдаланиш таълим, тарбия ва бошқарув фаолиятининг самарадорлигини таъминлайди” {3,27} Шу муносабат билан ҳам мазкур усулни ўрганиш ва ундан самарали фойдаланиш эмотсионал таълим ва умуман таълим ва тарбия самарадорлигини ошириш муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР

1. И.Е.Шварц. Внушение в педагогическом процессе, Пермь, Книжный мир, 2009
2. Лозанов Г. Суггестология. София 1989
3. https://cyberleninka.ru/article/n/vnushenie-kak-metod-motivatsii. Обр. 07 09 2025

ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СОЦИАЛЬНО-ЭМОЦИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Вайс Элиз Юсуфовна[1], Рахимова С.А.[2], Сафарову Рохатой Гайбуллаевну[3], Гулямову Азизу Отабек кизи[4]

[1]Студентка 4-го курса Филиал РГПУ им. А.И.Герцена в г. Ташкенте Факультет: Детская психология;

[2]Старший преподаватель кафедры Дошкольного образования и коррекционной педагогики;

[3]заведующую отделом Национального института педагогики воспитания имени Кары Ниязи, доктора педагогических наук, профессора’

[4]докторантку Национального института педагогики воспитания имени Кары Ниязи

Аннотация. *В современном мире с высоким уровнем цифровизации, общество занимает социально развитые позиции, что существенно влияет на все сферы жизни, включая образование. В условиях трансформации образовательного пространства и активного внедрения информационно-коммуникационных технологий особую актуальность приобретает вопрос об использовании цифровых инструментов в социально-эмоциональном образовании детей дошкольного возраста.*

Ключевые слова: *Общество, Социальные платформы, обучение, развитие, социализация, эмоциональный интеллект, навыки*

Annotatsiya. *Raqamlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan zamonaviy dunyoda jamiyat ijtimoiy jihatdan rivojlangan pozitsiyalarni egallaydi, bu hayotning barcha sohalariga, shu jumladan ta'limga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Ta'lim makonini o‘zgartirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol joriy etish sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy-emotsional tarbiyalashda raqamli vositalardan foydalanish masalasi ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda.*

Kalit so‘zlar: *Jamiyat, Ijtimoiy platformalar, trening, rivojlanish, ijtimoiylashuv, hissiy intellekt, ko‘nikmalar*

Annotation. *In the modern world with a high level of digitalization, society occupies socially developed positions, which significantly affects all spheres of life, including education. In the context of the transformation of the educational space and the active introduction of information and communication technologies, the issue of using digital tools in the social and emotional education of preschool children is becoming especially relevant.*

Keywords: *Society, Social platforms, training, development, socialization, emotional intelligence, skills.*

Социально-эмоциональное образование (СЭО) представляет собой систематическую педагогическую деятельность, направленную на развитие у детей следующих навыков:

- осознание и понимание собственных и чужих эмоций;
- эмпатия и уважение к другим;
- навыки конструктивного взаимодействия;

- саморегуляция поведения;
- принятие решений на основе нравственных ориентиров.

СЭО признано одним из ключевых факторов успешной социализации, академической мотивации и устойчивого личностного развития ребёнка (CASEL, 2023). Особенно важным оно становится в условиях социальной нестабильности, информационной перегрузки и изменения форм семейной коммуникации. [6]

Социально-эмоциональное образование направлено на формирование у ребёнка эмоционального интеллекта, эмпатии, способности к саморегуляции, сотрудничеству и принятию ответственности. При этом цифровые технологии, будучи не целью, а средством, способны значительно обогатить педагогический арсенал при грамотной интеграции в воспитательный процесс.

В современной практике наблюдаются следующие тенденции:

- увеличение экранного времени у детей;
- снижение качества и количества живого общения;
- рост эмоциональной нестабильности, тревожности, нарушений саморегуляции;
- потребность в современных и привлекательных для ребёнка образовательных инструментах.

В связи с этим возникает необходимость пересмотра подходов к воспитанию и обучению, в том числе через внедрение цифровых технологий, способных выступать в роли поддерживающих и развивающих средств.

Caregivers' attitudes toward technology also influenced access. Grandparents or older relatives frequently expressed anxiety about children spending “too much time on screens,” especially when they could not distinguish between educational and recreational use (Chen & Lyu, 2019). In some households, access was restricted or monitored due to concerns about internet safety or potential distractions (Karimova, 2021).

2 Patterns of Digital Learning Usage

Despite varying levels of access, all participants engaged with some form of digital learning. The most commonly used platform was Maktab.uz, the national online education portal developed by the Ministry of Public Education. This platform provided video lessons, interactive quizzes, and digital textbooks aligned with the national curriculum (Maktab.uz, 2023). However, both students and teachers noted that the interface was difficult to navigate, particularly for younger children or those with low digital literacy (Karimova, 2021).

In addition to Maktab.uz, many students accessed educational content on YouTube, such as math tutorials, Uzbek literature readings, and English grammar lessons. Telegram was widely used for school announcements, homework distribution, and informal communication between teachers and students (Ministry of Public Education, 2022). In urban schools, some teachers used Zoom or Google Meet for virtual classes, especially during the COVID-19 lockdowns, although this practice had declined in frequency by the time of the study (OECD, 2021).

Left-behind children often reported learning independently. While some had older siblings or cousins who assisted them, many relied on trial-and-error or online forums to understand digital tasks (Chen & Lyu, 2019). Teachers acknowledged that they had limited time to provide individual support, especially given the large class sizes and lack of specialized training in digital pedagogy (Karimova, 2021).

Despite these challenges, several students expressed a preference for digital learning due to the flexibility it offered. They appreciated being able to revisit lessons at their own pace, particularly when they felt emotionally overwhelmed or distracted (Abdullaev & Nazirova, 2022). However, they also expressed frustration at technical difficulties and the lack of real-time feedback, which sometimes left them feeling stuck or demotivated (UNICEF, 2020).

3 Barriers and Challenges

The most persistent barrier to effective digital learning for LBC was the lack of a stable and supportive home learning environment. In households where caregivers were not digitally literate, children received little to no help with technology setup, troubleshooting, or interpretation of digital instructions (Chen & Lyu, 2019). Some children reported spending hours trying to log into a platform or complete a task, only to give up in frustration.

Another significant barrier was infrastructure. Many rural schools lacked dedicated computer labs or digital resource centers. Teachers often had to use their personal devices for instruction, and in some cases, digital materials were downloaded and printed in hard copy due to connectivity issues (Ministry of Public Education, 2022). Teachers expressed concern that students from disadvantaged backgrounds were “falling behind silently,” as their struggles with technology were not always visible in the classroom (Karimova, 2021).

Language and content design also posed problems. Much of the digital content was delivered in formal Uzbek or Russian, which was difficult for children from ethnic minority

groups or those with limited literacy skills (Abdullaev & Nazirova, 2022). Additionally, content was often theoretical and lacked interactivity, making it less engaging for children accustomed to dynamic digital environments like games or social media (World Bank, 2023).

Finally, the emotional toll of parental absence interacted with digital learning in complex ways. Several children admitted that they found it hard to concentrate or felt unmotivated to study because they missed their parents. While digital tools provided educational content, they did not replace the emotional encouragement and academic supervision that a parent might provide (UNICEF, 2020).

4 Perceived Impact on Learning Outcomes

Despite the challenges, many children and teachers acknowledged that digital tools had positively impacted learning in specific ways. Children with regular access to devices and internet reported improved confidence in certain subjects, especially where video explanations helped them grasp difficult concepts (Chen & Lyu, 2019). Self-paced learning enabled more introverted or shy students to engage with material without the pressure of a classroom environment (Abdullaev & Nazirova, 2022).

Teachers observed that digital platforms helped sustain learning continuity during school closures and absenteeism. For left-behind children who frequently traveled between relatives' homes or missed school for household responsibilities, the ability to access lessons online was particularly valuable (OECD, 2021).

However, the impact was uneven and highly dependent on contextual factors. In households where digital learning was actively supported, children performed better academically and reported higher levels of engagement (Karimova, 2021). In contrast, children without such support struggled to complete assignments, and some developed coping mechanisms such as copying answers or relying on peers (UNICEF, 2020).

The findings suggest that digital learning holds significant promise for supporting the educational development of left-behind children but must be carefully implemented and supported to address the broader socio-emotional and infrastructural challenges they face (World Bank, 2023)

Discussion

The findings of this study indicate that digital learning technologies, while offering considerable potential to support the educational development of left-behind children in Uzbekistan, currently function as a partial and uneven solution. The presence of digital tools alone does not guarantee educational inclusion or success. Instead, a range of interrelated factors—technological, pedagogical, socio-economic, and emotional—determine the extent to which digital learning can be beneficial (van Dijk, 2005).

This study reinforces the core tenets of Digital Divide Theory, which posits that disparities in access to technology, digital skills, and meaningful usage reflect and reinforce broader social inequalities (van Dijk, 2005). While the government has made notable efforts to expand digital infrastructure and online platforms, these initiatives often fail to account for the lived realities of marginalized populations. Left-behind children in rural areas continue to face significant infrastructural barriers, while those in urban areas may still lack adequate support if their caregivers are unprepared to assist with digital tasks (Karimova, 2021).

Furthermore, the findings align with Bronfenbrenner's Ecological Systems Theory, which emphasizes that a child's development is shaped by multiple layers of influence (Bronfenbrenner, 1979). The absence of parents due to labor migration disrupts the microsystem (family) and weakens the mesosystem (interaction between home and school), thereby affecting

children's ability to benefit from digital tools. Without parental encouragement or engagement, children are more likely to experience emotional disconnection and academic detachment—even if digital tools are available (Abdullaev & Nazirova, 2022).

The study also raises important questions about teacher preparedness and the role of the school. While some teachers made commendable efforts to integrate digital content, many lacked formal training in educational technology (Karimova, 2021). The absence of structured support, digital mentorship, or pedagogical guidance meant that digital learning often occurred in a fragmented and unsupervised manner. This reality points to an urgent need for capacity building among educators to ensure they can leverage digital tools effectively and inclusively (World Bank, 2023).

Another critical dimension is the emotional well-being of left-behind children. Digital learning, in its current form, does not address the social and psychological challenges posed by prolonged parental separation. While some students found comfort in the independence and flexibility that digital learning offered, many struggled with motivation and focus in the absence of parental support (UNICEF, 2020). The integration of psychosocial support services within digital education frameworks is therefore essential to make digital learning more holistic and responsive to the needs of LBC (Chen & Lyu, 2019).

Therefore, this study set out to explore how digital learning technologies are used by left-behind children in Uzbekistan and to assess their effectiveness in addressing educational inequalities. It found that while digital tools offer valuable resources and opportunities, their impact is highly uneven and contingent upon access, support systems, and the broader socio-economic context (Karimova,)

REFERENCE LIST

1. Abdullaev, I., & Nazirova, S. (2022). *Challenges faced by left-behind children in Uzbekistan: Socio-emotional and educational perspectives*. Central Asian Journal of Social Sciences, 15(2), 45-62.
2. Bronfenbrenner, U. (1979). *The ecology of human development: Experiments by nature and design*. Harvard University Press.
3. Chen, X., & Lyu, J. (2019). Digital learning and social inequalities: The impact of parental migration on children's education. *International Journal of Educational Development*, 65, 45-53. https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2018.10.007
4. Karimova, D. (2021). *Digital divide in rural Uzbekistan: Educational implications for marginalized children*. Uzbekistan Education Review, 8(1), 12-29.
5. Maktab.uz. (2023). *Maktab.uz: National digital education platform*. Ministry of Public Education, Uzbekistan. Retrieved from https://maktab.uz
6. Ministry of Public Education of Uzbekistan. (2022). *Digital Education Strategy 2030: Towards inclusive and equitable education*. Tashkent: Ministry of Public Education.
7. OECD. (2021). *Education responses to COVID-19 in Central Asia*. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/123456789
8. Trucano, M. (2016). *Using technology to improve education in developing countries*. World Bank Blogs. Retrieved from https://blogs.worldbank.org/edutech/using-technology-improve-education
9. UNESCO. (2020). *Education for sustainable development: A roadmap*. UNESCO Publishing. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000370215

10. UNICEF. (2020). *Left-behind children in Uzbekistan: The impact of labor migration*. UNICEF Uzbekistan Country Office.
11. van Dijk, J. (2005). *The deepening divide: Inequality in the information society*. Sage Publications.
12. World Bank. (2023). *Digital education in Uzbekistan: Bridging the gap*. World Bank Report No. 1452.

KITOB MUTOLAASI VOSITASIDA O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY-HISSIY BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISH

Il’yasova Dilshoda Akmal qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kitob mutolaasining o‘quvchilarda ijtimoiy-hissiy barqarorlikni shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. O‘quv jarayonida kitobxonlik nafaqat bilim va tafakkurni kengaytirish, balki o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini boshqarish, empatiya va muloqot madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida ham talqin etiladi. Shuningdek, kitob o‘qish jarayonining emotsional barqarorlik, sabr-toqat, stressni yengish va ijtimoiy moslashuvni kuchaytiruvchi psixologik omillari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *mutolaa, muloqot, kitobxonlik, hissiy barqarorlik, empatiya, o‘zini boshqarish, sabr-toqat, chidamlilik, tanqidiy fikrlash.*

Annotation. *This article highlights the role and significance of reading in developing students’ social-emotional stability. In the educational process, reading is considered not only as a means of expanding knowledge and thinking, but also as a tool for managing emotions, fostering empathy, patience, and communication skills. In addition, the psychological factors of reading that enhance emotional stability, stress management, resilience, and social adaptation are analyzed.*

Keywords: *reading, readership, communication, emotional stability, empathy, self-regulation, patience, resilience, critical thinking.*

Аннотация*. В данной статье раскрыта роль и значение чтения в формировании социально-эмоциональной устойчивости учащихся. В образовательном процессе чтение рассматривается не только как средство расширения знаний и мышления, но и как инструмент управления эмоциями, развития эмпатии, терпения и культуры общения. Кроме того, анализируются психологические факторы чтения, способствующие эмоциональной стабильности, преодолению стресса, выносливости и социальной адаптации.*

Ключевые слова: *чтение, читательская культура, общение, эмоциональная устойчивость, эмпатия, саморегуляция, терпение, выносливость, критическое мышление.*

Bugungi globallashuv va tezkor axborot oqimlari davrida ta’lim jarayonida nafaqat bilim, balki shaxsning ijtimoiy-hissiy jihatdan barqaror bo‘lishi ham dolzarb masalalardan biridir. Chunki zamonaviy jamiyatda insonning muvaffaqiyati uning akademik bilimlari bilangina emas, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishi, boshqalarning kechinmalarini tushunishi va ijtimoiy muhitga moslasha olishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘quvchilarni ijtimoiy-hissiy jihatdan tarbiyalashda kitob mutolaasi o‘ta muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish – yoshlarni intellektual va ruhiy jihatdan barkamol etishda eng muhim omildir[31].

[31] Qodirov A. Pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – B. 132.

Mutolaa inson tafakkurini boyitish bilan bir qatorda uning hissiy dunyosini shakllantiradi. Ayniqsa, badiiy adabiyot orqali o‘quvchi qahramonlarning xatti-harakatlari, kechinmalari va qarorlarini kuzatar ekan, u o‘z hayoti va tajribasi bilan qiyoslab ko‘radi. Bu esa empatiya, o‘zini boshqarish, stressga chidamlilik va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Miyaning kognitiv va hissiy qismlari o‘zaro bog‘langan bo‘lib, biri ikkinchisining faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy hissiyotlar baxt tuyg‘usini uyg‘otadi, o‘quvchining o‘qishga tayyorgarligini oshiradi va akademik muvaffaqiyatini yaxshilaydi. Inson miyasi moslashuvchan: u butun hayot davomida mashq va ta’lim ta’sirida o‘zgarish qobiliyatiga ega[32].

Ta’lim tizimida SEL (Social and Emotional Learning – ijtimoiy-hissiy ta’lim) konsepsiyasi keng qo‘llanmoqda. Bu konsepsiya orqali o‘quvchilar hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tish, boshqalar bilan to‘g‘ri muloqot qilish va o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganadilar. Kitob mutolaasi esa o‘quvchi ongiga bevosita ta’sir qiluvchi, hissiy dunyosini boyituvchi vositadir.

Ijtimoiy-hissiy ta’lim keng ma’noda quyidagi **kompetensiya, ko‘nikma va munosabatlarni egallash jarayoni sifatida tushuniladi:**

- Hissiyotlarni anglash va boshqarish.
- Boshqalar uchun g‘amxo‘rlik va e’tiborli bo‘lish.
- O‘zimiz va boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni shakllantirish.
- Mas’uliyatli qarorlar qabul qilish.
- Murakkab vaziyatlarni boshqarish.

Adabiyot qadimdan inson ruhiyatini tarbiyalovchi vosita sifatida qaralgan. Badiiy asarlardagi qahramonlar taqdiri, ularning qarorlari, hissiy kechinmalari kitobxonni chuqur o‘yga chorlaydi. Shu sababli mutolaa jarayonida:

- O‘quvchi hayotiy vaziyatlar bilan bilvosita tanishadi.
- Qahramonning o‘rni va qarorlarini baholash orqali muammolarni hal etish usullarini o‘rganadi.
- Hissiy jihatdan o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yib ko‘rish orqali empatiya rivojlanadi.
- O‘zini boshqarish va sabr-toqat kabi xususiyatlar shakllanadi.

Kitob mutolaasi insonlarning ijtimoiy-hissiy rivojiga ta’sirini quyidagi 4 ko‘rinishda berish mumkin:

- **Empatiya rivoji:** Badiiy asardagi qahramonning hayoti, xatti-harakati va hissiy kechinmalarini o‘qigan o‘quvchi o‘zini uning o‘rniga qo‘yib ko‘radi va o‘sha vaziyatga tushish orqali boshqalarning his-tuyg‘usini tushunishga o‘rganadi.
- **O‘zini boshqarish:** Qahramonlar duch kelgan qiyinchiliklarni kuzatib, o‘quvchi real hayotda ham stressli vaziyatlarda o‘zini nazorat qilishni o‘rganadi.
- **Muloqot va hamkorlik:** Mutolaa jarayonida guruhli muhokamalar tashkil etilsa, o‘quvchilar bir-birini tinglash va fikr bildirish madaniyatini o‘zlashtiradilar.
- **Chidamlilik (resilience):** Qiyin taqdirli obrazlar hayoti orqali o‘quvchi bardoshlilikni o‘rganadi, o‘z hayotida ham ijobiy yondashuvga ega bo‘ladi.

Kitob mutolaasini nafaqat darsda, balki **o‘qish klublari**, **munozara darslari**, **ijodiy topshiriqlar** orqali tashkil etish mumkin. Masalan:

- O‘quvchilar asardagi qahramon o‘rnida bo‘lsa, qanday yo‘l tutishini yozib berishi.
- Guruhda bahs-munozara: “Qahramonning qarori to‘g‘rimi yoki yo‘qmi?”.

[32] Chatterjee, N. & Duraiappah, A. K. (Tahrirlar). (2020). Ta'limni qayta ko‘rib chiqish: ta'lim tizimlari uchun ijtimoiy va hissiy ta'lim asoslarini ko‘rib chiqish. Yangi Dehli. YUNESKO.

- “Hissiyot kundaligi” – asar o‘qilganda o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini yozib boradi.

Bunda qahramonning qarori to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini tahlil qilish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, qarorlarni tahlil qilishga, ijtimoiy-hissiy jihatdan baholashga o‘rgatadi. Natijada o‘quvchilarda empatiya, ijtimoiy ong, mas’uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Bu bahs-munozara usulining pedagogik-psixologik foydalari quyida keltirib o‘tilgan:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi – o‘quvchi voqealarni bir yoqlama emas, turli nuqtayi nazardan ko‘radi. o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yib, “men qanday yo‘l tutardim?” degan savol orqali o‘zini anglash va refleksiya qiladi.

Muloqot va empatiya hosil qiladi – o‘quvchilar guruhda ishlash, fikrlarni tinglash va baholashni mashq qiladilar. Qahramonning va do‘stlarining his-tuyg‘ularini tushunishga intilib, empatiya ko‘nikmasini rivojlantiradilar.

Ijtimoiy-hissiy barqarorlikni mustahkamlaydi – qiyin vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilish mashqi bo‘ladi. Bahs-munozara davomida qizishib ketmaslik, o‘z hissiyotini nazorat qilish orqali hissiy intizom shakllanadi.

Muloqot madaniyati shakllanadi – o‘quvchilar bir-birini tinglashni, fikrni hurmat qilishni o‘rganadi.

Kitob mutolaasi o‘quvchilarning nafaqat bilim olishida, balki ularning ijtimoiy-hissiy rivojida ham muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri tanlangan asarlar va pedagogik metodlar yordamida o‘quvchilarda ijtimoiy-hissiy barqarorlikni shakllantirish, ularni hayotdagi turli vaziyatlarga tayyorlash mumkin. Shu sababli maktab ta’limida kitob mutolaasi asosida tuzilgan maxsus dasturlarni qo‘llash tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wigelsworth, M., Humphrey, N., Panayiotou, M. **Social And Emotional Learning In Primary Schools: A Review**. – *Educational Psychology In Practice*, 2021.
2. Learning Policy Institute. **Evidence For Social And Emotional Learning In Schools**. – Palo Alto, CA: Learning Policy Institute, 2023.
3. Collaborative For Academic, Social, And Emotional Learning (CASEL). **Core SEL Competencies Framework**. – Chicago: CASEL, 2020.
4. Qodirov A. Pedagogik Psixologiya Asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – B. 132.
5. *Chatterjee, N. & Duraiappah, A. K. (Tahrirlar). (2020). Ta’limni Qayta Ko‘Rib Chiqish: Ta’lim Tizimlari Uchun Ijtimoiy Va Hissiy Ta'lim Asoslarini Ko‘rib Chiqish. Yangi Dehli. YUNESKO.*

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA EMOTSIONAL INTELLEKT DARAJASINI ANIQLASH VA BAHOLASH METODIKASI

Jabbarov Ulug‘bek Abduraxmanovich
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqola bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt darajasini aniqlash va baholash metodikasiga qaratilgan. Maqolada pedagogik kasbiy tayyorgarlik jarayonida emotsional intellektning ahamiyati, mavjud baholash usullari, interaktiv testlar, so‘rovnomalar va o‘z-o‘zini baholash metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional intellekt darajasini aniqlash orqali ularning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini oshirish va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, bo‘lajak o‘qituvchilar, pedagogik tayyorgarlik, baholash metodikasi, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar.*

Annotation. *This article focuses on the methodology for identifying and assessing the level of emotional intelligence among future teachers. It highlights the significance of emotional intelligence in the process of pedagogical professional training, examining existing assessment tools, interactive tests, questionnaires, and self-assessment methods. The research findings demonstrate that determining the level of emotional intelligence of future teachers creates opportunities to enhance their readiness for pedagogical activity and to develop their social-emotional skills through practical recommendations.*

Keywords: *emotional intelligence, future teachers, pedagogical training, assessment methodology, social-emotional skills.*

Аннотация. *Статья посвящена методике выявления и оценки уровня эмоционального интеллекта у будущих учителей. В ней рассматривается значение эмоционального интеллекта в процессе педагогической профессиональной подготовки, анализируются существующие методы оценки, интерактивные тесты, анкеты и методы самооценки. Результаты исследования показывают, что определение уровня эмоционального интеллекта будущих педагогов создаёт возможности для повышения их готовности к профессиональной деятельности и развития социально-эмоциональных навыков посредством практических рекомендаций.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, будущие учителя, педагогическая подготовка, методика оценки, социально-эмоциональные навыки.*

Hozirgi kunda pedagogik kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional intellekti ularning kasbiy muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuv qobiliyati va stressga chidamliligi bilan bevosita bog‘liq ekanligi ko‘plab tadqiqotlar orqali tasdiqlangan (Goleman, 1995; Mayer & Salovey, 1997). Emotsional intellekt — bu o‘z his-tuyg‘ularini tushunish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va muammolarni ijobiy yo‘l bilan hal qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, pedagog faoliyatda muhim omil hisoblanadi (Petrides & Furnham, 2003). Shu sababli, bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional intellekt darajasini baholash va aniqlash pedagogik jarayonning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellektni baholashda interaktiv testlar, so‘rovnomalar, o‘z-o‘zini baholash metodikasi va murabbiylar kuzatuvlari samarali vositalar hisoblanadi (Bar-On, 2006). Ushbu usullar bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni aniqlash va rivojlantirish bo‘yicha asosiy ma’lumotlarni beradi, shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonini individual va jamoaviy darajada optimallashtirishga imkon yaratadi.

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt darajasini aniqlash va baholash metodikasi tahlil qilinadi, mavjud baholash vositalarining samaradorligi ko‘rib chiqiladi hamda pedagogik faoliyatda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional intellektini oshirish va ularning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash bo‘yicha amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt (EI)ni aniqlash va baholash sohasida olib borilgan tadqiqotlar ushbu kompetentsiyaning pedagogik faoliyatdagi ahamiyatini va rivojlantirish metodikalarini ko‘rsatadi. Goleman (1995) emotsional intellektni shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglashi, boshqalar bilan samarali muloqot qilishi va ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida ta’riflaydi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda EIning yuqori darajasi ularning kasbiy muvaffaqiyati va stressga chidamliligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mayer va Salovey (1997) EIni aniqlash va baholash bo‘yicha ilmiy asoslarni ishlab chiqqan bo‘lib, ular EIni to‘rtta asosiy komponent — his-tuyg‘ularni anglash, his-tuyg‘ularni boshqarish, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalar bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi. Petrides va Furnham (2003) esa bo‘lajak pedagoglarning emotsional intellektini o‘z-o‘zini baholash usullari orqali aniqlash samaradorligini tadqiq qilgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv testlar va so‘rovnomalar EI darajasini aniqlashda samarali vositalar hisoblanadi.

Bar-On (2006) va boshqa tadqiqotchilar EIni baholashda ko‘plab metodik yondashuvlarni taklif qilgan, jumladan: o‘z-o‘zini baholash shakllari, murabbiy kuzatuvlari, guruhli mashg‘ulotlar va simulyatsion vaziyatlar. Shu metodlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini aniqlash va individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga imkon beradi. Shu bilan birga, Humphrey va hamkorlari (2010) ta’kidlaganidek, pedagogik ta’lim jarayonida EIni rivojlantirish dasturlarini tatbiq etish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar ham samaradorlikni oshiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt darajasini aniqlashda turli metodik vositalarni birgalikda qo‘llash eng samarali natijalarni beradi. Bu esa pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonini individual va jamoaviy darajada optimallashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt (EI) darajasini aniqlash va baholash uchun bir qator metodik vositalar qo‘llanildi, jumladan: o‘z-o‘zini baholash so‘rovnomalari, interaktiv testlar va murabbiy kuzatuvlari. Tadqiqot natijalari bo‘yicha EIning asosiy komponentlari, ya’ni, o‘z his-tuyg‘ularini anglash, his-tuyg‘ularni boshqarish, motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalar tahlil qilindi.

1-jadval: Emotsional intellektning asosiy komponentlari bo‘yicha tadqiqot natijalari.

EI komponenti	Past daraja (%)	O‘rta daraja (%)	Yuqori daraja (%)
O‘z his-tuyg‘ularini anglash	20	50	30
His-tuyg‘ularni boshqarish	25	55	20
Motivatsiya	15	60	25
Ijtimoiy ko‘nikmalar	10	45	45

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning ko‘pchiligi o‘z his-tuyg‘ularini anglash va motivatsiya komponentlarida o‘rta darajaga ega, ijtimoiy ko‘nikmalar esa yuqori darajada rivojlangan. Shu bilan birga, his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyati ba’zi talabalarda rivojlanish uchun qo‘shimcha trening va metodik yondashuvlarni talab qiladi.

O‘z-o‘zini baholash natijalari EIning individual komponentlari bo‘yicha o‘zgaruvchanligini ko‘rsatdi, bu esa pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonida individual yondashuvning muhimligini ta’kidlaydi. Interaktiv testlar va murabbiy kuzatuvlari yordamida aniqlangan ma’lumotlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini mustahkamlash uchun qo‘shimcha amaliy mashg‘ulotlar zarurligini ko‘rsatadi. Tahlillar natijasida EI darajasini muntazam baholash va metodik qo‘llab-quvvatlash dasturlari talabalarning stressni boshqarish, muloqot va motivatsiya qobiliyatlarini yaxshilashga yordam berishi kuzatildi.

Tadqiqot natijalari bo‘yicha bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt darajasini aniqlash va baholash metodikasi samarali bo‘lib, pedagogik jarayonda individual va guruhli yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijalar kelgusida emotsional intellektni rivojlantirish bo‘yicha treninglar va interaktiv mashg‘ulotlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Ushbu tadqiqot orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda emotsional intellekt (EI) darajasini aniqlash va baholash metodikasi samaradorligini o‘rganishldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarning ko‘pchiligi o‘z his-tuyg‘ularini anglash va motivatsiya komponentlarida o‘rta darajaga ega bo‘lsa, ijtimoiy ko‘nikmalar yuqori darajada rivojlangan. Shu bilan birga, his-tuyg‘ularni boshqarish qobiliyatida ba’zi kamchiliklar kuzatildi, bu esa pedagogik tayyorgarlik jarayonida qo‘shimcha metodik yondashuvlar zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot shuningdek, interaktiv testlar, so‘rovnomalar va murabbiy kuzatuvlari yordamida EI darajasini aniqlash metodikasining samarali ekanligini tasdiqladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
2. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). *What is emotional intelligence?* In P. Salovey & D. Sluyter (Eds.), *Emotional Development and Emotional Intelligence: Educational Implications* (pp. 3–31). Basic Books.
3. Petrides, K. V., & Furnham, A. (2003). *Trait emotional intelligence: Behavioural validation in two studies of emotion recognition and reactivity to mood induction*. European Journal of Personality, 17(1), 39–57.

4. Bar-On, R. (2006). *The Bar-On model of emotional-social intelligence (ESI)*. Psicothema, 18, 13–25.
5. Humphrey, N., Lendrum, A., & Wigelsworth, M. (2010). *Social and emotional aspects of learning (SEAL) programme in secondary schools: national evaluation*. Department for Education, UK.
6. Mayer, J. D., Roberts, R. D., & Barsade, S. G. (2008). *Human abilities: Emotional intelligence*. Annual Review of Psychology, 59, 507–536.
7. Ciarrochi, J., Chan, A. Y. C., & Caputi, P. (2000). *A critical evaluation of the emotional intelligence construct*. Personality and Individual Differences, 28(3), 539–561.
8. Qualter, P., Whiteley, H. E., Morley, A., & Dudiak, H. (2007). *The role of emotional intelligence in the ability to form and maintain friendships in adolescence*. Personality and Individual Differences, 42(5), 971–982.

SPEECHIFY TEXT-TO-SPEECH SOFTWARE'S EFFECT ON LANGUAGE LEARNERS' IMPROVEMENT OF PRONUNCIATION

Madinakhon Kholmatova Oqiljon qizi
: A Study at Turan International University, Namangan
EFL/ESL teacher

Annotatsiya. *Ushbu maqolada til o‘rganuvchilarning talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishda Speechify matnni nutqqa aylantirish (TTS) dasturining samaradorligi o‘rganiladi. Maqolada TTS texnologiyasining nazariy asoslari yoritilib, uning til o‘rganishda foydaliligi baholanadi hamda Namangandagi Turan Xalqaro Universitetida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari taqdim etiladi. Tadqiqotda ishtirokchilar talaffuzni yaxshilash maqsadida Speechify dasturidan foydalandilar. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarga tushunarli va tabiiy jaranglaydigan talaffuz namunalarini taqdim etadigan Speechify til o‘rganishda foydali vosita bo‘lishi mumkin. Ushbu tadqiqot chet tilini o‘rganishda texnologiyalardan foydalanishga oid bilimlarni kengaytiradi va talaffuzni yaxshilashni istagan o‘qituvchi hamda talabalar uchun amaliy tavsiyalar beradi.*

Kalit so‘zlar: *talaffuz, til o‘rganuvchilar, matnni nutqqa aylantirish, Speechify, til ta’limi, texnologiya integratsiyasi, empirik tadqiqot, talaffuz mashqlari.*

Аннотация. *В этом исследовании рассматривается, насколько хорошо программа текст-в-речь (TTS) Speechify помогает учащимся улучшить свои навыки произношения. В статье рассматриваются теоретические основы технологии текст-в-речь (TTS), оценивается ее полезность в обучении языку и приводятся эмпирические данные исследования, проведенного в Международном университете Туран в Намангане, где участники использовали Speechify для улучшения произношения. Полученные данные предполагают, что Speechify, предоставляющий учащимся понятные и естественно звучащие модели произношения для подражания, может быть полезным инструментом для обучения языку. Это исследование дополняет растущий объем знаний об использовании технологий в обучении языку и предлагает советы преподавателям и студентам, которые хотят улучшить произношение.*

Ключевые слова: *произношение, учащиеся языка, текст-в-речь, артикуляция, обучение языку, интеграция технологий, эмпирическое исследование, тренировка произношения.*

Abstract. *The effectiveness of Speechify, a text-to-speech (TTS) program, in improving language learners' pronunciation abilities is investigated in this work. The paper explores the theoretical foundations of text-to-speech (TTS) technology, assesses its usefulness in language learning, and provides empirical findings from a study carried out at Turan International University in Namangan, where participants used Speechify to enhance their pronunciation. The results imply that Speechify, which provides learners with comprehensible, natural-sounding pronunciation models to imitate, can be a useful tool for language learning. This study adds to the expanding body of knowledge about the use of technology in language learning and offers guidance to teachers and students looking to improve pronunciation.*

***Keywords**: pronunciation, language learners, text-to-speech, Speechify, language education, technology integration, empirical study, pronunciation training.*


Introduction: Pronunciation plays a central role in language learning, influencing communication and comprehension. Traditional methods—such as listening drills and in-person coaching—remain valuable (Derwing & Munro, 2005), but advances in technology now provide alternative approaches. Text-to-speech (TTS) software enables learners to practice with natural-sounding speech models (Levis, 2007). Among TTS applications, Speechify stands out for its high-quality audio output. This study examines whether Speechify can enhance learners' pronunciation by offering consistent, comprehensible speech models (Liakin, Cardoso, & Liakina, 2015).

Literature Review: Correct pronunciation is essential for effective communication, as mispronunciations can reduce clarity and undermine confidence. Derwing and Munro (2005) showed that pronunciation directly shapes listener impressions and perceived competence. Over the past decade, technology-based tools have expanded learners' opportunities to practice pronunciation. TTS software, online platforms, and mobile apps provide access to feedback and native-like models (Levis, 2007; Neri et al., 2008). TTS technology uses advanced algorithms to convert text into natural-sounding speech. Speechify, powered by neural networks, offers clear and reliable pronunciation models. Prior research suggests that learners benefit from replicating these models, leading to improved accuracy and confidence (Liakin, Cardoso, & Liakina, 2015).

Methodology: Forty Uzbek students of varying proficiency levels at Turan International University participated in the study. Over eight weeks, they practiced with Speechify for 30 minutes daily, repeating words and texts with increasing phonetic complexity. Participants attempted to reproduce Speechify's pronunciation while reading aloud.

Data collection included pre- and post-intervention pronunciation tests, timed reading tasks for fluency, and expert evaluation of accuracy. A paired t-test assessed improvements in scores, while ANOVA analyzed variation across phonetic elements. Qualitative data were gathered through questionnaires and interviews to capture learner perceptions.

Results: As for the quantitative findings, pronunciation accuracy improved from 65% to 85% ($p < 0.01$). Fluency rose from 80 to 100 words per minute (WPM) with fewer pauses ($p < 0.01$). Overall intelligibility, rated by native speakers, increased from 3.5 to 4.5 on a 5-point scale. ANOVA confirmed consistent improvement across phonetic features. Moreover**,** in qualitative findings**,** participants reported greater confidence, better ability to imitate native speakers, and appreciation for Speechify's ease of use and instant audio feedback. Many highlighted the program's flexibility, allowing them to practice independently and at their own pace. Together, the results show Speechify's strong impact on pronunciation, fluency, intelligibility, and learner attitudes.



Discussion: The findings indicate that Speechify significantly enhances learners' pronunciation accuracy, fluency, and intelligibility. Improvements—65% to 85% in accuracy, 80 WPM to 100 WPM in fluency, and 3.5 to 4.5 in intelligibility—align with prior research on TTS effectiveness (Levis, 2007; Neri et al., 2008). Learners also expressed increased confidence and motivation, underscoring the psychological benefits of accessible, consistent pronunciation tools.

Although this study did not compare Speechify with other approaches, its outcomes demonstrate the tool's potential value in language instruction. Future research could explore comparative studies to better assess its relative effectiveness.

Conclusion: This study shows that Speechify is an effective tool for improving learners' pronunciation. By providing reliable, comprehensible models, it significantly enhances accuracy, fluency, intelligibility, and learner confidence. These results support growing evidence that TTS technology can enrich language instruction and provide practical benefits for both teachers and students. Future studies should extend this research by testing TTS across diverse learning contexts.

REFERENCES

1. Derwing, T. M., & Munro, M. J. (2005). Second language accent and pronunciation teaching: A research-based approach. *TESOL Quarterly, 39*(3), 379–397.
2. Levis, J. M. (2007). Computer technology in teaching and researching pronunciation. *Annual Review of Applied Linguistics, 27*, 184–202.
3. Liakin, D., Cardoso, W., & Liakina, N. (2015). The acquisition of pronunciation using mobile applications. In *Proceedings of the 6th Pronunciation in Second Language Learning and Teaching Conference*.
4. Neri, A., Cucchiarini, C., Strik, H., & Boves, L. (2008). The effectiveness of computer-based speech corrective feedback for improving segmental quality in L2 Dutch. *Language Learning & Technology, 12*(1), 77–99.

INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Musurmonkulov Oybek Urolovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
Yetakchi ilmiy xodimi, p.f.f.d. (PhD), loyiha a’zosi.

Annotatsiya. *Maqolada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini inklyuziv ta’lim jarayonida joriy etish masalalari yoritilgan. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan “Inson qadri uchun” g‘oyasi asosida ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilar, jumladan, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Ijtimoiy-emotsional ta’limning o‘quvchilar shaxsiy rivojlanishi, muloqot madaniyati, hamjihatlikda ishlash va emotsional barqarorlikka ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchilar malakasining yetarli emasligi, ta’lim muhitining psixologik jihatdan qulay emasligi va ota-onalar hamda mahalla bilan hamkorlikning kamligi kabi muammolar ko‘rsatilib, ularning yechimlari sifatida metodik qo‘llanmalar yaratish, pedagoglar malakasini oshirish, innovatsion ta’lim metodlarini joriy etish va oila–jamiyat hamkorligini kuchaytirish kabi yo‘llar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-emotsional ta’lim, inklyuziv ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, alohida ta’lim ehtiyojlari, pedagogik kompetensiya, psixologik muhit, ota-ona hamkorligi.*

Аннотация. *В статье освещены вопросы внедрения методик социально-эмоционального обучения в процессе инклюзивного образования в общеобразовательных школах. В стратегии развития «Новый Узбекистан» на основе идеи «Во имя чести человека» особое внимание уделяется созданию равных возможностей в образовательном процессе для всех учащихся, включая детей с особыми образовательными потребностями. Проанализировано влияние социально-эмоционального обучения на личностное развитие учащихся, культуру общения, умение работать в коллективе и эмоциональную устойчивость. Также обозначены такие проблемы, как недостаточный уровень квалификации педагогов, психологически неблагоприятная образовательная среда и слабое взаимодействие с родителями и махаллей. В качестве решений предложены разработка методических пособий, повышение квалификации педагогов, внедрение инновационных методов обучения и усиление сотрудничества семьи и общества.*

Ключевые слова: *Социально-эмоциональное обучение, инклюзивное образование, общее среднее образование, особые образовательные потребности, педагогическая компетенция, психологическая среда, сотрудничество с родителями.*

Ma’lumki Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi davlat va jamiyat hayotida inson omiliga alohida e’tibor qaratishni bosh mezon qilib oldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilinayotgan siyosiy va huquqiy qarorlarning asosida “Inson qadri uchun” degan g‘oya turadi. Bu g‘oya nafaqat iqtisodiy

islohotlarda, balki ta’lim-tarbiya tizimida ham o‘zining bevosita ifodasini topmoqda. Shu jihatdan qaraganda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib, yoshlarning nafaqat bilim olish jarayonida, balki hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi.

Bugungi global dunyoda o‘quvchilardan faqat nazariy bilim emas, balki hayotda muloqot qilish, stressni yengish, o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, hamjihatlikda ishlash, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar talab etiladi. Shu sababli ham O‘zbekistonda ta’lim siyosatini rivojlantirish jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini amaliyotga kiritish masalasi ko‘plab davlat dasturlari va qarorlarida o‘z aksini topmoqda. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” davlat dasturi doirasidagi topshiriqlar bu borada mustahkam asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

2021-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 638-sonli Qaroriga muvofiq, “Inklyuziv ta’limning maqsadi – alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat” deb belgilab berilgan.

Bu borada umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim shartlarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushini 2025 o‘quv yili yakuniga kelib 40 foizga yetkazish vazifasi rejalashtirilgan.

Yangi O‘zbekiston tarixida inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatning qisqacha rivojlanish xronologiyasini ko‘rib, shunday xulosaga kelish mumkinki, keyingi paytlarda alohida ta’lim yehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim va tarbiya berish, rivojlantirish masalasiga keng ye’tibor qaratilmoqda va sohada juda katta siljishlar kuzatilmoqda. Yuqorida sanab o‘tilgan me’yoriy-hujjatlarda keltirilgan vazifalar mamlakatimizda alohida ta’lim yehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish sohasida yangilik bo‘lishi bilan birga, ta’lim tizimi oldida turgan bir qator muammolarga yechim topish majburiyatini ko‘ndalang qo‘yadi.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etishda birinchi muammo o‘qituvchilarning yetarli malakaga ega emasligidir. Chunki ko‘p hollarda pedagoglar bilim berish jarayonida an’anaviy yondashuvdan chiqib, o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga e’tibor qaratishga bilim va ko‘nikmalar yetishmaydi.

Bu esa o‘quvchilarning emotsional ehtiyojlari yetarlicha hisobga olinmasligiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan o‘qituvchilar malakasini oshirish, ularni ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari bo‘yicha qayta tayyorlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator qarorlarida pedagoglarning zamonaviy metodlar bo‘yicha bilimini oshirish uchun maxsus o‘quv dasturlari va treninglar tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Ikkinchi muammo — o‘quvchilarning o‘zlari uchun yaratilgan ta’lim muhiti va maktabdagi psixologik muhitning yetarlicha qulay emasligidir. Ba’zi hollarda o‘quvchi bilim olish jarayonida o‘zini erkin his qilmaydi, qo‘rquv, ishonchsizlik yoki ijtimoiy bosimni boshdan kechiradi. Shu sababli ham ta’lim muassasalarida emotsional iqlimni yaxshilash, o‘quvchilarning psixologik salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda. Xususan, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish, ular uchun zamonaviy metodik qo‘llanmalar yaratish va ularga qo‘shimcha imkoniyatlar berish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi muammo sifatida ota-onalar va mahalla bilan hamkorlikning yetarlicha yo‘lga qo‘yilmaganini ko‘rsatish mumkin. Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari faqat maktab ichida emas, balki oilaviy va ijtimoiy muhitda ham mustahkamlanishi kerak. Shu ma’noda, ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish, mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi aynan shu yo‘nalishda muhim huquqiy asoslarni yaratib berdi.

Muammolar bilan bir qatorda, ularning samarali yechimlari ham mavjud. Eng avvalo, o‘quv dasturlariga ijtimoiy-emotsional ta’limga oid maxsus fanlar yoki integratsiyalashgan modullarni kiritish zarur. Bu orqali o‘quvchilar dars davomida nafaqat matematik, til yoki tabiiy fanlardan bilim oladi, balki o‘z his-tuyg‘ularini boshqarishni, boshqalar bilan muloqot qilishni va konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal etishni ham o‘rganadi.

Shuningdek, interaktiv metodlardan keng foydalanish ijtimoiy-emotsional ta’limni rivojlantirishga xizmat qiladi. Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar, guruhiy loyihalar va bahs-munozaralar o‘quvchilarni faol fikrlashga, boshqalar bilan samarali muloqot qilishga o‘rgatadi. Davlat siyosatida “Ta’lim sifati – milliy taraqqiyot garovi” degan g‘oya asosida bunday metodlarni qo‘llab-quvvatlash va ularni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish alohida vazifa sifatida belgilangan.

O‘z navbatida, o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar va amaliy dasturlar ishlab chiqish ham muhimdir. Bunday qo‘llanmalar ularning dars jarayonida ijtimoiy-emotsional yondashuvni samarali qo‘llashiga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, multimedia vositalari orqali alohida ehtiyojli bolalar uchun maxsus qo‘llab-quvvatlovchi kontent tayyorlash, onlayn platformalar orqali pedagoglarning malakasini oshirish imkoniyatlarini yaratish zarur.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini inklyuziv ta’lim jarayonida joriy etish kelajak avlodning barkamol rivojlanishi uchun muhim shartdir. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan normativ hujjatlar va dasturlar bu yo‘nalishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Eng asosiysi, o‘qituvchilar malakasini oshirish, o‘quv muhitini inklyuzivlikka yo‘naltirish, o‘quvchilar uchun sog‘lom psixologik muhit yaratish, ota-onalar va mahallalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, innovatsion metodlardan foydalanish muhim yechimlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda inson qadrini ulug‘lash g‘oyasini amalga oshirish, barcha bolalar – ularning imkoniyatlaridan qat’i nazar – hayotga tayyorgarlik ko‘ra olishlari uchun ijtimoiy-emotsional va inklyuziv ta’limni uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Demak, ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini maktablarda keng tatbiq etish – kelajak avlodni intellektual, ma’naviy va emotsional jihatdan yetuk inson qilib shakllantirishning ishonchli kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.– Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 638-sonli Qarori, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.10.2021 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.06.2024 yildagi PQ-232-sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. 25.06.2024-y.
5. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Sahhof”, 2023.
6. Muminova L.R Inklyuziv ta’limdan-inklyuziv jamiyatga // SAI. 2024. №Special Issue 35.
7. Qaxarova D.S. Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’limning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish. PhD ...diss. –T., 2019.
8. Todjibaeva K.S. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari. PhD ...diss. –T., 2025.

TA’LIMDA TENGLIK: O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN INKLYUZIV YONDASHUVLAR

Namazov Shuxrat
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti, “Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi” ilmiy-tadqiqot bo‘limi katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada mamlakatda nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’lim olish va jamiyatda to‘laqonli hayot kechirish imkoniyatlarini yaratish maqsadida qabul qilingan farmonlar, qarorlar va me’yoriy hujjatlar, shuningdek, inklyuziv ta’lim tizimini joriy etishdagi zarur chora-tadbirlar haqida so‘z boradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan innovatsion dasturlar, inklyuziv muhitni yaratish, bolalar o‘rtasida tenglikni ta’minlash masalalari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, nogiron bolalarga e’tibor, qonun va qarorlar, umumta’lim, imkoniyat.*

Аннотация. *В статье рассматриваются указы, постановления и нормативные акты, принятые в стране с целью создания возможностей для получения образования и полноценной жизни в обществе для людей с ограниченными возможностями, а также необходимые меры по внедрению системы инклюзивного образования. Будут раскрыты инновационные программы, продвигаемые президентом Ш.Мирзиёев Республики Узбекистан, вопросы создания инклюзивной среды, обеспечения равенства между детьми.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, внимание к детям с ограниченными возможностями, закон и постановления, общее образование, возможности*

Abstract. *The article will talk about decrees, decisions and regulatory documents adopted in order to create opportunities for education for people with disabilities in the country and live a full-fledged life in society, as well as the necessary measures in the implementation of an inclusive education system. Innovative programs promoted by the president of the Republic of Uzbekistan Sh.Mirziyoyev, the creation of an inclusive environment, ensuring equality between children will be revealed.*

Key words*. Inclusive education, attention to children with disabilities, laws and decisions, general education, opportunity.*

Mamlakatimizda nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlash, ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, hayot sifatini yaxshilash tizimini takomillashtirish, ularning ta’lim olishi va ish bilan bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilib, xalqimizga xos bo‘lgan mehr-shafqat hamda ezgulik tuyg‘ularini hisobga olgan holda nogironligi bo‘lgan shaxslarning muhim ehtiyoj va talablariga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli, 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli, 2020-yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6018-sonli farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim

ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12- oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-638-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-226-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish bo‘yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Mazkur hujjatlarda jamiyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan maxsus yordamga muhtoj bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga ta’lim-tarbiya berish, ularning sog‘lom bolalar qatoridan o‘rin olib o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini ko‘rsata olishiga, ma’naviy kamol topishiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab berilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarorida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ijtimoiy kafolatlarini ta’minlovchi chora-tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, ularning ta’lim-tarbiya (shu jumladan, inklyuziv ta’lim-tarbiya) olishiga xizmat qiladigan moslashuv muhitini yaratish bo‘yicha alohida vazifalar qayd etib o‘tilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha:

- alohida ta’limga muhtoj ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalari binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini turli kasblarga o‘qitish uchun zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, uskuna va jihozlar bilan ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta’limga ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish bo‘yicha inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish moslamalari, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassis) bilan ta’minlash;
- jamoatchilik o‘rtasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish;
- o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy ehtiyojlari hamda ta’lim muassasasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqqan holda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini optimalllashtirish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internetlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minlash;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan har bir bolaning inklyuziv ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish kabi vazifalar belgilangan.

Alohida ehtiyojli bolalarning imkoniyatlari cheklanganligi tufayli, alohida o‘qitilishi ularning ijtimoiylashuvini chegaralab, mustaqil hayotga tayyor bo‘lishini qiyinlashtiradi. Integratsiyalashgan, inklyuziv ta’lim – inson huquqlarining dolzarb muammosi hisoblanadi. Ko‘pgina bolalarning ota-onalari hali ham farzandning maxsus maktab-internatlarda ta’lim

olishlari tarafdori bo‘lib, u yerda bola uchun qulay sharoitlar mavjud, deb hisoblashadi. Lekin voyaga yetgan katta yoshli nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘zlarini inklyuziv ta’lim sharoitlarini boshidan kechirgan deb ta’riflab, alohida ta’limning bekor qilinishini talab qilmoqdalar. Chunki qulay, imtiyozli sharoitlarda, hamma narsa tayyor bo‘lganda moslashish, o‘z o‘rnini topish mashaqqati uzoq yillar davom etadi. Har bir bolaning ta’lim olishda teng huquqliligini ta’minlash, har qanday diskriminatsiya va kamsitishlarning oldini olishga xizmat qiluvchi inklyuziv ta’lim tushunchasining qonuniy kuchga kiritilishi uzoq kutilgan yangiliklardan biri hisoblanadi.

Shularni nazarda tutgan holda, hozirda inklyuziv ta’lim davlat siyosati darajasida ko‘rilmoqda. Integratsiyalashtirilgan ta’limga o‘tish jarayoni uchun quyidagilar amalga oshirilishi talab etiladi:

– ta’limda alohida ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga munosabatlarning o‘zgarishi;

– oilaning bunga tayyor bo‘lishi;

– maxsus maktab ta’limida bolalarni o‘qitish vaqtini qisqartirish orqali bolalarning boshlang‘ich bosqichda reabilitatsiyasini ta’minlovchi shart-sharoitlarning yaratilishi;

– maxsus maktab ta’limining malakali mutaxassislar bilan ta’minlanishi, korrektsiya va reabilitatsiya jarayonini sifatli va tezkor amalga oshirish uchun zarur jixozlar bilan ta’minlanishi;

– maxsus maktab ta’limi va oila hamkorligiga erishish, oilaning reabilitatsiya jarayonida faol bo‘lishiga erishish.

Bolalarning bilim olish huquqining kafolatlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”, “Ijtimoiy va tibbiy yordam to‘g‘risida” gi qonunlarda, nogiron bolalarni pedagogik tuzatish “O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlarda tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni shakllantirish uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

1) Normalizatsiya bosqichi (1960-1980 yillar);

2) Integratsiya bosqichi (1980-1995);

3) Inklyuziyaning shakllanish bosqichi (1996 yildan hozirgi kungacha).

Agar alohida ehtiyojli o‘quvchi maktab jamoasiga kirib, o‘quv jarayonida ishtirok etsa, lekin o‘yin va suhbatda sherik sifatida qabul qilinmasa, rasmiy integratsiya maktab tarmog‘ida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasida integratsiya bosqichi 3 shaklga ega edi:

1. To‘liq integratsiya.

2. Kichik integratsiya.

3. Profilaktik integratsiya.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirish quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

– me’yoriy-huquqiy, iqtisodiy, ilmiy-uslubiy ta’minotni ishlab chiqish;

– inklyuziv ta’lim xizmatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun erta aralashuv dasturlarini takomillashtirish.

– pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalarini tartibga solish.

Maxsus ta’limga muhtoj bolalar ta’limini rivojlantirishning hozirgi bosqichida inklyuziv ta’lim muhitini yaratish ustuvor vazifaga aylandi. Bunday sharoitda barcha bolalar ommaviy

ta’lim tizimida shunday bolaning ehtiyojlariga moslashtirilgan umumiy ta’lim dasturlari bo‘yicha birgalikda o‘qiydilar.

Inklyuziv muhitni yaratish yo‘lidagi asosiy qadamlar qatorida quyidagilar ko‘rib chiqiladi: birinchi navbatda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantirish, o‘quvchilar va ta’lim jarayonining stereotipik qarashlaridan voz kechish; maktabda inklyuziya g‘oyalari asosida muhit yaratish; maktabni jamoa sifatida rivojlantirish; raqobatga emas, balki hamkorlikka e’tibor qaratish; maktab jamoasining har bir a’zosiga ishonchni singdirish [134, b. 19].

Umumiy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim muhitini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar quyidagilardan iborat:

– o‘qituvchi tomonidan turli xil ta’lim uslublarini, individual bolalarning temperamenti va shaxsiyatini hisobga olgan holda turli xil ta’lim usullaridan foydalanish zarurligini tan olish;

– o‘quv materiallarini yangi usulda foydalanishga moslashtirish, o‘qish jarayonida bolaning mustaqil tanlovini qo‘llab-quvvatlash;

– bolalarni guruhlash uchun turli xil variantlardan foydalanish;

– sinf o‘quvchilari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash;

– bolaning rivojlanish darajasiga mos keladigan keng ko‘lamli tadbirlar, amaliy mashqlar va materiallardan foydalanish.

Inklyuziv muhitning maqsadi shaxsning rivojlanishiga e’tibor qaratish va ijtimoiy muhitning talablari va shaxsning kutganlarini qondirishdir.

Ta’lim muhiti bir qator xususiyatlarga ega bo‘lgandagina inklyuziv hisoblanadi:

– bolalarning guruh va individual mashg‘ulotlar davomida xavfsiz harakatlanishi mumkin bo‘lgan rejalashtirilgan va tashkil etilgan jismoniy makon;

– qulay ijtimoiy va hissiy muhitning mavjudligi;

– bolalarning birgalikda ishlashlari va ijobiy natijaga erishishda bir-biriga yordam berishlari uchun sharoitlar yaratilgan;

inklyuziv muhit uchun o‘qituvchilarni tayyorlash ishlarini olib borish.

Barcha bolalar inklyuziv muhitda muvaffaqiyatga erishishga qodir. Ushbu masala bo‘yicha adabiyotlarni har tomonlama tahlil qilish asosida D.Makgregor va Vogelsberg alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun quyidagi afzalliklarni keltirib o‘tgan:

– inklyuziv muhitda nogiron bolalar oddiy bolalar bilan yuqori darajadagi ijtimoiy muloqotni namoyish etadilar;

– inklyuziv muhitda maxsus qobiliyatli bolalarning ijtimoiy kompetentsiyasi va muloqot qobiliyatlari yaxshilanadi;

– alohida ta’limga muhtoj bolalar individual o‘quv rejasi bo‘yicha o‘qiydilar, buning natijasida ko‘nikma va malakalarni egallash jarayoni yanada samarali davom etadi va o‘quv yutuqlari yaxshilanadi;

– inklyuziv maktablarda guruhli ish ta’sirida o‘qitish uslubi tufayli alohida qobiliyatli bolalarning ijtimoiy idroki mustahkamlanadi (guruhlarda ishlash, bolalar uning nuqsonini emas, balki odamni ko‘rishni o‘rganadilar, shuningdek, ular va alohida ta’limga muhtoj bolalar o‘rtasidagi umumiylik borligini anglay boshlaydilar);

– nogiron bolalar va bunday nogironligi bo‘lmagan boshqalar o‘rtasidagi do‘stlik odatda inklyuziv muhitda tez rivojlanadi.

Shunday qilib, inklyuziv ta’lim muhiti – bu barcha o‘quvchilar, ularning ta’lim ehtiyojlaridan qat’i nazar, yanada samaraliroq o‘rganishlari, ijtimoiy kompetentsiyalarini

yaxshilashlari, muloqot qobiliyatlarini yaxshilashlari va jamiyatning bir qismi ekanligini his qilishlari mumkin bo‘lgan muhitdir.

Ayni paytda maxsus ta’limga muhtoj bolalarning ota-onalari faollashdi, ijtimoiy tashkilotlar tuzila boshlandi. Nodavlat jamoat tashkilotlari jamoatchilik e’tiborini nogiron bolalarni himoya qilish, ularning huquqiy maqomi masalalariga qaratishga harakat qila boshladi.

Bunday holda, ota-onalar jamoasi alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun yangi texnologiyalar va mahsulotlarni ishlab chiqishga harakat qildi.

Davlat organlari alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun yangi ijtimoiy paketlarni tashkil etish choralarini ko‘rdi. Shu bilan birga, bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarni tayyorlash sohasida ham ko‘plab islohotlar amalga oshirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5270-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6018-sonli farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-sonli qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarori.
6. D. Makgregor, Vogelsberg, “Alohida ta’limga muhtoj bolalar uchun inklyuziv muhitning afzalliklari”.

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Nosirova Dilfuza
Guliston davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Anontatsiya. *Maqolada raqamli platformalar, interaktiv darslar va o‘quv jarayonini takomillashtirish uchun innovatsion yondashuvlar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, ushbu metodlarning ta'lim sifatiga ta'siri va o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini qanday rivojlantirishi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘z: *raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, tarbiya fani, o‘qituvchilarni tayyorlash, ta'lim innovatsiyalari, pedagogik faoliyat, o‘qitish jarayoni.*

Anontation. *The article provides insights into digital platforms, interactive lessons, and innovative approaches to improving the educational process. Additionally, it explores the impact of these methods on the quality of education and how they can develop teachers' pedagogical activities.*

Keywords: *digital technologies, interactive methods, education, teacher training, educational innovations, pedagogical activity, teaching process.*

Аннотация. *В статье представлены сведения о цифровых платформах, интерактивных уроках и инновационных подходах к улучшению образовательного процесса. Кроме того, исследуется влияние этих методов на качество образования и то, как они могут развивать педагогическую деятельность учителей.*

Ключевые слова*: цифровые технологии, интерактивные методы, образование, подготовка учителей, образовательные инновации, педагогическая деятельность, процесс обучения.*

Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi diversifikatsiyalangan, gibrid, samarali va dinamik o‘quv muhitini amalga oshirish imkonini beradi. Shuning uchun raqamli texnologiyalarni auditoriyada integratsiya qilish emas, balki ularni ta’lim oluvchi tomonidan mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan tarzda qo‘llash lozim. Texnologlar tomonidan yaratilgan imkoniyatlar insonlarning yashash tarzini, bilimga munosabatda bo‘lishini va unga qanday erishishni butunlay o‘zgartirdi.

Tadqiqotimizda so‘nggi yillarda mashhurlikka erishgan quydagi xorijiy metodologiyalarni o‘quv jarayoniga tadbiq etdik.

SAMR modeli - texnologiya integratsiyasi va ta’lim texnologiyalarining eng yaxshi qo‘llanilishi bo‘yicha kuchli vosita bo‘lib, 2010-yilda ta’lim bo‘yicha tadqiqotchi Ruben Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan. SAMR modeli onlayn ta'limning to‘rtta darajasini belgilaydi, ular murakkabligi va o‘zgartiruvchi kuchi bo‘yicha quyidagicha taqdim etiladi:

- Substitution (O‘zgartirish);
- Augmentation (Ko‘paytirish);
- Modification (Modifikatsiyalash);

- Redefinition (Qayta belgilash).

Onlayn formatga o‘tishda o‘qituvchilar odatda an'anaviy materiallarni raqamli materiallarga almashtirishni o‘z ichiga olgan dastlabki ikki darajaga e'tibor berishadi: darslar va ishchi varaqlarni PDF-ga aylantirish va ularni onlayn joylashtirish yoki ma'ruzalarni videoga yozib olish va ularni asinxron o‘rganish uchun foydalanishga imkon berish. Bu strategiyalarni amalga oshirishda SAMR modeli auditoriya texnologiyasini amalga oshirish strategiyalarini to‘rt bosqichga ajratadigan asosdir.


O‘zgartirish - an'anaviy mashg‘ulotlar va materiallarni, masalan, sinfdagi ma'ruzalar yoki qog‘oz varaqlarni raqamli versiyalar bilan almashtirishni anglatadi. Tarkibda jiddiy o‘zgarishlar yo‘q, faqat uni etkazib berish usuli o‘zgaradi.

O‘qituvchilar, shuningdek, Padlet kabi ilova yordamida virtual e'lonlar taxtasini yaratishi mumkin - bu erda talabalar savollar, havolalar va rasmlarni joylashtirishlari mumkin.

Modifikatsiyalash - bu darajada o‘qituvchilar Google Classroom, Moodle, Schoology yoki Canvas kabi ta’limni boshqarish tizimidan foydalanishlari mumkin, masalan, baholarni kuzatish, talabalarga xabar yuborish, taqvim yaratish va topshiriqlarni joylashtirish kabi sinfni boshqarishning logistik jihatlarini hal qilish.

Masalan, virtual qalamkashlar talabalarni dunyoning boshqa qismlari bilan, xoh u boshqa talabalar yoki soha mutaxassislari bilan bog‘lashlari mumkin. Virtual sayohatlar talabalarga Amazon o‘rmonlari, Luvr yoki Misr piramidalari kabi joylarni ziyorat qilish imkonini beradi.

TPACK (technological (texnologik) pedagogical (pedagogik) content (mazmun) knowledge (bilimlari) - 2006-yilda Punya Mishra va Metyu Kohler tomonidan ta'lim sohasida texnologiyaning moslashuvi va ta'sirini yaxshilash uchun ishlab chiqilgan. TPACK tizimi texnologiyani joriy etishda o‘qituvchilar duch keladigan turli xil muammolarni hal qilish uchun, texnologiya bilimlari (TK), kontent bilimlari (CK) va pedagogik bilimlar (PK) ga qaratilgan(2-rasmga qarang).



2-rasm. TPACK asosi texnologiyasi

Ushbu uch turdagi bilimlarni alohida-alohida ajratib, TPACK tizimi o‘rgatilayotgan kontentning to‘g‘ri uyg‘unligini yaratishga, shuningdek, o‘qituvchining kontentni talabalarga qanday yetkazishiga e'tibor qaratadi.

TPACK modeliga ko‘ra, apparat, dasturiy ta'minot va ma'lum ilovalardan iborat maxsus vositalar, agar to‘g‘ri ishlatilsa, samarali o‘rganish uchun kuchli mexanizmni ta'minlashi mumkin. TPACK asosi texnologiyasi ko‘pincha SAMR modeli bilan taqqoslanadi, lekin ular ko‘lami jihatidan keskin farq qiladi. SAMR juda oddiy deb hisoblanganligi sababli, u ko‘p jihatlarni chuqur qamrab olmaydi.

Yaratilganidan beri TPACK nazariyasi butun dunyo bo‘ylab keng tarqaldi, professional va tadqiqot maqsadlari uchun samarali ishlatilmoqda. Shu tariqa, TPACK tizimi ta’lim texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga tatbiq etishdagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun amaliy yechim ekanligini isbotlaydi.

Ushbu texnologiya uyda nazariy materiallarni shaxsiy foydalangan holda qulay vaqtda o‘rganishga imkon beradi. Darslarda zarur ko‘nikmalar ishlab chiqiladi, tezkor o‘zgarishlar kiritiladi, mustaqil ish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklar muhokama qilinadi. 2011-yilda Clintondale High Schoolda Michigan shtatida katta eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi.

Flipped learning – bu o‘quv jarayonining tashkiliy asoslarini tubdan qayta ko‘rib chiqish g‘oyasini amalga oshirish sifatida qabul qilingan texnologiya. Bu texnologiyaning mohiyati audiovizual didaktik vositalardan foydalanish asosida sinfdan tashqari asosiy nazariy o‘quv materiallarini mustaqil ravishda o‘zlashtirish va o‘qituvchi rahbarligida sinfda yangi bilim va ko‘nikmalarni amalda mustahkamlashdan iborat. Texnologiya “teskari sinf”, “aylanma dars”, “o‘girilib o‘rganish” deb ham nomlanadi. O‘qituvchi bu texnologiya bo‘yicha dars berish jarayonida son-sanoqsiz yo‘llarni bosib o‘tadi, chunki o‘quv konspekti va maqsadlarining qaysi xususiyatlari eng foydali ekanligini aniqlaydilar. Bu texnologiya ma’ruzani darsdan tashqari vaqt ichida o‘tkazish odatda ba’zi bir elektron vositalar orqali o‘qish va amaliy dastur topshiriqlarini ko‘chirish va o‘quvchilarga kengaytirilgan o‘quv imkoniyatlarini yaratib keng o‘zgaruvchanlikni yaratmoqda.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, idrok etilgan o‘rganish onlayn va aralash ta’lim muhitlari samaradorligini o‘lchash uchun ko‘rsatkich hisoblanadi [5]. Shu sababli, raqamli o‘quv muhitida o‘quv jarayonining kognitiv, hissiy va ijtimoiy jihatlari bo‘yicha talabaning istiqbollari alohida e’tibor talab qiladi. Ushbu bayon qilingan masalalar va talabalarning istiqbollari, ya’ni ularning o‘rganish tajribasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish muhim hisoblanadi. Talabalarning bugungi bilimlari raqamli ko‘nikmalarni oshirish uchun ularning motivlarini oshiradi deb taxmin qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Иванов, Д. А., Митрофанов, К. Г., Соколова, О. В. Компетентностний подход в образовании: проблемы, понятия, инструментарий [Текст]. – М.: 2003. – 101 с.
2. Сластенин, В. А., Исаев, И. Ф., Шиянов, Е. Н. Педагогика: учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / под ред. В. А. Сластенина. – 10-е изд., перераб. – М.: Академия, 2011. – 608 с.
3. Nosirova, D. (2023). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “Pedagogik mahorat” darslari samaradorligini oshirishning shart-sharoiti. Pedagogika va psixologiya zamonaviy dunyoda: nazariy va amaliy tadqiqotlar, 2(6), 67–70.

4. Nosirova, D. (2024). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “Pedagogik mahorat” darslarida raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshirish vositasi sifatida. Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali, 4(4), 35.
5. Mo‘minova, D. K. (2022). Bo‘lajak “Texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamlashtirilgan ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, №3, 121–126.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI

Raxmatullayev Sirojiddin Azamat o‘g‘li
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu tezisda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning samarali metodlari, xorijiy tajribalari va innovatsion yondashuvlari tahlil etilgan. raqamli texnologiyalar yordamida shaxsiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonini yanada chuqurlashtirish imkoniyati asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy-emotsional ta’lim, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, virtual reallik, hissiy ong, empatiya, interaktiv ta’lim, raqamli ta’lim metodlari, xorijiy tajriba.*

Аннотация. *В данной тезисной работе проанализированы эффективные методы, зарубежный опыт и инновационные подходы к формированию социально-эмоциональных навыков с использованием цифровых технологий. Обоснована возможность углубления процесса личностного и социального развития с помощью цифровых технологий.*

Ключевые слова: *Социально-эмоциональное обучение, цифровые технологии, искусственный интеллект, виртуальная реальность, эмоциональное сознание, эмпатия, интерактивное обучение, методы цифрового обучения, зарубежный опыт.*

Abstract. *This thesis analyzes effective methods, international experiences, and innovative approaches to the development of social-emotional skills through the use of digital technologies. It substantiates the potential of digital tools to deepen the processes of personal and social development.*

Keywords: *Social-emotional learning, digital technologies, artificial intelligence, virtual reality, emotional intelligence, empathy, interactive learning, digital teaching methods, international experience.*

Kirish. XXI asrda ta’lim tizimi o‘z oldiga nafaqat bilim berishA, balki shaxsiy, ijtimoiy va hissiy rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini qo‘ymoqda. Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar (IEK) o‘quvchilarning ruhiy barqarorligi, empatiyasi, muomala madaniyati va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda hal qiluvchi omildir. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar IEKni rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o‘tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratiladi.[1]

Asosiy qism

Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar quyidagi asosiy **kompetensiyalarni** o‘z ichiga oladi:

O‘zini anglash*(self-awareness)* – shaxsning o‘z his-tuyg‘ulari, fikrlari, xatti-harakatlari, kuchli va zaif tomonlari, qadriyatlari va maqsadlarini chuqur tushunish qobiliyati.

Hissiyotlarni boshqarish*(self-management)* – stressni nazorat qilish, muammolarni hal qilish, ijobiy motivatsiyani saqlash.

Ijtimoiy anglash*(social awareness)* – boshqalarning hissiyotlarini tushunish, empatiya va tolerantlik.

Samarali muloqot (effective communication)– ijobiy munosabatlar o‘rnatish va saqlash.

Mas’uliyatli qaror qabul qilish *(responsible decision-making)* – axloqiy va ijtimoiy jihatdan to‘g‘ri yo‘lni tanlash.

CASEL (Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning) tomonidan ishlab chiqilgan model aynan shu kompetensiyalar asosida tuzilgan.[2]

Yoshlarning badiiy adabiyot orqali ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali deb tan olingan bir qator metodlarni ko‘rib chiqamiz:

Refleksiv o‘qish metodi - bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘z bilim va faoliyatiga **o‘z-o‘zini baholash, fikrlash va xulosa chiqarish** orqali faol qatnashishini ta’minlashga qaratilgan metod hisoblanadi. Dars yakunida o‘quvchi **“Men bugun nimani bildim? Qanday xulosaga keldim? Menda qanday savollar qoldi?”** kabi refleksiv savollarga javob beradi.

Rolga kirish metodi - talabalar kitobda berilgan muayyan sahnalarni jonlantirishadi va qahramonning his-tuyg‘ularini o‘zida his qilishadi. Bu usul empatiya va ijtimoiy muammolarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. **Darvoqe, eng kuchli kinoteatr bizning ongimizdadir…**

Fikrlar doirasi metodi - o‘quvchilar o‘z fikrlarini avval mustaqil o‘ylab ko‘radilar, keyin juftlikda muhokama qilib, guruh bilan baham ko‘rish, qahramonlarning his-tuyg‘ularini tahlil qilish, muammolarga yechim topish, salbiy qahramonlarga nisbatan talabalarni **“oqlovchi”** va **“qoralovchi”** guruhlarga bo‘lib tashkil qilishdir.

Adabiy terapiya metodi - talabalarga o‘z his-tuyg‘ulariga o‘xshash vaziyatlarni o‘z ichiga olgan kitoblarni tavsiya qilish. Kitob orqali qiyin vaziyatlardan chiqish yo‘llarini tushunishga yordam berish.

Debatlar va munozaralar metodi - talabalar ishtirokida kitobdagi axloqiy va ijtimoiy muammolar bo‘yicha munozaralar tashkil qilish. Masalan, **“Qahramon to‘g‘ri ish qildimi yoki yo‘q?”** degan savollar asosida bahslashish, qahramonlar va vaziyatlarni muhokama qilish.

Ijtimoiy hikoya yaratish metodi - talabalar o‘qigan asarlaridan ilhomlanib, o‘zlarining hayotiy tajribalariga asoslangan hikoyalar yozish. Bunda talabalar o‘qishi uchun adabiyotlar tanlab berish. Bu metod o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini ifodalash va tushunish qobiliyatini oshirish.

San’at va emotsiyalar mertodi - kitobdagi hissiy holatlarni rasm, musiqa yoki drama orqali ifodalash. Masalan, qahramonning hissiy holatini (xafa, xursand, ajablangan, umidsiz, hijolatli) surat orqali tasvirlash.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim tizimida o‘quvchining individual qobiliyatiga mos temp va uslubda o‘qitish; vizual, interaktiv va ko‘rgazmali materiallar orqali tushunish; geografik joylashuvdan qat’i nazar, istalgan ma’lumotni istalgan vaqtda o‘rganish, shuningdek, innovatsion kompetensiyalarni *(raqamli savodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalari)* rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi zamonaviy raqamli texnologiyalar IEK rivojiga xizmat qilmoqda:

VR/AR texnologiyalari,

Empatiya mashqlari: VR vositalar orqali o‘quvchi o‘zini boshqalarning o‘rniga qo‘yib ko‘rishi, boshqacha hayot tarzini his qilishi mumkin. Masalan, “Empathy VR” orqali nogironlar, qochqinlar yoki ijtimoiy chetlanayotgan guruhlar hayotini his etish mumkin.

AR interaktiv sahnalar: sinfda AR orqali murakkab emotsional vaziyatlar (mojaro, stress, do‘stlik)ni modellashtirib, bolalar hissiy tahlil qilishni o‘rganadi.

Mobil ilovalar,

Smiling Mind”, “Headspace” ilovalari bolalarda stressni kamaytirish, o‘z-o‘zini boshqarish va konsentratsiyani oshirishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt (AI),

AI chatbotlar yordamida o‘quvchi o‘z hissiyotlari haqida muloqot qiladi, fikrlaydi, maslahat oladi.

AI tahlil vositalari (mimikalar, ovoz, tana harakati) orqali o‘quvchilarning ruhiy holatini avtomatik aniqlab, mos ta’limiy strategiyalar taklif etadi.

Ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirishda **yangicha metodik yondashuvlar:**

Emo-game (hissiy o‘yinlar) - interaktiv o‘yinlar yordamida bolalar turli emotsiyalarni tan olish, boshqarish va ularga to‘g‘ri reaksiya bildirishni o‘rganadi.

Raqamli “Hissiyot teatri” - o‘quvchilar raqamli formatda rolli sahnalarni sahnalashtirib, ijtimoiy holatlarni tahlil qiladi (mojaro, kechirim, do‘stlik).

“Emo-podkast”lar loyihasi - o‘quvchilar o‘z hayotidagi muammolar, hissiy to‘siqlar haqida podkastlar yozadi va baham ko‘radi – bu ochiqlik va o‘zini anglashni rag‘batlantiradi.

Gamifikatsiyalangan SEL baholash - interaktiv testlar, ball to‘plash, rag‘batlantiruvchi elementlar orqali o‘quvchilarning SEL darajasi baholanadi.

Ota-ona ishtirokidagi raqamli mashg‘ulotlar - mobil ilovalar va onlayn platformalarda ota-onalarning ishtiroki bilan emotsional muomala, suhbat va hamkorlik faoliyatlari olib boriladi.

Xulosa. Raqamli texnologiyalar yordamida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni shakllantirish ta’limda sifat va mazmun yondashuvini chuqurlashtiradi. Xorijiy tajriba, ilmiy asoslangan metodlar va innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish orqali bu yo‘nalishda yangi bosqichga chiqish mumkin. Asosiy maqsad – texnologiyalar vositasida har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi, emotsional salomatligi va ijtimoiy kompetensiyasini qo‘llab-quvvatlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, O‘RQ-637-son, 23.09.2020, 36-m.
2. CASEL. (2023). *Social and Emotional Learning Core Competencies*. https://casel.org
3. Bloodworth, M. R., & Walberg, H. J. (2007). Emotional intelligence and academic achievement: A meta-analytic review. Educational Psychology Review, 19(2), 119-135.

INKLYUZIV TA’LIM JARAYONIDA IJTIMOIY-EMOTSIONAL TA’LIM METODIKALARINI JORIY ETISHDA OTA-ONALAR VA IJTIMOIY TASHKILOTLARNING O‘RNI

Shomurodova Shaxnoza Shermamat qizi[1], O‘rolov Nurbek Oybekovich[2]
[1]“InterFinance” akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi,
[2]“InterFinance” akademik litsey 2-bosqich o‘quvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish masalalari ko‘rib chiqiladi. Inklyuziv ta’lim sharoitida ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar nafaqat o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, balki turli ehtiyojlarga ega bolalarning teng imkoniyatlarda muloqot qilishi, hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishi va emotsional barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maqolada ijtimoiy-emotsional ta’limning metodologik asoslari, ota-onalar ishtirokidagi pedagogik imkoniyatlar hamda ijtimoiy tashkilotlar faoliyatining amaliy jihatlari yoritilib, inklyuziv ta’limda qo‘llashning istiqbollari ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ijtimoiy-emotsional ta’lim, kompetensiya, ota-onalar ishtiroki, ijtimoiy tashkilotlar, hamkorlik, emotsional barqarorlik.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы внедрения методов социально-эмоционального воспитания в процесс инклюзивного образования. В условиях инклюзивного образования социально-эмоциональные компетенции важны не только для личностного развития обучающихся, но и для обеспечения равных возможностей для общения, формирования навыков сотрудничества и эмоциональной устойчивости детей с различными потребностями. Также в статье освещаются методические основы социально-эмоционального воспитания, педагогические возможности с участием родителей, практические аспекты деятельности общественных организаций, показаны перспективы его применения в инклюзивном образовании.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, социально-эмоциональное воспитание, компетентность, родительская вовлеченность, общественные организации, сотрудничество, эмоциональная устойчивость.*

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati ta’limda tenglik, bag‘rikenglik, hamkorlikni qo‘llab quvvatlashga qaratilmoqda. Bunda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirish masalasi keng jamoatchilik tomonidan ijtimoiy jamiyatni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston hukumati 2025-yilgacha mamlakat maktablarining kamida 51 foizini inklyuziv maktablarga aylantirishni maqsad qilgan. Yangi tahrirda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida *“Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi”* deb belgilab qo‘yilgan.

Ijtimoiy hayotda fuqarolik jamiyatining yuksalishi inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat tushunchasini ahamiyatini yana bir bora ko‘rsatdi, bu jamiyatning barcha qatnashchilarini muttasil rivojlanishini rag‘batlantiradigan, har bir insonning qadriyatlari qabul qilinadigan

xavfsiz, bag‘rikeng odamlar jamoasini tarbiyalash sifatida talqin etiladi. Bu fenomen jamiyat rivojlanishining ma’lum, yetarlicha yuqori darajasidagina real voqelikka aylanadi.

Bizningcha, inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat – bu alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolalarni insonparvarlik tarbiyasi tamoyillari asosida, inklyuziv muhitda maqsadli ijtimoiylashuv jarayoni bilan bog‘liq hatti-harakatlar majmuasidir. U tarbiyaning qadriyatli va ijtimoiy-madaniy paradigmalaridan foydalanish yoki ularni uyg‘unlashtirish orqali mazmunning o‘zgaruvchanligiga ega bo‘lib, yosh, jins, individual-shaxsiy va guruh ehtiyojlari hamda talablariga ko‘ra inklyuziv tarbiya mazmunining turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Inklyuziv madaniyat – fuqarolik jamiyatining yuksak darajadagi belgisi bo‘lib, jamiyatning barcha qatnashchilarini muttasil rivojlanishini rag‘batlantiradigan, har bir insonning qadriyatlari qabul qilinadigan, xavfsizlik kafolatlanuvchi, bag‘rikeng odamlar jamoasi mahsulidir.

Inklyuziv-tarbiyaviy faoliyat tushunchasi keng qamrovli va ko‘p komponentli tushuncha bo‘lib, ilmiy yondashuv turidan qat’iy nazar, inklyuziv jamiyat madaniyatining fundamental asosi bo‘lib hisoblanadi.

Inklyuziv jamiyatda esa turfa hillik va rivojlanishdagi farqlar hurmat qilinadi, sotsium tomonidan qo‘llab quvvatlanadi, barchaga teng imkoniyatlar, shart-sharoitlar ta’minlanadi. Bunda ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvi, ijtimoiy tashkilotlarning qo‘llab-quvvatlashi hamda ta’lim muassasalari bilan hamkorligi inklyuziv muhitda ijtimoiy-emotsional ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillar sifatida tahlil qilinadi. Inklyuziv ta’lim sharoitida bolalarning imkoniyatlaridan qat’i nazar, ularning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish — shaxsiy o‘sish, muloqot madaniyati, hamkorlik ko‘nikmalari va emotsional barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning ona tilida o‘z fikrlarini tizimli va erkin bayon etishi, ilmiy matnlar bilan ishlash mahorati, ommaviy nutq so‘zlash qobiliyati hamda chet tillarida yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini egallashi inklyuziv va ijtimoiy-emotsional ta’limning uzviy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki bugungi globallashuv davrida inson kapitalini shakllantirishda nafaqat intellektual, balki ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ularning shaxsiy barkamolligi, jamiyatda faol ishtirok etishi va muvaffaqiyatli hayot kechirishida muhim o‘rin tutadi. Shu bois ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalarini joriy etish dolzarb masalaga aylandi. Dunyoning ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarida bu ta’lim turidan keng foydalanilib, katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim (IET) – shaxsda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, empatiya, muloqot madaniyati, hamkorlik va mas’uliyatni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Bu metodikalar bolalarda stressni yengish, qaror qabul qilish va konfliktlarni hal qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi. Ta’lim muassasalarida ijtimoiy-emotsional ta’limning muhim tayanchlaridan yana biri ijtimoiy hamkorlikdir. Ota-onalar, ta’lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyati ijtimoiy-emotsional ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu esa nafaqat o‘quvchilar, balki jamiyatning umumiy ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Finlandiya, Singapur, AQSh Ta’lim tizimida ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlari keng joriy qilingan bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiy tashkilotlarning faol hamkorligi bilan ham bog‘liq.

Ushbu ta’lim turning rivojida ota-onalarning o‘rni nihoyatda beqiyos. Chunki ular farzandlarining barcha ta’lim turlarida yaxshi natijalarga erisha olishlarida eng yaqin ko‘makdoshdirlar. Ota-onalarning uy sharoitida beriladigan tarbiya bolaning ta’lim muassasasida

o‘zini tutishi, sinfdoshlar va o‘qituvchilar o‘zaro muloqatga kirishib keta olishi, fikrlarini erkin va asosli bayon qila olishlarida niyatda muhim o‘rin tutadi. Psixologik tadqiqotlar natijasi ham shuni ko‘rsatadiki, farzandlardagi 70 foizgacha ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar oilada shallanadi. Ota-onalarning e’tibori, g‘amxo‘rligi, mehribonligi. Muloqot madaniyati va intizomiy yondashuvlari bevosita bolaning emotsional barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu ma’noda ota-onalarning ijtimoiy-emotsional ta’lim jarayoniga faol jalb etilishi bolalarda ijobiy his-tuyg‘ularni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ta’limning bu turning rivojida ijtimoiy tashkilotlarning roli ham kattadir. Ijtimoiy tashkilotlar ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda turli trening, seminar va loyihalarni amalga oshirib, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar markazlari hamda boshqa ijtimoiy institutlar orqali ota-onalar va o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligi oshadi. Ijtimoiy tashkilotlar tomonidan yaratiladigan qo‘llab-quvvatlovchi muhit bolalarning sog‘lom psixologik rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, bu hamkorlik natijasida bolalar ijtimoiy hayotga osonroq moslashadilar. Ularda yoshligidan hamkorlik va liderlik qobiliyatlari yaxshiroq rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak O‘zbekistonda ta’lim siyosatida inklyuziv muhit yaratish va ijtimoiy-emotsional ta’limni joriy etish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Inklyuziv ta’lim sharoitida bolalarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirish – ularning shaxsiy o‘sishi, muloqot madaniyati, hamkorlik va emotsional barqarorligini ta’minlaydi. Bu jarayonda ota-onalarning tarbiyaviy yondashuvi, ta’lim muassasalari va ijtimoiy tashkilotlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlarining samaradorligi ko‘p jihatdan ota-onalarning faol ishtirokiga va ijtimoiy institutlarning qo‘llab-quvvatloviga bog‘liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda inklyuziv va ijtimoiy-emotsional ta’limni uyg‘un ravishda yo‘lga qo‘yish bolalarning barkamol avlod sifatida voyaga yetishi va jamiyatning ma’naviy-axloqiy taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 oktabrdagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarori, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020 y.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 21.06.2024 yildagi PQ-232-sonli “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/232/0446-son.
12. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika (darslik). – T., “Sahhof”, 2023, 416 bet.
13. Todjibaeva k.s. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini inklyuziv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari PhD ...diss. –T., 2025
14. Mirzaeva F.T. Jismoniy imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash va ularni kasb-hunarga o‘rgatish metodikasini takomillashtirish. PhD ...diss. –T., 2018.

O‘QUVCILARDA KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY- EMOTSIONAL TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Umirova Marxabo Abdimannobovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada A.P.Nechayev va L.A.Mosunova qarashlari asosida talabalarda kitobxonlikni rivojlantirish masalalari haqidagi tadqiqotlar xususida qisqacha fikrlar bayon etiladi. Mutolaa darajalari, badiiy idrok, ijodiy tafakkur va ijtimoiylashtirish jarayonining ahamiyati ochib beriladi. Kitobxonlik orqali talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish, axborot-resurs markazlari, volontyorlar va ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, milliy qadriyatlarga asoslangan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Abstract. *This article briefly reviews research on the development of reading skills in students based on the views of A.P. Nechayev and L.A. Mosunova. The importance of reading levels, artistic perception, creative thinking, and the socialization process are revealed. Methodological recommendations have been developed to increase the social activity of students through reading, establish cooperation with information resource centers, volunteers, and parents, and introduce technologies based on national values.*

Аннотация. *В статье кратко рассматриваются исследования по развитию навыков чтения у учащихся, основанные на взглядах А.П. Нечаева и Л.А. Мосуновой. Раскрывается значение уровня чтения, художественного восприятия, творческого мышления и процесса социализации. Разработаны методические рекомендации по повышению социальной активности учащихся посредством чтения, организации взаимодействия с информационно-ресурсными центрами, волонтёрами и родителями, внедрению технологий, основанных на национальных ценностях.*

Kalit so‘zlar: *kitobxonlik, raqamli texnologiyamutolaa ijodiy tafakkur, ijtimoiylashtirish, o‘quvchi, ijtimoiy faollik, axborot-resurs markazi, volontyorlik, hamkorlik.*

Bugungi globallashuv va axborot asrida yosh avlodning tafakkuri, ma'naviyati va intellektual salohiyatini shakllantirishda kitobxonlikning o‘rni beqiyosdir. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘quvchilar uchun badiiy adabiyot nafaqat estetik zavq manbai, balki shaxsiy kamolot, ijtimoiy faollik va kasbiy yetuklikka olib boruvchi muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar, jumladan A.P.Nechayev va L.A.Mosunova ishlarida kitobxonlikning inson tafakkuri, ijodiy qobiliyatlari va ijtimoiy ongini shakllantirishdagi ahamiyati chuqur tahlil etilgan. Kitob o‘qish jarayoni orqali o‘quvchi nafaqat matnni idrok qiladi, balki o‘z fikr-mulohazasini shakllantiradi, atrofdagi voqealarga nisbatan ongli munosabat bildiradi.

Mustaqil O‘zbekistonimiz bugungi tezkor taraqqiyot davrida har tomonlama eng rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallash yo‘lidan sobitqadamlik bilan borayotgan bir davrda xalqimizning, shuningdek, kelajagimiz egalari hisoblanmish o‘sib kelayotgan yosh avlodning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi ham shunga mos holatda teran, aniq, xolis va qat’iy bo‘lmog‘i lozim. Shu bois jamiyatning mazkur talabini – g‘oyaviy-mafkuraviy

jihatdan sobitqadam avlodlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun, avvalo, kamolotning dastlabki bosqichi sifatida har bir yoshning shaxs sifatida kamol topishiga zamin tayyorlanadigan ta’lim-tarbiya jarayoniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “zamon talabi, islohotlar shiddatiga mos kadrlar tayyorlash” maqsadida keyingi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, zamonaviy kadrlar tayyorlashga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi. Tarixiy hodisalar shundan guvohlik beradiki, moddiy ehtiyojlar har bir davrda o‘ziga xos tazda namoyon bo‘laveradi, lekin ma’naviy immunitetning mustahkam bo‘lishi hamma davrlar uchun birdek qadriyat sanaladi. Aytish joizki, bugungi kunda mamlakatimizda O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi 2021-yilning dekabrida ishlab chiqilgan. Ushbu strategiya mamlakatni yanada rivojlantirishga, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda muhim o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan kompleks reja sifatida ishlab chiqilgan. Jumladan, strategiyaning Madaniyat va ma’naviyatni rivojlantirish yo‘nalishida: - milliy madaniyatni qo‘llab-quvvatlash. Kitobxolik, san’at, adabiyot va ilm-fan sohalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. - yoshlar va ijtimoiy faollikni oshirish. Xalqning madaniy rivojlanishiga ta’sir etadigan tizimli ishlanmalar yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, kitobxonlik masaniyatini yuksaltirishda tashkiliy-amaliy ishlarni olib borish va ularni zamon talablariga mos tarzda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar bazasi yaratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezedentining bu sohada ijobiyo‘zgarishlar, tub islopotlar amalga oshirishga qaratilgan 2006-yil 20-iyuldagi “Respublika aholisini axborotkutubxona bilan ta’minlashni tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori, 2011-yil 13-apreldagi “Axborotkutubxona to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 12-yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobmutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi vakitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha Kompleks choratadbirlar dasturi to‘ g‘risida”gi Qarori asosida yurtimizda keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

A.P. Nechayev tadqiqotlarida talabalarning o‘quv-bilish darajasini aniqlash orqali ularni bir nechta guruhlarga ajratadi Nechayev o‘z: badiiy matnni to‘laqonli idrok eta oladigan, o‘qiganlarini sust tushunadigan, matnga shaxsiy munosabat bildira olmaydigan va tasavvuri sust rivojlangan talabalar. Bu o‘quvchilarni yondashuv kitobxonlikni rivojlantirishda differensial va individual yondashuv zarurligini asoslaydi. Aynan shu sababli, har bir talabaning o‘quv ehtiyoji, qiziqishi va bilish qobiliyati asosida mutolaa faoliyatini tashkil etish talab etiladi.

L.A. Mosunovaning tadqiqotlarida esa badiiy adabiyotning o‘quvchi (talaba) shaxsini shakllantirishdagi tarbiyaviy va estetik imkoniyatlari chuqur yoritiladi. Olimaning fikricha, badiiy matnni idrok etish jarayonida qayta tiklovchi va ijodiy tafakkur faollashadi, bu esa talabalarda motivatsion resurslarning oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, adabiyot orqali ta’lim jarayonining insoniylashtirilishi, shaxsiy yondashuvga asoslangan ijodiy faoliyat bosqichma-bosqich shakllanishi ta’minlanadi. Bu yondashuv badiiy adabiyotning nafaqat bilim, balki tarbiya beruvchi vosita sifatida ahamiyatini ko‘rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarni o‘qish tartibiga doir fikrlar quyidagilardan iborat. Bunda, O‘qish jiddiy va chuqur fikrli bo‘lmog‘i lozim. Quyidagilar muhim hisoblanadi. O‘qib chiqilgan materiallarni tahlil qilish, tushunarsiz atama va tushunchalar mohiyatini aniqlash, muhim bo‘lgan savollarga javob axtarish kabilar. Barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Binobarin, aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma’naviy olamini boyitadi. Yaxshi kitob eng murakkab savollarga javob topishga

ko‘maklashadi. “NOP World” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda odamlar haftasiga 16,6 soat vaqtini televizor ko‘rishga sarflasa, 8,9 soatni kompyuter qarshisida o‘tkazadi, 6,5 soatni esa mutolaaga ajratadi. 2016 yilda haftasiga eng ko‘p kitob o‘qiydigan mamlakatlar ro‘yxatida Hindiston — 10,7, Tailand — 9,4, Xitoy — 8, Filippin — 7,6, Chexiya — 7,4, Rossiya — 7,1, Shvesiya — 6,9, Fransiya — 6,9 va Vengriya — 6,8 soat bilan yuqori o‘rinlarni egalladi.

